MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE
AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE
AND LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI

ZAMONAVIY DUNYODA SOTSIOLOGIYA VA AMALIY PSIXOLOGIYA MUAMMOLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi

materiallari

2025

7-MAY

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

ZAMONAVIY DUNYODA SOTSIOLOGIYA VA AMALIY PSIXOLOGIYA MUAMMOLARI

(“Problems of sociology and applied psychology in the modern world”

«Проблемы социологии и прикладной психологии в современном мире»

«Modern dünyada sosyoloji ve uygulamalı psikolojinin sorunları»

«Қазіргі әлемдегі әлеуметтану және қолданбалы психология мәселелері»)

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
M A T E R I A L L A R I**

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 301.01
KBK: 60.5
Z 25

Zamonaviy dunyoda sotsiologiya va amaliy psixologiya muammolari [Matn]: to‘plam / Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 418 b.

Mazkur to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida «Zamonaviy dunyoda sotsiologiya va amaliy psixologiya muammolari» mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallaridan iborat.

Anjuman O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yilda xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnikaviy tadbirlar rejasiga muvofiq hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, xorijiy universitetlar hamda ilmiy tatqiqot markazlari hamkorligida tashkil etilgan.

Ilmiy to‘plamda respublikamiz hamda xorijiy mamlakatlar oliy o‘quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, sotsiologiya va amaliy psixologiya va ijtimoiy fanlar yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlar, doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilar hamda iqtidorli talabalarining ilmiy maqolalari jamlangan.

To‘plam uchun mas’ullar:

Mas’ul muharrir: Sh. Sirojiddinov filologiya fanlari doktori, Akademik.

Ilmiy muharrirlar: O. Jamoliddinova pedagogika fanlari doktori, professor; I. Aslonov psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar: S. Mexammedova filologiya fanlari doktori, professor; R. Sabirova psixologiya fanlari nomzodi, professor (Qozog‘iston).

Tahrir hay’ati: V. Sattorov pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, A. Buranov filologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD), Boboyor To‘raev, psixolog, katta o‘qituvchi; F. Fayziyeva sotsiologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD), Luiza Amirova katta o‘qituvchi; V. Sattorov pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, G. Jobborova katta o‘qituvchi, F. Karimov katta o‘qituvchi, B. Hayitboyev o‘qituvchi .

Tuzuvchilar: I. Aslonov, A. Buranov, F. Fayziyeva, G. Jobborova, Luiza Amirova

Sahifalovchi va dizayner: Boboyor To‘rayev, psixolog, katta o‘qituvchi

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

ISBN 978-9910-06-587-3

© Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2025.
© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI
Akademik, Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich (O‘zbekiston) 13

PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR MEHNAT UNUMDORLIGINING SOTSIOLOGIK TAHLILI
Alikariyev Nuriddin Safarkarievich (O‘zbekiston).....15

O‘ZBEKISTONDA SOTSIOLOGIYA FANINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich (O‘zbekiston).....20

OILAGA PSIXOLOGIK XIZMATNI KO‘RSATISHGA KONSEPTUAL YONDASHUV ASOSLARI VA ZARUR TAMOYILLAR
Akramova Feruza Akmalovna (O‘zbekiston).....24

BAYKAN SEZER'İN DOĞU TOPLUMLARININ SORUNLARINI ANLAMA KONUSUNDAKİ FİKİRLERİNİN ÖZELLİĞİ
Hayati TÜFEKÇİOĞLU, (Türkiye) 29

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ ИДЕИ БАЙКАНА СЕЗЕРА В КОНТЕКСТЕ КОНФЛИКТА МЕЖДУ ВОСТОКОМ И ЗАПАДОМ
Ebulfez Süleymanlı, (Türkiye), Шебалина Ольга Андреевна, (Qazaqistan) 33

INSONIYLIKNING KUCHI, MUHABBAT SARMOYASI VA EZGULIK STRATEGIYASI
Kamol Yavuz Ataman, (Türkiye).....42

ЦИФРОВЫЕ СПОСОБЫ МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКОЙ КОММУНИКАЦИИ В АЗЕРБАЙДЖАНСКОЙ СЕМЬЕ
Ахундзаде Умай Туфан гызы, (Азербайджан).....47

TURKIY XALQLAR FALSAFASI: ONTOLOGIYA
Buranov Anvar Korabaevich (O‘zbekiston).....51

I SHO‘BA.
ZAMONAVIY JAMIYAT VA SOTSIOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI

ТРАНСФОРМАЦИЯ ЦИРКУЛИРОВАНИЯ СЛУХОВ В УЗБЕКИСТАНЕ В СОВРЕМЕННЫЙ ПЕРИОД
Сеитов Азамат Пулатович (O‘zbekiston).....56

GÖÇ VE ÇOKKÜLTÜRLÜLÜK: UYUM MU, ÇATIŞMA MI?
Hamza Ateş, (Türkiye) 59

IJTIMOIY GERONTOLOGIYANING SOTSIOPSIXOLOGIK JIHATLARI
Sodiqova Shohida Marxaboevna (O‘zbekiston) 65

TA’LIM SIFATINI BOSHQARISH TIZIMINI YARATISHNING SOTSIAL TAMOYILLARI
Alikariyeva A’loxon Nuriddinovna (O‘zbekiston) 68

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ BIG DATA ДЛЯ АНАЛИЗА ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ И СОЦИАЛЬНЫХ ТЕНДЕНЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ
Файзиева Фарагат Бахтияровна (O‘zbekiston) 73

РОЛЬ СЕМЬИ И ТРАДИЦИОННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПОДДЕРЖАНИИ СТАТУСА ПОЖИЛЫХ В УЗБЕКИСТАНЕ
Рахимова Машкура Инамжановна (O‘zbekiston) 80

SPORT SOTSIOLOGIYASINING EVROOSIYO MAYDONI
Gonashvili Aleksandr Sergeevich (Rossiya) 87

TÜRKİYE’DE MÜZİK SOSYOLOJİSİNİN TARİHSEL GELİŞİMİ VE GÜNCEL KONULARI
Ecem Tuğçe Akbulut (Türkiye) 89

ЯЗЫКОВАЯ СИТУАЦИЯ В СЕМЕЕ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД НА СТАТУС КАЗАХСКОГО ЯЗЫКА
Молдагазинова Жулдыз Маратовна (Qazaqistan) 96

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA TADBIRKORLIK SOTSIOLOGIYASINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI
Nazarova Nilufar Jo‘rayevna (O‘zbekiston) 98

O‘ZBEKISTONDA JAMIYAT IJTIMOIY KONSOLIDATSIYASI VA UNI MUSTAHKAMLASHDA MA’NAVIY-MA’RIFIY DASTURLARNING O‘RNI
Shaumarova N.K., Ahmedova F.M. (O‘zbekiston) 101

YAPAY ZEKÂNIN PSİKOSOSYAL İZLERİ
Selenay Şahin (Türkiye) 105

YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SOTSIOMETRIK O‘LCHASH MEZONLARI
Xakimova Anora Karimovna (O‘zbekiston) 108

YOSHLAR IJTIMOIY KAPITALI RIVOJLANISHINING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI
Xo‘jamqulov Adham Qo‘chqor o‘g‘li (O‘zbekiston) 111

ALGORITHMIC SPACES: THE POWER OF SOCIAL MEDIA IN SHAPING URBAN MEMORY
Beyza Özer (Türkiye) 115

ҚОҒАМДЫ ЗЕРТТЕУДІҢ ФИЛОСОФИЯЛЫҚ АСПЕКТІЛЕРІ
Әділхан Ескендір, Аринов Ерлан Кенжебаевич (Qazaqistan) 119

YANGI O‘ZBEKISTONDA, OILA MUSTAHKAMLIGINING ASOSIY OMILLARI
Razzakova Nargis Yuldashevna (O‘zbekiston) 121

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ НЕФОРМАЛЬНОЙ ЗАНЯТОСТИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ
Исламбаев Равшанбек Исламбай угли (O‘zbekiston) 124

TALKOT PARSONSNING FUNSIONALIZM NAZARIYASI
Ibragimov Jasurbek Ilhomjon o‘g‘li (O‘zbekiston) 128

AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH - ZAMONAVIY DAVLATNING FUNKSIYASI SIFATIDA
Boboev Sherzod Norkuzievich (O‘zbekiston) 132

HARBIY XIZMATDA AXLOQ, INTIZOM VA HUQUQIY MAS’ULIYAT MASALALARI
Farida Mirjavxarova, Feruza Ahmedova (O‘zbekiston) 134

OILA KICHIK IJTIMOIY GURUH SIFATIDA: NAZARIY YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TENDENTSIYALAR
Abdug‘ofurova Gulziyo Farrux qizi (O‘zbekiston) 138

GENDER, EQUALITY, AND FEMINISM: THEORETICAL AND PRACTICAL PERSPECTIVES
Mardiyeva Malika Abduvaliyevna (O‘zbekiston) 141

FROMMNING «SOG'LOM JAMIYAT» ASARIDA ERKINLIK, MUHABBAT VA INSONIY QADRIYATLAR TALQINI
Maxsimova Madinabonu Maxtum qizi, Askaraliyeva Nazokat Mirzatilla qizi (O‘zbekiston) 143

II-SHO‘BA.
AMALIY PSIXOLOGIYA VA ZAMONAVIY DUNYO

ZIGMUND FREYD G‘OYALARINING BADIIY ADABIYOTGA TA’SIRI XUSUSIDA
Aslonov Ilkhom Nizomovich (O‘zbekiston) 146

CURRENT SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF MODERNITY
Spiridonov Yaroslav Vyacheslavovich, Savratskaya Elena Yurievna, Gonashvili Aleksandr Sergeevich (Rossiya) 150

STUDY OF SANOGENE AND PATHOGENIC PROPERTIES IN APPLIED PSYCHOLOGY
Abdurakhmonova Zukhra Abdurakhman kizi (O‘zbekiston) 153

БІЛІМ БЕРУДЕГІ ӘЛЕУМЕТТІК - ПСИХОЛОГИЯЛЫҚ ҚЫЗМЕТ: МӘСЕЛЕЛЕР МЕН ДЕРЕКТЕР
Сатиева Шолпан Серикбосыновна (Qazaqistan) 158

ZAMONAVIY SHAXSNING PSIXOLOGIK HOLATIGA SUN’IY INTELLEKTNING TA’SIRI
To‘rayev Boboyor Baxtiyorovich (O‘zbekiston) 162

JAMIYATIDA OILAVIY AJRIMLAR SABABLARI VA ULARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI
Karimov Farxod Toshtemirovich (O‘zbekiston) 166

RAQAMLI ASRDA PSIXOLOGIK SALOMATLIK: IJTIMOIY TARMOQLAR VA INSON RUHIYATIGA TA’SIRI
O‘razaliyeva Sevinch Marat qizi, Amirova Luiza Maratovna (O‘zbekiston) 169

O‘SMIR QIZLARDA STRESS HOLATI XUSUSIYATLARININING PSIXOLOGIK TAXLILI
Meliyeva Sabina, Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi (O‘zbekiston) 172

QIZLARNI ERTA TURMUSHGA BERISHNING PSIXOLOGIK SABABLARI
Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi (O‘zbekiston) 175

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ БУЛЛИНГА
Амирова Луиза Маратовна (O‘zbekiston) 178

BOLALARDA KO‘P TILLILIK VA UNING O‘ZIGA XOSLIGI BLINGVIZMNI SHAKLLANISHI
Giyasova Nozimaxon Qahramon qizi (O‘zbekiston) 181

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN BOG‘LIQLIGI
Sharifxo‘jayeva Aziza, Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi (O‘zbekiston) 186

FARZAND TARBIYASIDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR
Mamasodiqova Muhayyo, Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi (O‘zbekiston) 188

СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ
Алимбаева Роза Тогайовна, Баймуканова Маржангуль Токтаровна, Барикова Алёна Рудольфовна (Qazaqistan) 192

BOLALARNING PSIXOLOGIK BUZILISHLARIDA GADJETLARNING PSIXOLOGIK TA’SIRI
Karimova Madina Xolmurotovna, Nishanboeva Mahbuba (O‘zbekiston) 195

IJTIMOIY TA'SIR VA KONFORMIZM: ODAMLAR NIMA UCHUN KO'PCHILIKKA ERGASHADI
Hamdamova Gulsanam Mahmudjon qizi (O'zbekiston) 198

PSIXOANALIZDA SHAXS MUAMMOSI
Axmedova Marjona Umarbek qizi, **Giyasova Nozima (O'zbekiston)** 202

STRESSNING GLOBAL O'SISHI VA RUHIY SALOMATLIK MASLAHATLARI
Urishboyeva Gulsanam G'ulom qizi (O'zbekiston) 204

SUN'IY INTELLEKT ALDASHI MUMKINMI? IJTIMOIY PSIXOLOGIYA NUQTAI NAZARIDAN TAHLIL
Turaev Boboyor Baxtiyarovich, Ochilova Moxina Bexzod qizi (O'zbekiston) 208

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHI XOTIRASINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK O'YINLARNING TA'SIRI
Shaumarova Iroda Turg'un qizi (O'zbekiston) 210

VOYAGA YETMAGAN YOSHLAR ORASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA`MINLASH
Mumindjonova Madina Abdurazzoqovna (O'zbekiston) 214

TAFAKKURNING MEHNAT FAOLIYATIDA VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI
Xasanova Sevinch Ravshanbek qizi, Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi (O'zbekiston) 217

XOTIRANI EKSPREMINTAL O'RGANISH
Karimova Madina Xolmurotovna, Napasova Negina Nodirovna (O'zbekiston)...220

III SHO'BA:
TA'LIM-TARBIYA METODOLOGIYASI VA PEDAGOGIK MUAMMOLAR

ГОТОВНОСТЬ СПЕЦИАЛИСТОВ К ОКАЗАНИЮ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ И ТЬЮТОРСКОГО СОПРОВОЖДЕНИЯ В РОССИЙСКОМ ОБРАЗОВАНИИ
Быстрова Юлия Александровна, Шеманов Алексей Юрьевич, Самсонова Елена Валентиновна (Россия) 223

КОУЧИНГОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПЕДАГОГОВ-ЛОГОПЕДОВ
Муминова Лола Рахимовна (O'zbekiston) 226

ҚОҒАМНЫҢ ҚҰҚЫҚТЫҚ САНАСЫН АРТТЫРУДАҒЫ АБАЙ ҚҰНАНБАЙҰЛЫНЫҢ ҚҰҚЫҚТЫҚ КӨЗҚАРАСТАРЫНЫҢ МАҢЫЗЫ
Газизова Назигул Слямболовна (Qazaqistan) 231

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI TA’LIM OLUVCHILAR SOG‘LOM TURMUSH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna (O‘zbekiston) 235

ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ҮДЕРІСТЕ ЖОБАЛАУДЫ ҚОЛДАНУ МҮМКІНДІКТЕРІ
Бейсенбекова Гүлмира Бекінқызы, Тұрғанбай Алтынай Тохмаханбетқызы (Qazaqistan) 245

ИНКЛЮЗИВТІ БІЛІМ БЕРУ: ЗАМАНАУИ ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ТӘЖІРИБЕЛЕР МЕН ЕНГІЗУ МӘСЕЛЕЛЕРІ
Әшім Аружан Мақсұтқызы (Qazaqistan) 248

TALABALAR FAOLIYATINING MUSTAQIL TA'LIM OLISHGA ERISHISHDAGI NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI
Vaxob Naqshbandovich Sattorov (O‘zbekiston) 251

TA’LIM MAQSADLARINI DARS JARAYONIDA ANIQLASHNING DOLZARBLIGI
Vaxob Naqshbandovich Sattorov (O‘zbekiston) 254

ФАКТОРЫ РИСКА ОБРАЗА ЖИЗНИ ДЕТЕЙ ГРУППЫ РИСКА И ИХ ОТНОШЕНИЕ К ЗДОРОВОМУ ОБРАЗУ ЖИЗНИ
Исраилова Нодира Ачилбаевна (O‘zbekiston) 256

HARAKAT FAOLLIGIGA ERISHISHDA “MILLIY HARAKATLI O‘YINLAR” NING AHAMIYATI
Alimboeva Roziya Davulovna (O‘zbekiston) 260

SPORT TO‘GARAKLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI
Tulenova Xolida Bekturganovna (Qazaqistan), Alimboeva Roziya Davulovna (O‘zbekiston) 263

VATANIMIZDA “JISMONIY TARBIYA VA SPORT”NING RIVOJLANISHI VA TA’LIMDAGI AHAMIYATI
Alimboeva Roziya Davulovna (O‘zbekiston) 266

HOZIRGI YOSH OILALARGA O‘RNAK BO‘LA OLADIGAN MUKAMMAL OILA TASVIRI “ OYBEK VA ZARIFA” OILASI TIMSOLIDA
Boyqobilova Dilbar Fahriddin qizi, Jobborova Gulnoza Kadamovna (O‘zbekiston) 270

OILA TARBIYASINING BOLA SHAXSI SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI
Rustamova Aziza Akmal qizi, Jobborova Gulnoza Kadamovna (O‘zbekiston)....275

YUSUF XOS HOJIBNING «QUTADG‘U BILIG» DOSTONI VA UNING BARKAMOL SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI
Jo‘raeva Sohibjamol Norqobilovna, Karimova Madina Xolmurotovna (O‘zbekiston) 279

“BURHONIDDIN MARG‘INONIYNING “AL-HIDOYA” ASARIDA INSON HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI: PEDAGOGIK YONDASHUV”
Botirov Bobirmirzo Mirodiljon o‘g‘li (O‘zbekiston) 282

MATBUOT VA NASHRIYOT TERMINLARINI TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI
Bekmurodov Tog‘oymurod Panjiyevich (O‘zbekiston) 285

OTA-ONALAR ORASIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH
Farmonova Diyora (O‘zbekiston) 289

SHARQ ALLOMALARINING TABIAT VA EKOLOGIYA HAQIDAGI FIKRLARI
Matnazarova Karomat Otaboevna, Yergasheva Nargiza G‘ofurjon qizi (O‘zbekiston) 292

INKLYUZIV TA’LIMGA JALB QILINGAN NUTQIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI MUMTOZ MUSIQA ASARLARI ASOSIDA KORREKSIYALASH
Yuldoshev Umidjon Yuldoshevich (O‘zbekiston) 297

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIGA AN’ANAVIY XONANDALIK ASARLARINI O‘RGATISHDA ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR
Jumayeva Mohiniso Sa’dullayevna (O‘zbekiston) 299

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARI O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIK-LARNI OLDINI OLISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI
Shamshimetov Timur Tashtemirovich (O‘zbekiston) 302

IV SHO‘BA:
FALSAFA, TARIX VA DINSHUNOSLIK FANLARINI O‘QITISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

POLOVES-QIPCHOQ TILLARIGA OID DINIY MANBALAR VA TEONIMLAR TAHLILI
Buranov Anvar Korabaevich (O‘zbekiston) 307

DINSHUNOSLIK FANINI O‘QITISHDA BURHONIDDIN MARG‘INONIY ILMIY MEROSINING AHAMIYATI
Botirov Bobirmirzo Mirodiljon o‘g‘li (O‘zbekiston) 311

ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI
Ibrogimova Gulbaxor Eshmamatovna (O‘zbekiston) 313

INSON VA JAMIYAT HAYOTIDA AXLOQNING O‘RNI
Ibrogimova Gulbaxor Eshmamatovna (O‘zbekiston) 314

“YANGI O‘ZBEKISTON ORZUSI G‘OYASI ASOSIDA O‘QUVCHILARNI VATANPARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BOY MA’NAVIY MEROSIMIZDAN FOYDALANISH
Baxtiyarova Madinabonu Ikrom qizi (O‘zbekiston) 317

KONVERGENSIYA TAMOYILLARINING HOZIRGI KUNDAGI AKTUALLIGI
Xaytboyev Boburjon Xamzayevich (O‘zbekiston) 319

KONVERGENSIYANING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI
Xaytboyev Boburjon Xamzayevich (O‘zbekiston) 323

ZAMONAVIY QOZOG‘ISTONDA ISLOMIYLASHUV JARAYONINING FALSAFIY TAHLILI
Ergashev Kamoliddin Erkin o‘g‘li (O‘zbekiston) 327

ДІН ЖӘНЕ ҚОҒАМ: ӨЗАРА БАЙЛАНЫС
Маханбетқызы Жанерке (Qazaqistan) 329

ДІННІҢ ЖАСТАР ТӘРБИЕСІНДЕГІ РӨЛІ
Насипова Асель Саятовна (Qazaqistan) 333

МАХАББАТ БОЛМЫСТЫҢ КӨРІНІСІ МЕ, ӘЛДЕ ҚИЯЛДЫҢ ЖЕМІСІ МЕ?
Зулхарова Асел (Qazaqistan) 336

РУХАНИ КЕМЕЛДІККЕ ЖӘНЕ ШЫНАЙЫ БАҚЫТҚА ЖЕТУ ЖОЛЫ МӘСЕЛЕЛЕРІН ТАЛДАУ
Жолдасбаева Ақнұр Райымдек қызы (Qazaqistan) 339

ЖОҒАРЫ ОҚУ ОРЫНДАРЫНДА ФИЛОСОФИЯНЫ ОҚЫТУДЫҢ МАҢЫЗЫ
Серікова Мадина Ерденқызы, Аринов Ерлан Кенжебаевич (Qazaqistan).....343

HARBIY SOTSIOLOGIYANING NAZARIY POYDEVORI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI
Yandashova Sevinch Shavkat qizi (O‘zbekiston) 346

IJTIMOIY INFRATUZILMANING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI
Abdumajidova Shohidaxon Isroiljon qizi, Mutalibxonov Azizxo‘ja Umarxo‘ja o‘g‘li (O‘zbekiston) 348

HOZIRGI ZAMON SOTSIOLOGIYASINING ASOSIY YO‘NALISHLARI TAHLILI
Eshonova Nilufar Islom qizi (O‘zbekiston) 351

AHOLINING REPRODUKTIV XATTI-HARAKATI TIBBIY VA IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA
Qo‘qonboyeva G. S. (O‘zbekiston) 354

JAZO MUDDATINI O‘TAB CHIQQAN XOTIN-QIZLARNING JAMIYATGA QAYTA IJTIMOIYLASHUVIDAGI MUAMMOLARI
Yoqubova Zumrad, Eshmo‘minova Sevara (O‘zbekiston) 357

AXBOROTNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA AVTOMATLASHTIRISH VA DASTURIY TA’MINOT VOSITALARI
Davirova Muxtaram Muslimxon qizi (O‘zbekiston) 360

JAMIYATDA BARQARORLIK VA IJTIMOIYLASHUVDA OILANING INSTITUSIONAL ROLI
Shobahromova Dilnoza Sunnat qizi (O‘zbekiston) 363

XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARINI JOYLARDAGI MUAMMOLARNI HAL ETISHDA ASOSIY BO‘G‘INGA AYLANTIRISH
Mamajonova Zarinabonu Iqboljon qizi (O‘zbekiston) 365

XOTIN-QIZLAR FAOLLIGI: IJTIMOIY TO‘SIQLAR, STEREOTIPLAR VA YANGI IMKONIYATLAR
Teshaboyeva Sarvinoz Ismoil qizi, Jamitova Diyora Ilhomjonovna (O‘zbekiston) 367

DAVLAT BOSHQARUVIDA JAMOAT MANFAATINI USTUVOR QILADIGAN TAMOYIL SIFATIDA XIZMAT MODELI
Eshtemirova Maftuna Rashid qizi (O‘zbekiston) 370

SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA SAVOLNOMA TUZISH VA SAVOL TURLARINING AHAMIYATI
Xoliqova Zarifa, Baxrillayeva Mohichehra (O‘zbekiston) 373

TARIXIY VA SOSTIOLOGIK TADQIQOTLARDA IKONAGRAFIK HUJJATLARNING ILMIY AHAMIYATI
Jovliyeva Madinabonu Radjab qizi, Aralova Iroda Zokir qizi (O‘zbekiston) 375

MADANIY GLOBALLASHUV MUAMMOLARI VA MILLIY – MA’DANIY QADRIYATLARNI SAQLASH ZARURATI
Mahmudova Muslima Ma’rufjon qizi, Ergashev Mashrabxon Farxod o‘g‘li (O‘zbekiston) 377

PENSIYA TIZIMINI ISLOH QILISH ZARURATI: IJTIMOIY ADOLAT VA BARQARORLIK NUQTAI NAZARIDAN TAHLIL
Cho‘liyev Baxtinur, Ulkannazarova Marg‘uba (O‘zbekiston) 380

“AQLLI UY” TAJRIBASINI TADBIQ ETISHDAN KO‘ZLANGAN MAQSAD
O‘ktamova Viloyat Hamid qizi, Otajonova Mahliyo Qudrat qizi (O‘zbekiston) 384

ERKIN VA OCHIQ FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH: IJTIMOIY-HUQUQIY ASOSLAR VA ISTIQBOLLAR
Ravshanova Sitoraxon Xaitali qizi, Karimova Kamola Zokir qizi (O‘zbekiston) 387

IJTIMOIY JARAYONLARNI KUZATISH METODI ORQALI TAHLIL QILISHDA TASHKILIY OMILLARNING AHAMIYATI
Abduqahhorova Saidaxon, Ergasheva Nafosat (O‘zbekiston) 390

KELAJAKDA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDAGI ISLOHOTLAR SAMARASINI OSHIRISH
Hamroyeva Oynisa Azamat qizi (O‘zbekiston) 393

DAVLAT ORGANLARINING XALQQA XIZMAT QILISHNING SAMARALI USULLARI VA VOSITALARI
Suvonqulova Gulnoza, Xudoyberdiyeva Gulasal (O‘zbekiston) 396

SANOAT SOSIOLOGIYASINING SHAKLLANISHIDA XOTORN TAJRIBASINING ILMIY AHAMIYATI
Aminova Sevinch, Akromova Xurinisa (O‘zbekiston) 398

SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA JAMIYATDAGI IJTIMOIY TA’SIRI
Tojiboyeva Sayyora Shukur qizi (O‘zbekiston) 401

SOHAVIY RIVOJLANISHDA SOTSIAL INFRATUZILMANING AHAMIYATI
Amanqulova Shaxrizoda Sanjarovna, Asqarova Maloxat (O‘zbekiston) 403

SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVIDA FUQAROLARGA XIZMAT QILISH TAMOYILINING IJTIMOIY AHAMIYATI
Boboqulova Norgul Anvar qizi, Shoikramova Munisa Shaorif qizi (O‘zbekiston) 406

AL-JOME’ AS-SAHIH’ ASARINING SOSIOLOGIK TAHLILI: IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDAGI AHAMIYATI
Abduhakimova Ruxshona Hoshim qizi, Saidqulova Odinabonu (O‘zbekiston) 408

OPERATIV TADQIQOTLARNING TASHKILIY VA AMALIY JIHATLARI
Sharofiddinova Sarvinoz Qobiljon qizi (O‘zbekiston) 412

OILAVIY HAYOT SIKLI VA AVLODALAR ALMASHINUVI
Ibragimov Jasurbek Ilhomjon o‘g‘li..... 414

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida 2025-yil 7 – may kuni “**Zamonaviy dunyoda sotsiologiya va amaliy psixologiya muammolari**” mavzusida o‘tkazilayotgan xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasiga

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum hurmatli xalqaro konferensiya ishtirokchilari, qadrli mehmonlar, ustozlar va talabalar! Bugungi ilmiy anjumanda o‘zining qimmatli vaqtini ayamasdan ishtirok etayotgan xorijlik hamkorlarimiz, xususan Qozog‘iston, Turkiya va Rossiya Federatsiyasidan kelgan va masofadan turib ishtirok etayotgan ta’lim fidoiylariga, Vatanimizning ta’lim muassasalari, ilmiy jabhalarida mehnat qilib kelayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy-pedagog xodimlarga alohida minnatdorchiligimizni bildiramiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga bu yilgi Murojaatnomasida “Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurish” masalasi alohida yo‘nalish sifatida belgilab berildi. Bugungi kunda, mamlakatimiz siyosatining bosh mezoniga aylangan “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” tamoyilini ro‘yobga chiqarish uchun esa mehnat bozorida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash eng asosiy omillardan biri sanaladi.

Bugungi konferensiya hozirgi davrning eng muhim sohalariga, ya’ni sotsiologiya va amaliy psixologiyaning dolzarb masalalariga qaratilganligi ham bejiz emas. Zotan ijtimoiy davlatni barpo etishda ijtimoiy-gumanitar sohaning o‘rni va ahamiyati beqiyos.

Yangilik emas, bugungi kunda xalqaro standartlar negizida ish olib borayotgan xorijiy ta’lim muassasalarining tajribalariga tayangan holda, ilg‘or standartlarni joriy etish orqali yuqori malakali, kreativ fikrlaydigan kadrlarni yetishtirib chiqarish kabi masalasi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ning asosiy strategik maqsadi bo‘lib hisoblanadi. Bugun o‘tkazilayotgan konferensiyada ushbu maqsadlar o‘z mujassamini topgan.

Mana bir necha yildirki, universitetimizda sotsiologiya va psixologiya yo‘nalishlarida mutaxassis kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Bu yildan ijtimoiy ish, halqaro munosabatlar yo‘nalishlariga ham qabul rejalashtirilgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, bugungi globalashuv zamonida hech qanday soha alohida bir mamlakat doirasida taraqqiy eta olmaydi. Shunday ekan, biz talabalarga ta’lim berish uchun respublikamizdagi yuqori malakali mutaxassislar bilan birga, xorijiy davlatlarning nufuzli oliy o‘quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan tajribali professor-o‘qituvchilarni ham jalb qilganmiz. Ularning ko‘pchiligi bugungi anjumanda ishtirok etishyapti.

Konferensiya oldiga qo‘yilgan dolzarb masalalardan yana biri, sohada faoliyat olib borayotgan xorijlik olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va mutaxassislar bilan hamkorlikda ijtimoiy-gumanitar fanlar bazasida ilmiy-tadqiqot loyihalarini yo‘lga qo‘yishdan iborat. O‘ylaymizki, bu masalada ham konferensiyamizda ma’lum yechimlar topiladi.

Bugungi konferensiyada vorisiylik masalasiga, ya’ni keyingi avlod olimlarini tayyorlashga ham alohida e’tibor qaratilgan. Ilm-fanga kirib kelayotgan yoshlarning

xalqaro miqyosda tashkil etilayotgan anjumanda ishtirok etishi va ko‘nikma hosil qilishi uchun minbarlar hozirlangan.

Umuman olganda, bugungi konferensiya ziyolilarimiz oldiga qo‘yilgan yuksak vazifa – faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, ma’naviyati yuksak, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashdek dolzarb masalaning yechimini topishda muhim qadam bo‘ladi deb o‘ylayman.

Rektor,
Akademik Shuhrat Sirojiddinov

PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR MEHNAT UNUMDORLIGINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Alikariyev Nuriddin Safarkarievich
alinur1937@gmail.com
O‘zbekiston Milliy universiteti “Sotsiologiya” kafedrasi professori,
iqtisod fanlari doktori,

Annotatsiya

XXI asrdagi raqobatning kuchayishi va atrof-muhitning tez o‘zgarib borishi bilan bog‘liq bo‘lib, natijada xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazishning oldingi tizimlari tezda eskiradi va umuman, intellektual mehnat sohasida va, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining motivatsiyasi va faolligini pasaytiradi. Maqolada muallif mehnat samaradorligini boshqarish dolzarb zamonaviy muammo ekanligini isbotlangan. Bu Raqamlashtirishning zamonaviy sharoitida professor-o‘qituvchilarning mehnati yanada jadal va qizg‘inlashgani ko‘rsatilgan. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari faoliyatining xususiyatlari va uning raqamli iqtisodiyotdagi natijadorligi va samaradorligini baholash ko‘rib chiqilgan. Natijalarni baholash va professor-o‘qituvchilarning mehnat samaradorligini rag‘batlantirish uslub va usullari tasniflangan.

Kalit so‘zlar: xodimlarni boshqarish, intellektual mehnat, samaradorlik, natijadorlik, samaradorlikni boshqarish, professor-o‘qituvchilar tarkibi, oliy ta’lim muassasalari.

Abstract

Due to the increased competition and rapid changes in the environment of the 21st century, previous systems of employee certification are quickly becoming obsolete and reducing the motivation and activity of professors and teachers in the field of intellectual labor in general and higher education institutions in particular. In the article, the author proved that labor efficiency management is a pressing modern problem. It is shown that in modern conditions of digitalization, the work of professors and teachers has become more intense and rich. The features of the activities of professors and teachers of higher educational institutions and the assessment of their effectiveness and efficiency in the digital economy are considered. Methods and techniques for assessing results and encouraging the effectiveness of professors and teachers are classified.

Key words: personnel management, intellectual work, efficiency, effectiveness, performance management, teaching staff, higher education institutions.

Mehnat unumdorligi va uning samaradorligi yalpi mahsulot – milliy daromadni ham asosiy o‘zagidan biridir. Mehnat unumdorligining hajmi ishlab chiqarish va noishlab chiqarishdagi xodimlarning salohiyatiga, ijodiy potensialiga, ijtimoiy munosabatiga, tashkilotdagi adolat tarozining to‘g‘ri ishlashiga, sotsial adolatga, rahbar va xodimlarning ma’naviy qiyofasiga, huquqiy asoslarning mustahkamligiga, texnika va energiya bilan qurollanganlik darajasiga, mamlakatdagi ilm-fan taraqqiyoti va eng asosiysi xodimlarning ertangi kunga bo‘lgan munosabatlariga va ishonchlariga ko‘proq bog‘liqdir.

Samaradorlikni boshqarish dolzarb zamonaviy muammodir, chunki 21-asrda kuchaygan raqobat va tez o‘zgaruvchan muhit eski ish faoliyatini baholash tizimlari tezda eskirib, xodimlarning umumiy motivatsiyasi va faolligini pasaytiradi [1]. Bundan tashqari, mehnat natijadorligi mehnat samaradorligi va unumdorligi bilan chambarchas bog‘liq – iqtisodiy rivojlanishning asosiy konstantasidir. Biroq, mehnat unumdorligining o‘sishini boshqarish qiyin vazifadir, chunki birinchidan, o‘sish omillari juda ko‘p (ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, psixologik, iqlimiy, mintaqaviy va boshqalar); ikkinchidan, ular bir vaqtning o‘zida va assimetrik harakat qiladilar, uchinchidan, ularning harakati sohalar va faoliyat sohalari bo‘yicha sezilarli darajada farq qiladi, bu ayniqsa, intellektual ish sohasi uchun muhimdir [2].

Intellektual faoliyatning ayrim turlari samaradorligini boshqarish juda munozarali bo‘lib, bu universitetlarning professor-o‘qituvchilari kabi xodimlar guruhiga to‘liq tegishli.

Birinchidan, agar biz ish haqi mehnatga turtki beruvchi rag‘bat, deb hisoblasak, unda oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari mamlakatning intellektual kapitali va yalpi ichki mahsulotini shakllantiradigan inson manbai sifatida munosib ish haqi darajasiga ega bo‘lishi kerakligini kutish mantiqan to‘g‘ri keladi [3].

Shu bilan birga, ma’lumki, bir qator mamlakatlarda professor-o‘qituvchilarning mehnatiga haq to‘lash fan va ta’limning innovatsion rivojlanish va iqtisodiy o‘sishdagi zamonaviy roliga mos kelmaydi.

Ikkinchidan, adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan bir qator masalalar mavjud bo‘lib, ular orasida professor-o‘qituvchilarning samaradorligi/natijadorligini ham miqdoriy, ham sifat jihatidan baholash hamda ushbu ko‘rsatkichlarni boshqarish modellarini atash mumkin.

Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda, ushbu tadqiqotimizdan maqsad oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari mehnat samaradorligini boshqarish vositalarini tahlil qilish edi.

Tadqiqot axborotni tahlil qilishning umumiy nazariy usullarini, shu jumladan, inson resurslarini boshqarish sohasidagi mahalliy va xorijiy mualliflarning empirik tadqiqotlari natijalarini umumlashtirishga asoslangan. Diqqat markazida oliy ta’lim sohasida intellektual mehnat samaradorligi va natijadorligini baholashning miqdoriy va sifat usullari, shuningdek, ushbu ko‘rsatkichlarni boshqarish usullari bo‘ldi.

Zamonaviy iqtisodiyotda oliy ta’lim alohida rol o‘ynaydi, bu bir qator o‘ziga xos omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ular orasida biz eng muhimi sifatida quyidagi uchtasini ajratib ko‘rsatamiz:

Birinchidan, biz bir necha bor ta’kidlaganimizdek, XXI asrda oliy ta’lim jahon xizmatlar bozoridagi eng yirik sohaga aylandi. Shunday qilib, agar 2008 yilda oliy ta’lim xizmatlarining jahon bozori hajmi qariyb 100 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lsa, keyinchalik 2030 yilga kelib ta’lim xizmatlarining jahon bozori hajmi 600-800 milliard dollarni tashkil qiladi [4]. Oliy ta’lim xizmatlarining jahon bozorining yetakchilari rivojlangan mamlakatlar (birinchi navbatda AQSH) bo‘lib, bu xizmatlar eksport sanoati sifatida rivojlanmoqda [5].

Ikkinchidan, globallashuv va madaniyatlararo integratsiya oliy ta’lim imkoniyatlarining sezilarli darajada kengayishiga olib keldi. Darhaqiqat, THE, QS va boshqalar reytingidagi pozitsiyalar uchun nafaqat taniqli universitetlar raqobati va shunga

mos ravishda barcha pozitsiyalarni dunyo darajasiga “ko‘tarib olish” sodir bo‘ldi. Natijada, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari va talabalari tomonidan ingliz tilini xalqaro aloqa vositasi sifatida o‘rganish faollashdi [6], shuningdek, “chegarasiz ta’lim” (“borderless education”) tushunchasi paydo bo‘ldi, bunda talabalar va professor-o‘qituvchilar mobillik dasturlari bo‘yicha mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasida erkin harakatlanishlari va har qanday xorijiy universitetda o‘qishi/amaliyot o‘tashlari mumkin. Ushbu hodisalar, o‘z navbatida, global mehnat bozoriga ta’sir ko‘rsatdi, umuman intellektual intensiv sektorda va xususan ta’lim xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirdi [7].

Uchinchidan, raqamlashtirish butun oliy ta’lim tizimiga tubdan ta’sir ko‘rsatdi. Darhaqiqat, raqamlashtirish yoki raqamli texnologiyalarning inson hayotining barcha sohalariga joriy etilishi raqamli ta’lim texnologiyalarining paydo bo‘lishiga olib keldi, bunga 20-21-asrlar oxirida universitetlardagi darslar masofadan turib yordam berdi. Massiv ochiq onlayn kurslar (MOOCs) masofaviy ta’limda alohida o‘rin tutadi. MOOCs bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab talabalar tomonidan qo‘llaniladigan muvaffaqiyatli pedagogik texnologiya bo‘lib, shu bilan madaniyatlararo muloqot jarayonini osonlashtiradi va yaxshilaydi. Ko‘pgina MOOClar ingliz tilida, so‘nggi yillarda esa rus tilida taklif etilmoqda, bu, shubhasiz, nafaqat o‘quv kurslari mazmuni haqida umumiy xabardorlikni yaxshilaydi, balki tilni uning tashuvchilari nuqtai nazaridan tushunishni ham ta’minlaydi [8].

To‘rtinchidan, global Covid-19 pandemiyasining oliy ta’lim rivojiga ta’sirini qayd etish zarur. Pandemiya hali tugamagan va global xulosalar chiqarishga hali erta bo‘lsa-da, to‘plangan tajriba tufayli insoniyat raqamli texnologiyalar va texnologiyalarni umuman, xususan, ta’lim sohasida takomillashtirishda davom etishi allaqachon ayon bo‘ldi.

Shunday qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, zamonaviy oliy ta’lim tizimi juda dinamik tadqiqot obyekti bo‘lib, u rivojlanib, global iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, mehnatning intellektual tarkibiy qismining o‘sishiga (raqamlashtirish shundan dalolat beradi) va tuzilishga (zamonaviy oliy ta’lim xizmatlari bozori notijorat va tijorat sektoridagi davlat va xususiy kompaniyalarning keng doirasi bilan ifodalanadi) va bandlik shakllariga (oflayn, onlayn va aralash formatlar) ta’sir qiladi.

OTM o‘qituvchisining ishi doimo o‘zaro bog‘liq va o‘zaro bog‘liq vazifalar majmuasini bajarishga qaratilgan murakkab faoliyat bo‘lib kelgan. Biroq, zamonaviy oliy ta’lim o‘qituvchisining faoliyati hatto o‘tgan asrdagidan tubdan farq qiladi, u nafaqat “oqillik, yaxshilik, abadiylik va ma’rifatlilik” urug‘ini sepgan, balki endi u ta’lim xizmatlarini ko‘rsatmoqda. Zamonaviy OTM o‘qituvchisi, birinchi navbatda, asosiy ta’lim, pedagogik/ta’lim va tadqiqot funktsiyalarini amalga oshirishi kerak, buning uchun unga ish haqi (tarif stavkasi) olish kafolatlanadi.

Ikkinchidan, bugungi kunda OTM o‘qituvchisi ham zarur kompetentsiyalarga ega bo‘lishi kerak, buning natijasida professor-o‘qituvchilar o‘quv yili davomida har bir OTMda ishlab chiqilgan ball-reyting tizimi natijalariga ko‘ra qo‘shimcha rag‘batlantiruvchi to‘lovlar oladi. Shunday qilib, ushbu sharoitda professor-o‘qituvchilarning kompetentsiyalari samarali va samarasiz xodimlarni ajratib ko‘rsatish va shunga mos ravishda ushbu samaradorlikni boshqarishga imkon beradigan mehnat samaradorligi/natijadorligining ma’lum bir standartiga yoki o‘lchoviga aylandi.

Mavjud vaziyat natijalarni baholash va professor-o‘qituvchilarning mehnat samaradorligini rag‘batlantirishning ko‘plab uslublari va usullarini keltirib chiqardi, ular asosan ish haqi tartibini tartibga solish va OTM xodimlari faoliyatini rag‘batlantirish muammolarini hal qilish uchun ishlab chiqilgan. Bunday metodikalar professor-o‘qituvchilar mehnatining asosiy funktsiyalarini hisobga oladigan ko‘rsatkichlar va bunday faoliyatning yaqin natijalarini qayd etadigan ko‘rsatkichlar to‘plamiga asoslanadi.

Professor-o‘qituvchilarning mehnat samaradorligini oshirish uchun reytinglar haqiqatan ham “ishlashi” uchun ular quyidagi asosiy mezonlarga javob berishi kerak:

- professor-o‘qituvchilarning kompetentsiyalari va funksionalligiga asoslangan haqiqiylik;
- professor-o‘qituvchilarning funksional imkoniyatlarini aniq taqsimlash;
- tahlil mezonlarining xolisligi;
- reyting natijasini professor-o‘qituvchilarning o‘zlari nazorat qilish imkoniyati;
- professor-o‘qituvchilar uchun reyting tizimining mavjudligi va yakuniy natijalarga ta’sir qilish imkoniyati.

OTM professor-o‘qituvchilari mehnat samaradorligini boshqarish vositalari bo‘yicha tadqiqot o‘tkazilgan. Miqdoriy va sifatli tahlil vositalariga asoslangan professor-o‘qituvchilari mehnati natijalarini baholash va samaradorligini rag‘batlantirishning ko‘plab uslub va usullari mavjudligi ko‘rsatilgan. Ko‘pincha oliy ta’lim muassasalarida ball-reyting tizimlari qo‘llaniladi, ammo ular ham nomukammaldir, chunki ular quyidagi omillarni yetarlicha hisobga olmaydilar [9]:

1) mehnat intensivligi; 2) professor-o‘qituvchilar maqomi; 3) mehnat natijalariga rag‘batlantirish miqdorining mutanosibligi; 4) ilmiy maktablar va ilmiy jamoalarni shakllantirish. Kadrlar samaradorligini boshqarish to‘g‘ridan-to‘g'ri butun tashkilotning boshqaruv texnologiyasiga bog‘liq, biz keyingi tadqiqotlar uchun oliy ta’lim muassasalarini umumiy boshqarish strategiyasining samaradorligi va xodimlarni boshqarish strategiyasining samaradorligi tahlilini taqqoslashni tavsiya etish zarur, deb hisoblaymiz.

Masalaning yechimini qisqacha bayon qilib aytadigan bo‘lsak, quyidagi chora va takliflarni berish mumkin.

Birinchidan, inson hayoti uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy mexanizmlar, texnologiyalar va modellarni ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Ikkinchidan, mehnat unumdorligiga ta’sir qiluvchi iqtisodiy, tashkiliy, ekologik, texnik va boshqa omillarni dispersion va korrelyatsion tahlillar orqali aniqlash. Ularning ta’sirini mehnat unumdorligiga ta’sir darajasini matematik modellarda ifoda etish. Mehnat unumdorligini har jihatdan unga ta’sir etuvchi faktorlarni aniqlash va ularning har birini ta’sir etish darajasini miqdoriy jihatdan o‘lchash va oxir oqibatda matematik modelini yaratishda extimollar nazariyasi hamda, matematik statistik usullarning barchasidan unumli foydalangan holda, mehnat unumdorligini matematik statistik modelini yaratish mumkin. Bunda avvalo, eng oddiy usullardan boshlab to o‘ta murrakkab usullargacha qo‘llash taqozo etiladi. Undan tashqari, oliy matematikaning nazariy va amaliy usullaridan ham keng foydalangan holda mehnat unumdorligini optimal hisob-kitobini olishga loyiq bo‘lgan matematik modellarni yaratish ham mumkin. Aytish lozimki, bu modelni yaratishda innovatsion usullardan ham keng foydalanish tavsiya etiladi.

Tadqiqot asosida shunday xulosa qilishimiz mumkinki, oliy ta’lim sohasidagi professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholash uchun o‘qituvchilar mehnatining sifatiga ta’sir etuvchi barcha ko‘rsatkichlarni hisobga olish zarur, bu ham ijtimoiy-iqtisodiy va fiziologik xususiyatlar. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari samarali kasbiy faoliyat ko‘rsatishi uchun fan ko‘nikmalari, tajriba va shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligi sababli, o‘qituvchilarning ish sifatini baholashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanish zarur. O‘qituvchilarning vakolatlaridan tashqari, ularning faoliyatini baholashda oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining samarali faoliyatini baholash mezonlarini hisobga olish zarur bo‘lib, ularda o‘qituvchilarning o‘quv, o‘quv, uslubiy va ilmiy faoliyati ko‘rsatkichlari kiradi.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Белкин В.Н. Теория человеческого капитала предприятия. / Коллективная монография. – Екатеринбург: Институт экономики УрО РАН, 2020. – 429 с.
2. Воронецкая Л.Г. Сравнительный анализ финансирования науки и оплаты труда научных работников в России, Беларуси и других странах // Вестник Прикамского социального института. – 2019. – № 1 (79).
3. Дейнвепорт Т. Управление работниками интеллектуального труда. URL: https://www.cfin.ru/ management/people/culture/intellectual_work.shtml.
4. Камалтдинова Р.М. Роль интеллектуальной составляющей человеческого капитала в процессе перехода экономики России на инновационный путь развития // Вопросы экономики и права. – 2010. – №12. – С.309–311.
5. Айдрус И.А., Филиппов В.М. Мировой рынок образовательных услуг. – М.: РУДН, 2008. – 194 с.
6. Астратова Г.В., Бедрина Е.Б., Ларионова В.А., Пошехонова Г.В., Руткаускас Т.К., Синицын Е.В., Синякова М.Г., Толмачев А.В. Высшее образование и рынок труда в цифровой экономике: развитие математических методов и средств исследования сложных экономических систем. / Научная монография. – Екатеринбург: УрФУ, 2021. – М.: Издательство «Перо», 2021. – 342 с.
7. Абакумова Н.Н. Влияние новой системы оплаты труда на результативность труда научно-педагогических работников // Управленец. – 2011. – №1. – С.52-60.
8. Alikariev N.S., Alikarieva A.N. Oliy ta’lim sifati menejmenti tizimini rivojlantirish konsepsiyasi//“Sotsiologiya fanlari” (www.tadqiqot.uz\soci) elektron jurnali. №1. – Toshkent, 2020. – B. 7-18. DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1
9. Alikariyev N., Alikariyeva A. Complex factors of increasing the efficiency of human labor//Neuro Quantology. November 2022. Volume 20. Issue 18. Page 102-107. doi:10.14704 /nq.2022.20.18.NQ880012. www.neuroquantology.com. eISSN-1303-5150.

O‘ZBEKISTONDA SOTSIOLOGIYA FANINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Bekmurodov Mansur Bobomurodovich
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, professor, sotsiologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda sotsiologiya fanining shakllanish jarayoni, tarixi, hozirgi holati va istiqbolli yo‘nalishlari tahlil qilingan. Muallif sotsiologiya fanining mamlakat ijtimoiy taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatish bilan birga, sohaga oid muammolar va to‘siqlar — metodologik tanqislik, ilmiy adabiyotlar yetishmovchiligi, moliyaviy resurslarning kamligi kabi masalalarni ham ko‘tarib chiqadi. Shuningdek, maqolada sotsiologiya fanini yanada rivojlantirishga qaratilgan aniq taklif va yo‘nalishlar, jumladan, ta’lim tizimidagi islohotlar, ilmiy infratuzilma rivoji va amaliy foydalanish imkoniyatlari keltirilgan. Maqola sotsiologiya fanining milliy ilmiy maydonda yetarlicha o‘rin egallashi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni belgilab beradi.

Kalit so‘zlar: sotsiologiya, ilmiy tadqiqot, ijtimoiy so‘rov, metodologiya, ta’lim, ilmiy infratuzilma, ijtimoiy jarayonlar, muammolar, istiqbol

Abstract

This article analyzes the development trends of sociology as a scientific discipline in Uzbekistan. It explores the historical background, current state, and future directions of sociology in the national context. The author highlights the growing number of academic research projects, the establishment of sociological research centers, and the expansion of educational programs in the field. At the same time, the paper draws attention to key challenges hindering the progress of sociology in the country, including the lack of scientific literature in the Uzbek language, insufficient methodological resources, limited funding, and weak integration with practical fields. The article concludes by offering specific recommendations to enhance the role of sociology in Uzbekistan’s social and academic landscape, emphasizing the importance of institutional support, curriculum modernization, and international collaboration.

Keywords: sociology, scientific research, social survey, methodology, education, scientific infrastructure, social development, challenges, prospects.

Sotsiologiya – jamiyatning tuzilishi, undagi ijtimoiy munosabatlar, guruhlar, institutlar, madaniyat va ijtimoiy o‘zgarishlarni tizimli o‘rganuvchi fan sifatida zamonaviy davlatlarning ijtimoiy siyosatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Jahondagi globallashuv jarayonlari, demografik o‘zgarishlar, urbanizasiya va migrasiya kabi omillar sosiologiya fanining ahamiyatini yanada oshirmoqda.

O‘zbekistondagi ijtimoiy o‘zgarishlar, aholi tarkibidagi demografik tendentsiyalar, ishsizlik, ta’lim, gender masalalari va yoshlar siyosati kabi yo‘nalishlarda xolis va ilmiy tahlilga ehtiyoj oshib bormoqda. Shu bois, sotsiologiya fani nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyatdagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim vositaga aylanmoqda.

Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekistonda sotsiologiya fani rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Ilmiy markazlar, sotsiologik tadqiqot muassasalari va ta’lim yo‘nalishlari orqali bu fanning institusional asoslari shakllanmoqda. Shu bilan birga, sotsiologiyaning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar ham mavjud.

Ushbu maqolada O‘‘zbekistondagi sotsiologiya fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, bugungi holati, mavjud muammolar va istiqbolli tendentsiyalar tahlil qilinadi.

O‘zbekistonda sotsiologiya fani shakllanishi va rivojlanishi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bu fanning tarixiy rivojlanishini shartli ravishda quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

(1940-1990 yillar)

Sovet Ittifoqi tarkibida bo‘lgan davrda sotsiologiya mustaqil fan sifatida to‘liq shakllanmagan, aksincha, marksizm-leninizm nazariyasi asosidagi ideologik yondashuvlar ustun bo‘lgan. Sotsiologik tahlillar chegaralangan va asosan iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni himoyali yo‘l bilan yoritish bilan cheklangan.

Shu bilan birga, 1970-1980-yillarda O‘zbekistonlik ayrim olimlar tomonidan mahalliy ijtimoiy masalalarga oid tadqiqotlar olib borilgan. Biroq ular Markaziy rejalashtirish va tsenzura ta’siri ostida bo‘lgan.

Mustaqillikdan so‘nggi davr (1991 yildan keyin)

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng sotsiologiya fani yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Bu davrda fanni rivojlantirish uchun institusional, metodologik va ta'limiy asoslar yaratila boshlandi.

1992 yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarkibida ijtimoiy falsafa va sotsiologiya instituti tashkil etildi;

2000-yillarda "ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tashkil etildi;

Keyinchalik SMTI (strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti), "O‘zbekistonda islohotlar va samaradorlik markazi" kabi muassasalarda sotsiologik tahlillar faollashdi.

O‘zbekiston Milliy universiteti, Samarqand, Farg‘ona, Andijon davlat universitetlarida "sotsiologiya" kafedralari ochildi;

Sotsiologiya bakalavri va magistratura yo‘nalishlari tashkil etildi;

Ta’lim dasturlari xalqaro standartlar asosida shakllantirilishiga e’tibor qaratila boshlandi. YUNESKO, UNDP, USAID, Friedrich Ebert Stiftung kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ijtimoiy tadqiqotlar amalga oshirildi;

Xalqaro anjumanlar va seminarlarda O‘zbekistonlik sotsiologlar ishtirok eta boshladi.

O‘zbekistonda sotsiologiya fanining bugungi holati uning amaliyotga yaqinlashishi, ilmiy tadqiqotlarning ko‘payishi va ta’lim sohasidagi islohotlar bilan xarakterlanadi. Mamlakatdagi ijtimoiy jarayonlarni chuqur tahlil qilishga bo‘lgan ehtiyoj sotsiologiyaning ahamiyatini yana-da oshirmoqda.

So‘nggi yillarda sotsiologiya sohasidagi ilmiy faollik kuchaymoqda. Ilmiy jurnallarda sotsiologiya, ijtimoiy tahlil va demografiya bo‘yicha maqolalar soni ortib bormoqda. Turli universitet va ilmiy muassasalar qoshida sotsiologik yo‘nalishda ilmiy seminarlar, konferensiyalar tashkil etilmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy tadqiqotlar olib boradigan markazlar faoliyat yuritmoqda. Masalan, “Ijtimoiy fikr” markazi, SMTI (Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti),

"Islohotlar va samaradorlik markazi" va boshqalar turli ijtimoiy mavzularda muntazam tahlillar o‘tkazmoqda.

Sotsiologlar milliy va xalqaro loyihalarda faol ishtirok etib, o‘zbek jamiyatining dolzarb masalalari yuzasidan kompleks tahlillar tayyorlamoqdalar. Bu jarayon fanning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ijtimoiy so‘rovlar, aholi fikrini o‘rganish va monitoring tadqiqotlari ko‘paydi. Xususan:

“Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan aholining hayot sifatidan qoniqish darajasi, ijtimoiy kayfiyat, ishonch indeksi kabi ko‘rsatkichlar o‘rganib boriladi;

SMTI mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish orqali davlat siyosatiga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqmoqda.

Bundan tashqari, mahalliy NNTlar, xalqaro tashkilotlar (YUNISEF, BMT, USAID, Friedrich Ebert Stiftung va boshqalar) bilan hamkorlikda aholi o‘rtasida turli mavzulardagi ijtimoiy so‘rovlar amalga oshirilmoqda. Bu tadqiqotlar orqali sotsiologiya fanining amaliyot bilan bog‘lanishi yana-da mustahkamlanmoqda.

Oliy ta’lim tizimida ham sotsiologiya yo‘nalishida muhim o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Bakalavr va magistratura dasturlari qayta ko‘rib chiqilib, ularga yangi fanlar va modullar qo‘shilmoqda. Xususan:

Gender sotsiologiyasi,

Migratsiya sotsiologiyasi,

Oila va bolalar sotsiologiyasi,

Ekologik sotsiologiya va iqlim o‘zgarishi,

Media va raqamli jamiyat sotsiologiyasi kabi yangi yo‘nalishlar ta’limga joriy qilinmoqda.

Bu o‘zgarishlar sotsiologiya ta’limida zamonaviy tendensiyalarga moslashish, talabalarda mustaqil tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qaratilgan.

Har qanday fan sohasi rivojlanish jarayonida muayyan qiyinchilik va to‘siqlarga duch keladi. O‘zbekistonda sotsiologiya fanining rivojlanishi ham bir qator muammolar bilan cheklangan. Ularni quyidagicha tartiblash mumkin:

O‘zbekistonda, ayniqsa o‘zbek tilida, sotsiologiyaga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlar, darsliklar, monografiyalar va maqolalar yetarli emas. Ko‘plab manbalar rus yoki ingliz tilida bo‘lib, o‘zbek tilidagi tarjimalar soni kam. Bu holat fanni milliy miqyosda ommalashtirish va talabalarni tayyorlash jarayonida jiddiy to‘siq hisoblanadi.

O‘zbekistonda mustahkam ilmiy an’analarga ega sotsiologik maktablar hali yetarlicha shakllanmagan. Yosh tadqiqotchilar uchun ilmiy rahbarlik va tajriba almashish imkoniyatlari cheklangan. Shu bilan birga, jamiyatda sotsiologlar nufuzining pastligi yoshlar orasida bu sohaga qiziqishni pasaytirmoqda.

Sotsiologik tadqiqotlar olib borish uchun zarur bo‘lgan axborot resurslari, statistik ma’lumotlar, davlat va jamoatchilik ma’lumotlariga kirish imkoniyati cheklangan. Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi va ma’lumotlar tahliliga oid zamonaviy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish imkoniyatlari ham har doim yetarli emas.

Ilmiy izlanishlar uchun moliyaviy mablag‘ ajratish masalasi ham soha uchun katta muammodir. Ko‘plab tadqiqotchilar shaxsiy tashabbus bilan ish olib borishadi. Davlat

grantlari, mustaqil ilmiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari hozircha cheklangan miqyosda amalga oshirilmoqda.

Sotsiologiya nazariy fan sifatida shakllangan bo‘lsa-da, uning davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyat, biznes va fuqarolik jamiyati tashkilotlari amaliyoti bilan yetarlicha integratsiya qilinmagani qayd etiladi. Bu esa fanning ijtimoiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish salohiyatini pasaytiradi.

Istiqbolli yo‘nalishlar va takliflar

O‘zbekistonda sotsiologiya fanining rivojlanishini jadallashtirish uchun bir qator istiqbolli yo‘nalishlar va amaliy takliflar mavjud. Bu takliflar fandan amalga, ta’limdan jamoatchilikkacha bo‘lgan keng qamrovli o‘zgarishlarni ko‘zda tutadi.

O‘zbek tilidagi manbalarni yaratish: Sotsiologiyaga oid zamonaviy adabiyotlarni tarjima qilish va milliy mualliflar tomonidan yozilgan darsliklar, ilmiy monografiyalar va maqolalarni nashr qilishni rag‘batlantirish.

Ilmiy jurnallar va platformalarni kuchaytirish: Maxsus sotsiologik jurnallar ta’sis etish yoki mavjudlarini xalqaro standartlarga moslashtirish.

Ta’lim dasturlarini yangilash: Zamonaviy muammolarga mos, ilg‘or fanlar (masalan, raqamli sotsiologiya, urbanizatsiya, migratsiya, gender masalalari)ni qamrab olgan o‘quv kurslari joriy etish.

Interaktiv va amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv usullari: Talabalarni faqat nazariya emas, balki voqelikni tahlil qilish, sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish va ma’lumotlar tahliliga o‘rgatish.

Ilmiy stajirovkalar va treninglar: Yosh tadqiqotchilar uchun xalqaro stajirovkalar tashkil qilish, metodologiya va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Ilmiy rahbarlik va mentorlik tizimini joriy qilish: Katta avlod sotsiologlari va yosh tadqiqotchilar o‘rtasida doimiy muloqotni tashkil etish.

Sotsiologiyani qaror qabul qilish jarayoniga integratsiya qilish: Davlat organlari, mahalliy hokimiyat va nodavlat tashkilotlarni sotsiologik tahlillardan foydalanishga undash.

Fuqarolik jamiyati bilan aloqalar: NNTlar, jamoatchilik tuzilmalari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda jamoa munosabatlarini o‘rganish va muammolarni aniqlash.

Davlat grantlari va ilmiy fondlar: Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar uchun maxsus mablag‘lar ajratish.

Sotsiologiya markazlari va institutlarini tashkil etish: Har bir viloyatda regional sotsiologiya markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali mahalliy muammolarni chuqurroq o‘rganish imkoniyatini yaratish.

Xulosa

O‘zbekistonda sotsiologiya fanining shakllanishi va rivojlanish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshmoqda. Sovet davridan boshlab boshlangan bu jarayon mustaqillikdan so‘ng yangi mazmun va vazifalar bilan boyidi. Ayni paytda, mamlakatda ijtimoiy jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Bu esa sotsiologiya fanining dolzarbligini yana-da oshirmoqda.

kurulacağı, nasıl anlaşılacağı, nasıl uygulanacağı ve değerlendirileceği gibi kapsamlı bir kavramı ifade eder [7]. Ayrıca, etik sorunlara hâkim olma da önemli bir beceri olarak öne çıkmaktadır. Yapay zekâ teknolojilerinin hayatın her alanına nüfuz etmesi, teknik boyutların yanı sıra etik ve politik açıdan da ele alınması gereken sorunları gündeme getirmektedir. Algoritmaların karar verici mekanizmalar hâline gelmesi, bu kararların ahlaki sorumluluğunun kime ait olduğu sorusunu gündeme getirir. Çoğu zaman “tarafsız” ya da “nesnel” olduğu iddia edilen algoritmalar, arkasındaki yazılımcıların toplumsal önyargılarını ve kültürel kabullerini içermektedir [4]. Bu, algoritmaların işlediği önyargıların yalnızca teknik hatalar değil, toplumsal eşitsizliklerin dijital ortama taşınmış biçimleri olduğunu gösterir. Örneğin, işe alım süreçlerinde cinsiyet, ırk ya da yaşa dayalı ayrımcılık; adalet sistemlerinde sosyoekonomik eşitsizliklerin pekiştirilmesi gibi örnekler, algoritmaların adalet anlayışındaki sınırlamaları ve etik riskleri ortaya koymaktadır. Etik sorumluluk yalnızca yazılımcıların ya da mühendislerin değil, bireysel, kurumsal ve politik düzeylerde ele alınması gereken bir meseledir [3]. Şeffaflık, hesap verebilirlik, veri güvenliği ve insan denetimi gibi ilkeler, teknik değil, politik bir taahhütle hayata geçirilmelidir. Bununla birlikte, etik düzenlemeler evrensel standartlara dayalı olarak şekillendiğinde her kültürel bağlama uygun olmayabilir kültürel çeşitliliğe duyarlı olmalıdır [1]. Yapay zekânın geleceği, ne kadar "akıllı" olduğundan çok, ne kadar "etik", "adil" ve "hesap verebilir" olduğuyla şekillenecektir.

Sonuç

Yapay zekâ, yalnızca teknik sistemler veya dijital araçlar bütünü olarak değil; bireyin kimlik inşasından toplumsal bağların yeniden şekillenmesine, kültürel normların evrilmesinden etik sorumluluk alanlarının genişlemesine kadar çok boyutlu etkiler yaratan dönüştürücü bir güç olarak karşımıza çıkmaktadır [4]. Yapay zekânın bu çok katmanlı etkilerini kavrayabilmek için yalnızca teknolojik kapasitelere odaklanmak yeterli değildir; aynı zamanda kültürel anlamlandırma süreçleri, etik ilkeler ve politik yapılar çerçevesinde de derinlemesine sorgulamalar yapılması gerekmektedir.

Kaynakça

1. Akgül, B., & Ören, İ. (2021). Yapay zekâ temelinde insan: Dataizm ve dini değer paradoksu. *Medya ve Din Araştırmaları Dergisi / Journal of Media and Religion Studies*, *4*(1), 65–79.
2. American Psychological Association. (2022). *Social media and mental health: The impact of social media on mental well-being*.
3. Atlas, S. (2023). *ChatGPT for higher education and professional development: A guide to conversational AI*. Independently Published.
4. Ataman, K. Y. (2020). Küreselleşen dünyada birlikte yaşamanın temel dinamikleri. *Tarih Kültür ve Sanat Araştırmaları Dergisi*, *9*(2), 1–12. https://doi.org/10.29333/ejturk.2020.000
5. Bozkurt, A. (2023). ChatGPT, üretken yapay zekâ ve algoritmik paradigma değişikliği. *Alanyazın*, *4*(1), 63–72.
6. Esen, E., & Karal, Ö. (n.d.). *Yapay sinir ağları ve insan beyni*.
7. Kambur, E. (2022). Yapay zekâ çağında insan kaynakları yönetimi konusunda yazılmış Türkçe makaleler üzerine bir araştırma. *Pamukkale Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi*, *48*, 139–152.

8. Myers, D. G. (2019). *Psikoloji* (s. 280). Worth Publishers.
9. Ng, D. T. K., Leung, J. K. L., Chu, S. K. W., & Qiao, M. S. (2021). Conceptualizing AI literacy: An exploratory review. *Computers and Education: Artificial Intelligence*, *2*, 100041. https://doi.org/10.1016/j.caeai.2021.100041
10. Noble, S. U. (2018). *Algorithms of oppression: How search engines reinforce racism*. NYU Press.
11. Okkay, İ., & Bal, F. (2021). Kognitif sistem, yapay zekâ ve insan ilişkisi. *Sosyal Bilimler Dergisi*, *8*(50), 92–103.

YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SOTSIOMETRIK O‘LCHASH MEZONLARI

Xakimova Anora Karimovna
nora_ann99@inbox.ru
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Ijtimoiy-gummanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada yosh rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalari darajasini baholashda sotsiometrik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Yosh rahbarlarning jamoadagi ijtimoiy o‘rni, ularning ta’sirchanligi, etakchilik qobiliyati va muomala madaniyati kabi omillar sotsiometrik mezonlar orqali o‘lchanishi mumkinligi asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada rahbarning jamoa a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarga ta’siri, qaror qabul qilishdagi samaradorligi va ijtimoiy integratsiya darajasi kabi ko‘rsatkichlar orqali boshqaruv salohiyati baholanadi. Tadqiqot natijalari yosh rahbarlar faoliyatini aniq va xolis baholash, kadrlar tayyorlash va etakchilik salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: yosh rahbar, boshqaruv kompetensiyasi, sotsiometrik usul, etakchilik, ijtimoiy o‘rin, kadrlar siyosati

Abstract

This article analyzes the possibilities of using sociometric methods to assess the level of managerial competencies among young leaders. Factors such as the social position of young leaders in a team, leadership abilities, and influence are considered fundamental. The research proposes criteria for evaluating the managerial capacity of young leaders through sociometry. The results are important for implementing new approaches in youth leadership development policies.

Keywords: managerial competency, young leader, sociometry, leadership, social position

Kirish. Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida islohotlar jarayonida yoshlar faol ishtirok etmoqda. Ayniqsa, davlat boshqaruvi va rahbarlik lavozimlarida yosh kadrlarning soni oshib borayotgani, ularning salohiyatidan unumli foydalanish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Bunda, yosh rahbarlarning boshqaruv qobiliyati,

etakchilik salohiyati va jamoa bilan samarali ishlash ko‘nikmalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri — iqtidorli, tashabbuskor va mas’uliyatli rahbarlar tarkibini shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, davlat boshqaruvi tizimida yosh kadrlar soni ortib borishi bilan ularning boshqaruv salohiyatini aniq baholashga ehtiyoj ormoqda. Boshqaruv kompetensiyasi — rahbarda mavjud bo‘lgan shaxsiy, ijtimoiy va tashkiliy qobiliyatlar majmuasidir [1]. Bu qobiliyatlarning jamoa ichida qanday namoyon bo‘lishi esa ko‘p hollarda uning ijtimoiy o‘rniga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, sotsiometrik tahlil — yosh rahbarning etakchilik salohiyatini baholashda samarali usul hisoblanadi [2].

Boshqaruv kompetensiyasi rahbarning ma’lum tashkilot yoki jamoani samarali boshqarishga qodirligini belgilaydigan shaxsiy va kasbiy sifatlar majmuasidir. U jumladan:

- strategik fikrlash;
- kommunikatsion mahorat;
- emotsiyalarni boshqarish;
- muammo echish qobiliyati;
- jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari;
- o‘zgarishlarga moslashish salohiyati kabi elementlarni o‘z ichiga oladi[1].

Yosh rahbarda mazkur kompetensiyalar to‘liq shakllanmagan bo‘lishi mumkin, shu bois ularni to‘g‘ri baholash va rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqish talab etiladi.

O‘tgan asrning 80-yillardan boshqarish sohasida “maqsadlarni boshqarish”, “yutuqlarni baholash” metodikalari ishlab chiqildi. Ular asosida keyinchalik “natijadorlikni boshqarish” (PM - Performance management) texnologiyalari boshqaruv amaliyotida tatbiq etildi. Boshqarishdagi murakkab ilmiy asoslangan metodikalar, texnikalar “Baholash markazlari” (Assessment Center)larda amalga oshirilib, ularning asosiy vazifasi intellektual qobiliyat va kasbiy kompetentlik mezonlarini o‘rnatish va baholash bo‘ldi. Bu jarayon boshqaruv sohasida “shaxsiy salohiyat” tushunchasini ilmiy va amaliy iste’molga kiritdi. Professional bilim, ko‘nikma va malaka, kreativ iqtidor, ijodiy fikrlash, g‘oyalar generatsiyasi, analitik, tanqidiy mushohada, muammoli tahlil qobiliyati “shaxsiy intellektual qobiliyat” egasini tanlab olish mezonlaridan bo‘ldi [4].

Metod. Sotsiometriya — guruhlar ichidagi ijtimoiy munosabatlar tizimini o‘rganuvchi usul bo‘lib, J. Moreno tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan [3]. Ushbu metod jamoa a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, simpatiya-antipatiyani, tanlashni va ijtimoiy aloqalar tuzilmasini o‘rganishga imkon beradi.

Yosh rahbarlarning boshqaruv kompetensiyasini baholashda quyidagi mezonlar asosiy o‘rin tutadi:

- Ijtimoiy tan olinish darajasi (reyting);
- Jamoa a’zolari tomonidan etakchi sifatida qabul qilinishi;
- Hal qiluvchi vaziyatlarda maslahatga loyiq deb topilishi;
- Aloqalar soni va ta’sir doirasi.

Tadqiqot doirasida oliy ta’lim muassasasi va mahalliy hokimlik faoliyatida ishtirok etayotgan 25 nafar yosh rahbar ishtirokida so‘rovnoma va sotsiometrik tahlil o‘tkazildi. Ushbu jarayonda quyidagi savollar asosida ma’lumotlar yig‘ildi:

1. Qiyin qarorlar qabul qilishda kimdan maslahat so‘raysiz?

2. Qaysi rahbarni etakchi sifatida ko‘rasiz?
3. Har kuni kim bilan ishlashni istaysiz?

Natijalar asosida sotsiogramma shakllantirilib, ijtimoiy o‘rinlar aniqlandi [6].

Natija. Tahlil natijalari quyidagi holatlarni ko‘rsatdi:

- Yosh rahbarlarning 68% holatda jamoa tomonidan tan olinishi va maslahat olish uchun tavsiya qilinish darajasi yuqori;
- Kam ijtimoiy aloqalarga ega bo‘lgan rahbarlar muomalada murakkablik va ishonchsizlik bilan bog‘liq bo‘ldi;
- Ijtimoiy o‘rin baland bo‘lgan rahbarlar muvaffaqiyatli aloqa o‘rnatish, mas’uliyatlilik va etakchilik ko‘nikmalariga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida yosh rahbarlarning ijtimoiy ta’sirini aniqlovchi 4 asosiy mezon ishlab chiqildi:

1. Ijtimoiy tan olinish darajasi;
2. Yetakchilik sifatida qabul qilinishi;
3. Maslahatga loyiq deb topilishi;
4. Aloqalar soni va ta’sir doirasi.

Muhokama. Olingan natijalar yosh rahbarlarning boshqaruv kompetensiyasi jamoaviy munosabatlar orqali namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi. Sotsiometrik tahlil rahbarning faqat rasmiy lavozimi emas, balki uning shaxsiy ta’sirchanligi, ishonch darajasi va jamoa munosabati kabi ko‘p qirrali omillarni inobatga olish imkonini beradi [3]. Bu esa boshqaruv kadrlarini tanlash va tayyorlashda ilmiy asoslangan, xolis yondashuvni shakllantiradi. Shu bilan birga, muntazam sotsiometrik tahlillar yosh rahbarlarda muloqot madaniyati, jamoa bilan ishlash qobiliyati va etakchilik resurslarini rivojlantirishga xizmat qiladi [5].

Xulosa va tavsiyalar. Mehnat sohasida ijtimoiy birlikning asosiy ko‘rinishi mehnat jamoasi hisoblanadi. Mehnat jamoalarida shaxslararo munosabatlar integratsiyasida qator hodisalar kuzatilib bular, jamoaviy o‘z o‘zini anglash; jamoaga mansublik hissi; konformlik - guruh bosimiga beriluvchanlik; ishonuvchanlik – shaxsning guruh fikriga ixtiyorsiz berilishi; qadriyatli yo‘naltirilganlik; guruhli jipslik va boshqalar.

Yosh rahbarlarning boshqaruv kompetensiyasini xolis va samarali baholash jamiyatning kelajakdagi etakchilarini tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Sotsiometrik usullar mazkur jarayonda aniqlik va ilmiylikni ta’minlaydigan samarali mexanizm hisoblanadi. Maqolada ko‘rsatib o‘tilgan mezonlar va usullar amaliy va nazariy jihatdan yosh kadrlar siyosatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tavsiyalar:

1. Sotsiometrik tahlilni doimiy ravishda o‘tkazish: Yosh rahbarlar ishtirokida har chorakda sotsiometrik so‘rovlar o‘tkazilishi, ularning ijtimoiy o‘rnidagi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.
2. Yetakchilik salohiyatini baholovchi kompleks diagnostika tizimini joriy etish: Sotsiometriya natijalari psixologik testlar, shaxsiy intervyu va ish natijadorligi tahlili bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.
3. Rahbarlar uchun “etakchilik tajribasi” dasturini yaratish: Sotsiometrik tahlilda yuqori ijtimoiy o‘rin egallagan yosh rahbarlar asosida mentorship (ustozlik) dasturi ishlab chiqilishi mumkin.

4. Ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etish: Yosh rahbarlar uchun jamoada ishlash, qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarda muloqot qilish bo‘yicha amaliy seminarlar muntazam tashkil etilishi zarur.

5. HR va kadrlar bo‘limlarida maxsus tahlil guruhlari tashkil qilish: Kadrlar tanlovida sotsiometrik tahlilni joriy etish uchun sotsiolog va psixologlardan iborat guruh tashkil etish tavsiya etiladi.

6. Amaliy KPI (kalit natija ko‘rsatkichlari)ni sotsiometrik mezonlar bilan uyg‘unlashtirish: Rahbar faoliyati samaradorligini baholashda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ko‘rsatkichlar ham hisobga olinishi lozim.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Boyatzis, R.E. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. Wiley, 1982. – p. 181-190

2. Moreno, J.L. Who Shall Survive? Foundations of Sociometry, Group Psychotherapy and Sociodrama. Beacon House, 1953. – p. 50-65

3. Spencer, L.M., & Spencer, S.M.. Competence at Work: Models for Superior Performance. Wiley, 1993. – p.120-134

4. Ерушкина Л. В. Социология управления: Учебно-методическое пособие. – Нижний Новгород: Нижегородский госуниверситет, 2011. – С. 30.

5. Abdullaeva Z. Yoshlar siyosatida rahbar kadrlar kompetensiyalarini rivojlantirish. Ijtimoiy fanlar, 2021 №3, 45–49-b.

6. Shomansurov Q. Ijtimoiy psixologiya va sotsiometriya. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020. – 35-42-b

UDK: 316.453

YOSHLAR IJTIMOIY KAPITALI RIVOJLANISHINING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Xo`jamqulov Adham Qo`chqor o`g`li
adhamxojamqulov561@gmail.com
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya

Globallashuv davrida barqaror rivojlanishni tushunishda ijtimoiy kapital tushunchasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, bu tushuncha mahalliy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy kapital shakllari va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan boshqa shakllarni farqlashga yordam beradigan nazariy asosni talab qiladi. Ushbu maqolada ijtimoiy kapital madaniyat va fuqarolik nuqtai nazaridan emas, balki ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tarmoqlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ijtimoiy kapital bilan boshqa institutlar, ayniqsa siyosiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sotsiologik tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola milliy iqtisodiy rivojlanishda ijtimoiy kapitalning ijobiy rolini qo‘llab-quvvatlashda siyosiy omillarning - siyosiy harakatlarning hal qiluvchi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy kapital, globallashuv, milliy siyosat, barqaror rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar, mahalliy tarmoqlar, siyosiy institutlar, hamkorlik

Abstract

In the era of globalization, the concept of social capital is becoming increasingly important in understanding sustainable development. However, this concept requires a theoretical foundation that helps distinguish between forms of social capital that positively influence local development and other forms that may lead to negative consequences. This article examines social capital not from the perspective of culture and civic engagement, but from the viewpoint of social relationships and social networks. It also provides a sociological analysis of the interaction between social capital and other institutions, particularly political institutions. Furthermore, the article demonstrates the crucial significance of political factors - specifically political actions - in supporting the positive role of social capital in national economic development.

Key words: social capital, globalization, national policy, sustainable development, social relations, local networks, political institutions, cooperation

So‘nggi yillarda barqaror rivojlanishni tushuntirishda iqtisodiy omillar bilan birga institutsional muhitning roli tobora ko‘proq e’tiborni jalb etmoqda. Dunyo olimlari barqaror rivojlanishning institutsional asoslarini takomillashtirish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro shartnomalarni o‘zgartirish, barqarorlik tushunchasini xalqaro miqyosda boshqarishda yangi qoidalarni joriy etish, barqaror rivojlanish siyosatini Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimiga samaraliroq singdirish, barqaror rivojlanishni boshqarishning milliy tizimini mustahkamlash va davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish kerakligini ta’kidlamoqda. Bundan tashqari, kelgusi yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish bilan bog‘liq yo‘riqnomalar, qoidalar, strategiyalar va harakat rejalari ishlab chiqilishi hamda qabul qilinishi davom ettirilmoqda.

Mamlakatimizda 4−5-aprel kunlari o`tkazilgan birinchi Samarqand xalqaro iqlim forumi doirasida “Yashil” rivojlanishning mintaqaviy konsepsiyasi ham ana shunday strategik maqsadlarni amalga oshirishga qaratildi. Jumladan, Prezidentimiz har yili Navro‘z bayrami arafasida daraxt ekish bo‘yicha “Markaziy Osiyoning yashil belbog‘i” mintaqaviy aksiyasini o‘tkazishni taklif etdi. Navro‘z bayrami milliy qadriyatimiz sifatida ijtimoiy kapitalni ishlab chiqarishga xizmat qilishini inobatga olsak, ushbu taklif mintaqaviy ijtimoiy kapitalni ham rag`batlantiradi.

Shu o‘rinda "ijtimoiy kapital" tushunchasining mazmuniga to‘xtalib o‘tamiz. Bu tushuncha turli xil ma’nolarda va turlicha qo‘llaniladi. Ba’zan u hamkorlik, ishonch va fuqarolik qobiliyatiga, ya’ni mahalliy madaniyatning o‘ziga xos shakliga ishora qilsa, boshqa hollarda boy moddiy va nomoddiy tashqi iqtisodiyotning o‘ziga xos umumiy ko‘rsatkichi sifatida qo‘llaniladi. Yana boshqa hollarda esa, individual va jamoaviy ishtirokchilarni bog‘laydigan, hamkorlik va ishonchni rag‘batlantirishi mumkin bo‘lgan, ammo mahalliy rivojlanishga to‘sqinlik qilishi ham mumkin bo‘lgan munosabatlar tarmog‘iga yanada mos va ehtiyotkorlik bilan murojaat qilinadi. Shunday qilib, zamonaviy iqtisodiyotda mahalliy institutsional sharoitlar tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini hisobga olgan holda, ijtimoiy kapitalning roliga e’tibor qaratish zarur.

Yoshlar ijtimoiy kapitali haqiqatan ham jamiyat uchun foydalimi? Agar javob ijobiy bo‘lsa, qanday sharoitlarda? Quyida bu savollarga, ayniqsa barqaror rivojlanishga e’tibor qaratgan holda javob berishga harakat qilamiz. Bizningcha, agar ijtimoiy kapital tushunchasi ehtiyotkorlik va aniqlik bilan qo‘llanilsa, u bizga nafaqat barqaror rivojlanishni tushunishga, balki yanada mos siyosatni shakllantirishga ham yordam beradi. Albatta, bu yerda barqaror rivojlanish ochiq bozorda mustaqil rivojlanishni anglatadi; bu davlat yoki xalqaro tashkilotlarning qayta taqsimlash siyosatiga bog‘liq bo‘lgan shunchaki daromadning oshishidan farq qiladi.

Ijtimoiy kapital tushunchasi dastlab 1960-yillarda fransuz sotsiologi Per Burde ishlarida qo‘llanila boshlangan. Biroq, bu tushuncha amerikalik Jeyms Koulmanning "Ijtimoiy nazariya asoslari" (1990) asarida keng tarqalib, rivojlanish muammolari bilan bog‘landi. Aslida, bu tushunchaning ildizlari, garchi atamaning o‘zi bo‘lmasa-da, ancha qadimiy bo‘lib, ularni iqtisodiy sotsiologiyaning shakllanish davrida ko‘rish mumkin. Karlo Trigiliyaning ta’kidlashicha ijtimoiy kapital g‘oyasining yashirin qo‘llanilishi Maks Veberning "Protestant axloqi va kapitalizm ruhi" asarida uchraydi. Ushbu asarda Veber o‘zining AQShga safari paytida guvoh bo‘lgan baptistlar marosimini tasvirlaydi. Cho‘qintirilishi kutilayotgan odamlar kiyimlarini yechmasdan, hovuzning muzdek suviga kirishlari kerak edi. Veberning AQShda uzoq vaqt yashagan qarindoshi marosimda qatnashayotgan bir yosh yigitni ko‘rsatib, uning bank ochish niyati borligini aytadi. Baptist sektasiga a’zo bo‘lish biznesni boshlash uchun zarur axloqiy fazilatlarni namoyon etish, kredit olish yoki mijozlarni jalb qilish uchun obro‘ qozonishda muhim edi. Bu aloqalar tadbirkor bilan bir mazhabda bo‘lishi shart emas edi, lekin uning biror sektaga mansubligi uning biznesdagi axloqiy me’yorlariga kafolat bo‘lardi. Bu g‘oyani nazariy jihatdan rivojlantirib, Veber protestant sektalarining Amerika iqtisodiy o‘sishida juda muhim rol o‘ynaganini ta’kidlaydi[1]. Bu ta’sir ixtiyoriy birlashmalarning o‘z a’zolari ustidan nazorat o‘rnatishi orqali kuchaygan. Sekta a’zolari nafaqat o‘z jamoasi ichida, balki umuman iqtisodiy munosabatlarda ham foydali bo‘lgan ma’lum axloqiy fazilatlarni namoyon etishlari kerak edi. Bu fazilatlar tashqi tomonlar e’tiborga oladigan ijtimoiy e’tirof yaratardi.

Boshqacha aytganda, Veber "ijtimoiy kapital" atamasini ishlatmagan bo‘lsa-da, aslida ijtimoiy tarmoqlar g‘oyasini tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishga ta’sir etuvchi vosita sifatida tasavvur qilgan va shu orqali ma’lum bir hududda iqtisodiy rivojlanishni osonlashtirgan. Shunga qaramay, so‘nggi paytlarda bu atamani qo‘llagan olimlar kabi, Veber ham ijtimoiy munosabatlar tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatga bo‘lgan mumkin bo‘lgan ta’sirini ijobiy baholagan.

Granovetterga ko‘ra “ijtimoiy kapitalning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini oldindan aniqlash mumkin emas. Faqat juda batafsil va tarixiy yo‘naltirilgan tahlil madaniy, siyosiy va iqtisodiy omillarning o‘zaro ta’siri nafaqat ijtimoiy kapitalni rivojlantirishi yoki to‘sqinlik qilishini, balki undan mahalliy rivojlanish uchun foydalanish oqibatlarini ham aniqlashga yordam beradi”[2]. Shuning uchun, bu nuqtai nazardan ijtimoiy kapitalga uning iqtisodiyot uchun mumkin bo‘lgan oqibatlariga nisbatan yetarli darajada ochiq bo‘lgan ta’rif berish maqsadga muvofiqdir.

Koulman ijtimoiy kapitalni alohida subyekt yoki jamoaviy subyekt istalgan paytda foydalanishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar majmui sifatida ko‘rib chiqish mumkin deb hisoblagan. Unga ko`ra “diniy, etnik, siyosiy yoki boshqa turdagi

munosabatlarning mavjudligi iqtisodiyotda sarflanishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy kapitalning o‘sishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin”[3]. Bu hol, Koulman ko‘rsatib o‘tganidek, iqtisodiy maqsadlar uchun ijtimoiy kapitalni vujudga keltirishga ochiqdan ochiq va ataylab urinish imkoniyatini istisno qilmaydi.

Kuk va Morganning fikriga ko‘ra tashqi iqtisodiyotga ta’sirini kamsitmaslik kerak bo‘lgan yana bir omil mavjud. Bu holda nafaqat shaxslar o‘rtasidagi, balki tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlar tarmog‘i ham muhim ahamiyatga ega. “Manfaatdor guruhlar va davlat muassasalari o‘rtasidagi munosabatlarning yaxshi tarmog‘i infratuzilma obyektlarini takomillashtirish, iqtisodiy va ijtimoiy xizmatlarni samarali ko‘rsatish, shuningdek, mahalliy va tashqi korxonalarning kapital va investitsiyalari oqimini rag‘batlantirishga yordam berishi mumkin”[4]. Darhaqiqat, mahalliy rivojlanish siyosati davlat va xususiy ishtirokchilar o‘rtasidagi yaqin hamkorlik orqali ishlab chiqilganda va amalga oshirilganda samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy kapital va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi munosabat murakkab va vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi, shuningdek, u faqat hamkorlikka qulay bo‘lgan fuqarolik madaniyatining ijobiy ta’siri bilangina cheklanmaydi. Ishlab chiqarishni tashkil etishdagi so‘nggi o‘zgarishlar, shuningdek globallashuv jarayoni barqaror rivojlanish uchun ijtimoiy kapitalning ahamiyatini oshirmoqda. Bugungi kunda, barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda jamiyatning ayniqsa yoshlarning ijtimoiy kapitalini, ya’ni ularning qadriyatlaridagi bog‘liqlik, ishonch va o‘zaro hamkorlikni rag‘batlantiruvchi xususiyatlarini ham o‘rganish muhim sanaladi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Har qaysi hokim, har bir vazir, har qaysi mahalla raisi “Bugun men yoshlar uchun nima ish qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaati uchun yana nima ish qilishim kerak?” degan savollarga javob beradigan, shunday e’tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi”[5]

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Trigilia, Carlo. (2001). Social Capital and Local Development. European Journal of Social Theory - EUR J SOC THEORY. 4. 427-442.

2. Granovetter, M. (1985) ‘Economic Action and Social Structure: The Problem of Embeddedness’, American Journal of Sociology 91: 481–510.

3. Coleman, J. (1990) Foundations of Social Theory. Cambridge, MA: Harvard University Press. P. 317.

4. Cooke, P. and Morgan, K. (1998) The Associational Economy. Oxford: Oxford University Press. P. 57.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqi. 26.12.2020.

ALGORITHMIC SPACES: THE POWER OF SOCIAL MEDIA IN SHAPING URBAN MEMORY

Beyza Özer
ozerb19@itu.edu.tr
İstanbul Teknik Üniversitesi, Öğrenci (Türkiye)

Abstract

This study analyzes how the algorithmic structures of social media platforms such as TikTok and Instagram shape urban spaces through a sociological and spatial lens. Grounded in the spatial theory of Henri Lefebvre, Baudrillard's notion of simulation, and Foucault's concept of heterotopia, it argues that digital content production renders certain urban areas hyper-visible while marginalizing others. Through the case studies of Istanbul's Balat and Tarlabaşı neighborhoods, as well as the historic cities of Samarkand and Khiva, the research focuses on the selective impact of visual representations on digital collective memory. The study concludes that social media algorithms are constructing a new spatial dimension in urban aesthetics and memory, exacerbating digital inequalities in the process.

Keywords: Algorithmic space, urban sociology, digital representation, simulation, digital culture, Istanbul, Samarkand

Introduction

Cities are social spaces in which historical continuity and collective memory are shaped, alongside their physical presence. According to Lefebvre, urban space is a phenomenon that is constructed, experienced, and represented [17]. Today, these representations are increasingly shaped through visually dominant social media platforms. The knowledge, data, and evaluations derived from the context of social media are of great significance, as social media networks and tools have rapidly become widespread and influential instruments of communication across all social structures [3]. These digital mediums act as new interfaces that transform how cities are perceived, experienced, and remembered. According to Stavrides, common spaces should be democratic environments where diverse identities come together and interact [19]. Algorithms selectively reframe urban space by amplifying certain places while rendering others invisible. This process leads to the rewriting of the physical city within the digital realm, and at times, to the homogenization of spatial memory. This article aims to examine processes of digital aesthetics and representation within a sociological framework. It investigates the impact of social media's algorithmic structures on urban representation, collective memory, and spatial identity. These effects will be illustrated through case studies from selected neighborhoods in Istanbul and urban examples from Uzbekistan

Social media and spatial imagery

People's daily activities unfold within social contexts [10], while perceptions, emotions, and social views are increasingly shaped by global media tools [2]. Social media platforms render individuals' everyday lives—particularly their spatial experiences—visible. This visibility is the result of a process driven by algorithms. The algorithms of

these applications determine how widely content will spread by drawing upon users’ past interactions. Consequently, certain urban spaces enter into digital circulation by being categorized as “Instagrammable,” “story-worthy,” or “Reels-ready” aesthetic types [18]. Through filters, sounds, and trends, places acquire new meanings in digital space. These narratives not only convey aesthetic value but also reshape spatial memory. This process leads to the overrepresentation of certain places while rendering others invisible; urban memory is reconfigured through digital aesthetics [20]. Urban sociology becomes fractured, as the cultural diversity, uniqueness, and local character present in particular neighborhoods gradually become commodified aesthetic assets.

This signifies the consumption and repurposing of the authentic for the sake of image-making and trend appeal [23]. As Bourdieu argues, aesthetic judgments are grounded in cultural capital; in this context, the visual regimes of Instagram and TikTok establish a powerful hegemony over what is considered beautiful or worthy of sharing [9]. Algorithms do not merely rank content—they also generate normative filters that classify spatial aesthetics. On Instagram, categories such as “minimal,” “retro,” and “boho” emerge, while on TikTok, narratives are constructed through sound and montage, transforming urban spaces into stages for digital content. Thus, Benjamin’s notion of the “de-aura’d” space is reproduced according to the visual codes of the digital economy [6,7]. According to Highfield, when people share an ordinary photo taken in a park, mosque, or café, they are in fact engaging in a representation of that space. As these representations accumulate, they form the digital image of the place [15]. Algorithmic structures cause some urban spaces to circulate intensely while others remain entirely invisible. As a result, cities begin to be represented by algorithms in aesthetically appealing, commercialized, and easily consumable forms. For instance, Balat—a neighborhood with a multilayered cultural memory shaped by Muslim, Jewish, Greek, and Armenian communities throughout history—is presented on Instagram within a limited aesthetic framework of pastel-colored houses, coffee shops, and graffiti [16]. Algorithms foreground such visual content, reducing Balat to a stereotype devoid of its diversity, thereby rendering its historical and socioeconomic context invisible. Similarly, Registan Square in Samarkand is often depicted in filtered frames captured during the “golden hour,” serving as a superficial aesthetic backdrop rather than conveying its historical depth [21]. However, the Transoxiana region has long been known for its strong societal fabric and vibrant cultural life [4]. Social media fails to represent the full spectrum and essence of social life, instead offering people cropped scenes. With rapid consumption, space loses its status as a meaningful social environment and transforms into a “trending stage.” Particularly examples of Eastern Islamic architecture—domes, tiles, arches—are dramatized through filters and effects to make them suitable for digital consumption [1]. For instance, the Shah-i-Zinda complex is often represented in a superficial manner through “mystical” narratives. This digital mediation not only reshapes architectural heritage on platforms but also influences its physical presence, as municipalities and tourism agencies may base restoration decisions on digital visibility indexes.

From simulation to heterotopia: the digital duality of space

Jean Baudrillard’s theory of simulation plays a central role in this context. According to Baudrillard, in the contemporary world, reality is displaced by its representations; representation no longer reflects reality—it produces it [5]. Social media does not merely

represent urban space; it reconstructs it. Spaces that are forgotten, fall off the agenda, or lack “algorithmic value” become invisible within the collective digital memory. For instance, Istanbul’s Tarlabaşı district was once a popular site for generating social media content [8]. However, due to security concerns, gentrification, and its misalignment with aesthetic codes, it has largely lost its digital visibility. This highlights how urban memory is selectively rewritten through digital filters. Michel Foucault’s concept of heterotopia provides a significant theoretical basis for understanding spatial dynamics within social media. Heterotopia refers to spaces that mirror society yet exist apart from it, governed by different regulatory principles [11]. In this sense, TikTok and Instagram produce a digital twin of physical space; however, this twin often lacks many of the original’s core attributes [13]. For example, when a historical inn or arcade goes viral on TikTok merely through its lighting effects or architectural details, the site's historical, cultural, and socioeconomic contexts are completely omitted. This situation points to what Sharon Zukin describes as a crisis of cultural representation: urban aesthetics are structured according to the representational power of dominant groups and the algorithmic priorities of platforms [22]. Digital heterotopias allow a space to acquire alternative identities in the digital realm [12]. In the context of Uzbekistan, this is particularly observable in places like Khiva. Despite its status as a UNESCO World Heritage site, Khiva is frequently coded on social media either through fairy-tale-like narratives or orientalist aesthetics [21]. TikTok videos shot within the inner walls of Khiva almost entirely disregard the city’s historical continuity, artisanal traditions, and architectural authenticity. The meaning is distorted. These digitized heterotopic narratives erode the memory embedded in physical space. Sociologically, this amounts to the recolonization of urban memory through digital representations [14].

Conclusion: The sociology of the algorithmic city

The city transforms into an “algorithmic space” shaped by the interactions of social media users. Social media has evolved beyond a tool for individual sharing into digital arenas where collective urban memory is rewritten. On these platforms, some places are highlighted while others become invisible. This new visibility of urban representations reshapes our relationship with physical space and redefines cultural values. The examples from Istanbul and Uzbekistan illustrate how historical heritage and urban aesthetics are increasingly shaped by digital aesthetic regimes. This transformation underscores not only the observational role of sociology but also its function in analyzing and developing alternative public spaces. The digital reproduction of spatial representations should be addressed through an interdisciplinary approach that includes urban sociology. Research at the intersection of architecture, sociology, and media studies can contribute to understanding this process and formulating alternative representations of the city. To avoid surrendering collective memory to algorithms, it is necessary to produce representations that are aware of the influence of popular culture, reduce digital inequalities, and offer new narratives for invisible spaces.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Abduvakhidov, A., & Jalilov, M. *Issues of national identity in the people of Central Asia*. – Journal of Law and Sustainable Development, 2024, 11(12). https://doi.org/10.55908/sdgs.v11i12.2796 – p. 12.

2. Ataman, K. Y. (2020). Basic Dynamics of Living Together in a Globalizing World. www.doi.org/10.7596/taksad.v9i2.2663 - p. 3.

3. Ataman, K. Y. (2020). *Küreselleşmenin Sosyokültürel Düşünce Yapısının Analizi ve Türkiye* [Doctoral dissertation, Sakarya Universitesi (Turkey)]. – p. 20.

4. Ataman, K. Y. (2020). *Maveraünnehir'de İslam Medeniyeti Üzerine Küresel Bir Analiz.* Itobiad: Journal of the Human & Social Science Researches/İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi, 9(3). – p. 11.

5. Baudrillard, J. *Simulacra and Simulation* (S. F. Glaser, Trans.). – Michigan: University of Michigan Press, 1994. – p. 38.

6. Benjamin, W. *Fotoğraf yazıları* (A. Cemal, Çev.). – İstanbul: Kolektif Kitap, 2019. – p. 52.

7. Benjamin, W. *Teknik olarak yeniden-üretilebilirlik çağında sanat yapıtı* (A. Cemal, Çev.). – İstanbul: Zeplin Kitap, 2020. – p. 23.

8. Bıçakçı, A. B. *Branding the city through culture: Istanbul, European Capital of Culture*. – Journal of Human Sciences, 2012, 9(1), 1120–1133. – p. 1125

9. Bourdieu, P. *Varisler: Öğrenciler ve kültür* (A. Cemal, Çev.). – İstanbul: Heretik Yayıncılık, 2014. – p. 78.

10. De Certeau, M. *The Practice of Everyday Life* (S. Rendall, Trans.). – California: University of California Press, 1984. – p. 117.

11. Foucault, M. *Of Other Spaces: Utopias and Heterotopias*. In N. Leach (Ed.), *Rethinking Architecture: A Reader in Cultural Theory*, 1986, pp. 330–336. – London: Routledge.

12. Foucault, M. *Özne ve iktidar* (İ. Ergüden, Çev.) (7. basım). – İstanbul: Ayrıntı Yayınları, 2011. – p. 142.

13. Foucault, M. *Kelimeler ve Şeyler* (M. A. Kılıçbay, Çev.). – Ankara: İmge Kitabevi Yayınları, 2017. – p. 61.

14. Harvey, D. *Social Justice and the City*. – London: Edward Arnold, 1973. – p. 108.

15. Highfield, T. *Social Media and Everyday Politics*. – Cambridge: Polity Press, 2016. – p. 93.

16. İnanoğlu, C. G. *Urban problematic of cultural management in historical fragments in Istanbul: A case study in Fener-Balat and Süleymaniye*. In *The Sustainable City XII*, Vol. 223, 2017, pp. 357–366. – Southampton: WIT Press. https://doi.org/10.2495/SC170311

17. Lefebvre, H. *The Production of Space* (D. Nicholson-Smith, Trans.). – Oxford: Blackwell Publishing, 1991. – p. 33.

18. Manovich, L. *Instagram and Contemporary Image*. – London: Bloomsbury Publishing, 2020. – p. 14.

19. Stavrides, S. *Common Space: The City as Commons*. – London: Zed Books, 2016. – p. 21.

20. Till, K. E. *Wounded Cities: Memory-Work and a Place-Based Ethics of Care*. – Political Geography, 2012, 31(1), 3–14. https://doi.org/10.1016/j.polgeo.2011.10.008 – p. 6.

21. Usmonova, G. *The Role of Social Media in Lighting up the History of Uzbekistan.* – Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2025, 3(3). https://westerneuropeanstudies.com/index.php/4

22. Zukin, S. *The Cultures of Cities*. – Oxford: Blackwell, 1995. – p. 47.
23. Zukin, S. *Naked City: The Death and Life of Authentic Urban Places*. – New York: Oxford University Press, 2010. – p. 12.

ӘОЖ 1.101.3

ҚОҒАМДЫ ЗЕРТТЕУДІҢ ФИЛОСОФИЯЛЫҚ АСПЕКТІЛЕРІ

Әділхан Ескендір
adilkankz@icloud.com
Академик Е.А. Бөкетов атындағы Қарағанды университеті Философия және психология факультеті, "Философия" білім беру бағдарласының, студент
Ғылыми жетекші: **Аринов Ерлан Кенжебаевич**
Академик Е.А. Бөкетов атындағы Қарағанды университеті Философия және психология факультеті, философия және мәдениет теориясы кафедрасының аға оқытушысы

Аннотация

Бұл мақалада қоғамды зерттеудің философиялық аспектілері қарастырылады. Қоғам – тек әлеуметтік құрылымдар мен институттар жиынтығы ғана емес, сонымен қатар рухани, мәдени және этикалық өлшемдері бар күрделі құбылыс. Философиялық талдау қоғамның мәнін, дамуының ішкі заңдылықтарын, адам мен қоғам арасындағы байланыстарды терең түсінуге мүмкіндік береді. Осы тұрғыдан алғанда, философия қоғамды зерттеудің теориялық-методологиялық негізі ретінде маңызды рөл атқарады.

Кілт сөздер: қоғам, философия, қоғамды зерттеу, қоғамның құрылымы, қоғамның дамуы

Abstract

This article explores the philosophical aspects of studying society. Society is not merely a collection of social structures and institutions, but a complex phenomenon that encompasses spiritual, cultural, and ethical dimensions. Philosophical analysis allows for a deeper understanding of the essence of society, the internal laws of its development, and the relationship between the individual and society. From this perspective, philosophy plays a crucial role as the theoretical and methodological foundation for the study of society.

Keywords: society, philosophy, study of society, social structure, social development

Қоғамды зерттеу – әлеуметтік ғылымдардың, философияның және гуманитарлық пәндердің маңызды құрамдас бөлігі. Бұл зерттеу сала қоғамның құрылымын, функцияларын, даму үрдістерін және адамзат арасындағы өзара байланысты терең түсінуге бағытталған. Қоғамды зерттеудің философиялық аспектілері бірнеше негізгі бағыттарға бөлінеді, олар қоғамның табиғатын, оның құрылымдарын, дамуын және адамның қоғамдағы рөлін анықтауға көмектеседі.

Философия қоғамды зерттегенде, оның табиғаты мен шыққан тегіне мән береді. Әрине, "қоғам – бұл тек адамдардың топтасқан ұйымы емес, ол әлеуметтік, мәдени, экономикалық және саяси қарым-қатынастардың жиынтығы" [1]. Философиялық тұрғыдан қоғамды зерттеу, оның жекелеген мүшелері мен қоғамдық топтары арасындағы қатынас, моральдық, этикалық нормалар мен құндылықтар, сондай-ақ, қоғамдағы әділеттілік пен теңдік мәселелерін қамтиды. Мысалы, Платон өзінің "Мемлекет" еңбегінде идеалды қоғамның құрылымы мен басқару жүйесін сипаттаған. Аристотель "Саясат" еңбегінде қоғамды ұйымдастырудың әртүрлі модельдері мен түрлерін талдаған.

Қоғамның құрылымын зерттеу әлеуметтік топтар, институттар және мәдениет арасындағы өзара байланыстарды түсінуге мүмкіндік береді. Философия бұл құрылымдарды талдауда әр түрлі теорияларды, мысалы, Дюркгеймнің әлеуметтік интеграция мен анатомия теориясын, Маркстің классалық құрылымдар концепциясын қолданады. Бұл тұрғыда қоғамның әр түрлі деңгейлерінде (отбасы, қауым, мемлекет) қатынастар мен иерархияларды зерттеудің маңызы зор Дюркгейм "Өзін-өзі өлтіру" еңбегінде әлеуметтік интеграцияның маңыздылығын және оның қоғамдағы әсерін көрсеткен. Вебер "Экономика және қоғам" еңбегінде әлеуметтік әрекеттер мен мәдениет арасындағы байланысты зерттеді. Маркс болса, қоғамды таптық күрес және өндірістік қатынастар тұрғысынан талдады, бұл оның "Капитал" еңбегінде көрініс тапты.

"Философиялық тұрғыдан қоғамның дамуы – бұл тарихи, мәдени және әлеуметтік эволюцияның процесі. Әрбір тарихи кезеңде қоғамның дамуы ерекше сипатта болады, бұл жерде философия тарихы, әлеуметтік өзгерістер мен прогресске қатысты білімдер сұрыпталады"[2]. Адамзаттың тарихындағы революциялар, реформациялар, соғыстар мен қозғалыстар қоғамның даму жолында маңызды рөл атқаратыны сөзсіз. Қоғамның дамуын философиялық тұрғыдан зерттеу қоғамның эволюциясының принциптерін анықтайды. Гегельдің диалектикалық әдісі мен тарихи материализм концепциясы қоғамның даму процестерін түсінуге мүмкіндік береді. Оның "Тарихтың философиялық зерттеуі" еңбегі тарихи процестердің маңызды факторлары мен өзгерістері туралы терең ойларымен ерекшеленеді.

"Адамның қоғамдағы рөлі – қоғамды зерттеудің тағы бір маңызды аспектісі. Адамдар қоғамдық құрылымның негізгі бірлігі және олардың әрекеттері мен қарым-қатынастары қоғамды құрайды. Философиялық тұрғыдан адамдардың қоғамдағы жауапкершілігі, еркіндігі, құқықтары мен міндеттері әлеуметтік зерттеулердің бағдарларын анықтайды"[3]. Адам мен қоғам арасындағы қатынасты зерттеу қоғамның этикалық және моральдық аспектілерін қозғайды.

Адам мен қоғамның өзара байланысы философияның келесі аспектісі болып табылады. Ханна Арендт "Адамдар, жер мен замандағы адам" еңбегінде адамның іс-әрекетін және қоғамдағы жеке тұлғаның рөлін зерттеді. Ол қоғамдағы адам құқықтары мен жауапкершіліктің маңыздылығын ерекше атап өтті. Ал, Жан-Жак Руссо "Әлеуметтік келісім" еңбегінде қоғамдық келісімнің принциптерін және демократиялық қоғамның негіздерін талдады.

Әлеуметтік ғылымдар мен философия арасында тығыз байланыс бар. Әлеуметтану қоғамды ғылыми тұрғыдан зерттеумен айналысса, философия оның

принциптік негіздерін, құндылықтарын және идеалдарын талдайды. Философиялық ойлар әлеуметтанулық зерттеулерге бағыт беріп, қоғамның дамуындағы дәстүрлі және қазіргі қиындықтарды түсінуге көмектеседі. Пьер Бурдьенің "Әлеуметтану ережелері" еңбегі әлеуметтік құрылымдар мен мәдениет арасындағы байланысты философиялық тұрғыдан қарастырады.

Қоғамды зерттеудің философиялық аспектілері қоғамдық ғылымдардың негізін құрайды. Философия қоғамның табиғатын, құрылымын, дамуын және адамның қоғамдағы орнын терең түсінуге ықпал етеді. Бұл зерттеулер қазіргі әлемдегі әлеуметтік мәселелерді, адам құқықтары мен әділеттілік мәселелерін зерттеуде жаңа ойлар мен көзқарастарды қалыптастыруға көмектеседі. Ашық қоғам мен әлеуметтік теңдікті құруда философиялық зерттеулердің маңызы ерекше.

Пайдаланылған әдебиеттер тізімі

1. Нұрышева Г.Ж. Философия. – Алматы: Інжу-маржан, 2013. – 237 б.
2. Серік Мырзалы. Философия: оқу құралы. – Алматы: Бастау, 2014. – 189 б.
3. Абдрасилова Г. Философия: тарихи, теориялық дискурс: оқу құралы: 2-ші том. – Алматы: Қазақ ун-ті, 2018. – 301 б

YANGI O‘ZBEKISTONDA, OILA MUSTAHKAMLIGINING ASOSIY OMILLARI

Razzakova Nargis YUldashevna
e-mail: nargisrazzakova2020@gmail.com
O‘zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti, Ijtimoiy ish kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada, oilalarda turli vaziyatlarni yuzaga kelish sabablari, oila mustahkamligi bo‘yicha paydo bo‘ladigan omillar, respublikada ajrim holatlarini qisqartirish va aholi orasida oila barqarorligiga oid manbaalarni targ‘ib qilish va tushuntirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar tizimli tahlil etilgan hamda tegishli xulosalar asosida takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, ajrim holatlarini qisqartirish, oila mustahkamligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyalash

Annotation

This article systematically examines the causes of various situations in families, factors influencing the strength of the family, reducing cases of separation in the republic, as well as the ongoing work to promote and explain the sources of family stability among the population. are analyzed and proposals are made based on the relevant findings.

Keywords: Family, reduction in divorce cases, family strength, social support, social protection

Kirish. Jamiyatning oila tarkibida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar bevosita demografik hodisalar asosida yuz beradi. Nikoh qurish, bola tug‘ilishi, ya’ni yosh oilaning vujudga kelishi yoki nikohning bekor qilinishi, oila a’zolaridan, ya’ni er-xotinlardan birining bevaqt o‘limi mana shunday hodisalar hisoblanadi. Natijada bularning bari oiladagi reproduktiv xulq-atvorni shakllanishi jamiyat va davlat bardavomligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Agar oilada ota-onani, keksalarga hurmat ko‘rsatib, farzandlarida o‘zaro yordam kabi hislatlar shakllantirsa, yangi avlod mustahkam oila qurishida, uning shallanishida ijtimoiy funksiyalarni bajarishi asosiy omillardan hisoblanadi [2]. Tarixning burilish pallalarida jamiyat poydevori bo‘lgan oila va uning taqdiri haqida ana shunday umumlashmalar va tadqiqotlar yaratishga urinish bo‘yicha juda ko‘p misollar bor bo‘lib, bu borada jadid ma’rifatparvarlarining xizmatlarini alohida aytib o‘tishga to‘g‘ri keladi.

Jadidchilik namoyandalari inson va mamlakat taqdiri, ularning kelajakda yutuq va yoki baxtsizligi, yuksalishi yoki tanazzuli oilaviy muhit bilan uzviy bog‘liqligini chuqur his etdilar hamda oilaning jamiyatda tutgan mavqei, oila tarbiyasi va ma’naviyati xususida ilmiy tadqiqotlar yaratishga kirishdilar, badiiy asarlarida bu dolzarb masalaga alohida e’tibor qaratdilar.[3]

Jadidchilik namoyandalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqalar tomonidan e’lon qilingan bir qator maqolalarda jamiyatning ma’naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog‘liqligi atroflicha tahlil etildi. Ma’rifatchilar shundan kelib chiqib, jamiyat taqdiri oilalar muhitiga bog‘liq bo‘lsa, oila ma’naviyatining o‘zi kimga yoki nimaga bog‘liq, degan haqli savolni o‘rtaga qo‘ydilar. Ularning fikricha, agar oilada sog‘lom turmush tarzi ustuvor bo‘lib, farzand har jihatdan to‘g‘ri tarbiya topgan bo‘lsa, u shubhasiz o‘zidagi ijobiy fazilatlarni xizmat jarayoniga ko‘chiradi, ijtimoiy mehnat faoliyatida qo‘llaydi, natijada jamiyatdagi barcha munosabatlarga ta’sir o‘tkazadi. Binobarin, oilaning go‘zal odob-axloq, xushmuomalalik, samimiylik, mehnatsevarlik, ilm-ma’rifatga hurmat asosiga qurilgan bo‘lishi g‘oyat muhim masala bo‘lib, bu ijtimoiy munosabatlarga muntazam ta’sir etib, unga kuch-quvvat berib turuvchi yagona omilga aylanadi. Tarbiya ko‘rgan shaxsning yurish-turishi, madaniy muomalasi, go‘zal xulq-atvori jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar xarakteriga ta’sir eta borib, Forobiy aytganidek, fozil odamlar jamoasining shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Bu o‘rinda, ayniqsa, Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Sag‘irlar haqinda», «Hifzi sihati oila» («Oila sog‘lig‘ining himoyasi»), Abdusalom Azimiyning «Ta’lim va tarbiya», Ibratning «Millatni kim isloh etar?», Abdurauf Fitratning «Buxoro hukumatining islohkorona qadamlari», Mirmuhsinning «Ahvoli zorimiz» kabi «Oyina» jurnalida chop etilgan maqolalari oila tarbiyasiga oid muhim muammolarni ko‘tarib chiqqanini ta’kidlash zarur.[4, 41-49] Jumladan, A. Azimiyning «Ta’lim va tarbiya» maqolasidan shunday satrlarni o‘qiymiz: «… bolaga ona birinchi omil va murabbiydir. Onani ta’siri bolaga, otani ta’siridan ziyodadur. CHunki, ona bolani bir necha oylar qani birla g‘izolandurur. Va bahdaz tavallud sanalarcha suti birla parvarish etar. Va muddatlarcha og‘ushi mushfiqonasiga tarbiya etar. Bu sababli bola ona tarbiyasida bo‘lg‘usi ovonlarda muhitiga muvofiqholda tabiatlanur, ki bul tabiat va odat agar nomahqulholda bo‘lunsa katta bo‘lganidan so‘ng islohi mushkuldir». 2 Jadidchi ma’rifatchilar yangi davr va yangi tuzum uchun kurashni, eng avvalo, oilani isloh qilishdan boshlamoq zarur, deb hisobladilar.

Ularning fikricha, oila asosini to‘g‘ri qurmay turib va yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog‘liq.[5, 4-6] Bu g‘oya, tadqiqotchi D. Alimova to‘g‘ri belgilganidek, Fitratning 1915 yilda e’lon qilgan «Oila yoki oilani boshqarish tartiblari» asarida o‘z ifodasini topdi. Fitrat nuqtai nazariga ko‘ra, farzandning har jihatdan to‘laqonli inson bo‘lib shakllanishi uchun unga jismoniy, aqliy va ma’naviy yo‘nalishlarda ko‘p tarkibli tarbiya berish lozim bo‘ladi. Muallif bu o‘rinda yuqoridagilar bilan kifoyalanmay, bola ruhi ham tarbiyalanishga muhtoj ekanligini alohida uqtiradi: «Odamning fe’l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhini tarbiyalash lozim, – deb yozadi olim. Bolalarni o‘ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o‘z qadr-qimmati, shaxsini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni, shuning bilan birga, yon atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o‘rgatmoq kerak. Bolalarni shunday tarbiya etmoq lozimki, baxtga bo‘lgan intilishlari hech qachon xazon bo‘lmasin, so‘nmasin, balki ko‘karsin» [6, 86].

Tadqiqot metodologiyasi

Oilalarda shaxslar omillarini aro munosabatlarni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan izlanishlarimiz davomida tadqiqot metodologiyasining tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash kabi usullar qo‘llanilgan. Natijada, mamlakatimiz aholisi orasida turli nizo va oilaga salbiy ta’sir qiluvchi manbalardan saqlashda avvalambor, xalqning turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oiladagi vaziyatni barqarorlashtirishga doir ishlar tahlili ilmiy xulosalar shakllantirishga asos bo‘ldi.

Ma’lumki, farzand tarbiyasida uning yoshi, jinsi, xarakter hususiyatlari, qiziqishlari kabi omillar e’tiborga olinadi. Tarbiya chuqur hissiyotlarni yuzaga keltiradigan mavzu bo‘lib, muhim masalalarni ko‘taradi hamda har bir oila uchun o‘ziga xos sanaladi. Turli insonlar uchun bolalar tarbiyasi turli narsalarni anglatadi.

Farzandlarning xulqiga e’tibor berish juda zarur. Ota-onalar o‘z farzandlarining ijobiy fazilatlarini oldindan ko‘ra olishlari kerak. *“Odamga bolalikdan singdirilgan odatlar yosh daraxt tanasiga o‘yib yozilgan harflarga o‘xshaydiki, ular daraxt bilan birga o‘sadi, voyaga etadi daraxtning tarkibiy qismiga aylanib qoladi”, deydi* **Viktor Gyugo.** Ota-onalar qancha ko‘p tanbeh bersalar, yomon axloq shuncha ko‘p takrorlanadi. Ular ko‘plab tanbeh olishganda bolalar o‘zini yomon tutishi kerak bo‘lgan yomon bola sifatida tushinishni boshlaydilar. SHunday tarzda ular o‘z xulqlarini tuzatish uchun motivatsiyani his qilmaydilar. Ota-onalar bilishadiki, eng samarali yondashuv o‘z bolalarining yaxshi sifatlarini tan olish va e’tirof etish hisoblanadi. Buni bajarish uchun barcha imkoniyatni ishga solishga to‘g‘ri keladi, shunda tezda farzandlaringiz xulqi yaxshilanganligini sezasiz.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” PF-29-son farmoni. 03.12.2021 yil. https://lex.uz.

2. Fitrat A., Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000; Oyina. – Toshkent: Akademiya, 2001.

3. Oyina. – Toshkent: Akademiya, 2001, 41–49-betlar.

4. Darmodexin S.V. Semya v sisteme sotsialnыx otnosheniy sovremennogo obщestva.-M.:«Nashriyot nomi» 2008. -№3.S.159; Osnovы sotsialnoy raboty. Otv.red. P.D.Pavlenok. -2-e izd., ispr. i dop.-M.:«INFRA». 2003. -S.395.

5. Alimova D. Oila poydevori haqida risola (asarning ikkinchi nashriga kirish so‘zi). Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000, 4-b.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ НЕФОРМАЛЬНОЙ ЗАНЯТОСТИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Исламбаев Равшанбек Исламбай угли

Специалист отдела экспресс- исследований Республиканского центра изучения общественного мнения «Ижтимоий фикр» соискатель НУУз кафедры социологии имени Мирзо Улугбека

Аннотация

В статье рассмотрены комплексные теоретико-методологические подходы неформальной занятости, учитывающего экономические, социальные и правовые аспекты, а также рассмотрены методологические принципы изучения молодежной неформальной занятости.

Ключевые слова: Занятость, неформальная занятость, неформальный сектор, молодежная неформальная занятость, правовая защита работника, структуралистский подход, неолиберальный подход, институциональный подход

Annotation

The article considers complex theoretical and methodological approaches to informal employment, taking into account economic, social and legal aspects, as well as methodological principles of studying youth informal employment.

Key words: employment, informal employment, informal sector, youth informal employment, legal protection of the employee, structuralist approach, neoliberal approach, institutional approach

Неформальная занятость представляет собой значимый феномен на рынке труда, особенно среди молодежи, которая в силу возраста, недостатка опыта и ограниченных возможностей трудоустройства часто вовлекается в трудовую деятельность вне рамок формального сектора. Она остается одной из ключевых проблем современного рынка труда, особенно среди молодежи. Неформальная занятость характеризуется отсутствием официального трудового договора, социальных гарантий и правовой защиты для работников. Социология труда и исследования молодёжи должны уделять особое внимание этой форме занятости. Необходимо разработать комплексный подход к исследованию неформальной занятости среди молодёжи, опираясь на фундаментальные теоретические и методологические принципы. Такой подход позволит лучше понять особенности, причины и последствия неформальной занятости для молодых людей. Изучение неформальной занятости среди молодёжи требует учета экономических,

социальных и правовых аспектов.

Понятие «неформальная занятость» активно разрабатывается с конца XX века в контексте трансформации рынков труда. Согласно определению Международной организации труда (МОТ), неформальная занятость охватывает виды трудовой деятельности, которые не регулируются государственными нормами, не обеспечивают социальных гарантий и часто не подлежат статистическому учету [1].

Молодежная неформальная занятость включает в себя как эпизодические, временные формы работы (репетиторство, фриланс, сезонные подработки), так и устойчивые формы трудовой активности, протекающие вне формальных рамок. Специфика молодежной неформальной занятости заключается в сочетании экономических, социальных и психологических факторов, влияющих на выбор неформального сектора [2, 355-380].

Социологические исследования акцентируют внимание на социальных сетях и неформальных связях, которые способствуют вовлечению молодежи в теневой сектор. Также рассматриваются мотивационные факторы: гибкий график, возможность быстрого заработка, отсутствие альтернатив. Правовой анализ неформальной занятости фокусируется на пробелах в трудовом законодательстве и недостаточном контроле со стороны государства. Молодые работники часто не осознают своих прав либо сознательно идут на риск, предпочитая неформальные отношения.

Можно выделить несколько подходов к изучению неформальной занятости:

Структуралистский подход: неформальная занятость является следствием институциональных ограничений, дисфункциональности рынка труда и социальной стратификации. Неформальный сектор трактуется как вынужденная альтернатива в условиях нехватки рабочих мест в формальной экономике [3].

Неолиберальный подход, напротив, подчеркивает предпринимательский потенциал неформальной занятости. Молодежь рассматривается как активный субъект, ищущий гибкие формы самозанятости в условиях дерегулирования формальных институтов [4]. Однако такой взгляд критикуется за игнорирование социального неравенства и рисков, связанных с отсутствием правовой защиты.

Институциональный подход: институционалисты подчеркивают важность нормативно-ценностных структур и уровня доверия к государству. Снижение доверия к официальным институтам, коррупция и бюрократия способствуют расширению неформальной занятости, особенно среди молодежи [5].

Структуралистская парадигма восходит к трудам А. Портеса и других представителей неомарксистской школы, рассматривающих неформальную занятость как прямое следствие структурных проблем экономики и социальной стратификации [6, 3-6]. Согласно этому подходу, неформальный сектор возникает из-за неспособности формального сектора предоставить достаточное количество рабочих мест, особенно для маргинализированных групп — в том числе молодежи, женщин, мигрантов.

Молодежь в структуре рынка труда рассматривается как уязвимая группа, часто вытесняемая из конкурентной борьбы по причине отсутствия опыта, низкого уровня образования и социального капитала. В условиях высокой безработицы и нестабильности рынок труда адаптируется за счёт создания гибких, но

нестабильных форм занятости — подработок, временных и сезонных работ, теневой деятельности [7].

Неолиберальный подход интерпретирует неформальную занятость как результат рационального выбора индивидов, стремящихся избежать бюрократических ограничений, налоговой нагрузки и чрезмерного государственного контроля [8]. В этой трактовке неформальный труд выступает как поле предпринимательской свободы и самореализации, особенно актуальное для молодежи, ищущей гибкие и независимые формы занятости (например, фриланс, цифровая экономика, стартапы). Сторонники подхода подчеркивают, что неформальная занятость может стать ступенью к развитию малого бизнеса и инновационной активности, если созданы соответствующие условия.

Институциональный подход делает акцент на влиянии формальных и неформальных правил, норм и ожиданий на поведение индивидов на рынке труда [9]. Он исходит из предположения, что неформальная занятость возникает не только как следствие бедности или избыточного регулирования, но и из-за слабости институтов: недостатка доверия к государству, коррупции, неэффективной правовой системы, неработающего механизма социальной защиты. Молодежь в условиях слабых институтов сталкивается с множеством барьеров: формальная работа требует затрат (налоги, лицензии, регистрации), а выгоды при этом минимальны. В результате молодые люди выбирают неформальные формы занятости, полагаясь на неформальные связи (семья, друзья, сообщества).

Также стоит упомянуть культурный или социокультурный подход, согласно которому неформальная занятость — это не только экономический, но и социально-культурный феномен. В некоторых сообществах работа «по знакомству», «без оформления» является нормой, а не исключением. Особенно это характерно для молодежи, социализирующейся в условиях, где теневая занятость не только распространена, но и считается удобным способом «попробовать себя» без рисков и обязательств [10]. Такой подход предлагает рассматривать поведение молодежи не как иррациональное или вынужденное, а как культурно легитимированное.

Основные идеи культурного подхода:

- Неформальная занятость как часть локальной культуры труда;
- Молодежь как носитель и транслятор этих норм;
- Значение микросреды и неформальных сетей;
- Легитимизация через язык и нарративы

Социокультурный подход особенно актуален для стран с наследием плановой экономики, высоким уровнем недоверия к государственным институтам и неустойчивыми формами социальной мобильности — таких, как Узбекистан, Таджикистан, Кыргызстан, а также части Восточной Европы [11].

Таб 1. Обобщающая таблица теоретических подходов

К основным методологическим подходам, используемым для изучения неформальной занятости молодежи, можно отнести:

Комплексность и междисциплинарность — изучение молодежной неформальной занятости требует учета экономических, социальных, психологических и культурных факторов. Эффективным является применение междисциплинарных подходов, сочетающих методы социологии, экономики, психологии труда и антропологии [12].

Использование количественных и качественных методов. Эмпирическое исследование должно включать как количественные методы (анкетирование, анализ статистики, вторичный анализ данных), так и качественные (глубинные интервью, фокус-группы, кейс-стади). Особую значимость имеет биографический метод, позволяющий выявить индивидуальные траектории вовлечения молодежи в неформальную занятость [13].

Учет региональной специфики - методология анализа должна учитывать локальный контекст: уровень экономического развития региона, специфику молодежной культуры, доступность формального труда, влияние миграции и диаспоры [14].

Теоретико-методологические аспекты изучения неформальной занятости молодежи представляют собой сложную многомерную конструкцию, требующую системного и эмпирически обоснованного подхода. Применение разнообразных методов исследования позволяет получить наиболее полную картину данного явления и разработать меры по его сокращению. Для построения эффективной молодежной политики необходимо учитывать мотивацию молодежи, институциональные барьеры, а также культурные и социо-психологические особенности. Только так возможно разрабатывать стратегии, способствующие легализации и социальной защите молодежного труда.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. International Labour Organization. (2018). *Women and Men in the Informal*

Economy: A Statistical Picture (3rd ed.). Geneva: ILO.

2. Williams, C. C., & Lansky, M. (2013). Informal Employment in Developed and Developing Economies: Perspectives and Policy Responses. International Labour Review, 152(3–4), 355–380.

3. Portes, A., Castells, M., & Benton, L. A. (1989). The Informal Economy: Studies in Advanced and Less Developed Countries. Johns Hopkins University Press.

4. De Soto, H. (2000). The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else. Basic Books.

5. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.

6. Portes, A. (1994). The informal economy and its paradoxes. Beyond regulation: The informal economy in advanced economies, 3-32.

7. Castells, M., & Portes, A. (1989). World underneath: The origins, dynamics, and effects of the informal economy.

8. De Soto, H. (2000). The Mystery of Capital. Basic Books.

9. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.

10. Williams, C. C. (2010). Informal Work in Developed Nations. Routledge.

11. Roberts, K., Pollock, G., & Tholen, G. (2016). The Sociology of Youth Employment in Eastern Europe. Journal of Youth Studies, 19(7), 861–878

12. Standing, G. (2011). The Precariat: The New Dangerous Class. Bloomsbury Academic

13. Bourdieu, P. (1986). The Forms of Capital. In Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education (pp. 241–258). Greenwood.

14. Rubtsov, V. V., & Zubok, Y. A. (2021). Youth Employment and Labor Market: Modern Risks and Institutional Gaps. Sociological Studies, 6, 45–55.

TALKOT PARSONSNING FUNSIONALIZM NAZARIYASI

Ibragimov Jasurbek Ilhomjon o‘g‘li
ibragimovjasur1992@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi sotsiologiya yo‘nalishi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola Parsonsning “Struktur funksionalizm” nazariyasiga asoslangan holda ijtimoiy tizimlarning barqarorligi, ularning funktsional birligi, zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va tanqidiy nuqtalari batafsil tahlil qilinadi. Maqolada nazariyaning evolyutsiyasi, uning turli sohalarda qo‘llanilishi va dolzarbligi statistik ma’lumotlar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Tolkot Parsons, struktur funksionalizm, AGIL modeli, ijtimoiy tizimlar, funksional tahlil, jamiyat barqarorligi, Emile Durkheim, sotsiologik nazariya, ijtimoiy rollar, Manifest va latent funktsiyalar, ijtimoiy integratsiya, zamonaviy yondashuvlar, Niklas Luhmann, tanqidiy sotsiologiya, postmodernism

Abstract

This article analyzes the theory of Parsons' “Structural Functionalism” by examining the stability of social systems, their functional unity, and their significance in modern society, as well as critically evaluating its aspects. The article also explores the evolution of the theory, its application in various fields, and its relevance based on statistical data.

Keywords: Talcott Parsons, structural functionalism, AGIL model, social systems, functional analysis, social stability, Emile Durkheim, sociological theory, social roles, manifest and latent functions, social integration, modern approaches, Niklas Luhmann, critical sociology, postmodernism

Kirish. Struktur funksionalizm XX asrning o‘rtalarida sotsiologiyaning asosiy nazariy paradigmalaridan biriga aylangan. Uning tamoyillari Tolkot Parsons tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bu nazariya jamiyatni o‘zaro bog‘liq tizim sifatida tasavvur qilishga asoslangan. Parsonsning g‘oyalari Emile Durkheimning ijtimoiy faktlar haqidagi qarashlari, Max Veberning ijtimoiy harakat nazariyalari va Vilfredo Paretoning tizimlilik konsepsiyasidan ilhomlangan (Durkheim, 1895; Parsons, 1951).

Parsonsning asosiy e’tibori ijtimoiy tizimlarni barqarorlik va funksional uyg‘unlikni saqlaydigan strukturalar sifatida tahlil qilishga qaratilgan. Struktur funksionalizm doirasida jamiyatni tashkil etuvchi har bir elementning o‘ziga xos roli borligi va bu rollar jamiyatning umumiy barqarorligiga hissa qo‘shishi haqida tushunchalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi. Bugungi globallashuv davrida ijtimoiy tizimlarning barqarorligi va muvozanati dolzarb masalaga aylangan. Turli ijtimoiy o‘zgarishlar — davlat boshqaruv tizimlari, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi islohotlar va oilaviy qadriyatlarning o‘zgarishi struktur funksionalizm nazariyasining amaliy ahamiyatini oshiradi. Jamiyatning turli elementlari bir-biri bilan qanday o‘zaro bog‘liq ekanligi va ularning o‘zaro harakati qanday barqarorlikni ta’minlayotgani ushbu nazariyaning muhim o‘rganish mavzusidir.

1. Struktur funksionalizmning asosiy tamoyillari.

Jamiyatning tizimli tabiati.

Parsons jamiyatni o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan murakkab tizim sifatida ko‘radi. Ushbu tizimda har bir element — davlat, oila, ta’lim tizimi yoki iqtisodiy tuzilma — o‘ziga xos funktsiyaga ega. Tizimning har bir qismi o‘z vazifasini muvaffaqiyatli bajarsa, jamiyat muvozanat holatida qoladi.

AGIL modeli.

Parsons jamiyatni tushunish uchun to‘rt asosiy funktsiyadan iborat AGIL modelini ishlab chiqqan (Parsons, 1951):

1. Adaptatsiya (A): Jamiyat tashqi muhitga moslashishi va resurslarni boshqarishi kerak.

2. Maqsadga erishish (G): Jamiyat umumiy maqsadlarini aniqlashi va ularga erishish uchun vositalarni ishlab chiqishi zarur.

3. Integratsiya (I): Ijtimoiy tizim ichida elementlar o‘rtasida uyg‘unlik va hamkorlikni ta’minlash.

4. Legitimatsiya yoki madaniy barqarorlik (L): Jamiyatda qabul qilingan me’yorlar va qadriyatlarning davomiyligini ta’minlash.

Bu model orqali Parsons jamiyatning dinamik xususiyatlarini tushuntiradi. Misol uchun, davlatning siyosiy tizimi (G funktsiyasi) va ta’lim tizimi (L funktsiyasi) birgalikda ishlashi orqali fuqarolarning ijtimoiylashuvini ta’minlaydi.

2. Struktur funksionalizmning rivojlanishi va ahamiyati

Klassik asoslar.

Struktur funksionalizm Durkheimning ijtimoiy barqarorlik haqidagi g‘oyalari asosida shakllandi. Durkheimning fikriga ko‘ra, jamiyatni tashkil etuvchi elementlar bir-biriga bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlik barqarorlikni ta’minlaydi (Durkheim, 1895).

Parsonsning ishlanmalari.

Parsons bu tamoyillarni rivojlantirib, ijtimoiy tizimlarni tushunish uchun harakat va struktura o‘rtasidagi munosabatni aniqlashga harakat qilgan (Parsons & Shils, 1951). U “Ijtimoiy tizim” (1951) asarida jamiyatning barqarorligini ta’minlovchi harakat tizimlarini batafsil tushuntiradi.

3. Struktur funksionalizmning amaliy qo‘llanilishi.

Ta’lim tizimida.

Maktablar faqat bilim olish joyi emas, balki ijtimoiylashuv va me’yorlarni o‘rgatish instituti hamdir. Misol uchun, Yaponiya ta’lim tizimining tahlili, maktablarning mehnat bozoriga moslashuvchan va tartibli shaxslarni yetishtirishdagi roli muhim ekanligini ko‘rsatadi (Ritzer, 1996).

Oila institutlarida.

Parsons oilani birlamchi ijtimoiylashuv maydoni sifatida ko‘radi. Oila farzandlarga ijtimoiy rollarni o‘rgatib, ularni jamiyatga integratsiya qilishni ta’minlaydi. Biroq, zamonaviy jamiyatlarda gender rollarining o‘zgarishi oilaviy institutning funksiyalarini qayta ko‘rib chiqishga olib kelmoqda (Craib, 1992).

Davlat boshqaruv tizimlarida.

Davlat struktur funksionalizm doirasida ijtimoiy tartib va barqarorlikni saqlashda asosiy rol o‘ynaydi. Hozirgi dunyoda davlat siyosiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash orqali jamiyatning muvozanatini saqlab qolmoqda (Holmwood, 2005).

4. Tanqid va muqobil yondashuvlar.

Struktur funksionalizmga tanqidiy qarashlar

Parsonsning nazariyasi o‘zining universalizmi va statiklikka moyilligi uchun tanqid qilingan. Giddens va boshqa zamonaviy sotsiologlar jamiyatning dinamik va murakkab xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olmasligini ko‘rsatib o‘tishgan (Giddens, 1979).

Muqobil yondashuvlar.

Niklas Luhmann struktur funksionalizmni zamonaviy tizimlar nazariyasiga moslashtirgan. Luhmannning yondashuvi ijtimoiy tizimlarning o‘z-o‘zini boshqarish xususiyatlariga e’tibor qaratadi (Luhmann, 1995). Shu bilan birga, postmodern yondashuvlar strukturalizmga qarama-qarshi turib, jamiyatni bir butun tizim sifatida emas, balki murakkab va ko‘p qatlamli hodisa sifatida tahlil qiladi.

Xulosa. Tolkot Parsonsning struktur funksionalizm nazariyasi sotsiologiyada muhim o‘rin tutib, jamiyatni tizimli tarzda tushunish va tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu nazariya jamiyatni o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan tizim sifatida ko‘rib, uning barqarorligi va bir butunligini ta’minlovchi mexanizmlarni aniqlashga yordam beradi. Parsons o‘zining AGIL modeli orqali ijtimoiy tizimlar qanday ishlashini va barqarorlikni qanday saqlashini ko‘rsatib berdi. Jamiyatdagi har bir element — ta’lim,

sog‘liqni saqlash, davlat boshqaruvi yoki oilaviy institut — o‘ziga xos funktsiyalarni bajarib, jamiyatni bir butun tizim sifatida saqlab qolishga xizmat qiladi. Statistik ma’lumotlar ham nazariyaning dolzarbligini tasdiqlaydi: yuqori darajada funksional tizimlar barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib qolmoqda.

Biroq, struktur funksionalizm o‘zining bir qator kamchiliklariga ega. Dinamiklikning yetishmasligi, ijtimoiy tengsizlikni hisobga olmaslik va zamonaviy o‘zgarishlarga moslashishdagi qiyinchiliklar nazariyaning tanqid qilinishiga sabab bo‘lgan. Shu bilan birga, Niklas Luhmann kabi olimlarning tizimlar nazariyasiga qo‘shgan hissasi va postmodernist yondashuvlar bu nazariyaning takomillashuvi uchun imkoniyatlar yaratdi.

Bugungi jamiyatda struktur funksionalizm nafaqat klassik nazariya sifatida, balki zamonaviy ijtimoiy muammolarni tahlil qilishda ham amaliy ahamiyatga ega. Ta’lim tizimidan tortib, sog‘liqni saqlash tizimiga qadar barcha sohalarda ushbu yondashuv asosida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy dunyoda ijtimoiy rollar va tizimlar o‘rtasidagi integratsiyani saqlash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Shunday qilib, struktur funksionalizm nazariyasi nafaqat ilmiy nazariya sifatida, balki amaliy tahlil vositasi sifatida ham o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. Parsonsning g‘oyalari ijtimoiy tizimlarni barqarorlashtirish, global o‘zgarishlarga moslashish va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlash uchun zamonaviy sharoitda ham muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, tanqid va yangi yondashuvlar orqali ushbu nazariyaning rivojlanishi davom etadi.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Parsons, T. (1951). Ijtimoiy Tizim. Nyu-York: Free Press. Betlar: 25-68, 150-200.
2. Parsons, T., & Shils, E. A. (1951). Harakatning гmumiy тazariyasiga йadam йo‘yish. Harvard Universiteti Nashri. Betlar: 70-120.
3. Turner, J. H. (1985). Sotsiologik Nazariyaning Tuzilishi. Illinoys: Wadsworth.Betlar: 130-165.
4. Ritzer, G. (1996). Klassik Sotsiologik Nazariya. McGraw-Hill.Betlar: 245-290.
5. Alexander, J. C. (1984). Sotsiologiyada Nazariy Mantiq: Klassik Betlar: 110-145.
6. Craib, I. (1992). Zamonaviy Ijtimoiy Nazariya: Parsonsdan Habermasgacha. London: Routledge.Betlar: 50-90.
7. Giddens, A. (1979). Sotsiologik Nazariyada Asosiy Muammolar. Kaliforniya Universiteti Nashri.Betlar: 95-140.
8. Merton, R. K. (1968). Ijtimoiy Nazariya va Ijtimoiy Tuzilmalar. Free Press.Betlar: 25-60.
9. Luhmann, N. (1995). Ijtimoiy Tizimlar. Stanford Universiteti Nashri. Betlar: 15-45.
10. Holmwood, J. (2005). Funksionalizm va Uning Tanqidlari. Kembridj: Polity Press.Betlar: 80-120.
11. Radcliffe-Brown, A. R. (1952). Primitiv Jamiyatda Struktur va Funktsiya. Glencoe: Free Press. Betlar: 30-65.

AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH - ZAMONAVIY DAVLATNING FUNKSIYASI SIFATIDA

Boboev Sherzod Norkuzievich
“Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi mutaxassisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy himoya tizimi zamonaviy davlatning muhim funksiyasi ekanligi va shu bilan birgalikda ijtimoiy hayotni liberallashtirish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishda etibor qaratilishi muhim bo‘lgan omillar to‘g‘risida yoritilgan. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha ijtimoiy himoya strategiyasida doirasida amalga oshirilgan ayrim ko‘rsatkichlarga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoya tizimi, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy davlat, normativ-huquqiy xujjatlar bazasi, hayriya fondlari, strategiya,moderinizatsiya, ijtimoiy demografik qatlamlar

Annotation

In this article, the social protection system is covered by the fact that it is an important function of the modern state, and at the same time it is important to focus on strengthening social protection of the population in the context of liberalization of social life. It also touched on some indicators implemented in the framework of the social protection strategy of the Republic of Uzbekistan until 2030.

Key words: Social protection, social protection system, social policy, social state, regulatory legal documents base, charitable foundations, strategy, moderinization, social demographic layers

Davlat ijtimoiy himoya tizimining asosiy vazifasi ijtimoiy himoyaga muxtoj barcha mehnatga layoqatli fuqarolar uchun mustaqil ravishda daromad olish (mehnat qilish huquqini ta’minlash), mehnatga layoqatsiz ehtiyojand, kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan, nogironligi bor shu kabi boshqa turdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini esa ijtimoiy himoyalash tizimini muntazam ravishda yanada takomillashtirib borishdan iboratdir. "Ijtimoiy himoya" atamasining ma’nosini to‘liq tushunishda ba’zi nomuvofiqliklar mavjud. Ko‘pincha, ilmiy nashrlar va adabiyotlarda, asosan aholining eng kam ijtimoiy himoyalangan qatlamlariga nisbatan ijtimoiy himoya moliyaviy shakldagi yordam ko‘rinishida tavsiflanadi [1]. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy himoya samarali ekanligiga etarlicha e’tibor berilmaydi, xususan agar u nafaqat moddiy farovonlikni, balki iqtisodiy mustaqillikni, shaxsning ijtimoiy mavqeini, sog‘lig‘ini va ruhiy qulayligini ta’minlashi lozimdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy himoya ko‘p qirrali tushunchadir va moliyaviy yordam va qo‘llab-quvvatlashga ijtimoiy himoya shakllaridan biri sifatida qaraladi.

Mamlakatni modernizatsiya qilish faqat O‘zbekistonning barcha fuqarolari uchun munosib imkoniyatlar yaratish va teng hayot sharoitlari ta’minlangan taqdirdagina amalga oshishi mumkin. SHuning uchun davlat tomonidan imkon qadar aholining barcha ijtimoiy himoya kafolatlarini ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi, ammo bu chora-tadbirlarning samaradorligi ushbu sohada qabul qilinayotgan qarorlarning

ilmiy asoslanganlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ijtimoiy hayotni liberallashtirish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish quyidagilarni nazarda tutadi:

Ijtimoiy himoyaning asosiy prinsiplarining umumliligi bilan birga, turli ijtimoiy-demografik qatlamlar va aholi guruhlariga differensiallangan yondashishni kuchaytirish;

Respublika, hudud va mehnat kollektivlari darajasida himoya kafolatlarini, ularning har birini huquqi, mas’uliyat va vazifalari, shuningdek, resurs ta’minlash manbalari aniq belgilangan xolda bir tizimga integratsiyalash; Aholining turmush darajasini oshirish va hayot ehtiyojlarini qondirishda shaxsiy daromadlarning o‘rnini sezilarli darajada oshirish;

- Ijtimoiy himoyada jamiyat tashkilotlari va xayoriy fondlarning ishtiroki;
- Ijtimoiy himoyaga mo‘ljallangan mablag‘lardan foydalanishning asosiy halqasi sifatida oilaning o‘rnini oshirish;
- Aholini ijtimoiy himoyalashni tashkil etishda mahalla komitetlarining o‘rni va mas’uliyatini oshirish [2].

Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya darajasini oshirishning yo‘llari:

1. Ijtimoiy himoya choralarini moliyalashtirish uchun byudjetdan tashqari manbalar (xayoriy tashkilotlar va homiylar) jalbi etilishi, bu kambag‘al oilalarga ijtimoiy to‘lovlar mikdori va qamrovini oshirishta imkon beradi;
2. Ayrim nafaqa va imtiyozlarni bekor qilish natijasida ozod bo‘lgan mablag‘larni ehtiyojman oilalarga mo‘ljallangan nafaqalarni moliyalashtirish hajmini oshirishga yo‘naltirish;
3. Ijtimoiy minimal standartlarni hisoblash usulini takomillashtirish, shu jumladan hududiy xususiyatlarni hisobga olish. Ma’lum bir bosqichda yashash minimumi miqdorining ijtimoiy standartini joriy etish;
4. Jihoz-kommunal xizmatlari to‘lovlari bo‘yicha kambag‘al oilalarga mo‘ljallangan va manbalangan subsidiyalarni bosqicha-bosqicha joriy etish, bu esa ushbu xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalarga byudjet subsidiyalarini qisqartirish bilan boglik tariflar o‘sishini qisman qoplashta imkon beradi;
5. Ijtimoiy jihatdan nogiron aholi guruhlari, ayniksa, ishsiz a’zosi bor kambag‘al oilalarni kredit resurslari bilan ta’minlashga qaratilgan mikromoliyalashtirish institutlarini kengaytirish [3].

O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha ijtimoiy himoya strategiyasi:

- Jahon banki va BMT Bolalar fondining tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan
- Oxirgi 3 yil ichida nafaqa oluvchi kambag‘al oilalar soni 4 barobarga oshib, 1,9 mln ga etdi
- Bolalarga mo‘ljallangan nafaqalar:
  - Yosh cheklari 14 dan 18 yilgacha ko‘tarildi
  - Miqdori o‘rtacha 1,5 barobarga oshdi
  - To‘lov muddati 6 oydan 12 oygacha uzaytirildi
- Ishsizlik nafaqasining minimal miqdori 3,2 barobarga oshirildi
- Aholini bandlik bilan ta’minlash maqsadida 20 dan ortiq yanchi usullar joriy etildi [4].

Davlat byudjetining ijtimoiy soxaga mo‘ljallangan xarajatlari: 2018 yilda 35 trln so‘mni tashkil etgan bu xarajatlar 2023 yilda 129 trln so‘mdan (70%

dan ortik o‘sish) va 2024 yilda 150 trln so‘mdan oshib, jami byudjet xarajatlarining dakki 50% ga yakinni tashkil etdi.

Inson faoliyati uchun zarur sharoitlarni ta’minlash, uning intellektual va professional salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish – bu zamonaviy davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Pronina L.I. Povьshenie effektivnosti sotsialnogo obespecheniya / L.I. Pronina. – M.: Ekonomika, 1990. – S. 38 – 42.
2. Besschetnova O.V. Sotsialnaya politika i sotsialnaya zaщita v Rossii suщnost i perspektivы razvitiya / O.V. Besschetnova // Vestnik CHelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2007. – № 16. – S. 150 – 155.
3. Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta’minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.10.2023y. 539-son
4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh tartibdagi ustoviy yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirish Davlat dasturi to‘g‘risida"
№ UP-6155 2021 yil 3 fevral O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020 yil 30 iyundagi №UP-6017-son "O‘zbekiston Respublikasida davlat yoshlar siyosatini tubdan isloh etish va yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida"
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
7. Safarova N.N. Kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirining tahlili//Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. №1 (12), 2021 g.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "2021–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" R-5634-sonli farmoyishi

HARBIY XIZMATDA AXLOQ, INTIZOM VA HUQUQIY MAS’ULIYAT MASALALARI

Farida Mirjavxarova
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi,
Feruza Ahmedova
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy harbiy xizmatchining maqomi, tushunchasi va konstitutsiyaviy-huquqiy jihatlari, ularning tarixiy ildizlari va transformatsiyasini hisobga olgan holda, sotsiologik tahlil qilinadi. Tadqiqot harbiy sohaning keng doiradagi tushunchalarini qamrab oladi: harbiy siyosat, jangovar mahorati, qurol-yarog‘, mudofaa tizimlari va urushlar tarixi. Harbiy etika, kasbiy xulq normalari va ularning harbiy intizomga ta’siri masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mualliflar O‘zbekistonda harbiy

xizmatning tarixiy rivojlanishini tahlil qilib, uning chuqur tarixiy ildizlarini va milliy davlatchilik evolyusiyasi bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi. O‘zbek jamiyatida harbiy xizmat an’anaviy ravishda davlat himoyasi, barqarorlik va fuqarolar xavfsizligini ta’minlaydigan strategik muhim sohalardan biri sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: harbiy etika, kasbiy etika, harbiy xizmat, Qurolli Kuchlar, sotsiologik tahlil, huquqiy tartibga solish, axloqiy me’yorlar, intizom, vatando‘stlik, ijtimoiy kafolatlar

Abstract

This article presents a sociological analysis of the status, concept, and constitutional-legal aspects of modern military personnel, taking into account their historical roots and transformation. The study covers a wide range of concepts related to the military sphere, including military policy, combat skills, weaponry, defense systems, and the history of wars. Special attention is given to issues of military ethics, professional conduct norms, and their impact on military discipline. The authors analyze the historical development of military service in Uzbekistan, emphasizing its deep historical roots and intrinsic connection with the evolution of national statehood. In Uzbek society, military service is traditionally viewed as one of the strategically important sectors that ensures state protection, stability, and the security of citizens.

Keywords: military ethics, professional ethics, military service, Armed Forces, sociological analysis, legal regulation, moral norms, discipline, patriotism, social guarantees

Zamonaviy harbiy xizmatchining maqomi, tushunchasi va konstitutsiyaviy-huquqiy jihatlarini sotsiologik tahlil qilishda uning tarixiy asoslarini o‘rganish — muhim ilmiy zarurat hisoblanadi. Chunki harbiy xizmat faqatgina davlatning mudofaa tizimidagi institutsional faoliyat emas, balki jamiyatning tarixiy, madaniy, siyosiy va axloqiy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Harbiy xizmatchining ijtimoiy maqomi, unga bo‘lgan jamiyat munosabati, qonun va normativ hujjatlarda belgilangan huquq va burchlar tizimi, shubhasiz, davlatchilik tarixining uzviy bir qismi sifatida shakllangan.

Harbiy ishning tarixi — bu faqat qurol-yarog‘ va urushlar haqidagi ma’lumotlar emas, balki harbiy siyosat, jangovar tayyorgarlik, mudofaa strategiyalari, harbiy san’at va harbiy soha bilan bog‘liq barcha ijtimoiy jarayonlarni qamrab olgan murakkab tizimdir. Bu jarayonlar zamon va makonga qarab shakllanib, ma’lum bir xalqning jamiyat va davlat tuzilishidagi o‘rnini belgilab bergan.

O‘zbekistonda harbiy faoliyatning tarixi alohida e’tiborga loyiq. Milliy davlatchiligimizning ildizlari necha ming yillik o‘tmishga borib taqaladi. Miloddan avvalgi davrlardayoq bu hududda jangchi qabilalar, harbiy-tashkilotli tuzilmalar va siyosiy ittifoqlar mavjud bo‘lgan. Masalan, Kushonlar, Xorazmshohlar, Temuriylar kabi sulolalarning harbiy siyosat va harbiy san’ati nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun Sharq va G‘arb olamida tan olingan[2].

Harbiy xizmat faqatgina urush va jangovar harakatlar emas, balki davlatning suverenitetini, xalqning erkinligi va milliy qadriyatlarini himoya qilish vositasidir. Binobarin, harbiy xizmatchining zamonaviy maqomi ham faqat texnik yoki intizomiy

nuqtai nazardan emas, balki jamiyatdagi strategik roli, madaniy timsoli va huquqiy himoyasi nuqtai nazaridan ham baholanishi lozim.

Davlat va jamiyat xavfsizligi, chegaralar daxlsizligi, mamlakatda tinchlik va barqarorlik, fuqarolarning turmush farovonligi hamisha mustahkam Qurolli Kuchlar va yuksak kasbiy saviyaga ega harbiy kadrlarning mavjudligiga bog‘liq. Bunday tizimni shakllantirishda harbiy xizmatchining maqomini mustahkamlash, uning huquqiy maqomini konstitutsiyaviy asosda belgilash, ijtimoiy kafolatlarini ta’minlash va uning faoliyatini axloqiy, etik me’yorlar bilan tartibga solish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Ibtidoiy jamiyatlarning harbiylashuv jarayonlari va ularning muhofaza ehtiyojlaridan kelib chiqqan ittifoqchilik tizimi – davlatchilikka olib boruvchi dastlabki qadamlardan biri hisoblanadi. Davlatchilik hali shakllanmagan, jamiyat tuzilishi so‘zsiz ierarxiyaga ega bo‘lmagan davrlarda, odamlar tabiiy muhitda tirik qolish va tashqi tahdidlardan himoyalanish zarurati tufayli turli shakllarda uyushganlar. Bu jarayonda harbiylashuv alohida ijtimoiy mexanizm sifatida shakllana boshladi.

Tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, ibtidoiy jamiyatlarda o‘zini himoya qilish ehtiyoji qabilaviy birlashmalarni vujudga keltirgan. Ular nafaqat ov qilish, balki hududni himoya qilish, tabiiy resurslar uchun kurashish, boshqa guruhlar bilan mojarolarda ishtirok etish maqsadida ham tashkil etilgan. Shu asosda harbiy ittifoqlar, jangchi guruhlar va urug‘lararo himoya tuzilmalari shakllangan.

Dastlabki qurollar – masalan, kamon va o‘q, tosh pichoqlar, kaltaklar, boltalar — ov qilish maqsadida yaratilgan bo‘lsa-da, jamiyatda xavfsizlikni ta’minlash ehtiyoji ortgan sari, bu qurollar mudofaa va hujum vositasiga aylandi. Bu jarayon nafaqat texnik rivojlanish, balki jamiyatning ichki tuzilishi va o‘zaro munosabatlaridagi o‘zgarishlarni ham aks ettiradi.

Harbiy qurol-yarog‘ning yaratilishi va harbiy taktikalarning shakllanishi jamiyatda ijtimoiy funksiyalar bo‘linishi, ya’ni ma’lum guruhlarning jang, boshqalarning mehnat va boshqaruv bilan shug‘ullanishiga olib keldi. Bu esa keyinchalik davlatning aniq funksiyalarga ega institut sifatida paydo bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Ana shu davrda harbiy texnika va taktikalar shakllana boshlagan bo‘lib, bu harbiy san’atning boshlanishi bo‘ldi. Ilk davlatlar paydo bo‘lganidan so‘ng, jamiyatlarda aholi xavfsizligini ta’minlash va chegaralarni muhofaza qilish maqsadida mudofaa inshootlari qurilishi boshlangan, armiyalar tashkil etilgan va qurol-yarog‘ni takomillashtirish davlatning eng muhim vazifalaridan biriga aylangan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu muhim mavzuga alohida e’tibor qaratib shunday degan: *Yangi, mustaqil fikrga ega, mas’ul, tashabbuskor, boshqaruvning ilg‘or usullarini puxta o‘zlashtirgan, vatanparvar va halol kadrlarni tanlash va tayyorlash tizimini yaratishsiz davlat boshqaruvida sifat o‘zgarishlari bo‘lmaydi”* [3].

Etika va axloq masalalari faqatgina zamonaviy jamiyat uchun dolzarb emas – ularning ahamiyati tarixan ham jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy munosabatlar tizimi va davlat institutlari faoliyatida o‘z aksini topgan. Jumladan, davlat boshqaruvi, qonunchilik amaliyoti va harbiy san’at rivojida ham axloqiy me’yorlar asosiy nuqta hisoblanadi. Axloq normalari jamiyatda shaxs va jamoa, fuqaro va davlat, xizmatchi va tizim o‘rtasidagi munosabatlarning muvozanatli va barqaror bo‘lishida muayyan qoidalar majmuasini belgilab beradi.

Harbiy xizmat, boshqa soha va kasblar kabi, muayyan cheklovlar va mas’uliyatni talab qiladigan faoliyat turi hisoblanadi. Unda faqat texnik va fizik tayyorgarlik emas, balki etik, axloqiy va madaniy xulq qoidalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki harbiy xizmatchi – bu nafaqat qurollangan mutaxassis, balki davlatni ifoda etuvchi shaxs sifatida ham faoliyat yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va harbiy xizmatga oid me’yoriy hujjatlarda xizmatchilar uchun axloqiy va intizomiy me’yorlar qat’iy belgilab qo‘yilgan. Ularga rioya etmaslik qonun buzilishi deb qaraladi va mutanosib ravishda javobgarlik yuklatilishiga olib keladi.

Agar harbiy xizmatchi o‘zining qasddan qilgan harakati yoki harakatsizligi bilan Qurolli Kuchlar yoki alohida harbiy qism nufuziga dog‘ tushirsa, bunday holat jiddiy intizomiy qoidabuzarlik sifatida baholanadi. Bu nafaqat yuridik, balki axloqiy nuqtai nazardan ham davlat va jamiyat oldida mas’uliyat hisoblanadi.

Shu bois, harbiy xizmatchi faqatgina o‘z xizmat vazifalarini bajarish bilan cheklanib qolmasligi, balki xizmat etikasi, harbiy madaniyat va umumiy xulq normalariga qat’iy amal qilishi shart. Bu talablar O‘zbekiston Respublikasida amaldagi bir qator rasmiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan va har bir xizmatchi ulardan xabardor bo‘lishi kerak. Masalan, safda harakatlanayotgan harbiy xizmatchi ustav talablariga binoan rasmiy salom beradi. Harbiy formada yurgan holda nomaqbul xatti-harakatlar (masalan, qorinni ushlash, o‘ta shaxsiy muloqot shakllari: quchoqlashish, o‘pishish, yoki qo‘lni qo‘lqopda saqlash) mutlaqo taqiqlanadi, chunki bu harakatlar jamoa intizomi va xizmat nufuziga zid hisoblanadi.

Harbiy etika kodeksi harbiy xizmatchining kasbiy, axloqiy va fuqarolik burchlarini belgilab beradigan me’yorlar majmuasidir. U nafaqat xizmat vaqtida, balki nonxizmat davrida ham shaxsiy xulq-atvorning umumqabul qilingan qoidalarga muvofiq bo‘lishini talab qiladi. Etik kodeks harbiy xizmatchining davlat va jamiyat oldidagi mas’uliyati, kasbiy nufuzi va ma’naviy yuksakligini ta’minlovchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Harbiy etikaga zid bo‘lgan xatti-harakatlar uchun qo‘llanadigan intizomiy choralar qonunchilik va ustavlar bilan belgilab qo‘yilgan. Javobgarlik shakllari sodir etilgan harakatning og‘irligi, ta’sir darajasi va xizmatchi shaxsiyatidan kelib chiqib belgilanadi.

Shu tariqa, harbiy etika va kasbiy me’yorlarga rioya qilish harbiy intizomni saqlash, Qurolli Kuchlar va davlatchilik nufuzini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Davlat xizmatchilari tomonidan axloqiy normalarning buzilishi javobgarlikka tortishga asos bo‘lishi mumkin. Etika normalariga rioya etish xizmatchi attestatsiyasi jarayonida, yuqori va boshqa lavozimlarga tayinlash uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda ham hisobga olinadi. Axloqiy normalarni buzish holatlari harbiy jamoalardagi jamoat sudlarida ko‘rib chiqiladi. Jamoat sudlari etika buzilishi bilan bog‘liq xizmat tekshiruvlari natijalarini o‘rganib, qoidabuzarlik mavjudligi yoki yo‘qligi bo‘yicha xulosa chiqaradi. Agar bu holat tasdiqlansa, intizomiy jazo qo‘llash bo‘yicha taklif kiritilishi mumkin. Bunday holatda, sodir etilgan xatoning xususiyati, og‘irlik darajasi, sharoitlar, xodimning oldingi faoliyati va xatti-harakatlari hisobga olinib, ogohlantirish berilshi va kelgusida shunday qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik talab qilinishi mumkin.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Axmedov A.X. O‘zbekistonda harbiy san’at tarixi. Toshkent “Sharq”. 2012 y. 8 b.

2. Sharq donishmandlari hikmatlari. –T: Sharq,. 2006 yil. 156-b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: «O‘zbekiston», 2017. 104 b.
4. https://www.gazeta.uz/ru/2022/08/03/training-of-investigators/

OILA KICHIK IJTIMOIY GURUH SIFATIDA: NAZARIY YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TENDENTSIYALAR

Abdug‘ofurova Gulziyo Farrux qizi
abdugafurovagulziyo@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada oila ijtimoiy tizimda kichik sotsial guruh sifatida tahlil qilinadi. Oilaning ijtimoiy tuzilmadagi o‘rni, uning shaxs kamolotiga ko‘rsatadigan ta’siri hamda jamiyatdagi sotsial munosabatlarning shakllanishidagi roli yoritiladi. Oila ichidagi muloqot, ijtimoiy nazorat, qadriyatlar uzviyligi va avlodlararo aloqalar orqali jamiyatning asosiy ijtimoiy funksiyalari amalga oshirilishi tushuntiriladi. Maqolada, shuningdek, oilaning ijtimoiy institut sifatidagi vazifalari va zamonaviy o‘zgarishlar fonida duch kelayotgan muammolari ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot sotsiologik nazariyalar asosida olib borilib, oilaning sotsial psixologik va madaniy funksiyalari chuqur tahlil qilinadi..Hamda kerakli xulosa va tavfsiyalar ishlab chiqilgan

Kalit so‘zlar: oila, kichik sotsial guruh, ijtimoiy institut, sotsiologiya, sotsial munosabatlar, qadriyatlar, avlodlararo aloqa, ijtimoiy nazorat, jamiyat, shaxs kamoloti

Kirish. Mashhur faylasuf V.Gyugo aytganidek, “oila jamiyatning duru gavharidir”. Shuningdek, “Oila tabiatning shox asarlaridan biridir”.[1] Xuddi shox asar hisoblangan oilani o‘rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etib borish bugungi kunning ham eng dolzarb masalalaridan bo‘lib, hozirgi davrda mustaqil O‘zbekistonda bu borada juda katta ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar olib borilmoqda. “Oila” haqida gapirar ekanmiz, avvalom bor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak avlodlar qanday inson bo‘lib yetishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini deb bilamiz.[2] Shu tufayli oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari mamlakat, jamiyat manfaati yo‘lida amalga oshiriladigan eng muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.Oila o‘zining g'oyavi va maqsadi bilan bog'liq bo‘lib, guruh a'zolarining bir-biriga qiziqarli va foydali muloqotda bo‘lishlari, ko‘nikmalar almashishlari va o‘zlarini rivojlantirishga yordam berishlari uchun mo‘ljallangan yechimli platforma bo‘lishini anglatadi. Bu guruhlar o‘z a'zolari uchun yangi ko‘nikmalar olish, o‘zaro murojaat qilish, savollarga javob olish, tajriba almashish va o‘zlarini rivojlantirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bunday guruhlar, insonlarni bir-biriga yordam berish, o‘zaro yordam, bilim va tajriba almashish orqali so‘zlashish va o‘zlarini o‘zlashtirishlari uchun muhim belgilarni o‘zida mujassam etadi

Ushbu maqolada **oila kichik sotsial guruh sifatida** ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya, oilashunoslik fanlariga oid nazariy qarashlar, olimlar tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvlar hamda ilg‘or ilmiy tajribalar o‘rganildi. Maqolani yaratish jarayonida xujjatlarni o‘rganish hamda nazariy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Munozara va natijalar Sotsial guruh – ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy xususiyatga ega insonlar yig‘indisidir. Buni umumiy maqsadlar, umumiy manfaatlar, umumiy faoliyat bilan birlashuv sifatida tushunish lozim.

Oila qon -qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog‘langan odamlardan iborat ijtimoiyguruhidir. Ko‘p jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiylashuv uchun asosiy institut vazifasini o‘taydi.

Antrapologlar oilalarni matrilokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo‘lsa, nuklear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tip larga ajratishadi.Oila — nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog‘langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtni samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o‘zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o‘rnatadi.[3]

Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo‘lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to‘da-to‘da bo‘lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo‘lmay, to‘dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan.[4]

Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota ona bilan farzandlar, so‘ngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib, guruhli oila paydo bo‘lgan, lekin bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xo‘jalikka ega bo‘lmagan. Bu davrda tabiiy omil o‘z vazifasini tugalladi, ya’ni jinsiy munosabatlar doirasidan qon-qarindoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi

Ijtimoiy ishlab chiqarish — chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi bilan erkaklar mehnatining qadri oshdi, mahsulot ishlab chiqarishda ulushi ortdi, binobarin, ularning ijtimoiy mavqei ham tubdan o‘zgardi. Mavjud qoida tartiblar — farzandlarning onagagina tegishli bo‘lishi, ona mulkiga merosxo‘r sanalishi erkaklarning yangi mavqeiga zid kelib qoldi. Natijada ota huquqiga asoslangan patriarxal oila vujudga keldi. Shunday qilib, hozirgi individual oilaning o‘tmishdoshi — monogam oila vujudga kelgan.[5]

Xulosa

Ma’naviy tahdid sifatida baholanayotgan g‘arbona madaniyat, g‘arbona yashash, g‘arbona muomala, g‘arbona hayot tarzi va hokazolar bizning muqaddas qo‘rg‘onimizga qanchalik salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini etarli darajada o‘ylab ko‘rmayapmiz. Oddiy hol sifatida qabul qilayotganimiz turli filmlar, seriallar, kliplar aslida shovqinli, jangari, toshbag‘ir bir hayot tarzini bizga in’om etmayotganmikin. G‘arb seriallarida kelinini erkalayotgan qaynota, turmush o‘rtog‘ini ochiqdan ochiq haqorat qilayotgan xotin yoki

uning eriga xiyonat qilayotgan dugona, yarim yalang‘och qizdan mamnun ona, oiladan xalovat topmagan farzandning giyohvand moddalarga berilishi va boshqalar bizning farzandlarimiz tarbiyasiga, oilaviy muhitning nosog‘lom bo`lishiga olib kelmasmikin. Aksariyat oilalar bunday hayot tarzini qanday bo`lsa, shundayligicha o`zlashtirmoqda. Ko`p hollarda, bizning mentalitetimizga, yashash tarzimizga to`g`ri keladimi, yo`qmi, buni o`ylab ko`rmayapmiz. Natijada oilalar arzimas muammo oldida dosh berolmay, engil elpi, havoyi bir nafs qurboniga aylanishmoqda. G`arb taklif etayotgan xudbinlik, toshbag`irlik, egoizm kabi illatlarni aksariyat insonlar yashashning mazmuni sifatida olmoqda. Buning oqibatida ayol kimningdir qo`g`irchog`iga aylanmoqda, go`daklar mehrdan mosuvo holda etimlikka mahkum etilmoqda. Bu kabi misollarni yana qator keltirish mumkin.

Factors in the development of sanogenic thinking in students: the development of thinking characteristics, the strengthening of cognitive processes in relation to the educational process and the formation of skills related to the thinking characteristics of a person, emotional intelligence, the creation of a morally healthy environment in the family, the factor of helping the child to form his personality, the factor of accustoming the child to reading and learning from a young age ; the factor of forming the qualities of honesty, correctness, hard work, human dignity, loyalty, loyalty, patience, and gratitude from a young age; that education and upbringing in family relations are properly implemented; the need to pay attention to factors such as compliance with social rules established in society, empathy, the provision of strong knowledge in educational institutions and the rational flow of the teacher-student system, from the components: reflexive, regulatory, goal orientation, success motive, level of sanogenic thinking, social thought, dependence, independent, enterprising and fighting, to understand the meaning of life, to develop social conditions, from the criteria of: conscious activity of a person, emotional will, control of emotions, motivation, personal development, acquisition of knowledge and skills, social support, social behavior, self- self-control, communication, collective psychology, human relations and understanding of social rules and needs, criteria for managing existing social behavior related to making correct conclusions are determined; [3]

Sanogenic thinking helps to overcome negative emotions and mental stress. Through such positive thinking, a person acquires the ability to concentrate, and can draw the necessary conclusions from the ongoing processes.

Throughout life, a person should not only emotionally reflect objects and events, but also analyze the relationships and connections between them. The relevance of this work is determined by the fact that sanogenic thinking affects many areas of human activity. The positivity of a person's inner world and the world of imagination, the desire to search for positive and healthy things is determined by the basic needs of a modern person, which is aimed at building a decent life and developing one's personality.

Pathogenic thinking is a set of negative views that harm a person's health, and it is explained by emotional instability and internal conflicts that arise in the process of personal and interpersonal relationships. Below, we will consider in detail the level of study of the problem of pathogenic thinking in psychological, pedagogical, and medical research.

T. N. Vasilova also analyzed the common characteristics of pathogenic and sanogenic thinking. Pathogenic thinking is manifested in the following characteristics of a person:

1) daydreaming, avoiding life reality, living with negative imaginations;
2) lack of reflexivity, inability to give a realistic assessment;
3) performing actions that he did not understand, that is, the inability to analyze himself and the situation;
4) inability to get out of constant mental depression, keeping negative emotions (resentment, envy, malice, shame, fear, etc.);
5) mental unconscious operations causing negative emotions, aggressiveness;
6) tendency to live in memories; inability to let go of past memories;
7) negative assumptions about the future, that is, living in anticipation of misfortunes;
8) Renunciation of oneself, considering oneself to be unfit, useless, incompetent;
9) inability to have open, sincere closeness (love) and relationships with people around and rejection of them;
10) inability to use personal and creative opportunities, low self-confidence. [2].

O.S.Grebenyuk and T.B.Grebenyuk, among the scientists who studied the theory of approach to children based on their individuality, consider sanogenic and pathogenic thinking in the context of the individual development of the child's personality and explain these forms of thinking as follows:

- sanogenic thinking is a way of thinking that reduces internal conflict, tension and anxiety, it allows you to manage your thoughts, feelings, needs and desires and, accordingly, prevent negative situations.

- pathogenic thinking is an incorrect reflection of problems that arise during certain activities. Also, the use of unreasonable reflexive stereotypes in difficult conditions of activity and regulation of emotional-emotional processes, which ultimately leads to failure [4].

The main psycho-emotional disorders that are often observed in pathogenic thinking are low mood, hopelessness, sadness, constant worry, living in anticipation of bad events, feelings of guilt or self-blame, stubbornness, stubbornness, persistence, dissatisfaction with one's life, and self-deprecation. , manifested by a loss of interest in surrounding events and loved ones. A person suffering from pathogenic thinking may experience constant mood swings.

CONCLUSIONS. In our research devoted to the study of the psychological mechanisms of the development of sanogenic thinking, the following conclusions were reached: the psychological health and protection of a person is manifested in the presence of complex, multi-level social, socio-psychological and individual-personal mechanisms, and the formation of psychological protection of a person, the study of some directions and main levels of its activity, in turn, allows us to imagine its character as a system.

REFERENCES

1. Адамян Л.И. Связь саногенной рефлексии с показателями психологической устойчивости личности // Теория и практика общественного развития.- 2012.- № 3.- С. 73-76.

2. Васильева Т.Н. Формирование саногенного мышления младшего школьника: учеб. пособие. Калининград: Изд-во КГУ, 1997. - С.43-54.

3. Орлов Ю.М. Саногенное мышление / Ю.М. Орлов. М.: Скольжение, Кн. 1.- 2006. - С. 96

4. Абрамова Г. С. Психологическое консультирование. Теория и практика / Г. С. Абрамова – «Прометей», 2018. – С.216.

5. Крайнова Ю.Н. Саногенная рефлексия и структура эмоциональной компетентности будущих педагогов. 19.00.07; - Москва, 2010. -Б.154.

6. Ковалёв Г.А. Общение и его воспитательное значение // Мир психологии, 1996. – № 3. – С.17–29.

7. Колеватов А.В. «Формирование саногенной направленности личности курсовантов уридических вузов ФСИН России в процессе профессиональной подготовки» Автореферат к.п.н. М. -2014. Б.13.

8. Лефрансуа Ж. Прикладная педагогическая психология. СПб.: Прайм-Еврознак. 2003. -Б.205

9. Марчукова С.Ф. «Саногенная рефлексия (теория и практика саногенного мышления и саногенной рефлексии)» Восточно-Сибирское региональное отделение ОППЛ 2010. -Б.215.

UDK 159.9.072

Білім берудегі әлеуметтік-психологиялық қызмет: мәселелер мен деректер

Сатиева Шолпан Серикбосыновна
s.satieva@shakarim.kz
«Шәкәрім университеті» КеАҚ ,
профессор., психология ғылымдарының кандидаты.,
Психологиялық қолдау қызметі жетекшісі

Аннотация: Мақалада қазіргі заманғы жоғары білім берудің өзекті және маңызды мәселесі – университеттегі психологиялық қызметтің проблемалары мен дамуы талқыланады. ЖОО-да психологтың жұмыс істеу тәжірибесі осы мәселені талқылаудың өзекті қажеттілігін көрсетеді.

Автор жоғары оқу орнының психологиялық қызметін одан әрі дамыту қажеттілігін негіздейді. ЖОО-да психологиялық қызметтеріне қатысы бар бірқатар проблемалар көрсетіледі. ЖОО-ның психологиялық қызметінің функционалдық мақсаты анықталады, оның мақсаты мен міндеттері көрсетіледі және жоғары оқу орындарында психологиялық қызметтерді психодиагностикалық жұмыстарды ұйымдастыру мен дамытуды жетілдіру бағыттары бойынша ұсыныстар қарастырылған.

Annotation: The article discusses the current and important issue of modern higher education - the problems and development of psychological activities at the university. The experience of psychologists in universities demonstrates the urgent need to discuss this issue.

The author explains the need for further development of psychological activity of the university. The university shows a number of problems related to psychological services. The functional purpose of the psychological service of the university will be determined, its objectives and objectives will be provided, and recommendations will be made on the directions of improving the organization and development of psychological services in higher educational institutions.

Кілт сөздер: психологиялық қызмет, студенттерге адаптация, әлеуметтік дезадаптация, түзету дамыту, психологиялық көмек жұмыстары

Keywords: psychological service, student adaptation, social desadation, development of correction, work on psychological assistance

Семей «Шәкәрім университеті» коммерциялық емес акционерлік қоғамының Психологиялық қолдау қызметі Қазақстан Республикасының Конституциясын, университет жарғысын, Қ.Р. Президенті мен Үкіметінің актілерін, ішкі құжаттарды, Қ.Р. өзге де заңнамалық және нормативтік құқықтық актілерін, ректордың бұйрықтары мен өкімдерін басшылыққа ала отырып, өз қызметін жасайды[1].

«Шәкәрім университеті» КеАҚ Психологиялық қолдау қызметі жұмысы бекітілген жылдық жоспарға және жалпы университет жоспарында айқындалған міндеттерді ескере отырып өткізіледі.

Психологиялық қолдау қызметінің негізгі мақсаты: ЖОО-ның білім беру процесін ұйымдастыру үшін әлеуметтік-психологиялық жағдай жасау, студенттер мен қызметкерлердің психологиялық қорғалуын қамтамасыз ету, олардың психологиялық денсаулығын қолдау және нығайту .

Жалпы қызметке 2023 -2024 -ші жылдың екінші жартысында, барлығы 10863 адам әртүрлі іс шараларға қамтылды. Оның ішінде: 4598 студент және 391 оқытушы болды. Барлығы 8909 студент online форматында тестке жауап берсе, 1461 студент тренингке, 391 ПОҚ тренинг т.б. іс-шараларға қатысып, 111 ПОҚ online форматында тест сұрақтарына жауап берсе, ал кадрлардың біліктілігін арттыру және қайта даярлау орталығы тарапынан ұйымдастырылған «Jas Akademik-2024» жазғы мектеп аясында 33 оқушыға психологиялық тренинг пен кеңес жүргізілді [2].

Кешенді психодиагностикалық шаралар психологиялық көмекке мұқтаж білім алушыларды анықтауға бағытталған. Диагностика арнайы әдістердің

көмегімен жүзеге асырылады («Көшбасшылық қабілеттердің диагностикасы», «Оқу процесіне бейімделу» сауалнамасы, проективті әдістер және т.б.).

Оқуға деген қызығушылықты арттыру үшін арнайы педагогикалық жағдайларды қамтамасыз ету маңызды. Оқу іс-әрекетіне қызығушылықтың пайда болуының маңызды шарты-әлеуметтік мотивтердің болуы, білімнің жеке өмір үшін маңыздылығын түсіну. Студент өзінің интеллектуалдық әлеуетін, ақыл-ой тәуелсіздігін жандандырып, жалпылау жасап, қорытынды жасай алатындай етіп оқу кеңістігінде осындай жағдай жасауға болады. Оқу пәнінде зерттелмеген аймақтар болуы керек, яғни проблемалық презентация болуы керек материалдардан тұрады [3].

Зерттеу нәтижелері (барлық ақпарат пайыздық қатынаста) куратор-эдвайзерлермен психологиялық тренингтер барысында ұсынымдар құру кезінде, сондай-ақ түзету жұмыстарын жүргізу мақсатында тәуекел тобын анықтау кезінде ескерілді.

Диагностикалық тексеру нәтижелері бойынша факультеттер қызметін жақсартуға арналған ұсыныстар: жаратылыстану-математика факультетінде: ең алдымен, осы кезеңде бейімделу жылдамдығы мен стресс деңгейі адамның экстраверт немесе интроверт екендігіне байланысты. Өйткені интеграция ашықтық пен көпшілдікке тікелей байланысты [4]. Жалғыздықты ұнататындар жаңа ортаға және қоғамға үйреніп, өздерін жайлы сезіну үшін көп уақыт пен күш жұмсайды. Сондықтан топ кураторларына студенттерге өзін-өзі сынауды қалыптастыруды дамытуды қадағалауға назар аудару; декан орынбасарына бірінші курс студентіне рейтингтік жүйе туралы жадынамалармен таныстыруды жетілдіру; университеттің құрылымымен, оқу процесін ұйымдастыратын адамдармен танысуға мүмкіндік беретін бірінші курс студенттеріне парақшалар, дәптерлер дайындау; жоғары курс студенттерін тарта отырып, бірінші курс студенттеріне оқу консультациясын өткізу; студенттер үшін Психологиялық қызмет көрсету орталығы жүргізетін тұлғааралық және жанжалсыз қарым-қатынасты дамыту бойынша тренингтік сабақтар өткізуге қатысуын қадағалау.

Инженерлік-технологиялық факультеті: топ кураторларына студенттерге өзін-өзі сынауды қалыптастыруды дамытуды қадағалауға назар аудару; декан орынбасарына бірінші курс студентіне рейтингтік жүйе туралы жадынамалармен таныстыруды жетілдіру; университеттің құрылымымен, оқу процесін ұйымдастыратын адамдармен танысуға мүмкіндік беретін бірінші курс студенттеріне парақшалар, дәптерлер дайындау; жоғары курс студенттерін тарта отырып, бірінші курс студенттеріне оқу консультациясын өткізу; Студенттер үшін Психологиялық қызмет көрсету орталығы жүргізетін тұлғааралық және жанжалсыз қарым-қатынасты дамыту бойынша тренингтік сабақтар өткізуге қатысуын қадағалау.

Филология факультеті топ студенттерінің кураторларына студенттермен бірлесіп жұмыс атқаруды жолға қоюға назар аудару; студенттерге өзін-өзі сынауды қалыптастыруды дамытуды қадағалауға назар аудару; декан орынбасарына бірінші курс студентіне рейтингтік жүйе туралы жадынамалармен таныстыруды жетілдіру; университеттің құрылымымен, оқу процесін ұйымдастыратын адамдармен танысуға мүмкіндік беретін бірінші курс студенттеріне парақшалар, дәптерлер

дайындау; жоғары курс студенттерін тарта отырып, бірінші курс студенттеріне оқу консультациясын өткізу; декан факультетіне Психологиялық қызмет көрсету орталығымен тығыз байланыс жасауды қадағалау.

Ветеринария және агроменеджмент факультеті: топ студенттерінің кураторларына студенттермен бірлесіп жұмыс атқаруды жолға қоюға назар аудару; студенттерге өзін-өзі сынауды қалыптастыруды дамытуды қадағалауға назар аудару; декан орынбасарына бірінші курс студентіне рейтингтік жүйе туралы жадынамалармен таныстыруды жетілдіру; университеттің құрылымымен, оқу процесін ұйымдастыратын адамдармен танысуға мүмкіндік беретін бірінші курс студенттеріне парақшалар, дәптерлер дайындау; жоғары курс студенттерін тарта отырып, бірінші курс студенттеріне оқу консультациясын өткізу; Психологиялық қызмет көрсету орталығы жүргізетін топтық және жеке түзету-дамыту жұмыстарын жүргізуге студенттердің қатысуын қадағалау [5].

Гуманитарлық-экономикалық факультеті-қыз балалармен атқарылатын жұмыс мазмұнын кеңейту; студенттермен бірлесіп жұмыс атқаруды жолға қоюға назар аудару; студенттерге өзін-өзі сынауды қалыптастыруды дамытуды қадағалауға назар аудару; декан орынбасарына бірінші курс студентіне рейтингтік жүйе туралы жадынамалармен таныстыруды жетілдіру; университеттің құрылымымен, оқу процесін ұйымдастыратын адамдармен танысуға мүмкіндік беретін бірінші курс студенттеріне парақшалар, дәптерлер дайындау; жоғары курс студенттерін тарта отырып, бірінші курс студенттеріне оқу консультациясын өткізу; Психологиялық қызмет көрсету орталығы жүргізетін топтық және жеке түзету-дамыту жұмыстарын жүргізуге студенттердің қатысуын қадағалау; топ кураторларына студенттермен жеке тәсілді қолдану ұсынылады.

Бейімделудің әлеуметтік-психологиялық аспектілеріне арналған зерттеулерді талдау студенттің өзін-өзі бағалау мен маңыздылық сезімін дамытуға бейім екенін атап өтуге мүмкіндік береді. Оның жетістіктерін объективті бағалауға негізделген осы қажеттіліктерді қанағаттандыру-бұл оқудың оң мотивациясына, студенттің білімінің өсуіне, оның адалдығына апаратын ең қысқа жол. Студент өмірінің барлық аспектілерінің ішкі үйлесімділігіне қол жеткізгісі келеді. Ол үшін, өз кезегінде, университеттегі оқу процесін ғылымның белгілі бір фактілерін хабарлау ретінде ғана емес, сонымен бірге шығармашылық ойлау, сезіну, бағалау, әрекет ету қабілетін арнайы қалыптастыратын қызмет ретінде түсіндіру қажет.болашақ маманның жоғары білімі бар белсенді өмірлік ұстанымын дамытуға бағытталған іс-шаралар.

Осылайша, кешенде бірінші курс студенттерінің ЖОО-да оқуға әлеуметтік-жеке, жеке-жеке және оқу-кәсіптік бейімделуін қамтамасыз ететін келесі әлеуметтік-педагогикалық жағдайларды ажыратуға болады [6]. Студенттермен жұмыс істеудің әлеуметтік-жеке бағдарламасын құру, оны жүзеге асыру бірінші курс студенттерін әр түрлі іс-шараларға қосуға бағытталуы керек, олардың оқу-жаттығуға саналы түрде қатысатын және университеттің қоғамдық өміріне қатысатын белсенді және мақсатты тұлғалық қасиеттерін қалыптастыруға ықпал етеді; университетте оқудың ерекшеліктерін ашып, бірінші курс студентіне дидактикалық тұрғыдан көмектесуі керек «Оқуды үйрен» арнайы тренингтік курсын әзірлеу; жоғарыда көрсетілген құрылымдық компоненттерге сәйкес нақты

оқу пәні бойынша практикалық сабақтарды жобалау; оқу пәнінің ерекшелігін ескеретін және негізгі жалпы дидактикалық принциптер мен бейімделу принципіне жауап беретін сабақтың әр кезеңі үшін жаттығу жүйесін құру; интеграциясы ЖОО-дағы білім беру процесін күрделі педагогикалық жүйе ретінде ұсынуға мүмкіндік беретін жүйелік, белсенділік, тұлғалық-бағдарланған, технологиялық және модульдік тәсілдер негізінде ЖОО-да білім беру процесін құру, оның жүйе құраушы категориясы бірінші курс студенттерін ЖОО-да оқуға бейімдеу болып табылады.

Пайдаланған әдебиеттер

1. Университеттің ішкі құжаттары Психологиялық қолдау қызметі туралы ереже П 042.С.27 – 2024

2. Университеттің ішкі құжаттары П 042-03-2021 Әдеп жөніндегі кеңес ережесі Е 042-3.07-2022 Шәкәрім университеті тәрбие жұмысының тұжырымдамасы

3. Кондратьев, М. Ю. Социально-психологическая служба в образовании. Общеобразовательное учреждение: учебник для вузов /Издательство Юрайт, 2025. С. 212.

4. Балгимбаева З.М., Практическая психология образования: Учебное пособие. А., Қазақ университеті, 2007

5. Ковалёв С.Э. Учебно-методическое пособие: «Психологическая служба в образовании» ВКГУ им. Аманжолова, Усть-Каменогорск 2005. С. 88.

6. Психологическая служба в практическом образовании [Текст] : Рабочая книга / Под ред. И.В.Дубровиной. – СПб.: Питер, 2009. – 400 с.

ZAMONAVIY SHAXSNING PSIXOLOGIK HOLATIGA SUN’IY INTELLEKTNING TA’SIRI

To‘rayev Boboyor Baxtiyorovich,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi, katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) inson hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotgan bir paytda, u bilan o‘zaro ta’sirning psixologik jihatlari yoritilgan. Xususan, kognitiv jarayonlar, emotsional holatlar, ijtimoiy munosabatlar va real voqelikni idrok etishdagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, SI ning shaxsiy va professional hayotga integratsiyasi bilan bog‘liq xavf va imkoniyatlarga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, psixologiya, kognitiv jarayon, emotsional bog‘liqlik, axborot pufakchasi, raqamli qaramlik, psixoterapiya, algoritm, empatiya, real voqelik, tanqidiy fikrlash.

Abstract

This article examines the psychological aspects of interacting with artificial intelligence (AI) as it becomes an integral part of human life. In particular, it analyzes changes in cognitive processes, emotional states, social relationships, and perception of

reality. At the same time, special attention is paid to the risks and opportunities associated with the integration of AI into personal and professional life.

Keywords: artificial intelligence, psychology, cognitive process, emotional attachment, information bubble, digital addiction, psychotherapy, algorithm, empathy, real reality, critical thinking.

Kirish

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda sun’iy intellekt (SI) inson hayotining deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib keldi. Bir paytlar faqatgina ilmiy fantastikada tasavvur qilingan mashinalar, algoritmlar va dasturlar bugungi kunda inson ongi bilan barobar miqyosda fikr yuritish, qaror qabul qilish va hatto hissiyotga o‘xshash reaksiyalarni namoyon etish qobiliyatiga ega bo‘lib bormoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari nafaqat iqtisodiyot, tibbiyot yoki ta’lim sohalarida, balki insonning ruhiy dunyosi, his-tuyg‘ulari va psixologik holatiga ham ta’sir o‘tkazmoqda. Mazkur maqolada aynan SI ning zamonaviy shaxsning psixologik holatiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani, uning ijobiy va salbiy oqibatlari, ruhiy salomatlik, ijtimoiy munosabatlar, yalg‘izlik va xavotir kabi holatlarga bog‘liq jihatlar o‘rganiladi.

Bugungi dunyoda ko‘plab insonlar virtual yordamchilar, onlayn maslahatchilar, psixologik qo‘llab-quvvatlash boti va boshqa SI asosidagi vositalar bilan muloqot qilish orqali o‘z muammolariga yechim izlamoqda. Biroq, bunday texnologiyalarga ortiqcha bog‘liqlik shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyati, ijtimoiy aloqalari va hatto o‘zligini anglash jarayoniga xavf tug‘dirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan SI ning inson psixologiyasiga ta’sirini o‘rganish zamonaviy psixologiya va axborot texnologiyalari kesishmasida muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.[1] Texnologiyalar taraqqiyoti bilan sun’iy intellekt (SI) zamonaviy inson hayotining muhim qismiga aylangan. Biz u bilan smartfonlar, qidiruv tizimlari, ovozli yordamchilar, ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari va tavsiya tizimlari orqali aloqadamiz. Bunday o‘zaro ta’sir insonning psixologik holati, fikrlashi va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Nazariy qism

Zamonaviy shaxs psixologik holatining shakllanishi va o‘zgarishi ko‘plab ichki va tashqi omillarga bog‘liq. Psixologiya fanida bu omillar orasida ijtimoiy muhit, kommunikatsiya vositalari, texnologik o‘zgarishlar, shaxsiy tajriba va hissiy holatlar alohida o‘rinni egallaydi. Oxirgi yillarda ayniqsa sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining kundalik hayotga keng kirib kelishi bu omillarga yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan ta’sir ko‘rsatmoqda. Sun’iy intellekt va psixologik ta’sirga oid nazariy yondashuvlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, masalan media psixologiyasi SI [2] texnologiyalari orqali odamlarning ruhiy holati va hissiyotlariga ta’sir qilish mexanizmlarini o‘rganadi. Bu yondashuvga ko‘ra, insonlar virtual muhitda o‘zini ifodalashi, tasdiqlashga bo‘lgan ehtiyoj, e’tibor qozonish istagi SI yordamida boshqarilishi mumkin.

Kognitiv yondashuv esa SI bilan muloqotning inson fikrlashi va qaror qabul qilish jarayonlariga ta’sirini o‘rganadi. [3] Bu yondashuv doirasida, masalan, chatbotlar, virtual maslahatchilar va sun’iy yordamchilar insonning kognitiv yuklamаларини kamaytirishi yoki o‘zgartirishi mumkinligi qayd etiladi.

Kognitiv jarayonlarga ta’siri

SI orqali ma’lumotlarga oson kirishish qaror qabul qilishdagi kognitiv yukni kamaytiradi. Ammo bu holat inson tanqidiy fikrlash va intuitsiyaga kamroq murojaat qilishiga olib kelishi mumkin. Qaror qabul qilishdagi avtomatlashtirish axborotni qabul qilish va qayta ishlash strukturasini o‘zgartiradi, bu esa xotira va diqqatga ta’sir qiladi.

Emotsional oqibatlar

Virtual yordamchilar va chat-botlarga emotsional bog‘lanish holatlari ko‘paymoqda. Insonlar SI ga nisbatan empatiya va his-tuyg‘ularni namoyon qilishmoqda, bu esa haqiqiy insoniy munosabatlarning o‘rnini bosishi mumkinligini ko‘rsatadi. SI dan ortiqcha foydalanish esa yolg‘izlik, xavotir va depressiya kabi salbiy holatlarni kuchaytirishi mumkin.

Ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi

SI ijtimoiy aloqalar strukturasini o‘zgartirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari "axborot pufakchalari"ni hosil qilib, insonlar qarshisiga faqat o‘xshash fikrlarni chiqaradi. Bu esa fikrlar polarizatsiyasiga va boshqalar bilan empatiya darajasining pasayishiga olib keladi.

Sun’iy intellektga psixologik qaramlik

Doimiy SI interfeyslari bilan aloqada bo‘lish insonda yangi turdagi — raqamli qaramlikni shakllantiradi. Texnologiyalarga kirish imkoniyati yo‘qligida inson xavotir va ruhiy beqarorlikni boshdan kechirishi mumkin.

Ijobiy tomonlari: psixologik yordam imkoniyatlari

SI ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Algoritmlar ruhiy buzilishlarni aniqlash, holatni kuzatish va hatto dastlabki terapiya (masalan, kognitiv-behavioral chat-botlar) o‘tkazishda qo‘llaniladi. Shuningdek, SI davolash jarayonini bemorning individual xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi.

Misollar va statistik ma’lumotlar

- 2020-yilgi Stanford universiteti tadqiqotiga ko‘ra, SI dan tez-tez foydalanuvchilarning prefrontal miya faolligi 30% ga kamaygan.
- MIT Media Lab eksperimentida odamlar SI suhbatdoshlariga nisbatan empatiya ko‘rsatgan.
- Microsoft tadqiqoti: SI asosida kontent tanlovida ishtirok etgan foydalanuvchilar ilovada o‘rtacha 25% ko‘proq vaqt o‘tkazgan.
- Pew Research Center (2023) so‘rovi: foydalanuvchilarning 38% ovozli yordamchilarga emotsional bog‘lanishni his qilgan, 12% yolg‘izlikni yengishda yordam berganini aytgan.
- 18–29 yoshdagilarning 60% SI dunyoqarashlariga ta’sir ko‘rsatganini bildirgan; 60 yoshdan oshganlarda bu ko‘rsatkich — 24%.

Xulosa

Sun‘iy intellekt (SI) inson psixologiyasiga chuqur va ko‘p qirrali ta‘sir ko‘rsatmoqda. U nafaqat shaxsning kundalik hayot tarzi va xulq-atvorini, balki uning fikrlash uslubi, emotsional reaksiyalari va ijtimoiy muomala ko‘nikmalarini ham sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Inson va SI o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir jarayoni tobora murakkablashmoqda: bir tomondan, bu texnologiya inson hayotini yengillashtiradi, ma’lumotga kirish imkoniyatini kengaytiradi, ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlashda yangi imkoniyatlar yaratadi; ikkinchi tomondan esa, u muayyan xataralarni ham yuzaga

keltirishi mumkin — masalan, virtual muhitga bog‘liqlik, real ijtimoiy aloqalarning kamayishi, yolg‘izlik va izolyatsiya, hamda ma’lumotlar orqali manipulyatsiya qilingan fikr va his-tuyg‘ular.

SI asosida ishlovchi dasturlar va ilova (chatbot, onlayn psixologik yordam, tahliliy algoritmlar va h.k.) insonning ruhiy holatini mustahkamlashda yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, bu vositalar insonning shaxsiy tajribasini qoldirib, uni standartlashgan, algoritmlarga asoslangan reaksiyalarga moslashishiga olib kelishi ehtimoli bor. Bu esa insonning mustaqil fikrlashi va ichki hissiy dunyosiga ta’sir qilishi mumkin.

Yana bir muhim jihat — yoshlar orasida SI texnologiyalarining ta’siri kuchliroq namoyon bo‘lmoqda. Ular SI orqali o‘z shaxsiyatini ifodalashga, o‘ziga xos virtual dunyo yaratishga harakat qilishmoqda. Bu ijobiy imkoniyatlarni berishi barobarida, turli xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, noto‘g‘ri axborot, feyk kontent va manipulyativ ta’sir SI texnologiyalari yordamida tez tarqalmoqda, bu esa yoshlarning ruhiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bois, jamiyat va mutaxassislar oldida muhim vazifa turibdi — sun‘iy intellekt texnologiyalarini ijobiy maqsadlarda integratsiya qilish, inson ruhiyati uchun xavfli bo‘lishi mumkin bo‘lgan omillarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish. Ta’lim tizimida media va texnologik savodxonlikni oshirish, SI bilan ishlashda etik standartlarni joriy etish va jamoaviy ongni rivojlantirish bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qisqasi, SI – bu faqat texnik yoki iqtisodiy rivojlanish masalasi emas, balki insonning ichki dunyosi, ruhiy salomatligi va ijtimoiy munosabatlarini ham qayta shakllantirayotgan murakkab jarayondir. U bilan ishlashda nafaqat imkoniyatlar, balki mas’uliyat ham katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Turkle, S. (2011). Alone Together. Basic Books.
2. Carr, N. (2010). The Shallows. W. W. Norton.
3. Binns, R. (2018). Human Judgment in Algorithmic Loops.
4. Luxton, D. D. (2016). AI in Behavioral and Mental Health Care.
5. Stanford HCI Group (2020). Cognitive Offloading and AI.
6. MIT Media Lab (2021). Empathy Toward Conversational Agents.
7. Pew Research Center (2023). Attitudes Toward AI.
8. Kaplan, A., & Haenlein, M. (2019). Siri, Siri, in my hand: Who‘s the fairest in the land? On the interpretations, illustrations, and implications of artificial intelligence. Business Horizons.
9. Nasr, M. (2020). The Impact of Artificial Intelligence on Human Psychology. Journal of AI and Mental Health, 5(2), 112–127.
10. Yudkowsky, E. (2008). Artificial Intelligence as a Positive and Negative Factor in Global Risk. In Global Catastrophic Risks (Cambridge University Press)
11. Carr, N. (2010). The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. – New York: W.W. Norton & Company
12. Sidorov, D. (2021). Влияние технологий искусственного интеллекта на психологическое здоровье молодежи. Вестник психологии и нейронаук, №4

13. Harari, Y.N. (2017). Homo Deus: A Brief History of Tomorrow. – Harvill Secker.– Sun’iy intellektning kelajakka ta’siri haqida

14. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – W. W. Norton

15. Karimova, M. (2022). Sun’iy intellekt va yoshlarning ruhiy salomatligi. O‘zbekiston ijtimoiy fanlari jurnali, №3

JAMIYATIDA OILAVIY AJRIMLAR SABABLARI VA ULARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI

(O‘zbek tadqiqotchilari yondashuvlari misolida)

Karimov Farxod Toshtemirovich
f.karimov8282@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti unversiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezis jamiyatida oilaviy ajrimlarning sabablari va ijtimoiy-psixologik oqibatlarini o‘zbek tadqiqotchilari yondashuvlari asosida tahlil qiladi. Ajrimlarga iqtisodiy, madaniy va psixologik omillar ta’siri ko‘rsatilib, ularning jamiyat va bolalar tarbiyasiga salbiy ta’siri yoritilgan. Tadqiqot oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Oila, ajrim, ijtimoiy-psixologik oqibatlar, o‘zbek jamiyati, oila barqarorligi, ma’naviy qadriyatlar, yosh oilalar.

Annotation. This thesis analyzes the causes of family divorces and their socio-psychological consequences in society based on the approaches of Uzbek researchers. It highlights the impact of economic, cultural, and psychological factors on divorces and their negative effects on society and child upbringing. The study aims to develop practical recommendations for strengthening family stability.

Keywords: Family, divorce, socio-psychological consequences, Uzbek society, family stability, moral values, young families.

Hozirgi kunda o‘zbek jamiyatida oilaviy ajrimlar sonining ortishi ijtimoiy va ma’naviy hayotda jiddiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Oila — jamiyatning asosiy tayanchi va tarbiya o‘chog‘i bo‘lganligi sababli uning barqarorligi ijtimoiy taraqqiyot va insonlarning ruhiy holati uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi[1]. Oilalarning buzilishi esa nafaqat er-xotinlar hayotiga, balki bolalar taqdiri, kelajak avlodning ma’naviy tarbiyasi va jamiyatdagi umumiy ijtimoiy muhitga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oilaviy ajrimlarning ortishiga iqtisodiy qiyinchiliklar, madaniy va ma’naviy qadriyatlarning o‘zgarishi, kommunikatsiya muammolari, gender tengsizliklari va zamonaviy hayot tarzining ta’siri kabi omillar sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, yosh oilalar orasida ajrimlarning ko‘payishi ularning psixologik yetuklik darajasi, oila qurishga tayyorgarlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining yetishmasligi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli, tezis mavzusi nazariy va amaliy jihatdan ham dolzarb bo‘lib, oila mustahkamligini ta’minlash bo‘yicha davlat siyosati va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin. Xususan, oilada

ajrimlarni oldini olish, uning paydo bo‘lish omillarini o‘rganishga doir o‘zbek olimlarining bir qancha tadqiqotlari mavjud.

1-jadval. 2020–2025-yillardagi O‘zbek psixologlarining oilaviy ajrimlar yuzasidan tadqiqotlari bo‘yicha yondashuvlari

№	Tadqiqotchi (muallif)	Tadqiqot mavzusi	Asosiy xulosalar	Nashr yili
1	Yunusova G.S., Isroilov A.A.	O‘zbek oilalarida nizo va ajrimlarning psixologik omillari	Er-xotin munosabatlaridagi nizolar, axloqiy buzilishlar va ijtimoiy-psixologik omillar ajrimlarga olib keluvchi asosiy sabablar sifatida ko‘rsatilgan.[1]	2022
2	Zulfiya Maxmudova	O‘smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish	Yosh oilalarda psixologik tayyorgarlikning yetishmasligi va romantik tuyg‘ularga berilish ajrimlar sonining ortishiga sabab bo‘layotgani tahlil qilingan.[3]	2022
3	Nuralieva D.M.	O‘zbek oilalarida oila qurish motivlarini o‘rganishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	Oila a’zolari o‘rtasidagi psixologik xususiyatlar va o‘zaro muloqotdagi mas’uliyat oilaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi omillar sifatida aniqlangan.[4]	2024
4	Ismatova D.T.	Oilaviy psixologik xizmatda shaxslararo munosabatlarning empirik tahlili	Shaxslararo munosabatlarni chuqur o‘rganish orqali psixologik xizmatning samaradorligini baholash mumkinligi ko‘rsatilgan.[5]	2024
5	Abdusamatov X.U.	Ko‘p yillik turmush stajiga ega oilalardagi ajrim psixologik fenomen sifatida	Ajrimlarning ko‘p yillik turmush tajribasiga ega oilalarda sodir bo‘lishi psixologik fenomen sifatida tahlil qilingan.[6]	2023
6	Abdullaeva A.R., Abdukarimova M.R.	Oilada ajrimlarning oldini olishda nikoh motivlarining psixologik omillari	Nikoh motivlarining psixologik omillari ajrimlarning oldini olishda muhim rol o‘ynashi aniqlangan.[7]	2022

O‘zbekistonlik psixologlar tomonidan 2020-2025-yillar orasida olib borilgan tadqiqotlar oilaviy ajrimlarning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini turli nuqtai nazardan tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotlarda asosan oilaviy nizolar, turmushdagi psixologik qiyinchiliklar

va ajrimlarning bolalar, oila a’zolari va jamiyatga bo‘lgan salbiy ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotchilar oilaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi psixologik omillarni (masalan, turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlarning sifatini, o‘zaro kommunikatsiyani, psixologik tayyorgarlikni) alohida ta’kidlashadi. Shuningdek, yosh oilalarda ajrimlarning psixologik oqibatlari (yoshlar orasidagi romantik tuyg‘ular, psixologik himoya mexanizmlarining etishmasligi) o‘rganilgan. Tadqiqotlar, ayniqsa, ajrimlarning oldini olish va oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Bu tavsiyalar, oiladagi muammolarni hal qilishda psixologik xizmatlardan foydalanish va oila a’zolarining o‘zaro munosabatlarini yaxshilashni ko‘zda tutadi. Umuman olganda, bu tadqiqotlar oilaviy ajrimlarning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini chuqur tahlil qilish, oilalar uchun samarali psixologik yordam va maslahatlarni taqdim etishga yordam beradi.

O‘zbekistonlik psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar oilaviy ajrimlar va ularning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotlar, ajrimlarning oilaviy barqarorlik, bolalar tarbiyasi va umumiy ijtimoiy rivojlanish uchun salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. O‘smirlar va yosh oilalarda ajrimlar ko‘proq psixologik muammolarni keltirib chiqaradi, shu jumladan, psixologik himoya mexanizmlarining etishmasligi, romantik munosabatlardagi noaniqliklar va boshqa psixologik qiyinchiliklar. Tadqiqotchilar ajrimlarning oldini olish va oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga intilishmoqda. Shuningdek, oilaviy munosabatlarni yaxshilashda psixologik xizmatlar va maslahatlarning samaradorligini oshirish muhimligi ta’kidlanadi.

Xususan yuqorida sanab o‘tilgan yondashuv va fikr-mulohazalarga tayanib oilaviy maslahat markazlarini yaratish va ularni kengaytirish taklifini joiz deb bildik. Bu markazlar oilaviy nizolarni hal qilishda, ajrimlarning oldini olishda va oilaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Markazlarda psixologik, huquqiy va ijtimoiy maslahatlar berish, shuningdek, oilalar uchun maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish orqali oila a’zolarining o‘zaro munosabatlarini yaxshilash va psixologik stressni kamaytirish mumkin. Shuningdek, yoshlar uchun oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan dasturlar ishlab chiqish ajrimlarning oldini olishda samarali vosita bo‘ladi. Mazkur taklif oilalarning barqarorligini oshiradi, ajrimlarning salbiy ijtimoiy-psixologik oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Yunusova G.S., Isroilov A.A. O‘zbek oilalarida nizo va ajrimlarning psixologik omillari. – Helsinki: Finland International Publishers, 2022. – 110- 112 b.
2. Maxmudova Z. O‘smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2022. – 98 b.
3. Nuralieva D.M. O‘zbek oilalarida oila qurish motivlarini o‘rganishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. – Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti nashriyoti, 2024. – 104 b.
4. Ismatova D.T. Oilaviy psixologik xizmatda shaxslararo munosabatlarni empirik tahlili. – Toshkent: “Ta’lim va innovatsiya” nashriyoti, 2024. – 86 b.
5. Abdusamatov X.U. Ko‘p yillik turmush stajiga ega oilalardagi ajrim psixologik fenomen sifatida. – Helsinki: Finland International Publishers, 2023. – 108 b. Link

6. Abdullaeva A.R., Abdukarimova M.R. Oilada ajrimlarni oldini olishda nikoh motivlarining psixologik omillari. – Toshkent: “Fan va taraqqiyot” nashriyoti, 2022. – 92 b.

RAQAMLI ASRDA PSIXOLOGIK SALOMATLIK: IJTIMOIY TARMOQLAR VA INSON RUHIYATIGA TA’SIRI

O‘razaliyeva Sevinch Marat qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: orazaliyevasevinch6@gmail.com
Ilmiy rahbar: Amirova Luiza Maratovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: luizamamanova@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli asrda psixologik salomatlikka ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri tahlil qilinadi. Ijtimoiy media platformalarining inson ruhiyati, xususan, o‘z-o‘zini baholash, ijtimoiy solishtirish, yolg‘izlik hissi va depressiv holatlarning kuchayishiga qanday sabab bo‘lishi mumkinligi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, raqamli detoks va psixologik barqarorlikni saqlash bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: psixologik salomatlik, ijtimoiy tarmoqlar, inson ruhiyati, raqamli asr, raqamli detoks, ijtimoiy solishtirish

Annotation: This article analyzes the impact of social media on psychological well-being in the digital age. It explores how social media platforms can influence human mental health, particularly in areas such as self-esteem, social comparison, feelings of loneliness, and the increase in depressive symptoms. The paper also offers recommendations on digital detox and maintaining psychological stability.

Keywords: psychological well-being, social media, human psyche, digital age, digital detox, social comparison

Raqamli asrda psixologik salomatlik insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlar nafaqat kundalik hayotimizni osonlashtirish, balki bizning ruhiy holatimizga ham jiddiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Internet va texnologiyalar yordamida odamlar bir-birlari bilan tezkor muloqotda bo‘lishlari mumkin, lekin bu, ayni paytda, psixologik salomatlikka salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar, masalan, Facebook, Instagram va Twitter, odamlarni doimiy ravishda bir-birlariga taqqoslashga undaydi. Ko‘plab foydalanuvchilar o‘zlarini boshqalarga nisbatan past his qilishlari mumkin, chunki ular doimo boshqalarining ideal hayot tarziga guvoh bo‘lishadi. Bu, o‘z navbatida, o‘zini qadrlashni kamaytiradi va depressiya xavfini oshiradi.Raqamli texnologiyalar odamlar o‘rtasidagi muloqotni osonlashtirgan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro munosabatlari yuzma-yuz kamroq bo‘lib qolmoqda. Ko‘proq onlayn muloqotlar insonlarni ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin, bu esa depressiya va boshqa ruhiy salomatlik muammolarining rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Raqamli asrda odamlar doimiy ravishda yangiliklar va

ma'lumotlarni qabul qilishadi. Ularning boshida bu ma'lumotlar kutilgan darajada ijobiy bo‘lishi mumkin, lekin tez-tez yangilanayotgan, ba'zan salbiy yoki og‘riqli yangiliklar odamlar stress va xavotirni oshirishi mumkin. Yangi ma'lumotlarni doimiy ravishda qabul qilish, shuningdek, odamlarni ishlash yoki dam olish paytida ham doimo ulanishda bo‘lishga majbur qiladi, bu esa psixologik salomatlikka salbiy ta'sir qiladi.Ijtimoiy tarmoqlar va internetda doimiy taqqoslashlar va ma'lumotlarni qabul qilish depressiya va xavotirni kuchaytirishi mumkin. Odamlar o‘zlarini boshqalar bilan solishtirib, o‘z hayotlarini "kam" yoki "yomon" deb his qilishadi. Bu his-tuyg‘ular ijtimoiy tarmoqlarda ko‘proq faol bo‘lgan, ammo psixologik salomatlikni e'tiborsiz qoldirgan odamlar orasida keng tarqalgan.Raqamli asrda "raqamli detoks" atamasi ko‘plab odamlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu – biror vaqt davomida ijtimoiy tarmoqlardan yoki ekranli qurilmalardan foydalanishni cheklash yoki butunlay to‘xtatish. Bunday detoks psixologik salomatlikni yaxshilash, stressni kamaytirish va boshqalar bilan haqiqiy muloqot qilish uchun foydali bo‘lishi mumkin.Onlayn muloqotlar o‘rniga, yuzma-yuz muloqotlarga ko‘proq e'tibor qaratish zarur. Real hayotda o‘rnatilgan mustahkam ijtimoiy aloqalar va qo‘llab-quvvatlovchi tarmoq insonlarning psixologik salomatligini yaxshilashga yordam beradi. Psixologik salomatlikni saqlash uchun odamlar muntazam ravishda o‘z ruhiy holatlarini nazorat qilishlari, stressni kamaytirish, o‘ziga vaqt ajratish, meditatsiya yoki yoga kabi faoliyatlar bilan shug‘ullanishlari kerak. Shuningdek, zarur bo‘lganda mutaxassislar yordamidan foydalanish ham juda muhimdir. Raqamli texnologiyalarni psixologik salomatlikni qo‘llab-quvvatlash uchun ham ishlatish mumkin. Masalan, onlayn terapiya sessiyalari, meditasiya ilovalari, stressni boshqarish bo‘yicha ilovalar va boshqalar. Bu texnologiyalar insonlarning ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi. Sherry Turkle (Sherri Terkel) - Texnologiya va inson o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha mutaxassis bo‘lib, psixologiya professorasi, raqamli texnologiyalarning ijtimoiy aloqalarga ta'siri haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borgan. U o‘zining "Reclaiming Conversation" (2015) kitobida shunday degan:

“Biz ijtimoiy tarmoqlarda doimiy bo‘lishni xohlaymiz, ammo bu bizning haqiqiy aloqalarimizni susaytiradi. Yuzma-yuz muloqotlar o‘rniga onlayn muloqotlar bizni jismonan va ruhiy jihatdan yolg‘iz qoldiradi.” Sherry Turkle, ijtimoiy tarmoqlarning odamlarning o‘zini qadrlashiga, ijtimoiy izolyatsiyaga va umumiy psixologik holatga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatishini o‘rganib, texnologiyalarning jismoniy va ruhiy salomatlikka qanday ta'sir ko‘rsatishini keng tahlil qilgan.

Ijtimoiy tarmoqlar va ularning inson ruhiyatiga ta'sirini o‘rganish bo‘yicha bir nechta katta psixologik tajribalar o‘tkazilgan. Ularning orasida Facebook va boshqa ijtimoiy tarmoqlarning odamlarning ruhiy holatiga ta'siri bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba juda diqqatga sazovor.

Tajribaning nomi: Facebook va ruhiy holatga ta'siri

Tajriba maqsadi:

Bu tajribaning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lishning odamlarning ruhiy holatiga qanday ta'sir qilishini aniqlash edi. Xususan, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarda muntazam ravishda boshqa foydalanuvchilarning faoliyatini kuzatish (masalan, ular qanday hayot kechirayotganini, qanday faoliyatlar bilan shug‘ullanishayotganini ko‘rish) qanday qilib odamlarning o‘zini qadrlashiga, depressiya va xavotir darajasiga ta'sir qilishini o‘rganish edi.

Tajriba o‘tkazilishi: Bu tajriba 2013-yilda Facebook platformasida o‘tkazilgan. Tajriba ishtirokchilari 2 guruhga bo‘lingan:

Birinchi guruh ishtirokchilar o‘z Facebook akkauntlaridan odatdagidek foydalanishda davom etdilar. Ikkinchi guruh esa guruhdagi ishtirokchilarga bir hafta davomida Facebookda ulashgan postlarni ko‘rmaslik uchun o‘z akkauntlaridan faqat ijtimoiy tarmoqlarda o‘zlarini namoyon qilishdan, postlar yozishdan voz kechish talab qilindi. Har ikkala guruhda ishtirokchilarning ruhiy holati, o‘zini qadrlash darajasi va boshqa psixologik ko‘rsatkichlar o‘lchandi. Tajriba davomida ishtirokchilarga o‘zlarining umumiy ruhiy holatlari haqida savollar berildi, shuningdek, o‘zlarini boshqalar bilan solishtirganida qanday his-tuyg‘ulari paydo bo‘lishini o‘rganish uchun maxsus testlar amalga oshirildi.

Tajriba natijalari quyidagicha bo‘ldi:

Birinchi guruh (oddiy foydalanish): Bu guruhdagi ishtirokchilar o‘zlarining ruhiy holatini pastroq deb his qilishdi. Ular boshqa foydalanuvchilarning ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirgan rasm va postlariga qarab o‘zlarini taqqoslab, o‘z hayotlarini "yomon" yoki "kam" deb his qildilar. Ularning o‘zini qadrlash darajasi ham kamaydi. Shuningdek, ular ko‘proq xavotir va depressiyani his qilishdi.

Ikkinchi guruh (cheklangan foydalanish): Bu guruhdagi ishtirokchilar Facebookdan faqatgina axborot olish va boshqa foydalanuvchilarni kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lishdi, lekin o‘zlari postlar joylashtirmadilar. Ular o‘zlarini boshqalar bilan solishtirish imkoniyatiga ega bo‘lmaganligi sababli, ruhiy holatlari yaxshilandi. Bu guruhda ishtirokchilar o‘zini qadrlash darajasini yuqori baholadilar va depressiya va xavotir darajalari ancha kamaydi.

Tajriba natijalari ijtimoiy tarmoqlarda boshqalar bilan doimiy taqqoslash va o‘z hayotingizni boshqalarnikiga nisbatan pastroq deb his qilishning ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini namoyon qilish, o‘z fikrlarini bildirish va boshqalar bilan muloqot qilishning muhimligi hamda bu jarayonlarda doimiy taqqoslashni kamaytirish ruhiy holatni yaxshilashga yordam berishi mumkinligini isbotladi. Xulosa qilib aytganda, bu tajriba ijtimoiy tarmoqlarda faoliyatning ruhiy salomatlikka ta'sirini o‘rganishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarda boshqalar bilan taqqoslashni kamaytirish va o‘zini qadrlashni mustahkamlash psixologik salomatlikni saqlash uchun muhimdir. Tajriba shuni ham ko‘rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlarni maqsadli va ehtiyotkorlik bilan ishlatish, salbiy ta'sirlarni kamaytirish va foydali jihatlarni maksimal darajada oshirish mumkin.

Jean Twenge, San Diego universitetining psixologiya professorasi, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning o‘sib kelayotgan avlodning psixologik holatiga ta'sirini o‘rgangan. U o‘zining “iGen” (2017) kitobida bunday deydi:

“Ijtimoiy tarmoqlar o‘z-o‘zini qadrlashni pasaytiradi va depressiya hamda xavotirni kuchaytiradi. Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan muntazam foydalanish o‘smirlar va yoshlarda ruhiy salomatlik muammolarini oshiradi.”

Jean Twenge ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasida o‘zini qadrlashni kamaytirishini va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishini ta’kidladi. U shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishni tavsiya qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli asrda psixologik salomatlik insonlar hayotida muhim o‘rin tutadi, chunki raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar nafaqat ijtimoiy aloqalarni o‘zgartiradi, balki odamlarning ruhiy holatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar doimiy ravishda o‘zlarini boshqalar bilan taqqoslashadi, bu esa o‘zini qadrlashni pasaytirishi, ijtimoiy izolyatsiya, xavotir va depressiyani keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri va ehtiyotkorlik bilan boshqarish, onlayn muloqotlar va real hayotdagi ijtimoiy aloqalar o‘rtasida muvozanatni saqlash psixologik salomatlikni yaxshilashga yordam beradi. Raqamli detoks, sog‘lom ijtimoiy tarmoqlar yaratish, va psixologik qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini amalga oshirish orqali zamonaviy dunyoda psixologik salomatlikni saqlash va oshirish mumkin. Shunday qilib, raqamli asrda psixologik salomatlikni himoya qilish faqat texnologiyalarni boshqarishdan emas, balki o‘z ruhiy holatini nazorat qilish va salbiy ta’sirlardan himoyalanishdan iboratdir.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. New York: Basic Books.

2. Twenge, J. M. (2017). iGen: Why Today’s Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy – and Completely Unprepared for Adulthood. New York: Atria Books.

3. www.psychologytoday.com

4. Karimova, Z. M. (2020). Psixologik salomatlik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi nashriyoti.

5. G‘ulomova, D. I. (2019). Yoshlar psixologiyasi va ijtimoiy tarmoqlar. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

6. Raxmatova, M. (2022). “Internet va yoshlar ruhiyati: tahdid va imkoniyatlar”. Yosh olimlar jurnali, №4, 15–22.

O‘SMIR QIZLARDA STRESS HOLATI XUSUSIYATLARINING PSIXOLOGIK TAXLILI

Meliyeva Sabina
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti unversiteti,
Psixologiya yo‘nalishi 2- kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti unversiteti
Ijtimoiy-gumanitar kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smir qizlarda stress holatlari, o‘smir qizlarda psixologik, fizologik va ijtimoiy holatlarning ta’siri, stressni keltirib chiqaruvchi sabablar, ularning salbiy alomatlari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik, fiziologiya, xususiyatlar, o‘tish davri, bosim, ijtimoiy, psixologik, omil.

Abstract: This article provides a scientific analysis of stress in adolescent girls, the impact of psychological, physiological, and social conditions on adolescent girls, the causes of stress, and their negative symptoms.

Keywords: Adolescence, physiology, characteristics, transition period, pressure, social, psychological, factor.

Insonning inqirozli vaziyatlarga moslashish muammosi ilgaridan odamlarni qiziqtirib kelgan. So‘nggi yillarda esa zamonaviy fanning bu muammoni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi yanada ortdi. Hech bir inson muvaffaqiyatsizliklar, to‘siqlar, hayajonlanishlardan kafolatlangan emas. Ko‘pchilik insonlar janjallar, o‘zaro munosabatlardagi nizolar va munozaralarni chetlab o‘ta olmaydilar. Natijada psixik va jismoniy salomatlikni izdan chiqaruvchi emotsional stress yuzaga keladi.O‘smirlik davrida stress muammosi yildan yilga kuchayib bormoqda. Tibbiyotchilarning fikricha 50% o‘smirlar xaftada bir marta bo‘lsa ham bosh og‘rig‘ini boshdan kechirishar ekan. Bugungi kunda o‘smir qizlarda stress holati xususiyatlarini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

O‘smirlik – bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jixatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, xayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O‘smirlik balog‘atga yetish davri bo‘lib, yangi xislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. O‘smir qizlarda stress holatlari – yoshga xos psixologik, fizologik va ijtimoiy o‘zgarishlar sababli yuzaga keladigan ruhiy bosim holatidir. Bu davrda qizlar o‘z shaxsini anglash, tashqi ko‘rinishdagi o‘zgarishlar, jamiyatdagi o‘rni, o‘qishdagi muvaffaqiyatlar yoki muammolar tufayli stressga uchrashlari mumkin. Qizlarda o‘smirlik davri asosan 10-12 yoshdan boshlanib, taxminan 16- 17 yoshgacha davom etadi. O‘sish tezligiga ko‘plab omillar ta’sir qilib, birinchi navbatda jismoniy holati, nasl- nasabi, ekalogiya, iqlim, o‘smirning ovqatlanishi va vazni kabilarning ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi.

Organizmdagi tez o‘sish va qayta qurilish jarayoni tufayli o‘smirlik davrida o‘z tashqi ko‘rinishiga bo‘lgan qiziqish keskin ortadi. Jismoniy “Men”ning yangi obrazi vujudga keladi. Tashqi ko‘rinishda bo‘layotgan barcha o‘zgarishlar – tana qislarining noproportsionalligi, yuz tuzilishining o‘zgarishi, bolalikdagi tozaligini yo‘qotayotgan teri, semirib ketish yoki ozib ketish o‘smir tomonidan bezovtalanish bilan qabul qilinadi, unda yetishmovchilik kompleksini yuzaga keltiradi. O‘smirlarning o‘z tashqi ko‘rinishlaridagi o‘zgarishlariga bo‘lgan og‘ir emotsional reaktsiyalarini kattalarning iliq va ishonchli munosabatlari yengillashtiradi. Aksincha munosabat esa o‘smirning pessimizm va nevrotizmga berilishiga olib keladi. Jismoniy “Men” obraziga va o‘zini o‘zi anglashga jinsiy yetilish maromi ham ta’sir ko’rsatadi. V.S.Muxina (2000) fikricha akseleratsiya jarayoni ham shxslilik rivojlanishi uchun muhim sharoit yaratadi, xattoki erta yetila boshlagan qizlar ham o‘ziga ishonch va xotirjamlik kuzatiladi. O‘g‘il bolalar uchun ham yetilish muddatlari juda ahamiyatli, chunki jismoniy yetilgan o‘g‘il bola kuchliroq, sportda va faoliyatning boshqa turlarida muvaffaqiyatliroq, o‘z tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarda o‘ziga ishonchi yuqoriroq bo’ladi.

Stressga munosabatning jinsiy tafovutlarini tadqiq etgan olimlar (Libin A.V. 2006, G.Krayg, 2005) qiz bolalar va o‘g‘il bolalarda uning turlicha namoyon bo‘lishini

ta’kidlaydilar. Stressga munosabatlardagi jinsiy tafovutlar ko‘proq uni yengish usullarida namoyon bo‘lishi tadqiqotlarda aniqlangan. (Nolen-Hoeksema, 1990).

Ayollar stress holatida ko‘proq shu holatga olib kelgan sabablar haqida o‘ylar ekanlar, erkaklar esa depressiv emotsiyalardan qochib, boshqa bir faoliyatga, masalan jismoniy faollikka e’tiborlarini jalb qilar ekanlar va shu yo‘l bilan o‘zlaridagi salbiy holatni yengishga harakat qilar ekanlar. Ayollardagi stresss holatiga olib kelgan sabablarni hadan ziyod izchil tahlil qilish ularning shu doirada uzoq muddat qolib ketishlari va tushkunlik holatiga tez tushib qolishlariga olib kelar ekan.

Stressga bo‘lgan reaktsiyalarning tipik shakllari ijtimoiylashuv jarayonining maxsuli bo‘lib, hayot davomida shakllanadi. Ayollardagi reaktsiyalar ko‘proq passiv, hissiyotlarga to‘plangan, emotsiyalarni namoyish qilish va boshqalar bilan o‘rtoqlashishga qaratilgan bo’lsa, erkaklarda jismoniy va emotsional faollik, o‘zining zaifligini ko’rsatmaslikka intilish, o‘z kayfiyatini boshqalar bilan muhokama qilmaslik kuzatiladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, o‘smirlik davrida ham qiz va o‘g‘il bolalarda stressni kechini holatlarida jinsiy tafovutlar ko‘zga tashlanadi. O‘g‘il bolalarda delinkvent xulq-atvorga moyillik kuzatilsa, qiz bolalarda stress holatiga tushganda ichki kechinmalar ichiga qaratilgan bo‘ladi, depressiyaga berilish ham qiz bolalarda o‘g‘il bolalarga nisbatan ikki barobar ko‘proq uchraydi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili o‘smirlik davrida emotsional-irodaviy xususiyatlarda o‘ziga xos o‘zgarishlar kuzatilishi va bu o‘zgarishlar jinsiy tafovutlanishi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Shaxsning emotsional holati doim psixologlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bu sohadagi tadqiqotlar bilan juda ko‘p olimlar shug’ullanganlar (Adler A., Izard K., Pavlov I.P., Sechenov I.M., Selье G., Freyd Z., Yung K., va boshqalar). Antik davr olimlari ham o‘sha zamonlardayoq insonning xursandchilikdagi holati, g‘am-qayg‘uga berilgan paytidagidan tubdan farq qilishi, xavf- xatar, alam vaziyatlarida emotsional sohada o‘zgarishlar yuzaga kelishi va bu o‘zgarishlar nafaqat insonning tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori, qilgan ishlarida, balki boshqa odamlarga ta’sir ko‘rsatish xarakterida ham namoyon bo‘lishini ta’kidlab o‘tganlar.

Bugungi kunda o‘smir o‘z mazmuni va rivojlanish tendentsiyasiga ko‘ra murakkab bo‘lgan dunyoda yashamoqda. O‘smirning emotsional holati nafaqat psixologlar, balki, pedagoglar, ota-onalarni ham tashvishga solmasdan qo‘ymaydi. O‘smirlarda bo‘ladigan emotsional zo‘riqishlarni o‘z vaqtida payqash, diagnostika va korrektsiya qilish shaxs rivojlanishidagi noma’qul tendentsiyalarning yuzaga kelish xavfini kamaytirishi mumkin.

O‘smirlardagi stress holatlari XX asrning 60-70-yillarida bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan (Eysler, 1968; Offer, 1969; Ratter, 1976; Kovaks, 1984). XX asrning 90-yillari va XXI veka o‘smirlardagi stress holatlarini o‘rganish borasida tub burilishlar yuz berdi. Zamonaviy psixologiyada mazkur muammoga psixologiyaning turli tarmoqlari – umumiy, umr davrlari, pedagogik psixologiya mutaxassislari tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda juda ko‘p fundamental tadqiqotlar olib borildi (Koul, 1991; Raterson i Kapaldi, 1990; Kovaks, 1992 Xeymans, Podolьskiy, 1996, F.Rays, 2005).

Adabiyotlar tahliliga ko‘ra o‘smirla stress holatlariga yetuklik davridagi odamlarga nisbatan kuchliroq berilar ekanlar. Ularga tabiiy va jismoniy stressorlardan tashqari yana

baholash stressorlari ham ta’sir ko‘rsatar ekan. (L.I.Bojovich, F.Rays, G.Krayg, E.G’oziev va boshqalar). Ayniqsa o‘smirlardagi stressga turg‘unlik stress xarakter aktsentuatsiyasi, vegetativ va jismoniy o‘zgarishlar bilan birga kechganda keskin pasayib ketishi mumkinligi ta’kidlanadi. Kattalar kabi o‘smirlarda ham stress individual tarzda kechadi va ular o‘zlarining individual tipologik xususiyatlariga ko‘ra bu vaziyatga turlicha reaktsiya bildiradilar. Natijada aynan o‘smirlik davriga kelib juda ko‘p o‘smirlarda turli psixosomatik xarakterdagi kasalliklar yuzaga keladi. Ba’zi o‘smirlarda depressiya kuzatilsa, boshqa bir o‘smirlarda xulq atvordagi murakkabliklar ko‘zga tashlanadi – qo‘zg‘aluvchanlik, o‘zini o‘zi nazorat qilishni yo‘qotib qo‘yish va x.k.

Stress doimo emotsiyalar bilan bog‘liq, emotsiyalar esa bizning hayotimizda muhim o‘rin tutadi. Ular insonning faqatgina tashqi ko‘rinishini emas, balki ichki organlar faoliyatini, asab tizimi xolatini ham o‘zgartirib yuboradi.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. M.G.Davlatshin “Yosh va pedagogik psixologiya” Toshkent. 2007
2. G.B.Shoumarov, I.O. Haydarov “Oila psixologiyasi” Samarqand. 2015
3. Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova “Rivojlanish psixalogiyasi. Pedagogik psixologiya” O‘zbekiston faylasuflari milliyjamiyati. 2018
4. https://uz.wikipedia.org

QIZLARNI ERTA TURMUSHGA BERISHNING PSIXOLOGIK SABABLARI

Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: maqolada erta turmush va uning salbiy oqibatlari,psixologik salomatlikni buzilishi, kasalliklarni avj olishi erta turmushning turli mamlakatlardagi statistic tahlili diagrammalar asosida yoritib berilgan, shuningdek maqolada erta turmush qiz bolalarning ilmli bo‘lishiga to‘sqinlik qilishi haqida ham atroflicha fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, bilim, turmush, genetik, omil, ong, salohiyat, tug‘ruq, tarbiya, holat, ajrim, farzand, oila, nikoh, hissiyot.

Annotation: the article presents a statistical analysis of early marriage and its negative consequences, psychological health disorders, and the spread of diseases in different countries based on diagrams, and the article also presents detailed ideas about how early marriage prevents girls from becoming educated.

Keywords: education, knowledge, marriage, genetics, factor, consciousness, potential, childbirth, upbringing, condition, divorce, child, family, marriage, emotions.

Erta turmush (erta nikoh) — bu odatda 18 yoshga to‘lmagan qizlarning turmushga chiqishidir. Bu yoshda inson hali jismonan, ruhan va ijtimoiy jihatdan to‘liq yetilmagan bo‘ladi [2.45b]. Qizlarni erta turmushga berish – bu ko‘plab jamiyatlarda, ayniqsa an’anaviy yoki rivojlanayotgan hududlarda uchraydigan holat bo‘lib, bu hodisaning

psixologik sabablari va salbiy oqibatlari juda chuqur va ko‘p qirrali bo‘lib uning psixologik sabablari quydagilardan iborat:

1. **Jamiyat bosimi va qadriyatlari:** An’anaviy qarashlar: "Qiz bola yoshligida turmushga chiqmasa, keyin kechikadi" degan stereotiplar. Oila obro‘sini saqlash: qiz bolaning nomusini saqlash maqsadida uni erta turmushga berish.
2. **Qo‘rquv va xavotir:** Oilaning qiz farzandni “xavfsiz” qo‘lga topshirish istagi. Ota-onalarning qizlari noto‘g‘ri yo‘lga kirib qolishidan qo‘rqishi.
3. **Savodsizlik va xabardorlik yetishmasligi:** Oila yoki jamiyatning erta turmushning salbiy oqibatlari haqida yetarli bilimga ega emasligi. Ayollar huquqlari, jinsiy tarbiya yoki psixologik salomatlik bo‘yicha ma’lumotlarning yo‘qligi.
4. **Ijtimoiy-iqtisodiy omillar:** Qashshoqlik: og‘ir iqtisodiy holatda bo‘lgan oilalar qizini erta turmushga berib, bir og‘iz kam bo‘lishni xohlashi. Uylanish – ijtimoiy va moddiy kafolat sifatida qabul qilinishi.

1. **Psixologik jarohatlar:**
   - Ruxiy tayyor emaslik: yosh qizlar hayotiy qarorlar qabul qilishga tayyor bo‘lmaydi.
   - Stress, depressiya, xavotirli buzilishlar.
2. **Shaxsiy rivojlanishning to‘xtashi:**
   - Ta’limdan chetda qolish, o‘z salohiyatini to‘liq amalga oshira olmaslik.
   - Orzular va rejalarni qurish imkoniyatining yo‘qligi.
3. **Oilaviy muammolar:**
   - Erta nikohlar ko‘pincha zo‘ravonlik, tengsiz munosabatlarga olib keladi.
   - Oila qurish mas'uliyatiga tayyor bo‘lmaganlik sababli ajrimlar ko‘payadi.
4. **Jinsiy va reproduktiv sog‘liqqa tahdid:**
   - Homiladorlikka tayyor bo‘lmagan organizm salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi.
   - Ona va chaqaloq o‘limi xavfi yuqori bo‘ladi.
5. **Ijtimoiy ajratilish:**
   - Yosh onalar o‘z tengdoshlaridan ajralib qoladi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan mahrum bo‘ladi.

Albatta, qizlarni erta turmushga berish masalasi — bu jiddiy ijtimoiy, psixologik va huquqiy muammo bo‘lib, nafaqat shaxsiy hayotga, balki jamiyatning umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. **Karimova M. N. qizi va Ashurova Sh. F. (2023)** – "Professional ta’limda ta’lim olayotgan qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik asoslari" nomli maqolalarida, o‘zbek oilalariga xos bo‘lgan qadriyatlar, qizlarni oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyorlash va ularning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar haqida so‘z yuritilgan[3.56-b]. **Bozarboyeva N. D. (2022)** – "Talaba qizlarni oilaga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari" nomli maqolasi oliy ta'lim tizimida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning falsafiy-psixologik, ijtimoiy-psixologik va ruhiy-ma'naviy xususiyatlarini ko‘rib chiqadi [3.55-b].

Hozirgi davrda inson huquqlari, ayniqsa ayollar va bolalar huquqlari haqida ko‘p gapirilayotgan bo‘lsa-da, ayrim jamiyatlarda hanuzgacha **qizlarni erta turmushga berish** amaliyoti saqlanib qolmoqda. Bu hodisa nafaqat qizlarning shaxsiy hayotiga, balki

ularning sog‘lig‘i, ta’limi, huquqlari va jamiyatdagi roliga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.[4.78-b.] Ushbu maqolada erta turmushga berishning asosiy sabablari, oqibatlari hamda bunday holatlarning oldini olish bo‘yicha taklif va tavsiyalar tahlil qilinadi.

1. **An’anaviy qarashlar va ijtimoiy bosim:** Ayrim hududlarda qiz bolaning erta turmushga chiqishi jamiyat tomonidan odatiy hol sifatida qabul qilinadi. “Qiz bola o‘z uyida emas, el uyida”, “18 dan o‘tsa, kechikadi” kabi tushunchalar bunga asos bo‘ladi.
2. **Iqtisodiy sabablar:** Kam ta’minlangan oilalar qiz farzandni erta turmushga berib, moliyaviy yukdan qutulishni istaydilar. Ba’zida bu “baraka” deb talqin qilinadi.
3. **Ta’lim va huquqiy xabardorlikning pastligi:** Ko‘plab hollarda ota-onalar ham, qizlar ham erta nikohning huquqiy va salomatlik bo‘yicha oqibatlaridan bexabar bo‘lishadi.
4. **Qonunchilikdagi bo‘shliqlar va nazoratning zaifligi:** Qonun bilan belgilangan nikoh yoshi bor bo‘lishiga qaramay, amaliyotda bu talablar doimiy nazorat ostida bo‘lmasligi muammoni kuchaytiradi.
1. **Ta’limdan chetda qolish:** Erta turmushga chiqqan qizlar ko‘pincha maktabni tugatmaydi, bu esa ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini to‘xtatadi.
2. **Sog‘liq muammolari:** 18 yoshga to‘lmagan qizlar onalik uchun jismonan hali yetilmagan bo‘lishi mumkin. Bu holat onaning ham, bolakayning ham salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi.
3. **Psixologik jarohatlar:** Yosh turmush o‘rtog‘i ruhiy jihatdan bu bosqichga tayyor bo‘lmagan bo‘lishi mumkin. Bu esa stress, depressiya, qo‘rquv, yolg‘izlik kabi holatlarga olib keladi.
4. **Zo‘ravonlikka uchrash xavfi:** Tajribasiz, yosh qizlar ko‘pincha oilaviy zo‘ravonlik qurboniga aylanadi, o‘zini himoya qila olmaydi.
1. **Ta’limni rivojlantirish:** Qizlar uchun sifatli va uzluksiz ta’lim tizimini ta’minlash, ayniqsa qishloq joylarida.
2. **Huquqiy islohotlar va nazorat:** Nikoh yoshi bilan bog‘liq qonunlar qat’iy bajarilishini ta’minlash va noqonuniy nikohlarni jazolash.
3. **Ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot:** Jamiyatda sog‘lom fikr, zamonaviy qadriyatlarni shakllantirish.
4. **Psixologik va ijtimoiy yordam markazlari:** Erta nikoh qurishga majburlangan qizlarga huquqiy va psixologik ko‘mak ko‘rsatish tizimini yaratish.

Qizlarni erta turmushga berish — bu faqat bir oilaning emas, balki butun jamiyatning kelajagiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muammo. Ushbu hodisaga qarshi kurashish uchun ta’lim, huquqiy tizim, ijtimoiy targ‘ibot va oilaviy qadriyatlar uyg‘un holda ishlashi zarur. Har bir qiz bola hayotda o‘z o‘rnini topishga, orzu va maqsadlariga erishishga, erkin va baxtli yashashga haqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNICEF global databases, 2020, based on DHS, MICS and other national surveys, 2013-2019.
2. Burieva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. -T.:, 1997. -182 b

3. Buxoriy-Al Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil. Hadis. VI jild. AL-Jomi’ As-Sahih (Ishonarli to‘plam). –T.:, «qomus», 1992. –527 b.
4. Исаэв Д.Н., Каган В.Э. Половоэ воспитаниэ и психогигиэна пола у детей. – Л.:, 1979. – 184 с.
5. Исаэв Д.Н., Каган В.Э. Психогигиэна пола у детей: руководство для врачей. –М.:, 1986. –336 с.
6. Исаэв Д.Н, Каган В.Э. Половоэ воспитаниэ детей. –Л.:, 1988. –160 с.
7. Ismailov M.N. O‘quvchi gigienasi. –T.:, 1977.
8. Kaykovus. qobusnoma. –T.:, ―Meros‖, 1992. –176 b.
9. Klenitskaya E.M. Qiz bola tarbiyasi. –T.:, ―Meditsina‖, 1971.
10. Ковалев С.В. Психология современной семи. –М.:, 1988. 21.Ковалев С.В. Подготовка старшекласников к семейной жизни. –М.:,Ю 1991.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ БУЛЛИНГА

Амирова Луиза Маратовна
Преподаватель Ташкентского университета узбекского языка и литературы, имени Алишера Навои

Аннотация: В статье рассматриваются социально-психологические особенности изучения феномена буллинга. Анализируются ключевые факторы, способствующие возникновению и сохранению поведения буллинга в различных социальных средах, особенно в образовательных учреждениях. Особое внимание уделяется роли индивидуальных психологических характеристик, динамике групп и более широким социальным влияниям. сложной социальной проблемы, требующей комплексных и системных решений.

Ключевые слова: социально-психологические особенности, ключевые факторы, образовательные учреждения, смягчение буллинга, методологические подходы, междисциплинарные перспективы, комплексные и системные решения.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF STUDYING THE PROBLEM OF BULLYING

Amirova Luiza Maratovna
Teacher of Tashkent Uzbek Language and Literature University named after Alisher Navoi.

Abstract: This article examines the socio-psychological features involved in studying the phenomenon of bullying. It explores the key factors that contribute to the emergence and persistence of bullying behavior in various social environments, particularly in educational settings. Special attention is given to the roles of individual psychological characteristics, group dynamics, and broader societal influences

Key words: socio-psychological features, key factors, educational settings, mitigate bullying, methodological approaches, interdisciplinary perspectives, comprehensive and systematic solutions.

ВВЕДЕНИЕ

Издевательства остаются серьезной проблемой в различных средах, особенно в школах и на рабочих местах, влияя на благополучие вовлеченных лиц. Социально-психологические аспекты издевательств, охватывающие социальные отношения и психологические условия, окружающие это поведение, жизненно важны для понимания его сложности. В этой статье мы подробно рассмотрим эти аспекты, исследуя их влияние как на издевателей, так и на жертв, а также выделим потенциальные стратегии профилактики и вмешательства.

Травля характеризуется агрессивными действиями, которые являются преднамеренными и предполагают разницу в силе между людьми. Она может проявляться через физическое противостояние, словесные атаки, социальную изоляцию или цифровые домогательства. Анализ социально-психологических факторов, связанных с травлей, помогает раскрыть сложную сеть отношений, которые поддерживают и увековечивают оскорбительное поведение.

Социальная динамика травли

Взаимодействие со сверстниками: травля часто поощряется в группах сверстников, где нормы приемлемого поведения могут сильно различаться. Присутствие друзей или одноклассников может либо подпитывать травлю, предоставляя аудиторию для агрессора, либо сдерживать ее, поощряя поддерживающие действия по отношению к жертве. Предоставление возможности очевидцам высказываться имеет решающее значение для прекращения цикла травли.

Влияние окружающей среды

Окружающая среда играет ключевую роль в распространенности травли. Школьный климат, институциональная политика и отношение общества к агрессии могут существенно влиять на возникновение и принятие травли. Создание позитивной атмосферы, в которой приоритет отдается инклюзивности, может эффективно сократить случаи травли.[1]

Психологические аспекты травли

Влияние на жертв: психологические последствия для жертв травли могут быть глубокими и далеко идущими. Многие испытывают чувство изоляции, страха и неадекватности, что приводит к пагубным последствиям для их психического здоровья. Важно осознать важность предоставления психологической поддержки, чтобы помочь жертвам восстановиться и вернуть себе уверенность.

Мотивы травли

Мотивы травли многогранны, часто коренятся в личной неуверенности или предыдущем опыте виктимизации. Некоторые демонстрируют агрессивное поведение как ошибочную форму утверждения власти или социального статуса. Понимание этих глубинных причин имеет решающее значение для разработки позитивных поведенческих вмешательств, направленных на исправление агрессивных людей.

Развитие эмпатии

Развитие эмпатии среди учащихся является важнейшей профилактической мерой против травли. Поощрение эмоциональной осведомленности и социальных навыков может помочь создать культуру доброты и понимания. Программы, ориентированные на наставничество со стороны сверстников, также могут поддержать эту инициативу, позволяя учащимся позитивно взаимодействовать друг с другом.

Подходы к вмешательству

Для эффективной борьбы с травлей необходим комплексный подход, охватывающий как социальные взаимодействия, так и психологическое здоровье. Инициативы, в которых задействовано все школьное сообщество — ученики, родители, учителя и другие заинтересованные стороны — наиболее успешны в снижении случаев травли. Программы повышения осведомленности, ресурсы по психическому здоровью и семинары по навыкам общения могут снабдить людей инструментами, необходимыми для реагирования на травлю и ее предотвращения.[2]

Политика борьбы с издевательствами в британских и арабских израильских школах[4]

Доктор Самара из университета Кингстона также исследовала развитие политики борьбы с издевательствами в школах Великобритании. Это показало, что школы добились лишь скромного роста в реализации политики борьбы с издевательствами за шестилетний период. Большинство из них включали определения издевательств, некоторое освещение санкций и описание обязанностей преподавательского состава, родителей и очевидцев, а также советы о том, что должны делать жертвы издевательств. Однако многие школы плохо освещали другие формы издевательств (например, кибериздевательства, инвалидность, издевательства учителей/учеников и издевательства в школе и за ее пределами).

Они регулярно упускали другие важные аспекты, включая отслеживание инцидентов и санкций, а также конкретные профилактические меры (такие как работа на игровой площадке, поддержка сверстников, вопросы инклюзивности). В школах с высокими показателями политики в стратегиях предотвращения издевательств было меньше учеников, издевающихся над другими. Эти результаты дали четкие выводы для усиления политики.

Доктор Мутанна работал с арабскими школами в центральном округе Израиля, чтобы разработать политику по борьбе с издевательствами на основе рекомендаций, опубликованных в вышеуказанном исследовании. Процедуры по борьбе с издевательствами были введены в 13 школах. Работа в школах облегчалась тесными рабочими отношениями с инспектором Министерства образования в арабском секторе Израиля. В отличие от Англии, в Израиле нет правил, требующих от школ иметь особую политику по борьбе с издевательствами. Поэтому доктор Мутанна ввел первую политику по борьбе с издевательствами для этих школ, основанную на культурно-релевантной интерпретации результатов.[4]

Социально-психологические особенности травли дают ценную информацию как о ее причинах, так и о последствиях и раскрывают сложное взаимодействие социальной динамики и индивидуальной психологии. Понимая социальную

динамику и психологические факторы, мы можем разрабатывать более эффективные стратегии борьбы с травлей. Более того, понимая и решая эти аспекты, мы можем создавать более благоприятную среду, которая препятствует травле. Крайне важно, чтобы педагоги, родители и лидеры сообщества сотрудничали в разработке всеобъемлющих стратегий, ориентированных на эмпатию, поддержку и взаимное уважение, чтобы эффективно решать эту распространенную проблему.

БИБЛИОГРАФИЯ

1. https://openai.com/index/chatgpt/
2. https://www.ox.ac.uk/news/2024-11-08-treating-bullying-everyone-s-problem-reduces-incidence-primary-schools
3. https://www.kingston.ac.uk/preventing-children-bullying-and-cyberbullying

BOLALARDA KO‘P TILLILIK VA UNING O‘ZIGA XOSLIGI BILINGVIZMNI SHAKLLANISHI

Giyasova Nozimaxon Qahramon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada til va fikrlashnining bog‘liqligi ko‘p tillilik uning kognitiv jarayonlarga ta’siri borasidagi fikrlar tahlili keltirib o‘tilgan shuningdek maqolada olimlarning fikr mulohazalari, bolada nutq shakllanishi ikki tilda gaplasha olishidagi kognitiv jarayonlarning o‘rni yoritilgan. Tabiiy bilingvizm ko‘pincha bolalik davrida ko‘p tilli muhit ta’sirida ro‘y beradi. masalan, oila tatar yoki boshqird tillarida gaplashadi, ammo hovlida rus tilini eshitish mumkinligi, bola deyarli bir vaqtning o‘zida ikkita tilni o‘rganadi: ikkita til bir-biriga qo‘shilib ketmasdan, parallel ravishda rivojlanishi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tushuncha, nazariya, bilingvizm, til, nutq, muomula, muloqot jarayon, bilish, nutq o‘stirish, yondashuv, zarurat, neyropsixologiya, aqliy qobiliyat.

Многоязычие у детей и его особенность - формирование билингвизма

Гиясова Нозимахон Кахрамон кизи
Преподаватель-стажер Ташкентского университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Аннотация: В статье представлен анализ взаимосвязи языка и мышления, влияния многоязычия на когнитивные процессы, мнения ученых, а также роль когнитивных процессов в формировании речи, способности ребенка говорить на двух языках. Естественное двуязычие часто возникает в детстве под влиянием многоязычной среды. Например, если в семье говорят на татарском или башкирском языке, но во дворе слышна русская речь, ребенок осваивает два языка практически одновременно: два языка развиваются параллельно, не сливаясь.

Ключевые слова: концепция, теория, двуязычие, язык, речь, коммуникация, процесс коммуникации, познание, развитие речи, подход, необходимость, нейропсихология, умственные способности.

Multilingualism in children and its peculiarity - the formation of bilingualism

Giyasova Nozimakhon Kahramon kizi
Trainee teacher of the Tashkent University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Annotation: the article presents an analysis of the relationship between language and thinking, the impact of multilingualism on cognitive processes, and also discusses the opinions of scientists, the role of cognitive processes in the formation of speech in a child, the ability to speak two languages. Natural bilingualism often occurs in childhood under the influence of a multilingual environment. For example, the family speaks Tatar or Bashkir, but in the yard you can hear Russian, the child learns two languages almost simultaneously: it is described that two languages develop in parallel, without merging.

Keywords: concept, theory, bilingualism, language, speech, communication, communication process, cognition, speech development, approach, necessity, neuropsychology, mental abilities.

Har bir tilda nutqning fikrlash bilan o‘zaro bog‘liqligiga ko‘ra, aloqaning bevosiya va belvosita xususiyati ajralib turadi va shunga ko‘ra, biz fikrni ifodalash, fikrning to‘g‘riligi va diskursiv nutq qobiliyatlari haqida gaplashmoqdamiz .Amalga oshirilgan harakatlar soniga ko‘ra retseptiv, reproduktiv (reproduktiv) va mahsuldor (ishlab chiqaruvchi) ikki tillilik ajralib turadi [4; 159-b.]. Ikki nutq mexanizmining o‘zaro bog‘liqligiga ko‘ra, sof va aralash ikki tilli til ajralib turadi. I.L.Medvedeva, A.A.Zalevskaya bilingvizmning quyidagi turlarini ajratadilar: tabiiy va sun'iy. Vujudga kelish shartlariga ko‘ra, ikki tilli tilning tabiiy va sun'iy turlari farqlanadi.

Tabiiy bilingvizm ko‘pincha bolalik davrida ko‘p tilli muhit ta’sirida ro‘y beradi. masalan, oila tatar yoki boshqird tillarida gaplashadi, ammo hovlida rus tilini eshitish mumkin. Ba’zi hollarda, bola deyarli bir vaqtning o‘zida ikkita tilni o‘rganadi: ikkita til bir-biriga qo‘shilib ketmasdan, parallel ravishda rivojlanadi. Sun'iy bilingvizm, o‘rganish natijasida paydo bo‘ladi, ikkinchi til birinchisiga, ona tiliga nisbatan bo‘ysunuvchi holatda bo‘lsa, ona tili tizimi ikkinchi tilni egallashga ta'sir qiladi, ya'ni ona tilining tovush tizimi, grammatik shakllari ikkinchi tilning mos keladigan vositalariga ta'sir qiladi, xatolarga va aksentlarga olib keladi [4 6-b].

Demak, psixologiyada bilingvizm kognitiv jarayonlarning usuli va vositasi deb ayta olamiz, chunki u zamonaviy aloqa va shaxs madaniyati tuzilishining zaruriy elementidir.

Bilingvizm ijtimoiy xodisa sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda va zamonaviy jamiyatning muxim omiliga aylanmoqda.

Y.M.Vershagin fikricha, “Bilingvizm muammosi 6 xil nuqtayi nazardan o‘rganilishi mumkin va har safar tadqiqotda mustaqil metodikadan foydalanishga to‘g‘ri keladi”. Y.M.Vershagin ta’kidlashicha, bilingvizm quyidagi fanlarning o‘rganish predmeti hisoblanadi: 1) psixologiya, 2) lingvistika 3) sotsiologiya, 4) psixolingvistika,5) ijtimoiy lingvistikaning, 6) ijtimoiy psixologiya. Oxirgi davrda bilingvizm qonuniyatlarini tadqiq qilishda yana bir istiqbolli yo‘nalish– neyropsixologik yondashuv kuzatilmoqda[1 9-b.]. Haqiqatan, bilingvizmni yosh davrlarga xos jihatlarini neyropsixologik jihatdan

o‘rganish ota-onalarning farzandlariga til ko‘nikmalariga o‘rgatishda samarali tavsiya bo‘la oladi.

XX asrning 60-80 yillarda bilingvizmni yondosh (chegaradosh) fanlar – psixolingvistik va sotsiolingvistik kompleks tarzda tadqiq qilindi.

Bilingvizmni ilk monografik tadqiq qilishda muammoni komleks aks ettirishga intilishlar ko‘rinadi. Masalan, U. Vaynrayx yozishicha “ til aloqasini ancha chuqur va asosli tadqiq qilishga fanlararo aloqa tufayli erishish mumkin”, chunki til vositasidagi aloqani faqat keng psixologik va ijtimoiy-madaniy konteksda tushunish mumkin”. Ushbu monografiyada allaqachon qanday tarzda ijtimoiy-madaniy va psixologik omillar bilingv asari nutqining xarakteri, xususan, bilingv nutqida interferensiyalar paydo bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatishi muammosi qo‘yilgan edi. Muammo belgilandi, ammo hal etilmadi. Mazkur tadqiqotda ikki tillik jamiyat, ikki tillik individ va aloqada bo‘lgan tillarning o‘zaro hamkorligining lingvistik muammolarining kompleksligi real namoyon bo‘ldi [1.9-b.]. Til bilan bog‘liq muammolar bevosita lingvistika va tilshunoslik talaffuz tuzilmalari yuzasidan ham o‘rganishni taqozo etadi.

Sotsiolingvistik yondashuvni ishlab chiqishda tadqiq qilishning adekvat metodlarini izlashga ko‘p diqqat ajratildi. Ma’lumotlarni to‘plashda eng keng tarqalgan metod – bu bilingvlar og‘zaki yoki yozma nutqini qayd qilish hisoblanib, u sotsiologik ma’lumotni olish uchun qo‘llaniladigan anketa bilan birgalikda o‘tkaziladi. Tanlanib olingan matnlar lingvistik tahlildan o‘tkaziladi, olingan lingvistik va sotsiologik ma’lumotni esa statistik ishlab chiqiladi.

Sotsiolingvistik yondashuv doirasida tillarni o‘zlashtirish darajasini ham o‘lchash muammosi muhokama qilindi. Ommaviy bilingvizmni o‘rganishda ko‘p hollarda aholini ro‘yhatga olish natijalaridan, dala sharoitlarida guruhiy ikki tillikni o‘rganishda esa anketa natijalaridan foydalaniladi. Tilni o‘zlashtirish darajasi bunday yondashuvda maxsus ishlab chiqilgan tartibli shkalalar bo‘yicha sinaluvchilarning o‘zlari tomonidan aniqlanadi. Ammo belgilanadiki, ishonchli ma’lumot olish uchun tilni o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha o‘z-o‘zini baholash obyektiv baholash bilan birgalikda olib borilishi kerak. Bunday yondashuvning istiqboli shubha tug‘dirmaydi, ammo uni amalga oshirishda “tilni o‘zlashtirish darajasi” tushunchasining nazariy ishlab chiqilmaganligi hamda uni obyektiv o‘lchashning uslubiy ta’minlanmaganligi to‘sqinlik qiladi.

Bilingvizmni kompelks o‘rganish etnolingvistik tadqiqotlarda ham amalga oshirilmoqda. M.N.Guboglo fikricha, bilingvizmning murakkab tabiati uch turdagi komponentlardan iborat: 1) tillarning funksional rivojlanish va o‘zaro hamkorlik qilishning barcha shakl va usullarini biriktiruvchi – til komponenti; 2) ikki tillilik sohiblarining sotsiogen, biogen, psixogen va madaniygen xususiyatli va ifodalangan shaxsiy komponenti; 3) ikki tilni bilish va turli soha va hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish hamda bir tildan ikkinchi tilga o‘ta olishni o‘z ichiga olgan nutqiy komponent [62]. Olimning mulohazalari bilingvizmni murakkab jarayon sifatida qayta-qayta izlanishlar, tajribalar o‘tkazishni taqozo etadi.

E.Xaugen ham ushbu nuqtayi nazarni quvvatlaydi: “ ikki tillilikning markazi – individning miyasida. Shuning uchun ikki tillilikning sohibini psixologik o‘rganish markaziy o‘rin egallashi zarur”. Agar bilingvizmni o‘rganishdan maqsad bilingvlar nutqi xususiyatlarini monolingvlar nutqi bilan qiyoslashgina emas, balki ushbu xususiyatlarning sababini aniqlash bo‘lsa, unda bilingvizmdagi nutqning paydo bo‘lishi va nutqni idrok

qilish jarayonlarini tushunish zarur, bu esa psixolingvistikaning tadqiq etish predmeti hisoblanadi[5.7-b]. Haqiqatan, ikki tillilik da inson miyasining qabul qilish mexanizmlari murakkabligi va dolzarbligi bilan xarakterlanadi.

Bizning nazarimizda, bilingvizmni tadqiq qilishda yangi yondashuv bo‘lgan neyro-psixologo-pedagogik yondashuvni amalga oshirishga alohida zaruriyat mavjud, chunki ikki tillilik – bu chuqur aqliy planda sodir bo‘ladigan jarayon bo‘lib, unda intellektual operatsiyalar faollashadi (yondashuvning neyrologik tomoni), bilingvning individual xususiyatlariga bog‘liq (yondashuvning psixologik tomoni), o‘quvchilarning ta’limi, tarbiyasi va rivojlanishini boshqaradi va boshqariladi (yondashuvning pedagogik tomoni). Ushbu yondashuv ikki tilli shaxslarning shakllanishi va rivojlanishining chuqur mexanizmlarini ro‘yobga chiqarish va o‘quvchi-bilingv rivojlanishida ikki tillilik resurslarini aniqlashga mo‘ljallangan.

Tabiiy bilingvizm, asosan, bola nutqi shakllanayotgan davrda paydo bo‘ladi Buning mohiyati esa turlicha verbal munosabatlardan tashkil topgan ijtimoiy muhit ta’siri bilan bog‘liq. Munosabatga kirishuvchi «ko‘cha» va «bog‘cha» tilida o‘zga til so‘zlarining lug‘aviy ma’nolarini anglay boshlaydi va talaffuz qiladi. Bu holat tilshunoslikda tabiiy bilingvizm deb yuritiladi. Tabiiy bilingvizmning paydo bo‘lishiga turtki bo‘luvchi asosiy omil sifatida bir hududda qarindosh va noqarindosh tillarning mavjud bo‘lishi e’tiborga olinadi. Tabiiy bilingvizm turli tilli ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Masalan, oilada tojik, rus, ingliz tillaridanbirida muloqotga kirishish odatiy bo‘lsa, ko‘chada o‘zbek tilida gapirilsa yoki aksincha bo‘lsa, tabiiy bilingvizm sodir bo‘ladi. Ba’zida bola bir vaqtda ikki tilni amaliy egallaydi, ikki til sistemasi bir-biriga ta’sir qilmasdan parallel ravishda shakllangan bo‘lishi mumkin. Bu kamdan-kam uchraydigan holat sanaladi. Sun’iy bilingvizm esa ta’lim bilan bog‘liq tadbirlar natijasida vujudga keladi. O‘zga tilni o‘rganish ona tilini o‘zlashtirishdan farqli ravishda boshqacha psixik jarayon zamirida amalga oshadi: ona tilini o‘zlashtirish jarayoni bola ongining rivojlanishi bilan bir vaqtda amalga oshadi - bir paytning o‘zida u ham fikrlashni, ham gapirishni o‘rganadi, ya’ni ona tili sistemasi bola ongida barqarorlashgan bo‘ladi. Oqibatda o‘zga tilni o‘rganish jarayonida so‘zlovchilar o‘z fikrlarini oldin ona tilida shakllantirib, so‘ng ularni tarjima qilishga, ma’nosiga muvofiq so‘z va iboralarni o‘zga til a topishga harakat qiladi. Sun’iy bilingvizm jarayonida ona tili asos qilib olinadi va u har qanday kommunikativ munosabatning yuzaga chiqishida yetakchilik qiladi. Bu esa fikrlash, idrok, bilish jarayoni ona tilida, muloqot jarayoni ikkinchi tilda amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Bu sun’iy bilingvizmning asosiy belgisidir. O‘zga til ona tiliga nisbatan tobe holatda bo‘ladi, ikki til sistemasidagi umumiylik ikkinchi til o‘rganilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa, xususiylik salbiy ta’sir qiladi. Natijada o‘rganilayotgan tilda salbiy ta’sir - interferensiya hodisasi yuz beradi. O‘zga tildagi nutqiy muloqot ko‘rinishlarida ona tiliga xos lisoniy qolip va xususiyatlar sezilib turadi. Bu, ayniqsa, predikativ qurilmalarda aniq ko‘rinadi.

Bilingvizm fenomeni bola metakognitiv, xususan, metalingvistik qobiliyatlarini rivojlantiradi. E.Bialistok ikki tilni yaxshi biladigan bolalar bilan Ishlash jarayonida shuni aniqladiki, bilingvlar lingvistik jarayonlarni yuqori darajada nazorat qila olishar ekan. Bu narsa ularning kognitiv va kommunikativ komponentlarni tahlil qila olishida namoyon bo‘ladi.[3 9-b.] Bilingvlar tillarning strukturasi va ishlashini intuitiv ravishda his qilishadi. Bunday bolalar ulardagi bir kontseptual sistemada identifikatsiyalashadigan ikki turli lingvistik sistemadan foydalanishadi. Bir lingvistik koddan boshqasiga o‘tayotganda ular

kontekstga muvofiq ravishda vaziyatni baholashadi. Ikkinchi tilni bilish so‘z va ma’no o‘rtasida mavjud bo‘lgan ixtiyoriy aloqani anglash imkonini beradi, shuningdek, shakl va mazmunni kognitiv qayta ishlashga ta’sir ko‘rsatadi: informatsiyani tanlash va kodlashtirishni oson va tez amalga oshiradi. Bu narsa qisman bir predmetni ikki xil nomlash, shuningdek, aynan bir fikrni turli xil usulda ifodalash imkoniyati mavjudligi bilan bog‘liqdir. Ona tilini o‘zlashtirish jarayoni bola tafakkurining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq va bir paytda amalga oshadi, shakllanadi. Bola bir paytning o‘zida fikrlash va gapirishni o‘rganadi. Demak, ikkinchi tilni o‘zlashtirishdan avval bola ongida tilning forma va ma’no tomoni yaxlit holda sobitlashadi. Ikki til bir paytda galma-gal o‘zlashtirilmagan bo‘lsa, ona tili o‘rganilayotgan tilga nisbatan dominant darajada bo‘ladi. Odatda, boshqa tilni yoshlikdan mukammal o‘rganmagan shaxs, ona tili sistemasi asosida fikrlagan holda nutq yaratadi.

Hozirgi kunda bilingvizmning kognitiv afzalligi juda tushunarli ko‘rinadi. Ammo o‘z vaqtida bu ekspertlarni lol qoldirgan. tillar orasida doimiy o‘tishga kerak bo‘lgan energiyani sarflagani uchun XX asrning 60-yillarigacha ikki tillilik, bola rivojlanishni sekinlashtiradigan to‘siq deb hisoblangan. Ushbu nuqtayi nazar birinchi navbatda noto‘g‘ri bo‘lgan ilmiy ishlarga asoslangan edi. Oxirgi paytdagi tadqiqotlar bir necha til bilish insonning qaror qabul qilish, vazifalar o‘rtasida o‘tish, e’tiborni jamlash kabi fazilatlarini rivojlanishiga olib kelishini tasdiqlab berdi.

J.M.Dewaele, A.Housen ikki tilli va ko‘p tilli tadqiqot usullari bo‘yicha ushbu muhim qo‘llanma ilg‘or magistrantlar va aspirantlar hamda turli fanlar bo‘yicha yangi tadqiqotchilarga, ayniqsa, tilshunoslik, psixologiya, nutq va til patologiyasi, sotsiologiya, antropologiya va ta’limga qaratilgan. U o‘quvchini keng ko‘lamli tadqiqot mavzulari, asosiy tushunchalar va yondashuvlar, ma’lmotlarni to‘plash va tahlil qilish usullari va vositalari orqali boshqaradi. Shuningdek, unda tadqiqot manbalari, konferensiya taqdimoti va jurnal nashrlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

L.V.Shcherba ikkinchi tilni o‘rganishda ona tili normasi, sistemasini hisobga olish, interferensial xatoga yo‘l qo‘ymaslikning oldini olish niyatida: “Ona tili xususiyatlarini darsliklardan chiqarib tashlashning imkoniyati bor, ammo uni til o‘rganuvchining ongidan chiqarib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham o‘zga tilni o‘rganishdan oldin, albatta, ona tili xususiyatlarini ongli bilib olish zarur”, – deb bejiz ta’kidlamaydi. Bilish jarayonida borliq haqida tasavvurlar shakllanadi. So‘zlar narsalar va hodisalarni nomlaydi, tushunchalarni ifodalaydi. Tafakkur asosida mantiqiy hamda psixologik qonunlar yotadi. Til yig‘ilgan tajriba, ma’lumotlarni o‘ziga xos ravishda ifodalaydi. Obyektiv borliqning in’ikosi bo‘lgan tillar bir-biridan turli darajada farqlanadi.

Praga lingvistik to‘garagi a’zolari tillardagi ana shu xususiyatlarga alohida e’tibor berib, ularni maxsus o‘rganganlar, o‘zga tilni osonlik bilan o‘rganishga to‘sqinlik qiladigan har xil hodisalarni aniqlaganlar. Ulardan biri interferensiya hodisasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E. G‘oziyev, “Umumiy psixologiya”, T:. 2002-y
2. F.I. Haydarov va N.I.Xalilova, “Umumiy psixologiya”, T:. 2009-y
3. "Motivation: State, Trait, or Both“, Motivation, Effort, and the Neural Network Model, 2020 — 93–101-bet.

4. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

5. Pedagogue. Merriam-Webster.com. Dictionary, 2018. Elektron resurs: https:// www.merriam-webster.com/dictionary/pedagogue.

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN BOG‘LIQLIGI

Sharifxo‘jayeva Aziza,
G-mail:sharifxojayevaaziza@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davtat o‘zbek tili va adabiyot universiteti
Psixologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: **Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi,**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Zamonaviy psixologiyaning pedagogika bilan bog‘liqligi mavzusida maktab davridagi o‘qituvchilarning o‘quvchilarga bo‘lgan psixik jarayonlari ya’ni har bir pedagog aslida psixologiyani bilishi, har bir o‘quvchini psixik holatlarini to‘g‘ri talqin qilishi haqida yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zi: Pedagogik psixoloiy, ta’lim jarayoni, pedagogik bilimlar, psixologik yo‘nalishlar, individual xususiyatlar, bixevioristik yo‘nalish.

Abstract: On the topic of connection between modern psychology and pedagogy, we will shed light on the mental processes of school teachers towards students, i.e. every pedagogue actually knows psychology and correctly interprets the mental states of every student.

Keywords: Pedagogical psychology, educational process, pedagogical knowledge, psychological orientations, individual characteristics, behavioral orientation.

Pedagogik psixologiya – ta’lim-tarbiyaning pedagogik va psixologik xususiyatlarini o‘rganadigan bo‘limdir. Pedagogik psixologiya ta’lim-tarbiyaning psixologik qonuniyatlarini, maktabda bilimlarni, kun va malakalarni egallash, bu jarayonlarda sodir bo‘ladigangan individual psixologik tafovutlarni, o‘quvchilarda faol, ijodiy va mustaqil tafakkurini tarkib topishini, ta’lim-tarbiya ta’siri bilan o‘quvchilar psixikasida sodir bo‘ladigangan o‘zgarishlarni o‘rganadi. Pedagogik psixologiya 19-asrning 2-yarmida vujudga keladi. Pedagogik psixologiya faniga ham boshqa psixologiya fanlari kabi e’tibor kuchayib bormoqda. Ko‘plab olimlar pedagogik psixologiya rivoji uchun hissa qo‘shadilar. Bolani shaxs sifatida shakllantirish tarbiyalash, tarbiya vositalari, usullari pedagogika faniga taalluqli bo‘lsa bola psixikasining paydo bo‘lishi, rivojlanishi, rivojlantirish xususiyatlari va qonuniyatlari psixologiya faniga taalluqli. Bolaning psixik rivojlanishi xususiyatlarini bilmi turib, ulani qalbiga yo‘l topish, uni bilimli qilish, komil inson qilib tarbiyalash juda qiyin hisoblanadi. Pedagogik psixologiya bolani ta’lim-tarbiya jarayonida o‘rganadi, uning o‘rganish obyekti kichik maktab, o‘smir va o‘spirinlik yoshlari hisoblanadi. Pedagogik psixologiya asosan uchga bo‘linadi; ta’lim psixologiyasi,tarbiya psixologiyasi va pedagogikasida o‘qituvchi psixologiyasiga bo‘linadi; [1]

1)Ta’lim psixologiyasi – o‘quv jarayonida xotira, nutq, xayol, tafakkur va o‘quvchilarning temperamenti, harakteri, qiziqishlarini o‘rganadi.

2)Tarbiya psixologiyas – imaktabdi tarbiya ishlari jarayonida shaxsning shakillanish masalasini ishlab hiqishdan iborat.

3) O‘qituvchi psixologiyasi – o‘qituvchining jamiyatda tutgan o‘rni, o‘qituvchiga xos kasbiy sifatlar, unga qo‘yilgan talablar, pedagogik qobiliyat, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi o‘zaro munosabatlar, pedagogik mahorat va pedagogik taktining psixologik asoslari, pedagog va jamoa, o‘qituvchilar bilan munosabat kabi masalalani o‘rganadi. Pedagogik psixologiya mustaqil fan sifatida ham nazariy, ham amaliy vazifalarni bajaradi. Ta’lim-tarbiyaning shaxsi kamol toptirish ishiga bog‘liqligi milliy g‘oyani shakllantiruvchi, takomillashtiruvchi va uni ommaga yetkazuvchi kuchlarga bog‘liq [2]. Uning nazariy vazifalari asosan pedagogik psixologiyaning ta’lim jarayonidi takomillashuvi, tarbiya jarayonida turli yoshdagi bolalarning aql-idrokiga, irodasiga, uni shaxs sifatida shakllantirishga ta’sir etuvchi omillani o‘rganish va pedagogik psixologiyaning eng asosiy vazifalaridan biri o‘zlashtirishning sifat darajasini aniqlash usullarini ishlab chiqishdan iborat [3]. Pedagogik psixologiyaning amaliy vazifasi yoshlarni o‘zlashtirishning psixologik shart-sharoitlari, psixologik masalalari, bolaga ta’lim-tarbiya berishda ularni yoshlik va individual xususiyatlarini hisobga olish va yoshlarda bilim berishdan iborat. Amaliy vazifalari radio va jurnal orqali chiqishi ota - onalar bilan suhbatlashish orqali amalga oshiriladi. Shunaqa narsaga erishimiz kerakki bolalar ruhiy taraqqiyotga va psixologik bilimlaga tayyor bo‘lishi kere shunda biza yoshlaga haqiqiy ta’lim-tarbiya berolimiz. Ko‘rvomizki hozirgi ko‘plab maktablada ta‘lim kuchlimas lekin bazi maktablar bor oliygohlada o‘tadigande o‘tadi ulada o‘qishga bo‘gan ishtiyoqi va masuliyati kuchli bo‘ladi [4]. Pedagogik psixologiyaga asosan eksperimental psixologiyani ahamiyati kotta bo‘lib, bunda asosan yo‘nalishlayam ro‘l o‘ynidi. Masalan, bixevioristik psixologiya yo‘nalishini oladigan bo‘sak o‘qituvchi va o‘quvchiga tashqi muhiti ta’siri pedagogik psixologiya uchun asos qib olinadi. Pedagogik psixologiya shuning uchun bolalar psixologiyasi va pedagogika bilan bog‘liq. Shu o‘rinda pedagogik psixologiya ko‘plab metodladan foydalanadi chunki dalilani qidirish, sinash, sabablarini topish va isbotlash uchun kere. Qaysi metoddan foydalanishdan qati nazar bolani chuqurroq o‘rganish uchun va uni ruhiyatini yaxshilab o‘rganish uchun kere dib o‘yliman [5] .Har xil yoshdagi bolala bilan gaplashmi turib unga yosh daviri tushuntirish yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish mumkunmas. Tekshirish jarayonida kishini butun psxikasi va ongida aks etayotgan jarayonlani ijtimoiy va iqtisodiy munosabatini o‘rganish kere. Ta’lim jarayonida bir sifatdan boshqa sifat holatiga o‘tishi kuzatish lozim. Masalan, shu o‘quvchi psixikasining taraqqiy etishini o‘rganib ko‘rib bilim olishi, tajribalarini to‘plash jarayonida o‘quvchining bilish qobiliyatini xotira, tafakkur, fikr yuritishdagi sifat o‘zgarishlarini bilib olsa bo‘ladi. Ta’lim- tarbiya jarayonida qaysi psixik hodisani o‘rgansayam bola o‘zini kuzatilvotganini tekshirilayotganini sezmasligi kere aks xolda bola o‘zini noqulay sezadi, qo‘rqib, uyalib, tortinib o‘zini erkin tuta olmaydi. Bu esa kuzatish metodining tajriba natijalarini buzilishiga olib keladi [6].

Xulosa qilib aytganda, tekshirish jarayonida kishining butun psixikasida ongida aks etadigan undagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birgalida o‘rganiladi. Maktab davridagi o‘qituvchilarning o‘quvchilarga bo‘lgan psixik jarayonlari va har bir pedagog

aslida psixologiyani bilishi, har bir o‘quvchini psixik holatlarini to‘g‘ri talqin qilishi bilishi kerak deb o‘ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Zakirovich, Djumanov Sherali. “Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarini shakillantirish texnologiyalari”
2. Asliddin Y.L.S (2022). Psixologik zo‘ravonlik va kiberbulling.
3. Usarovna.M.R, Ibrahimova S.Z.(2019)Yo‘ldashev S, Ahmedova Sh. The education of talented students as a pedagogical problem.
4. Yo‘ldoshev S,va Sultonaliyeva G. (2023). Suitsidal holat va uning kelib chiqishi sabablari.
5. Xasanboyev J, To‘raqulov X, Xaydarov M, Xasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at.
6. M.Toxtaxojayevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. T: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati-2010.

FARZAND TARBIYASIDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Mamasodiqova Muhayyo
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti unversiteti
Psixologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi,**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada farzand tarbiyasiga nisbatan zamonaviy psixologik yondashuvlarning mohiyati yoritilgan. Ota-onaning bolaning ruhiy holatiga e’tiborli bo‘lishi, rivojlanish bosqichlariga mos tarbiya usullarini tanlashi, emotsional yaqinlikni saqlashi kabi jihatlar chuqur tahlil qilingan. Maqolada psixologlarning nazariyalari bilan birga muallifning shaxsiy qarashlari asosida tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, Psixologik yondashuv, ota-ona, ta’lim-tarbiya, odob-axloq, kognitiv rivojlanish, gumanistik psixologiya, emotsional intellekt.

Abstract. This article highlights the essence of modern psychological approaches to child rearing. Aspects such as parents' attention to the child's mental state, choosing appropriate upbringing methods for developmental stages, and maintaining emotional closeness are analyzed in depth. The article presents recommendations based on the theories of psychologists and the author's personal views.

Keywords. Upbringing, Psychological approach, parenting, education, morality, cognitive development, humanistic psychology, emotional intelligence.

Farzand tarbiyasi azaldan murakkab va mas’uliyatli jarayon bo‘lib kelgan. Bugungi kunda bu jarayon yanada qiyinlashgan, sababi bolalar raqamli texnologiyalar, tezkor axborot oqimi va emotsional zo‘riqishlar muhitida voyaga yetishmoqda. Endilikda ota-onadan nafaqat mehr, balki psixologik bilim va ko‘nikmalar talab qilinmoqda. Psixologik yondashuv esa farzandning nafaqat axloqiy, balki emotsional, ijtimoiy va intellektual

rivojiga ijobiy ta’sir qiladi. Bolaning rivojlanish bosqichlari, kamoloti va barkamol bo‘lib voyaga yetishida oilada ota-onalarning pedagogik va psixologik munosabatlari asosiy rol o‘ynaydi. Hozirgi vaqtda ko‘pchilik ota-onalar turli sabablarga ko‘ra farzandlariga vaqt ajrata olmaydilar. Lekin ushbu masalaga boshqa tomondan qaraydigan bo‘lsak, davr talabi bilan ko‘pchilik ota-onalar “Farzandingiz ta’limiga mablag‘ tiking!” shiori ostida ish tutib, bolalariga sifatli ta’lim–tarbiya berish to‘g‘risida qayg‘urmoqdalar. Bolaning rivojlanishida ota-onaning rolijuda katta, ota-ona o‘z farzandining yoshiga qiziqishiga mos o‘yin, mashg‘ulot bilan band bo‘lgan vaqtda kuzatishga vaqt ajratsalar, farzandining nimaga qiziqishi borligini yaxshi bilib olishlari mumkin. Shu yo‘l orqali bolaning ko‘nikmalari, bilimi va o‘zini ifoda qilishi bilan tanishishi mumkin. Zamonaviy psixologiya bola tarbiyasida yagona yondashuv emas, balki individual, holatga mos metodlarni qo‘llashni taklif etadi. Shuning uchun, bugungi kunda farzand tarbiyasida turli psixologik yondashuvlarning o‘rganilishi va amaliyotga tadbiq etilishi dolzarb hisoblanadi.

Farzand tarbiyasi - bu nafaqat tarbiyaviy va ta'lim berish jarayoni, balki bola psixologiyasini hisobga olish, uning ichki dunyosini tushunish va unga moslashuvchan, individuallikka asoslangan yondashuvni qo‘llashni talab qiladigan murakkab va mas'uliyatli vazifadir. Bola psixologiyasi va uning rivojlanish xususiyatlari tarbiyaning samaradorligini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, bola tarbiyasida psixologik yondashuv nafaqat bolaning emotsional va aqliy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, balki uning ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonini ham muhim qiladi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi Bola rivojlanishining psixologik asoslari Bola psixologiyasining asosiy qonuniyatlarini bilish, tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bola rivojlanishi - bu biologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta'siri natijasida sodir bo‘ladigan jarayondir. Unga quyidagi psixologik aspektlar ta'sir qiladi:

• **Emotsional rivojlanish**: Bola psixologiyasida emotsiyalar va hissiyotlar alohida o‘rin tutadi. Bola o‘z his-tuyg'ularini tushunishga, ularga nom berishga, boshqarishga va boshqalarga izhor qilishga o‘rganishi kerak. Ota-onalar va tarbiyachilar bola bilan muloqotda bo‘lganida, uning his-tuyg'ularini e'tiborga olish va bu his-tuyg'ularni qanday boshqarish bo‘yicha maslahatlar berish zarur. Emotsional sog'lomlik bola ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarurdir.

• **Aqliy rivojlanish**: Bola o‘z atrofidagi dunyoni anglash jarayonida turli yosh davrlarida aqliy qobiliyatlarni rivojlantiradi. O‘yinlar, mashqlar va boshqalar orqali bola mantiqiy fikrlashni, xulosa chiqarishni va masalalarni hal qilishni o‘rganadi. Otaonalar va tarbiyachilar bu jarayonda bolaga muvofiq darajada yordam ko‘rsatishi, uning intellektual qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan vazifalar qo‘yishi lozim.

• **Ijtimoiy rivojlanish**: Bola o‘zini jamiyatda qanday tutish, boshqalar bilan muloqot qilish va o‘zaro hurmat asosida ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishni o‘rganadi. Bu jarayonda ota-onalar va tarbiyachilar bola uchun namunali ijtimoiy modellar bo‘lib xizmat qilishlari kerak. O‘z-o‘zini hurmat qilish, boshqalarga nisbatan hurmat ko‘rsatish, empatiya rivojlanishi bu boradagi muhim omillardir. Onaning farzand hayotidagi o‘rni o‘ziga xos. Ona bolaning ilk murabbiysi sifatida ta’lim jarayonida asosiy ma’lumotni yetkazadi. Ona bolaga yoshlik chog‘idan turli sohalar bo‘yicha ma’lumotlarni, bilim va ko‘nikmalarni beradi. Misol uchun unga sonlarni, qo‘shish va

ayirishni, o‘qishni, yozishni va boshqa narsalarni o‘rgata oladi. Agar ona bilimli bo‘lsa, bola ham onasiga o‘xshab bilimli bo‘lib ulg‘ayadi. Masalan, D.I.Haribovaning tadqiqotlariga ko‘ra, bolalik davrida ona bilan muloqotning sifati bolaning bilim olish qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Onaning ertak aytishi, oddiy bilimlarni tushuntirishi va hayotiy tajribalarini o‘rtoqlashishi bolalarning ilk intellektual rivojlanishiga yordam beradi[1].

Farzand hayotida ta‘limda onaning roli qanchalik muhim va beqiyos bo‘lsa tarbiyada ham xuddi shunday bo‘ladi. Ona o‘z bolasiga yoshlik chog‘idan tarbiyaviy masalalarni o‘rgatadi. Misol uchun: o‘zidan kattaga doimo salom berish, yolg‘on gapirmaslik, g‘iybat qilmaslik, o‘g‘irlik qilmaslik va boshqalar. Qisqacha qilib aytganda etika va estetika qoidalarini barchasini bolaga yoshlik chog‘idan o‘rgatilishida onaning o‘rni beqiyos. Tarbiyaning asosiy tamoyillari bolalarning ruhiy va ma‘naviy rivojlanishiga bog‘liq. Onaning mehr-muhabbati va quloq solishga tayyorligi bolalarda ishonch hissini rivojlantiradi. A.V.Petrova o‘z asarlarida bolalarning shaxs sifatida shakllanishida onaning doimiy e’tibor va nazorati zarurligini ta‘kidlagan[2]. Oila muhitidagi sog‘lom atmosfera bolalarning shaxsiyat shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hech kimga sir emaski bola yomon, noto‘g‘ri muhitda ulg‘aysa bu uning psixologiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Bu ta‘sir esa bolaning kelajagiga ham muhim rol o‘ynaydi. Oilada har kuni urush-janjal bo‘lsa, yoki otalar bolalar oldida noto‘g‘ri so‘zlashsa, bu harakatlar bolaga ta’sir ko‘rsatadi. Natijada esa bolalar agressiv bo‘lib ulg‘ayishi mumkin. Axir aytishadiku “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” deb. Psixologlarning fikriga ko‘ra, farzandlarning birinchi ijtimoiy o‘rganish muhiti oiladan boshlanadi. Shuning uchun ona o‘z farzandiga tarbiyaviy muhitni yaratishda asosiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, onaning ta’lim va tarbiyada tutgan o‘rni, uning mehribonligi va ma’naviy qiyofasi farzandning kelajakda shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir qiladi. Bolalarning ruhiy rivojlanishida onaning hissasi faqatgina bilim berish bilan emas, balki ularning hayotiy qadriyatlarini shakllantirish bilan ham bog‘liq. Shuning uchun ona ta’lim va tarbiyada asosiy poydevor sifatida ko‘riladi.

Lev Vygotsky: Ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi Lev Vygotsky bolaning rivojlanishini ijtimoiy muhit va madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, bola bilim va ko‘nikmalarni yakkalikda emas, balki kattalar va tengdoshlari bilan o‘zaro aloqada o‘rganadi. Vygotsky tomonidan ilgari surilgan muhim tushuncha – bu **“yaqin rivojlanish zonasi” (ZRZ)** tushunchasidir. ZRZ bolaning mustaqil bajara olmaydigan, ammo kattalar yoki malakali do‘stlar ko‘magida bajara oladigan faoliyat doirasidir. Tarbiya jarayonida bu nazariyani qo‘llash shuni anglatadiki, pedagog yoki ota-ona bolaning hozirgi imkoniyatlarini emas, balki u erisha oladigan potensialni hisobga olib ishlashi kerak. Vygotsky shuningdek tilning rivojlanishiga katta ahamiyat beradi. Til – bu bolaning ichki fikrlashi va tashqi ijtimoiy muhit o‘rtasidagi ko‘prikdir. Bola avval til orqali boshqalar bilan muloqot qiladi, keyinchalik esa bu muloqot ichki monologga aylanib, tafakkur jarayonini shakllantiradi [3].

Jean Piaget: Kognitiv rivojlanish nazariyasi Jean Piaget bolalarning aqliy rivojlanishini to‘rt bosqichda tasvirlab beradi: **Sensomotor bosqich (0–2 yosh)** – bola harakat va sezgi orqali dunyoni o‘rganadi. Ob’ektlar doim mavjudligini tushunib yetadi. **Preoperatsional bosqich (2–7 yosh)** – tasavvur va til rivojlanadi, lekin bola hali mantiqiy fikrlashga to‘liq ega emas. **Konkret operatsiyalar bosqichi (7–11 yosh)** – bola mantiqiy

fikrlashni o‘zlashtira boshlaydi, masalan, teskari operatsiyalarni tushuna oladi. **Formal operatsiyalar bosqichi (12 yoshdan yuqori)** – abstrakt va nazariy fikrlash shakllanadi. Piagetning nazariyasiga ko‘ra, bola o‘z tajribasidan kelib chiqib dunyoni anglaydi. Bu jarayonlarda bola faol ishtirok etadi va uning bilimlari tashqi axborotni o‘zlashtirish emas, balki shaxsiy tajriba orqali quriladi. Tarbiya nuqtai nazaridan, har bir yosh davri uchun mos metodlarni tanlash muhim: masalan, 2–7 yoshdagi bolalar bilan rasm, o‘yin va tasvirlar orqali ishlash, 7 yoshdan keyin esa mantiqiy tushunchalarni joriy qilish foydali hisoblanadi [4].

Erik Erikson: Psixosotsial rivojlanish nazariyasi Erik Erikson inson hayotini sakkiz bosqichli rivojlanish sifatida tahlil qiladi. Har bir bosqichda individ bir asosiy psixosotsial muammoni hal qilishi kerak. Farzand tarbiyasi uchun quyidagi bosqichlar muhim: **Ishonchga qarshi ishonchsizlik (0–1 yosh)** – Bola onasi bilan mustahkam emotsional aloqa o‘rnatsa, dunyoga ishonch paydo bo‘ladi. **Mustaqillikka qarshi shubha (1–3 yosh)** – Bola mustaqil harakatlar qilishga intiladi. Uni ortiqcha cheklash – shubha va uyatchanlikka olib keladi. **Tashabbusga qarshi aybdorlik (3–6 yosh)** – Bola faol rol o‘ynashni boshlaydi. Unga erkin harakat qilish imkoni berilsa, tashabbuskorlik rivojlanadi. **Mehnatsevarlikka qarshi pastlik hissi (6–12 yosh)** – Maktab davrida bola o‘z qobiliyatlarini namoyon qilishga urinadi. Raqobat muhitida muvaffaqiyatga erishishi muhim. Erikson nazariyasida tarbiyaning maqsadi – bolani har bir bosqichda sog‘lom psixologik rivojlanishga yo‘naltirishdir. Agar muammolar muvaffaqiyatli hal qilinsa, bola sog‘lom shaxs sifatida voyaga yetadi [5].

Umuman olganda, Farzand tarbiyasida psixologik nazariyalar muhim o‘rin tutadi. Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy yondashuvi bolani jamiyat bilan o‘zaro aloqada o‘rganishga undaydi. Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi bolaning fikrlash bosqichlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Eik Erikson esa tarbiyada har bir yoshga mos emotsional va psixologik qo‘llab-quvvatlash muhimligini ta’kidlaydi. Mazkur yondashuvlar ota-onalar va pedagoglar uchun ilmiy asoslangan yo‘l-yo‘riqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erikson, E. H. (1963). *Childhood and Society*. Norton & Company. Berk, L. E. (2013). *Child Development* (9th ed.). Pearson Education.

2. Haribova, D. I. (2019). Bolalar psixologiyasi asoslari. Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi nashriyoti.

3. Petrova, A. V. (2020). Oilaviy pedagogika tamoyillari. Moskva: Pedagogika va ta’lim nashriyoti

4. Piaget, J. (1970). *The Science of Education and the Psychology of the Child*. Viking Press.

5. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

6. Shmidt, I. G. (2018). Shaxs rivojlanishida oilaning o‘rni. Toshkent: Adabiyot va ma’rifat.

УДК 14.35.07

СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Алимбаева Роза Тогайовна
alimbaeva_21@mail.ru
Карагандинский университет имени академика Е.А.Букетова,
профессор кафедры психологии, кандидат психологических наук
Баймуканова Маржангуль Токтаровна
marber_96@mail.ru
Карагандинский университет имени академика Е.А.Букетова,
ассоциированный профессор, кандидат педагогических наук
Барикова Алёна Рудольфовна
e-mail: priemka@buketov.edu.kz
Карагандинский университет имени академика Е.А.Букетова,
магистр психологии

Аннотация

В статье рассматривается феномен девиантного поведения в условиях цифровой трансформации общества. Особое внимание уделяется новым формам девиации, возникающим в интернет-пространстве.

Ключевые слова: девиация, подростки, кибербуллинг, хейтинг, вандализм

Modern forms of manifestation of deviant behavior in adolescence

Annotation

The article examines the phenomenon of deviant behavior in the context of digital transformation of society. Special attention is paid to new forms of deviation emerging in the Internet space.

Keywords: deviation, teenagers, cyberbullying, heyting, vandalism

В современном обществе наблюдается рост девиантного поведения среди подростков, что вызывает обеспокоенность как у теоретиков, так и у практиков в сфере психологии и педагогики. Девиантные проявления становятся всё более разнообразными, особенно в условиях стремительной цифровизации социальной среды. Расширение доступа к интернету, активное использование социальных сетей и мессенджеров способствуют появлению новых форм девиаций, не ограничивающихся рамками традиционного социального контроля.

Одним из таких проявлений является кибербуллинг, онлайн-мошенничество, распространение дезинформации и другие формы цифровых нарушений социальных норм [1]. Современные медиа (социальные сети, интернет-контент, масс-медиа) активно формируют поведенческие модели, зачастую транслируя образы, связанные с агрессией, насилием, пренебрежением к общественным нормам. В условиях недостаточного развития критического мышления у молодых людей такие образы могут становиться ориентирами для подражания, провоцируя

распространение девиантных форм поведения.

Одним негативным аспектом использования виртуальной реальности молодежью является риск столкновения с кибербуллингом — как в роли жертвы, подвергающейся издевательствам в киберпространстве, так и в роли агрессора, преследующего других с помощью цифровых технологий. Разновидностью кибербуллинга является и хейтинг, где используются социальные сети для распространения оскорбительных, враждебных и немотивированных сообщений в комментариях пользователей, различных мессенджеров, таких как телеграмм, инстаграм, фейсбук.

К проявлениям кибербуллинга относятся троллинг и флейминг. Троллинг представляет собой манеру виртуального общения, характеризующуюся издевательскими и провокационными высказываниями, целью которых является привлечение внимания, создание конфликта или повышение публичности отдельных пользователей. Флейминг, в свою очередь, выражается в беспредметных и эмоционально накаленных дискуссиях, сопровождающихся агрессивными высказываниями и оскорблениями, чаще всего в чатах и на форумах.

Кибersталкинг представляет собой форму цифрового преследования, заключающуюся в использовании интернет-технологий для систематического слежения, запугивания или домогательств в отношении конкретного человека или группы лиц. Харассмент включает в себя любые вербальные или невербальные проявления, преимущественно сексуального характера, которые унижают достоинство личности, создают дискомфортную обстановку и нарушают её личные границы. Имперсонация подразумевает преднамеренное копирование или имитацию чужой личности с целью введения в заблуждение и выдачи себя за другого человека. Хеппислепинг представляет собой распространение видеозаписей, демонстрирующих акты реального насилия, зачастую снятых без согласия пострадавшего, с целью развлечения аудитории. Эти и другие формы цифровых девиаций представляют серьёзную угрозу информационной безопасности и психологическому благополучию личности.

Несмотря на то, что кибербуллинг остаётся относительно новой сферой научных исследований, его широкое распространение среди подростков рассматривается как серьёзная социальная проблема, оказывающая значительное влияние на поведенческие стратегии, психическое здоровье и на процесс личностного развития в период взросления. Активное использование социальных сетей молодёжью способствует усилению данного феномена цифровой девиации, вследствие чего всё большее число детей и подростков подвергается кибербуллингу и различным формам онлайн-виктимизации. В результате молодежная протестность и стремление к самовыражению в современном обществе приобретают новые формы, которые во многом связаны с цифровой средой и интернет-культурой [2].

Другим социально опасным явлением цифровой девиации является шоплифтинг, который заключается в демонстрации в социальных сетях товаров, похищенных из магазинов, при этом ключевым аспектом становится стоимость украденного предмета. В подростковой среде подобные публикации способствуют повышению социального статуса внутри референтной группы. Одобрение со

стороны участников сообщества, выражающееся в комментариях, лайках и иных формах виртуальной поддержки, укрепляет девиантные установки, формируя альтернативную систему ценностей в онлайн-пространстве и снижая субъективную значимость морально-этических и правовых норм.

Цифровая трансформация общества привела к переносу многих аспектов социальной жизни в онлайн-пространство. Одной из таких трансформаций стало распространение секстинга (от англ. sex + texting) — отправки или получения интимных сообщений, фотографий и видео. Несмотря на кажущуюся безобидность, практика секстинга среди подростков может иметь серьёзные последствия. Среди подростков эта практика часто воспринимается как форма флирта или средство повышения самооценки.

Современная молодёжь в значительной степени формирует установки и ценностно-смысловые ориентации посредством взаимодействия в социальных сетях и приобретая информацию в цифровом пространстве.

Данная совокупность факторов делает молодёжь особенно чувствительной к внешним воздействиям, усиливает склонность к экспериментированию с различными поведенческими моделями и повышает вероятность принятия радикальных или импульсивных решений. В условиях недостаточно сформированной критической оценки информации и социальной неопределённости молодые люди становятся более подверженными внушению и манипулятивным воздействиям, что может способствовать их вовлечению в девиантные или деструктивные практики.

Еще одной социальной причиной девиантного поведения, становится трансформация молодежной субкультуры, к которой относится вандализм как игра. Вандализм может рассматриваться как одно из средств повышения социального статуса в группе сверстников посредством демонстрации физической силы, ловкости и смелости. Ключевым мотивом в данном случае выступает стремление к новым впечатлениям и поиску острых ощущений, особенно тех, которые связаны с преодолением запретов и ситуациями повышенного риска. В некоторых случаях разрушение предметов (гаджетов, павильоны на остановках) становится формой ответной реакции на воспринимаемую несправедливость, представляя собой нарушение установленного правила о неприкосновенности собственности.

Еще более интересным явлением является скрытая девиантность, при которой отклоняющееся поведение остается незамеченным или не вызывает социальной реакции. В таком случае поступок формально является девиантным, но не приводит к применению санкций, поскольку не распознается окружающими как отклонение.

На человека в действительности не нарушивших никакого правила и независимо от реального поведения может быть навешен ярлык девианта. От реакции окружающих людей будет зависит признание действия отклоняющим, так как простое нарушения правил, еще не может быть расценено как нарушения, ведь степень реагирования на возможность формирования девиантного поведения будет варьироваться [3].

Девиантное поведение в подростковой среде приобретает новые формы под влиянием цифровых технологий. Эффективная профилактика отклоняющегося поведения требует комплексного подхода, включающего развитие

медиаграмотности, формирование устойчивых моральных установок и создание благоприятных условий для социализации. *Данное исследование профинансировано Комитетом науки Министерства науки и высшего образования Республики Казахстан (Грант №. AP23489106)*

Список использованной литературы

1. Коповая О. В. Новые формы девиантного поведения подростков в современном информационном обществе. - «Пензенский психологический вестник», 2016.- №1 (6).
2. И. Ю. Тарханова Трансформация девиантного поведения несовершеннолетних в современных условиях. - Ярославский педагогический вестник, 2022. — № 6 (129) - С. 25-35.
3. Улезько С.И., Бидова Б.Б. Девиантное поведение как социально-культурный феномен, механизм профилактики девиантного поведения молодежи и предмет педагогической пропедевтики //Материалы конференции профессорско-преподавательского состава, посвященной 80-летию Чеченского государственного университета, 2018.- С. 397-404.

BOLALARNING PSIXOLOGIK BUZILISHLARIDA GADJETLARNING PSIXOLOGIK TA’SIRI.

Karimova Madina Xolmurotovna
karimova1810@gmail.com
Nishanboeva Mahbuba
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti unversiteti
Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar psixikasining rivojlanish jarayonida zamonaviy texnologiyalar, xususan, gadjetlarning (smartfon, planshet, kompyuter va boshqa raqamli qurilmalar) salbiy ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotda gadjetlardan uzoq muddat foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan psixologik buzilishlar — diqqat yetishmovchiligi, xavotir, agressivlik, uyqu buzilishi va ijtimoiy izolyatsiya holatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglarning roli, profilaktika choralarini ko‘rish va sog‘lom muhit yaratishning ahamiyati ta’kidlanadi. Maqola bolalarda psixik muvozanatni saqlab qolish hamda raqamli texnologiyalarni oqilona qo‘llash zarurligini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: bolalar psixologiyasi, gadjetlar, psixologik buzilishlar, raqamli texnologiyalar, diqqat yetishmovchiligi, ota-ona nazorati, axborot gigiyenasi, emotsional salomatlik, ijtimoiy rivojlanish.

Annotation: This article explores the negative impact of modern technologies—particularly gadgets such as smartphones, tablets, computers, and other digital devices—on the psychological development of children. The study analyzes potential psychological disorders that may arise from prolonged use of gadgets, including attention deficit, anxiety, aggression, sleep disturbances, and social isolation. It also highlights the role of parents and educators, the importance of preventive measures, and the creation of a

healthy environment. The article substantiates the need to preserve children's psychological balance and use digital technologies wisely.

Keywords: child psychology, gadgets, psychological disorders, digital technologies, attention deficit, parental control, information hygiene, emotional well-being, social development.

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi, ayniqsa gadjetlar (smartfon, planshet, noutbuk va boshqalar) hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu vositalar nafaqat kattalar, balki bolalarning ham kundalik hayotiga chuqur kirib bormoqda. Shu bilan birga, ularning haddan tashqari va nazoratsiz qo‘llanilishi bolalar psixikasining tabiiy rivojlanishiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Gelvetsiyning ta’limotiga ko‘ra, barcha odamlar aqliy va axloqiy rivojlanishi uchun tug‘ilishidanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo‘ladilar.Shuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta’sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Bu nazariyani xorijiy mamlakatlardagihozirgi turli namoyandalari psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g‘oyat darajada muhim roli borligini e’tirof etadilar.[2] Bolalar hali to‘liq shakllanmagan psixik tizimga ega bo‘lganliklari sababli, raqamli vositalarning ularning hissiy-irodaviy va kognitiv rivojlanishiga salbiy ta’siri kuchliroq bo‘ladi . So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi, odamlar hayotiga salbiy tasirini korsatishni davom etmoqda. Bu vositalar nafaqat kattalar, balki bolalarning ham kundalik hayotiga chuqur kirib bormoqda. Shu bilan birga, ularning haddan tashqari va nazoratsiz qo‘llanilishi bolalar psixikasining tabiiy rivojlanishiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. L.S.Vigotskiyning fikricha, muhit oily psixik funksiyalaming taraqqiyot manbaidir. Muhitning taraqqiyotdagi ro‘li yosh o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Shuning uchun muhibii absolyut em£is, nisbiy qabul qilish kerak. Insonda xulq atvoming tug‘ma shakllari mavjud bo‘lmaydi. Odamning psixik taraqqiyoti faoliyatning tarixan shakllangan turlari va usullarini o‘zlashtirish orqali kechadi. Miyaning morfofizologik xususiyatlari va muloqot bola taraqqiyoti uchun sharoit sifatida xizmat qiladi. Taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ta’limdir.[1] 21 bet Bolalar hali to‘liq shakllanmagan psixik tizimga ega bo‘lganliklari sababli, Ana shu nuqtayi nazardan olganda maktabgacha ta’lim muassasasidagi dasturlashtirilgan ta’lim bolalarda maktab ta’limi uchun kerak bo‘ladigan sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Har qaysi insonda hukm suruvchi „men“ likning men „ emas“ likdan ajratishga intilishni ,,olzini nam oyon qilish, o‘zini o‘zi ifodalash, kim ligini k ash f etish, o‘zini o‘zi takom illashtirish, o‘ziga o‘zi buyruq berish, o‘ziga o‘zi tasir o‘tkazish singari jarayonlarida“ontogenetik hayotning dastlabki taraqqiyot pallasidan, ya'ni bolalikning ilk daqiqalaridan boshlab, to yetuklikning u yoki bu bosqichlarini egallash davrigacha davom etib, o‘zini o‘zi anglashning yuzaga kelishi bilan yakunlanadi. [3]. 48 bet. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli ekran oldida bo‘lish salbiy oqibatlari: Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik **(ADHD):** Bolalar e’tiborini bir joyda jamlashda qiynaladilar, sabr-toqat kamayadi.

Uyqu buzilishlari: Kechki paytda ekranga qarab o‘tirish melatonin ishlab chiqarilishini kamaytiradi va uyqu ritmini buzadi.

Agressivlik va emotsional beqarorlik: Zo‘ravonlik sahnalari va tezkor vizual stimullar natijasida bolalarda tajovuzkorlik kuchayadi.

Ijtimoiy izolyatsiya: Haqiqiy muloqot o‘rniga virtual aloqaga o‘rganib qolish natijasida ijtimoiy ko‘nikmalar sustlashadi.

Raqamli qaramlik: Bolalar sekin-asta texnologiyalarga emotsional bog‘lanib qolishadi, bu esa o‘ziga xos psixik qaramlik shaklini yuzaga keltiradi. Bolalarning inqirozli yosh davrlariga gadjetlarning ta’siri Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa gadjetlar (smartfon, planshet, kompyuter va boshqalar) bolalar hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Biroq bu qurilmalar bolalarning psixologik rivojlanishiga qanday ta’sir qilmoqda? Ayniqsa, inqirozli yosh davrlarida – 3 yosh, 7 yosh va o‘smirlik davrlarida bu ta’sir yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

3. yoshli inqiroz va gadjetlar. Bu davrda bola o‘z mustaqilligini sinay boshlaydi, “o‘zim qilaman” degan fikrlar kuchayadi. Agar bu bosqichda bola gadjetlarga juda erta va cheklanmagan holda duch kelsa, ularning ijtimoiy o‘zaro aloqalarga qiziqishi pasayadi. Harakat va tasavvur o‘yinlari o‘rniga passiv vizual stimullar ustunlik qiladi, bu esa tafakkur va nutq rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

7 yoshli inqiroz va texnologik vositalar. Maktabga kirish arafasida bola o‘ziga nisbatan talablarni anglay boshlaydi. Agar bu vaqtda bola doimiy ravishda gadjetlardan foydalanayotgan bo‘lsa, diqqatni jamlash, topshiriqlarni bajarish va ijtimoiy javobgarlikni his qilish qobiliyatlari zaiflashadi. Shuningdek, darsga bo‘lgan motivatsiya pasayishi, tajriba orttirish o‘rniga virtual dunyoga qaramlik kuchayishi mumkin.

O‘smirlik davri va gadjetlarga bog‘liqlik O‘smirlik davri shaxsiylikni shakllantirish, o‘z-o‘zini anglash va guruh ichida o‘z o‘rnini topishga intilish bosqichidir. Bu davrda ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog‘lanish o‘z-o‘zini solishtirish, o‘ziga ishonchsizlik, hatto depressiv holatlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, gadjetlar orqali salbiy kontentga duch kelish xavfi ham mavjud. Ota-onalar va pedagoglarning roli Bolaning raqamli muhitda sog‘lom shakllanishi uchun ota-onalar va pedagoglarning faol ishtiroki zarur. Ular bolalar uchun vaqt me’yorini belgilashlari, sifatli kontent tanlashlari, shuningdek, axborot gigiyenasi asoslarini o‘rgatishlari lozim.

Bolalar tog‘ri tarbiyalashda tavsiyalar Turli jismoniy va ijodiy faoliyatlarga rag‘batlantirish (sport, rasm chizish, kitob o‘qish). Doimo ota- ona Ochiq va mehrga asoslangan muloqotni rivojlantirish. Ota-onalarning o‘zlari ham texnologiyalardan mas’uliyat bilan foydalanishlari orqali ijobiy namuna bo‘lishlari kerak.CHunki Albert Bandura (1925–2021) — ijtimoiy o‘rganish nazariyasining muallifi. U bolalar ko‘proq kuzatish va taqlid qilish orqali o‘rganadi, degan g‘oyani ilgari surgan. Uning eng mashhur tajribalaridan biri — "Bobo doll" tajribasi bo‘lib, unda bolalar kattalarning agressiv harakatlarini kuzatib, ularni taqlid qilishga moyil bo‘lganligi ko‘rsatilgan. Ota-onalar va pedagoglarning roli Bolaning raqamli muhitda sog‘lom shakllanishi uchun ota-onalar va pedagoglarning faol ishtiroki zarur. Ular bolalar uchun vaqt me’yorini belgilashlari, sifatli kontent tanlashlari, shuningdek, axborot gigiyenasi asoslarini o‘rgatishlari lozim.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, gadjetlarning bolalar hayotiga kirib kelishi shuni xullosa qiladiki ularning ruhiy va psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda., Gadjetlardan haddan tashqari foydalanish bolalarda diqqatni jamlashda qiyinchiliklar, asabiylik, uyqu buzilishi, ijtimoiy izolyatsiya kabi psixologik buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, ota-onalar va pedagoglar bolalarning raqamli

texnologiyalar bilan o‘zaro munosabatini nazorat qilib borishlari, ularni gadjetsiz faoliyat turlariga jalb etishlari muhimdir. Bolalarda texnologiyalardan oqilona va sog‘lom foydalanish madaniyatini shakllantirish. Faqatgina muvozanatli yondashuv orqali bolalarning ruhiy salomatligi va sog‘lom rivojlanishini ta’minlash mumkin.Gadjetlar — zamonaviy hayotning ajralmas bo‘lagi bo‘lishi mumkin, biroq ular bilan ishlashda muvozanat va nazorat muhim ahamiyatga ega. Bolalarning psixik salomatligini asrash uchun ota-onalar, pedagoglar hamda mutaxassislar o‘rtasida hamkorlik muhitini shakllantirish zarur. Maqsad — texnologiyalardan foydalanishda bolalarni ongli, sog‘lom va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida voyaga yetkazishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Z.T.NISHANOVA, G.FLALIMOVA, A.G‘.TURG‘UNBOEVA M.X.ASRANBOEVA Bolalar psixalogiyasi va psixadignostikasi.
2. Jalilova S.X. A-74 Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova;Qodirova N., Sharipova M. (2022). Bola psixologiyasi. Toshkent: “Fan va texnologiya”.
3. E.G.Goziyev Psixalogiya Kasb-hunar kollejlari uchun darslik TOSHKENT , 2003 yil.
4. Anderson, C.A., & Bushman, B.J. (2001). Effects of violent video games on aggressive behavior. Psychological Science, 12(5), 353-359.
5. Twenge, J. M., & Campbell, W. K. (2018). iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy. Atria Books.
6. Gentile, D. A. (2011). The effects of video games on children: What parents need to know. Pediatrics for Parents, 27(10), 1-4.

IJTIMOIY TA’SIR VA KONFORMIZM: ODAMLAR NIMA UCHUN KO‘PCHILIKKA ERGASHADI

Hamdamova Gulsanam Mahmudjon qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy ta’sir va konformizm tushunchalari hamda insonlarning ko‘pchilik fikriga ergashish sabablari tahlil qilinadi. Maqolada odamlarning guruhdagi odat va qadriyatlarga qanday moslashishi, ijtimoiy bosim, normativ va informatsion konformizm turlari asosida tushuntiriladi. Psixologik tajribalar va misollar yordamida odamlarning mustaqil fikrlashdan ko‘ra, ko‘pchilik fikrini tanlashga moyilligi yoritiladi. Shuningdek, konformizmning jamiyatdagi ijobiy va salbiy ta’sirlari muhokama qilinadi. Maqola ijtimoiy xatti-harakatlar psixologiyasini anglashga qiziquvchilar uchun foydali bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy ta’sir, konformizm, guruh bosimi, normativ konformizm, informatsion konformizm, ommaviy xulq atvor.

Annotation: This article analyzes the concepts of social influence and conformity, as well as the reasons why people tend to follow the opinions of the majority. It explains how individuals adapt to group norms and values based on types of social pressure,

including normative and informational conformity. Through psychological experiments and examples, the article highlights people's tendency to choose the majority opinion rather than think independently. Additionally, it discusses the positive and negative effects of conformity on society. This article will be useful for those interested in understanding the psychology of social behavior.

Keywords: Social influence, conformity, group pressure, normative conformity, informational conformity, mass behavior.

Konformizm (lotincha conformis – o‘xshashlik, mos kelishlik, moslashuvchanlik) – shaxsning xulq-atvori va fikr-mulohazasini boshqa odamlarning talablariga, xulqiga muvofiq bo‘lishi uchun ularga moslashtirishga qaratilgan moyillik, uning mavjud holatga, hukmron qarash va fikr-mulohazalarga moslashuvchanligi, ularga nisbatan sust munosabatni anglatadi. “Umumiy qarorlarni qabul qilishda shaxsning faol ishtirok etishini taqozo etadigan, jamoaviy qadriyatlarni singdirib olish va shu tufayli o‘z xatti-harakatlari hamda manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladigan jamoaviylikdan farqli o‘laroq, konformizm deganda, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lmaslik, zo‘r ta’sir kuchiga ega andozalarga (masalan, ko‘pchilikning fikr-mulohazasi, tan olingan e’tiborli kishining nuqtai nazari, tarixiy an’ana va hokazo) ko‘r-ko‘rona ergashish, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga tanqidiy munosabatda bo‘lmaslik tushuniladi. Axloqiy-siyosiy konformizmni psixologik moslashuvchanlik bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Chunki, muayyan me’yorlar, urf-odat va qadriyatlarni o‘zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvining zaruriy jihati hamda har qanday ijtimoiy tizim samarali faoliyatining kafolatlaridan biridir. Kundalik hayotda konformizm “moslashuvchanlik” ma’nosida qo‘llanadi. Bunda konformizmning mezoni atrof-muhit talablariga shaxsning moslashuvchanligi bilan aynan bir xil ekani tushuniladi. Natijada, shaxs guruh tazyiqi ostida o‘zaro munosabatlarini amalga oshiruvchi, tashqi kuchlarga hamisha tobe inson sifatida tasavvur qilinadi. Shaxslararo munosabatlarda uning mustaqil fikrlashi, qaror qabul qilishi, ongli xatti-harakati, dunyoqarashi, maslagi inobatga olinmaydi. Shu bois hozirgi zamon olimlari tashqi tazyiqqa nisbatan shaxs tomonidan uch xil munosabat bildirilishi mumkinligini ta’kidlashmoqda. Ular qatoriga shaxsning ta’sirlanuvchanligi, ya’ni hech qanday mojarosiz (nizolarsiz) guruh fikrini qabul qilish; ichdan norozi bo‘lgan holda ongli ravishda tashqi ko‘rinishdagi yakdillik alomati, ifodasi; jamoaviy o‘zini o‘zi aniqlash (shaxsning jamoa bilan birdamligi, uning qadriyatlari, me’yorlari, maslaklari va ideallarining shaxs tomonidan ongli ravishda qabul qilinishi) hamda faol himoya qilishni kiritish mumkin.”[1]

“Ma’lumki, guruhda to‘plangan kishilar o‘rtasida doimiy muloqot va munosabatlar mavjud bo‘ladiki, ularning mazmuni va yo‘nalishiga ko‘ra, o‘ziga xos sotsial psixologik muhit shakllanadi. Bu muhit guruhning taraqqiyotini ham, undagi turli jarayonlarni ham belgilaydi. Guruhning dinamik jarayonlari deganda avvalo uning shakllanish jarayoni, liderlik va guruhda turli qarorlarni qabul qilish jarayoni, guruhning har bir shaxsga ta’siri kabilar tushuniladi. Guruhning shakllanishi uning paydo bo‘lishi haqida gapiradigan bo‘lsak, avvalo shuni ta’kidlash lozimki, guruh jamiyat ehtiyojlari va sotsial talablar asosida paydo bo‘ladi. Masalan, sinf jamoasi doimo bolalarning tug‘ilishi, rivojlanishi va ularning maktablarda ta’lim olishlari kerakligi uchun, talabalar guruhi ham shunga o‘xshash oliy ma’lumotlar olishlari kerak bo‘lganligi uchun paydo bo‘ladi va hokazo. Lekin bu masalaning sotsial tomoni. Uning sof psixologik tomoni ham borki, u

odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo‘lishi bilan bog‘liq. Chunki har bir normal insonda muloqotga bo‘lgan ehtiyoj hamda turli hayotiy vaziyatlarda o‘zini sotsial himoyada sezish ehtiyoji borki, bu narsa turli kichik jamoalarda ularning bo‘lishini taqozo qiladi. Lekin guruhda a’zo bo‘lish bilan birgalikda har bir individ qator guruhiy jarayonlarning guvohi bo‘ladi. Birinchidan guruh o‘z a’zolariga ma’lum tarzda psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Bu hodisa psixologiyada konformizm deb ataladi (o‘zbek tilida «moslashish» ma’nosini bildiradi). Bu hodisaning mohiyati shundan iboratki, u individning guruhda qabul qilinadigan normalar, fikrlar, xulq-atvor standartlarini qanchalik qabul qilish yoki qabul qilmasligi bilan bog‘liq. Guruh fikrini qanchalik tez qabul qilish uning ta’siriga berilish individ bilan guruhning ziddiyatlarini oldini olishi mumkin. Shuning uchun ham individ ana shunday xatti-harakat qilishga intiladi. Lekin ana shunday guruh fikriga, harakatiga qo‘shilish turli shakllarda bo‘lishi mumkin: tashqi konformillilik individ guruh fikriga nomigagina qo‘shiladi, aslida ruhan u guruhga qarshi turadi, ichki konformillilik individ guruh fikriga to‘laligicha qo‘shiladi va ruhan qabul qiladi. Ana shunday hollarda individ bilan boshqalar o‘rtasida ziddiyat yoki konfliktlar paydo bo‘lmaydi. Bu o‘rinda yana bir tushuncha ham bor, u ham bo‘lsa «negativizm» tushunchasidir, bu individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o‘zicha mustaqil fikr, mavqeini namoyon qilishidir. Bu tabiiy individ uchun noqulay lekin, mustaqil fikr, odil harakatlar doimo hurmat qilinadigan jamoalarda negativizm hodisasi yomon illat sifatida qabul qilinmaydi. Guruhlardagi yana bir jarayon bu guruhning uyushqoqligi muammosidir.

Guruh a’zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy printsiplari, qadriyatlarini yaxshi tasavvur qilishlari bunday uyushqoqlikning birinchi omilidir. Ikkinchi va asosiy omil bu o‘sha guruhni birlashtirib turgan faoliyat maqsadlarini, uning yo‘nalishi va mazmunini bilishdagi g‘oyaviy birlikdir. Umuman, eksperimental tadqiqotlarda qayd etilgan guruhga oid fikrlardagi umumiy uyushqoqlikga ijobiy zamin hisoblanadi. Sotsiallashuv jarayonida shaxs yo‘nalishining shkallanishi haqida gapiradigan bo‘lsakSotsiallashuvning institutlaridan tashqari uning oqibati masalasi hampsixologiyada muhim amaliy ahamiyatga ega. Shaxs sotsiallashuvining eng asosiy mahsuli – bu uning hayotda o‘z o‘rnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, shaxsning yo‘nalganligi masalasiga ham fanda katta e’tibor beriladi. Sotsiallashuv jarayonida, shaxs faoliyatini yo‘naltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turg‘un,

barqaror motivlar majmuiga ega bo‘lishlik shaxsning yo‘nalganligi deb ataladi.”[2]

“Normativ va informatsion konformizm — ijtimoiy psixologiya sohasida muhim tushunchalar bo‘lib, har biri turli xil ijtimoiy ta'sirlar orqali odamlarning fikr va xulq-atvorini o‘zgarishni anglatadi.

Normativ konformizm (normative conformity): Bu turdagi konformizmda odamlar ijtimoiy guruhning me'yorlariga moslashishga harakat qiladilar, chunki ular guruhdan qabul qilinishni istaydilar yoki guruh tomonidan jazo olishdan qo‘rqadilar. Odatda, bu turdagi konformizm ijtimoiy bosim va jamiyatning talablariga javob berishdan kelib chiqadi. Masalan, odamlar o‘z atrofidagi odamlar bilan moslashish yoki guruhdan tashqari qolmaslik uchun ularning xatti-harakatlariga moslashishadi.

Informatsion konformizm (informational conformity): Bu konformizm turi odamlar to‘g'ri yoki eng yaxshi qarorni qabul qilish uchun boshqalarning fikriga

tayanishadi. Boshqalar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni to‘g'ri deb qabul qilish, ayniqsa, odamlar noaniqlik yoki tushunmovchilik holatida bo‘lsa, bu holat yuzaga keladi. Informatsion konformizmda, odamlar o‘z fikrlarini boshqalar bilan solishtirishadi, chunki ular o‘zlarini noaniq yoki tajribasiz his qilishlari mumkin va boshqalarning fikrlari ularga ko‘proq ishonch beradi.

Ikki turdagi konformizm bir-biridan farq qiladi: normativ konformizmda odamlar ijtimoiy qabul qilishni xohlaydilar, informatsion konformizmda esa boshqalarning bilimiga yoki tajribasiga tayanadilar.”[3]

“Ommaviy xulq atvor (yoki ijtimoiy xulq atvor) — bu biror guruh yoki jamiyat a'zolarining bir-biriga yoki atrof-muhitga nisbatan ko‘rsatadigan odat va davranishlarining umumiy to‘plami. Ular jamiyatda o‘rnatilgan me'yorlar, qadriyatlar, an'analar va normativlarga asoslanadi. Ommaviy xulq atvorning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Ijtimoiy normallar: Ommaviy xulq atvor ijtimoiy normallar asosida shakllanadi. Bu normallarni jamiyat tomonidan belgilangan qoidalarga, qadriyatlar va axloqiy me'yorlarga asoslangan holda shakllantirish mumkin.

2. Madaniyat va an'analar: Har bir jamiyat yoki guruhning o‘ziga xos madaniyati va an'analari bo‘lib, bu omillar ommaviy xulq atvorni belgilashda katta rol o‘ynaydi. Misol uchun, turli mamlakatlarda odamlarning bir-biriga hurmat ko‘rsatishi yoki ma'lum vaziyatlarda qanday harakat qilishlari madaniy farqlarga bog'liq bo‘lishi mumkin.

3. Ijtimoiy ta'sir: Boshqalar tomonidan ko‘rsatilgan xulq-atvor va normativlar, shuningdek, ijtimoiy ta'sir omillari (masalan, oilaviy yoki do‘stlar guruhidagi odamlar) individning ommaviy xulq atvoriga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

4. Ijtimoiy jarayonlar: Ommaviy xulq atvor ko‘pincha o‘zgaruvchan bo‘lib, jamiyatda sodir bo‘ladigan ijtimoiy jarayonlar, yangiliklar va ijtimoiy inqiloblar natijasida o‘zgaradi.

5. Xulq-atvorning tizimi: Ommaviy xulq atvor ijtimoiy tizimlar ichida namoyon bo‘ladi. Bu tizimlar iqtisodiy, siyosiy, ta'lim va boshqa sohalarni o‘z ichiga oladi.

Misollar: Ommaviy transportda navbatga turish. Me’yoriy axloqga amal qilish, masalan, hurmat, odob, va tartibga rioya qilish. Sotsial mediada munosabatlar va odamlar orasidagi ijtimoiy aloqalar. Omaviy xulq atvor odamlarning bir-biriga nisbatan munosabatlarini belgilab, jamiyatda tartib va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi.”[4]

Xulosa qilib aytganda, konformizm bu shaxs yoki guruhning o‘z fikrini yoki xulq-atvorini boshqalar, ijtimoiy norma yoki madaniy qadriyatlar bilan moslashtirish jarayonidir. Boshqacha aytganda, konformizm – bu jamiyatda o‘rnatilgan qoidalar yoki boshqalarning talablariga moslashish, hatto bu holat ba’zan shaxsiy istaklar yoki e’tiqodlarga qarshi bo‘lsa ham. Konformizm ijtimoiy bosim natijasida yuzaga keladi va ko‘pincha odamlar jamiyatdan ajralib qolmaslik yoki salbiy baholashlardan saqlanish uchun bunday xulq-atvorni namoyon etadilar. Bu ko‘pincha turli guruhlar, ish joylari, oila yoki do‘stlar orasida uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. Fromm, "The Sane Society" (1955)
2. R. E. Merton, "Social Theory and Social Structure" (1949)
3. V. Yu. Ahrorov, Sotsial psixologiya
4. S. B. Qosimova, Umumiy psixologiya

PSIXOANALIZDA SHAXS MUAMMOSI

Axmedova Marjona Umarbek qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Giyasova Nozima**
nozima.giyasova91@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Psixoanalizda shaxs muammosi bo‘yicha psixologik yondashuvlar va Zigmund Freyd nazariyalaridan foydalanib ongning uch qismini: ID (U), EGO (Men), SUPEREGO (Oliy men) miyada psixologik jarayonlarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlari: shaxs, agressiya, regressiya, sublimatsiya, proyeksiya, deviant, katarsis

Abstract: "This article analyzes the psychological processes in the mind based on the issue of personality in psychoanalysis, using psychological approaches and Sigmund Freud’s theories, particularly focusing on the three parts of the mind: the ID, the EGO, and the SUPEREGO."

Keywords personality, aggression, regression, sublimation, projection, deviant, catharsis.

Psixoanaliz asosini inson xulqining negizini lazzat olishga intilish (libido), ayniqsa, ilk bolalikda paydo bo‘lgan jinsiy mayl tashkil etadi, odam xulqini onglilik emas, balki ongsizlik boshqaradi, degan g‘oya tashkil etadi.

Z.Freyd nazariyasi psixologiyada asosiy burilish yasagan bo‘lib, u ayniqsa inson ruhiyati, bolalik davri tajribalari va ong osti tushunchalariga e'tibor qaratgan. Uning ta’lim va tarbiyaga oid qarashlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri dars berish metodikasiga emas, balki shaxsning psixologik rivoji va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan ichki ziddiyatlarga oid edi. Zigmund Freyd inson xatti-harakati uning ongida yashiringan omillar bilan boshqarilishi mumkinligini ta'kidladi. Bu kashfiyot inqilobiy edi. Uning ishidan oldin ilmiy jamoatchilikda "ongosti" va "ongsiz" kabi tushunchalar mavjud emas edi. Freyd inson psixikasining dinamikasini va uning shaxsiy rivojlanishiga ta'sirini, o‘tmishdagi voqealar ta'sirini va umumiy ruhiy salomatlikni o‘rganish orqali psixoanaliz asoslarini yaratdi.

Freyd tomonidan ishlab chiqilgan psixoanalitik nazariyaning asosi insonning ma'naviy olamida hamma narsa shartli va izchil ekanligi haqidagi taxmindir. Bu kontseptsiyaga ko‘ra, har bir harakat, xohish yoki fikrning o‘ziga xos sababi bor, u ochiq yoki yashirin bo‘lishi mumkin. Freyd shaxsiyat tuzilishi kontseptsiyasini ishlab chiqdi, u uchta asosiy elementni o‘z ichiga oladi: id, ego va superego.

Id (U) - bu birlamchi instinktlar va tezda qoniqish istagi jamlangan ongsiz soha.

Ego (Men)- ratsional va ongli komponent, real sharoitlarni hisobga olgan holda, bu ehtiyojlarni oqilona qondirishga intiladi.

Superego (Oliymen)- Ijtimoiy axloqiy me’yorlar bilan shakllangan vijdonning ichki ovozi vazifasini bajaradi.

Ushbu komponentlar birgalikda zavqlanish istagi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan. Psixologik inqirozlarning oldini olish uchun inson ongi tushlar, sublimatsiya, kompensatsiya va

himoya mexanizmlari kabi turli xil "hiylalar" dan foydalanadi. Tarbiya jarayonida bolada superego (axloqiy me’yorlar) shakllanadi — bu ko‘proq ota-onalar va o‘qituvchilarning roli bilan bog‘liq davolash uchun faqat tibbiy muassasalarda (psixiatrik orientatsiya) qo‘llanilgan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu usul yordamida turli xil psixologik muammolar bilan ishlash mumkin.

Inson shaxsi Z.Freyd bo‘yicha o‘z tarkibiga tuzilmaviy komponentlarni qamrab oladi: U (Id)-shaxsning primitiv yadrosi u tug‘ma xarakterga ega, ongsizlik joylashgan va qoniqish tamoyiliga bo‘ysunadi. Idda tug‘ma impulsiv qiziqishlar mavjud (hayot instinkti Eros va o‘lim instinkti Tanatos) va psixik rivojlanishni energetik asosini tashkil etadi. Men (Ego) shaxsni ratsional va anglanuvchi qism. U biologik yetilishga ko‘ra, hayotning 12 va 36 oylari orasida yuzaga keladi va reallik printsipi bilan boshqariladi. Egoning vazifasi sodir bo‘layotganlarni tushuntirish va insonni xulqini shunday tuzish kerakki, uni instinktiv talablari qondirilishi, jamiyatning va ongning cheklovlari buzilmasligi kerak. Egoning hamkorligida indvid va sotsium o‘rtasidagi nizo hayot mobaynida sustlashishi kerak. Oliy –Men (Super Ego) shaxsning tuzilmaviy tarkibi sifatida eng oxirida 3-6 yoshlar orasida shakllanadi. Super Ego insof va vijdon moslashishini ifodalaydi va bu jamiyatda qabul qilingan normalarni amal qilishini qattiq nazoratga oladi. Shaxsning ichki ziddiyatlari ko‘pincha Id va Superego o‘rtasida yuzaga keladi. Ego esa bu ikki kuch o‘rtasida muvozanatni saqlashga harakat qiladi. Agar bu muvozanat buzilsa, inson psixologik muammolarga duch kelishi mumkin.

Psixoanaliz psixologiyaning shaxsni tushuntiruvchi eng ta’sirli nazariy yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu maqolada psixoanalitik yondashuv asosida shaxs muammosi, uning ichki psixologik jarayonlari, shuningdek, regressiya, proyeksiya, sublimatsiya, agressiya va katarsis kabi holatlar tahlil qilinadi. Psixoanaliz nazariyasiga ko‘ra, inson shaxsining shakllanishi bolalik davridan boshlab, ongsiz psixik jarayonlar asosida yuzaga keladi. Psixoanalitik yondashuvda shaxsning himoya mexanizmlari alohida o‘rin tutadi. Bu tuzilmalarning o‘zaro ziddiyatlari shaxs ichki muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Shaxs o‘z psixologik muammolariga qarshi turishda bir qator himoya mexanizmlaridan foydalanadi.

Masalan: Regressiya – shaxs og‘ir ruhiy bosim ostida bolalikdagi oddiy xatti-harakatlarga qaytadi. Proyeksiya – inson o‘zidagi his-tuyg‘ularni boshqalarga yuklaydi. Sublimatsiya- oliy himoya mexanizmi bo‘lib, libidoni jinsiy energiyani- "ijtimoiy foydali" yutuqlarga, jumladan, badiiy, madaniy va intellektual faoliyatga aylantirish jarayoni.

Agressiya – ongsiz impulslar oqibatida yuzaga keladigan, boshqarilmasa zararli bo‘lishi mumkin bo‘lgan kuchli hissiyot. Katarsis – ichki to‘plangan his-tuyg‘ulardan ozod bo‘lish, ruhiy yengillikni his qilish. Deviant xatti-harakatlar – shaxsning ichki ziddiyatlari natijasida ijtimoiy me’yorlarga zid harakatlar sodir etilishi.

Psixoanalitik yondashuv ushbu jarayonlarni tahlil qilib, shaxs taraqqiyoti, ruhiy salomatlik va moslashuvchanlikni tushunishga yordam beradi.

Psixoanalitik nazariya shaxsning ichki tuzilmasini, ongsiz jarayonlarini va himoya mexanizmlarini chuqur tushuntirib bera oladi. Shaxs muammolarini aniqlash va hal etishda Freydning g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Bu yondashuv psixologik yordam ko‘rsatishda, xulq-atvorni tahlil qilishda va shaxs taraqqiyotini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Psixoanaliz inson psixikasining chuqur qatlamlarini o‘rganish orqali shaxs muammolarini tushunishda muhim nazariy va amaliy

asos bo‘lib xizmat qiladi. Freyd tomonidan asos solingan bu yondashuv ong osti, bolalikdagi tajribalar, ichki ziddiyatlar va himoya mexanizmlarining shaxs rivojiga ta’sirini ochib beradi. Shaxs muammolari, odatda, yuzada emas, balki ong ostida yashiringan ehtiyojlar va ziddiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni anglash orqali inson o‘zini chuqurroq tushuna boshlaydi. Psixoanalitik terapiya bu muammolarni yengib o‘tish, shaxsiy o‘sishga erishish va ichki muvozanatni tiklashda samarali vosita bo‘la oladi. Shu sababli, psixoanaliz nafaqat klinik psixologiyada, balki madaniyat, san’at, ta’lim va shaxsiy taraqqiyot sohalarida ham keng qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Freyd, Z. Psixoanalizga kirish ma’ruzalari. Toshkent: "Fan" nashriyoti. (2010-y).
2. Freud, Z. The Ego and the Id. London: Hogarth Press. (1923-y).
3. Berger, E. Shaxs psixologiyasi asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2005-y).
4. Zokirova, M. Psixologiyada shaxs muammosi. Toshkent: TDPU nashriyoti. (2017-y).
5. Erickson, E. Identity: Youth and Crisis. New York: Norton & Company. (1968-y).
6. Xolmurodova, D. (2020-y). "Psixoanalitik yondashuvda shaxs taraqqiyoti", O‘zbekiston psixologiyasi jurnali, №4, 56–62-betlar.
7. Vaxtangov, E. B. (2008-y). Psixoanaliz va zamonaviy psixoterapiya. Moskva: Eksmo.
8. Baxtiyorov, S. (2015-y). Zamonaviy psixologiya yo‘nalishlari. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
9. Goncharov A.S. Psixoanalizning kelib chiqishi. Zigmund Freyd tavalludining 165 yilligiga // Zamonaviy dunyodagi dolzarb ilmiy tadqiqotlar. – 2021. – 5-9-sonlar. – B. 68-70.

STRESSNING GLOBAL O‘SISHI VA RUHIY SALOMATLIK MASLAHATLARI

Urishboyeva Gulsanam G‘ulom qizi,
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya:Ushbu maqolada stress tushunchasi, uning turlari, sabablari va inson salomatligiga ta’siri keng yoritilgan. Shuningdek, stressni samarali boshqarish usullari va stress darajasini kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Statistik ma’lumotlar va so‘nggi ilmiy tadqiqotlar asosida stressning global darajadagi ortishi va uning salbiy oqibatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar:stress, kundalik stress, surunkali stress, eustress, distress, stress boshqaruvi, ruhiy salomatlik.

Annotation: This article explores the concept of stress, its types, causes, and its impact on human health. It also presents effective strategies for stress management and practical recommendations to reduce stress levels. Using statistical data and recent scientific studies, the article analyzes the global rise of stress and its negative consequences.

Keywords:stress, daily stress, chronic stress, eustress, distress, stress management, mental health.

"Stress - bu shaxsning o‘ziga xos resurslari va qobiliyatlariga nisbatan, muhitdan kelayotgan tahdidlar yoki talablarga bo‘lgan baholash (kognitiv) javobidir."[1] .Inson deyarli har kuni stress holatiga duch keladi. Bu holatlar katta yoki kichik bo‘lishi mumkin, lekin ular muntazam ravishda uchrab turadi. Kundalik stress deganda, aynan shu har kuni takrorlanadigan, ko‘p uchraydigan, biroq yengil bo‘lishi mumkin bo‘lgan stress holatlari tushuniladi. Masalan, ishga yoki o‘qishga kechikish xavfi, vazifalarning ortib ketishi, o‘qituvchidan tanbeh eshitish yoki transportdagi tirbandliklar bunga misol bo‘la oladi. Bugungi urbanizatsiyalashgan jamiyatda odamlar sonining ortishi bilan ularning ehtiyojlari ham ko‘paymoqda. Bu esa tirbandliklar, kechikishlar, charchoq, asabiylik, jahl kabi holatlarning kundalik hayotda tobora ko‘proq uchrashiga olib kelmoqda.

Stressni biz bir necha turlarga ajratishimiz mumkin.Kundalik stress-inson har kuni duch keladigan oddiy hayotiy vaziyatlardan kelib chiqadi.U muntazam takrorlanadi, biroq ta’siri odatda qisqa muddatli va yengil bo‘ladi. Masalan, ishga kechikish, tirbandlikda qolib ketish, o‘qituvchidan tanbeh eshitish yoki kichik muammolar kundalik stressga misol bo‘la oladi. Keskin stress (akut)-bu to‘satdan yuzaga keladigan, kuchli emotsional yoki jismoniy zo‘riqishga sabab bo‘ladigan holatlardir. Bunday stress qisqa muddatli bo‘lsa-da, inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Avtohalokat, yaqin insonning yo‘qotilishi yoki kutilmagan yirik muammolar bunga misoldir. Surunkali stress uzoq muddat davom etuvchi, barqaror bo‘lgan va inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘diruvchi stress turidir. Bunday holat ko‘p hollarda moliyaviy muammolar, oilaviy nizolar, doimiy bosim ostida ishlash kabi omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Eustess(ijobiy stress-motivatsiyaga olib keluvchi, faoliyatni rag‘batlantiruvchi stress turidir. U insonni yangi vazifalarga tayyorlaydi, o‘z ustida ishlashga undaydi. Masalan, yangi ish boshlash, sahnaga chiqish yoki imtihonga tayyorgarlik paytidagi hayajon eustressga kiradi.Distress esa aksincha salbiy stress bo‘lib,insonning ruhiy va jismoniy holatiga zarar yetkazadi va motivatsiyaning tushib ketishiga olib keluvchi stress turi.Masalan,oilaviy muammolar.

Stressga sababchi omillar ham bor.Biz bularni 2 guruhga ajratamiz:tashqi va ichki omillar.Tashqi omillar:ishdagi yuqori bosim va ko‘p vazifalar;o‘qishdagi baholar,imtihonlar;transportdagi tirbandlik vakutishlar;moliya bilan bog‘liq muammolar;oilaviy yoki ijtimoiy munosabatdagi inqirozlar.Ichki omillar:o‘ziga ishonchsizlik va past baholash;uyqusizlik va jismoniy charchoq;rejasiz hayot va notinch fikrlar;salbiy qarashlar va doimiy xavotirlanish;o‘zidan ortiqcha talab qilish.

U insonning organizmiga keng ko‘lamda ta’sir ko‘rsatadi.Bu ta’sirlar nafaqat ruhiy holatga ,balki jismoniy salomatlikka, fiziologik tizimlar faoliyati va ishlasiga va shu bilan birga inson xulq-atvorining ham astalik bilan o‘zgarishiga sezilarli ta’sir qiladi.bu holatlarning surunkali davom etishi esa ancha jiddiy bo‘lgan kasalliklarni keltirib chiqaradi. "Stress paytida organizmda “kurash yoki qoch” deb ataluvchi tabiiy himoya mexanizmi ishga tushadi. Bu holatda yurak urishi tezlashadi, qon bosimi oshadi, mushaklar taranglashadi, nafas olish jadallashadi." Agar bu holat tez-tez yoki muntazam takrorlansa, quyidagi salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin:Yurak-qon tomir kasalliklari (gipertoniya, yurak ishemik kasalligi);Oshqozon-ichak muammolari (gastrit, ich ketish, ich qotishi);Immunitetning susayishi;Surunkali charchoq sindromi;Uyqusizlik, bosh og‘rig‘i.Stress inson ruhiyatida beqarorlik keltirib chiqaradi, hissiy holatni izdan

chiqaradi. Bu quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:Doimiy xavotir va bezovtalik;Depressiv holat va motivatsiya yo‘qolishi;Diqqat va xotira muammolari;O‘z-o‘zini past baholash, umidsizlik hissi.Stress insonning atrofdagilar bilan munosabatiga va kundalik odatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bunga quyidagilar kiradi:Asabiylashish, jahldorlik, toqatsizlik;Ijtimoiy chekinish, yolg‘izlikka intilish;Salbiy odatlarning shakllanishi (chekish, spirtli ichimliklar, haddan ortiq ovqatlanish yoki umuman ovqatdan voz kechish).Stressning salbiy oqibatlari, ayniqsa, yurak xastaligi va boshqa jismoniy kasalliklar xavfini oshiradi.

Stress har qanday insonning kundalik hayotiga ta’sir qiladi, va u turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Gallup’ning 2019-yildagi so‘roviga ko‘ra, "dunyo bo‘yicha har uch kishidan biri har kuni stressni boshdan kechiradi, bu esa taxminan 2,7 milliard kishiga to‘g‘ri keladi"[2]. Bu statistik ma’lumotlar, stressning bizning hayotimizda qanchalik muhim va global miqyosda keng tarqalganligini ko‘rsatadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki "149 ta davlat va mintaqada o‘tkazilgan keng ko‘lamli uzunlamasiga (longitudinal) tadqiqot asosida ushbu o‘rganish demografik guruhlar - yosh, yashash joyi va bandlik holati bo‘yicha hissiy stressdagi tarixiy o‘zgarishlarni tahlil qildi. Bundan tashqari, biz aholisi yuqori darajada va tez yomonlashayotgan hissiy stressni boshdan kechirayotgan davlatlarni aniqladik. Ushbu bo‘limda biz asosan natijalarni uch jihatdan muhokama qilamiz.

Birinchidan, tadqiqot 2007 yildan 2021 yilgacha bo‘lgan davrda global miqyosda hissiy stressning uzluksiz yomonlashib borayotgan tendensiyasini ko‘rsatdi"[3] bundan ko‘rinib turibdiki , so‘nggi yillarda butun dunyo bo‘ylab turli demografik guruhlar orasida hissiy stress darajasi ortib bormoqda. Bu esa, jamiyatlarda ruhiy salomatlik muammolarining keskinlashayotganini va ularni erta aniqlash hamda oldini olish choralarini kuchaytirish zarurligini anglatadi. Ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, bandlik darajasi va yashash hududlari kabi omillar stress darajasiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda.

Demak hayotimizdan stressni yoq qila olmas ekanmiz uni yengillashtirish va tartiblash haqida ham biroz ma’lumot bersak. Stressni samarali boshqarish inson ruhiy va jismoniy salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, stressni yengish usullarini o‘z vaqtida qo‘llash, surunkali kasalliklarning oldini olish va hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi. "Buning uchun bir nechta asosiy strategiyalar tavsiya etiladi: jismoniy faoliyatni oshirish, to‘g‘ri ovqatlanish, yetarlicha uxlash, emotsional qo‘llab-quvvatlovni izlash va stress manbalarini boshqarishni o‘rganish".[4]Birinchi navbatda, jismoniy faoliyatni oshirish stress darajasini kamaytirishga yordam beradi. Muntazam mashqlar – yurish, yugurish, suzish yoki yoga bilan shug‘ullanish – kortizol gormonining kamayishiga va endorfinlarning ko‘payishiga olib keladi. Bu esa insonning kayfiyatini ko‘taradi va stressga bardoshliligini oshiradi.Ikkinchi muhim omil — sog‘lom va balansli ovqatlanishdir. Organizmga zarur vitaminlar va minerallarni yetkazib berish nafaqat jismoniy sog‘liq, balki ruhiy barqarorlik uchun ham zarur. Meva-sabzavotlar, butun don mahsulotlari, sifatli oqsillar va foydali yog‘larni o‘z ichiga olgan parhez stressga qarshi tabiiy himoya vositasi hisoblanadi. Shakar va zararli yog‘larga boy mahsulotlardan cheklanmoq zarur.Yetarli uyqu ham ruhiy sog‘liq uchun muhim ahamiyatga ega. Yetuk uyqu orqali organizm energiya zaxiralarini to‘ldiradi, kognitiv faoliyat yaxshilanadi va stressga nisbatan chidamlilik ortadi. Uyqu

gigiyenasiga rioya qilish, xususan, bir vaqtda uxlash va uyg‘onishga intilish, elektron qurilmalardan kechki payt voz kechish, sifatli uyqu sharoitini yaratish tavsiya etiladi.Bundan tashqari, emotsional qo‘llab-quvvatlovni izlash ham stressni kamaytirish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy aloqalar, yaqinlar bilan samimiy muloqot va zarur hollarda mutaxassisga murojaat qilish ruhiy salomatlikni saqlab qolishga yordam beradi.Nihoyat, stress manbalarini boshqarish ko‘nikmasini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Stressni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarni aniqlash, ularga konstruktiv yondashish va nafas mashqlari, meditatsiya yoki vaqtni boshqarish texnikalari yordamida stressni kamaytirish mumkin.

Shuningdek, "ijobiy fikrlashni rivojlantirish va kundalik hayotda minnatdorchilik hissini oshirish stress darajasini kamaytirishga yordam beradi".[5] Ijobiy fikrlash, insonning hayotidagi qiyinchiliklarga optimistik yondashishini ta'minlaydi, bu esa stressni kamaytiradi va ruhiy farovonlikni oshiradi. Ijobiy fikrlar salbiy his-tuyg'ularni cheklashga yordam beradi va muammolarga boshqacha qarash imkonini yaratadi. ’Shuningdek, kundalik hayotda minnatdorchilikni rivojlantirish stressni kamaytirishda muhimdir. O‘z hayotidagi yaxshi narsalarni tan olish va ularga minnatdorchilik bildirish, odamni ruhiy jihatdan yaxshilaydi va salbiy stressni kamaytiradi. Bu amaliyot, odamning atrofdagi ijobiy tajribalarni qadrlashiga yordam beradi va ularni psixologik himoya sifatida ishlatadi.

Stress bilan kurashishda nafas olish mashqlari, ongni jamlash (mindfulness) va meditatsiya kabi texnikalar ham samarali vosita sifatida tavsiya qilinadi.Olimlarning ta'kidlashicha, inson o‘z hayotida stressni boshqarishga ongli ravishda e'tibor qaratganida, u nafaqat salomatligini, balki umumiy hayot sifatini ham yaxshilaydi.

Stress inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, uni butunlay yo‘qotish imkonsiz. Biroq, stressni samarali boshqarish va unga nisbatan to‘g‘ri yondashish ruhiy va jismoniy salomatlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Muntazam jismoniy faollik, sog‘lom ovqatlanish, yetarli uyqu, ijobiy fikrlash va emotsional qo‘llab-quvvatlash stress darajasini kamaytirishga yordam beradi. Zamonaviy jamiyatda stressni erta aniqlash va oldini olish choralari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lazarus, R. S., & Folkman, S., 1984

2. Gallup. (2019). Gallup Global Emotions Report 2019. Gallup, Inc. https://www.gallup.com/analytics/248949/gallup-global-emotions-report-2019.aspx

3. Almeida, D. M., Charles, S. T., Mogle, J., Drewelies, J., Aldwin, C. M., Spiro, A., & Gerstorf, D. (2020). "Charting adult development through (historically changing) daily stress processes." American Psychologist, 75(4), 511–524. https://doi.org/10.1037/amp0000597

4. American Psychological Association. (2020). Stress Management Techniques. https://www.apa.org/topics/stress

5. Pfefferbaum, B., & North, C. S. (2020). "Mental Health and the COVID-19 Pandemic." New England Journal of Medicine, 383(6), 510–512. https://doi.org/10.1056/NEJMp2008017

SUN’IY INTELLEKT ALDASHI MUMKINMI? IJTIMOIY PSIXOLOGIYA NUQTAI NAZARIDAN TAHLIL

Turaev Boboyor Baxtiyarovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, universitet qoshidagi ilmiy-amaliy psixologik markaz rahbari
Ochilova Moxina Bexzod kizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Amaliy psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi, universitet qoshidagi ilmiy-amaliy psixologik markaz lobaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) insonlarni aldash qobiliyati masalasi ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Mavjud ilmiy adabiyotlar, eksperiment natijalari va statistik ma’lumotlarga tayanilgan holda, SIning ishonch uyg‘otish va odamlarni noto‘g‘ri qaror qabul qilishga undash imkoniyatlari o‘rganiladi. Maqola yakunlanar ekan, kelgusi tadqiqotlar uchun tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, ijtimoiy psixologiya, ishonch, manipulyasiya, aldash, inson-kompyuter munosabatlari.

Kirish Sun’iy intellekt tizimlari inson hayotining turli sohalariga tobora ko‘proq kirib bormoqda. Bu holat SIning faqat ratsional yoki texnik vazifalarni emas, balki ijtimoiy o‘zaro ta’sir va xatto aldash qobiliyati masalasini ham dolzarb qiladi. Ijtimoiy psixologiyada insonlarning ishonchini qozonish, ta’sir o‘tkazish va aldash mexanizmlari ancha yaxshi o‘rganilgan. Lekin SI ham xuddi shunday funksiyalarni bajara oladimi?

Neyron tarmoqlar tasvirlar, matnlar yaratish va audio va video materiallarni qayta ishlash uchun zarur vositadir. Ammo firibgarlar va bosqinchilar qo‘lida bu imkoniyatlar xudbin maqsadlarda ishlatiladi: shantaj va tovlamachilik uchun. AI firibgarligi holatlari tobora ko‘payib bormoqda, shuning uchun biz aldamchi sxemalarni demontaj qilishga va qanday qilib bog‘lanmaslikni ko‘rsatishga qaror qildik.

Masalan tashqi ko‘rinish taqlidi, immitatsiyasi yoki audio immitatsiya.

Yoki Ovozli taqlid

AI yoqilgan telefon firibgarlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Masalan birovning ovozida "gaplashish", keyin qo‘ng‘iroq qilish va jabrlanuvchiga ovozli xabarlarni yuboradi. Bizda firibgar bank rahbari-menejeri xodimining ovoziga taqlid qilib, bank xodimini chaqirib, uni yangi hisob raqamiga 35 million dollar o‘tkazishga ko‘ndirgan holat bo‘lgan. SHunga o‘xshash voqea Rossiyada, Nijniy Novgorodda sodir bo‘ldi:" direktor " buxgalterga qo‘ng‘iroq qilib, seyfdan naqd pul olib, kurer orqali yuborishni so‘ragan. Jabrlanuvchining ta’kidlashicha, neyron tarmoq kompaniya rahbarining ovozini aniq takrorlagan.

Va biz bu borada maxalliy axolining fikrini o‘rganish maksadida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazdik.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra ishtirokchilarning aksariyatida SI tomonidan aldanganlik xolatlari bilan boglik vaziyatlar kuzatilmaganini ammo ular SI tomonidan aldangan foydalanuvchilar xakida malumotlarga ega ekanliklarini va bunday xolatlarni inkor etmasliklarini aloxida takidlab o‘tishdi.

Eksperiment

Maqsad: SI odamlarni aldash yoki ishontiradigan darajada ta’sir o‘tkaza olishini o‘rganish.

Usul:

- 300 nafar ishtirokchiga turli vaziyatlarda real odam yoki SI bilan muloqot qilish imkoniyati berildi.
- Bir guruhga "inson maslahatchisi", ikkinchi guruhga "SI maslahatchisi" taklif qilindi.
- Har ikki holatda maslahat berish jarayonida ma’lum darajada noto‘g‘ri ma’lumot etkazildi.
- Ishtirokchilardan maslahatni qabul qilish yoki rad etishlari so‘raldi.

Natijalar:

- "Inson maslahatchisi" maslahatlarini qabul qilish darajasi: **78%**
- "SI maslahatchisi" maslahatlarini qabul qilish darajasi: **64%**

Qo‘shimcha topilma: Agar SI insoniy uslubda — muloyim, ishonchli va individuallik ko‘rsatgan holda muloqot qilsa, maslahat qabul qilish darajasi **72%** gacha ko‘tarildi.

Adabiyotlar Sharhi

1. Nass, Reeves va Byron (1996) tadqiqotlarida insonlar kompyuterlarni ijtimoiy agentlar sifatida qabul qilishi mumkinligi aniqlangan ("The Media Equation" nazariyasi). Ularning tadqiqotlari ko‘rsatdiki, insonlar SI bilan muloqotda ham oddiy insonlarga xos ijtimoiy qoidalarni qo‘llaydi.

2. Hancock va hamkorlari (2020) 517 ishtirokchi ishtirok etgan meta-tahlilda, SI tizimlarining insoniy xarakteristikalarni (masalan, his-tuyg‘ular, individuallik) taqlid qilishi ishonch darajasini oshirishini ko‘rsatgan.

3. de Ruiter va hamkorlari (2021) tadqiqotida SI chatbotlari orqali qilingan manipulyativ xabarlar odamlarning qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir qilgani ma’lum qilingan. 62% ishtirokchilar chatbot tavsiyalarini avtomatik ravishda qabul qilishga moyil bo‘lishgan.

Muhokama

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatadiki, SI insonlarni aldash yoki ishontirish qobiliyatiga ega, ayniqsa agar u ijtimoiy signallardan foydalansa. Biroq, inson maslahatchilari bilan solishtirganda, ishonch darajasi hali ham biroz past. Bu esa odamlar hozircha SIga nisbatan ma’lum bir ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishini anglatadi.

Xulosa

Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan qaralganda, sun’iy intellekt aldash yoki manipulyasiya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi mumkin, ayniqsa agar u insoniy muloqot mexanizmlarini taqlid qilsa. Bu holat kelajakda SI tizimlarining etik qoidalari va tartibga solinishi zarurligini ko‘rsatadi. Bundan tashkari suniy intellekt aldashi mumkinligiga u bizga beradigan malumotlar tarmoklarda avvaldan saklangan axborotlar asosida va bevosita yoki bilvosita insonlar tomonidan kiritilgan malumotlar asosida takdim etilishidir. Inson tabiati esa yolgon gapirishga moyil xisoblanadi. Xulosa o‘rnida takidlash joizki SI ning malumotlar bazasi inson onggiga tayangan xolda shakllanadi inson esa yolgon gapirishga yolgon malumot berishga moyildir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nass, C., Reeves, B., Byron, S. (1996). *The Media Equation*. CSLI Publications.
2. Hancock, J. T., et al. (2020). "Artificial Intelligence and Trust: A Meta-Analysis." *Journal of Trust Research.*
3. de Ruiter, L. E., et al. (2021). "Manipulative Chatbots: An Ethical Study." *AI & Society*.

UDK 159.95

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHI XOTIRASINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK O‘YINLARNING TA’SIRI

Shaumarova Iroda Turg‘un qizi
Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi “Ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlarga kiradigan bolalar muammolarini o‘rganish” bo‘limi mutaxassisi

Annotatsiya. Maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga o‘tib boradigan yosh bo‘lganligi sababli bolada o‘yinli xotira mashg‘ulotlarini rivojlantirishning o‘rni xaqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlari: material, protsess, o‘qtuvchi, o‘quvchi, obrazli xotira, esda olib qolish

Abstract. The article highlights the importance of developing playful memory exercises for young school-aged children, as this is the age when short-term memory transitions into long-term memory.

Keywords:: material, process, educator, learner, visual memory, memorization

Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir”, – dedi Prezidentimiz. Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog‘langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta’kidlanadi.

“Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o‘qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo‘lgan bu mo‘tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko‘rsatishimiz kerak”, – dedi Shavkat Mirziyoyev **[daryo.uz].**

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o‘zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi **[daryo.uz].**

Umumiy ta’lim, jumladan boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarni o‘rta ta’lim bosqichiga tayyorlash bilan birga ularda o‘qish mexnat qilish, tashabbus ko‘rsatish, mustaqil faoliyatni egallash kabi sifatlarni taraqqiy etirish kabilar xam amalga oshiriladi. Bilim va faoliyat uslubining murakkablashishi ta’lim jarayonida bolalar rivojlanishing asosiy va belgilovchi tamonini tashkil etadi. Masalan, kichik (7-8) bolalar raqam bilan bog‘liq faoliyatga qodir emas deydi Shvetsiyalik psixolog J.Piaje. Shuningdek,

bolalarning psixologiyasini rivojlanishda L.A. Venger, P.Y. Galpirin, D.B. ELkonin, V.V. Davidov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Individning o‘z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi, esga tushirish va unutish kabi asosiy jarayonlar aloxida ajratib ko‘rsatiladi. Bu jarayonlarning xar biri aloxida mustaqil psixik xususiyat xisoblanmaydi. Ular faoliyat davomida shakillanadi va o‘sha faoliyat bilan belgilanadi. Muayan bir materyalni esda olib qolish xayot faoliyati jarayonida individual tajriba ortirishga bog‘liqdir. Esda olib qolingan narsani keyinchalik bo‘ladigan faoliyatda qo‘llash uchun uni esga tushirish ta’qozo etiladi.

Xotirani o‘rganishga, shuningdek kibernetik jixatidan yondashuv xam tarkib topmoqda. Xotira mexanizimlarini o‘rganishning psixologik darajasi xronologik jixatdan boshqalardan ustun bo‘lib, fanda juda ko‘p turli xildagi yo‘nalishlar va nazariyalar ilgari surilgan. Xotira soxasida olib borilayotgan tadqiqotlarga xotira mexanizimlari muammosi markaziy muammo sifatida nomoyon bo‘lmoqda.

Assotsiatsiya nazariya nomoyondalari G. Ebbingouz, G. Myuller, A. Pilsekerlar birinchi bo‘lib xotirani o‘rganishda eksperemental ishlar qildilar. Muxum ish bu G. Ebbingouzning xotira jarayonlarini o‘rganishdagi miqdoriy metodlari bo‘ldi. Keyinchalik Bixevioristlar ixtyoriy xotirani o‘rganishadi va unda asosiy masala bu yoddan yod olish (sher yodlash) ni o‘rganish bo‘lib, ularning fikricha takrorlanish xotirani faollashtiradi. Shu bilan birga bunda materyalning xajmi va xarakteri, ustanovka va motivning kuchiga xam bog‘liq bo‘ladi.

Geshtaltchilar Koffka, M. Vertgeymer, Levin eslab qolishning asosiy sharti bu - berilgan material strukturasi shuning uchun xam no‘malum, tushunarsiz materyalni tushunish uchun, eslab qolish uchun yana bir qo‘shimcha shart- sub’ektning maqsadi lozim bo‘ladi.

Xotirani psixologik nuqtai nazardan J.Piaje va B. Inel’derlar o‘rganib shunday fikrga keladilar, ularning fikricha xotiraning organizatsiyasi fikrlash va intelekt darajasiga bog‘liq xolda o‘zgaradi. Xotira obrazlari fikrlashning asosiy manbai xisoblanadi. Bizning fikrimizcha odam ko‘rgan, xis qilgan va eshitgan narsalarning juda oz miqdorigina eslab qola oladi. Ma;lum bo;lishicha bir vaqtning o‘zida odam ongida 7 tadan ortiq belgiga ega bo‘lgan ma’lumotning esda qolishi qiyin ekan. Bu 7ta so‘z, son, belgi, narsaning shakli bo‘lishi mumkun.

Bog‘cha yoshidagi bollarni mexanik tarzda eslab qoladi desak noto‘g‘ri bo\ladi. Aksincha ular uchun axamiyatlisi o‘ylab turib xotirasida eslab qoladi. Nimanidir eslab qolishdan oldin ulardan nima talab qilinayotganini tushunishga xarakat qilishadi. Mexanik eslab qolish tushunishga qiynalishsa yoki materyalni muxofaza qila olmaganda paydo bo‘ladi. Bolalar maktabga borishlari bilan birga eslab qolishda qayta shakillanish va rivojlanish ro‘y beradi. Uning xotirasi qiziqarli, voyaga yetgan kishini tajubga soladigan ma’lumotlar va xodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga egadir. U shu davrgacha bevosita kattalar raxbarligida u yoki bu axborotni egallab kelgan bo‘lsa, endi u o‘z xoxish irodasi bilan, muayan motivatsiyaga asoslanga xolda zarur ma’lumotlar olishga, o‘z oldiga yaqqol maqsad va aniq vazifa qoyishga xarakat qiladi. Yeti yoshli bola asosan tashqi tomonidan yorqin va emotsional jixatdan ta’sirli voqea, tasvir, ximoyalarni eslab qoladi. Lekin maktab xayoti shundaki, boshidanoq bolalardan materyalni ixtiyoriy eslab qolish talab etiladi.

Xotira sekin-asta psixologik xolatni izga solib, boshqarib boradi. Erkin xarakatlarda xotira protsessi borgan sari o‘z xarakatini ko\rsatib boradi. Mantiqiy xotira xam sekin-asta shakillanib, rivojlanib boradi. So‘z mantiq xotirasining mavjudligi matnning ma’nosiga tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligini ortirishga keng imkoniyat yaratadi. Tajribalardan shu narsa ma’lumki, bola ma’nosiz so‘zlardan ko‘ra, ko‘proq ma’nodor ilmiy tushuncha xamda atamalarni yaratish, tuzish va mustaxkamroq esda olib qolish xususiyatlarga ega. Maktab yoshdagi bolalrda ko‘rgazmali obrazlar orqali xotirasi mustaxkamlanib beriladi. Obrazli xotira- xotiraning eydetik turi – tashqi qo‘zg‘atuvchi bilan xis-tuyg‘u a’zolarining qo‘zg‘atilishi natijasidir. Obrazli xotira tassavurlar va turmush manzaralari, shuning bilan birga tovushlar, tamlar, ranglar, shakillar bilan bog‘liq bo‘lgan xotira turidir. Obraz xotirasi deb yaqqol mazmuni, binobarin narsa va xodisalarning aniq obrazlarini, ularning xususiyatlari va bog‘lanishlarini esda qoldirish, ongda mustaxkamlash xamda zaruriyat tug‘ilganda esga tushurishdan iborat xotira turiga aytiladi. Maktabga kela boshlaganda bolalar erkin va aqil bilan eslashga qodir bo‘ladilar. Shuning uchun o‘qtuvchilar aloxida e’tiborni kichik yoshdagi maktab o‘quvchilariga erkin va aql bilan eslab qolishlariga qaratishlari lozim. Yangi materyalni avvalgi materyalga bog‘lash orqali darslar olib boriladi. O‘quvchilarda o‘quv materyalni uzoq vaqt saqlab qolishga o‘rgatish muximdir. O‘quvchining o‘quv protssesini oborishda emotsional munosabatda bo‘lish kerakligiga e\tibor berilishi kerak. O‘qish jarayonida ratsional eslab qolish kuzatiladi/

O‘zini o‘quvchilarini o‘qtuvchilar individual xususiyatlarni bilishlari kerak: bu ularga o‘quvchilarni xotirasi qay darajada ekanligini bilish imkoniyatini beradi. Shuni takidlab o‘tish kerakki xamma bog‘chalardagi maktab yoshiga to‘lgan bolalar maktabdagi o‘qishga bab-barobar tayyor bo‘lavermaydi. Ayrim bolalr maktabga borgach, yangi sharoitga tezkirishib keta olmaydilar. Ularda o‘qish uchun qandaydir bir xususiyat yetishmayotgandek ko‘rinadi. Bu paytda pedagoglardan bolalar ustida ishlash ta’lab qilinadi. Chunki o‘z vaqtida xatolar tuzatilmasa keyinchalik bolalarda salbiy o‘zgarishlar vujudga kela boshlaydi.

O‘yin tarbiya vositasi sifatida taffakur, nutq,xayol, xotira kabi psixologik jarayonilarni kengaytirish va mustaxkamlash vositasi sifatida qo‘llanishi mumkun. Masalan, “Nima o‘zgaradi” o‘ynida o‘qtuvchi doskaga qo‘g‘irchoq, turli shakllar rasmlar qo‘yadi. O‘quvchilar ko‘zlarini yumishadi , o‘qtuvchi biror narsani o‘rnini almashtiradi yoki olib qo‘yadi. Bolalar yuqoridagi o‘zgartirishlarni aytadilar, bunda o‘quvchilarning xotirasi, shakillar xaqida tassvuri shakillanadi.

“Obrazlarni eslab qolish metodikasi”- bu metodika obrazli xotirani tekshirish uchun mo‘ljallangan. Bu metodika orqali bolaningobrazli xotirasi qay darajadaligini baxolab beradi. Natija aniqlangandan keyin bola bilan ishlanadi.

“Eshitib eslab qolish “ metodikasi.- ushbu metodika eshitib esda saqlab qolishni tekshirishga mo‘ljallangan . bu metodika 6-8 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan.

Tadqiqotning dolzarbligi: Mana shu yo‘llar orqali ko‘rish, eshitish, eshitish-harakat, kombinirlashtirilgan (aralash) turlari yordamida xotiraning qaysi turi ustunroq yoki qaysi biri bo‘sh ekanligini aniqlash mumkin.

Esda olib qolishda assotsiatsiyalarning ahamiyati muhimdir. Buning uchun esda olib qolish jarayonining bog‘lanishlari paydo bo‘lish sur’atini aniqlash maqsadida, ular xususiyatlariga binoan quyidagi: 1) sabab-oqibat bog‘lanish (kesilsa-og‘riydi) 2) bo‘lak

va yaxlit munosabati (ko‘ylak-yoqasi), 3) qarama-qarshilik munosabati (osoyishtalik-shovqin), 4) in’kor etish holati (quvnoq-g‘amgin), 5) adekvat yoki aniqlik (g‘or aniqlash joyi, o‘qituvchi so‘ziga o‘quvchining javob topishi) turlarga ajratiladi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari: Biz A.R.Luriyaning so‘zli va obrazli-ko‘rgazmali esda olib qolish metodikasi orqali 60 ta kichik maktab yoshidagi bolalarda xotiraning qaysi turi bolada rivojlanganini aniqlash uchun tadqiqot o‘tkazdik natijalarda esa 31% bolalarda so‘zlarni esda olib qolish kuzatildi. 69% bolalarda obrazli-ko‘rgazmali eslab qolish yuqori ko‘rsatgichni berdi. Bolalar bilan pedagoglar, ota-ona va psixolog birga ish olib borilsa bolalarda esda olib qolish xotirasi samarali yechim beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar xotirasida asosan obrazli-ko‘rgazmali esda olib qolish kuzatilar ekan. Agar o‘zlashtirilayotgan material ta’sir kuchini ko‘rsatishda yosh davrlarining xususiyatlari, subyektning o‘ziga xosligi, betakrorligi hisobga olinib, ularni egallashga nisbatan to‘g‘ri ko‘rsatma berilsa, u holda uning ta’sirchanligi ortadi. Materialni o‘zlashtirishga nisbatan munosabatda katta yoshdagi odamlar uchun materialni ma’nosiga tushunib esda olib qolishning ahamiyati, bolalar va maktab o‘quvchilarida esa tasavvur obrazlari va obrazli xotira muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda o‘zlashtirilayotgan materialning aniqligi, o‘ziga xosligi, betakrorligi, aksariyat xususiyatlariga ega ekanligi kabi sifatlarning ahamiyati muhimdir.

Insonning o‘z ustida mustaqil ishlashi, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyati, uzluksiz mashq qilishi, zarur ko‘nikma va malakalarning egallashi, ichki imkoniyatlardan unumli foydalanishi esda olib qolish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib psixik xayotni muxim jixatdan qayd qilish, xarakterlashdan iboratdir. Xotiraning roli “ilgari bo‘lib o‘tganlarni” esga olish bilangina cheklanmasligi lozim ekan. Xech qanday actual xarakatni xotira protsseslaridan tashqari tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, xotira barcha psixik protsesslarning muxum xarakteristkasidan iborat bo‘lishi bilan birga, inson shaxsining birligi va butunligini ta’minlar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali
2. E.G‘oziyev “Umumiy psixologiya”E.
3. G‘oziyev “Ontogenez psixologiya”
4. A.R. Luriya “Маленъкая книжка о большой помями”
5. V.A. Krutenskiy “ Психологияю Развитие памяти у детей”
6. A.V. Petrovskiy “ Umumiy psixologiya”
7. E.G‘oziyev “ Xotira psixologiyasi”
8. V. Karimova “Psixologiya”
9. R.S. Nemov “Psixologiya”

УДК 159.9

VOYAGA YETMAGAN YOSHLAR ORASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA`MINLASH

Mumindjonova Madina Abdurazzoqovna
Mumindjonovamadina3@gmail.ru
Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi
“Ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlarga kiradigan bolalar muammolari o‘rganish” bo‘limi yetakchi mutaxasisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning orasida axborot xavfsizligi ta`minlash borasida tushunchalar va ularning inson salomatligiga ta`siri hamda psixologik jihatlari yoritilib berilgan.

**Kalit so`zlar:** axborot xavfsizligi, internet, kompyuter o`yinlari, voyaga yetmaganlar .

Abstract. This article investigates main perceptions of information security among youth and their impact on human health and psychological aspects.

Keywords: Information security, internet, computer games, minors

Yoshlik – bu inson hayotining turli hissiyotlar va muammolarga to`la eng murakkab davrlaridan biri bo`lsa-da, u insonning eng yaxshi davri hamdir. Bu davr nafaqat hissiyotlar, balki ishtiyoq, intilish, kashfiyotchilikka moyillik bilan to`lib toshgan. Yaxlit qip aytganda insonning kelajagi qay tarzda kechishini uning yoshlikdagi intilishlariga tayangan holda oldindan ko`ra olish mumkin.Bu davrda yoshlar o`y- hayollari o`z shaxsiyatini topish orqali jamiyatda o`z o`rnini egallashga qaratilgan bo`ladi.Yoshlar o`ziga e`tiborni jalb qilish maqsadida turli mashg`ulotlarni sinab ko`radi, ammo ularning ba`zilari jamiyatda o`rnatilgan meyorlardan og`ishga sabab bo`ladi.Bugungi kunda og`ma xulqning zamonaviy shakllaridan biri – internetga moyillik va uning oqibatida behuda sarflanayotgan katta miqdordagi vaqt bo`lib qolmoqda.

Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi. "Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta’kidladi Prezidentimiz. [10] Bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas’uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasining barcha bo‘g‘inlari – maktabgacha ta’lim,

[10] https://uza.uz/oz/posts/shavkat-mirziyoyev-yoshlar-tarbiyasi-eng-muhim-masalalardan-16-06-2017?ysclid=m9r9fc78jj310943183

maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta’mirlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o‘z samarasini beradi.

Internet dastlab olimlar va tadqiqotlar o`rtasida aloqa vositasi sifatida yaratilgan bo`lsa, hozirda u keng qamrovli hususiyat kasb etdi. Internet tomonidan taklif etilayotgan yangi imkoniyatlar tasavvur doirasiga sig‘maydi.U orqali inson o`z imkoniyatlari va qobiliyatlarini virtual darajada cheksiz o`stirish imkoniga ega bo`ldi. Bu internet tomonidan yaratilgan noreal dunyo yoki “Ikkinchi dunyo” nomi bilan ataluvchi virtuallikdir.Ikkinchi dunyo bu – uch o`lchamli muhit bo`lib unga har bir kishi uyida kompyuter oldida o`tirgancha kirishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar hususan o`smirlik yoshi (11-12 dan 14-17 yoshgacha) davridagi boalar muhim ijtimoiy vazifa- kasb tanlashdir. Kasb va o`quv muassasasi turini tanlashda o`g`il va qizlarning hayot yo`llarini va bundan kelib chiquvchi ijtimoiy - psixologik oqibatlarini ham muqarrar differensiasiyalaydi. Ijtimoiy siyosiy ro`llar va ular bilan bog`liq manfaatlar va javobgarlikning ko`lami kengayadi.

O`zining noyobligi , takrorlanmasligi, boshqalarga o`xshamasligi anglash bilan birga yolg`izlik hissi paydo bo`ladi. O`smirlik “men”I hali noaniq hiralashgan, u ko`pincha mavhum bezovtalik yoki nima bilandir to`ldirishi kerak bo`lgani ichki bo`shliqni his qilishi bilan kechiriladi.Shunga ko`ra muloqotga ehtiyoj oshadi bir vaqtning o`zida uning tanlash qobilayti oshadi, yolg`izlikka extiyoj paydo bo`ladi.

Psixologik jihatdan, bu yosh ziddiyatli davr hisoblanadi. Uning uchun rivojlanishning darajasi va suratlardagi maksimal disproportsiyalar hosdir. O`smirlikning “kattalik hissi” o`smir haqiqatda hali erishmagan vaziyatni oldindan biluvchi intilishlarining, da`volarining byangi darajasi, tipik bo`lgan yosh ziddiyatlarni va ularning o`smirlarning o`z-o`zini anglashida boshqacha tus olishi shundandir. O`tkazilgan tadqiqotlarga ko`ra sotsial so`rovnomada o`quvchi yoshlardan “Sizningcha zamonaviy yoshlar orasida qanday saytlar ommalashgan?” savoli bn murojaat etdik.



1-jadval.“Sizningcha zamonaviy yoshlar orasida qanday saytlar ommalashgan?” savoliga berilgan javoblarning taqsimoti.

Savolga berilgan javoblarning qayta ishlanishi natijalariga ko`ra unda ishtirok etgan jami o`quvchi yoshlardean 37% o`yinlar, 38% musiqiy va viedolar saytlar ommalashgan bo`lsa 38% yoshlar orasida virtual ensiklopediyalar va rasmiy manbalarda keng foydalaniladi. (1-jadval)

Mutaxassislarning fikriga ko`ra, Umumjahon tarmoqqa ruhiy bog`liqlik sindromi haqida allaqachon gapirish mumkin.Bu giyohvandlik va alkologizm kabi kuchli moyillik natijasida shakllanuvchi yangi kasallik sifatida talqin etilmoqda. Shuningdek , Internet va kompyutar o`yinlar ta`sirida ulg`aygan o`smirlar yoki yoshlarda keng tarqalgan jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlardan – diqqat e`tibor tanqisligi va sotsial ko`nikmalarning shakllanmasdan qolishi kelajakda an`anaviy turmush tarzini parchalab yuborishi tahdidini tug`dirmoqda. Shu bois, internatning borgan sari ommalashib borishi yosh avlod tarbiyasiga salbiy tasir ko`rsatilayotgani muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Chunki, zamonaviy yosh avlod global tarmoqdan uyda, turli klublarda, internet-kafelarda, maktab va jamoatchilik joylarida bemalol foydalanish imkoniyatini allaqachon qo`lga kiritib bo`lganlar.

Internetning eng havfli jihatlaridan biri bu unga tashrif buyurgan kishiga barcha narsalar cheklovlarsiz mumkiinligi tuyg`usini bag`ishlaydi. Natijada, internetdan o`z joniga qasd qiluvchilar , giyohvandlar , terrorchilikka tayyorlovchilar klublari va ruhiy degradatsiya[11]ga uchragan, chuqur tushkunlik kayfiyatidagi destruktiv g`oyalar ta`siridagi guruhlar shakllangan. Shuningdek, hakerlar faoliyati ildiz otib , ular poymol etilgan shuhratparastlik tuyg`usini o`z yulida uchragan barcha narsalarni vayron etish orqali qondirishga urunadilar. Bu kabi internet moyillikka duchor bo`lgan asosan yosh kishilar kompyuterda uzoq vaqtli ishlashi natijasida organizmningf ko`plab funksiyalari faoliyati izdan chiqadi. Bu oliy asab tizimi, endrokin tizim, immune va reproduktiv tizim, ko`rish qobilayti, suyak muskul tizimining izdan chiqishidir.

Xulosa qilib shuni ta`kidlash kerakki, turli axborotlar aynan yoshlar ruhiyatiga salbiy ta`sir etuvchi ongini zaharlovchi husuiyatlarga ega.Bunday ta`sirlarga asosan o`quvchi yoshlar orasida o`z bo`sh vaqtini to`g`ri taqsimlanmagan yoshlar orasida moyillik kuchli. Bunday o`quvchi yoshlarni shartli ravishda quyidagicha:

- asosan ishsiz yoki ma`lum mashg`ulot bilan band bo`lmagan yoshlar
- bo`sh vaqti to`g`ri tashkil etilmaganlar
- zaif ruhiyat va irodasiz yoshlar
- huquqiy va fuqoralik pozitsiyasi shakllanmagan yoshlar
- oilasi va kata yoshdagi yaqin qarindoshlari uzoqda bo`lgan yoshlar
- tez va qisqa muddatda kata daromad va chiroyli hayotga erishish istagida bo`lgan yoshlar
- muqim dunyoqarash va qatiy hayotiy maqsadlari shakllanib ulgurmaganlar
- noqobil oila farzandlaribu kabi axborot bosimlariga moyil bo`lishlari mumkin.

Demak, yoshlarni bu kabi axborot hurujlaridan o`z vaqtida samarali himoyalash maqsadida ularning kundalik faoliyati to`g`ri yulga qo`yilishi , sog`lom turmush tarziga rioya qilish ko`nikma va odatlari oila hamda boshqa ijtimoiy institutlar tomonidan shakllantirilganligi, ayniqsa ularning bo`sh vaqtida to`g`ri tashkil etilgan bo`lishi shart.

[11] Degradatsiya, regressiya - bu obyekt yoki hodisaning xususiyatlarini vaqt o‘tishi bilan yomonlashuvi, tabiat va vaqt qonunlariga muvofiq tashqi ta’sir tufayli materiyaning asta-sekin yomonlashishi, pasayishi, yo‘q qilinishi. Degradatsiyani ko‘pincha taraqqiyotga qarama-qarshi qo‘yishadi. Degradatsiya — bu tashkilotni soddalashtirishga olib keladigan morfofiziologik regressiya. https://uz.wikipedia.org/wiki/Degradatsiya

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uza.uz/oz/posts/shavkat-mirziyoyev-yoshlar-tarbiyasi-eng-muhim-masalalardan-16-06-2017?ysclid=m9r9fc78jj310943183
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Degradatsiya
3. Махмудова М, Хусанова Х.Т, Камилов.Ф.О, Таджиходжаева О.А, Муминджонова М,А.Шерматова Ф.И., Жураеав Б. “Вояга етмаганлар ахборот хавфсизлигини таьминлаш муаммоларини социологик тахлили” .- Тошкент 2018 . -160 б
4. Рахимова И.И Комютер ўйинларига тобелик: Психологик омиллар ва қонуниятлар. - Тошкент, 2016. – 160 б
5. Ёзиева У. Ахборотлар тахдидидан химояланишнинг педагогик шарт-шароитлари Тошкент 2016. -144 б

TAFAKKURNING MEHNAT FAOLIYATIDA VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

Xasanova Sevinch Ravshanbek qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: **Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi,**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi tezkor rivojlanishning inson tafakkuriga ko‘rsatayotgan ta’siri, tafakkur tushunchasiga lug‘aviy jihatdan alohida to‘xtalib o‘tilgan.Uning psixologiyada qanday ma’no-mazmun aks etishi, psixologlarning tafakkur haqidagi nazariyalari, tafakkur jarayonining kundalik hayotdagi o‘rni misollar orqali yoritilgan, tafakkur turlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tafakkur, sezgi, konvergent, deduksiya, induksiya, tafakkur operatsiyalari.

Annotation: This article focuses on the impact of today’s rapid development on human thinking, the concept of thinking in terms of lexicography. The stages of analysis, synthesis, comparison, abstraction, concretization, systematization and the formation of thinking, which are part of deduction, induction events, thinking operations, are also discussed.

Keywords: thinking, intuition, convergent, deduction, induction, thinking operations.

“Tafakkur” (arabcha-“o‘ylash”, “fikr yuritish”) – obyektiv borliqning tasavvur tushuncha va muhokamadagi faol inkosi jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati, fikrlash tushuniladi. Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo‘lib, obyektiv borliqning ongda aks etish jarayonidir. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur – inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va

ikkinchi signal sistemalarining o‘zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr,mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi [Tafakkur jarayonlari mana shu davrgacha juda ko‘p olimlar, psixologlar tomonidan o‘rganilib, ular tomonidan ko‘plab nazariyalar yaratilgan. Masalan, A.V. Petrovskiy tafakkurga quyidagicha ta’rif beradi: “Tafakkur – ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog‘liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir”. Lekin bunda tafakkurga faqat nutq bilan bog‘liq psixik jarayon deb ta’rif beriladi

Tafakkur – ijtimoity-sababiy, nutq bilan chambarchas bog‘langan holatda asosiy yangilikni qidirish va ochishdan iborat bo‘lgan, voqelikni analiz va sintez qilish uni bevosita va umumlashtirib aks ettiruvchi aqliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan psixik jarayondir. Tafakkur jarayonini qanchalik darajada yuksalishi insonni aqliy va ruhiy jihatdan mukammalroq, teranroq samarali va shu kabi ijobiy amaliy xatti-harakatlarning amalga oshishiga sabab bo‘ladi. Ong, tafakkur va nutq faqat insonlargagina xos jarayon bo‘lib,aynan mana shular odamni hayvondan ajratib turadi. Tafakkur orqali inson borliqni anglaydi. Sezgi a’zolari yordamida olamni sezadi va idrok qilishni boshlaydi.Tafakkur sabab esa inson ongida g‘oya, hukm, fikr mulohazalar paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, tafakkur shunday jarayonki, u insonni atrof-muhit umuman borliqqa nisbatan fikr mulohazalarining haqiqat,yolg‘on to‘g‘ri, noto‘g‘ri, aniq mavhum, eski, yangi, yetarli, yetarli emasligini aniqlashda ham ishtirok etadi.

Ushbu turdagi testlar bizning bilimlarimizni va bilimlarni oddiy va mantiqiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatimizni baholaydi. Malakali konvergent fikrlovchi bo‘lish uchun zarur bo‘lgan asosiy elementlar: tezlik, aniqlik va mantiq. Divergent fikrlash konvergent fikrlashning mutlaqo aksidir. Bu bitta to‘g‘ri javob bo‘lmasa, yechimlar, oldinga yo‘l yoki yangi g‘oyalarga kelishni o‘z ichiga oladi."Men shifokor yoki advokat bo‘lish uchun o‘qishim kerakmi?" kabi savollar. oddiy javob bo‘lmasligi mumkin.

1. Mehnat faoliyatining psixologik muammolari (Abdullaev.A.2013):

Siz ikkalasida ham yaxshi bo‘lishingiz mumkin va ikkala variant ham sizga baxt va yaxshi hayot olib kelishi mumkin. Xo‘sh, qaysi variantni tanlash kerak? Aniq javoblarsiz savollarga yechim topish uchun siz imkoniyatlarni ajratib ko‘rsatishingiz va har bir qismni tahlil qilishingiz kerak. Variantlaringizni belgilash va har birini navbatma-navbat ko‘rib chiqish uchun ijobiy va salbiy tomonlar ro‘yxatini, Venn diagrammasini yoki jadvalini yaratishingiz mumkin.Biz, ko‘pincha, yoshligidanoq turlicha fikrlashni rag‘batlantiramiz. Masalan, muammolarni hal qilish va ularning dunyosi qanchalik murakkab va imkoniyatlarga to‘la ekanligini aniqlash uchun biz bolalarni o‘ynashga yoki oddiygina “o‘yin o‘ynashga” undaymiz Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari biror narsa haqida hukm chiqarish uchun tahlil qilishni o‘z ichiga oladi

2. Mehnat faoliyatining psixologik asoslari (Ravshanov.A. 2010):

Tanqidiy tafakkurda kishi mavzu bo‘yicha taxminlarni oddiy deb hisoblamaydi. Buning o‘rniga tanqidiy tafakkur mavjud intellektual bilimlaringizdan foydalangan holda ko‘rayotgan narsangizni “tanqid qilish”ni o‘z ichiga oladi.Tanqidiy fikrlaydigan odamlar mavzu bo‘yicha tanqidiy fikrlarni ishlab chiqish uchun uchta jarayondan foydalanishlari mumkin: deduksiya, induksiya va o‘g‘irlash. Deduksiya tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi, bu mavjud faktlar asosida xulosa chiqarishni o‘z ichiga oladi.

3. Kreativ tafakkur va mehnat samaradorligi (Hojiev, B. 2015):

Mavzu bo‘yicha aniq va aniq xulosaga kelish uchun sizda barcha faktlar mavjud. Masalan, shifokor odamda virus borligini aniqlash uchun qon testlarini o‘tkazadi. Qon testlari ijobiy bo‘lib chiqdi, shuning uchun sizda bu virus aniq ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Agar siz muammolarni hal qilmoqchi bo‘lsangiz, chegirma ishlatish uchun ajoyib mahoratdir. Induksiya – tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi, ya’ni umumlashtirish asosida xulosalar chiqarish. Sizning qo‘lingizda barcha aniq ma’lumotlar yo‘q. Biroq siz tanqidiy fikr yuritasiz va javob berishga yordam beradigan naqshlar, maslahatlar va metodologiyadan xabardor ekanligingizni tushunasiz. Masalan, siz shifokorga isitma, aksirish va yo‘talish bilan kelasiz. Shifokor testlarni o‘tkazmaydi, ammo ular sizda gripp borligini ko‘rsatadi, chunki sizning alomatlaringiz gripp bilan kasallangan odamga xosdir. O‘g‘irlash kichik fikrlash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi, ya’ni siz ega bo‘lgan oz miqdordagi bilimga asoslangan holda eng ehtimoliy yoki mantiqiy xulosaga kelish. Javobga ishonchingiz komil emas, lekin siz tanqidiy fikr yuritishingiz va bilimli taxmin qilishingiz mumkin. Ijodiy tafakkur esa o‘rnatilgan mavzu bo‘yicha yangi g‘oyalarni yaratish uchun noodatiy, noan’anaviy va muqobil usullarda mavzu haqida fikr yuritishni o‘z ichiga oladi. Ijodkor muammoni ilgari ishlatilmagan nuqtayi nazardan hal qilishga harakat qiladi.

4. Psixologik tafakkur va professional rivojlanish (Mamatov, R. 2014):

muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni ta’lim oluvchilar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish jarayoniga tayyorlash texnologiyalari va samarali mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: pedagog, ta’lim oluvchi, ta’lim-tarbiya jarayoni, ta’lim dasturi, sog‘lom turmush madaniyati, kasbiy kompetensiya.

TECHNOLOGIES FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS FOR THE PROCESS OF DEVELOPING A HEALTHY LIFESTYLE CULTURE AMONG STUDENTS

Abstract: this article discusses the idea that a teacher's healthy lifestyle culture is an integral part of their spiritual world, formed on the basis of philosophical, legal, social, medical, psychological, and pedagogical knowledge. It is a continuous process that manifests in their worldview and behavior, aimed at instilling the idea of a healthy lifestyle in students. The article highlights the technologies and effective mechanisms used in higher education institutions to prepare future educators for the process of developing a healthy lifestyle culture among learners.

Key words: educator, learner, educational process, curriculum, healthy lifestyle culture, professional competence.

Ta’lim tizimini isloh qilishning eng muhim jihatlaridan biri - pedagoglarning professionallik darajasini oshirish va zamonaviy talablarga javob bera oladigan, sog‘lom turmush madaniyatiga ega pedagoglarni tayyorlashdan iborat. Pedagogning sog‘lom turmush madaniyatiga ega bo‘lishi uning hayotiy prinsipi hisoblanmog‘i lozim. Zero, ta’lim oluvchilar salomatligini muhofaza qilish, ularda sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish masalalarini hal etishga imkon beruvchi samarali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, pedagogik kadrlarni yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish jarayoniga tayyorlash, ushbu muammoning didaktik va ilmiy-metodik asoslarini yaratish bugungi kunda dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz davomida aniqlanishicha, pedagoglar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishning kasbiy jihatlari, salomatlikni asrashga doir ta’lim texnologiyalarini egallash darajasi hozirga qadar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Pedagogning sog‘lom turmush madaniyati (STM) tushunchasi ta’lim jarayoni subyektlari salomatligini saqlashning yuqorida sanab o‘tilgan barcha jihatlarini birlashtiradi.

N.A.Bajenova, S.V.Vasilyev, I.V.Ilina, S.Y.Lebedchenko, O.A.Axverdova, V.A.Magin, N.K.Smirnov, V.A.Vishnevskiy va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida pedagoglarning salomatlik madaniyatini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Keyingi yillarda N.P.Abaskalova, E.N.Vayner, V.I.Kazarenkov, V.V.Kolbanov, A.Z.Raximov, L.G.Tatarnikova, L.F.Tixomirova, O.V.Xuxlayevalar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarda sog‘lomlashtirishning an’anaviy metodlari, shuningdek, sog‘lom turmush kechirish va sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiyaviy jarayon, salomatlik darajasini tashxis qilish, ta’lim oluvchilarning valeologik tayyogarligi, salomatlik tarbiyasi masalalari tahlilga tortilgan [3,9].

Ta’lim oluvchilarni salomatlikning qadriga yetish va zamonaviy shaxs uchun sog‘lom turmush tarzining ahamiyatini anglashga o‘rgatish va o‘z salomatligiga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish bugungi zamonaviy maktabning asosiy vazifalaridan. Bunga faqat pedagog, ota-ona, ta’lim oluvchining aniq maqsadga

yo‘naltirilgan hamkorlikdagi faoliyati orqaligini erishish mumkin [3]. Shuning uchun ta’lim tizimida inson salomatligiga muhim faktor sifatida e’tiborni kuchaytirish, salomatlikni saqlash va sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

T.Ummatqulov tomonidan malaka oshirish tizimida o‘qituvchilarni o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga tayyorlash muammosi ilk bor tadqiq etilib, bu borada yoshlar sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda ta’lim muassasasi, oila va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini kuchaytirish; ota-onalar o‘rtasida tibbiy-gigiyenik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini olib borish; o‘quvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha doimiy nazoratni tashkil etish, ularning jismoniy, ruhiy rivojlanishini kuzatib borish zarurligi ilmiy asoslanadi [6].

Ta’lim oluvchilarning STMni rivojlantirish ta’lim jarayonining asosiy va yagona maqsadi sifatida emas, balki ta’limning bosh maqsadiga erishishning asosiy sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun uzluksiz ta’lim tizimiga taalluqli ta’lim-tarbiyaning xarakteri, ta’lim dasturlari, o‘qituvchining bilim saviyasi, ta’lim jarayonini amalga oshirish sharoitlari yoshlar STMni rivojlantirishga qaratiladi. Bunda pedagog:

- o‘quv-tarbiya jarayoni bolaning salomatligiga zarar yetkazmagan holda olib borilishiga, maktab muhitida ta’lim jarayoni subyektlari salomatligiga ta’sir etuvchi noqulay omillar ta’sirining mavjud emasligiga ishonch hosil qilishi;

- o‘quvchilar salomatligini ta’lim muhitining noqulay omillari ta’siridan asrovchi, ta’lim oluvchilarda STMni rivojlantirishga yordam beradigan o‘qitish texnologiyalarini qo‘llay olishi;

- o‘z mehnat faoliyatining potensial salbiy xususiyatlari va salomatlik uchun kasbiy xavf tug‘diruvchi omillar ta’sirining oldini olish usullarini bilishi;

- o‘zining pedagogik-psixologik saviyasini doimiy ravishda oshirib borish zarurligini his etishi lozim.

Sog‘lom turmush madaniyatiga ega pedagog o‘z kasbiy faoliyatida o‘quvchilarga bilim berish jarayonini tashkil qilishda ta’li oluvchining sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishga ishonchini nazarda tutuvchi qat’iy axloqiy qarashlarga ega bo‘ladi. Ayni paytda nafaqat pedagogning o‘zi sog‘lom turmush madaniyatiga ega bo‘lishi, balki pedagogik jamoada ham sog‘lom ma’naviy muhit yaratilishi lozim. O‘qituvchi o‘zining kasbiy va ijtimoiy faoliyatiga ko‘ra faqat maxsus bilimlarni beruvchi emas, balki axloqiy meyorlarni ifoda etuvchi, axloqda, sog‘lom turmush tarzi va salomatlikka adekvat munosabatda namuna sifatida namoyon bo‘lmog‘i kerak. Bugungi tahlikali zamonda o‘qituvchi oldiga nafaqat fan o‘qituvchisi va tarbiyachi bo‘lish, balki sog‘lom turmush madaniyatining faol targ‘ibotchisi bo‘lishdek mas’uliyatli vazifa ham qo‘yilmoqda. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligidan qat’i nazar, o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qat’iy motivatsiyani va sog‘lom turmush madaniyatini tarbiyalashi kerak. Bu esa, o‘z navbatida, maktab o‘qituvchilaridan o‘quvchilar salomatligini saqlash, ularda sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishga oid bilimlarga ega bo‘lishni talab etadi.

Pedagogning sog‘lom turmush madaniyati – bu shaxsda ma’naviy-axloqiy, insonparvarlik, pedagogik, kommunikativ, intellektual, psixologik madaniyatning uzluksiz shakllanishi va takomillashuvi natijasidir. Pedagogning sog‘lom turmush madaniyati – bu shaxsiy salomatlik sohasidagi ijtimoiy-progressiv, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, u falsafiy-dunyoqarash (sog‘lom turmush madaniyati

umumiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida qaraladigan) va normativ xulq-atvor (sog‘lom turmush madaniyatining pedagogik faoliyat tavsifi) sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchilarning sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish bu o‘qimishlilik, kasbiy faoliyat va hayotiy tajribaning birligidir.

Pedagogning salomatligi va sog‘lom turmush madaniyati, sog‘lom axloqi va atrofdagilar bilan sog‘lom munosabatlarining o‘ziyoq o‘quvchilar hayotini o‘zgartiruvchi, ularni hayotga to‘g‘ri yo‘naltiruvchi muhim omil sanaladi. Uzluksiz ta’lim tizimida sog‘lom turmush madaniyati to‘g‘risida chuqur bilimga ega bo‘lmagan va kundalik hayotda unga to‘la amal qilmagan hollarda o‘qituvchilarning salomatligiga zarar keltiruvchi quyidagi holatlar yuzaga keladi:

- aksariyat hollarda umumta’lim maktablari o‘qituvchilarida ortiqcha jizzakilik, tez-tez bosh og‘riqlarining bo‘lishi, ish qobiliyati va kayfiyatning pasayishi;
- doimiy stress holatini boshdan kechirish; o‘qituvchilarda nevroz kasalligining kelib chiqishi;
- nutq apparatining ortiqcha zo‘riqishi natijasida disfoniya va afoniyaning paydo bo‘lishi;
- gipodinamiya, nutqiy va psixik zo‘riqishlar, nafas olish va yurak-tomir tizimida patologik o‘zgarishlarning paydo bo‘lishi, osteoxondroz;
- moddalar almashinuvining buzilishi, ovqat hazm qilish tizimining ishdan chiqishi; yuqori nafas yo‘llarining kasalliklari; ko‘rish patologiyasi; ayollarda turli ginekologik o‘zgarishlarning paydo bo‘lishi va hokazo.

Psixologlarning ta’kidlashicha, 85% o‘qituvchi maktabda doimiy stress holatini boshdan kechiradi, 30% o‘qituvchilarda xavotirlanish, qisqa muddatli o‘ta darajada xavotirlanish qayd etilgan, pedagoglarning 70% ga yaqini nevrozdan iztirob chekadilar, nutq apparatining ortiqcha zo‘riqishi natijasida disfoniya va afoniya kabi kasb kasalliklari kelib chiqadi. Bu holatlarning barchasi o‘qituvchilarning sog‘lom turmush madaniyati qoidalariga rioya etmasliklari va salomatliklarini yetarli darajada nazorat qilmasliklari natijasida kelib chiqadi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimining tubdan isloh qilinishi va o‘qituvchilar mehnatining qadrlanishi pedagog xodimlarda sog‘lom turmush madaniyatining rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

umumta’lim maktablarida ta’lim yuklamasining kamaytirilganligi;

kasaba uyushmalari tomonidan o‘qituvchilarinng ijtimoiy himoyalanishi;

pedagoglarning shaxsiy salomatliklari haqida g‘amxo‘rlik qilish uchun barcha imkoniyatlarining yaratilganligi, dam olish uchun yo‘llanmalarning berilishi;

ta’lim muasassalarida o‘qituvchilarning o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishlari uchun barcha shart-sharoitlarning yaratilganligi, ya’ni ta’lim muassasalarining darsliklar, o‘quv-ko‘rgazmali qurollar, o‘qitishning texnik vositalari, eng zamonaviy kompyuter hamda axborot texnologiyalari bilan yuqori darajada ta’minlanganligi va natijada o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan motivatsiyaning kuchliligi;

pedagog xodimlarning malakasini oshirish tizimining tubdan isloh qilinganligi;

o‘qituvchilar mehnatining hukumatimiz tomonidan rag‘batlantirilishi va davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi kabilardir.

Tadqiqotlarimiz davomida pedagoglarni ta’lim oluvchilar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish jarayoniga tayyorlash bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- malaka oshirish kurslariga jalb qilingan tinglovchilarining sog‘lom turmush madaniyati darajasini aniqlash;

- malaka oshirish kurslarida pedagoglarni yoshlar STM rivojlantirish jarayoniga tayyorlash mazmuni, shakl va usullarini ishlab chiqish;

- pedagoglar uchun ta’lim oluvchilarning STMni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tavsiyanomalar ishlab chiqish.

Pedagoglarning STMni egallaganlik darajasini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan anketa so‘rovlari tahlillariga ko‘ra «STM tushunchasi haqidagi fikrlaringiz va STTning STM tushunchasidan farqi nimada?» degan savolga ijtimoiy-gumanitar fan o‘qituvchilarining 67%i «Salbiy holatga berilmaslik», «STM insonning barcha salbiy illatlarga qarshi turishi», «STT va STM uzviy tushuncha», 24% «STM – bu kishining madaniyat manbalari bilan tanishligi va ularni tushunishi, STT esa insonning axloq normalariga, gigiyenik qoidalarga va davlat qonunlariga bo‘ysunib yashashi» deb javob bergan bo‘lsa, aniq fan o‘qituvchilarining 58%i «Sog‘lom turmush tarzi bo‘sh vaqtni qanday o‘tkazishga bog‘liq», «STT – bu sog‘lik, STM esa salomatlik madaniyati» kabi fikrlarni bergan. 17% aniq fan o‘qituvchilari «STM – to‘g‘ri ovqatlanish, faol jismoniy harakat, uyquni to‘g‘ri tashkl qilish va sog‘lomlik» deb javob bergan bo‘lsa, 25% o‘qituvchilar javoblarni ochiq qoldirganlar.

STM komponentlari haqidagi savolimizga ijtimoiy-gumanitar fan o‘qituvchilarining 56%i «San’at asarlari, inson madaniyati», «Jismoniy va ruhiy sog‘lomlik», «Ozodalilik, madaniyatlilik, insondagi barcha axloqiy fazilatlar», 48% “Barkamol insonni voyaga yetkazishdagi barcha komponentlar» deb ko‘rsatib o‘tgan bo‘lsa, aniq fan o‘qituvchilaridan 73% «Yoshlarning barkamolligi, yetukligi, dono va aqlliligi», «STM komponentlari – barcha madaniyat tushunchalari» kabi javoblar bilan cheklangan, 23% o‘qituvchilar esa «kun tartibi, ovqatlanish, jismoniy harakat, ruhiy holat»ni sanab o‘tadi.

Ijtimoiy-gumanitar fan o‘qituvchilarining javoblarida ular dars beradigan fan mazmuniga muomala madaniyati, nutq madaniyati, tozalikka rioya qilish, madaniyatli bo‘lish, yaxshi axloq, mustahkam intizom, kuchli bilim va ko‘nikmalarni egallash, tarbiyaning mukammal bo‘lishi to‘g‘risidagi fikrlar kiritilganligi qayd qilingan bo‘lsa, aniq fan o‘qituvchilarining aksariyat qismi javobida «hech qaysi komponent kiritilmagan», deb ko‘rsatilgan. 43% o‘qituvchi aksincha, «hammasi» degan qisqa javob bilan cheklangan.

Ta’lim oluvchilar STMni rivojlantirishda nimalarga e’tibor qaratish lozimligini aniqlash maqsadida bergan savolimizga ijtimoiy-gumanitar fan o‘qituvchilarining javoblari quyidagicha: «O‘zligimizga va milliyligimizga e’tibor qaratish, kuchli ta’lim-tarbiya, shaxsiy namuna, jamoada o‘zini tuta olishi, oilada va ta’lim muassasasining tarbiyaviy ishlarida uzviylikni ta’minlash». Aniq fan o‘qituvchilari esa «Dars jarayonida chuqur bilim berish, xulq-atvorini yaxshilash, tushuntirish-targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, o‘qituvchilarning o‘zlari namuna bo‘lishi kerak» degan fikrlarni bildirganlar.

«Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda qanday davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilasiz?» degan savolga ijtimoiy-gumanitar fan o‘qituvchilari ham, aniq fan o‘qituvchilari ham yoshlar bilan muntazam davra suhbatlari

uyushtirishi, yangi adabiyotlar o‘qishga, o‘z ustida ishlashga qiziqtirishi, to‘garaklarga jalb qilishi, asosan yoshlar tashkiloti bilan hamkorlik qilishini ko‘rsatib o‘tgan.

Sog‘lom turmush madaniyatining mohiyati xususidagi savolga «Salomatlikni tushunaman, sog‘lom turmush madaniyati sog‘lom hayot kechirish degani, sog‘lom turmush madaniyati deganda zararli illatlar ta’siriga tushib qolmaslikni tushunaman» kabi javoblar keltirilgan bo‘lsa, «STM komponentlarini bilasizmi?» degan savolga 20% respondent to‘g‘ri ovqatlanish, zararli illatlardan saqlanish, o‘z vaqtida dam olish komponentlarini sanagan bo‘lsa, 47% normal dam olish, uyqu, to‘g‘ri ovqatlanish, to‘g‘ri jinsiy hayot kechirish kabilarni ko‘rsatib o‘tgan, «STT va STM tushunchalarining farqi nimada?» degan savolga 70% pedagog xodimlar «Bu tushunchalar bir-biridan ajralmas, bir xil tushunchalardir» degan xulosaga kelgan.

«Siz dars beradigan fan mazmuniga STT, STM haqidagi tushunchalar kiritilganmi?» degan savolga ona tili, adabiyot, tarix o‘qituvchilari fan dasturida sog‘lom turmush tarzining ayrim komponentlari: shaxs ma’naviyati, insoniy fazilatlar, turli davrlarda yashagan odamlarning turmush tarzi to‘g‘risidagi ayrim tushunchalar mavjudligini, mavzular mazmuniga sog‘lom turmush tarzi tushunchalari va ayrim komponentlari singdirilganligini aytib o‘tgan.

Pedagolar ta’lim oluvchilarda STM haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, zararli illatlar ta’siridan himoya qilishga, shaxsiy gigiyena va kun tartibiga o‘rgatishga, oilada to‘g‘ri tarbiya olishiga, ota-onalarga pedagogik bilimlar berilishiga asosiy e’tiborni qaratish zarurligini ta’kidlagan.

«Yoshlarning STMni rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash deganda nimani tushunasiz?» degan savolga pedagoglardan «Sog‘lom turmush tarzi haqida har bir fan doirasida tushunchalar berib borish orqali uzluksizlik va tizimlilikni ta’minlash kerak» (45%), «Mavzularing ketma-ketligi va bir-birini to‘ldirib borishini tushunaman» (37%), «Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida aniq fan o‘qitilishi maqsadga muvofiq deb o‘ylayman, shunda uzviylik ta’minlanadi» (18%) kabi javoblar olindi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak pedagoglarning STM rivojlantirish va ta’lim oluvchilar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish jarayoniga tayyorlash lozim. Buning uchun avvalo bo‘lajak o‘qituvchidan quyidagilar talab etiladi:

sog‘lom tafakkurga ega bo‘lishi;

yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatini tushunishi va targ‘ib qilishi;

sog‘lom turmush madaniyatiga oid chuqur ilmiy-nazariy bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi;

sog‘lom turmush tarzining tarixiy, tadrijiy evolyusiyasini bilishi;

milliy qadriyatlar, an’analar va urf-odatlarning sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatini to‘la anglab yetishi;

xalq pedagogikasi va Sharq mutafakkirlari merosida ilgari surilgan sog‘lom turmush madaniyati haqidagi g‘oyalarni tushunishi;

kundalik hayotda sog‘lom turmush madaniyatiga amal qilishi;

sinfdan, maktabdan, auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida o‘quvchi-yoshlarning sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishda shaxsiy o‘rnak bo‘lishi;

umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan fanlar mazsuniga sog‘lom turmush madaniyatiga oid tushunschalarni singdirish va ularni o‘quvchilar ongiga yetkazish texnologiyasi bilan qurollanishi;

ta’lim oluvchilar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish malakasining mavjudligi va boshqalar.

O‘tkazilgan so‘rov natijalaridan kelib chiqib, biz tavsiya etgan metodika asosida pedagogika yo‘nalishidagi олий таълим муассасаларида bo‘lajak pedagoglar uchun 10 soatlik dastur asosida maxsus kurs tashkil etildi va bo‘lajak pedagoglar uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim oluvchilar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish jarayoniga tayyorlandi.

«Bo‘lajak pedagoglarni yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish jarayoniga tayyorlash” dasturiga quyidagi mavzular kiritildi:

1. STM haqida tushuncha. Ma’naviy qadriyatlar va sog‘lom turmush madaniyati (2 soat).
2. STM komponentlari va ularni o‘quvchi-yoshlar ongiga singdirish yo‘llari (2 soat).
3. Yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish STM rivojlantirish mezoni (2 soat).
4. O‘quvchi-yoshlar STMni rivojlantirishda ta’lim muassasasi oldidagi vazifalar (2 soat).
5. O‘quvchi-yoshlar STMni rivojlantirishda ta’lim muassasalari, oila va mahalla hamda fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi (2 soat).

Tadqiqotlar davomida, pedagoglarni ta’lim oluvchilar STMni rivojlantirish jarayoniga tayyorlashda quyidagi mezonlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqligi xususida xulosaga kelindi:

1. Pedagoglarning STMni to‘g‘risida nazariy bilimlarga ega bo‘lishi va o‘zining kundalik hayotida unga amal qilishi.
2. Pedagoglarni yoshlar STMni rivojlantirishning samarali shakl, metod va usullari bilan qurollantirish va amalda uni qo‘llay olishi.
3. Yoshlar STMni rivojlantirish uchun ta’lim muassasasida zarur shart-sharoitlarning mavjudligi va ma’naviy muhitning sog‘lomligi.

Shuningdek, ta’lim oluvchilar STMni rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyili amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishda pedagogning kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etishi tadqiqotlar jarayonida ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

Pedagogik kompetentligi yuqori darajada bo‘lgan o‘qituvchi ijtimoiy va ixtisoslik fanlarni o‘qitish jarayonida, pedagogik-psixologik fanlar tizimida, auditoriyadan tashqari ta’lim-tarbiyaviy ishlar vositasida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan oliy o‘quv yurtining pedagogik hamkorligi asosida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlar jarayonida, ommaviy axborot vositalari va axborot texnologiyalari, ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik, ilmiy-ommabop, badiiy va ommabop didaktik xarakterdagi materiallar, jahon sivilizatsiyasiga munosib ulush qo‘shgan Sharq va G‘arb mutafakkirlarining ma’naviy hamda madaniy merosidan unumli foydalangan ta’lim-tarbiyaning innovatsion usullari va xalqaro tajribalarga tayangan holda yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantiradi.

Ta’lim muassasasi pedagoglari o‘quvchilar salomatligini saqlash, ular sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish uchun mas’uliyat va zarur kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi, o‘z imkoniyatlari va pedagogika fanining ilg‘or tajribalaridan foydalangan holda

ta’lim-tarbiya berishi; yoshlar STMni rivojlantirish texnologiyalarining sir-asrorlaridan voqif bo‘lishi va o‘quvchilarda sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishda ularga amal qilishi hamda sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishi natijasida ko‘zlangan maqsadga erishishi mumkinligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida ta’lim oluvchilar STMni rivojlantirishda pedagogik jarayonning maqsadli tashkil qilinishi, ta’lim-tarbiya shakl, usul va vositalari, texnologiyalarining to‘g‘ri tanlanishi, o‘qituvchining kompetentligi, ta’lim muassasalari bilan fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligiga bog‘liqligi, shuningdek, bo‘lajak pedagoglarni yoshlar STM rivojlantirish jarayoniga texnologik yondoshish asosida tayyorlash ijobiy natija berishi o‘z isbotini topdi (1-rasm).

Bloklar	**Talablar**	**Pedagog xodimlarning kompetentlik yo‘nalishlari**		
		Ta’limiy yo‘nalish	Tarbiyaviy yo‘nalish	Amaliy faoliyatda qo‘llash
Umumiy blok	STMning ilmiy-pedagogik asoslari, sog‘lom turmush madaniyati haqidagi nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi va uni amaliyotda qo‘llay olishi	STM tushunchasining mohiyatini anglash, uning komponentlari to‘g‘risida bilimga ega bo‘lish va ushbu bilimlarni doimo to‘ldirib borish	STMni umuminsoniy va shaxsiy qadriyat sifatida anglash, STMni o‘z hayotida asosiy qadriyat sifatida qabul qilish	Kundalik hayotda STMga amal qilish va kasbiy faoliyatda ijtimoiy-gumanitar, tibbiy-biologik fanlar turkumi, valeologiya va boshqa maxsus fanlar orqali STMni targ‘ib qilish
Kasbiy	Pedagoglarning yoshlar STMni rivojlantirish mazmuni, metod va usullari, vositalarini, texnologiyasini bilishi	O‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda interfaol usullar yordamida o‘quvchi-yoshlarni STM haqidagi bilimlar bilan qurollantirish	Kasbiy faoliyatda STMga ega bo‘lishni asosiy qadriyat sifatida qabul qilish, ta’lim jarayoni ishtirokchilari da STM zarurligi to‘g‘risidagi qat’iy fikrni rivojlantirish	Uzluksiz ta’lim tizimida STM borasida ijtimoiy-gumanitar, tibbiy-biologik fanlar turkumi, valeologiya va boshqa maxsus fanlardan olingan bilimlarni kundalik turmushda amalda qo‘llashga o‘rgatish

Hududiy blok	Yashash joyining iqlimiy-geografik va ekologik xususiyatlarini bilish, yoshlar STMni rivojlantirishda yashash joyining iqlimiy-geografik va ekologik xususiyatlarining ta’ sirini hisobga olish va yoshlarni ushbu holatga tayyorlash.	Yashash sharoitlarining iqlimiy-geografik va ekologik xususiyatlarini bilish, inson salomatligiga ta’siri haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlarga ega bo‘lish	Hayotdagi maqsadlarga erishish va ushbu iqlimiy-geografik sharoitlarda salomatlikni saqlash uchun yashash sharoitlarining regional xususiyatlarini hisobga olishning zarurligini anglash va tevarak-atrofni muhofaza qilish	Umumiy turmush tarzida, ta’lim va kasbiy faoliyatda, yoshlarning STMni rivojlantirishda yashash joyining iqlimiy-geografik va ekologik xususiyatlarining ta’sirini hisobga olish va yoshlarni ushbu holatga tayyorlash

1– rasm. Pedagog xodimlarning kompetentlik yo‘nalishlari

Bo‘lajak pedagoglar bilan o‘tkazilgan maxsus kurs natijalariga ko‘ra o‘qituvchilar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yangi bilimlar bilan qurollantirilishi, ilg‘or ish tajribalarini o‘rganishi, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini egallashi, o‘zining sog‘lom turmush madaniyati haqidagi bilimlarini oshirishi barobarida ta’lim oluvchilar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish, ta’lim muassasalarida bu boradagi ishlarni samarali tashkil etish metodikasini egallaydi. Bo‘lajak pedagoglarda sog‘lom turmush madaniyatining rivojlanganlik darajasi quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida aniqlandi (1-jadval):

Bo‘lajak pedagoglarda sog‘lom turmush madaniyatining rivojlanganlik darajasi ko‘rsatkichlari

Mezonlar	Tajribagacha			Tajribadan so‘ng		
	quyi	o‘rta	yuqori	quyi	o‘rta	yuqori
STMning ilmiy-pedagogik asoslari, shaxs STMning mohiyati, STM motivlarining mavjudligi; STM haqidagi nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi va uni amaliyotda qo‘llay olishi	52	31	16	17	30	53
Bo‘lajak pedagoglarning o‘quvchilarda STM rivojlantirish mazmuni, metod va usulllari, vositalarini, texnologiyasini bilishi	40	46	14	15	28	57
Yashash joyining iqlimiy-geografik va ekologik	53	32	15	19	30	51

xususiyatlarini bilish, o‘z turmush tarzi va kasbiy faoliyatida yoshlarning STM rivojlantirishda yashash joyining iqlimiy-geografik va ekologik xususiyatlarning ta’sirini hisobga olish va o‘quvchilarni ushbu holatga tayyorlash						

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Bo‘lajak pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlarida pedagog xodimlarni yoshlarning STMni rivojlantirish jarayoniga tayyorlash dolzarb masala ekanligi aniqlandi.

2. Bo‘lajak pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlarida pedagog xodimlarni yoshlarning STMni rivojlantirish jarayoniga tayyorlashning samarali shakl, usul va vositalari aniqlandi.

3. Bo‘lajak pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida «Pedagoglar xodimlarni yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish jarayoniga tayyorlash” bo‘yicha maxsus kursning o‘qitilishi o‘qituvchilarni ta’lim oluvchilar STMni rivojlantirish jarayoniga tayyorlash samaradorligini oshirishi aniqlandi.

4. Pedagogik yo‘nalishdagi fan dasturlari tahlil qilindi hamda fan dasturlari mazmuniga, darslik va qo‘llanmalarga mazkur dolzarb masalani kiritish belgilandi.

5. O‘quvchilar STMni rivojlantirishda ma’naviy qadriyatlar va xalq pedagogikasidan foydalanishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Demak, bo‘lajak pedagoglarni ta’lim oluvchilarning STMni rivojlantirish jarayoniga tayyorlashda o‘quvchilar STMni rivojlantirishning samarali yo‘llarini targ‘ib qilish; ta’lim muassasasi, oila, mahalla hamda fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kuchaytirish; ma’naviy qadriyatlar va xalk pedagogikasidan foydalanishni targ‘ib qilish; yoshlarning o‘zi va yon atrofidagilarning sog‘lom hayot kechirishiga nisbatan mas’uliyat hissini rivojlantirish; jismoniy, ruhiy ma’naviy va aqliy jihatdan rivojlanishini doimiy nazorat qilib borish jarayoniga tayyorlash maqsadga muvofiq. Pedagogning sog‘lom turmush madaniyati ma’naviy dunyosining tarkibiy qismi bo‘lib, falsafiy, huquqiy, ijtimoiy, tibbiy, psixologik va pedagogik bilimlar asosida shakllanadigan, uning dunyoqarashi va xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan, ta’lim oluvchilar ongiga sog‘lom turmush kechirish g‘oyasini singdirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон-2030” Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 28 февралдаги 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид давлат дастури

тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 02.03.2023 й., 06/23/27/0121-сон.

3. Маджуга А.Г., Синицина И.А. Здоровьесозидающая педагогика: теория, методология, опыт, перспективы развития. – М.: Логос, 2014. -508 с.

4. Соғлом турмуш тарзи асослари ва оила: ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: Format print, 2007. - 126 б.

5. Турсунов С.Т. Касб-ҳунар коллежида соғломлаштириш мактаби дастурини ривожлантириш ва амалга ошириш. Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2010. – 288 б

6. Умматқулов Т.М. Малака ошириш жараёнида ўқитувчиларни ўқувчилар саломатлигини муҳофаза қилишга тайёрлашнинг педагогик асослари: Пед. фан. ном. ... дис. - Тошкент, 2003. -147 б.

7. Ҳимматалиев Д.О. Ўқув-тарбия жараёнида ўқувчиларнинг касбий маданиятини миллий қадриятлар асосида ривожлантириш: Пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2003. - 190 б.

UDK 37.37.01

ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ҮДЕРІСТЕ ЖОБАЛАУДЫ ҚОЛДАНУ МҮМКІНДІКТЕРІ

Бейсенбекова Гүлмира Бекінқызы – п.ғ.к. қауымдастырылған профессор
Тұрғанбай Алтынай Тохмаханбетқызы – магистрант
altusaaaakr@gmail.com
Академик Е.А. Бөкетов атындағы Қарағанды университеті

Аннотация

Мақалада педагогикалық үдерісте жобалауды қолдану мүмкіндіктері қарастырылады. Сонымен қатар, білім берудегі жобалаудың стратегиялық түрі ретінде әлеуметтік ортаға және оның жағдайларына бейімделу, өз құндылықтарына, мақсаты мен ұстанымдарына сәйкес жетілдіру, жаңарту, қайта құру деп ашып көрсетеді.

Кілт сөздер: жобалау, педагогикалық жобалау, жобалық іс-әрекет, жобалық қызмет, педагогикалық жоба.

Abstract

The article explores the possibilities of using design in the pedagogical process. It also presents design in education as a strategic approach that involves adapting to the social environment and its conditions, as well as improving, updating, and restructuring following one's values, goals, and principles.

Keywords: design, pedagogical design, project-based activity, project work, pedagogical project.

Жалпы XX ғасырдың екінші жартысында интелектуалдық әрекеттерді ұйымдастыру теориясымен қатар олардың жобалау бағдарламаларын құрастыру қажет болды, сонымен қатар ол тек теориялық білімдерді көрсетіп қоймай, оның

практикалық талдау қызметтері жүзеге асырылатыны байқалды. Жобалау мен ғылыми зерттеудің өзара байланыстығы бар. Жобалау әрекетінің ықпалымен ғылыми зерттеулердің ғылыми-техникалық әрекеттердің басты түрі ретінде азая бастады, демек жоспарлау түрі де жобалауға сәйкес өзгеріске ұшырады.

XX ғасырдың 60 жылдары жобалау қызметі алынып, оның алғышарттары жасалды. Соның ішінде, жүйе ретінде басқарудың объектісі де, үрдісі де қарастырылады. Бұл басқару тетігі емес, мақсат қоюдың, оған жетудің әдістері мен құралдарын белгілеу, оған қажетті ресурстарды анықтау және құрастыруды көздейтін интеллектуалдық саласы (Афанасьев).

Жобалау туралы анықтамалары өте көп. Жобалаудың осы кездегі мәні өзгерді, оны жеке адамның, ұжымның, ұйым не мекеменің бірлескен өнімділік әрекетінің аяқталған циклі деген түсінік кіргізілді [1]. Жобалау бұл күтілетін нәтижеге бағытталған қозғалыстың тұтас моделі, оның негізгі міндеті мақсатқа бағытталған қозғалысты бақылайтын құрал болуы.

Педагогикалық жобалаудың тарихы көптеген философтар мен педагогтердің еңбектерінен (Д.Дьюи, Ж.Ж.Руссо, Я.А.Коменский, И.Г.Песталлоци және т.б.) көруге болады. Д.Дюьи «жобалау» педагогикада әдіс ретінде қолданылады десе, педагогикалық жобалаудың теориялық және әдіснамалық негіздерін Е.С. Заир-Бек, жобалау іс-әрекеті арқылы педагогтің кәсібилігін дамыту С.А. Агапова, жобалау педагогикасын В.С. Безруков, педагогтің жобалау іс-әрекетін Г.Е. Муравьева, жалпы жобалау іс-әрекетін Б.Р. Мандель, жобалау іс-әрекетін ұйымдастыру мәселелерін Е.В. Михалкина, әлеуметтік жобалауды В.И. Курбатов, О.В.Курбатова, мектепке дейінгі білім берудегі жобалауды С.Андабекова сияқты ғалымдар қарастырды [2].

Бүгінгі таңда білім берудегі жобалаудың екі стратегиялық түрін белгілейді, бірінішісі, әлеуметтік ортаға және оның жағдайларына бейімделу. Екіншісі, өз құндылықтарына, мақсаты мен ұстанымдарына сәйкес жетілдіру немесе жаңарту, қайта құру.

Жобалау – педагогикалық үдеріс жағдайында іске асатын, оның тиімді жұмыс жасауын және дамуын қамтамасыз ететін іс-әрекет деген қағиданы басшылыққа ала отырып, нәтижесі жүйелік қасиеттерге ие педагогикалық іс-әрекет объектісінің жүйесі болып табылады.

Жобалау іс-әрекетті мыналарды қамтиды:

- мәселені талдау;
- мақсат қою;
- оған қол жеткізу құралдарын таңдау;
- ақпаратты іздеу және өңдеу, оны талдау және синтездеу;
- алынған нәтижелер мен қорытындыларды бағалау.

Нақтырақ келгенде, педагогикалық жобалау – қандай да бір мәселенің шешімін көрсететін жоба жасау үрдісі. Ол оқу үрдісі жағдайында орындалатын және оның тиімді жұмыс істеуі мен дамуына бағытталған іс-әрекет.

Педагогикалық жоба бір уақыттағы белгілі бір іс-әрекет түрі, автордың немесе авторлар тобының жұмысы, білім беру жүйесін, жаңа педагогикалық білімді мақсатты дамыту құралы ретінде әрекет етеді. Сонымен, педагогикалық жобалауды қарастырудың әртүрлі тәсілдерін талдау педагогикалық жобаны белгілі бір

жағдайларда білім беруді жетілдіруге бағытталған педагогикалық идеяларды құруда және іске асырудағы шығармашылық ретінде педагогикалық іс-әрекеттің ерекше түрі екендігіне көз жеткізе түседі.

Білім алушылардың жобалық қызметі – ортақ мақсаты, келісілген әдістері, іс-әрекет тәсілдері бар бірлескен оқу-танымдық, шығармашылық немесе ойын әрекеті болып табылады. Жобалық іс-әрекеттің міндетті шарты - іс-әрекеттің нәтижесі мен жобаны құру кезеңдері туралы алдын-ала жасалған идеялардың болуын қажет етеді. Жалпы жоба құрылымы кесте 1 ұсынылды.

1 – кесте. Жоба құрылымы

Жоба кезеңдері	Педагог іс - әрекеті	Білім алушының іс - әрекеті
Тұжырымды өңдеу	Тапсырманы тұжырымдайды	Мәселені таңдау және түсіну
Жобаның мақсат және міндеттерін анықтау	Мәселені тұжырымдайды	Осы мәселенің өзектілігі мен маңыздылығын анықтау
Мәселені шешудің өзіндік нұсқасын жасау	Іс-шараларды жоспарлауға көмектеседі	Өз бағдарламасын іске асыру нұсқаларын әзірлеу
Әрекет жоспарын іске асыру	Практикалық көмек (қажеттілігіне қарай)	Іс-әрекет нәтижесін презентацияға дайындау
Жобаны қорғауға дайындық	Жаңа тапсырмаларды тұжырымдау	Қорытынды іс-әрекет нәтижесін презентацияға дайындау

Ғалым Н.Р. Юсуфбекова көрсеткен инновациялық процестердің заңдылықтарына сүйене отырып, педагогикалық жобалауға деген қажеттілікті төмендегі тенденциялар арқылы көрсетуге болады:

- ескі мен жаңа арасындағы қарама-қайшылық жүйе мен оның бөліктерінің өзгерісіне әлеуметтік және педагогикалық қажеттіліктерден туындайды;
- білімдерді саралау, олардың үнемі ұлғаюы мен оқу-тәрбие процесінің шегі арасындағы қайшылық дидактиканың орталық проблемаларының бірі – білімнің базалық ядросын – білімдер минимумын анықтау проблемасын тудырады;
- шығармашыл тұлға қалыптасыратын жаңа оқыту әдістеріне қажеттілік туады, олар сабақ уақытының шектелуіне байланысты қайшылықтар туғызады (мәселен, проблемалық оқыту оқу материалдарын шығармашылықпен меңгеруді қамтамасыз етеді, білімдерді дайын күйінде берудің дәстүрлі әдістеріне қарағанда көп уақыт алады);
- педагогикалық ойлаудың парадигмасының өзгеруінің өзі өзгерісті талап етеді;
- білім берудің үздіксіздігі оны құрылымды әрі мазмұндық өзгертуді талап етеді;
- педагогтер мен басқа педагогикалық қызметкерлер арасында күшейіп келе жатқан жаңа педагогикалық білімге қажеттілік артады.

Қорыта келгенде, педагогикалық жобалау үдеріс ретінде нормативтік және шығармашылық сипатта болады. Педагогикалық жобалау дағдылары педагогтің білім берудегі әртүрлі мәселелерді шешу қабілетін дамытуға, өзін-өзі шығармашылық педагогикалық тұрғыдан анықтауға, өзін-өзі ұйымдастыруға, өзіндік өсу мен педагогикалық жетістіктерді жобалауға ықпал етеді.

Жобалау әрекетінің білімдік тұрғыдағы әдістемелерден айырмашылығы сол, оның барысында білім алушылар алған білімдерін тәжірибеде пайдаланады, яғни, білім алу, жатқа білу – мақсат емес, теориялық білім жобалау әрекетін жүргізудің құрамына айналады. Сол себепті, жобалау әрекетін ұйымдастыру үшін білім мазмұны практикалық жұмысты ұйымдастыруға құрал ретінде қарастырылуы тиіс.

Пайдаланылған әдебиеттер тізімі

1. Бахишева С.М. Педагогикалық жобалау: теориясы мен технологиясы. Оқулық. -Алматы: Дәуір, 2011.-336 б.

2. Мамытбаева Ж.А. Болашақ мектепке дейінгі ұйым педагогтерінің зерттеушілік іс-әрекетін жобалап оқыту технологиясы арқылы дамыту 8D01201 - Мектепке дейінгі оқыту және тәрбиелеу. Философия докторы (PhD) дәрежесін алу үшін дайындалған диссертация. - Алматы, 2023

3. Калиева К.М., Утебаева Б.Т. Оқу - тәрбие үдерісін жобалау мұғалім іс әрекетінің құрамдас бөлігі ретінде // 232-Текст статьи-928-1-10-20220329.pdf

УДК 376.112.4

ИНКЛЮЗИВТІ БІЛІМ БЕРУ: ЗАМАНАУИ ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ТӘЖІРИБЕЛЕР МЕН ЕНГІЗУ МӘСЕЛЕЛЕРІ

Әшім Аружан Мақсұтқызы
ashimaru1507@gmail.com
Академик Е. А. Бөкетов атындағы Қарағанды университеті
педагогика факультетінің магистранты

Аңдатпа: Бұл мақалада инклюзивті білім берудің заманауи педагогикалық тәжірибелері мен оны енгізу барысында туындайтын негізгі мәселелер қарастырылады. Сондай-ақ халықаралық тәжірибе мен отандық білім беру жүйесіндегі қолданыстағы тәсілдер талдауға бағытталған. Мақалада білім беру мекемелеріндегі инфрақұрылым, педагог кадрлардың даярлығы, ата-аналар мен қоғамның көзқарасы сияқты факторлардың инклюзияға әсері сараланады.

Түйін сөздер: инклюзивті білім беру, педагогикалық тәжірибе, ерекше білім беру қажеттіліктері, мұғалімдердің дайындығы, мектеп, сауалнама, білім беру саясаты, инклюзивті орта.

Abstract

This article explores modern pedagogical practices in inclusive education and the key challenges encountered during its implementation. It also focuses on analyzing international experiences and current approaches within the national education system. The study examines factors influencing the effectiveness of inclusion, such as educational infrastructure, teacher preparedness, and the attitudes of parents and society.

Keywords: inclusive education, pedagogical practice, special educational needs, teacher preparedness, school, survey, education policy, inclusive environment.

Қазіргі таңда Қазақстан Республикасында білім беру жүйесінде үлкен өзгерістер мен жаңартулар жүріп жатыр [1]. Соның ішінде ерекше назарға алынатын бағыттардың бірі — инклюзивті білім беру. Бұл ұғым барлық балалардың, соның ішінде мүмкіндігі шектеулі балалардың, тең дәрежеде сапалы білім алуына мүмкіндік жасау дегенді білдіреді. Мәселен, дамыған елдерде инклюзия принциптері білім беру саласының негізіне айналған.

Халықаралық педагогикалық тәжірибелерге сүйенсек, инклюзивті білім беруді дамытуда мемлекет пен қоғамның тығыз серіктестігі маңызды рөл атқарады. Мәселен, Финляндияда барлық мектептерде арнайы білім беру қажеттілігі бар балаларға арналған кең көлемді қолдау жүйесі қалыптасқан. Онда педагогтер мен ата-аналар арасында үздіксіз байланыс орнатылып, әр оқушының жеке ерекшеліктеріне сәйкес бейімделген оқыту бағдарламалары әзірленеді [2].

Көптеген шетелдік мектептерде инклюзивті орта құру үшін қажетті инфрақұрылым толық қамтамасыз етілген. Атап айтқанда, пандустар, тактильді брусчаткалар, лифтілер, кең есіктер, арнайы парталар мен отыратын орындар, дыбыстық бағыттағыштар, визуалды белгілер және санитарлық тораптардағы арнайы жабдықтар – мұның бәрі ерекше білім беру қажеттілігі бар балалардың толыққанды қатысуына жағдай жасайды.

Ұлыбританияда инклюзивті білім беру жүйесі ұзақ жылдар бойы қалыптасып, қазіргі таңда мектептерде арнайы көмекші қызметкерлер, ассистенттер және кеңесшілер тұрақты жұмыс атқарады.

Мұндай тәжірибені Қазақстан жағдайына бейімдеу үшін жүйелі дайындық пен кезең-кезеңмен жоспарлау қажет. Алайда елімізде жалпы мұғалімдер саны жеткіліксіз, ал инклюзивті бағыттағы мамандар — дефектологтар, логопедтер, арнайы педагогтер — аса тапшы. Бұл мәселені шешу үшін педагогикалық гранттар санын көбейтіп, мамандандырылған оқу бағдарламаларын кеңейту маңызды. Сонымен қатар, жүйенің тұрақты дамуы үшін мемлекет тарапынан қаржылай қолдау мен жергілікті білім бөлімдерінің бақылауы керек.

Осы мақала аясында Жезқазған қаласының №8, №21 және №1 жалпы орта білім беретін мектептерінде сауалнама жүргізілді. Сауалнамаға барлығы 48 педагог қатысты, олардың басым бөлігі — пән мұғалімдері. Зерттеу барысында құрылымдалған сауалнама парағы пайдаланылды, ол жабық және жартылай ашық форматтағы 15 сұрақтан тұрды. Мысалы, сауалнамада келесі сұрақтар (Иә / Жоқ / Жартылай таныспын) қамтылды:

- «Сіз инклюзивті білім беру принциптерімен таныссыз ба?»
- «Сіздің мектепте ерекше білім беру қажеттілігі бар оқушылар оқи ма?»
- «Сіз осындай оқушылармен жұмыс істеу үшін арнайы курстан өттіңіз бе?»
- «Сабақ барысында қандай бейімдеу әдістерін қолданасыз?» (бірнеше нұсқаны таңдауға болады)
- «Сіздің мектебіңізде инклюзивті білім беру үшін қажетті жағдайлар жасалған ба?» (пандус, ресурстық кабинет, арнайы жиһаз және т.б.)

Сонымен қатар, мектеп әкімшілігімен тереңдетілген құрылымдық сұхбаттар жүргізіліп, инклюзивті білім беруді ұйымдастырудағы ішкі мүмкіндіктер мен шектеулер туралы ақпарат алынды.

Жоғарыда аталған мектептердегі сауалнама нәтижелері көрсеткендей, мұғалімдердің тек 27%-ы ғана инклюзивті оқыту әдістерін қолдануға толық дайын екенін көрсетті. Қалған қатысушылар өздерін ішінара дайын (46%) немесе мүлде дайын емес (27%) деп бағалады. Бұл жағдайдың басты себептері ретінде арнайы білімнің жеткіліксіздігі, бейімделген оқыту ресурстарының болмауы және мұғалімдердің уақыт аздығы көрсетілді. Сонымен қатар, зерттелген мектептердің шамамен 60%-ында арнайы жабдықтар (мысалы, пандус, ресурстық кабинет, көмекші техникалық құралдар) толық жабдықталмағаны белгілі болды.

Инклюзивті білім беру педагогтардан жаңа тәсілдер мен кәсіби біліктілік талап етеді. Заманауи тәжірибелерге тоқталсақ [3]:

- Дифференциацияланған оқыту – әр оқушының қабілетіне, даму деңгейіне қарай тапсырмалар беру;
- Тьюторлық қолдау – ерекше білімді қажет ететін балалармен жеке жұмыс жүргізетін педагогтар (тьюторлар) қызметі;
- Жобалық оқыту – оқушыларды біріктіріп, әлеуметтік дағдыларын дамытуға бағытталған жобалар арқылы оқыту;
- Кооперативті оқыту – бірлесе жұмыс істеу арқылы әртүрлі деңгейдегі оқушылардың өзара әрекеттесуін қамтамасыз ету.

Қазақстан жағдайында бұл әдістерді енгізу біртіндеп жүзеге асып жатыр. Мысалы, кейбір мектептерде (Назарбаев Зияткерлік мектептері, жекелеген қалалық лицейлер мен гимназиялар) инклюзивті орта құру үшін ресурстық кабинеттер, арнайы мамандар (тьютор, логопед, дефектолог) және психологиялық қызметтер жұмыс істей бастады.

Назарбаев Зияткерлік мектептерінде инклюзивті білім беру дифференциацияланған оқыту арқылы жүзеге асырылады [4]. Бұл әдіс мұғалімдердің оқушылардың жеке ерекшеліктерін ескере отырып, әртүрлі оқыту стратегияларын қолдануын көздейді. Сонымен қатар, ата-аналармен тығыз байланыс орнату арқылы балалардың даму, оқу және әлеуметтену мәселелерін бірлесе шешу мүмкіндігі қарастырылады.

Алайда, инклюзивті білім беруді енгізу барысында бірқатар күрделі мәселелер туындайды [5]. Ең алдымен, бұл – педагогтардың жеткіліксіз даярлығы, материалдық-техникалық базаның әлсіздігі, қоғамдағы түсініктің төмендігі және кадр тапшылығы. Мұғалімдердің көпшілігі арнайы курстардан өтпеген, ал мектептерде қажетті жабдықтар (пандус, арнайы жиһаз, көмекші құралдар) жиі кездеспейді. Ерекше білімді қажет ететін балаларды жалпы сыныпқа қабылдауға кей ата-аналар қарсы көзқарас танытады, ал логопед, дефектолог, тьютор сияқты мамандардың жетіспеушілігі жүйелі кедергілердің бірі болып отыр.

Жүргізілген зерттеу нәтижелеріне сүйене отырып, инклюзивті білім беруді дамыту мақсатында келесі ұсыныстар әзірленді:

- Педагогтердің кәсіби құзыреттілігін арттыру үшін инклюзивті білім беру бойынша жыл сайынғы оқыту курстары мен біліктілікті жетілдіру тренингтерін ұйымдастыру;

- Әрбір жалпы білім беретін мектепте логопед, дефектолог және қажет болған жағдайда тьютор мамандарымен қамтамасыз ету;
- Мектеп инфрақұрылымын бейімдеу және арнайы құрал-жабдықтармен жабдықтау үшін мемлекеттік деңгейде мақсатты қаржыландыру тетіктерін енгізу;
- Ата-аналармен тиімді қарым-қатынас орнату және ерекше білім беруге қажеттілігі бар балаларға психологиялық қолдау көрсету үшін мектептерде психологиялық қызметті жүйелі түрде дамыту.

Әдебиеттер тізімі:

1. Қазақстан Республикасының «Білім туралы» заңы. – Астана: ҚР Әділет министрлігі, 2007. (2023 жылғы өзгерістерімен)
2. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. – Paris: UNESCO, 2005. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000140224
3. Аймағамбетова Қ. Инклюзивті білім беру: теориясы мен практикасы. – Алматы: Қазақ университеті, 2021. – 215 б.
4. Назарбаев Зияткерлік мектептері ДББҰ. Инклюзивті білім беру саясаты. – nisa.edu.kz сайтындағы ресми құжат, 2023.
5. Сейтқазиева А.М. Мектептегі инклюзия: Педагогикалық тәсілдер мен қиындықтар. // «Білім – болашақ» журналы, №2 (19), 2023. – Б. 34–39.

TALABALAR FAOLIYATINING MUSTAQIL TA'LIM OLISHGA ERISHISHDAGI NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Vaxob Naqshbandovich Sattorov
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti,
sattorovvahob@gmail.com

Annotatsiya:
Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar ta'lim jarayonidagi mustaqil ta'limning ahamiyati, shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ko‘rib chiqiladi.

Kirish: Respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati ta’minlanishini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik va huquqiy islohotlarni yanada takomillashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash yuqori talablari ta’lim va tarbiya jarayonlariga ilg‘or texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishni, ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va modernizatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirishni taqozo qilmoqda. Bu haqiqatni jahon tajribasi va ilg‘or rivojlangan mamlakatlar tajribasi bir necha bor isbotlagan.

Mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan "Ta’lim to‘g‘risida"gi yangi qonun ta’lim sohasidagi islohotlarning asosini tashkil etadi. Ushbu hujjatda uzluksiz ta’lim tizimini yaxshilash, yuqori malakali, professional, ma’naviy-axloqiy talablar asosida kadrlar tayyorlash tizimini yaratish ko‘zda tutilgan. Ushbu tizimni joriy etish ta’lim tizimini

doimiy takomillashtirishni nazarda tutadi va bu orqali kelajak avlodni mukammal ravishda ilm asoslari bilan qurollantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Hozirda ishlab chiqilayotgan yangi qonunlar kasbiy madaniyati yuqori, ijodiy va ijtimoiy faollikka ega, mustaqil ravishda ijtimoiy-siyosiy hayotda harakat qila oladigan, kelajakka qaratilgan vazifalarni belgilab, ularni hal eta oladigan yangi avlod kadrlarini shakllantirishga qaratilgan.

Mamlakat intellektual salohiyatini oshirish — barkamol, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Ta’lim muassasasida talabaning har qanday sohada mustaqil bilim olish istagi — uning faoliyatining eng asosiy ajratuvchi xususiyati bo‘lib, mustaqil o‘qish va bilim olish asosini tashkil etadi. Ta’lim tizimida mustaqil o‘qish va nazorat qilish mustaqil ta’limning asosiy omillaridan biridir. Mustaqil bilim olishda, avvalo, talabada mustaqil ishlash, erkin harakat qilish, ijodiy fikrlash va, eng muhimi, mustaqil fikrlash ehtiyojini shakllantirish zarur. Talabaning turli fanlardan mustaqil ishlash samaradorligi, avvalo, uning shaxsiy fazilatlari, intizomi, motivatsion munosabati, xotirasi, diqqat-e’tibori, irodaviy sifati kabi omillarga bog‘liq. Ammo samarali mustaqil ishning asosiy shartlaridan biri — ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish sohasida so‘nggi yillarda ma’lum tajribalar to‘plangan bo‘lsa-da, bu sohada muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, talabaning tor yoki keng ma’noda mustaqil ta’limsiz ta’limni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish imkoniyati haqida gapirish mumkin emas. Talabalarning yuqorida ko‘rsatilgan shakllarda mustaqil ta’limini tashkil etish ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Talabalar mustaqil ta’limining asosiy maqsadi — ularni o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida yoki mustaqil ravishda belgilangan ma’lum bir o‘quv ishlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Talabalar mustaqil ta’limining bir qator vazifalari mavjud:

Rivojlantiruvchi: aqliy mehnat madaniyatini oshirish, ijodiy faoliyat bilan tanishtirish, talabalar intellektual qobiliyatlarini boyitish.

Yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi: ta’lim jarayoniga professional tezlashtirish berish.

Tarbiyaviy: mutaxassisning kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish. **Tadqiqotchi:** talabalarni professional va ijodiy tafakkurning yangi bosqichiga ko‘tarish. Talabalar mustaqil ta’limi mustaqillik, maqsadli rejalashtirish va shaxsiy faoliyatga yondashishga asoslanadi.

Talabalar mustaqil ishlaydigan maqsadlardan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: talabalar nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini tizimlashtirish va mustahkamlash;

nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish;

me’yoriy-huquqiy, ma’lumotnoma hujjatlari va maxsus adabiyotlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

bilim olish faoliyatini rivojlantirish: ijodiy tashabbuskorlik, mustaqillik, mas’uliyat va tartiblilik;

mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘zini amalga oshirish qobiliyatlarini shakllantirish;

tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Auditoriyadan tashqari mustaqil ta’lim topshiriqlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

darslik va metodik adabiyotlardan matnlarni o‘qish;

grafik ishlarni bajarish;
matndan parchalar yozish;
lug‘atlar va ma’lumotnomalar bilan ishlash;
me’yoriy hujjatlar bilan tanishish;
kompyuter texnologiyalaridan va Internetdan foydalanish.

Mustaqil ta’lim — maqsad, vazifa, ifoda shakli va natijani tekshirishga ega bo‘lgan talabalar faoliyatidir. Ilmiy fan o‘qituvchilarining vazifasi — bu turdagi faoliyatni tashkil etish va rag‘batlantirishga yordam berishdir. O‘qituvchi talabaning yoshini, shaxsiy xususiyatlarini, xotira va e’tiboriga yuklama berishni to‘g‘ri taqsimlashni inobatga olgandagina, mustaqil ta’lim olish qobiliyatini shakllantirishga erishadi.

O‘qituvchi talabalar bilan ishlaganda, talabaning quyidagi xususiyatlariga e’tibor berishi zarur:
bilim olish ehtiyoji;
Intellektual qobiliyatlar;
bilim olishga munosabati;
kitob o‘qishga qiziqishi;
xarakteri;
ma’lumotni qabul qilish qobiliyati;
til bilim darajasi;
kompyuter savodxonligi.

Manbalar:

1. Matchanov S. Umumta’lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish: Ped. fan. doktori ... dissertatsiya. - T.:TDPU. 1998. “Fan, ta’lim, ishlab chiqarish integratsiyalashuvi sharoitida paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoat, matbaa ishlab chiqarish innovatsion texnologiyalari dolzarb muammolari va ularning yechimi” TTYeSI 206 2021 yil 21-22 aprel.

2. Muslimov N.A., Quysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. Metodik qo‘llanma. Toshkent: TDPU. 2006.

3. Pirimjarov M.X. Oliy maktabda talabalarning mustakil ishlari samaradorligini oshirish.// Xalq ta’limi. 2007. №4.

4. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES, 3, 710-719. (2023)

5. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o‘qitishda inovatsialar. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES, 3, 734-745. (2023)

6. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning. vol 3 no.02. 36-41. (2022). ISSN (online): 2776-0995

7. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414.

TA’LIM MAQSADLARINI DARS JARAYONIDA ANIQLASHNING DOLZARBLIGI

Vaxob Naqshbandovich Sattorov
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti,
sattorovvahob@gmail.com

Anotatsiya: Maqolada o‘qitish maqsadlari pedagogik jarayonni tashkil etishning asosiy elementi sifatida ko‘rib chiqiladi va pedagogik jarayon maqsadni belgilashdan boshlanadi.

Kirish: O‘qituvchi har bir mavzu va dars uchun ta’limiy maqsadni belgilab olishi zarur. Bu dars jarayonining sifatli o‘tishini ta’minlaydi. Ta’lim maqsadlari pedagogik jarayonni tashkil etuvchi komponentlarning eng muhim va yetakchisi sifatida qaraladi. Pedagogik jarayon, u qanchalik murakkab va uzoq davom etmasin, avvalo maqsadni aniqlashdan boshlanadi. Pedagogik jarayonning boshqa tashkil etuvchi qismlari (tamoyillar, mazmun, uslub, vosita, shakl) belgilangan maqsadga bo‘ysunadi, ular maqsadga muvofiq tanlanadi va o‘zaro uyg‘unlashtiriladi. Pedagogik maqsad — o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyatining natijalarini oldindan taxmin qilishdir. An’anaviy didaktikada ham ko‘plab olimlar (Babanskiy Yu.K., Bezrukova V.S., Galperin P.D., Lerner I.Ya., Krayevskiy V.V., Mahmutov M.I., Talizina N.F. va boshqalar) ta’lim maqsadlarini belgilash usullari, ularning aniq ifodalash shakllari va bu masalalar bo‘yicha ma’lum ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Xususan, zamonaviy darsda ta’lim maqsadlarini aniqlash va ularga erishish yo‘llari haqida ma’lum nazariy va amaliy ma’lumotlar mavjud. Biroq, pedagogik texnologiyalarning tarafdorlari an’anaviy ta’lim jarayonini, ya’ni ta’lim maqsadlarining juda noaniq belgilanishini va ularni o‘lchab bo‘lmasligini keskin tanqid qilganlar.

Darhaqiqat, o‘qituvchi (maktab) nima maqsadga erishishni xohlaydi? Birinchi qarashda bu savolga javob berish osondek ko‘rinadi. Biror fan yoki uning bo‘limini o‘qitishda o‘qituvchi o‘z oldiga maqsad qilib, uni o‘quvchilarga tushuntirishni, uning mazmunini o‘rganishni va natijada o‘quvchilarni uni amalda qo‘llashga erishishni qo‘yadi. Ammo "tushunish", "egallash", "bilish", "qo‘llash" degan nima? O‘qituvchi qanday qilib belgilangan maqsadning erishilganligini aniqlay oladi? Agar talaba belgilangan maqsadga erishganligini aniqlashning bir usuli bo‘lsa, o‘qituvchi ishlatilgan metodlarning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishi mumkin edi. An’anaviy pedagogikadagi bu vaziyatga tanqidiy yondashish bir zumda o‘zgara olmaydi, chunki ta’lim muassasasi (va o‘qituvchi) jamiyatdan juda umumlashgan tarzda talablar oladi. Shuning uchun, jamiyat ta’lim tizimiga umumiy talab qo‘yganligi sababli, ta’lim muassasasining oldiga qo‘yilgan vazifalar, shuningdek, fanlarning dasturlaridagi ta’lim maqsadlari ham umumiy tarzda bayon etilgan. Ta’lim standartlarining qabul qilinishi natijasida, bizning mamlakatimizda davomiy ta’lim tizimining barcha sohalari uchun umumlashgan talablarni aks ettiruvchi, o‘qitilayotgan mutaxassislar uchun tayyorgarlik maqsadlarining aniqlanishi ta’minlandi.

Biz ta’lim maqsadlarini fan (kurs) va uning bo‘limlari darajasida aniqlash bilan cheklanyapmiz, bu esa ilmning maqsad va vazifasiga bog‘liq. Chunki ta’lim jarayonini

texnologik tarzda loyihalash aynan shu nuqtada bevosita ko‘rinadi. Va aynan shu darajada o‘qituvchi, ilm va uning bo‘limlarini ishlayotgan holda, ta’lim maqsadlarini aniqlaydi va ta’lim jarayonini ularning asosida tashkil etadi. Endi, an’anaviy ta’lim maqsadlarini aniqlash usullari haqida gapiraylik, ular pedagogik amaliyotda mustahkam o‘rnashgan: Maqsadlarni o‘rganish materialining mazmuni orqali aniqlash. Boshqacha aytganda, bunday ta’lim maqsadlari ta’lim jarayonini tashkil etishning amaliy (amalga oshiruvchi) qismiga aylana olmaydi. Shu sababli, pedagogik texnologiya tarafdorlari bunday ta’lim maqsadlarini tanqid qilganlar, chunki ular juda noaniq deb hisoblanadi. Ta’lim maqsadlarini o‘qituvchining faoliyati orqali aniqlash. O‘qituvchi o‘quv maqsadlarini erishilgan natijaga taqqoslash imkoniyatisiz faoliyat yuritadi, chunki ta’lim maqsadlari shu tarzda aniqlanganda, erishilishi kerak bo‘lgan natija o‘ziga xos ravishda ifodalanmagan deb qaraladi. Ta’lim maqsadlarini o‘quvchining ichki rivojlanish jarayonlari orqali aniqlash, aqliy va hissiy sohalarda. Bunday akademik maqsadlar akademik fan yoki ilm tsikli darajasida umumiy maqsadlarni ifodalaydi, ammo ular hatto bir dars yoki ma’ruza seriyasining maqsadlarini ham aks ettirmaydi. Pedagogik texnologiya tarafdorlari bunday maqsadlarni to‘liq inkor etadilar. Haqiqatan ham, bu maqsadlarning erishilganiga ishonish yoki hatto bunday maqsadlarga yaqinlashilganini aniqlash biror darsda amalga oshirilishi mumkinmi? Bu usul maqsadga erishish yo‘llari haqida o‘ylashni imkonsiz qiladi, chunki ular juda "jarayonli" shaklda ifodalanadi.

Bizning fikrimizcha, bu usul butunlay samarasiz emas, faqat maqsadlarni jiddiy ravishda aniqlash zarur. Bu yerda ham pedagogik texnologiya doirasida yaratilgan maqsadlarni aniqlash usullari yordam beradi (D. Kratval-hissiy soha). Pedagogik texnologiya tarafdorlari tomonidan taklif qilingan ta’lim maqsadlarini aniqlash usuli shuni anglatadiki, maqsadlar aniq ravishda ifodalangan, o‘quvchining ishonchli o‘lchovlari va harakatlari orqali namoyon bo‘ladi, ular tashqi tomondan kuzatilishi mumkin va ular ta’lim natijalari orqali shakllanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi yoki mutaxassis bu o‘quvchilarning harakatlarini aniq kuzatish va baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Albatta, bu samarali g‘oya dastlab ko‘plab qarshiliklarga uchragan.

Ta’lim natijasini o‘quvchining harakatlariga qanday ko‘chirish mumkin? Bu ko‘chirishda aniq ma’noni qanday saqlab qolish mumkin? Bunday muammolar asosan quyidagi ikki turdagi usullar bilan hal qilinadi: Ta’lim maqsadlari tizimini yaratish zarur, bu tizimda ta’lim maqsadlarining kategoriyalari va darajalari ketma-ketligi aniq belgilangan bo‘ladi. Bunday ta’lim maqsadlari tizimi pedagogik taksonomiya deb ataladi. Ta’lim maqsadlarini ifodalash uchun aniq va tushunarli tilni topish zarur, bunda o‘qituvchi ushbu til orqali maqsadlarni aniq tasavvur qilishi kerak. Shuning uchun ta’lim maqsadlarining yuqorida aytib o‘tilgan aniqligi ta’lim texnologiyasining birinchi va eng muhim jihatlaridan biri sifatida qaraladi, bu odatiy o‘qitish usullaridan prinsipial ravishda farq qiladi.

Manbalar:

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". O‘quv qo‘llanma. T.:, 2013.

2. N. Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.

3. Will personalized e-learning increase deep learning in higher education? S. Manzanares, M. C. Garcia Osorio, C. I. Diez Pastor, J. F. Martin Anton. Information Discovery and Delivery. 47 (1) 53-63 sahifalar.

4. Sattorov V. N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES, 3, 710-719. (2023)

5. Sattorov V. N (2023). Umumiy pedagogika fanini o‘qitishda inovatsialar. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES, 3, 734-745 (2023)

6. Sattorov V. N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995

7. Sattorov V. N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414.

УДК 3

ФАКТОРЫ РИСКА ОБРАЗА ЖИЗНИ ДЕТЕЙ ГРУППЫ РИСКА И ИХ ОТНОШЕНИЕ К ЗДОРОВОМУ ОБРАЗУ ЖИЗНИ

Исраилова Нодира Ачилбаевна,
Республиканский центр социальной адаптации детей,
руководитель отдела по изучению проблем детей групп социального и правового риска, кандидат философских наук

Аннотация. В статье на основе теоретического анализа и эмпирического исследования рассматриваются факторы риска образа жизни детей группы риска и продемонстрировано их отношение к здоровому образу жизни.

Ключевые слова: дети группы риска, факторы риска, здоровы образ жизни, вредные привычки, адаптация, реабилитация.

Abstract. In the article, based on theoretical analysis and empirical research, the risk factors of the lifestyle of children at risk are examined and their relationship to a healthy lifestyle is demonstrated.

Keywords children at risk, risk factors, healthy lifestyle, bad habits, adaptation, rehabilitation.

Постановка и актуальность проблемы. Тематика поведенческих факторов риска среди детей и проблемы формирования готовности детей группы риска к ведению здорового образа жизни - одна из самых актуальных и дискутируемых проблем в психолого-педагогических и медицинских исследованиях. Значительный вклад в развитии общетеоретических подходов формирования здорового образа жизни детей и подростков внесли О.М. Мусурманова, О.Р. Жамолдинова, К.Рискулова, Л.Р.Муминова, Ф.Э.Газиева, М.Х.Карамян, Н.Р.Капустина, Л.П.Матвеева, М.А.Ермакова, Н.В.Сократов, Т.И. Меерзон, Е.Е. Лутовина И.Ю.Кокаева и др. Влияние негативных факторов риска

образа жизни на проявление различных форм девиантного, рискового поведения были объектами внимания Г.М.Насыбуллиной, А.А.Ганичева, В.А. Кабачковой, В.А.Куренцовой, А.Р.Якобовской, В.К.Петровой, Л.Б.Шнейдер, Е.В.Змановской, Г.Б.Худояровой, Д.Д. Шариповой, Н.К.Светличной и др. В названных исследованиях формирование здорового образа жизни рассматривалось в дискурсе воспитания у детей ценностного отношения к здоровью и здоровому образу жизни, распространённости поведенческих факторов риска образа жизни среди детей и предложены комплексные мероприятия по повышению уровня культуры их безопасного поведения и развития у них здравотворческих знаний, умений и навыков и др. Совокупность усвоенных знаний, умений, навыков, обеспечивающих формирование у детей общекультурных и личностных компетенций**,** необходимых для успешного формирования у них здорового и безопасного образа жизни является сущностью здорового образа жизни. Поэтому ***здоровой образ жизни*** **-** это показатель общей культуры человека, который способствует развитию *валеологической, нравственной, правовой, исследовательской и информационной культур* [8] и предполагает высокий уровень *гигиенической культуры* [9]**,** которая свидетельствует о том, что человек принял и освоил нравственные нормы, существующие в обществе, он готов следить за своим здоровьем, пропагандировать своим поведением здоровый образ жизни и способен приносить пользу обществу [4]. Потому здоровый образ жизни является индикатором социального благополучия общества и результатом успешной социализации и адаптации человека в общество. Принято считать, что нарушение процесса социализации и адаптации детей группы риска является следствием проявления у них социально вредных черт, которые вытекают из нездорового образа жизни в результате чего у них формируются различные формы рискового поведения [1]. Для этих детей характерны такие деструктивные ***факторы риска образа жизни*** как курение [5;7]; употребление алкоголя, нерациональное питание, отсутствие физической активности, не соблюдение режима сна [6], правил личной гигиены, гиподинамия [10], наркомания [2]. Вследствие этого они имеют хронические заболевания, сниженную самооценку здоровья, которую подростки наиболее часто связывают именно с потреблением ПАВ[11]. В числе неблагоприятных факторов риска в формировании здорового образа жизни также отмечают преобладание в бюджете времени детей различного рода развлечений (телевизор, Интернет) не связанных с двигательной активностью [3]. Потому вектор работы с детьми группы риска должен быть направлен на снижение факторов риска образа жизни путем формирования у них представлений о здоровом образе жизни, что ***актуализирует*** изучение факторов риска образа жизни детей группы риска и их отношение к здоровому образу жизни, что и явилось ***целью*** нашего исследования.

Методы и результаты исследования. Было проведено исследование методом анкетирования на основе авторского вопросника «Здоровый образ жизни», который состоит из 42 вопросов. В соответствии с целями исследования результаты опроса детей группы риска будут фрагментарно представлены в данной статье. В исследовании приняло участие 213 детей группы риска (воспитанники республиканских учебно-воспитательных учреждений городов

Бахта, Чиназа), из них 93 мужского пола и 120 - женского, возраст участников составляет от 13 до 17 лет. Результаты опросов показали, что среди опрошенных детей 29,6% не занимаются и не считают нужным заниматься закаливаем своего организма. 11,7% опрошенных не считают важным условием здорового образа жизни соблюдение личной гигиены. 15% респондентов полагают, что пользование компьютером и Интернетом не влияет на состояние здоровья, однако 49% от опрошенных указывают, что *«Если сидеть за компьютером слишком долго»* состояние здоровья может ухудшиться. К тому же необходимо отметить, что 29% респондентов не считают питание составной частью здорового образа жизни и 46,5% от опрошенных на вопрос *«Что такое здоровье?»* затруднились ответить. На вопрос *«Курите ли Вы?»* 55,1% от опрошенных подтвердили об употреблении ими табачных изделий, а в числе причин употребления их, 31% респондентов отметили *«Влияние друзей*», 22% указали, что *«От нечего делать».* При этом 15% подростков подчеркнули, что это - *«Любопытство»,* а 11% от опрошенных считают, что это *«Модно»*. К тому же 10% респондентов аргументировали желанием *«Казаться взрослым, независимым»,* а 9% указывают на *«Пример родителей»* и у 2% респондентов это реакция на стресс. При этом важно отметить, что на вопрос *«Считаете ли Вы, что стоит отказаться от курения, чтобы быть здоровым?»,* 41% из них ответили *«Нет»,* а 11 % от опрошенных затруднились ответить. Необходимо обратить внимание на тот факт, что опасность курения имеет высокую корреляцию с использованием подростками других препаратов, например, алкоголя. А последствия употребления алкоголя также по аналогии переносится на последствия от употребления наркотиков, формируя установку. Так, на вопрос *«Считаете ли Вы, что употребление спиртных напитков опасно для здоровья?»,* 45% от опрошенных ответили *«Нет»,* а 8,5% затруднились ответить. Причем на вопрос: *«Существует ли опасность при употреблении таблеток и других химических веществ?»* 32,4% респондентов ответили *«Нет»,* 31% отпрошенных указали, что их вообще не интересует проблема наркомании среди молодежи, а 19% указали, что не знакомы с этой проблемой. На вопросы *«Каково Ваше мнение о своем здоровье?» и «Какой образ жизни является привлекательным?»* 53,1% и 68% соответственно от опрошенных респондентов ответили *«О нем надо заботиться, но я этим не занимаюсь» и «Тот, который они ведут, пусть даже нездоровый».*

Итак, на основании проведенного анализа научной литературы и анкетного опроса детей можно сделать выводы, что группы дети группы риска характеризуются несформированностью навыков ведения здорового образа жизни, у них отсутствуют позитивные установки в отношении своего здоровья. Анализируя полученные результаты ответов детей группы риска, необходимо отметить, что в силу совокупности негативных факторов риска образа жизни, они требуют целенаправленной воспитательно-профилактической работы по формированию у них ценностного отношения к здоровью и мотивационных установок на здоровый образ жизни.

Литература:

1. Балашова Г. Е. Формирование здорового образа жизни при работе с детьми «группы риска» в образовательном учреждении ДОД. - // https://urok.1sept.ru/articles/571384.

2. Газиева Ф.Э. Мапктаб ўқувчиларида зарарли одатлар бартараф этишнининг психологик механизмлари. - Журнал “Мактаб ва ҳаёт”, №1, 2015. -16-19 с.

3. Ганичев А.А. Теоретические аспекты формирования отношения школьников к здоровому образу жизни. Ярославский педагогический вестник. – 2013. - №2 – ТомII (Психолого-педагогические науки). - С. 9.

4. Губанова Н.Ф. Формирование культуры поведения и гигиены личности. – с. 463 -464 // Инновационная деятельность в образовании: Материалы XIX Международной научно-практической конференции / Сборник научно-методических статей под общей редакцией Г.П. Новиковой. – Ярославль Москва: Канцлер, 2025. – 636 с.

5.Капустина Н.Р., Матвеева Л.П. Курение в образе жизни детей и подростков. - Вятский медицинский вестник, № 1(65), 2020. – 81-83 с.

6. Киёк О.В., Кучма В.Р., Круподер А.С., Жукова Т.В. Распространённость факторов риска образа жизни среди студентов средних профессиональных образовательных учреждений. – Здоровье населения и среда обитания. –Том 31, №6, 2023. – С. 37.

7. Кожевникова Т.Н., Геппе Н.А., Османов И.М., Герасименко Н.Ф., Машукова Н.Г., Ильенкова Н.А., Малахов А.Б., Чепурная М.М., Одинаева Н.Д., Саввина Н.В. Проблема табакокурения подростков: вчера, сегодня, завтра. Педиатрия. Consilium Medicum. 2021; 2: 101–108. DOI: 10.26442/26586630.2021.2.200994.

8. Кокаева И.Ю. Современные подходы к формированию здорового образа жизни обучающихся. – Экономические и гуманитарные исследования регионов. - №2, 2016. – С. 51.

9. Меерзон Т.И., Лутовина Е.Е. Медико-педагогическое просвещение родителей как компонент здоровьесбережения школьников //Концепт. – 2014. С.2 – Спецвыпуск № 26. – URL: http: //e-koncept.ru/2014/14805.htm.-Гос.рег.Эл. № ФС 77-49965.-ISSN 2304-120X.

10. Медведева Н. Ю., Гунина С. В., Уртенова А. Ю. Вклад отдельных факторов образа жизни в формирование состояния здоровья современных школьников. – Российский вестник гигиены. - №1, 2023. – С.18.

11. Насыбуллина Г. М. Распространенность поведенческих факторов риска среди детей и задачи по формированию здорового образа жизни / Г. М. Насыбуллина, Л. Л. Липанова. - Текст: электронный // I Уральский конгресс по формированию здорового образа жизни: Материалы, под ред. д.м.н., к.э.н. В. Г. Климина, д.м.н. Г. М. Насыбуллиной. Екатеринбург, 2009. – С. 30,31. - http://elib.usma.ru/handle/usma/19532.

HARAKAT FAOLLIGIGA ERISHISHDA “MILLIY HARAKATLI O‘YINLAR”NING AHAMIYATI

Alimboeva Roziya Davulovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti,

Annotatsiya: harakat faolligiga erishishda“Milliy harakatli o‘yinlar”ning ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.Tarixiy va hozirgi davrdagi o‘rni taqqoslanishi uning avlodlarimizni rivojlanishiga jismoniy harakatlariga ta’sirini ijobiy ko‘rinishlarini keltirib o‘tilgan. Shuningdek hayoti ehtiyojlarni ta’minlashga birinchi bo‘lib ta’sir etishi, jismoniy sifatlarni,kuchlilik, mardlik, adolat, merganlik, qiyinchiliklarga bardoshlik, epchillik, tezkorlik kabi fazilatlar orqali talqin etilgan shu jumladan o‘yinlardan misollar keltirilgan.

Annotation: Information is provided on the importance of "National Active Games" in achieving physical activity. A comparison of their historical and contemporary role is presented, along with their positive impact on the development of our generations and their physical activity. It also explains the primary impact of life on meeting needs, and physical qualities such as strength, courage, justice, marksmanship, endurance, dexterity, and agility are explained through virtues, including examples from games.

Kalit so‘zlar: milliy, harakat, o‘yinlar, jismoniy sifatlar, kuchlilik, mardlik, adolat, merganlik, qiyinchiliklarga bardoshlik, epchillik, tezkorlik kabi fazilatlar, aqliy, axloqiy, mehnat, nafosat, etika-estetika, ma’naviy- qadriyatlar, arqon tortish, sopqon, lanka, qo‘z boylash, bekinmochoq, besh tosh va boshqalar...

Key words: national, movement, games, physical qualities, strength, courage, justice, marksmanship, endurance to difficulties, dexterity, speed, intellectual, moral, labor, refinement, ethics-aesthetics, spiritual-values, tug-of-war, sapkan, lanka, sheep breeding, hide-and-seek, five stones and others...

Inson hayoti davomida doimiy harakatda yashaydi. Jismoniy sifatlar esa harakatlarning takomillashuvi orqali kutilgan tetiklik va salomatlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Harakat faolligiga erishishda “Milliy harakatli uyinlar”ning ahamiyati haqida ma’lumotlarni tahlil etsak tarixga murojaat etamiz. Tarixdan ma’lumki jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish hayoti extiyojlarni ta’minlashga birinchi bo‘lib ta’sir etgan.insoniyat o‘zini yashashi uchun ozuqa topishi, ov qilishi, uy- joy tayyorlashi, o‘zini himoya qilishi va boshqa jarayonlarida ko‘rishimiz mumkin. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan: dostonlar, ertaklar, maqollar, rivoyat va afsonalarda yaqqol bayon etilganligini bilishimiz ham ma’lum bo‘lib, kuchlilik, mardlik, adolat, merganlik, qiyinchiliklarga bardoshlik, epchillik, tezkorlik kabi fazilatlar orqali talqin etilgan.

Ulug‘ allomalarning bizga qoldirgan, ilmiy-nazariy, badiiy, noddiy-madaniy meroslaridan jismoniy tarbiyaning ilmiy asoslari bilan bir qatorda hayotga tadbiq etish tajribalari ham qimmatli ma’rifiy ahamiyat kasb etadi. Ularni o‘rganish hozirgi davr yoshlarini jismoniy va ma’naviy barkamol insonlarga aylantiradi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ilmiy asosda tashkil etilganda yoshlarning aqliy, axloqiy, mehnat, nafosat, etika-estetika, ma’naviy- qadriyatlar va urf-odatlarimizning avloddan -avlodga o‘tib

kelayotganini tasdiqlash asosidir. Insonlar o‘rtasidagi odamiylik fazilatlardan do‘stlik, tinchlik vositasi hamdir. Hamkorlikdagi munosabatlardan ham uzviy bog‘liqlik yoshlarning jismoniy kamolotlarini takomillashtiradi. Bu o‘z navbatida jamiyatimiz a’zolarini har taraflama ulg‘aygan, komil insonlar bo‘lib yetishishlari uchun xizmat qiladi.

Yoshlarning jismoniy tarbiya va sport o‘yinlariga bo‘lgan qiziqishlari hisobga olinib, mustaqil jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari doimiy ish faoliyatini olib bormoqda. Harakat faolligiga erishishda “Milliy harakatli o‘yinlar”ning ahamiyati tushunchasi bu barcha sportga qiziquvchi yoshlarning harakat sifatlarini har tomonlama rivojlanganlik darajasini anglatadi. O‘yinlar o‘zining hammabopligi (universalligi), ko‘p funk-sionalligi va keng ta’sirchanligi bilan xilma-xil toifalarga bo‘linadi. Jumladan, jismoniy sifatlarni, nuqtani, talaffuzni, merganlikni, tadbirkorlikni, hisobni va hokazo xislatlarni rivojlantiruvchi o‘yinlari shular jumlasiga kiradi. Lekin, qanday o‘yin bo‘lmasin, unda harakat elementi yoki harakatlar majmuasi mavjud bo‘ladi.

Harakatli o‘inlari o‘z mazmuni va mohiyati jihatidan sport o‘yinlaridan tubdan farq qiladi. Harakatli o‘yinlar sport o‘yinlari kabi maxsus tayyorgarlik, muayyan musobaqa qoidasi, sport kiyimi, muddati, maydoni, ishtirokchilar tarkibi kabi aniq chegaragalangan me’yoriy omillarni talab qilmaydi. Faqat bittagina harakatli o‘yinni turli joyda, vaqt davomida, kiyimda, tarkibda (soni jihatidan) o‘ynash mumkin

Eng muhimi harakatli o‘yin davomida kuzatiladigan erkin va ixtiyoriy harakatlanishlar (nostandart harakat yo‘nalishi, qichqiriq, xushchaqchaqlik va hokazo) ijobiy emotsional holatni (reaksiyasini) yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham bunday harakatli o‘yinlarni xalq o‘yinlari deb ataymiz.

Harakatli o‘yinlar, shu jumladan xalq milliy o‘yinlari noyob qadriyat sifatida faqatgina mamlakatimiz o‘z mustaqilligiga erishgandan keyingina qayta tiklanib, hozirgi kunda aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida keng va jadal ommalashib bormoqda. Xalq harakatli o‘yinlar ilmiy izlanuvchilarning ob’ekt sifatida tadqiqotchi olimlar e’tiborida bo‘lib qadimgi ota -bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan o‘yinlarimizni xalq ommasiga yana bir bor eslatish va targ‘ib etishni maqsad etadi.

Harakatli o‘yinlar shug‘ullanuvchilarda o‘zgacha zavq-shavq bilan shijoatda qiziqarli o‘tadi.

1. Yoshlarning jismoniy barkamolligi, salomatligini yaxshilanishiga, chiniqishiga, tana a’zolari va umumiy ish qobiliyatining o‘sishita yordam berish;

2. Erkin harakat qila olish imkonini bera oladigan bilimlar va hayotiy zarur harakat malakalarini shakllantirish;

3. Ruhiy, aqliy, kasbiy va irodaviy sifatlarni rivojlantirish;

4. Umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalash;

5. Mardlik, kuchlilik, topqirlik, zukkolik, tezkorlik, do‘stlik, birdamlik jismoniy va psixologik xususiyatlarni yanada rivojlantirisho‘ga xissa qo‘shadi. Harakatli o‘yinlarni o‘tkazish ishtirokchi jamoalarda uyin faoliyati yordami bilan diqqat va epchillikni rivojlantirish.

“Arqon tortish” milliy harakatli o‘yini

O‘yinda ikki jamoa ishtirok etadi. Xar jamoa10- 15 kishidan bir necha jamoa bo‘lib qatnashadi. Maydon markazidan chiziq chizilib xar bir jamoa belgilangan chiziqda arqonni ushlagan holda turadi. Saf boshidagi ikki tomon o‘yinchilari sardori boshida ushlaydilar. Aniq signaldan keyin tortilish boshlanadi. Saf boshidagi o‘yinchi chiziqdan

qisman yoki to‘la raqib tamonga o‘tib ketsa, o‘sha jamoa mag‘lub xisoblanadi. Jamoa o‘yinchilarining umumiy soni bir-biriga teng bo‘lishi lozim. Maydon tekis bo‘lishi talab etiladi. Ishtirokchilar saralab olinadi.

“Sopqon” o‘yini

Bu o‘yin xalqimizning jang quroli bo‘lib xam hisoblanadi. Sopqon bilan ov qilganlar, o‘zlarini ximoya qilganlar, qishloq xo‘jalik ekinlarini qo‘riqlaganlar, jang va musobaqalarda qatnashganlar. Sopqon yasash uchun ko‘rsatmalar: sopqonning tosh soladigan qismi yigirilgan jun ipdan to‘qilgan bo‘ladi. Uning ikki bog‘ichi bo‘lib, tosh kosasiga maxkamlanadi. Iplarninng bir uchi xalqali bo‘ladi. Choponninng bir uchi o‘rta barmoqqa mahkam solib qo‘yiladi, ikkinchisi o‘sha qo‘l bilan kesib ushlab olinadi.Tosh kosaga solinib, qo‘lga moslashtirilib ushlab olingach, bosh ustida aylantirilib kerakli mo‘ljalga otiladi, ya’ni qisilgan qo‘l ochiladi. Sopqonning iplari bir m. dan bo‘ladi. Tosh 200 g. Sektor 45%. O‘yinchilar raxbar signalidan so‘ng navbat bilan sopqonni otadilar. Qaysi o‘yinchi uzoq masofaga sopqonni otsa u g‘olib xisoblanadi.

“**Lanka” o‘yini**

O‘yin mazmuni: o‘yinchilar teng ikkiga bo‘linadi, raxbarni signali bilan birinchi jamoa o‘yinchilari birin-ketin navbat bilan bittadan o‘rtaga chiqib doiradan chiqib ketmangan xolda bir oyoqda lanka yerga tushib ketguncha yuqoriga tepib turadi. Lanka yerga tushsa yoki o‘yinchi doiradan chiqib ketsa, o‘yin to‘xtatiladi, navbat keyingi o‘yinchiga beriladi.Ikki jamoa o‘yinchilari o‘rtaga navbat bilan chiqadilar. Birinchi jamoadan so‘ng jamoalar o‘yinchilari tepgan lankalar soni alohida sanab qo‘shiladi. Qaysi jamoa ko‘p lanka tepgan bo‘lsa shu jamoa g‘olib xisoblanadi**.**

O‘yin qoidasi: doirani bosib chiqib ketishlari mumkin emas. Lankani ilib olish mumkin emas.

“Besh tosh” o‘yini

O‘yin mazmuni: chaqqon va tezkor qizlar 7-10 ta yoki undan ortiq ishtirok etadi. Xakam o‘yini boshlaydi va ishtirokchi qizlar ketma-ket toshlari bilan qatnashadilar. O‘yindagi ketma-ketlikdagi bosqichlarni o‘yin davomida egallashi lozim bo‘ladi egallay olmagan ishtirokchilar o‘yindan chiqadi. Eng diffatli ishtirokchi g‘olib bo‘ladi.

“Eshak mindi” o‘yini.

O‘yin mazmuni: o‘yinda yigitlar ishtirok etdi. O‘yinda yigitlarning chaqqon, kuchli, tezkorliklari ma’lumlari saralab olinib ma’lum masofaga birgalashib yetib borishligi kerak bo‘ladi. Bunda jamoalarga ajratilib , belgilangan masofaga qaysi jamoa talabni bajarib birinchi yetib borsa shu jamoa g‘olib bo‘ladi. Milliy o‘yinlarimizdan yana ko‘plari ma’lum va “Quloq cho‘zma”, “Ko‘z boylash”, Tosh soldi”, “Oq suyak”, “Bekinmachoq”, “Oq suyak” va boshqa ko‘pgina o‘yinlarimizni keltirishimiz mumkin.bundan tashqari xalq orasida polvon botir, baquvvat yigitlardan iborat jamoa orasida o‘tkaziladigan chavondozlarishtirokidagi o‘yinlar “Poyga”, “Uloq” kabi milliy o‘yinlarimiz sport turiga ham aylanib ulgurmoqda. Milliy o‘yinlarimiz yoshlarni jismonan kuchli bo‘lishga davat etadigan sport vositalaridir.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining ilmiy asoslarda tashkil etilishi jamiyatimizning barcha a’zolarini sog‘lom, faol, g‘ayrat shijoatli bo‘lishlariga ta’sir etish bilan birga professional sportchilar bo‘lishini, O‘zbekistonni dunyoga tanitishga hissa qo‘shishini amalga oshiradi. kelajakdagi jismoniy tarbiya o‘qituvchisi sifatidagi faoliyatimizda

shubhasiz foyda berishiga umid qilamiz. Mavzuning mohiyatiga chuqurroq kirib borganimiz sayin hali tadqiq etilishi zarur bo‘lgan jihatlari ko‘p ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Sh.Mirziyoev. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shahsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi zarur” 2017 yil.
2. Karimov I.A. Sog‘lom xalq, sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi Xalq so‘zi. – Toshkent: 2004 (8.12.2004 y.).
3. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi” 2017 yil 10 fevral.
4. Aminov V. Sog‘lom turmush tarzi – inson omilini kuchaytirish garovi. – T.: Tibbiyot, 1999, o‘quv qo‘llanma
5. K.M. Maxkamdjonov, X. Tulenova. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Ma’ruzalar matni TDPU, 2001-2002 yy.

SPORT TO‘GARAKLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Tulenova Xolida Bekturganovna
S.Sayfullin nomidagi Qozoq agrotexnika universiteti
“Jismoniy tarbiya” kafedrasi PhD.Doktor
Alimboeva Roziya Davulovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti,

Annotatsiya: sport to‘garaklarni tashkil etish va mashg‘ulotlarni rejali amalga oshirish, ish faoliyat davomida musobaqalar o‘tkazish va tahlil qilish metodikasi haqida umumiy ma’lumotlar berilgan; shuningdek ommaviy sport o‘yinlar ya’ni futbol, voleybol, gandbol, basketbol va boshqa turlarda ularda ishtirok etuvchi yoshlarni yanada to‘garaklarga jalb etish kelajakdagi hayotiy jarayonlarda sog‘lom turmush tarzini mustaxkamlashga xissa qo‘shadigan jismoniy vosita ekanligini tushunib yetib va salomatligini mustaxkamlashdagi ahamiyatini chuqur bilib olishni ma’lum etishga yo‘llamalar berish haqida ham fikrlar bildirilgan.

Annotation: General information is provided on the organization of sports clubs and the planned implementation of training sessions, as well as the methodology for conducting competitions and analyzing work activities; Also, suggestions were expressed about attracting more young people participating in mass sports games, such as football, volleyball, handball, basketball and other types, to clubs, understanding that physical activity is a physical means that contributes to strengthening a healthy lifestyle in future life processes, and providing guidance to help them understand its importance in strengthening their health.

Kalit so‘zlar: texnik, taktik, harakat, dastur, ish reja, jismoniy rivojlanish, xarakat, moslashuv, chaqqonlik, egiluvchanlik, tezlik,chidamlilik, sifat, usullar, vositalar, buyumlar, ommaviy- madaniy, tarbiyaviy, umumiy, reja va boshqalar.

Key words: technical, tactical, movement, program, work plan, physical development, movement, adaptation, agility, flexibility, speed, endurance, quality, methods, tools, objects, mass-cultural, educational, general, plan, etc.

Vatanimiz yoshlarini va xalqimiz salomatligni mustahkamlash uchun, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish oilalar salomatligi ta’minlash uchun barcha sohalar, ta’lim va mahalalar aholini jismonan chiniqtirishga barcha tadbirlarni ketma-ket amalga oshirib kelinmoqdalar. Yurtboshimiz rahnamoligida tasdiqlanayotgan jismoniy tarbiya va sport sohasiga e’tiborli barcha qaror va farmonlar xalq salomatligi uchun sportni rivojlantirish yoppasiga sportning barcha turlari bilan shug‘ullanishga chorlaydi.6-yoshdan 60 yoshgacha shiori bilan sport bilan chiniqamiz shiori bilan barcha aholining katta va kichigi o‘z salomatligi uchun shug‘ullanishni bolab yubordilar. Ertalabki badan tarbiyalar va kech vaqtlarda kechki yugurish va yurish bilan hamma shug‘ullanmoqda. Joylarda, mahallalarda alohida sport shaharchalari barpo etilishi hamda biliy o‘yinlarga moslashtirilgan maydonchalarni ham qurilishi mahalla aholisini quvontirmoqda. Xullas yurtimizda jismoniy tarbiya va sport ishlar juda tezlikda faol ishlamoqda.

Yoshlarni sport turlari bo‘yicha to‘garaklarga jalb etish ularning o‘z jismoniy qobiliyatlarini bilgan holda sport to‘garaklarga saralab olish va sport turilarni barcha texnik va taktik harakatlari bilan shug‘ullanuvchilarni bo‘sh vaqtini mazmunli, to‘g‘ri tashkil etish, sportga qiziqishlarini ortirish, ularni jismoniy sifatlarini mustahkamlab o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishishga bir- birlari bilan hamjixat va do‘stona munosabatda bo‘lishga, shuningdek barcha sport turlari bo‘yicha bo‘lajak sportchini tayyorlash maqsadida to‘garaklarni tashkil etib o‘tkazish boriladi. Sport to‘garaklari asosiy ish shakli musobaqalarda qatnashish guruhlardagi o‘quv- mashq mashg‘ulotlar hisoblanadi. Murabbiy shugullanuvchilar bilan texnik, taktik usullar va jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirib boradi. Mashgulotlarda shug‘ullanuvchilarni yoshini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Mashgulotlar ommaviy- madaniy va tarbyaiy ishlarning umumiy rejasi bilan mos ravishda amalga oshiriladi. Guruhlarda mashgulotlar dastur va ish reja asosida tashkil etiladi. Dastlabki tayyorlov bosqichida guruhlarida o‘quv jarayoni uchta davrga bulinadi: tayyorgarlik, musobakalashish, utish davri.

Tayyorgarlik davri jaryonida ikki bosqichga bo‘linadi.

1-umumiy tayyorgarlik (shugullanuvchilarning xar tomonlama jismoniy tayyorgarligi, jismoniy va irodaviy sifatlarini tarbyalash, "Alpomish va Barchinoy" test sinovlarini topshirishga tayyorlash, texnik va taktik tayyorgarlik)

2-maxsus tayyorgarlik deganda- sport turi uchun zarur bulgan jismoniy sifatni, texnik va taktik tayorgarligini rivojlantirish, musobaka oldidan tayyorgarlik kurish, keyinchalik sportni maxsus sifatlarini rivojlantirish bulajak musobakalarga tayyorgarlik kurish uyin texnikasi va taktikasini uygunligini yaxshilash bu esa natija ko‘rsatishga yo‘ldir. Bundan keyingi davr -musobaqa bosqichidagi jarayonga o‘tiladi:

Musobaka-tayyorgarlikda erishligan natijalarni namoyish etish. Texnika va taktikani takomillashtirish, maxsus jismoniy tayyorgarlikni yukori darajaga ko‘tarish musobakalarda qatnashish.

O‘tish bosqichida-vazifa umumiy, jismoniy va texnik tayyorgarlikka erishilgan darajasini mustaxkamlash. Ushbu dasturning o‘quv materiali barcha yosh guruxlariga mo‘ljallangan.

Dastlabki tayyorlov guruxida asosiy e’tibor salomatlikni mustaxkamlashga xar tomonlama jismoniy rivojlantirishga, xarakatlar moslashuv, chakkonlik, egiluvchanlik, tezlik kabi siftlarini rivojlantirishga karatilgan. Shugullanuvchilar uyining asosiy usullari, texnikasini egallashlari kerak, uni uyinda k;ullay bilishadi, uyin taktik tizimlari va mashk kombinatsiyalarini egallashadi shaxar, viloyat, va respublika musobakalarida katnashishadi, xakamlik jamoatchi instruktorlik ishlarini urganishadi. Shug‘ullanuvchilar uchun nazariy mashgulotdan o‘tkazishga kadar va undan keyin 10-15 dakika davomida suhbat asosida o‘rgatiladi.

Sport o‘yinlarida to‘garaklarni faoliyati uchun 1 yilda 1 marta namunaviy ish rejalari tuziladi.

Ish rejada asosan: umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik. Uyin texnikasi va taktikasi himoya texnikasi, xujum taktikasi guruxli xarakatlanish, jamoa bo‘lib xarakatlanish kabi elementlarni uz ichiga oadi.

Mashg‘ulot asosan amaliy o‘tkaziladi. Shug‘ullanuvchiga bildiriladigan hamma ma’lumotlar amalda qo‘llanilib ko‘rsatiladi va amalda bajariladi.

tugaraklar 1 soat yoki 120 minut rejalashtiriladi. To‘garaklarda shug‘ullanuvchilar soni ko‘payib ketsa ikki guruhga bo‘linib utiladi. Har bir sport turi bo‘yicha tavsiya beriladi.

Sport o‘yinlari to‘garaklarda shug‘llanuvchilarning barchasi yoshlarga karab uch guruh bo‘ladi.Dastlabki tayyorlov guruxining vazifasi - shugullanuvchilarning salomatligini mustaxkamlash, jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishi keyichalik tezlikni, koordinatsiyani, yunalishini ishlash kobiliyatini rivojlantirish, uyinchining texnika va taktikasi asosini o‘rgatish uyin jarayonida uyin koidalarini egallash. "Alpomish" va "Barchinoy" test me’yorlarini topshirishga tayyorlash.

Mustaxkamlovchi guruxinining vazifasi - shugullanuvchilarning jismoniy sifatlarini xar tomonlama rivojlantirish, uyin texnika va taktikasini va asosiy koidalarini urgatish.

Chuqurlashtirilgan guruhining vazifasi - shugullanuvchilarning jismoniy sifatlarini xar tomonlama rivojlantirish uyin texnika va taktikasini va asosiy koidalarini urgatish. Tugarak a’zolari bilan ishashda ularning jismoniy tayyorgarligini va uziga xos xususiyatlari, jinsiga yoshiga karab jismoniy mashklar tezligi xajmini aniklashga differensial yondoshish majburiy xisoblanadi.Sport uyinlari tugaraklarida shugullanish uchun kuyidagi jixoz va anjomlar bulishi tavsiya etiladi. Berk binolarda yoki sport zallarda musobaka va mashgulotni utkazish uchun maydonga standart ulchamdagi shit yoki ustunlar, setkalar, koptoklar.

Rahbar yoki ukituvchi imkoni boricha o‘quv materialini nazariy va amaliyot bilan boglab olib borish kerak. Umumiy jismoniy tayyorgarlik buyicha mashgulot jarayonida shug‘ullanuvchilarga jismoniy tarbiya darslarida tanish bulgan vositalardan va boshka sport anjomlaridan foydalaniladi. Sport uyinlarini tarkibiy k;ismlarini urnatishning boshlangich davrida muxim rol uynaydigan mashklar vositalari buyumlar bilan bajariladiganlari katta urin egallaydi.

1.Murabbiy xar bir uyin oldidan uni olib borish uchun kursatma berish kerak, tamom bulgandan keyin uyin muxokama kilinadi. Uynalgan uyinning muxokama yoki taxlili mashgulotdan oldin utkazish tavsiya kilinadi.

Ta’limda erkin tanlagan sport turlar bo‘yicha intizomli mashgulotlari kay darajada uzlashtirishini kuzatish, zaruriyat tugilganda sinf raxbar va ota-onalar bilan munosabatda suxbatlashish tavsiya etiladi.

Tugarak mashgulotlar 3 qismga bulinadi: tayyorlov, asosiy va yakuniy kismlar.

O‘quv yili tugagandan keyin jismoniy va texnik tayyorgarlik buyicha nazorat tekshiruv utkazish tavsiya etiladi.

Masalan “Gimnastika” tugaraklarida namunali natijalarni ko‘rsatayapgan shug‘ullanuvchilarni yonidagi sportchilar kuzatib borish lozimligini bildirish lozim bo‘ladi.Gimnastika mashklariga kizikish va faollik Urganilayotgan mashklarni tushunish va bajarish kobiliyati Xarakatlanish layokati, tezkorlik va chaqqonligi Tugaraklar sport inshoatining sharoitidan kelib chikkan xolatida tashkil kilish tavsiya etiladi.Hozirda kunda basketbol, voleybol, kul tupi, futbol, stol tennis, gimnastika, shashka, shaxmat,stritbol va boshqa juda ko‘p sport tugaraklari mavjud. Tugaraklarga shug‘ullanuvchilarni jalb etilishi albatta ukituvchi yoki murabbiy bilangina emas ta’limda faoliyat yuritayapgan barcha hamkasblar ham sport va jismoniy tarbiyaga shug‘ullanuvchilarni yo‘llashi yanada yoshlarimizni bo‘sh vaqtlaridan to‘g‘ri foydalanishini ta’minlagan bo‘ladi. “Sog‘lom avlod -sog‘lom jamiyat”shiori sportfaoliyatini rivojlantirishimiz maqsadga muvofiqdir. Birinchi prezidentimiz I.Karimov shunday deganlar "Farzandlari soglom yurt kudratli bulur"

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Sh.Mirziyoev. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shahsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi zarur” 2017 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida» qonuni (Yangi tahrirda). 2015.
3. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. -T., 2005

VATANIMIZDA “JISMONIY TARBIYA VA SPORT”NING RIVOJLANISHI VA TA’LIMDAGI AHAMIYATI

Alimboeva Roziya Davulovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi va ta’limdagi ahamiyati haqida umumiy ma’lumotlar berilgan, taraqqiyot strategiyasining maqsadli yo‘nalishlaridagi sohaga oid vazifalarni bajarilishi va yutuqlar haqida hamda hozirgi kunda yaratilyapgan sharoitlar aholi ichiga kirib borayotgan sog‘lom muhitni keng targ‘ib etilishi, sport bilan muntazam shugullanish insonlarning ish faoliyatini faollashishiga va salomatligini mustahkam bo‘lishi, jismigina emas fikru-xayoli, tafakkuri ham yangilanishiga juda katta xissasi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Umumta’lim maktablar, akademik litseylar, kasb–xunar kollejlari va qolaversa, o‘rta- maxsus o‘quv yurtlari va oliy ta’lim maskanlarida jismoniy tarbiya darslari va sport to‘garaklarining muntazam ish faoliyatida ekanligiga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Annotation: General information is provided on the development and importance of physical education and sports in education, on the implementation of sector-specific tasks and achievements in the target areas of the development strategy, and on the widespread promotion of a healthy environment among the population, which is currently being created, Information is provided on the significant contribution that regular sports play to people's activeness and health, as well as the renewal of not only their bodies but also their thoughts and ideas. Special attention is also paid to the regular work of physical education classes and sports clubs in comprehensive schools, academic lyceums, vocational colleges, as well as in secondary and special educational institutions and institutions of higher education.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, sport, rivojlanish, ta’lim, salomatlik, mustahkam, tana, fikr, hayol, tafakkur, sog‘lom turmush, oila, mahalla, yoshlar, barcha avlodlar, inson uchun.

Key words: physical education, sports, development, education, health, strong, body, mind, imagination, thinking, healthy life, family, neighborhood, youth, all generations, for man.

SPORT VATANGA, YURTGA MEXR- MUHABBAT VA SADOQAT UYG‘OTADI

Sh.Mirziyoev

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportning ta’limdan tashqari tizim ham shakllanmoqda. Bu o‘quv maskanlari, mahallalar qoshida turli sport to‘garaklari faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish, sport maydonchalari va majmualarini barpo etish ishlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bularning barchasi yurtimizda har bir ug‘il - qiz sport bilan shug‘ullanishi , jismonan baquvvat bo‘lishi, shu tariqa sog‘lom turmush tarzini o‘z xayotining ma’no - mazmuniga aylantirishi xakidagi fikrlar amalga tobora ko‘prok o‘z aksini topayotganidan darak beradi. Sport bilan doimiy ravishda shug‘ullanadigan bolaning jismoniy ham ruhan ham tetik buladi. Uning butun vujudi uygun tarzda kamol topadi. Zero sport insonning intellektual kamolotga erishishda ham muxim ahamiyatga egadir. Sport bilan muntazam shug‘ullanuvchining jismigina emas fikr - hayoli, tafakkuri ham yangilanadi. Shuning uchun ta’limda yoshlarni faqat dars jarayonidagini emas, darsdan tashqari vaqtlarda ham sport bilan shug‘ullanishiga jalb qilish lozim. Buning uchun yoshlarning ehtiyojlari asosida turli hil jismoniy tarbiya sport tadbirlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Barcha ta’lim muassasalarida ya’ni umumta’lim o‘rta maktablar, akademik litseylar, kasb - xunar kollejlari va qolaversa, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari va oliy ta’lim maskanlarida jismoniy tarbiya darsi sifatida o‘tkazib borilmokda, bunda deyarli barcha o‘quvchi yoshlar va talabalar jalb etiladi. Hafta jarayonidagi darslar yoshlar va talabalarni jismoniy barkamollikka erishishlariga uchun majburi mashg‘ulotdir shu orqali salomatlik uchun yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarda to‘garaklarga ham jalb etish talabi hamda vaqtini ajratolmagan mexnatkash va izlanuvchi yoshlarni shug‘ullanishlari uchun aynan qulay jarayondir.Shu bilan bir qatorda yoshlarni to‘la kamolotga erishishlarida nafaqat jismonan va aqlan, ma’nan yetuklikka yo‘naltiruvchi o‘quv ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy jarayonlarning natijasi o‘laroq to‘liq va yetarli darajada tashviqot qilish o‘rinlidir. Bugun zamon talabiga yarasha yoshlarni pedagoglar bilan munosabatini aynan ta’lim maskanlarida ylg‘orlashtirish, yoshlarning ozuqasi bo‘lmish ma’naviy tarbiyaviy jihatdan ta’minlash yoshlarda sog‘lom turmush tarzini

shakllantirishga poydevor yasaydi.Mustaxkam va obod oila davlat negizi bulsa, jismoniy tarbiya va sport salomatlikni tiklash, uni yaxshilash, ma’lum jismoniy sifatlarni rivojlantiradi. Bu esa soglom turmush tarzining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni yanada takomillashtirishda quyidagilarni amalga oshirib borishga to‘g‘ri keladi.

Ma’naviy - ma’rifiy hamda moddiy- texnik sohalardagi fanlarni o‘qitishda sog‘lom turmush tarzi tushunchalari bo‘yicha pedagoglar tomonidan chuqur bilimlarni berilishi. Odam anatomiyasi, fiziologiyasi, biokimyo, biomexanik fanlaridan inson tanasidagi kechadigan o‘zgarishlar haqida amaliy jihatlarni nomoyon qilib borish.Pedagogika, psixologiya va ularga aloqador fanlarni o‘qitish jarayonlarida zarur tuyg‘usi, fidokorona mexnat, Vatanga sadoqat xissiyotlarini aniq misollar asosida xamda videotasvirlarda ko‘rsatib berish.Respublika televedeniyasida namoyish etilayotgan barcha janrlardagi,shuningdek mustakillikkacha bo‘lgan davrlarda tayyorlanagan soha asarlari, kinofilmlarni chuqur tahlil qilish, ijobiy va salbiy voqeliklardan chiqqan davrlarni tahlili asosida undan ko‘ra yuqori natijalarga erishish metodikasi bo‘yicha faoliyat yuritish lozimligi ko‘zda tutiladi.Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari turli ommaviy musobaqalar jarayonida ma’naviy -ma’rifiy madaniyatimiz, sog‘lom turmush tarzi va ular bilan bog‘liq bo‘lgan hayotiy tajribalarni qo‘llash, yoshlar ongiga singdirib borish.O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli sog‘lomlashtirish masalalari tufayli bugungi kunda sog‘lom yosh avlodni tarbiyalashda yuqori ko‘rsatkichlarga egamiz. Bevosita jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muammolardan biri bo‘lgan bolalardagi surunkali kasalliklarga chalinish holatlariga sportni joriy etish orqali uni yechimi topilgan va uni rivojlantirish, takomillashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmokda. Aytish kerakki, insonlarda kasallikning boshlangich davri aniqlanaganda, bemorga har kanday muolajadan ko‘ra, sport bilan shug‘ullanish davolashda eng smarali usul hisoblanadi. Sport yana ko‘pdan- ko‘p kasalliklarga chalinishni oldini oladi, ertamiz egalarini xar tomonlama sog‘lom va baquvvat bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qiladi. Taxlillar so‘ngi o‘n yilda mamlakatimizda masalan o‘quvchi yoshlarning antropometrik (vazn, bo‘y, og‘irlik) ko‘rsatkichlari ham ijobiy tomonlama o‘zgarayotgani, xalqaro standartlar bilan tabora uygunlikda tenglashib borayotganini kursatmokda. Bularni barchasi bevosita jismoniy tarbiya va sport soxasini rivojlantirishda davlat siyosati darajasida ulkan e’tibor qaratilayotganining maxsulidir.Ijobiy natija va ko‘rsatkichlar bor joyda bevosita uni salbiy nuktalariga ham e’tibor qaratilishi har kanday soha talabidir. Har bir soha o‘z rivoji borasida turli muammolarni hal etib, ularni yechimi yuzasidan izlanadi. Sohaga ilm darajasi yuqori bo‘lgan ijodkor shaxslarni jalb etish, yetuk malakali kadrlar bilan ta’minlash, soha rivojidagi muammolarga yangiliklar, yangi va noddiy, orginal yechimlar orqali yondashishni ta’minlash bevosita soha rivojini yuksaltiradi.

Uzbekistonda jismoniy tarbiya va sport soxasida yetishib chikayotgan

pedagogik kadrlar ijodkorligini ta’minlanishi bilan bir katorda ularni sohaga oid nazariy - amaliy bilim va kunikmalarini shakllantirish va boyitishni ta’minlash, bu bilan soxada yetishib chikayotgan murabbiy va mutaxassislarni mukammallik darajasini ta’minlanishi muammolari;

zamon talabi bulgan innovatsion faoliyatni yulga kuyish;

-soha rivojiga innovatorlarni jalb qilish orqali muammoli vaziyatlar yechimi borasida sohada yangi bilimlarni yaratish va olib kirish;

sport majmualarida malum shart - sharoitlarni yaratish va zamonaviy jixoz va uskunalar bilan taminlanishi yuzasidan muammolarni hal etish;

-terma jamoalar sportchilariga e’tiborni kuchaytirish, mashg‘ulot jarayonlarini nazorat olib borish;

-sohadagi pedagogik talimga va sportchi shaxsiga psixologik yondashuvni oshirish;

-soha rivojini ta’minlashda rag‘batlantirishning yo‘llarini kuchaytirilishi sportga qiziquvchi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash;

-mustakil O‘zbekistan Resupublikasining strategik vazifalaridan biri-kelajakdagi barcha ezgu ishlarni amalga oshirishga bo‘lgan jismoniy sog‘lom va ma’naviy barkamol shaxsni voyaga yetkazishdan iborat ekanligi doim maqsal sari olg‘a borishimizning asosidir.Bu vazifalarni amalga oshirish uchun o‘quv ishlarni rejalashtirishda va samarali olib borishda yangicha hamda ijodiy qarashimiz lozim, ishga tashabbuskorlik bilan yondashishmog‘imiz kerak. Jismonan baquvvat, aqlan barkamol bo‘lib yetishishlarida jismoniy tarbiya yetakchi rolni o‘ynaydi. Bu muammolarni hal etishda asosiy o‘rin bolalar va kattalar orasida, o‘qituvchilar, ota-onalar o‘rtasida organizmni chiniktirish, gigienik qoidalari va talablarini o‘rgatish va tarbiyalash, soglom turmush tarzini tartib etish egallaydi. Shu sababli birinchi navbatdagi vazifa yoshlarni har tomonlama to‘lik rivojlanishiga yordam berish, salomatligini mustaxkamlash, hayotga va mehnatta tayyorlash, yetuk shaxs bo‘lishiga xissa ko‘shishdir. Yoshlarni jismoniy tarbiyalashning turli xil shakllaridan foydalanish jismoniy tarbiya o‘qituvchisining vazifasi, boshqa fan o‘qituvchilarining, jamoatchiligining va yoshlar uyushmasi faollarining ham bevosita vazifasidir. Jismoniy tarbiya davlat dasturida kuzda tutilgandek tashkil kilinishi maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilar jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bilimlar, maxoratlar va ko‘nikmalarni hayotning xilma-xil sharoitlarida foydalanish uchun egallashga yo‘naltirilgan. Bunda jismoniy mashqlarning usullari, qoidalari va sharoitlarni hisobga olgan holda muvaffaqiyatli bajarish, organizmga ta’siri va ahamiyati haqida bilish kiradi.Shug‘ullanuvchilar jismoniy tarbiyada uchta asosiy vazifalar guruxini ajratishni: sog‘lomlashtirish, ta’limiy va tarbiyaviy, ular bolalarning yoshi, jinsi anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatlarini xisobga olib bajarilishini albatta nazoratda tutish o‘rinlidir. Hozirda barcha sohalarda sport bilan shug‘ullanish aniqsa futbol, voleybol, basketbol, gandbol, stol tennis, yakka kurash turlari hamda yangi paydo bo‘lgan sport turlarida ham yoshlarimiz o‘zlari uchun taraqqiyot tilida xobbiy holatiga aylandi. Komil shaxsini rivojlantirish va majmuali tarbiyalashga yo‘naltirilgan bu natijalar,tarbiyalar, ta’limda, oila va jamoatchilik bilan birgalikda ta’sir o‘tkazadigan targ‘ibot tarbiya tizimining ta’sirli harakatini natijasi ham. Hamkorlikdagi faoliyat albatta natija bermoqda sog‘lom hayot tarzini ta’minlaydi. Bunda Olipiada g‘oliblarini Boxodir Jalolov, Diyora Keldiyorova kabi yoshlarimizni yoshlar bilan uchrashuvlarda bildirish ularning yutuqlari vatanimizning dunyo tanishiga va bizning yutuq ekanliklarini singdirish vatanparvarlik va mehnatsevarlik, do‘stlik tuyg‘ularini ham targ‘ib etadi. Sport- tinchlik va do‘stlik elchisi. Shuningdek “Sport salomatlik-garovidir”!!!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoev. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shahsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi zarur” 2017 yil.
2. “Yoshlar yili”davlat dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Pezidentining 2008 yil 29 fevralidagi PQ-805-sonli qarori.
3. I.A.Karimov Barkamol avlod- Uzbekiston tarakkiyotining poydevori. T., «Uzbekiston»1997y
4. WWW.google
5. WWW.pedagog.uz

HOZIRGI YOSH OILALARGA O‘RNAK BO‘LA OLADIGAN MUKAMMAL OILA TASVIRI “ OYBEK VA ZARIFA” OILASI TIMSOLIDA

Boyqobilova Dilbar Fahriddin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
2-kurs talabasi dboqobilova1998@gmail.com
Jobborova Gulnoza Kadamovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi oilalarga o‘rnak bo‘la oladigan oilalardan biri “ Oybek va Zarifa” oilasi, oiladagi er-xotin vazifalari, bir-birini tushunib yashashi, hozirgi yosh oilaning o‘zlariga xulosa olishi uchun, “Yozuvchi Toshmuhammad o‘g‘li Oybek” hamda turmush o‘rtog‘i “Birinchi o‘zbek kimyogar olimasi Zarifa Saidnosirova” hayot yo‘llari, hozirgi zamon oilalarning vazifalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlari: Nikoh qurish motivlari, “Oybek va Zarifa” oilasidagi mehr-muhabbat, hozirgi zamon oilalarining vazifalari: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy,rekreaktiv, kommunikativ va regulyativ (boshqaruv) vazifalari. “Oybek va Zarifa” hayot yo‘llaridan hozirgi yoshlarning o‘rnak olishi.

Abstract: In this article, one of the families that can serve as an example for modern families is the family “Oybek and Zarifa” in terms of the role of husband and wife in the family, understanding each other. The duties of modern families are reviewed in addition to the life paths of “ Writer Toshmuhammad o‘g‘li Oybek” and “ First Uzbek chemist Zarifa Saidnosirova.

Key words: motives for marriage, love in the family of “Oybek and Zarifa” modern families duties: economic, reproductive, educational, recreative, communicative and regulative(management) duties. Lessons modern youth families can learn fromlife paths of “Oybek and Zarifa”.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oila mustahkamligining o‘rni beqiyosdir.

“Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir” .– J. Santiyana

“Oila - jamiyatning dur-u gavhari” . – V.Gyugo[3. 2010-y 38-b]

Oila muqaddas, oilasini qadrlay olgan inson buyuk insondir. Mana shunday insonlardan, yozuvchi Oybek va turmush o‘rtog‘i birinchi o‘zbek kimyogar olimasi Zarifa Saidnosirova oilasi bilan tanishishga harakat qilamiz. Ijodkor shaxsiy hayoti oilasi,

farzandlari haqidagi ma’lumotlarga doimo qiziqish bo‘lgani oz emas. Shuning uchun ham ba‘zan biror shoir yohud yozuvchining shaxsiy hayotiga bag‘ishlangan badiiy asar, xotira yoki maqola paydo bo‘lganida, kitobxonlar ummoni mavjlanib, to‘lqinlanib ketadi. Yozuvchi qanchalik ulug‘ bo‘lsa, uning shaxsiy hayoti ham shunchalik ibratomuz bo‘ladi. Yozuvchi – Toshmuhammad o‘g‘li Oybek hamda, birinchi o‘zbek kimyogar olimasi Zarifa Saidnosirova turmush yo‘llari, ularning tillarda doston bo‘lgan muhabbati, ijodi bilan tanishar ekanmiz , biz kitobxonlar uchun ulug‘ insonlar va ibratli hayot yo‘llari bordir.

Zarifa Saidnosirova bir kam qirq yil davomida ulug‘ yozuvchining rafiqasi sifatida uning xonadonida sevgi va baxt chirog‘ini yoqib keldi; ne-ne asarlarini yozilishida ilhom berdi. Yozuvchi Oybek tildan qolib, qo‘li yozolmay qolganda, uning biyron tili va qo‘li bo‘ldi. Vafotidan keyin esa adabiy meroslarini to‘plab, nashr etishi hamda Oybek uy muzeyini ochilishiga shaxsan Zarifa Saidnosirova rahbarlik qildi. Shu emasmi?! – Vafo aslida!

Zarifa Saidnosir qizi 1908-yilda Turkiston shahrida, Ahmad Yassaviy maqbarasi joylashgan yerdan bir oz narida tavallud topgan… Otasi Saidnosir Mirjalil o‘g‘li farzandlarini har tomonlama bilimli ilmli ma’ rifatparvar shaxs qilib tarbiyalashga harakat qilgan. Oilada besh nafar qiz farzand bo‘lgan, hammasi ilmli ziyoli shaxslar bo‘lib yetishgan. Zarifa Saidnosirova ilmli qiz bo‘lib boshlang‘ich maktab vaqtlarida o‘zi ham she’r bitar edi[2. 1990-y 5-b]

Men o‘qimoqni suyam,
Mehrimni unga qo‘yam.
Agar ilmsiz qolsam,
Yaqti jahondan to‘yam.
Mening o‘quv, yozganim
Oltin-kumush qazganim.
Tilak sori uchuvga
Go‘yo qanot yozganim.
Boshqaga qilmam havas
O‘qib yozam har nafas.
O‘quv-yozuvsiz menga
Go‘yo jahondir qafas.
O‘quv—bizning so‘zimiz
Ochilgusi ko‘zimiz.
Jahon eliga butun
Quyosh kabi yuzimiz. [1. 2022-y 45-b]

Sho‘ro davri o‘zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan ulug‘ adib, shoir, olim, jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek 1905-yili 10-dekabrda Toshkent shahrida bo‘zchi oilasida dunyoga keldi. Oldin o‘rta maktabida, 1922-1925-yillarda esa Toshkent pedtexnikumida ta’lim oldi. Texnikumda ta’lim olayotgan vaqtlarida, ikki yoshning muhabbat urug‘i ekildi. Ikki yoshning oilasi, nikoh qurilishi motivlaridan; sevgi motivi asosida oila qurdilar.

Nikoh qurish motivlari:

1.Sevgi tufayli oila qurish, ya’ni yoshlar oila qurishdan avval bir birlarini sevib, ma’lum bir muddat sevib-sevilib yurganlaridan, so‘ng shu o‘zaro sevgining mahsuli sifatida bir-birlarining visoliga to‘y qilib, oila qurib yetishadilar.

2.Moddiy yoki o‘zga manfaatdorlik tufayli oila qurish. Bunda yoshlar oila qurar ekanlar nimanidir hisobga olgan holda, ma’lum bir maqsadni ko‘zlab oila qurishlari mumkin, masalan, boylikni, mansabni, moddiy yoki ijtimoiy manfaatdorlikni ko‘zlagan holda: “Agar shu yigitga turmushga chiqsam, boy-badavlat yashayman” yoki “Shu qizga uylansam, uning ota-onasi yordamida ma’lum bir mansab, mavqega erishaman”, — degan fikrlar asosida o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan qutulish, “yolg‘izlikdan qutulish” va boshqalar.

3.Stereotip bo‘yicha oila qurish deb ataladi. Bu toifa yoshlarda oldingi mo tivlarning ikkalasi ham kuzatilmasligi mumkin. Ular oila qurar ekanlar, stereotiplarga qaraydilar. Bunday yoshlardan nima uchun oila qurganliklari so‘ralsa, odatda “Hamma tengdosh larim uylanayotgandi, men ham uylandim!” yoki “Hamma dugonalarim turmushga chiqishayotgandi, men ham turmushga chiqdim!” qabilida javob beradilar.[3. 2010-y. 132-133b]

Insoniyat o‘z taraqqiyotida erishgan eng yuksak cho‘qqilar ham sevgi tufaylidir. Z.Freyd ta’kidlaganidek: “Sevgi — bu insoniyatni hayvonot olamidan sug‘urib olgan kuchdir!”. Inson yaratgan buyuk mo‘jizalarning barchasi sevgi tufaylidir. Bu aytilganlardan ko‘rinib turibdiki, sevgi tufayli oila qurish baxtli va mustahkam nikohning asosini ta’minlaydi. Albatta, sevishib turmush qurgan juftlarning aksariyati eng baxtli oilaviy hayot kechiradilar. Lekin statistik ma’lumotlarga qaraganda, oilalar ajralishining ko‘pchilik qismi ham xuddi shu sevishib oila qurgan juftlarga to‘g‘ri kelar ekan.

Agar sevishganlar oila qurganlaridan keyin “murod maqsadimga erishdim” deb sevgisini himoya qilishni, uni parvarish qilishni unutsa, uning uchun kurashmasa, qarovsiz qolgan har bir nozik nihol nobud bo‘lganidek, eng nozik tuyg‘u bo‘lgan sevgi ham nobud bo‘ladi. Sevgi, agarda u haqiqiy bo‘lsa, sevishganlar bir-birlarini hurmat qilib, tushunib, e’zozlab, avaylab, kerak bo‘lsa biri ikkinchisining baxti, shodligi, quvonchi, manfaati uchun o‘z manfaatidan voz kechib, o‘ta nozik bo‘lgan tuyg‘u sevgini har kuni, har doim parvarish qilib yashasalar, unda sevgi ularning munosabatlarini yanada yaqinlashishiga, ularning oilaviy hayotining mustahkamlanishiga va birgalikdagi hayotlarida eng oliy zavq-shavqlarni his qilishlariga asos bo‘lishi mumkin.[3. 2010-y.134-b]

1930-yil 29-iyun kuni Mirjalil o‘g‘lining Shoyhontoxurdagi hovlisida Oybek bilan Zarifaning tuyi bo‘lib o‘tdi.[2.1990-y. 45-b] Sevgi motiviga qurilgan oila, muhabbati shu joyda tugamadi, muhabbati bir-birini qadrlashi umrining oxirigacha davom etdi. Oila atalmish dargohga qadam qo‘yar ekan, oiladagi vazifalari, sinovlari birgalikda bir butun bo‘lib oila atalmish saroyga kirishni boshladi. Oila mustahkam bo‘lishi uchun ikki tomon ham harakat qildi.

Barcha oldingi jamiyatlarda oila quyidagi asosiy vazifalarni bajargan: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreaktiv, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv).

Oilaning iqtisodiy vazifasi uning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Oila iqtisodi, budjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik xarajatga, zarur buyumlarga pul ajratish, bir necha yildan so‘ng olinadigan narsalarga mablag‘ yig‘ish, tejab ro‘zg‘or yuritish er-xotinning katta tajriba, malakaga ega bo‘lishlariga bog‘liq.

“Oybek ikkovimizga boshpana yo‘q. Biz ko‘p bosh qotirib o‘tirmadik. Bu biz uchun ahamiyatsiz edi. Biz darrov qaror qildik: oyimning ayvoni katta emasmi, ikki devor qo‘ndirilsa, bir uy yasaladi- qo‘yadi.”[1. 2022-y. 149-b] “Oybekni o‘zi tugatgan fakultetda olib qoldilar. U siyosiy iqtisoddan leksiya o‘qiy boshladi. 1931-yili biz Beshog‘och dahasidagi Arpapoya ko‘chasiga ko‘chib o‘tdik. Katta bog‘ hovli... Uning uch tomonidan shar- qirab suv o‘tib tu radi. Daraxtlar ko‘p... Ular orasida yangi kurilgan ikki xonalik uy...1932- yili meni Toshkent Meditsina institutiga ishga taklif qildilar. Men, albatta, SAXIPIni tashlashni xoxlamayman. Bu, mening asosiy xizmat joyim. Shuning uchun ham men ToshMIda qo‘shimcha tarzda ishlashga rozi bo‘ldim.”[1. 2022-y. 175-b] Shunday qilib oilaning iqtisodiy vazifasini birgalikda bajarishga harakat qilar edilar.

Oilaning muhim bo‘lgan vazifalaridan yana biri bu uning reproduktiv (jamiyatning biologik uzluksizligini ta’minlash, bo lalarni dunyoga keltirish) vazifasidir. Bu vazifaning asosiy mohiyati inson turini davom ettirishdan iboratdir.

“1932-yilning 26-iyulida o‘g‘il tug‘ildi. Oilamizning shodligi go‘yo butun jahonni to‘ldirib yuborgandek edi. Doya bir hafta mobaynida oldimdan siljimadi. Oyim, kayno-nam xam biz bilan birga bo‘ldi. Zulfiya, singillarim esa Zarifa Saidnosirova har kuni xabar olib turdilar. Karavat, vanna, yo‘rgak, ko‘rpacha, yostiklar mehr va quvonch bilan muhayyo etildi. O‘g‘ilchaning nomini Omonbek qo‘ydik. 1937-yilning 16-aprelida tizzadan keladigan qalin qor yoqqan kuni Gulrang tug‘ildi. 1939-yilning 3-aprelida to‘rtinchi farzandimiz — uchinchi o‘g‘limiz Suyunbek tug‘ildi. 1935-yilda ikkinchi o‘g‘limiz Bekjon, 1937-yilda qizimiz Gulrang, 1939- yili esa Suyunbek tug‘ildi. Bolalar bog‘da yayrab o‘sdilar. Biz butun yozgi ta’til paytlarida tarjima bilan, tirikchilik tashvishi bilan mashg‘ul bo‘lamiz”.[1, 2022-y 191-b] Bu oilada to‘rt farzand dunyoga kelgan va bu reprodiktiv vazifa bajarilganligi haqidagi ma’lumot edi.

Oilaning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir vazifasi tarbiyalashdir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi.

Oilaning kommunikativ vazifasi oila a’zolarining o‘zaro muloqot va o‘zaro tushunishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Oilaning rekreativ vazifasi o‘zaro jismoniy, moddiy, ma’naviy va psixologik yordam ko‘rsatish, bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila a’zolari dam olishini tashkil etish vazifasidir. Bu vazifa keyingi yillarda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oila a’zolari salomatligini mustahkamlash, oila a’zolarining dam olishini tashkil etish, oila a’zolarining bevosita mehnat, o‘qish va boshqa ijtimoiy faoliyatlaridan xoli holda, ya’ni bo‘sh vaqt larni birgalikda o‘tkazishlarini qanday tashkil qilishlari, unda bularning o‘zaro munosabatlari xarakteri qanday ekanligi bu gungi kun oilasi mustahkamligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan hisoblanadi.

Oilaning felitsitologik vazifasidir (italyancha “felitsite” — baxt). Shaxsiy baxtga erishishga intilish oilaviy munosabatlar tizimida ko‘p jihatdan hal qiluvchi bo‘lib bor moqda. Baxt nima o‘zi? Hozirgi zamon oilasi o‘z a’zolarining baxtini ta’minlashda qanday rol o‘ynaydi? Baxtga intilish har bir inson uchun tabiiydir va ayni shu baxtga intilish ularni oila qurishga undaydi. Inson o‘ziga ato etilgan baxtning to‘rtdan uch qismini oiladan choraktaga yetar-etmas qismini boshqa narsalardan topadi. Oilada er-xotinning bir-birini to‘liq tushunishi — ularning o‘zlarini baxtli his qilishlarini ta’minlaydi.

Oilaning regulyativ vazifasi oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek birlamchi ijti moiy nazoratni, oilada ustunlik va obro‘ni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

Oilaning eng asosiy vazifalaridan yana biri relaksatsiya vazifasidir. Bu degani oila a’zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qo biliyatini yana qayta tiklash demakdir.

Oilaning asosiy sakkiz vazifalariga to‘xtalib o‘tdek. Iqtisodiy va reproduktiv vazifalarini, yozuvchi oilasida qisman ko‘rib chiqdek. Tarbiya, kommunikativ va boshqa oila vazifalarida ham faol oila bo‘lgan. Asosiy vazifasi farzand tarbiyasi bilan juda yaxshi shug‘ullangan. Farzandlarining barchasi ma‘rifatli, ilmli komil shaxs bo‘lib yetishgan.

“Omonbek 1955-yili Moskov davlat dorilfununining tarix fakultetini bitirgach, Toshkent davlat dorilfununining aspiranturasida o‘qib, nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Hozir u shu dorilfununda kafedra mudiri, dosent. Uch qizi, bir o‘g‘li bor. Omonning xotini Xulkar — katta kelinim esa filologiya fanlari nomzodi, adabiyotshunos. Bekjon Moskov davlat dorilfununi biologiya fakultetida tahsil ko‘rib, aspiranturani ham shunda o‘tdi, fan nomzodi ilmiy darajasini ham shunda oldi. Doktorlik dissertatsiyasini xam Moskovda yoqladi. Hozir u akademik, Davlat mukofotining laureati. Gulrang Toshkent davlat dorilfununi Sharq fakultetining fors bo‘limida o‘qib, 1959 -yili uni tugatdi. U arab tili va adabiyoti ila mashg‘ul bo‘ldi. Bag‘dod dorilfununida ham olti oy tahsil ko‘rdi. U xam fan nomzodi, dotsint; Sharq fakultetida arab tilidan dars beradi. Ikki o‘g‘li va bir kizi bor. Qizi Asal juda chiroyli she’rlar yozadi. She’rlari ko‘nglidan shaloladay qo‘yiladi, suyunaman. O‘g‘li Nozim esa kinorejissyor. Kichik o‘g‘limiz Suyunbek kimyogar, polimer kimyosi bo‘yicha mutaxassis edi. 1962-yili tahsilni tamomlab, Dorilfununning fizika- kimyo kafedrasida nom zodlik va doktorlik dissertatsiyalarini yoqladi. Xotini Dilbar — singlim Sharofatning qizi. Uning ilmiy kelajagi yanada umidli edi.”[1.2022-y 293-b]

“Suhbatlarimizdan birida Zarifa opadan Oybek domlaga xos bo‘lgan qaysi xislatlar farzandlaringizda qaytarilgan deb so‘raganimda: “Oybek odamlarni juda yaxshi ko‘rardi. U sodda, oq ko‘ngil edi. Ularni ajratmas edi. Uning uchun hamma odam yaxshi, yomoni yo‘q. Bolalari ham shunday, hamma odamlarni birdek ko‘radilar. Eng quvonchlisi bolalarimning, otasi – Oybekka o‘xshab do‘sti ko‘p, dushmani yo‘q”, – dedilar [4. -2022-y]

Xulosa. Oila kichik jamiyatimiz, vatanimiz. Kichik vatanimizning tinch totuvligi uchun oiladagi vazifalarni er-xotin birgalikda, birdamlikda mehr muhabbat bilan bajarishi lozim. “ Oybek va Zarifa” muhabbatini ustozimiz Naim Karimov – “ Bularning ham muhabbati haqida doston yozsak arziydi, bir biriga mehribon, go‘zal juftlik”- deb yozgan. Albatta Oybek va Zarifa hayot yo‘li bilan tanishar ekanmiz, chiroyli oila bog‘ini barpo qilganligini guvohi bo‘lamiz. Hozirgi yosh oilalarga shunaqa oilalarni psixologik yondashuv orqali namuna sifatida ko‘rsatib, bulardan tarbiyaviy, axloqiy, ma‘naviy xulosalar chiqarilib kelajakda shunaqa oilalarimiz sonini oshirsak bizning yutug‘imiz bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zarifa Saidnosirova “Oybegim mening” Yangi asr avlodi TOSHKENT 2022-y.
2. Naim Karimov “Oybek va Zarifa” Uzbekiston 1990-y.

3. G‘.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog‘inov, F.A.Akramova, G.Solihova., G.Niyozmetova “Oila psixologiyasi” Toshkent 2010-y.

4. Ra’no IBROHIMOVA, filologiya fanlari doktori “Do‘sti ko‘p, dushmani yo‘q odam” – Oybek haqida qizi Gulrang Toshmuhammedova xotiralari” https://oyina.uz/uz/article

5. Gulnoza Jobborova Uzbek folk ecology – formation of the foundations of ecological culture in elementary school students. E3S Web Conf. **Volume** 413, 2023,11, August https://doi.org/10.1051/e3sconf/202341303004

6. Jobborova Gulnoza Kadamovna. (2022). Formation of Ecological Culture of Primary School Students. Eurasian Scientific Herald, 7, 240–242. Retrieved from https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1197.

7. Ф.Жуманова, С.Авазова, Г.Жобборова, У.Хуснетдинов. Умумий педагогика асослари. Т.: “Ishonchli hamkor”, 2020.

OILA TARBIYASINING BOLA SHAXSI SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI
THE INFLUENCE OF FAMILY UPBRINGING ON A CHILD’S PERSONALITY

Rustamova Aziza Akmal qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
2-kurs talabasi rustamovaaziza223@gmail.com
Jobborova Gulnoza Kadamovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila tarbiyasining bolalar shaxsiyatiga ko‘rsatadigan ta’siri yoritilgan. Oiladagi ruhiy, psixologik, axloqiy va ijtimoiy omillar bolalar kamolotiga qanday ta’sir ko‘rsatishi, oilaviy munosabatlar bola shaxsiyatining shakllanishida tutgan o‘rni haqida fikr yuritiladi. Oila muhitida axloqiy, estetik, mehnat va aqliy tarbiyaning o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ota-onalarning o‘zaro munosabatlari, shaxsiy namunasi bolalarning ruhiy salomatligiga qanday ta’sir qilishi haqida misollar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Oila, tarbiya, bolalar shaxsiyati, oilaviy munosabatlar, ruhiy holat, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi, ota-ona mas’uliyati.

Annotation: This article explores the influence of family upbringing on the development of a child's personality. It discusses how emotional, psychological, moral, and social factors within the family affect a child’s growth and development. The role of family relationships in shaping a child’s character is also examined. Furthermore, the importance of moral, aesthetic, labor, and intellectual upbringing in the family environment is analyzed. The article also presents examples of how parents’ relationships with each other and their personal behavior can impact a child’s mental well-being.

Key words: Family, upbringing, children's personality, family relationships, psychological state, moral education, aesthetic education, work education, parental responsibility.

Oila — kishilarning nikoh yoki qon - qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyati hamda o‘zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. «Jamiyat» va «oila» tushunchalari bir-biri bilan cham barchas bog‘liq. Bu bog‘liqlik jamiyatning oilasiz mavjud bo‘la olmasligi hamda o‘z navbatida oilaning ma’lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko‘rinadi. [1. 2010: 299 b]

Oila jamiyat ijtimoiy tuzumining birlamchi bo‘g‘ini bo‘lib, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila-murakkab ijtimoiy guruh. U biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi, shu sababli oilalar birlashib, jamiyatni tashkil etadi. [Pedagogika nazaryasi 2008:124b] Oila-jamiyatning boshlang‘ich ijtimoiy bo‘g‘inidir. U o‘zida oila a’zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi. Ota-onalaming bola shaxsiga ilmiy dunyoqarash asoslari, ma’naviy-axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta’sir ko‘rsatish jarayoniga oilaviy tarbiya deyiladi. Shu bilan bir qatorda har bir oilada oilaviy munosabatlar bo‘ladi. **Oilaviy munosabatlar nima? degan savol tabiiy ravishda tug‘ilishi mumkin.** Oilaviy munosabatlar —- ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta’minlab, ota-onalarda o‘ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta’siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o‘zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya’ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o‘z umri davomiyligini qurish holati ro‘y beradi.

Shaxsning ma’naviy sifatlarga ega bo‘lishi, unda ma’naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo‘lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo‘lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.[Pedagogika 2010: 299b]

Oilaviy munosabatlar quydagi 4ta qismda tashkil topgan:

1. **Ruhiy-fiziologik munosabatlar** - bu insonlar orasidagi hissiy yaqinlik, o‘zaro tushunish, mehr-muhabbat kabi ruhiy holatlarni keltirib chiqaradi.
2. **Psixologik munosabatlar** - ochiqlik, bir-biriga ishonch va g‘amxo‘rlikni, bir-birini ma'naviy va emotsional qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi.
3. **Ijtimoiy munosabatlar** - oilada rollarning taqsimlanishi, oiladagi moddiy qaramlikni, shuningdek nufuz, rahbarlik, bo‘ysunish va boshqa munosabatlarni o‘z ichiga oladi.
4. **Madaniy munosabatlar** - mazkur oila vujudga kelgan va yashayotgan u yoki bu madaniyat sharoitlarida yuzaga kelgan an'analar va odatlar bilan belgilanuvchi oiladagi alohida munosabatlar.

Bu munosabatlar albatta bola tarbiyasida asosiy o‘rin tutadi. Oilaviy munosabatlarning qay darajada va nima asosida tuzilganligi farzandning ruhiy holatiga yoki ijobiy yoki salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Konstitutsiyaning oilaviy munosabatlar sohasidagi tamoyillari:

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida oila

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir, hamda jamiyat va davlat muho-fazasida bo‘lish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 63-modda

Ayollar va erkaklar huquqlarining tengligi

Nikohlangan shaxslarning teng huquqligi
Onalik va bolalik muhofazasi
Nikoh erkinligi
Oilani muhofaza qilish [2. 2010: 10b]

Oilada ota va onaning bir biriga bo‘lgan munosabatlaridagi mehr, muhabbat va ishonch tuyg‘ulari bola yoshlik chog‘idanoq uning psixikasida o‘z aksini topadi. Bola ruhiy holatining buzilishi, asabiylik, diqqat-e'tiborni jamlolmaslik, odobni tez-tez buzilishi asosan ota-ona munosabatlaridagi kamchiliklar natijasi sifatida baholanadi. Ota-ona o‘z ruhiy va ma'naviy sog‘lijiga aloiida e'tibor berishi lozim. O‘z ruhiy sog‘ligining holatiga to‘g‘ri baho bermaslik bolalarga o‘ta salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Ota ona bolalar hayotini to‘g‘ri yuritish ularni vaqtdan to‘g‘ri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o‘yin, mehnat va o‘qish faoliyatlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash nihoyatda muhimdir.[Pedagogika 2010: 302b]. Ota – ona farzandini jismoniy, aqliy, ma`naviy tomonlama ham tarbiyalash joizdir. Shunda bola mukammal shaxs bo`lib kamol topadilar.

Oila muhitida tashkil etiladigan **jismoniy tarbiya** o‘zida bolani jismoniy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o‘rgatish, o‘z sog‘ligi uchun g‘amxo‘rlik qilish va mas’uliyatli bo‘lishni ta’minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi. Bolalarning sog‘lom bo‘lishlarida ularning kundalik hayotiy rejimga amal qilishlari nihoyatda muhimdir. Ota-onalar yoki oilaning katta vakil avlodlari bolalarning mehnat qilishlari va dam olishlarini tartibga solishga ahamiyat berishlari kerak. [Pedagogika 2010: 302b].

Oila tarbiyasida bolalarni **aqliy jihatdan** tarbiyalash ham muhim o‘rin tutadi. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko‘ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg‘ulotlarga jalb etishdan iborat. Shuningdek, ma’lum yo‘nalishlar bo‘yicha bolada qiziqishni uyg‘ota olish, uni rivojlantirib borish ham talab etiladi. Bu borada ota-ona yoki oilaning boshqa a’zolarining dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasi hamda ular tomonidan ko‘rsatilayotgan namuna muhim tarbiyaviy omil bo‘lib xizmat qiladi. [Pedagogika 2010: 303b].

Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o‘zagini tashkil etadi. Oilada uyushtirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota -ona hamda oilaning boshqa a’zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalaiga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to‘g‘riso‘zlik, mehnatsevarlik, sahovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nom us, g‘urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir. [1. 2010: 302b].

Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go‘zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go‘zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg‘u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o‘rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi. Axloqiy va estetik qarashlar mazmuni o‘zgargan bir sharoitda oilada axloqiy va estetik tarbiyani to‘g‘ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. [1. 2010: 304b].

Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Shaxsning mustahkam xarakter va qat’iy iroda egasi bo‘lib voyaga yetishida mehnatning roli kattadir. Bolalarni oilada to‘g‘ri tarbiyalashda oila xo‘jaligining odilona tashkil

etilishi, bolalarni oila xo‘jaligini yuritish ishiga jalb qilish katta ahamiyatga ega. [1. 2010: 304b]. Oilaviy tarbiya doimo o‘zining murakkab va ko‘p qirraliligi, ajoyib va serjiloligi bilan ajralib turadi- deb ta’kidlaydi A. Munavvarov. [3. 2008: 126b] Oilashunos olimlar: D.Abdullayeva, N.Ismoilova, F.Habibullayevlar tomonidan oilaning asosiy funkciyalari turlicha klassifikatsiya qilingan. Bu o‘rinda oila funksiyalarini sanab o‘tish bilan kifoyalanmay, balki ulami bir tomondan odamlaming moddiy, xo‘jalik-maishiy va ikkinchi tomondan, emosional va ijtimoiypsixologik ehtiyojlarini qondiruvchi funksiyalaiga farqlash muhim. [3. 2008: 127b]

Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma'lum bir vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o‘rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) vazifala-rini hisobga olish lozim.

Oila vazifalari			
1. Tarbiya	2. Iqtisodiy	3. Reproduktiv	4. Rekreativ
5. Reguletiv	6. Relaksatsiya	7. Kommunkativ	8. Felisitologik

Bu haqda Sharq allomalari Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ahmad Donish va boshqalar o‘z asarlarida yozib qoldirganlar. Albatta, bu sanab o‘tilganlar hozirgi zamon oilasini asosiy vazifalarining yagona klassifikatsiyasini tashkil eta olmaydi. Chunki ayrim manbalarda: naslni davom ettirish, tarbiyaviy, xo‘jalik va o‘zaro yordam kabi vazifalar hozirgi zamon oilasi-ning muhim vazifalari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan, sotsiolog olimlar (U.M.Sverdlov, V.A. Ryasensov, V.P.Klyuchnikov) esa inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalash va xo‘jalik vazifalarini farqlaydi; S.D. Laptenok xo‘jalik-maishiy, aholi sonini qayta tiklash, tarbiyaviy va oila a'zolari dam olishi -hordig‘ini tashkil etish; N.G.Yurkevich ma'naviy muloqot, seksual, bolalarni dunyoga keltirish, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo‘jaligini yuritish uchun zarur vositalarni ta'minlash, dam olishni tashkil qilish, o‘zaro moddiy va ma'-naviy qo‘llab-quvvatlash; A.G. Xarchev aholi sonini qayta tiklash, ijtimoiylashuv, xo‘jalik, iste'mol va dam olishni tashkil qilish kabilarni farqlaydi. Mana yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, qator oilashunos mutaxassislar tomonidan oilaning asosiy vazifalari turlicha klassifikatsiya qilinmoqda. Bu o‘rinda oila vazifalarini shunchaki sanab o‘tish emas, balki ularni bir tomondan odamlarning moddiy, xo‘jalik-maishiy va ikkinchi tomondan emotsional va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondiruvchi vazifalarga farqlash muhim. Shuni ham aytib o‘tish joizki, hozirgi zamon oilasida emotsional va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni qondirish vazifasining ahamiyati ortib bormoqda.

Oila — jamiyatning muhim ijtimoiy institutidir. [Oila psixologiyasi 2010: 47b] Bola shaxsiyatining shakllanishi, uning ma'naviy, axloqiy va psixologik rivoji avvalo oiladagi tarbiya, munosabatlar va muhitga bog‘liq. Ota-onaning o‘zaro munosabati, bolaga bo‘lgan e’tibori va namunaliligi — farzandning ruhiy holati va xarakteri rivojida beqiyos rol o‘ynaydi. Oilada axloqiy, estetik, mehnat va aqliy tarbiya yo‘nalishlarining to‘g‘ri tashkil etilishi farzandning komil inson sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Ayniqsa, zamonaviy oilalarda emotsional va psixologik ehtiyojlarning qondirilishi nihoyatda dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, sog‘lom, mehr-oqibatli va ma'naviy boy oila muhitida voyaga yetgan bola — kelajakda jamiyat uchun foydali, yetuk shaxs bo‘lib kamol topadi. Shu sababli oila tarbiyasi masalasiga ilmiy, tizimli va ongli yondashish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

ADABYOTLAR RO`YXATI

1. M.X.Toxtaxodjayeva. Oilada tarbiya asoslari //PEDAGOGIKA (Pedagogika nazariyasi va tarixi I qism. Pedagogika nazariyasi) 2010.B. 299-312.
2. G`.B. Shoumov. Hozirhi zamon oilasining asosiy vazifalari // Oila psixologiyasi 2010.B.47-62.
3. X.Ibragimov, Sh. Abdullayev. Oilada tarbiya asoslari. Oila tarbiyaning asosiy funksiyalari // Pedagogika nazaryasi 2008. B. 124-144.
4. Ф.Жуманова, С.Авазова, Г.Жобборова, У.Хуснетдинов. Умумий педагогика асослари. Т.: “Ishonchli hamkor”, 2020.
5. Jobborova Gulnoza Kadamovna. PEDAGOGIK ODOB-AXLOQ VA TALABA XULQ – MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(1/2), Jan., 2023. 97-105.

YUSUF XOS HOJIBNING «QUTADG‘U BILIG» DOSTONI VA UNING BARKAMOL SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Jo‘raeva Sohibjamol Norqobilovna
Nizomiy nomidagi TDPU Umumiy psixologiya kafedrasi
professori, psixologiya fanlari doktori
Karimova Madina Xolmurotovna
karimova1810@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqola shaxs kamolotida odob axloq meyorlarining ahamiyati va o‘rni haqida bo‘lib, shaxsning kamol topishida sharq mutafakkiri Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» (saodatga yo‘llovchi bilim) dostonidagi odob va axloq va buzg‘unchi yomon illatlar borasidagi fikrlarning psixologik tahlili keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Axloq, ta’lim-tarbiya, fazilat, go‘zal xulq, shaxs, Qutadg‘u bilig

YUSUF KHAS HAJIB'S POEM "QUTADGU BILIG" AND ITS IMPORTANCE IN THE FORMATION OF A HARMONIOUS PERSONALITY

Annotation: This article is about the importance and role of moral norms in the development of the personality and the psychological analysis of the ideas of the oriental thinker Yusuf Hos Hajib in the poem "Qutadgu bilig" (knowledge leading to happiness) and the ideas about morality and bad vices in the development of the personality.

Keywords: Morality, education, virtue, good behavior, personality, Qutadgu bilığ

Inson axloqli yoki axloqsiz bo‘lib tug‘ilmaydi, u yashayotgan muhitga, qanday tarbiya olganiga qarab bora-bora shunday bo‘lib qoladi. Ma'lumki, hamdardlik, g‘amxo‘rlik, yordamga kelish, yangi narsalarni tasdiqlashga tayyorlik axloqiy me'yorlar

va qoidalarni xotirjam, sof intellektual o‘zlashtirishda emas, balki ilg'or narsalarni tasdiqlash uchun yovuzlikka qarshi kurashda rivojlanadi. Shuning uchun ham inson hayoti va faoliyatini bunday tashkil etishdan muhimroq narsa yo‘q, unda u amalda axloqiy talablarning ahamiyati va zarurligini his qiladi, ularni o‘zi uchun mustaqil ravishda kashf etadi va kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarda amalga oshiradi. Bu oliy o‘quv yurtlari talabalarining amaliy faoliyati va eng avvalo, jamiyat manfaatini ko‘zlaydigan mehnatni birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Axloqli shaxs bu ma’naviy tamoyillarni o‘z hayotiga tadbiq etuvchi va ular unda masuliyat, halollik, qadr-qimmat, hurmat, or-nomus, boshqalarga mehr-oqibat, fidoyilik va hokazolar kabi tegishli etiqod va shaxsiy fazilatlar shaklida mujassam bo‘ladi. Sharqda qadimdan shaxsning axloqiy tarbiyasi eng oliy o‘ringa qo‘yib kelinadi, har bir mutafakkir o‘z asalarlarida bunga atroflicha to‘xtalib o‘tadi.Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» (saodatga yo‘llovchi bilim) dostoni ham munga misol bo‘la oladi. Bu nodir va noyob asar XI asrning ikkinchi yarmiga mansub bo‘lib, tom ma’nosida didaktik-pedagogik ruhda yozilgan she’riy dostondir.Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarini islom ma’naviyatining , ijtimoiy-axloqiy , badiiy-falsafiy qomusi deb ta’riflash mumkin. Ushbu asar ham shaxsda manaviy axloqiy fazilatlar, go‘zal va sog‘lom xulqni shakllantirish va shu asosda insonlar orasida ezgulik ishlarini olib borish, buzg‘unchi yomon illatlar bilan kurashish kabilar asar qahramonlarining timsolida shakllantirilgan. Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asari qahramonlarning o‘zaro suhbati asosida qurilgan bo‘lib, shaxs kamolotida asosiy o‘rin tutuvchi fazilatlar haqida suhbatlar asarning manaviy ziynati desak mubolag‘a bo‘lmaydi.Elig bir kuni O‘gdulmishni chorlab, undan insondagi foydali hamda yaramas odatlar qanday bo‘ladi deb so‘raydi. O‘gdulmish javob beradi:- Ey elig,-deydi u, -odamdagi eng ulug‘ fazilat ezgu qiliq va go‘zal xulqdir. Ikkinchisi – rostlik, uchinchisi-hayo hisoblanadi. Mana shu uch fazilat birlashsa, kishi, baxtiyor bo‘ladi, qut-iqbol uning huzuriga bosh urib keladi.[4]44

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” – (baxt saodatga elituvchi bilim) asarida xulqi go‘zal inson barchaga birdek yoqishini ta’kidlab o‘tgan va shunday insonlar bor joyda, albatta, baxtiyorlik bo‘ladi deya insondagi rostgo‘ylik, hayo, go‘zal xulq kabi fazilatlar aslida shaxsning asl go‘zalligi ekanligini ko‘rsata olgan.

Yusuf Xos Hojib asarida ilgari surilgan g‘oyalarda shaxsning axloqiy xulq-atvorini sog‘lom qilib tarbiyalashga alohida e’tibor berish kerakligi uqtiriladi. Chunki sog‘lom axloqiy xulq-atvor insonni bezovchi ziynat hisoblanib, shaxs kamolotining muhim jihatlaridan biri sanaladi. [4]27.

Darhaqiqat, bu asarning barcha xislat va fazilatlari orasida eng ko‘p e’tibor berilgan va teran, mazmunda, keng miqyosida nazmiy tarannumi etikaga dahldordir. Bu doston «Axloq va odob, ta’lim va tarbiya hamda ma’naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlagan, jam qilgan qomusdir. U tom ma’nosi bilan didaktik asar, ta’lim-tarbiya va odob-axloq darsligidir».

Yusuf Xos Hojib axloqiy qarashlarining o‘z zamonasi va hozirgi davr uchun katta ahamiyati shundaki, u bu insoniy fazilatning asosi ilm-fan, aql zakovat, o‘qish va o‘qish ekanini yaxshi anglagan va o‘z adab durdonalarida quyidagi ikkiliklarda aks ettirgan:

«O‘quvdir chirog‘dek qorong‘u tuni,
Bilimdir yorug‘lik, yoritgay seni.
O‘quv qadr-qimmat uchundir kafil,

O‘quvsiz kishi bir xovuchcha sichil.
Bilimni buyuk bil, o‘quvni chuqur,
Bu ikki birla kishi ulg‘ayur.
O‘quvli uqar ham bilimli bilar,
Bilimli, o‘quvli tilakka yetar».

Axloqning ijobiy ibratli mezonlari bilan birga salbiy ifodalarni ham yaxshi bilgan Yusuf Xos Hojib o‘z asarlarida bu keyingilaridan g‘azablanish, g‘iybatchilik, joxillik, qaxri qattiqlik, ikki yuzlamachilik va xokazolar xaqida ham bevosita yoki bilvosita fikr muloxazalar yuritgan, bularning yomon oqibatlari xususida qimmatli, ibratli ta’sirli fikr muloxazalarni bayon etgan.Axloqshunos alloma kimda qaxru-g‘azab qattiq bo‘lsa buning oqibatlari nimalarga olib borishini bilimdonlik, donolik bilan izzohlab tushuntirib bergan.

Asrlar oshgani sayin qiymati ortib borayotgan bu asarning bugungi kunda axloq va odob, insoniy fazilatlarning qadr-qiymatini ochib berishda xizmati beqiyosdir, zero shaxs kamol topishida axloqiy meyorlar eng oliy o‘rinda turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . –T: O‘zbekiston, 2017.-B.6..
2. G‘oziev Yergash “Umumiy psixologiya”-T 2010. 247 b.
3. Nishonova Z.T. Bolalarga ma’naviyat va axloq asoslarini o‘rgatishning psixologik muammolari.–T.: "O‘zbekiston" nashriyoti 1999.
4. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” -Toshkent 2014. 44 b
5. Karimova M. O‘quvchilarni kasb-xunarga yo‘naltirishdagi pedagogik va psixologik muammolar. Barkamol shaxsni shakllantirish muammolari 2016. 142-144 b.
6. Karimova M. Yosh avlodni tarbiyalashning ma’naviy axloqiy jixatlari. Ayol-ma’naviyat gulshani IIV respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2015 yil. 311-313 b.
7. Karimova M “Ilk o‘spirinlik davridagi o‘quvchilarda ahloqiy hislarni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari” monografiya T-2021. 64-66 b.
8. Karimova M.Kh. The role of moral values in adolescents and their role in determining the criteria of spiritual perfection. Scientific reports of Bukhara state university 2020/6(82), 283-290 p.
9. Plyaskina I.V. Zdorovye detey, obuchayushixsya v shkolax novogo vida //Gigiyena i sanitariya, №1, 2000g. S.3-5

“BURHONIDDIN MARG‘INONIYNING “AL-HIDOYA” ASARIDA INSON HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI: PEDAGOGIK YONDASHUV”

“A PEDAGOGICAL PERSPECTIVE ON HUMAN RIGHTS AND RESPONSIBILITIES IN BURHAN AL-DIN AL-MARGHINANI’S AL-HIDAYA”

Botirov Bobirmirzo Mirodiljon o‘g‘li
boburmirzobotirov55@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi, tadqiqotchi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola Burhoniddin Marg‘inoniyning mashhur “al-Hidoya” asarida inson huquqlari va majburiyatlariga oid pedagogik jihatlarni o‘rganadi. Maqolada Marg‘inoniyning inson huquqlari va majburiyatlari haqidagi qarashlari ta’lim metodologiyalari bilan qanday bog‘liqligi va zamonaviy ta’lim tizimiga qanday tatbiq etilishi tahlil qilinadi. Marg‘inoniyning huquqiy va axloqiy fikrlarini tahlil qilish orqali, ushbu tamoyillarni zamonaviy ta’lim tizimida qanday qo‘llash mumkinligi ko‘rsatilgan. Islom huquqi va pedagogikani bog‘lash orqali maqola o‘quvchilarda axloqiy va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishda Marg‘inoniyning fikrlarining ahamiyatini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *Burhoniddin Marg‘inoni, “al-Hidoya”, inson huquqlari, majburiyatlar, pedagogika, islom huquqi, ta’lim metodologiyasi.*

ABSTRACT: This article explores the pedagogical aspects of human rights and responsibilities in the work of Burhan al-Din Marg‘inoni, specifically his renowned “Al-Hidaya”. The study examines how Marg‘inoni’s views on human rights and obligations are interconnected with educational methodologies and how they can be applied in modern pedagogical systems. The article analyzes the ethical and legal dimensions of human rights in Marg‘inoni’s thought and discusses how these principles can be incorporated into contemporary education to foster responsible and ethical individuals. By linking the study of Islamic law with pedagogy, the article aims to demonstrate the relevance of Marg‘inoni’s ideas in shaping the moral and civic development of students.

Keywords: *Burhan al-Din Marg‘inoni, “al-Hidaya”, human rights, responsibilities, pedagogy, Islamic law, educational methodology.*

Kirish. O‘zbekistonning eng mashhur ilmiy meroslardan biri bo‘lgan Burhoniddin Marg‘inoniyning “Al-Hidoya” asari nafaqat islom huquqshunosligining muhim namunalaridan biri, balki ta’lim-tarbiya jarayonining pedagogik aspektlari bilan ham aloqador. Marg‘inoniyning asarida inson huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, ular bilan bog‘liq metodologik va pedagogik nuqtai nazarlar jiddiy o‘rganishga arziydi. Ushbu maqolada, “al-Hidoya” asarida inson huquqlari va majburiyatlari qanday ifodalanganligi, bu jihatlarning pedagogik yondashuvda qanday qo‘llanilishi va ta’lim-tarbiya tizimiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi.

1. Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asariga umumiy tahlil.

Allomaning “al-Hidoya” asari islom huquqining eng muhim va nufuzli manbalaridan biri sifatida tanilgan. Asar, asosan, fiqh (islom huquqi) sohasidagi ilmiy bilimlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, unda inson huquqlari, majburiyatlari, shaxsiy erkinliklar va jamiyatdagi tartib-qoida o‘rtasidagi muvozanat haqida chuqur fikrlar keltirilgan.

Shuningdek, faqihning “al-Hidoya” asari nafaqat fiqhiy masalalarga oid dolzarb mavzularni qamrab oladi, balki unda inson huquqlari va majburiyatlari haqidagi aniq huquqiy-axloqiy qoidalar ham bayon etiladi. Masalan, **Oila va nikoh huquqi – ikki tomonlama mas’uliyat.** “Al-Hidoya” asarida er-xotin o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar haqida quyidagicha aytiladi:

“Agar er xotinini nikohga olsa, unga mahri ma’lum (aniq belgilangan) bo‘lsa, u holda xotinning bu mehnatga haqi bor, er esa uni to‘lashga majburdir” (al-Hidoya, Nikoh kitobi bo‘limi). Bu jumla orqali Marg‘inoniy nikoh institutini shunchaki ijtimoiy kelishuv emas, balki huquqiy-majburiy shartnoma deb tushuntiradi. Bu holatda:

Ayolning huquqi: Mahr olish huquqiga ega bo‘ladi.

Erning majburiyati: Mehnat yoki nikoh sababli yuzaga kelgan moliyaviy majburiyatni (mahrni) ado etish lozim bo‘ladi.

Pedagogik izoh: Bu misol orqali yosh avlodga quyidagilarni o‘rgatish mumkin:

Har bir huquq bilan birga majburiyat ham bo‘ladi.

Adolatli jamiyat uchun ikki tomonlama mas’uliyat muhim.

Islom huquqshunosligida oilaviy tartib qat’iy huquqiy asosga ega.

Marg‘inoniyning yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, insonning huquqlari nafaqat shaxsiy manfaatlarni himoya qilishga, balki jamiyatda adolat va tartibni saqlashga ham qaratilgan. Bu nuqtai nazardan, uning asari faqat huquqiy jihatdan emas, balki ta’lim-tarbiya jarayonining axloqiy va etik tamoyillari bilan ham bog‘liq.

2. Inson huquqlari va majburiyatlari: “Al-Hidoya” asaridagi ta’limiy aspektlar. “Al-Hidoya”da inson huquqlari nafaqat shaxsiy erkinliklar, balki jamiyatdagi bir-biriga nisbatan hurmat va adolat tamoyillari asosida aniqlanadi. Marg‘inoniy huquqlarning ta’lim-tarbiya tizimida qanday qo‘llanilishi haqida aniq fikrlar bildirgan. Bu asarda, inson huquqlari o‘zaro aloqalar va ijtimoiy munosabatlar kontekstida ko‘rib chiqiladi. Marg‘inoniy ta’limda huquq va majburiyatlarning muvozanatini saqlashning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida inson huquqlari va majburiyatlarini o‘rgatish, nafaqat huquqshunoslikka oid bilimlarni berish, balki talabalarda axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu pedagogik yondashuv, zamonaviy ta’lim tizimida ham muhim ahamiyatga ega, chunki inson huquqlari va majburiyatlari ta’lim jarayonida nafaqat bilim, balki shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni ham rivojlantiradi.

3. Pedagogik yondashuv: Inson huquqlari va majburiyatlarini o‘qitishda Pedagogik nuqtai nazardan, Burhoniddin Marg‘inoniyning asaridagi inson huquqlari va majburiyatlari tamoyillari ta’lim tizimida quyidagi aspektlar orqali qo‘llanilishi mumkin:

Shaxsiy mas’uliyatni rivojlantirish: O‘quvchilarga nafaqat o‘z huquqlari haqida ma’lumot berish, balki ular o‘z majburiyatlarini ham tushunib yetishlariga yordam berish.

Jamiyatda adolatni saqlash: Inson huquqlarining himoya qilinishi, lekin shuningdek, ijtimoiy va axloqiy mas’uliyatlar ham ta’limda muhim o‘rin tutadi.

Etik yondashuv: Ta’lim jarayonida huquq va majburiyatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, talabalarga huquqshunoslikdan tashqari, insoniylik va axloqiy mas’uliyatni ham yetkazish.

4. “Al-Hidoya”ning ta’limga ta’siri: Zamonaviy pedagogik tushunchalar bilan ulanish. Burhoniddin Marg‘inoniyning “Al-Hidoya” asaridagi inson huquqlari va majburiyatlariga oid qarashlar zamonaviy ta’lim metodologiyasi va pedagogik

yondashuvlar bilan bog‘lanadi. Bu asar, nafaqat huquqiy bilimlarni o‘rganishda, balki talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘z huquqlari va majburiyatlarini anglagan talaba, jamiyatda mas’uliyatli va axloqiy bo‘lishni o‘rganadi. Pedagogik nuqtai nazardan, bunday yondashuv ta’lim jarayonini insonparvar va ijtimoiy jihatdan javobgarlikni his qiladigan bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa. Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asarida inson huquqlari va majburiyatlariga doir pedagogik va metodologik jihatlar ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Ushbu asar talabalarda huquqiy ongni shakllantirish, jamiyatda adolat va mas’uliyatni o‘rgatish uchun zarur. Marg‘inoniyning fikrlari zamonaviy ta’limning axloqiy va etik yondashuvlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa talabalarni nafaqat bilimli, balki mas’uliyatli fuqarolar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Takliflar. Islom huquqshunosligi asosida tayyorlangan pedagogik dasturlar yaratish lozim.

Burhoniddin Marg‘inoniy kabi allomalarning asarlarida aks etgan inson huquqlari va majburiyatlari haqidagi qarashlar zamonaviy o‘quv dasturlariga integratsiyalashuvi uchun maxsus pedagogik modullar ishlab chiqilishi kerak.

Talabalarga “Islom huquqi va fuqarolik jamiyati” fanini o‘qitish tavsiya etiladi. Bu fanda “al-Hidoya” asaridagi asosiy huquqiy-axloqiy tamoyillar va ularning shaxsiy mas’uliyatni shakllantirishdagi o‘rni chuqur o‘rgatiladi. Bu, ayniqsa, dinshunoslik, huquqshunoslik va pedagogika yo‘nalishlari uchun dolzarbdir.

Pedagogik jarayonda huquqiy madaniyatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish kerak. O‘quvchilar va talabalar nafaqat o‘z huquqlari, balki majburiyatlari haqida ham yetarli tushunchaga ega bo‘lishlari uchun ta’lim-tarbiyada huquqiy madaniyat asoslari chuqur o‘rgatilishi zarur.

Burhoniddin Marg‘inoniy merosi asosida huquqiy-ma’naviy tarbiya darsliklari yaratish lozim. Bu darsliklar orqali yoshlarda adolat, mas’uliyat, hamjihatlik kabi ijtimoiy fazilatlar shakllantiriladi.

Zamonaviy huquqiy-pedagogik tadqiqotlarda klassik manbalarga, xususan, “al-Hidoya” asariga e’tibor kuchaytirilishi lozim. Bu orqali o‘zbek islom huquqshunoslik maktabi an’analari xalqaro darajada ham tanitiladi.

Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliygohlarda “Allomalar merosi va huquqiy pedagogika” yo‘nalishi joriy etilishi maqsadga muvofiq. Bu yo‘nalish orqali klassik islom manbalari zamonaviy ta’lim bilan uzviy bog‘lanadi.

Burhoniddin Marg‘inoniy asarlari asosida interaktiv darslar, muhokamalar va seminarlar o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu talaba-yoshlarning mustaqil fikrlash, huquqiy muammolarni anglash va ularni hal qilishga oid bilimlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Marg‘inoni B. “Al-Hidoya”. – Toshkent: “Ilmiy Nashr”, 2001. – 112 b.
2. Fayzullayeva M. Islom huquqi va ta’lim tamoyillari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 145 b.
3. Ahmedov M. Islomda inson huquqlari. – Toshkent: “Adabiyot”, 2020. – 80 b.

MATBUOT VA NASHRIYOT TERMINLARINI TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI

Bekmurodov Tog‘oymurod Panjiyevich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
togaymurod192@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqola terminologiyada sinonim yoki dubletlikning yuzaga kelishiga oid ayrim masalalar izohi yoritilgan.

Annotation: This article explains some issues related to the agreement of synonymy or doublets in terminology.

Kalit so‘zlar: sinonim, dublet, *tipografiya, bosmaxona, matbaa, muharrir, redaktor, matn, tekst, jild, tom, taqriz, retsenziya, korrektor, musahhih*

Key words: synonym, doublet, typography, printing house, editor, redactor, text, volume, roof, review, reviewer, proofreader

Tilshunoslikda terminlarni tartibga solish masalasi har doim ham dolzarb bo‘lib kelgan. Har bir soha terminologiyasini tartibga solish bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. O‘zbek tilshunosligida sohaviy terminlarni tartibga solish masalasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Lekin qilingan ishlarning salmog‘i bilan chegaralanib qola olmaymiz. Chunki terminlarni tartibga solish masalasining hal qilinishi hamma soha terminologiyalarida ham bir xil deb bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan baho berilsa, sohalar terminologiyasi doirasida o‘z yechimini kutayotgan muammolar talaygina.

V.P.Danilenko ta’kidlaganidek, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko‘rsatkichi shu soha terminologiyasining “qat’iy ilmiy terminologiya”ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi[12]. Olim bu yerda “qat’iy ilmiy terminologiya” deganda biron bir sohaviy terminologiyaning mazkur fan taraqqiyoti bilan uyg‘unlashuvi, muayyan terminologiyaning ayni sohaga oid atamalarni ifodalashdagi hamohangligi, yaratilgan va muomalada bo‘lib turgan terminlarning ma’lum fan tili bilan mos kelishi kabi holatlarni nazarda tutadi.

Bugungi adabiyotlarimizda *“bosma mahsulotlarni nashr etish bilan shug‘ullanuvchi texnika yoki sanoat sohasi”* ma’nosida *tipografiya // bosmaxona // matbaa* terminlari aralash qo‘llanmoqda. Bu sinonim terminlar ichida *tipografiya* hamda *matbaa* terminlari o‘zbek tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan. Xususan, *tipografiya* so‘zi asli yunoncha *“typos”- (iz, shakl+ “grapho” (yozaman)* so‘zlarining birikuvidan yasalgan. *Matbaa* so‘zi ham o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan. *Bosmaxona* termini esa o‘zbek tilining o‘zida yasalgan, ya’ni o‘zbekcha *bosma* so‘ziga forscha *xona* so‘zining qo‘shilishi natijasida vujudga kelgan. Bu terminlarning o‘zbek tilidagi ma’no anglatish darajasi teng hisoblanadi. Chunki “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham har uchala termin sinonim tarzida beriladi va ularning ma’no anglatishi bir xilda ifodalanadi: *Tipografiya – kitob, gazeta va boshqa narsalarni bosib chiqaradigan korxona; bosmaxona, matbaa*[13]. Lekin, bizning nazarimizda, *matbaa* termini ko‘proq toshbosma usulida kitob chop

[12] Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. –М.: Наука, 1977. –С. 157.
[13] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild. A.Madvaliyev tahriri ostida. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. –B. 280.

etishga oid bo‘lib, qadimda faol qo‘llangan. *Tipografiya* esa yaqin vaqtlargacha ancha faol bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik uning qo‘llanish ko‘lami keskin toraydi. Hozirda *bosmaxona* termini har ikki terminga nisbatan ham tilimizda mustahkam o‘rin egalladi. Shu nuqtayi nazardan asosiy termin sifatida *bosmaxona* terminini qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ma’lumki, o‘zbek tilidagi poligrafiya ishlab chiqarishga oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarining aksariyati rus tilidan tarjima qilish evaziga yaratilmoqda. Ba’zi hollarda rus tilidagi muayyan bir terminni o‘zbek tilida ifodalashda terminning shakl va mazmunan uygunlashuviga yetarli darajada ijodiy yondashmaslik, qolaversa, oddiy tarjima qilish yo‘lidan borilganligi sababli ham dubletlik yoki terminning u anglatishi lozim bo‘lgan tushuncha mohiyati bilan uyg‘unlashmaslik kabi terminologik tamoyillarga zid keluvchi holatlar sodir bo‘lmoqda. Yoki tarjima jarayonida rus tilidagi mavjud dubletlik aynan o‘zbek tiliga ko‘chmoqda. Tarjimachilikdagi bunday omillar ham o‘zbek tilida dubletlik hodisasining vujudga kelishiga shart-sharoit yaratmoqda. Masalan, ayni soha terminologiyasining rus tili materialida *полиграфическая продукция* termini bilan *печатная продукция* terminlari ma’lum ma’noda dublet hisoblanadi. Shunga uyg‘un ravishda mazkur dubletlik o‘zbek tilida ham *poligrafiya mahsulot // bosma mahsulot* ko‘rinishidagi variantlikni vujudga keltirgan va ular bir ma’noni anglatishda aralash qo‘llanadi. *Poligrafiya* termini aslida grekcha *polygraphia (polys – ko‘p sonli* va *grapho – yozaman*) so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, aynan tarjima qilganimizda *“ko‘p yozish”* ma’nosini ifodalaydi. *Poligrafiya* terminiga “Библиотечное дело: Терминологический словарь”da quyidagi tarzda izoh berilgan: “*Отрасл техники, специализированная на множественном возпроизведении текста и графических изображений (печатной продукции*)”[14]. Tavsifdan anglashiladiki, poligrafiya matnli va chizma tasvirlarni yoki umumiy nomda bosma mahsulotlarni ko‘p miqdorda chop etishga mo‘ljallangan texnikaning ma’lum bir sohasi. Agar masalaga kengroq yondashilsa, umuman, *poligrafiya mahsuloti* terminining qamrov doirasi *bosma mahsulot* terminiga nisbatan ancha keng. Chunki poligrafiya mahsulotlari aslida ikki yirik guruhga bo‘linadi va ular quyidagi terminlar bilan ifodalanadi: *nashriyot-bosma mahsulotlari, sanoat bosma mahsulotlari.* Nashriyot-bosma mahsulotlari deganda tahrir-nashriyotchilik ishlaridan o‘tgan va o‘zida mujassamlashgan ma’lumotlarni o‘quvchilarga yetkazish uchun mo‘ljallangan bosma asarlar (kitob, jurnal, gazeta kabilar) tushuniladi. Sanoat bosma mahsulotlariga esa nashriyotning ishtirokisiz chiqariladigan turli yorliq, ish qog‘ozlari (blankalar), transport, teatr, kino, konsert chiptalari va idora qog‘ozlari kabi mahsulotlar kiradi. Binobarin, *poligrafiya mahsuloti* bilan *bosma mahsulot* terminlari sinonim terminlar emas, balki alohida-alohida tushunchalarni ifodalovchi ikki mustaqil terminlardir va ularni o‘z ma’nolarida to‘g‘ri qo‘llash lozim.

O‘zbek tili matbuot va nashriyot terminologiyasida hali to‘liq o‘z o‘rnini barqaror egallamagan terminlardan yana biri *“bosma asarni yaratgan yoki yaratishda ishtirok etgan shaxs, shuningdek, o‘z nomidan materiallarni chop ettirgan tashkilot yoki muassasa”* ma’nosini anglatuvchi *muallif // avtor* dublet terminidir. Har ikki termin ham o‘zbek tili uchun o‘zlashma hisoblanadi: *avtor* termini lotin tilidan (“*auctor”), muallif* termini esa arab tilidan o‘zlashgan. Bu terminlar uzoq, yillar davomida parallel tarzda

[14] Библиотечное дело: Терминологический словарь. –М.: Книга, 1986. –С. 112.

qo‘llanib kelindi. Muayyan davrlar bo‘ldiki, ulardan biri faollashsa, ikkinchisi aksiga o‘tdi. Ayniqsa, o‘tgan asrning oxirlariga kelib, o‘zbek matbaachilik terminologiyasida *muallif* terminiga nisbatan *avtor* termini har jihatdan faol iste’molda bo‘ldi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *muallif* so‘ziga nisbatan *avtor* so‘ziga kengroq izoh berilgan: *avtor – adabiy yoki boshqa xil badiiy asar, ilmiy ish, proekt, ixtiro va sh.k. yaratgan kishi. Mana shu tadbirlarning avtorlaridan biri.. kelayotir. Sh. Rashidov, Bo‘rondan kuchli*[15]. Ushbu izohdan ko‘rinadiki, *muallif* so‘zining tushuncha doirasi *avtor* terminiga nisbatan ma’lum darajada chegaralangan bo‘lib, faqat *“biror asarni yaratgan kishi”ga* nisbatan qo‘llangan. Asosiy ma’no anglatish mas’uliyati *avtor* zimmasida bo‘lgan. Hattoki, mazkur lug‘atda *muallif* so‘zi qarshisiga uning kitob tili yoki yozma nutqda oidligi hamda oddiy so‘zlashuvda qo‘llanmasligi ta’kidlangan. Demak, bu davrlarda *muallif* muayyan jihatdan arxaik terminga aylanish darajasiga kelib qolgan edi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: Nega o‘tmishda faol bo‘lib kelgan *muallif* so‘zi bunday jarayonga duch keldi?

Ma’lumki, “Sho‘rolar davrida muayyan terminlarning ma’nosini to‘la ifodalay oladigan, chetdan kirgan terminlarning ma’nosini to‘la ochib bera oladigan o‘z so‘z va terminlarimiz bo‘lgani holda ham ular o‘rnida ruscha yoki yevropacha so‘zlar ishlatildi. O‘zbekcha so‘zlar eskirgan, diniy so‘zlar deb chetga surib qo‘yilgan hollar ko‘p bo‘ldi. Mustaqillik davri terminologiyasining bu dolzarb muammoga teran, odilona qarashi tufayli juda ko‘plab o‘zbekcha so‘z va terminlarimiz o‘z o‘rniga tiklandi, ular hozir tilimizda faol qo‘llanmoqda.”[16] *Muallif* termini keyingi yillarda asosiy ilmiy terminlar safidan joy oldi, uning sinonimi bo‘lgan *avtor* esa birmuncha iste’moldan chiqib qoldi.

Xuddi shuningdek, *muharrir // redaktor, matn // tekst, jild // tom, taqriz // retsenziya* kabi dublet terminlarda ham yuqoridagiga o‘xshash vaziyatni kuzatish mumkin. Mazkur dubletlikdagi terminlarning arab tilidan o‘zlashgan shakllari uzoq davrlar mobaynida o‘zbek tilida faol qo‘llanib kelindi. Lekin *muallif* termini singari, ular ham XX asrning oxirlarida iste’moldan chiqish holatiga kelib qolgan edi. Faqat so‘nggi yillardagi mustaqillik natijasida sodir bo‘lgan keskin o‘zgarishlar bu terminlarni yana faoliyatga olib kirdi va ular bugungi o‘zbek matbaachilik terminologiyasida asosiy ilmiy termin sifatida faol qo‘llanmoqda.

O‘zbek matbaachilik terminologiyasida yaqin davr ichida paydo bo‘lgan dublet terminlar ham mavjud. Ular sirasiga *korrektor// musahhih* terminlarini kiritish mumkin. Ma’lumki, XXI asr boshlariga qadar *bosma nashrni tayyorlashdagi harf terish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni tuzatuvchi nashriyot, tahririyat va bosmaxona xodimi* ma’nosini anglatishda, asosan, *korrektor* termini qo‘llanib kelindi. *Korrektor* termini aslida lotincha so‘z bo‘lib, *corrector – “tuzatuvchi, to‘g‘rilovchi”* ma’nosini ifodalaydi. Bu so‘z o‘zbek tiliga rus tili orqali o‘zlashib o‘zbek matbuot va nashriyot terminologiyasidan barqaror o‘rin egalladi. Lekin keyingi yillarda nashr qilinayotgan adabiyotlarda *korrektor* termini o‘rnida *musahhih* termini qo‘llana boshlandi. Qizig‘i shundaki, *musahhih* terminining izohi o‘zbek tilidagi mavjud lug‘atlarda berilmagan. Demak, bu so‘z so‘nggi yillardagi o‘zbek tili leksikasida mavjud bo‘lmagan. Mustaqillik yillarida bu so‘z ijtimoiy ehtiyoj tufayli hech qanday majburiylik yoki tazyiqsiz o‘zbek tili leksikasida yana paydo bo‘ldi. *Musahhih* terminining *korrektor* o‘rnida qo‘llanishi

[15] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. A.Madvaliyev tahriri ostida. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. –B. 183.
[16] Бектемиров Х., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. –Тошкент: Фан, 2002. –Б. 11–12.

to‘grimi? Bu savolga javob berish uchun *musahhih* terminining ma’no ko‘lamiga nazar tashlash lozim. Yuqorida ta’kidlanganidek, *musahhih* so‘zi o‘zbek tilidagi Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun tuzilgan talay lug‘atlarda yoki o‘zbek klassik adabiyoti asarlariga oid lug‘atlarda ham deyarli uchramaydi. Shuningdek, 2001-yilda chop etilgan “Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lugati”dan[17] ham bu so‘z o‘rin olmagan.

Musahhih termini arabcha bo‘lib, uning arab tilidagi fe’l shakli *sahhadir*. Arab tilida *sahha* fe’li ko‘p ma’noli hisoblanadi: *sahhatun – sog‘-salomat bo‘lmoq; sahhaha – to‘g‘rilamoq, tuzatish kiritmoq. Demak, musahhih “tuzatuvchi, to‘g‘rilovchi; korrektor“* ma’nolarini anglatadi va uning *korrektor* o‘rnida qo‘llanishi o‘zini oqlaydi. Kezi kelganda aytish joizki, muayyan davrlarda rus tilidan o‘rinsiz ravishda qabul qilingan terminlarning yuqoridagi tarzda muqobillari bilan almashinuvi o‘ziga xos ijobiy natijalarni ham bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, terminlarning shakllanish hamda yasalish yo‘llari xususida so‘z ketganda quyidagi jihatlarni inobatga olish taqozo etiladi: o‘z milliy tilning tayyor leksik boyliklaridan unumli foydalanish; boshqa tillarning so‘z boyliklaridan o‘rni bilan istifoda etish (o‘zlashtirish); tayyor standart terminelementlar (o‘zbekcha va baynalmilal)ni qo‘llash; morfologik (affiksatsiya), sintaktik (kompozitsiya) va semantik so‘z yasalishi vositalariga murojaat qilish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild. A.Madvaliyev tahriri ostida. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. –B. 280.
2. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. –С. 157.
3. Библиотечное дело: Терминологический словарь. –М.: Книга, 1986. –С. 112.
4. Бектемиров Х., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. –Тошкент: Фан, 2002. –Б. 11–12.
5. Ҳозирги ўзбек тили фаол сўзларининг изоҳли луғати / Ҳожиев А. ва б. – Тошкент: Шарқ, 2001.

Internet adabiyotlari:

1. www.literature.uz
2. www.genhis philol.ru
3. www.library.ziyonet.uz
4. www.google.com
5. www.kitob.uz

[17] Ҳозирги ўзбек тили фаол сўзларининг изоҳли луғати / Ҳожиев А. ва б. –Тошкент: Шарқ, 2001.

УДК 3

OTA-ONALAR ORASIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Farmonova Diyora
Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi
«Ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlarga kiradigan bolalar muommolarini o‘rganish» bo‘limi mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ota-onalarning ekologik ongi va madaniyatini shakllantirish jarayonida oila va jamiyatning tutgan o‘rni, xususan, farzandlarida tabiatga muhabbat va ehtiyotkorlik hissini uyg‘otishdagi roli, shuningdek, ekologik tarbiyaning samarali usullari atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ekologik tarbiya, ota-onalar, ekologik madaniyat, ijtimoiy institutlar, oila, jamiyat, sotsiologik yondashuvlar, psixologik omillar, barqaror rivojlanish.

Abstract. This article examines the role of family and society in developing parents' environmental awareness and culture, particularly their role in instilling a love and respect for nature in their children, along with effective methods of environmental education.

Keyswords: environmental education, parents, environmental culture, social institutions, family, society, sociological approaches, psychological factors, sustainable development.

Bugungi kunda ekologiyani asrab-avaylash, uni muhofaza qilish, yosh avlodning ekologik salohiyatini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada ota-onaning o‘rni va mas’uliyati beqiyosdir. Ekologiyaga oid mavzularda pedagog, psixologlardan ko‘plab o‘zbek olimlari T. L. Xurvalieva, M. R. Akramov, G. U. Uralova, O. J. Xolmuminova va boshkalar, rus olimlaridan Ye.N. Novosyolova, Serebryakova T.A., Semenova L.E, Yeleskaya N. M, Klemyashova Ye. M tomonidan o‘rganilgan. Bola dunyoni avvalo oila davrasida, ota-onasi orqali taniydi. Tabiat go‘zalliklarini ko‘rish, his qilish, ulardan zavq olishni ham bola dastlab oilasida, ota-onasi yordamida o‘rganadi. Atrof-muhitga muhabbat, uni asrashga intilish ham aynan shu davrda shakllana boshlaydi. Oila ishtirokisiz bolalarda axloqning poydevorini qo‘yish mumkin yemas. Bolaning oilasi ijtimoiy tajriba manbai hisoblanadi. Bu yerda u namuna modellarini topadi va uning ijtimoiy tug‘ilishi sodir bo‘ladi. Agar biz sog‘lom, ma’naviy va axloqiy avlodni tarbiyalashni istasak, bu muammolarni "butun dunyo": bolalar bog‘chasi, jamoatchilik, oila bilan birgalikda, o‘zgaruvchan tarzda hal qilishimiz kerak [1].

Ekologik ta’lim - bu talabalarni tabiiy va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlar madaniyati bilan tanishtirishning uzoq muddatli ko‘p o‘lchovli jarayoni; ekologik ongni shakllantirish, tabiiy dunyoga qadriyatli munosabatni tarbiyalash, qulay muhitni saqlash uchun jamiyat oldida shaxsiy javobgarlik, shuningdek ekologik me’yorlar va me’yorlarga ongli ravishda rioya qilish. qoidalari. Ekologik ta’limning asosiy maqsadi ekologik madaniyatni shaxsning yangi sifati, shu jumladan rivojlangan ekologik ong, hissiy, axloqiy va atrof-muhitga amaliy munosabat sifatida shakllantirishdir [2].

Ota-onalar farzandida tabiatga muhabbat uyg‘otish uchun ko‘plab amaliy ishlarni bajarishi mumkin. Masalan, dam olish kunlari oilaviy sayrlar uyushtirib, farzandini o‘rmonga, tog‘ga, daryo yoki dengiz bo‘yiga olib borishi, o‘simliklar va hayvonot dunyosi bilan yaqindan tanishtirishi mumkin. Birgalikda daraxt ekish, gul parvarishlash, qushlarga don berish, uy hayvonlariga g‘amxo‘rlik qilish orqali bolada tabiatga mehr-muhabbat, uni asrab-avaylash hissini shakllantirish mumkin. Chiqindilarni saralash va ularni qayta ishlashga topshirishga odatlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Bolani to‘laqonli ekologik tarbiyalash uchun oilaning asosiy vazifalarini aniqlash mumkin:

- bolalarni tabiat va jamiyatdagi xulq-atvor normalariga rioya qilishga undaydigan ijobiy axloqiy fazilatlarni rivojlantirish;
- axloqiy va estetik tuyg‘ularni tarbiyalash;
- kognitiv va ijodiy yehtiyojlarni shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi inson ekologik madaniyati rivojlanishining qimmatli bosqichidir. Ushbu davrda shaxsiyat asoslari, shu jumladan tabiatga va atrofdagi dunyoga ijobiy munosabat qo‘yiladi. Bu yoshda bola o‘zini atrof-muhitdan ajrata boshlaydi, boshqalarga nisbatan hissiy va qimmatli munosabatni rivojlantiradi. Bolaning tabiat bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladigan shaxsning axloqiy va yekologik pozitsiyalarining asoslari shakllanmoqda. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilimlarni to‘plash o‘z-o‘zidan maqsad yemas. Ular dunyoga hissiy, axloqiy va samarali munosabatni rivojlantirishlari shartdir [3].

Ota-onalarning ekologik ta’lim muammosiga munosabatini aniqlash uchun sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazildi. Ota-onalarning javoblari ekologik ta’lim bilan bog‘liq masalalarni tushunishlariga yordam berdi. Ekologik ta’lim jarayoniga nafaqat bolalarni, balki ekologik muammolarni ko‘ra olmaydigan insoniy motivlariga befarq bo‘lgan kattalarni ham jalb qilish aniq va juda muhimdir. Sotsiologik tadqiqot emperik bazasi sifatida respublikamizning Toshkent, Toshkent viloyati, Samarqand, Navoi, Qarshi, Buxoro, Surxandaryo, Sirdaryo viloyatlaridan ota-onalar ishtirok etdi. Respondentlarning umumiy soni 152 kishini tashkil qildi. Tadqiqotimizning natijasi shuni ko‘rsatadiki,



respondentlarimizdan *«Sizningcha, farzandingizga ekologik tarbiyani kim olib borishi kerak?»* degan savolimizga 51% ota-onadan, chunki bola birinchi oilada tarbiya oladi deb javob berishgan. Ulardan 18% maktab, bog‘cha, ta’lim muassasalaridan, 25% esa hammasi birgalik ota-ona, maktab, mahalla deb javob berishgan. Qolgan 5% jamiyat va atrof muhitdan, chunki bola o‘ziga kerakli hulq-atvorni tashqaridan o‘rganadi deb javob berishgan. Bu ko‘rsatgichlardan shuni bilishimiz mumkinki, ota-onalar ekologik tarbiyani shakllantirishda farzandlariga etiborsiz emasligi malum bo‘ldi ***(1-rasm).***

1-rasm. Respondentlarning farzandlari ekologik tarbiyani kim olib borishi haqida javoblar, %

Respondentlardan «*Oilangizda ekologik tarbiyani qanday shaklda olib borasiz?*» degan savolga, 50% ota-onalar suhbatlar orqali bolalarimizga atrof-muhitni asrash haqida tushuntirib, ularga shaxsiy namuna bo‘laman degan javobni belgilashgan. 32% uyda chiqindilarni saralash, daraxat ekish va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatishini belgilashgan. Ulardan 14% esa farzanim bilan ekologik mavzularda kitob o‘qib, hujjatli filmlar tomosha qilamiz degan javobni belgilashgan. Qolgan 4% suhbatlar o‘tkazaman, bolani tabiatga munosabatini kuzataman, shaxsiy namuna ko‘rsatib, hayvonlarni parvarish qilishni o‘rgataman, hech qanaqa shaklda olib bormayman degan javoblarni belgilashgan. Ushbu diagrammamiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, respondentlarimizning 96% farzandlariga ekologik tarbiyani o‘rgatish shakllaridan foydalanishlari aniqlandi. Qolgan 4% esa ekologik bilimlarining nisbatan kamroq ekanligini ko‘rishimiz mumkin ***(2-rasm)***

2-rasm. Respondentlarning oilada tarbiyani qanday shaklda olib borishi haqida javoblar, %

So‘rovnoma orqali to‘plangan malumotlar tahlil qilish natijasida ota-onalarning ekologik bilim, hamda atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlari ko‘rsatgichlari aniqlandi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ota-onalarning aksariyati ekologik muammolarning dolzarbligini tushunadilar, ammo ularni hal etishda o‘zlarining shaxsiy mas’uliyatini yetarlicha anglab yetmaydilar. Ko‘pchilik ota-onalar ekologik bilimlarning

yetishmasligini, shuningdek, kundalik hayotda ekologik tamoyillarga amal qilishda amaliy ko‘nikmalarning kamligini tan oladilar. Shu bois, ota-onalarning ekologik ongi va madaniyatini oshirish, ularda atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish zarur. Buning uchun esa ommaviy axborot vositalari, ta’lim muassasalari va mahalla institutlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish, turli xil targ‘ibot va tashviqot tadbirlarini tashkil etish, shuningdek, ota-onalar uchun maxsus o‘quv seminarlari va treninglar o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Елецкая Н. М. Роль семьи в экологическом воспитании дошкольников / Н. М. Елецкая, С. С. Зайцева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2022. — № 41 (436). — С. 50-53. — URL: https://moluch.ru/archive/436/95468/

2. В.А. Самкова, Е.М. Клемяшова и др. - М.: Экологическое образование и воспитание молодежи [Текст]: учеб.-метод. пособие для учителей общеобразовательных школ и педагогов дополнительного образования / ИАЭП, 2016. - 416 с. EDN: https://elibrary.ru/VOIWTF

3. https://planetachi.ru/vospitanie/rol-semi-v-ekologicheskom-vospitanii-detej

SHARQ ALLOMALARINING TABIAT VA EKOLOGIYA HAQIDAGI FIKRLARI

Matnazarova Karomat Otaboevna

Oriental universiteti dotsenti

Yergasheva Nargiza G‘ofurjon qizi

Oriental universiteti 1- kurs magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada insoniyat tarixida tabiat va atrof-muhitga munosabat turli davrlarda, turli sivilizatsiyalar tomonidan o‘ziga xos tarzda shakllanganligi, Sharq uyg‘onish davrining buyuk allomalari o‘zlarining ilmiy, falsafiy, axloqiy va diniy qarashlari orqali tabiatga nisbatan chuqur hurmat, uni asrash, muvozanatda saqlash g‘oyalarini ilgari surganligi, inson va tabiat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, ekologik muvozanatning muhimligi, resurslardan oqilona foydalanish masalalari tahlil qilingan va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Tabiat, ekologiya, ta`lim, tarbiya, inson, koinot, ekologik bilim, ekologik madaniyat, atrof-muhit, suv, tuproq.

Аннотация. В данной статье рассматривается, что отношение к природе и окружающей среде на протяжении истории человечества формировалось по-разному в разные эпохи и различными цивилизациями. Великие ученые эпохи Восточного Возрождения через свои научные, философские, нравственные и религиозные взгляды продвигали идеи глубокого уважения к природе, её охраны и поддержания баланса. Анализируется неразрывная связь между человеком и природой, важность экологического равновесия и рационального использования ресурсов, а также предлагаются практические рекомендации.

Ключевые слова: природа, экология, образование, воспитание, человек, вселенная, экологические знания, экологическая культура, окружающая среда, вода, почва.

Annotation. This article examines how attitudes toward nature and the environment have developed in different ways throughout human history and across various civilizations. The great scholars of the Eastern Renaissance promoted ideas of deep respect for nature, its preservation, and the maintenance of ecological balance through their scientific, philosophical, ethical, and religious views. The article analyzes the intrinsic connection between humans and nature, the importance of ecological balance, and the rational use of resources, and it offers practical recommendations.

Keywords: nature, ecology, education, upbringing, human, universe, ecological knowledge, ecological culture, environment, water, soil.

Sharq mutafakkirlari asarlarida inson, tabiat va koinot o‘rtasidagi uyg‘unlik, o‘zaro aloqadorlik g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Ularning qarashlarida tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, atrof-muhitni asrash inson burchi sifatida talqin etiladi. Bu fikrlar bugungi ekologik muammolar avj olgan davrimizda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Sharq allomalari asarlarida tabiat va ekologiya haqidagi fikrlar:

Sharq allomalaridan – Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy, Jomiy kabi buyuk mutafakkirlar o‘z asarlarida tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatga alohida e’tibor berganlar. Ularning ilmiy, falsafiy va adabiy qarashlarida tabiatga hurmat, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish g‘oyasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, Abu Nasr Forobiy tabiatni koinotning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, insonning unga moslashuvi va muvozanatni saqlashi zarurligini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, tabiatga zarar yetkazgan har qanday harakat jamiyatga ham salbiy ta’sir qiladi degan fikrini bildirgan. (Forobiy, [2.1993]).

Ibn Sino esa tabiatni inson salomatligi bilan bog‘lagan. U minglab o‘simlik va hayvon turlari haqida ma’lumot bergan, tabiat boyliklarini tibbiyotda qo‘llashni o‘rgatgan. U inson salomatligini saqlash uchun tabiatga mehr bilan qarash lozimligini uqtirgan. (Ibn Sino, [3.1973]).

Al-Beruniy esa geologiya, meteorologiya, mineralogiya kabi sohalarda chuqur tadqiqotlar olib borib, tabiatni ilmiy asosda o‘rganish zarurligini targ‘ib qilgan. Uning fikricha, tabiat – inson uchun sirli, ammo tushunilishi kerak bo‘lgan muqaddas manba deb ta`riflaydi. (Beruniy, [3.1973]).

Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy kabi adiblar esa tabiatni go‘zallik, poklik va ilohiy tartib belgisi sifatida tasvirlaganlar. Ular tabiat obrazlari orqali inson qalbida mehr-oqibat, yaxshilik, sabr-toqat kabi tuyg‘ularni uyg‘otishga intilganlar.

Sharq allomalari asarlaridagi ekologik qarashlar insonni tabiatga nisbatan mas’uliyatli bo‘lishga undaydi. Ularning qarashlarida tabiat - bu faqatgina resurs emas, balki tarbiya manbai, ilhom va hayotning asosi sifatida ko‘riladi. (Egamberdiyev va Otamuratova, [4.1997]).

Yuqoridagi fikrlarga tayangan xolda bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanadi. (Qodirov va boshqalar, [5.1999]). Jamiyatning atrof-muhit bilan o‘zaro buzilgan aloqasi keng jamoatchilik

o‘rtasida katta tashvish uyg‘otmoqda. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari ortiq foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi o‘zgarib bormoqda. Yashil o‘rmonlar siyraklashib, o‘simlik va hayvonot turlari kamaymoqda, foydali qazilmalar tugab bonnoqda. Suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi, chiqindi moddalarning ortib borishi natijasida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, elektr energiya va chuchuk suv muammolari borgan sari murakkablashmoqda. Oqibatda, million-million yillar davomida turg‘un bo‘lgan tabiiy holatga putur yetmoqda.

Tabiatning ekologik barqarorligi, turg‘unligi va uning tabiiy qommlarning buzilishiga insonda ekologik bilimlarning yetishmasligi, tabiatning kelajakdagi ekologik holati qanday bo‘lishini oldindan ko‘ra bilmasligi sabab bo‘lmoqda. (Ergashev, [6.2003]).

Ekologik bilim — bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o‘zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhit o‘rtasida bo‘lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, hajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo‘llarini o‘zlashtirishdan iboratdir. (Mavlonova va boshqalar, [1.2016]).

Inson tabiatga, o‘zini o‘rab olgan muhitga nisbatan o‘z muno-sabatini o‘zgartirishi, tabiat qonunlarini bilishi, o‘rganishi va ular asosida o‘z hayotini rivojlantirishi shart. Tabiat qonunlariga mos keladigan hayot yo‘llarini ishlab chiqish kerak. Aks holda inson va jamiyat katta tabiiy ofatlarning kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi va shu ofatlardan halok bo‘ladi.

Bir necha million yillar davomida bunyod bo‘lgan koinotning tabiiy ko‘rinishi keyingi yillarda juda og‘ir holatga tushmoqda. Havo buzildi, ifloslandi. Jumladan, tuproq zaharli moddalar bois jarohatlandi, suvlar turli moddalar bilan ifloslandi va hokazo. Bu holatlar inson salomatligiga salbiy ta'sir qila boshladi. , [5.1999]).

Hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri fan-texnika yutuqlari asosida aholining turli tabaqalari orasida ekologik ta'lim- tarbiya va madaniyatga oid bilimlarni oshirish yo‘li bilan tabiat muhofazasini tezlashtirishning turli chora-tadbirlarini ishlab chiqish hisoblanadi. (Mavlonova va boshqalar, [1.2016]

Ekologik ta'lim va tarbiyaning tub ma'nosi — tabiat va jamiyat o‘rtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bog‘lovchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o‘rganish, hayotga tatbiq qilishdan iboratdir.

Ekologik ta'lim va tarbiya — bu insonni tabiatga qadam qo‘ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko‘paytirish, bog‘-rog‘lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg‘otishdan iboratdir. (Ergashev, [6.2003]).

Insonni o‘rab turgan tabiiy muhit va uning boyliklarini biladigan, undan tejamkorlik bilan foydalanadigan, saqlaydigan, tabiat boyligiga, go‘zalligiga go‘zallik qo‘shadigan, ijtimoiy va tabiiy qonunlarni biladigan bilimdon shaxsni yetishtirish — bu ekologik tarbiya maqsadi. (Egamberdiyev va Otamuratova, [4.1997]).

Tabiatga nisbatan hurmat va e'tibor bilan qaraydigan insonlarning har bir qarich yerida bo‘layotgan ijobiy va salbiy o‘zgarish-larni sezadi, kuzatadi, tabiatga yordamga boradi, ya'ni yiqilgan butani tiklaydi, kasal hayvonni tuzatadi, davolaydi, iflos suvni tozalashga harakat qiladi, yong‘inni o‘chiradi va hokazo.

Hozirgi kunda jamiyat ichidagi, jamiyat bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashib borayotgan bir davrda, xo‘jalikning turli sohalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, atrof-muhit muhofazasi va tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanishga oid chuqur bilimli, ekologik ma'lumotli yoshlarni tarbiyalash vaqti keldi.

Inson onadan tug‘ilib, dunyoga kelgan chog‘idanoq, tabiat ehsonidan bahramand boiadi. Ilk bor havodan to‘yib nafas oladi. Odamzod o‘sib-unishi uchun oziq-ovqat, suv, quyosh harorati juda zarur bo‘lib, u bularning hammasini tabiatdan oladi. Insonni ona tug‘ib tarbiyalasa, tabiat — voyaga yetkazadi. Shuning uchun uni „Ona-tabiat" deb atashadi. Odamzodning sog‘lom bo‘lishi uni o‘rab olgan atrof-muhitga, tabiatga bog‘liq. Tabiat musaffo bo‘lsa, odam ham sog‘lom, baquvvat bo‘ladi.

Odam har nafas olganda uning o‘pkasiga yarim litrgacha havo kiradi. Odam bir minutda 16 — 18 marta nafas oladi yoki tanaga 8— 9 litr havo kiradi. Bu miqdor bir kecha-kunduzda 11 ming litrdan ortadi. Demak, havo inson tanasi uchun eng muhim va zarur tabiat in'omidir. Havoga muntazam ravishda aralashib turadigan iflos chang o‘pkada gaz almashuviga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Bu insonning sog‘ligini bora-bora izdan chiqarib, turli-tuman xastaliklarni vujudga keltiradi.

Yer yuzidagi barcha odamlar, barcha jonivorlar nafas olish bilan kislorodni yutib, karbonat angidrid (is gazi) chiqaradi. Bundan tashqari, turli jarayonlarda, masalan, ko‘mir yonganda, avtotransport ishlaganda uning dvigatelidagi yonish jarayoni orqali havoga karbonat angidrid va boshqa zaharli gazlar chiqib turadi. Havoning bunday ifloslanishi, uning tarkibida karbonat angidrid-ning ko‘payishi inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi.

Tabiat shanday odil mo‘jizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Chunonchi, chiqarilgan karbonat angidridni o‘simliklar yutib, uni kislorodga aylantiradi. Demak, o‘simliklar dunyosi, ramziy ma'noda aytganda, havoni chang va karbonat angidriddan tozalab beruvchi bebaho vositadir. Bundan inson o‘z atrofini o‘rab turgan tabiatni, uning o‘simliklar dunyosini ko‘z qorachig‘iday asrabgina qolmay, uni boyitishi, qo‘lidan kelganicha ko‘proq daraxt ekishi,ko‘kalamzorlashtirishga intilishi zaair degan xulosa kelib chiqadi. Shuning uchun ota-bobolarimiz daraxt ekish, bog‘-rog‘ yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekkan kishining ikki dunyosi obod bo‘ladi, deb bejiz aytishmagan. Muhammad alayhissalom hadislarida bu ishning savobi xususida quyidagilar aytilgan: „Ekmoq niyatida qo‘lingizda ko‘chat turgan paytda, bexosdan qiyomat qoyim bo‘lib qolishi aniq bo‘lganda ham, ulgursangiz, uni ekib qo‘ying".(Mavlonova va boshqalar, [1.2016]).

Inson ehtiyoji uchun zarar bo‘lgan suv, oziq-ovqat mahsu-lotlari, kiyim-kechak ham tabiatdan olinadi, hattoki insonning xastalikdan qutulishi, salomatligini tiklash uchun zarur bo‘lgan dori-darmonlar ham ona tabiatda yetishgan mevalar, turli giyohlar va ziravorlardan tayyorlanadi. Inson tanasida birorta ortiqcha a'zo bo‘lmaganiday, tabiatda ham ortiqcha yaratilgan birorta narsa yo‘q. Ularning hammasi hayot uchun zarur.

Keyingi yillarda esa ularga nisbatan shafqatsizlarcha munosabatda bo‘lindi. Tabiiy daryolarni bo‘g‘ib, yo‘lini to‘sib, sun'iy dengizlar yaratish, cho‘llarni o‘zlashtirish bilan shug‘ullanildi. Bu „yutuqlar" tufayli tabiat qonunlari hamda uning murakkab va nozik muvozanati buzildi. Biroq, odamlar buning turli-tuman ofatlar keltirib chiqarishi mumkinligini hisobga olmadi. Natijada o‘t-o‘lanli yaylovlar, yam-yashil maysazorlar payxon qilinib, yangi yerlar o‘zlashtirildi. Ekinlarga qiron keltiradigan hasharotlarni yeb

bitiradigan qushlarning bir qismi yo‘qolib ketdi. Bu osmondan va yerdan sepiladigan og‘ular kasofatidir.

Abu Ali ibn Sino: „Dunyoda chang va tutun bo‘lmaganida, odamzod ming yil umr ko‘rishi mumkin edi", — degan edi.

Atrof-muhitning tozaligini ta’minlash o‘zimizga bog‘liq. Tog‘lardan keladigan suv tiniq, sof bo‘ladi, lekin ba'zi kimsalar-ning o‘ylamay-netmay oqavalarni, axlatlarni tashlashlari natijasida suvlarimiz ifloslanadi. Ta’til kunlari bolalar shu iflos suvlarda cho‘miladilar va turli kasalliklarga chalinadilar.

Biz katta-yu yosh toza havodan bahramand bo‘lishlari uchun shahrimizga ko‘chat ekib ko‘kalamzorlashtirsak, uning ozodaligini saqlasak, o‘zimizning sog‘ligimizni saqlagan bo‘lamiz.

Bahor faslida ko‘chat ekish oyligi o‘tkaziladi. „Bog‘ni boqsang bog‘ bo‘ladi" degan xalq maqoli bejiz aytilmagan. Shunday ekan, nihollarni yaxshi niyat bilan ekish, parvarishlash, gullar ekib, o‘stirish har bir o‘quvchi va kattalarning insoniy burchidir.

O‘zbek xalqi qadriyatlari orasida tabiatni saqlash, qadriga yetish, chiroyiga chiroy, ko‘rkiga ko‘rk qo‘shish odatlari bor. [4.1997]).

Inson tabiatdagi har bir giyoh, o‘t-alaf, dov-daraxt, parranda-darrandalarni hamda nimayiki kerakli bor narsani zarur deb biladi.

Ota-bobolarimiz zilol suvni, buloqlarni, so‘lim daraxtzorlarni, qoya-g‘orlarni, xosiyatli o‘t-o‘lanlarni, gul-giyohlarni asrashga, niyati g‘araz kishilardan saqlashga, toptamaslikka, oyoqosti qilmaslikka alohida e'tibor berib kelganlar.

Xulosa qilib aytganda, ekologik muammolar tobora kuchayib borayotgan bir paytda Sharq allomalarining qarashlari biz uchun ibrat bo‘lishi kerak. Tabiatga mehr bilan munosabatda bo‘lish, uni asrab-avaylash, kelajak avlodlarga sog‘lom atrof-muhitni qoldirish har bir insonning muqaddas burchidir. Sharq mutafakkirlarining ekologik g‘oyalari bugungi zamonaviy ekologiya bilan hamohang bo‘lib, barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi muhim fikrlar manbayidir. Ularning qarashlarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish bugungi avlod uchun juda dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmankulova, K.O.Matnazarova, P.T.Xolmatov, M.K.Shirinov, “Umumiy pedagogika” Darslik. - T.: "Navro‘z", 2016.

2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi”, 1993 yil.

3. Abu Rayhon Beruniy. Hikmatlar. –T.: “Yosh gvardiya”, 1973 yil.

4. Egamberdiyev R., Otamuratova S. Buyuk ajdodlarimiz asarlarida ekologik ta’lim va tarbiyaning yoritilishi. Urganch, 1997.

5. Qodirov E.V. va boshqalar. Tabiiy muhitni muhfazalashning geoekologik asoslari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1999.

6. Ergashev A.Umumiy ekologiya.-T.: “O‘zbekiston”, 2003 yil

INKLYUZIV TA’LIMGA JALB QILINGAN NUTQIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI MUMTOZ MUSIQA ASARLARI ASOSIDA KORREKSIYALASH

Yuldoshev Umidjon Yuldoshevich

Xalqaro Nordik universiteti dotsenti. p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta’limga jalb qilingan nutqida nuqsoni bor bolalarni mumtoz musiqa asarlari asosida korreksiyalash faoliyati hamda ushbu jihatning ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy yondashuvlar asosida o‘quvchilarning ruhiyatiga mumtoz musiqaning ta’sirini o‘rganish, shuningdek pedagogik - psixologik komponentlarni shakllantirish haqida so‘z boradi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы коррекционной деятельности детей с речевыми нарушениями, занимающихся инклюзивным образованием на основе классической музыки, а также изучение влияния классической музыки на психику обучающихся на основе современных подходов к образовательному процессу, а также формирование педагогических и психологических компонентов.

Abstract: This article examines the issues of corrective activities of children with speech disorders involved in inclusive education based on classical music, as well as the study of the influence of classical music on the psyche of students based on modern approaches to the educational process, as well as the formation of pedagogical and psychological components.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, mumtoz musiqa, nutq, intellectual rivojlanish, ritm, his-tuyg'u, ijtimoiy ko‘nikmalar, metod, musiqiy terapiya.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, классическая музыка, речь, интеллектуальное развитие, ритм, эмоции, социальные навыки, метод, музыкальная терапия.

Key words: Inclusive education, classical music, speech, intellectual development, rhythm, emotions, social skills, method, music therapy.

Inklyuziv ta’limga jalb qilingan nutq buzilishiga ega bo‘lgan bolalarni milliy mumtoz musiqa asarlari asosida korreksiyalash masalasi bu – juda dolzarb va muhim bir soha bo‘lib, bolalarning rivojlanishida san'at, xususan, musiqa va musiqa terapiyasining o‘rni katta. Mumtoz musiqa asarlarini qo‘llash, nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun bir qator foydali jihatlar yaratishi mumkin. Bu jarayon bolalarning hissiy, intellektual va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Mumtoz musiqa bolalar uchun hissiy ifoda va kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Musiqa, ritm, va melodiya orqali, bolalar o‘zlarini ifoda etish, his-tuyg'ularini boshqarish va boshqa insonlar bilan muomala qilishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, bolalar musiqa orqali nutq, xotira va e'tiborni rivojlantiradilar.

Nutq nuqsonli bolalar (yuqori sinf o‘quvchilari) uchun jismoniy rivojlanishida ham, masalan, motorik ko‘nikmalarni yaxshilashda musiqa juda muhim o‘rin tutadi. Mumtoz musiqa asarlari ritm va harakatlarni o‘zaro bog'lash orqali bolalarda koordinatsiyani va muvozanatni yaxshilashga yordam beradi.

Mumtoz musiqa, bolalarning kognitiv rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega.

Musiqa o‘qish va tinglash jarayonida bolalar eshitish, tushunish va analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, bolalar uchun musiqa asarlarini o‘rganish va ijro etish, ular uchun intellektual qobiliyatlarni kuchaytirish, ayniqsa, nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Mumtoz musiqa asarlarini bolalar bilan interaktiv tarzda, masalan, qo‘shiq aytish, musiqa asboblarini chalish yoki raqsga tushish orqali amaliyot qilish juda samarali. Bu jarayonlar bolalarning mustahkam ijtimoiy ko‘nikmalarini, o‘zaro hamkorlik qilishni va guruhda ishlashni rivojlantiradi.

Inklyuziv ta’limga jalb qilingan nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni mumtoz musiqa asarlari asosida korreksiyalash masalasida fikr borar ekan, musiqaga asoslangan korreksiyalash metodlarini eslab o‘tish va ularni tahlil qilish ahamiyatlidir.

- Ritm va harakat: Bolalarga musiqa ritmi asosida turli harakatlarni bajarishni o‘rgatish, ularning motorik ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.
- Melodiya va vokal ishlash: Nutqdagi nuqsonlar bo‘lgan bolalar uchun vokal ishlash (kuylash, ovoz chiqarish) nutqni rivojlantirishda samarali usuldir.
- Hissiy ifoda va musiqiy terapiya: Musiqa orqali bolalar hissiyotlarini ifoda etishni o‘rganadilar, bu esa ularning ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni musiqa asarlari yordamida korreksiya qilish, bu turdagi bolalarga nutq rivojlanishini yaxshilashda yordam beruvchi samarali metodlardan biridir. Musiqa bolalarning ruhiy va jismoniy holatini yaxshilash, diqqatni jamlash va nutqni rivojlantirishda o‘ta muhim rol o‘ynaydi.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun musiqa asarlari yordamida korreksiya qilishning asosiy afzalliklari:

1. Ritm va intonatsiyani rivojlantirish**:** Musiqa asarlari bolalarga ritm va intonatsiyani rivojlantirishda yordam beradi. Bu nutqni to‘g‘ri talaffuz qilish, ohanglarni aniq ifodalash va tovushlar orasidagi farqlarni tushunishga yordam beradi.

2. Diqqat va xotirani oshirish**:** Musiqa bolalarning diqqatini jamlash va xotirasini kuchaytirishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, nutqni shakllantirish va so‘z boyligini oshirishda foydali bo‘ladi.

3. Tovush va talaffuzni yaxshilash**:** Musiqada tovushlar, qo‘shiq ohanglari va qoralamalar yordamida bolalarning talaffuzini yaxshilash mumkin. Bu metod orqali ular so‘zlarni to‘g‘ri va aniq talaffuz qilishni o‘rganishadi.

4. Emotsional ifoda**:** Musiqa bolalarga o‘z fikrlarini va hissiyotlarini turli xil ohanglar va ritmlar orqali ifodalashni o‘rgatadi. Bu esa nutq va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

5. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish**:** Guruh bo‘lib musiqa asarlarini ijro etish bolalarga jamoada ishlashni, o‘zaro hamkorlikni va muammolarni birgalikda hal qilishni o‘rgatadi. Bu ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi.

Korreksiya qilishda ishlatiladigan musiqa asarlarini tanlash: Ko‘ngilochar qo‘shiqlar: bolalar uchun mos bo‘lgan, tushunarli va qayta-qayta eshitishga qulay qo‘shiqlar tanlanishi kerak. Ular yengil va oson yodga olinadigan so‘zlarga ega bo‘lishi zarur. Ritmik mashqlar: musiqa orqali ritmik mashqlar bajarish, bolalarga so‘zlarni aniq talaffuz qilishda yordam beradi. Misol uchun, qo‘shiq kuylashda musiqaning ritmiga mos ravishda so‘zlarni aytish. Musiqali o‘yinlar: musiqa va o‘yinni birlashtirish orqali, bolalarga nutqni o‘rganishning qiziqarli va samarali usulini taklif qilish mumkin. Masalan:

musiqa asarlari: mahalliy yoki mumtoz xalq qo‘shiqlarini bolalar uchun moslashtirish, ritmik o‘yinlar va qo‘shiqlar orqali nutqni rivojlantirish. Ko‘nikmalarni mustahkamlash: har bir musiqa asari bilan bog‘liq mashqlar, masalan, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish uchun qoralama yoki qo‘shiqlarni birga kuylash.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun mumtoz musiqa asarlari orqali korreksiya qilish, ularning nutq va fikrlash ko‘nikmalarini o‘stirishga yordam beradi, bu esa kelajakda muloqot qilishda va tugal nutq ko‘nikmalarining o‘sishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Mumtoz musiqa asarlari nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ta'lim va rivojlanishning samarali vositasi bo‘lishi mumkin. Ular nafaqat estetik va hissiy rivojlanish uchun, balki jismoniy va kognitiv ko‘nikmalarni mustahkamlashda ham katta foyda keltiradi. Bu yondashuv inkluziv ta'limning muhim elementiga aylanadi, chunki har bir bola o‘ziga mos usulda rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoev. Erkin va faravon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O`zbekiston” NMIU, 2016y.
2. Akbarov I.A. Musiqa lug`ati. - T.: O`qituvchi, 1997.
3. Bahriev A.R. Musiqiy idrokni rivojlantirishda xalq musiqasining roli // Pedagogik mahorat, №2/2002. 89-92 b.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. (Ma’ruzalar matni) T., 2000.
5. Matyoqubov O. Og`zaki an’anadagi professional muzika asoslariga kirish. O`quv qo`llanma. - T.: O`qituvchi, 1983. - 64 b.
6. Fitrat A. O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi. - T.: Fan, 1993.
7. Mirzaeva N. A. Xonandalik uslubiyoti asoslari. Maruzalar matni. Toshkent. O`zbekiston davlat konservatoriyasi. 2008

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIGA AN’ANAVIY XONANDALIK ASARLARINI O‘RGATISHDA ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR

Jumayeva Mohiniso Sa’dullayevna
Termiz shahar 14- sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
“Ma’naviy- ma’rifiy ishlar” bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilariga an’anaviy xonandalik asarlarini o‘rgatishda ijrochilik faoliyati negizi va ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy metodik yondashuvlar asosida bakalavrlar ruhiyatiga mumtoz musiqaning ta’sirini o‘rganish, shuningdek pedagogik - psixologik muhit va shart – sharoitlarni vujudga keltirish haqida so‘z boradi.

Аннотация: В статье рассматриваются основы исполнительской деятельности при обучении будущих учителей музыки традиционным вокальным произведениям и изучение влияния классической музыки на психику магистрантов на основе современных методических подходов в образовательном процессе, а также создание педагогической и психологической среды и условий.

Abstract: The article examines the fundamentals of performing activities in teaching future music teachers traditional vocal works and the study of the influence of

classical music on the psyche of graduate students based on modern methodological approaches in the educational process, as well as the creation of a pedagogical and psychological environment and conditions.

Kalit so‘zlar: an’anaviy xonandalik, faoliyat, ta’lim-tarbiya, pedagogik - psixologik muhit, organizm, ruhiy holat, mashq, bakalavr, ijtimoiy, qobiliyat.

Ключевые слова: традиционное пение, деятельность, воспитание, педагогико-психологическая среда, организм, психическое состояние, упражнение, бакалавр, социальный, способность.

Key words: traditional singing, activity, education, pedagogical and psychological environment, organism, mental state, exercise, bachelor, social, abilities.

An’anaviy xonandalik asarlarini o‘rganishni oqilona tashkil etish uchun maqom asoslari fani doirasida bakalavrlarning guruh yoki badiiy jamoadagi o‘rtoqlari bilan to‘g‘ri o‘zaro munosabatlar o‘rnatish (ijtimoiy kommunikatsiya, refleksiya, ijtimoiy persepsiya) yo‘llari ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Bunda bakalavr maqom musiqasini idrok etish va uni tasarruf qilish uchun ham nazariy, ham amaliy tayyorgarlikni amalga oshiradi.

Hozirgi kunda maqom asoslari fani – bakalavrlarning mumtoz musiqa bo‘yicha amaliy faoliyatining qirralarini yangi shakl, vosita va uslublar vositasida o‘rganuvchi fan sifatida, ushbu badiiy jarayonni ilmiy asosda boshqarish ishlarini to‘g‘ri tashkil etish, bakalavrlarga nazariy bilimlar berish, ularning ta’limiy muammolarini yechish uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan fan sohasiga aylandi.

Bu fan talabalarning musiqiy tafakkur va idroki shakllanishida ularda namoyon bo‘ladigan hissiy hayajonni pedagogik - psixologik moslashtirish, ijro mahoratini yanada takomillashtirish, tarbiyalash qonuniyatlarini o‘rganib, maqom ijrochiligi mashg‘ulotlarini sifatli tashkil etish uslublarini ishlab chiqadi.

Talabalar bilan maqom ijrosini amalga oshirishda paydo bo‘ladigan turli badiiy va ilmiy-ma’rifiy vazifalarni to‘g‘ri hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur.

Mumtoz musiqa ijrochiligi faoliyatining bakalavrlar ruhiyatiga ta’sirini o‘rganish:

a) ijro jarayonini pedagogik - psixologik jihatdan (maqom yo‘llari bo‘yicha alohida va umumiy holda) tahlil qilish; b) maqom ijrosining bakalavr xarakteriga ta’sirini o‘rganish; v) talabalarning axloqiy va irodaviy sifatlarini o‘rganish; g) talaba badiiy-ijroviy faoliyatining shart-sharoitlarini pedagogik - psixologik tahlil qilish; d) talabalarning maqom ijrosi jarayonidagi o‘zaro munosabatlari va tashkilotchilik qobiliyatlarini jamoada, amaliy faoliyat yordamida shakllantirish.

Bakalavrlar bilan maqom ijrosi mashg‘ulotini sifatli tashkil qilish maqsadida maxsus pedagogik - psixologik ko‘rsatmalar berish: - bakalavrlarning tafakkur va idrokini shakllantirishni sifatli tashkil qilishda maqomlar silsilasi imkoniyatlaridan foydalanish; - maqom ijrosi jarayonida bakalavr talaba organizmining yuqori darajada badiiy ishchanligini, ma’rifiy faolligini o‘stirish yo‘llarini topish; - maqom ijrochiligining alohida yo‘llarini o‘zlashtirish uchun yangi pedagogik - psixologik uslublardan foydalanish.

Masalan, psixodiagnostika uslublari yordamida bakalavrning ijtimoiy va moddiy sharoiti, muhit, maqom borasida bilish jarayonlari psixologiyasi, musiqiy qobiliyatlari o‘rganiladi.

Talabaning oldingi holatdagi pedagogik - psixologik xususiyatlarini o‘rganish. Talaba yil davomida maqomlarni o‘zlashtirib, ko‘rik tanlov yoki badiiy-ma’rifiy

tadbirlarga yuqori darajada tayyorgarlik ishlari olib borsa, o‘zining badiiy mashg‘ulotlarini ilmiy asosda rejalashtirsa, ijro jarayonida faolllikni namoyon etadi va yuqori ko‘rsatkichlarni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ladi.

Talabaning badiiy chiqishdan oldingi tayyorgarlik holatining quyidagi pedagogik - psixologik jihatlariga alohida e’tibor berish kerak. Bular - yuqori darajada ishchanlikni vujudga keltirish, maqom asari ijrosi jarayonida chidamlilikni o‘stirish uslublaridan foydalanish. Talabaning ijrodan oldingi va badiiy ijro jarayonidagi ruhiy holatini o‘rganish. Turlicha ijro natijasida kelib chiqadigan noqulay ruhiy holatdan chiqib ketish yo‘llarini izlash. Maqom ijrochiligida bakalavrlarning pedagogik - psixologik tayyorgarlik va chiniqish uslublaridan oqilona foydalanish.

Mumtoz musiqa asarlari orqali bakalavrlarda musiqiy tafakkur va idrokni shakllantirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida pedagogik - psixologik muhit va shart – sharoitlarni vujudga keltirish.

Agar badiiy ijro faoliyati insonparvarlashtirilsa, bakalavrlar orasida ruhiy toliqish, zo‘riqishning oldi olinadi hamda ularning garmonik rivojlanishi uchun yordam beradi.

Musiqiy-pedagogik bakalavrlar jamoasidagi o‘zaro ijtimoiy-pedagogik - psixologik munosabatlar jarayonini va maqom ijrosi jarayonida musiqiy tafakkur va idrokni boshqaruvchilik qobiliyatlari vositasida shakllantirish:

a) maqom ijrochiligida talabalar badiiy jamoasidagi ichki mexanizmlarning qonuniyatlarini o‘rganish (mumtoz musiqani his etish, uning milliy mafkuraviy ildizlari, ma’naviy qadriyatlar) va ularni boshqarish uslublarini ishlab chiqish;

b) maqom ijrosi jarayonida badiiy jamoadagi liderlik masalalari va ularning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish;

v) bakalavrning xulq - atvori, qiziqishlari va ijtimoiy pedagogik - psixologik motivlarini o‘rganish;

g) maqom ijrochiligi tanlovlarida bakalavrlarning muvaffaqiyatli qatnashishida murabbiy va boshqa shaxslarning ta’sirini o‘rganish.

Maqom ijrosi bakalavr badiiy faoliyatida obyekt hamda subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, ustoz-murabbiy, guruh jamoasi, guruh rahbari va boshqa ustozlarga nisbatan bakalavr obyekt hisoblanadi, ammo bakalavrning o‘ziga - o‘zi ongli munosabatda bo‘lishi orqali subyekt vazifasini bajaradi. Bularning barchasi uning badiiy ijrochilik mahoratini takomillashtirish imkonini beradi.

Maqom ijrochiligi faoliyati ikki yo‘nalishdan tashkil topadi:

1. Maqom ijrosi bo‘yicha mashq qilish.

2. Maqom ijrochiligini qamrab olgan turli ko‘rik va tanlovlar.

Maqom ijrochiligi bo‘yicha turli ko‘rik va tanlovlar badiiy faoliyatning asosiy tomonini tashkil etadi.

Bugungi kunda an’anaviy xonandalik asarlari ijrochiligini amalga oshiruvchi bakalavrlarga musiqiy faoliyatlar psixologiyasi ko‘maklashadigan fanlardan biriga aylandi. Jahon miqyosida musiqa san’ati bo‘yicha yangi axborotlarning jadal paydo bo‘lishi natijasida, musiqiy faoliyatlar psixologiyasi fani tez rivojlanmoqda: bu yo‘nalishda darslik, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy nashrlar turli tillarda chiqarila boshlanishi natijasida maqom musiqasi sohasida ilmiy tadqiqot ishlari bajarish uchun istiqbol yo‘llari ochilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qo`shaev A.E. Uzbekskaya professionalnaya muzka ustnoy tradisii kak sredstvo muzkalno-esteticheskogo vospitaniya uchashixsya 4-7 klassov. Avtoref. diss. ... kand. ped. n. M., 1987. - 16 s.
2. Matyoqubov O. Og`zaki an’anadagi professional muzika asoslariga kirish. O`quv qo`llanma. - T.: O`qituvchi, 1983. - 64 b.
3. Hasanboeva O. va boshq. Pedagogika tarixi. (O`quv qo`llanma). - T.: O`qituvchi, 1997. - 248 b.
4. Mirzaeva N.A. Xonandalik uslubiyoti asoslari. Maruzalar matni. Toshkent. O`zbekiston davlat konservatoriyasi. 2008.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARI O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Shamshimetov Timur Tashtemirovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi, timursamsimetov@gmail.com

Annotatsiya: Jahonda sodir bo‘lgan va bo‘layotgan ko‘plab ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar va tahdidlarning aksariyati yoshlarning hissasiga to‘g‘ri keladi. Yoshlarning xulq-atvori, ruhiy inqirozlar va norozilik kayfiyatining kuchliligi ular ayrim g‘ayriqonuniy insidientlar markazida bo‘lib qolishlariga asosiy sababdir. Yoshlar jinoyati ijtimoiy muammo sifatida uzoq tarixiy o‘tmishga borib taqaladi. Hamma davrlarda ham yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikning holati jamiyatning axloqiy-huquqiy xususiyatlarining ajralmas elementi bo‘lib kelgan.Ayniqsa, yoshlarning oldingi qatlami hisoblangan oliy ta’lim muassasalari talabalari hamisha ana shunday ziddiyatli vaziyatlarni amalga oshiradigan kuch hisoblanadi. Dunyo tarixiga nazar tashlasak, talaba yoshlar tomonidan o‘tkazilgan norozilik aksiyalari, ommaviy mitinglar ko‘pincha katta jinoyatlar va ziddiyatlarga sabab bo‘ladi.

Shu bois har qaysi jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi – drayveri bo‘lgan talaba yoshlarning huquqiy ziddiyatlar subyekti bo‘lib qolmasliklari uchun profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish shart.

Kalit so‘zlar: huquqbuzarlik, korrupsiya, konstitutsiya, oliy ta’lim, profilaktika, telivideniya, ijtimoiy tarmoqlar.

Har bir mustaqil davlat singari O‘zbekiston ham mustaqillikning dastlabki yillaridan to hozirgacha fuqarolarning tinch-xotirjam hayot kechirishi uchun aholi orasidahuquqbuzarliklarga qarshi profilaktika ishlarini susaytirmaslikka harakat qildi. Shu bois ham davlat tomonidan amalga oshiriladiganprofilaktik chora-tadbirlar mamlakat aholisi, aholi o’zini-o’zi boshqarish organlari, nodavlat va notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikda tashkil etiladi.Jahon sotsiologlari tomonidan olib borilgan tahlillarga ko‘ra, aholisining ellik foizdan yuqori qismi yoshlardan tashkil topgan mamlakatlarningkelgusidagi imkoniyatlari juda yuqori baholanadi. Chunki yosh avlod hamisha kelajak egalari sifatida e’tirof etiladi. Ammo o‘z

navbatida, yoshlar son jihatdan ko‘p bo‘lgan mamlakatlarda jinoyat va huquqbuzarliklar ham nisbatan ko‘p uchraydi.

Dunyo olimlari yoshlar bilan ishlashda o‘ta repressiv yoki revolutsion yondashuvlarni qoralaydilar. Yoshlar bilan ishlash murakkab pedagogik va psixologik jarayondir. Bugungi kunda insonlarning katta qismida yoshlik davrining eng faol qismi talabalik yillariga to‘g‘ri keladi. Talabalik faol hayot tarzi, ijtimoiylashuv va shaxsiy chegaralar to‘qnashadigan muhitdir.

So‘nggi yillarda yurtimizda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yildi. Quvonarlisi, hamma yo‘nalishlarda sodir bo‘layotgani kabi yoshlarga oid davlat siyosatida ham tarixiy va olamshumul o‘zgarishlar ro‘y berdi. Yoshlar masalasi islohotlar dasturining eng birinchi va ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi. E’tiborlisi, o‘tgan qisqa davrda ushbu yo‘nalishda 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilinib, izchil amalga oshirilmoqda. Yangilangan Konstitutsiyamizda yosh avlodning huquq va manfaatlari aniq moddalar bilan muhrlab qo‘yilgan. Bu o‘z o‘rnida sohada huquqiy bazani yanada kengaytirish, amaliy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradi.

Shu o‘rinda “huquqbuzalik” terminiga izoh berib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 14-mayda imzolangan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi O’RQ-371-son Qonunning 3-moddasiga asosan “sodir etilganligi uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g’ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) huquqbuzarlik”[18] deb nomlanadi. Biz yuqorida keltirgan Qonunning 5-moddasida huquqbuzarliklar profilaktikasidagi asosiy vazifalari quyidagicha tavsiflanadi:

– shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash, shuningdek korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

– huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o’rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko’rish;

– huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo’lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;

– jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish;

– huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar faoliyatining o’zaro hamkorligini ta’minlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirishdan iboratdir.

Bugun mamlakatimizdagi izchil islohotlar muayyan sohaga mas’ul rahbardan tortib, oddiy mutaxassisgacha — barchaning zimmasidagi vazifalardan kelib chiqqan holda yuqori talabchanlik, qat’iy ijro intizomi asosida ish yuritishni taqozo etmoqda. Chunki tartib-intizom bor joyda o‘sish, rivojlanish va natija bo‘ladi.

Shu bois ham ishonch bilan aytish mumkin, istalgandavlatning taraqqiyoti, yoinki,har sohada salmoqli ko‘rsatkichlarni qayd etishi, xalqining yashash tarzi sifat jihatdan yuqori bo‘lishi o‘sha davlat o‘z yoshlariga yaratib bergan va berayotgan imkoniyatlar bilan to‘g‘ri proporsionaldir. Zero davlatning kelajagiga va taraqqiyotiga

tikilgansamarali sarmoya yoshlar ta’lim-tarbiyasiga yo‘naltirilgan investitsiya hisoblanadi. O‘zbekistondagi so‘nggi 7-8 yildagi o‘zgarishlar mobaynida islohotlar jarayonida yoshlar kamolotiga alohida e’tibor qaratildi. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishdagi ishlarning huquqiy-tashkiliy asoslari zamon talabidan kelib chiqib takomillashmoqda. Yoshlarga jahon andozalari darajasida ta’lim berish, jamiyatdan munosib o‘rin egallashiga ko‘maklashish masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Prezidentimiz g‘oyasi asosida “Yoshlar daftari” tashkil etilgani ayni muddao bo‘ldi. Mamlakatimiz bo‘yicha 648 ming nafar ishsiz “Yoshlar daftari”ga kiritilgan bo‘lsa, birinchi chorakda shundan 283 ming nafarining bandligi ta’minlangan. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish maqsadida 36 mingta qo‘shimcha to‘garak tashkil etilib, ularda 874 mingga yaqin o‘g‘il-qiz qamrab olingan. “Besh muhim tashabbus” doirasida ta’lim muassasalari, kutubxona va o‘quv markazlariga 97 mingta san’at va sport inventari, komp yuterlar, 562 mingta badiiy kitob yetkazib berilgan[19].Ushbu mexanizm samara berdi. So‘nggi statistik ma’lumotlarga qaraganda, yoshlar o‘rtasida jinoyat sodir etish o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 14 foizga, voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyat sodir etish esa 17 foizga kamaygan[20]. Biroq, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning saqlanib turganligi barchamizni befarq qoldirmasligi lozim. Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish – butun jamiyatning vazifasi. Tadqiqotlar aksariyat jinoyatchilarning shaxsi dastlab tarbiyasizlik oqibatida shakllanishini ko‘rsatmoqda. Tarbiyasi og‘ir o‘smir – axloqan tuzatish va qayta tarbiyalashga muhtoj bo‘lgan shaxsdir. Uni axloqan tuzatish va tarbiyalash jinoyatchiga aylanishining oldini olish, shuningdek, jamiyat bilan normal aloqalarini tiklash, unda faol hayotiy pozisiyani shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda eng muhim va samarali bosqich – profilaktikadir.

Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi deganda,profilaktik tadbirlarni amalga oshiruvchi, jarayonda bevosita ishtirok etuvchi organlar hamdamuassasa va tashkilotlarning g‘ayriqonuniy harakatlarning oldini olish, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish bo‘yicha olib borayotgan faoliyati tushuniladi[21]. Umumiy profilaktikakam mablag‘ va ishchi kuchini talab etgan holda yuqori samaraga erishishni ko‘zda tutiladi. Bunda ayniqsa OAV – televideniya, radio, internet nashrlari, shuningdek,ijtimoiy tarmoqlar orqali, qolaversa, joylarda davra suhbatlari va hokazolar o‘tkazish yordamida profilaktik ogohlantiruvlar e’lon qilish nazarda tutiladi.

Bular orasida eng ko‘p uchraydigani ta’limdagi korrupsiya edi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining tabaqalashtirilgan stipendiya tizimi ularning har qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da a’lo baho olishga va ko‘proq summada stipendiya sohibi bo‘lishga undagan. Bu xohish esa ming afsuski ayrim o‘qituvchi-professorlar tomonidan moddiy manfaat evaziga qondirilgan. Jarayonni bilsa-da ko‘plab OTM mutasaddilari mazkur holatga panja ostidan qaragan. Natijada OTM talabalari o‘rtasida eng ko‘p uchraydigan korrupsion huquqbuzarliklar umuman huquqbuzarlik sifatida baholanmagan va rasmiylashtirilmagan. Tabiiyki, natijada pora evaziga “5”, “4” baholar olish huquqbuzralik ekanini ko‘plab talabalar umuman bilmagan. 2018-yilda amaldagi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri I.Majidov oliy ta’limdagi korrupsion harakatlar haqida ochiq fikr bildirgan va bunday noxush vaziyatlar ko‘pligini inkor etmagan. “Sessiya vaqtidagi

korrupsiya — bilimning yetarli bazasiga ega bo‘lmagan talabalar tomonidan talab va noinsof o‘qituvchilar tomonidan taklifning oqibati”, deya fikrlarini asoslagan sobiq vazir. Ammo huquqshunoslikda qonunni bilmaslik, jazodan ozod qilmaydi, degan oltin qoida bor. Oxirgi yillardagi ta’lim islohotlari (tabaqalashtirilgan stipendiya tizimining bekor qilinishi, universitetlarda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘limlarining ochilishi, kredit-modul tizimiga o‘tilishi va hokazo) talabalar jamiyatida eng keng tarqalgan huquqbuzarlik holati, ya’ni korrupsion harakatlarning sezilarli darajada kamayishiga olib keldi. ‘Tozalash” jarayonida taassufki, ko‘plab professor-o‘qituvchilarga ham chora ko‘rildi. Eng yomoni OTM professor-o’qituvchilari orasidan jinoiy javobgarlikka tortilganlari ham bo‘ldi. Amalga oshirilgan ishlar salmog‘iga qaramay hanuzgacha ham talabalar orasida iqtisodiy jinoyatlarning sodir etilishi akademik halollik tamoyillariga amal qilmaslik batamom barham topmaganini ko‘rsatadi.Masalan, o‘quv yili oxiridagi test sinovlarida yomon o‘qigan talabalarni saqlab qolish amaliyoti haligacha mavjud. Fikrimizcha, bu amaliyot yuqori akademik standartlarni o‘rnatishga qaratilgan sa’y-harakatlarni yo‘qqa chiqaradi. Chunki huquqbuzarlikka moyil yoshlarni ushlab turish va konsentratsiyalash kabi muammolar urchib boraveradi.

Oliy ta’lim dargohlari binosi va uning atrofi qo‘riqlanadigan hudud sifatida qaraladi, bu yerda yoshlar kollegial muhitda ajoyib g‘oyalarni ilgari suradilar va o‘zaro do‘stona munosabatlar o‘rnatadilar. Ammo, universitet hududidagi tartibsizlik, bezorilik, o‘g‘rilik hodisalari, ayniqsa, talabalarjamoasini qo‘rqitib, xavfsiz boshpana bor-yo‘qligi haqida savollar tug‘diradi. Ko‘plab dalillar shuni ko‘rsatadiki, aslida universitetlar bunday hodisalardan himoyalanmagan[22].

Talabalar tomonidan yoki ularning ishtirokida ro‘y beradigan huquqbuzarlikning turlari ko‘p. Masalan, yoshlar tomonidan mahalliychilik, mayda bezorilikdan tortib, adovat bilan bog‘liq qonunbuzarliklar, zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, mulkiy jinoyatlar ham uchrab turadi. Eng yomoni esa talabalar tomonidan suitsid – ya’ni o‘z joniga qasd qilishning ko‘pligidir.

Talabalar o‘rtasidagi huquqbuzarlikning ildizlari murakkab va turlicha, shuning uchun ular bilan kurashish ham bir qadar murakkabdir. Ammo jamoatchilikning sergakligi, jamoatchilik bilan hamkorlik orqali bu muammoni hal qilish mumkin.Yoshlar huquqbuzarligi tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni o‘rganish natijasida shuni anglash mumkinki, shunday shaxslar tomonidan sodir etiladigan qonunbuzarlik holatlarining oldini olishda talabalar xavfsizligini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan tadbirlar rejasini og‘ishmay bajarish shart. Sustkashlik va nazoratsizlik eng bilimli, xulqi a’lo talabani ham huquqbuzarlik subyektiga aylantirib qo‘yishi hech gap emas.

Talaba-yoshlar mamlakat taraqqiyotining asosiy tayanchi bo‘lib, ularning ilmiy-ijodiy dunyoqarashi, yuqori intellektual salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tartibga solish kerak bo‘ladi. Shundagina biz talabalarni jamiyatning dinamik manbai sifatida baholash imkoniga ega bo‘lamiz. Talabalarning o‘zi ham jamiyatda intellektual, ham innovatsion dinamik jarayonlarni harakatlantiruvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda davlat siyosati nafaqat yoshlar faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratishi, balki yosh avlodning dunyoqarashida tub o‘zgarishlar hosil qilishi bilan birga davlat strategiyasini ham ularning tafakkur tarzi va amaliy faoliyatiga moslashtirishi kerak. Bu talaba-yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga, huquqiy

ongini rivojlantirishga katta xizmat qiladi. Talabalarning huquqiy salohiyatini oshirishdagi asosiy omillar bu bilimlarning mavjudligi emas, balki ularni tizimlashtirish, dunyoni anglash uchun bilimlar zaxirasini rivojlantirish, unga o‘zgacha munosabatni shakllantirish va yo‘naltirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.-56 b.
2. Bekmurodov M. O‘zbekistonda jamoatchilik fikri.-Toshkent: Fan, 1999.-170 b.
3. Mamatova Y., Arifxanova S. Вопросы профилактики насильственного экстремизма: освещение в массмедиа Узбекистана. – Ташкент: НУУ им.М.Улугбека, 2020. – 82 с.
4. Скляр И. Опасный симбиоз: Как СМИ способствуют мировому терроризму. https:// birdinflight.com/ru/mir/ 20160726-opasnyj-simbioz-kak-smi-sposobstvuyut-razvitiyu mirovogo-terrorizma.htm
5. https://rg.ru/2018/04/05/zamgenseka-oon-v-2017-godu-v-mire-proizoshlo-11-tysiach-teraktov.html

IV SHO‘BA: FALSAFA, TARIX VA DINSHUNOSLIK FANLARINI O‘QITISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

UO‘K: 811.512.14

POLOVES-QIPCHOQ TILLARIGA OID DINIY MANBALAR VA TEONIMLAR TAHLILI

Buranov Anvar Korabaevich *musannifkitoblar@gmail.com*
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti v/b, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Antotatsiya: Mazkur maqolada poloves-qipchoq tillariga oid diniy manbalar va teonimlar qiyosiy tahlil qilingan. Tahlilda tangrichilik, zardushtiylik, yahudiylik, nasroniylik, islom dinlari panteonidagi asosiy teonimlarning etimologiyasi, diniy manbalarda va lug‘atda qo‘llanilishi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Teonimlar, Tangri, Adonay, Alloh, Iso, Maryam, Muqaddas Ruh, Farishta, “Biy”, “Xan”, “Yuluvchı”, “Yarılg‘ashchı”.

Abstract: The article presents a comparative analysis of religious sources and theonyms related to the Cuman-Kipchog languages. The analysis included additional studies of the etymology of the main theonyms in the pantheon of religions of pantheism, Zoroastrianism, Judaism, Christianity and Islam, as well as religious sources and dictionaries.

Keywords: Theonyms, God, *Tengri*, Allah, Jesus, Mary, Holy Spirit, Angel, "Biy", "Khan", "Yuluvchı", "Yarılgashchı"

Kavkaz va Qirim yarim oroli hududlarida tarixan turli xalqlar va dinlarning vakillari qo‘nim topgan. Buning natijasida diniy sinkretizm yuzaga kelib, etnoslarning tillariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Poloves-qipchoq tillari guruhining tarkibiga, shu hududda shakllangan *qirimtatar*, *qirimchaq*, *qarayim*, *qumiq*, *qarachay-balqar* tillari hamda mamluk qipchoq tili va arman-qipchoq tili kabi o‘lik tillar kiradi. Bu tillar bir-biridan farq qilsa-da, ularda Xazar, Oltin O‘rda davlatlari, Qirim xonligi, Usmonli turklar va Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida shaklllangan umumiyliklar kuzatiladi.

“Kodeks kumanikus” poloves-qipchoq tillari leksikasiga oid eng muhim yozma manba hisoblanadi. Asar 1303 yilda yozilgan lug‘at bo‘lib, uning nusxasi Venesiyadagi Avliyo Mark ibodatxonasining kutubxonasida saqlanadi. Qomusning asl nusxasi 82 varaq, ya’ni 164 betdan iborat. Birinchi sahifasida “1303 yil 11 iyul” sanasi qayd etilgan[23].

XIII asrda Misrda iqtidorga kelgan mamluklar sultonligi davrida yozilgan *“Kitab al-idrak”, “At-tuhfat uz-zakiya”, “Al-Qavanin al-kulliya”, “Ad-Durra al-Mudiya”,*

[23] Kaare Grønbech. Codex Cumanicus Cod. Marc. Lat. DLXIX In faksimile heruasgegeben mit einer einletung Von K.Grönbech – Kopenhagen: Levin & Munksgaard, 1936, 82 v.

“Ash-Shuzur az-Zahabiya”, “Kitab majmua tardjuman turkiy va ajamiy va mug‘aliy (va farsiy)” kabi lug‘atlar ham poloves-qipchoq tillariga mansub.

Hozirgi kunda Arman qipchoq tilida so‘zlashuvchilar qolmagan, ammo yozma yodgorliklar saqlanib qolgan. Bu manbalar XVI–XVII asrlarda yaratilgan bo‘lib, jami soni 112 tani tashkil qiladi. Bitiklar bilan birga Kamenes-Podolskiy armanlarining sud jarayonlari aks etgan dalolatnomalar, Lvov armanlari diniy sudining *“Fuqarolikni qayd etish, kassa va tug‘ilganlik haqidagi dalolatnomalar”*i, sesor jangi hamda Xotin urushi voqealari bayon qilingan *“Kamenes solnomasi”, “Venesiya solnomasi”, “Polsha ulusi solnomasi”,* Mxitar Gosha yozgan *“Tore bitigi”*, “*Zabur”*ning 16 nusxasi, “Ibodat tartiblari va duolar to‘plami”, “Va’z kitob”, “Alg‘ish Bitiki”, Andreya Torosovichning *“Falsafa toshi sirlari”* kitobi bor [24].

Poloves-qipchoq tillari lug‘atidagi teonimlarni *tangrichilik, zardushtiylik, yahudiylik, nasroniylik, islom* dinlari hamda mahalliy diniy e’tioqodlar bilan bog‘liq leksika tashkil qiladi va ularni asosan umumoltoy va umumturkiy hamda somiy va forsiy tillardan o‘zlashgan so‘zlardan tarkib topgan.

Tangri teonimi oltoy plastidagi so‘z bo‘lib, poloves qipchoq tillarida turlicha: qumiq *va* qorachoy-bolqor tilida – *teyri*, qarayim, qirimchaq, qirimtatar tillarida – *tengri, tengri* shakllarida istifoda qilinadi. Tangri ko‘pincha “Ko‘k” so‘zi bilan sinonim sifatida ham keladi[25]: “*Kök shaad, yel (yır) shaad, qabarchıxlar sız shaad”* (Ko‘k guvoh, yel(shamol)guvoh va siz, xabarchilar guvoh.

Qipchoq tilida yozilgan yahudiylik va nasroniylik diniga oid kitoblarda ham tangri teonimi faol qo‘llanilgan, xususan “Qarayim ibodatnomasi”da “Tengri”[26], Arman-qipchoq manbalarida “Tengri”[27], “Kodeks kumanikus”da “Tengri”[28] shaklida keladi. “Qarayim ibodatnomasi”da Tengriga “Biy”, “Xan”, “Yuluvchı”, “Yarılg‘ashchı” rutbalari ham qo‘llanilgan: *“Sensin Biyimiz,Sensin Xanımız, Sensin Yuluvchımız*[29]*,Sensin Yarılg‘ashchımız”*[30][31].

“Tangri” so‘zi yahudiy manbalarida Adonáy (qad.yah. אֲדֹנָי — «Xudoyim») so‘zining eriteti sifatida ham qo‘llaniladi: *Ey, Adonay Tengri!; Ki, quyashda da qalqandir Adonay Tangri!; Adonay – Tangrimiz, Yaratıvchimiz, Yuluvchımiz, Ayruqchımiz, birdir ol dunyada; Menmin – Adonay Tangringiz*[32].

Nasroniylik diniga oid kitoblarda Ota xudo va O‘g‘il xudo (Iso payg‘ambar)ga nisbatan ham “Tangri” nisbasi qo‘llanilgan: *Bügün sekizinci kün ayïrlalïq, neçik Beyimiz*

[24] Александр Гаркавец Загадочные украинские армяне, которые говорили, писали и молились по-кыпчакски и 400 лет назад напечатали первую в мире кыпчакскую книгу. — Каталог. – Київ: Українознавство, 1993.
[25] Давлетшин Г. Очерки по истории духовной культуры предков татарского народа (истоки, становление и развитие) – Казань, 2004. – С 23, 44; 28, с.71
[26] Гаркавец А. (ред.) Караимский молитвенник. – Алматы: Дешт-и-Кыпчак, 2004. — С 5.
[27] Гаркавец А. “Кыпчакское письменное наследие.Том I. Каталог и тексты памятников армянским письмом– Алматы: Дешт-и-Кыпчак, 2002.– 1084 стр.
[28] Гаркавец А. Codex Cumanicus: Половецкие молитвы, гимны и загадки XIII-XIV веков, – Москва Русская деревня, 2006 . — 89 с
[29] Йулувчымыз – гуноҳларни юлиб олувчи.
[30] Йарылгъашчымыз – ярлақагувчимиз.
[31] Гаркавец А. Кыпчакское письменное наследие. Том II Караимский молитвенник. Редакция А. Н. Гаркавца по изданию В. З. Тирияки – Алматы: Дешт-и-Кыпчак, 2004. – С. 5.
[32] Гаркавец А. (ред.) Караимский молитвенник. – Алматы: Дешт-и-Кыпчак, 2004. — С 5, 6, 8,13

Teŋri arï qïz Mariamdan [Mariandan] toγdï(Bugun biz Beyimiz Tangrimiz(Iso) aru(muqaddas) qiz Maryamdan tug‘ilganining sakkizinchi kunini nishonlaymiz[33].

Poloves qipchoq tillari lug‘atida va folklorida Tangri leksemasi hozirgacha qo‘llaniladi. Qarachaylilar turmush tarzi asosan chorvachilik bilan bog‘liqligi diniy e’tiqodi, jumladan, duolarida ham aks etgan:

Ulu Teyri, xan Teyri,
bulutlarni iy, Teyri!
Javunlarni javdur, Teyri,
jilqilarni to‘ydur, Teyri!
Teyri, Teyri, bilebiz
kuchungni, qaruvungni, Teyri[34].

“Alloh” teonimi semit tillarida “al” aniqlik artikli va “iloh” so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan va ayni so‘z qadimgi yahudiychada *eloh*(אלוה Elóax), aramiychada *El, Elóax/Elóga* yoki *Elógúm* (Ibtido. 1:1);shaklida qo‘llanilgan[35].

“Alloh” teonimi qirimtatar, qarayim, qumiq, baqar tillarida *Alloh, Allax, Alla(bir Alla), Allog‘*[36] shakllarida talaffuz qilinadi. Eng qizig‘i, yahudiy qirimchaqlar ham musulmonlar kabi ibodatda *Alloh* shaklini qo‘llashadi va arab tilining fonetik qoidalari doirasida talaffuz qilishadi. Muomalada esa “Alla”, shu bilan birga *inshalla, mashalla* so‘zlari ham qo‘llaniladi[37]. Qarayimlarning diniy manbalarida “Alloh” vasfi uchramaydi.

Farishta (forscha frəˈvɑːʃi, paxlaviy tilida fravahr - so‘zi olingan) bo‘lib, zardushtiylik dinidagi Zardusht va Xudoning o‘rtasidagi vositachi vositachi sanalgan. Somiy tillarda *malax*(qad. yahud.), *malak*(arabcha) qo‘llaniladi. Poloves qipchoq tillarida, xususan qarayim tilida “*malax*[38]”, qirimchaq, qirimtatar tillarida “*melek*”[39], qumiqchada “*malak*”, “*malayik*” [40], qorachoy-balqar tilida “*myolek*”[41] shaklida talaffuz qilinadi. “Kodeks kumanikus” farishta so‘zi ғrisştä shaklida kelgan[42]. Farishtaning qipchoq tillarida *parishta*[43], *perishte*[44], *berste*[45] variantlar ham bor.

“Muqaddas ruh”(الروح القدس) arab tilidan o‘zlashgan, yahudiychada *“Ruax xa-Qodesh”* (וח הקודש) ataladi va u nasroniylikdagi Muqaddas Uchlikning biridir. Qarayimlar “muqaddas” so‘zi o‘rniga turkiy “*ayruqchi*”, “ruh” o‘rniga “*jan*” so‘zini qo‘llashgan[46]. Qirimchaqlar yahudiycha “*qodesh*”ni, qirimtatarlar va qumiqlar

[33] Гаркавец А. Codex Cumanicus: Половецкие молитвы, гимны и загадки XIII-XIV веков, – Москва Русская деревня, 2006 . — С 27.
[34] Карачаево-балкарский фольклор. Хрестоматия / сост., вступ. ст., коммент. Т.М.Хаджиевой. Нальчик: Изд. центр «Эль-Фа», 1996. 592 с.
[35] З. Крупицкий. Имена Божии // Еврейская энциклопедия Брокгауза и Ефрона. — СПб., 1911. — Т. VIII. — Стб. 129—140.
[36] Бамматов Б.Г. Гаджиахмедов Н.Э. Кумыкско-русский словарь. – Махачкала: ИЯЛИ ДНЦ РАН, 2001. – С. 6.
[37] Реби Д.И. Крымчакский язык. Крымчакско-русский словарь. – Симферополь, ДОЛЯ, 2004. – С. 53,59,73,101,106.
[38] Гаркавец А. (ред.) Караимский молитвенник. – Алматы: Дешт-и-Кыпчак, 2004. — С 20.
[39] Реби Д.И. Крымчакский язык. Крымчакско-русский словарь. – Симферополь, ДОЛЯ, 2004. – С. 145.; Усеинов С.М. Русско-крымско татарский, крымско татарско-русский словарь. — : Симферополь:"Тезис", 2007. – С.447.
[40] Бамматов Б.Г. Гаджиахмедов Н.Э. Кумыкско-русский словарь. – Махачкала: ИЯЛИ ДНЦ РАН, 2001. – С. 204.
[41] Суюнчев Х.И. Урусбиев И.Х. Русско-карачаево-балкарский словарь. – М: «Сов. Энциклопедия», 1965. – С 26.
[42] Гаркавец, Александр Николаевич. Codex Cumanicus. Полное издание в 4 томах. – Алматы: Баур, 2015. – С.20
[43] https://imlo.uz/uz/word/parishta
[44] "Манас" энциклопедиясы. – Бишкек: Кыргыз энциклопедиясынын Башкы редакциясы, - 1995. 1-т. - 440 б.
[45] Казахское Евангелие 1901 года. – Алматы: Баур, 2021. – С.166..
[46] Гаркавец А. (ред.) Караимский молитвенник. – Алматы: Дешт-и-Кыпчак, 2004. — С. 27.

“*Muqaddas ruh*”ni, Qorachoylar turkiy “**Aru tin**” shaklini leksikonga qabul qilishgan. *Aru*(ariu) qadimgi turkiy tilda pok, gunohsiz, avliyo ma’nolarida qo‘llanilgan. Qipchoq tilida yozilgan injil variantalarida, xususan “Kodeks Kumanikus”da “*Aru tin*” yoki “*Aru jan*”(Ata, Og‘ul em Arï Tïn)[47], arman qipchoq manbalarida “*Aruv jan*”[48] qo‘llanilgan. Muqaddas” so‘zining qipchoqcha “*Aru*” varianti avliyolarga nisbatan ham qo‘llanilgan: “Yazuqlïmen Bey Tenrigä, arï Mariam qatuna, arï Franasqa, arï Petrus arï Paulusqa, daγï barça arïlarga, saa, tïn ata”(Bey Tangriga, Muqaddas Maryam qiz(xotun)ga, avliyo Fransisk, avliyo Petr va avliyo Pavelga, hamda barcha avliyolarga va Sen Ota ruhga gunohkorman)[49] .

Poloves-qipchoq tillari leksikasida teonimlar o‘zining tarixiy, sakral va funksional-semantik xarakteri bilan boshqa barcha turkiy til guruhlaridan farq qiladi. Chunki, boshqa bironta guruhda yahdiylik, nasroniylik va islom aqidalarida keltirilgan teonimlar to‘liq mujassamlashmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kaare Grønbech. Codex Cumanicus Cod. Marc. Lat. DLXIX In faksimile heruasgegeben mit einer einletung Von K.Grönbech – Kopenhagen: Levin & Munksgaard, 1936, 82 v.
2. Александр Гаркавец Загадочнıе украинские армяне, которıе говорили, писали и молились по-кıпчакски и 400 лет назад напечатали первую в мире кıпчакскую книгу. — Каталог. – Київ: Українознавство, 1993.
3. Давлетшин Г. Очерки по истории духовной культуры предков татарского народа (истоки, становление и развитие) – Казань, 2004. – С. 23, 44; 28, 71
4. Гаркавец А. (ред.) Караимский молитвенник. – Алматı: Дешт-и-Кıпчак, 2004. — С 5.
5. Гаркавец А. “Кыпчакское письменное наследие.Том I. Каталог и тексты памятников армянским письмом– Алматı: Дешт-и-Кыпчак, 2002.– 1084 стр.
6. Гаркавец А. Codex Cumanicus: Половецкие молитвы, гимны и загадки XIII-XIV веков, – Москва: Русская деревня, 2006 . — 89 с
7. Гаркавец А. Кıпчакское письменное наследие. Том II Караимский молитвенник. Тирияки – Алматы: Дешт-и-Кıпчак, 2004. – С. 5.
8. Карачаево-балкарский фольклор. Хрестоматия / сост., вступ. ст., коммент. Т.М.Хаджиевой. Нальчик: Изд. центр «Эль-Фа», 1996. 592 с.
9. З. Крупицкий. Имена Божии // Еврейская энциклопедия Брокгауза и Ефрона. — СПб., 1911. — Т. VIII. — Стб. 129—140.
10. Бамматов Б.Г. Гаджиахмедов Н.Э. Кумыкско-русский словарь. – Махачкала: ИЯЛИ ДНЦ РАН, 2001. – С. 204.
11. Реби Д.И. Крымчакский язык. Крымчакско-русский словарь. – Симферополь, ДОЛЯ, 2004. – С. 145.

[47] Гаркавец А. Codex Cumanicus: Половецкие молитвы, гимны и загадки XIII-XIV веков, – Москва Русская деревня, 2006 . — С 27.

[48] Гаркавец А. “Кыпчакское письменное наследие.Том I. Каталог и тексты памятников армянским письмом– Алматы: Дешт-и-Кыпчак, 2002.– С. 102

[49] Гаркавец А. Codex Cumanicus: Половецкие молитвы, гимны и загадки XIII-XIV веков, – Москва Русская деревня, 2006 . — С 19.

12. Усеинов С.М. Русско-крымско татарский словарь. – Симферополь : "Тезис", 2007. – С.447

13. Суюнчев Х.И. Урусбиев И.Х. Русско-карачаево-балкарский словарь. – М: «Сов. энциклопедия», 1965. – С 26.

14. "Манас" энциклопедияси. – Бишкек: Кыргыз энциклопедиясининг Башкы редакциясы, - 1995. 1-т. - 440 б.

15. Казахское Евангелие 1901 года. – Алматы: Баур, 2021. – С.166.

DINSHUNOSLIK FANINI O‘QITISHDA BURHONIDDIN MARG‘INONIY ILMIY MEROSINING AHAMIYATI
"INTEGRATING BURHANUDDIN MARGHINANI’S LEGACY INTO THE TEACHING OF RELIGIOUS STUDIES"

Botirov Bobirmirzo Mirodiljon o‘g‘li
boburmirzobotirov55@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi, tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada islom huquqi sohasining yirik namoyandasi Burhoniddin Marg‘inoniy va uning “Hidoya” asarining dinshunoslik fanini o‘qitishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Marg‘inoniy ilmiy merosining nafaqat fiqh sohasidagi, balki keng ilmiy tafakkur rivojiga qo‘shgan hissasi ochib beriladi. Shuningdek, uning asarlari orqali zamonaviy dars jarayonlarida talabalarni mustaqil fikrlashga, tanqidiy tahlilga yo‘naltirish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada an’anaviy diniy bilimlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg‘unligining ahamiyati alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *Burhoniddin Marg‘inoniy, Hidoya, dinshunoslik, fiqh, ilmiy meros, diniy ta’lim, metodika*

ABSTRACT

This article analyzes the role of Burhanuddin Marghinani, a prominent scholar in Islamic jurisprudence, and his masterpiece “Hidayah” in the teaching of religious studies. The scientific legacy of Marghinani is explored not only in the context of Islamic law but also in its contribution to broader scholarly thought. The paper highlights the pedagogical value of integrating his works into modern education, encouraging students toward independent and critical thinking. The significance of combining traditional Islamic knowledge with contemporary teaching methods is also emphasized.

Keywords: Burhanuddin Marghinani, Hidayah, religious studies, fiqh, scholarly heritage, Islamic education, methodology

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida dinshunoslik fanining ahamiyati ortib bormoqda. Diniy merosga asoslangan holda talabalarda ijtimoiy-ma’naviy ongni shakllantirish, ularni o‘tmishdagi buyuk allomalarimiz ilmiy qarashlari bilan tanishtirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, Burhoniddin Marg‘inoniy singari allomalarning boy ilmiy merosini o‘rganish va uni ta’lim jarayonlariga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Burhoniddin Marg‘inoniy va uning ilmiy faoliyati. Burhoniddin Marg‘inoniy (XII asr) Movarounnahrda yetishib chiqqan yirik hanafiy faqihlardan biridir. Uning eng mashhur asari “al-Hidoya” (To‘g‘ri yo‘l) bo‘lib, hanafiy fiqhi bo‘yicha muhim qo‘llanma sanaladi. Asar nafaqat fiqhiy masalalarni yoritadi, balki muallifning uslubiy aniqligi, dalillarga tayanuvchanligi va tanqidiy yondashuvi orqali fiqh ilmining chuqur mantiqiy asoslarini ko‘rsatadi [1].

Marg‘inoniy merosi dinshunoslik fanida. Dinshunoslik fanida fiqhiy merosning tutgan o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, Marg‘inoniy asarlari orqali talabalar diniy huquqiy tafakkur asoslarini chuqur anglaydilar. Bu asarlar ularni matn tahliliga, hujjatli dalillarga asoslangan fikr yuritishga, ijtihodiy yondashuvni tushunishga undaydi. “Al-Hidoya” asarining o‘quv jarayoniga integratsiyasi, darslarda asardan parchalar o‘qish va tahlil qilish orqali talabalarni tanqidiy tafakkurga yo‘naltirish mumkin [2].

Zamonaviy ta’limda ilmiy merosni qo‘llash usullari. Bugungi kunda ta’limda yangi metodikalar: keys-stadi (case-study) muammoli o‘qitish, loyihaviy yondashuv kabi uslublar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuvlarga Marg‘inoniy asarlari mos keladi. Talabalarga muayyan fiqhiy muammoni muhokama qilish topshirig‘i berilib, Marg‘inoniy qarashlari asosida yechim taklif etish so‘raladi. Bu metod talabalarning bilimni mustaqil egallashini, uni zamonaviy hayot bilan bog‘lashni o‘rgatadi [3].

Xulosa. Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy merosi – bu faqatgina tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan manba emas, balki bugungi dinshunoslik ta’limida chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan bebaho manbaadir. Uning asarlari orqali talabalar diniy tafakkurning asosiy prinsiplarini o‘rganibgina qolmay, zamonaviy muammolarga islomiy nuqtai nazardan yondashishni ham o‘zlashtiradilar. Ilmiy meros va zamonaviy pedagogik yondashuv uyg‘unligi dinshunoslik fanining istiqbolini belgilaydi.

Takliflar. Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy merosi – bu faqat tarixiy qadriyat emas, balki zamonaviy ta‘lim tizimi uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan resursdir. Uning asarlari orqali talabalar diniy tafakkurning asosiy qoidalarini, fiqhiy dalillash metodologiyasini, tanqidiy tahlilni, ijtimoiy va axloqiy masalalarga islomiy yondashuvni o‘rganadilar. Taklif etamiz:

- ✓ “Al-Hidoya” asari asosida maxsus seminar mashg‘ulotlari tashkil etish.
- ✓ Marg‘inoniy ilmiy merosini zamonaviy darslik va metodik qo‘llanmalarga kiritish.
- ✓ Oliy ta‘lim muassasalarida islom huquqi bo‘yicha interaktiv fanlar yaratish.
- ✓ Burhoniddin Marg‘inoniy asarlarini zamonaviy o‘zbek tiliga to‘liq tarjima qilish va sharhlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Marg‘inoniy B. Al-Hidoya. – Qohira: Al-Azhar nashriyoti, 2000.
2. Alimov M. Islom huquqi asoslari. – T.: O‘zbekiston nashriyoti, 2019. – 112 b.
3. Sayfullayev N. Islom manbalari va ularning tadqiqi. – T.: Ma’naviyat, 2021.

ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI

Ibrogimova Gulbaxor Eshmamatovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi o‘qituvchisi
gulbahoribragemova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Ibn Sinoning falsafiy qarashlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, uning borliq, aql, bilish jarayoni va inson mohiyati haqidagi fikrlari tahlil qilinadi. Ibn Sino Aristotel va Forobiy ta’limotlari asosida o‘z falsafiy tizimini yaratgan va uni metafizika, aql nazariyasi hamda ilmiy bilish tamoyillari bilan boyitgan. Uning fikricha, borliqning asosi - birlamchi sabab (iloh) bo‘lib, barcha mavjudotlar undan kelib chiqadi.

Kalit so‘zlar: Ibn Sino, borliq, bilish nazariyasi, aql, falsafa, ruh, metafizika, Sharq mutafakkirlari.

Abstract: This research is dedicated to studying philosophical views of Ibn Sina, analyzing his ideas on existence, intellect, the process of cognition, and the essence of human nature. Ibn Sina developed his philosophical system based on the teachings of Aristotle and Al-Farabi, enriching it with metaphysics, the theory of intellect, and principles of scientific knowledge. According to his philosophy, the foundation of existence is the primary cause (God), from which all beings emanate.

Key words: Ibn Sina, existence, epistemology, intellect, philosophy, soul, metaphysics, Eastern thinkers.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ibn Sino (Avitsenna) Sharq va G‘arb tafakkuriga katta ta’sir ko‘rsatgan buyuk mutafakkirdir. Uning borliq, aql, bilish va inson mohiyati haqidagi qarashlari falsafa, psixologiya, tibbiyot va ilmiy bilish tamoyillarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari metafizika, mantiq, tabiiy fanlar va axloq falsafasini qamrab olib, bugungi kungacha ilmiy doiralarda tadqiq etib kelinmoqda. XXI asrda sun’iy intellekt, bilish nazariyasi va axloqiy tamoyillar rivojlanib borar ekan, Ibn Sinoning tafakkur va ilmiy bilishga oid qarashlarini o‘rganish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, ushbu tadqiqot uning falsafiy qarashlarini zamonaviy nuqtayi nazardan tahlil qilish va ularning bugungi ilm-fan va falsafaga ta’sirini ochib berishga qaratilgan.

Muammo va savollar. Maqola quyidagi savollarga javob berishga qaratilgan:

- Ibn Sinoning borliq haqidagi qarashlari qanday asoslangan?
- Bilish va aql haqidagi fikrlari qanday tushuntirilgan?
- Uning falsafasi Sharq va G‘arb tafakkuriga qanday ta’sir qilgan?
- Bugungi kunda Ibn Sinoning g‘oyalari qanday ahamiyatga ega?
- Ibn Sinoning tafakkur va ilmiy bilishga oid qarashlari qanday ahamiyatga ega?

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, **Ibn Sinoning falsafiy qarashlari** nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Uning **borliq, bilish va aql haqidagi fikrlari** Sharq va G‘arb tafakkuriga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, mavjudotlarning kelib chiqishini zarurat va mumkinlik tamoyillari orqali tushuntirishi falsafaning keyingi rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Bilish nazariyasi sohasida Ibn Sino inson tafakkurini hissiy idrok, aql va ilohiy ilhom orqali shakllanishi bilan izohlab, bilish jarayonining murakkabligini asoslab bergan. Bu g‘oyalar keyinchalik Yevropa falsafasi, ayniqsa, Uyg‘onish davri tafakkurida o‘z aksini topgan.

Shuningdek, u **ilm va din uyg‘unligi** masalasiga e’tibor qaratib, bu ikki sohani qarama-qarshi emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida ko‘rgan. Bu yondashuv hozirgi ilmiy-falsafiy bahslar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Maqolada Ibn Sinoning borliq haqidagi qarashlari, bilish nazariyasi, aql va ruh tushunchasi hamda ilm va din uyg‘unligi masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, uning G‘arb falsafasiga ta’siri va zamonaviy fan uchun ahamiyati yoritiladi. Ishda “Kitob ash-Shifo”, “An-Najat”, “Al-Ishorot va at-Tanbihat” kabi asarlar hamda O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlari asosida ilmiy tahlil o‘tkaziladi. Natijalar Ibn Sinoning falsafiy merosini chuqurroq anglashga hamda uning g‘oyalari zamonaviy tafakkurga qanday ta’sir ko‘rsatganini aniqlashga yordam beradi.

Ibn Sinoning ilmiy merosi **metafizika, bilish nazariyasi, tibbiyot, tabiiy fanlar va axloq falsafasi** kabi ko‘plab sohalarda hanuz o‘rganilib kelmoqda. Uning asarlari va falsafiy g‘oyalari bugungi zamonaviy fan va tafakkur rivojida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ibn Sino. *Kitob ash-Shifo‘* (Shifo kitobi). Toshkent: Fan, 2004.
2. Ibn Sino. *An-Najat* (Najot kitobi). Toshkent: Sharq, 2008.
3. Ibn Sino. *Al-Ishorot va at-Tanbihat* (Ishoralar va tanbehlar). Toshkent: Ma’naviyat, 2012.
4. "Abu Ali ibn Sino va uning falsafiy qarashlari" – Maqolani o‘qish
5. "Abu Ali ibn Sinoning ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ba'zi jihatlari" – Maqolani o‘qish
6. "Abu Ali ibn Sino ta'limotining falsafiy qarashlari" - Maqolani o‘qish
7. "Ibn Sino falsafasida inson kamolotining adolatli, ideal jamiyat boshqaruvchisi" – Maqolani o‘qish
8. "Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosidagi falsafiy qarashlarning xususiyatlari" – Maqolani o‘qish
9. "Ibn Sino bilish nazariyasining mohiyati va unda mantiq" – Maqolani o‘qish

UDK 172.1…

INSON VA JAMIYAT HAYOTIDA AXLOQNING O‘RNI.

Ibrogimova Gulbaxor Eshmamatovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi, tadqiqotchi.
gulbahoribragemova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Etika fanining qadimiy fan bo‘lib, u bizda “Axloq ilmi”, “Odobnoma” kabi nomlar bilan atalgani, eramizdan avvalgi IV asrda yashagan yunon

faylasufi Arastu tomonidan fanga kiritilgani, etikaga bergan ta’rifi tahlil qilinadi. Axloq-inson ma’naviy kamoloti sarchashmalaridan biri bo‘lib, u tufayli jamiyat ravnaq topadi, fuqarolarning baxt-saodati haqidagi orzu-umidlari ro‘yobga chiqadi.

Kalit so‘zlar: Etika, Arastu, axloq, axloqiy ong, axloqiy hissiyot, xulq, ekologiya, gedonizm, evdemonizm, muhabbat, nafrat, ezgulik, yovuzlik, burch, vijdon, shafqat, ideal.

ANNOTATION

The article discusses the field of ethics as an ancient discipline, known to us as "moral science" and "etiquette," which was introduced by the Greek philosopher Aristotle in the 4th century BC. It analyzes his definition of ethics, highlighting that morality is one of the sources of human spiritual development, which contributes to the prosperity of society and the realization of citizens' hopes and dreams for happiness.

Key words: Ethics, Aristotle, morality, moral consciousness, moral emotions, behavior, ecology, hedonism, eudemonism, love, hatred, goodness, evil, duty, conscience, compassion, ideal.

KIRISH

Odamzod ijtimoiy mavjudot sifatida shakllana boshlagan kundayoq axloq paydo bo‘lgan. Odamzodning o‘zi ular o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarning hosilasi sifatida shakllana borgan. Odamlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar negizida jamiyatning axloqiy hayoti ijtimoiy borliqning tarkibiy qismi sifatida qaror topgan. Inson va jamiyat hayotida axloq talab qiluvchi, tartibga soluvchi, boshqaruvchi, yo‘naltiruvchi kuch bo‘lganligi uchun ham buyuk mutafakkirlar, shoirlar, olimlar, davlat va jamoat arboblarining diqqatini o‘ziga tortib kelgan.

Arastu etikaga – insonlar orasidagi munosabat doirasi va oqil ijtimoiy hayvon (individ)ning axloqini o‘rganuvchi fan deb ta’rif bergan. Bu haqda “Nikomax etikasi”, “Evdem etikasi”, “Katta etika” kitoblarini yozib “Etika” faniga asos solgan.[50]

“Falsafa: qomusiy lug‘at”ida: “Axloq(arab. Xulqning ko‘pligi; lot. Moralis- xulq-atvor) – ijtimoiy ong shakllaridan biri. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarni tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig‘indisi”[51], - deb ta’riflangan. Etika axloqning kelib chiqishi va mohiyatini o‘rganadi. “Axloq” so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuyini, fe’lini, tabiatini anglatadigan “xulq” so‘zining ko‘plik shaklidir. Inson va jamiyat hayotida axloq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Axloqning tartibga solish, boshqarish funksiyasi;
- Axloqning aksiologik funksiyasi;
- Axloqning maqsadga yo‘naltirish funksiyasi;
- Axloqning bilish funksiyasi;
- Axloqning tarbiyaviy funksiyasi;
- Axloqning kommunikativ funksiyasi.

[50] Аристотель. Никомахова этика./ Аристотель. Сочинение. В 4 х-т Т. 4. -М.: Мысль, 1984. С. 55 -62

[51] Falsafa: Qomusiy lug‘at / Tuzuvchi va ma’sul muharrir. Q.Nazarov. -T.: Sharq, 2004. – 40b.

Axloqiy tarbiya oiladan boshlanadi. Oiladagi muhabbat, ishonch, o‘zaro tushunish va g‘amxo‘rlik bolaning ochiqko‘ngil va to‘g‘riso‘z bo‘lib tarbiya topishiga zamin bo‘ladi. Bolaning tabiati va ruhiyati ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar asosida shaklanadi. “Bolaga beriladigan asosiy ruhiy tarbiya aniqlik va nutqdir. Bola bilan aniq va toza tilda gaplashish kerak. Bolaning dastlabki ta’lim olish-o‘rganishi o‘yin va o‘yinchoqlardan boshlanadi. O‘yinchoqlar esa tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. O‘yin va o‘yinchoqlar – bu bola uchun faqat ovunchoq emas. Bu bolaning jismoniy va ruhiy tarbiyasidagi jiddiy omildir. Shuning uchun ham bolalarni axloqli, odobli qilib tarbiya qilishda ota-onalarning e’tiborli bo‘lishi talab etiladi.”[52] Barkamol inson salohiyatidagi aqliy fikrlash quvvati bilan amaliy aqlga, shundan so‘ng amaliy aqlni faol aqlga yaqinlashtiradi. Faol aql sohibi esa zakovatli, mukofotga yaqin barkamol insonlar aqli bo‘lib, u moddiylikka bog‘lanmagan, ruhiy, ma’naviy olami yuksak, mukammal aql egasidir. Bunday odam aqliy, ma’naviy va jismoniy jihatdan ham eng sog‘lom insondir.

Etikaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi. Maqolada etikaning dinshunoslik, huquqshunoslik, siyosatshunoslik, pedagogika, ruhshunoslik, sotsiologiya, va ekologiya fanlari bilan bog‘liqligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Mavzuning dolzarbligi: Gedonizm (qad.yun. hedone-zavqlanish, rohatlanish)-insonning butun hayot mazmuni rohatlanish, huzurbaxshlikdan iborat, degan g‘oyani ifoda etadigan tushunchadir. Gedonizm ta’limotining asoschisi Aristippdir.

Evdemonizm (yun.yeudaimonia – baxt-saodat, rohat-farog‘at) – baxt-saodat, rohat-farog‘atni kishilar hayotining oliy maqsadi, deb hisoblaydigan axloqiy yo‘nalishdir. Demokrit va Epikur evdemonizmning yorqin namoyondalaridir. Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, me’yorlari haqida ham ko‘p ma’lumotlar berilgan.

XULOSA

Har bir insondan umri davomida jamiyatda qabul qilingan urf-odat, an’ana va qonun-qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat o‘rtasida yuzaga keladigan obyektiv aloqadorlik, ya’ni ijtimoiy munosabat- xulq-atvor, odob, xatti-harakat, prinsip va normalarning majmuasi axloqning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Axloq deb, avvalo inson bilan inson, so‘ngra inson bilan jamiyat o‘rtasidagi obyektiv va subyektiv aloqadorliklar tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxs, jamoa, ijtimoiy guruh, millat, elatning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan, yaxshi ezgu niyatlar sari yo‘naltiradigan, qadriyat maqomini olgan muayyan xulq-atvor, odob, xatti-harakat, tamoyil va normalarning majmuiga aytiladi. Forobiy aytganidek, “Daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo‘lganidek, insonning barcha xislatlari ham axloq bilan yakunlanadi”. Adolat ustuvor bo‘lgan jamiyatda axloqli insonlar ko‘payadi, bu jamiyatda barqarorlik hukm suradi va taraqqiyot yuksaladi. Maqolada inson va jamiyat ijtimoiy hayotida axloqning funksiyalari muhim o‘rin egallashi haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Q.Nazarov. Falsafa: Qomusiy lug‘at. T: Sharq, 2004.- 40 b

2. Q.Nazarov. Falsafa asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – 266 b

[52] Сабрина. Этикетнинг олтин китоби.Т.: Янги аср авлоди.2013. – 424б

3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. T.: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. -8 b

4. E.U.Umarov, F.B.Zagirtdinova. Etika. Darslik. T.: Cho‘lpon. 2005. -136 b

5. Aristotel.Etika. E.L.Radlov tarjimasi.Izdatelstvo AST. 2021.-416 b

6. D.X.Qodirov. Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlari. O‘quv qo‘llanma. T.: “Lesson Press” nashriyoti, 2023 -164 b

7. Сабрина. Этикетнинг олтин китоби. Т.: “Янги аср авлоди нашриети”. 2013. – 424 б

“YANGI O‘ZBEKISTON ORZUSI G‘OYASI ASOSIDA O‘QUVCHILARNI VATANPARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BOY MA’NAVIY MEROSIMIZDAN FOYDALANISH

Baxtiyarova Madinabonu Ikrom qizi
TDPU Ijtimoiy - gumanitar fanlar Tarix kafedrasi
Ma’naviyat asoslari 101-guruh 1-kurs magistranti
e-mail: @bakhtiyorovamadina0gmail.com

Annotatsiya:Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar va Yangi O‘zbekiston g‘oyasining o‘quvchi yoshlar ongida vatanvarvarlik ruhini singdirishdagi ro‘li keltrib o‘tiladi.O‘rta asr Sharq allomalari,tasavvuf allomalari va tarixiy sarkarda shaxslarning ma’naviy boy merosiga asoslanib ta’lim tarbiya jarayonlarini olib borish batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston,Taraqqiyot strategiyasi-2030, vatanparvarlik, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Az Zamaxshariy, So‘fi Olloyor, Naqshbandiy, Paxlovon Maxmud, Jaloliddin Manguberdi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются реформы, проводимые в Республике Узбекистан, и роль идеи Нового Узбекистана в воспитании духа патриотизма в сознании учащейся молодежи. В нем подробно рассматривается реализация образовательных процессов, основанных на богатом духовном наследии средневековых восточных ученых, мистиков и исторических военных деятелей.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Стратегия развития-2030, патриотизм, Имам Бухарий, Абу Райхан Беруний, Аз Замахшарий, Суфий Аллойор, Накшбанди, Пахловон Махмуд, Джалалуддин Мангуберди.

Annotation: This article discusses the reforms being carried out in the Republic of Uzbekistan and the role of the idea of New Uzbekistan in instilling the spirit of patriotism in the minds of young students. It discusses in detail the implementation of educational processes based on the rich spiritual heritage of medieval Eastern scholars, mystics, and historical military figures.

Keywords: New Uzbekistan, Development Strategy-2030, patriotism, Imam Bukhari, Abu Rayhan Beruni, Az Zamakhshari, Sufi Alloyor, Naqshbandi, Pakhlovon Makhmud, Jalaluddin Manguberdi.

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin.

Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiyadir”- deb kuyib yonib ta’kidlaydi SH.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida.

Zeroki bugun XXI asr eng rivojlangan texnika va texnologiyalar asrida rivojlanib borayotgan har qanday soha kabi ta’lim sohasi ham bundan mustasno emas.Bugungi zamonaviy islohatlar davrida bizning diyorinizda ham katta o‘zgarishlar va islohotlar samarali olib borilmoqda.O‘zbekiston Respublikasida keying yillarda islohotlar barcha jabhalarni qamrab oldi. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o‘rni va mavqei ortib borayapti, Yangi O‘zbekiston – inson qadri, huquq va manfaatlari himoyalanadigan ijtimoiy davlat, ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanib borayotgani e'tirof etilmoqda. Yangi O‘zbekistonning dunyoga, dunyoning esa O‘zbekistonga ochilganiga alohida urg'u berib o‘tishimiz joiz. Bugun ta’lim tarbiya ulug'lanadigan yurtimizda Yangi O‘zbekiston g'oyasini hayotga tatbiq etish – umummilliy harakatga aylangan.Shu boisdan ham biz malakali mutaxassislar bunda o‘z bilim va salohiyatimiz bilan bu maqsadlarga munosib xissamizni qo‘shishimiz zarur.Bu borada “Taraqqiyot startegiyasi-2030” salmnoqli qadam bo‘ldi. Prezident SH.M.Mirziyoyev tomonidan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 2023-yil 11-sentabrda tasdiqlangan edi. Strategiya maqsadlari qatoriga barcha fuqarolarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratish, sog‘lom va bilimli avlodni tarbiyalash, kuchli iqtisodiyotni shakllantirish hamda adolat, qonun ustuvorligi va xavfsizlikni kafolatlash kiradi.Bu kabi dadil va maqsadli islohotlar ta’lim tarbiya jarayonlarini yanada rivojlantirishning asosi hisoblanadi.

Bizga o‘tmishdan ma’lumki,O‘rta Osiyo azal azaldan ta’lim va tarbiya o‘chog‘i,qomusiy allomalar ,tasavvufning buyuk nomoyondalari va kuchli,yetuk, salohiyatli mard sarkardalar diyori bo‘lib kelgan.Ularga O‘rta asr renessansi asoschilari Imom Buxoriy,Abu Rayhon Beruniy,Abu Ali Ibn Sino,Az Zamaxshariy,Abu Nasr Farobiy,Al Farg‘oniy bo‘lsa tasavvufda din-u dunyoviy ilmlarning buyuk pirlari bo‘mish Naqshbandiy,Ahmad Yassaviy,Husayn Voiz Koshifiy,Paxlovon Mahmud,So‘fi Olloyor deya faxr bilan ayta olishimiz mumkin.

Bundan tashqari harbiy san’atda yuksak mahoratli, kuch qudrat sohiblari,mard,erksevar va vatan uchun jonini tikkan Amir Temur,Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Alimquli va boshqa ko‘lab mardalr er yigitlar o‘lasi hamdir bu qadimiy diyorimiz.Xuddi mana shu yuqoridagi barcha ilm fan axillari bo‘ladimi,tasavvuf vakillari yoinki harbiy sarkarda bo‘ladimi ularning boy ma’naviy asarlaridan,hikmat va dono og‘itlaridan,kuychli harbiy strategiyalaridan o‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali foydalanish ularning qalbida Vatanga muhabbat,ajdodlarga hurmat,ota onaga e’zoz,katta va kichikga izzat tuyg‘ularini o‘shtrishda muhim omil bo‘lishi mumkin.

Birgina misol Paxlovon Maxmud- u Xorazm tasavvuf namoyondalaridan biri hisoblanadi. U juda ham zabardast Pahlavon bo‘lib 79 yillik hayotida biron marta kuragi

yerga tegmaganligi aytiladi.Yokida So‘fi Olloyor haqida so‘z ketganda u tariqat arbobi va mutasavvuf shoir. Asrlar osha uning axloqiy-ta’limiy risolalari, xususan, «Maslak ul-muttaqin» va «Sabot ul-ojizin» asarlari maktab va madrasalarda asosiy darsliklar qatorida o‘qitilib kelgan. Uning diniy-tasavvufiy ruhdagi pandu hikmatga yo‘g‘rilgan asarlari nafaqat Turkiston, balki Qashqardan tortib Itil (Volga), Yoyiq (Ural) daryolari vohalari, Hojitarxon (Astraxan), Bulg‘or, Orenburg va boshqa mintaqalarda yashovchi xalqlar orasida ham keng tarqalgan.Xulosa sifatida,shuning o‘ziyoq bizining boy ma’naviy sarchashmalarimiz borligi va ulardan unumli va sifatli foydalanishimiz zamon talabi va biz yosh pedogoglarning zimmasidagi vazifasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoev. — Toshkent: : „O‘zbekiston“, 2017.

2. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Sh.M. Mirziyoyev. — Toshkent : O‘zbekiston, 2016.

3. ”Sharq allomalari va ma’rifatparvar adiblarning barkamol avlod tarbiyasiga oid ma’naviy axloqiy qarashlari”~G.Niyozov,Q.Axmedov,Q.Tojiboyev.-Toshkent ~``O‘zbekiston”-2010.

4. google.uz

5. ziyo.uz

KONVERGENSIYA TAMOYILLARINING HOZIRGI KUNDAGI AKTUALLIGI

Xaytboyev Boburjon Xamzayevich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universiteti
Ijtimoiy - gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.
bobur323bobur@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada konvergensiya (yaqinlashuv) tamoyillarining zamonaviy dunyodagi o‘rni va ahamiyati har tomonlama tahlil etiladi. Konvergensiyaning iqtisodiy, huquqiy, madaniy va texnologik sohalardagi ta’siri, ayniqsa globallashuv sharoitida uning dolzarbligi ochib beriladi. Muallif tomonidan konvergensiya jarayonlarining milliy davlatchilik, huquqiy mustaqillik, ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlari ham ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, bu tamoyilning O‘zbekiston tajribasidagi aks etish holatlari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: konvergensiya, globallashuv, integratsiya, texnologik uyg‘unlashuv, xalqaro huquq, madaniy qadriyatlar, innovatsiya, raqamli transformatsiya.

Annotation: This article comprehensively analyzes the role and significance of the principles of convergence in the modern world. The impact of convergence in the economic, legal, cultural and technological spheres, especially its relevance in the context

of globalization, is revealed. The author also considers the aspects of convergence processes related to national statehood, legal independence, and spiritual values. The cases and prospects of the reflection of this principle in the experience of Uzbekistan are also analyzed.

Key words: convergence, globalization, integration, technological convergence, international law, cultural values, innovation, digital transformation.

XXI asrda jamiyat taraqqiyotini aniqlovchi asosiy omillardan biri — bu ilm-fan va texnologiyalarning integratsiyalashuvi, ya’ni konvergensiyasidir. Mazkur tamoyil orqali insoniyat o‘z taraqqiyot bosqichida turli tizim va sohalarning uyg‘unlashuvi orqali kompleks muammolarga yechim topish imkoniga ega bo‘lmoqda. Globallashuv natijasida davlatlararo chegaralar shunchalik shaffoflashdiki, endilikda iqtisodiy, huquqiy, madaniy va ilmiy integratsiya muqarrar bir holat sifatida yuzaga chiqmoqda. Shu jarayonda konvergensiya tamoyillari strategik ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari avvalgi kabi alohida yo‘nalishlar sifatida emas, balki o‘zaro uyg‘unlashgan shaklda rivojlanmoqda. Shu sababli, bu jarayonlarni ifodalash uchun “konvergensiya” tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda. Bu atama telekommunikatsiya sohasida tarmoqlar va xizmatlarning integratsiyalashuvi, eski texnologiyalarni zamonaviy uslublarga almashtirish, shuningdek, ularni yagona tizimda uyg‘unlashtirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda konvergensiyani telekommunikatsiyalar sohasida yuz berayotgan ko‘plab o‘zgarishlar orqali yaqqol tushuntirish mumkin.

Asosan, elektraloqa sohasidagi konvergensiyani harakatga keltiruvchi omil — bu foydalanuvchilarga yangi turdagi xizmatlarni taklif etish ehtiyojidir. Konvergensiyaning asosiy maqsadi — bitta infrastruktura vositasida turli xizmat turlarini (masalan, telefoniya, internet, multimedia) taqdim etish imkoniyatini yaratishdir. Hatto bu xizmatlar har xil texnologik asosda yaratilgan bo‘lsa ham, ularning yagona platformada ishlashi ta’minlanadi. Ushbu texnik yechimlar kompyuterlashtirilgan axborot tizimlari yoki telekommunikatsiya uskunalari asosida barpo etilishi mumkin. Shu o‘rinda, xizmatlarning o‘zaro integratsiyalashuvi, ya’ni xizmatlar konvergensiyasi, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirishga olib keladi. Masalan, multimedia ilovalari bilan bog‘liq xizmatlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Aytish joizki, xizmatlar konvergensiyasi texnik platformalarning ham o‘zaro uyg‘unlashuvini talab etadi, bu esa yagona va kompleks yechimlarga asoslangan tizimlarning shakllanishiga olib keladi.

Konvergensiya — bu turli tizimlarning, sohalarning yoki yo‘nalishlarning umumiy maqsad yo‘lida integratsiyalashuvi va bir-biriga yaqinlashish jarayonidir. U dastlab biologiya, fizika va texnologiya sohalarida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, hozirda u iqtisod, huquq, madaniyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), siyosat va boshqa ijtimoiy sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Konvergensiya fanlararo yondashuv, innovatsiya va kompleks tizimlar ichida samarali muloqotni ta’minlaydi.

Konvergensiyaning asosiy yo‘nalishlari va dolzarbligini quydagilarda ko‘rishimiz mumkin:

a) Texnologik konvergensiya-Bugungi dunyoda AKT, nanotexnologiya, biotibbiyot, sun’iy intellekt va robototexnika kabi sohalar bir-biri bilan bog‘liq holda rivojlanmoqda. Masalan, “NBIC’’ (Nano, Bio, Info, Cogno) texnologiyalarining

uyg‘unlashuvi yangi bosqichdagi ixtirolarga olib kelmoqda. Bu, o‘z navbatida, inson salomatligini yaxshilash, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish, umuman hayot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

b) Ijtimoiy-iqtisodiy konvergensiya-Globallashuv tufayli turli mamlakatlar iqtisodiyotlari bir-biriga bog‘lanib bormoqda. Masalan, xalqaro bozorlar, transmilliy korporatsiyalar, raqamli iqtisodiyot orqali mamlakatlar iqtisodiy tizimlari bir-biriga uyg‘unlashmoqda. Bu esa umumiy standartlar, texnik reglamentlar, ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmatlar ko‘rsatish tizimining konvergent shakllanishini taqozo etadi.

c) Huquqiy konvergensiya-Milliy huquqiy tizimlar xalqaro huquqning umumiy tamoyillariga yaqinlashmoqda. Masalan, inson huquqlari, ekologik xavfsizlik, migratsiya, axborot xavfsizligi kabi sohalarda global yondashuv va yagona huquqiy mexanizmlar shakllanmoqda. Xalqaro tashkilotlar — BMT, YUNESKO, Yevropa Kengashi va boshqalar bu jarayonning asosiy regulyatorlariga aylangan.

d) Madaniy va axloqiy konvergensiya-Madaniyatlararo muloqotning faollashuvi, internet va global kommunikatsiyalar ta’sirida dunyo xalqlari orasida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ham bir-biriga ta’sir o‘tkaza boshladi. Bu esa yangi global axloqiy kodlarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, milliy o‘zlik va an’analarni saqlab qolish zaruriyati ham ortib bormoqda.[53]

Globallashuv bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki ilmiy, texnologik va ijtimoiy sohalar o‘rtasidagi integrasiyalashuv jarayonlarini ham sezilarli darajada jadallashtirdi.

Konvergensiya nuqtai nazaridan qaralganda, bu holat turli sohalar o‘rtasidagi chegaralarning tobora yo‘qolib borishi va ularning o‘zaro uyg‘unlikda ishlashga intilayotganini anglatadi.

Zamonaviy taraqqiyot o‘zining nihoyatda tez sur’atlarda kechayotganligi bilan ajralib turib, har bir soha va tarmoqdan bir-biri bilan muvofiqlashtirilgan holda faoliyat yuritishni talab qilmoqda. Bu esa konvergensiya jarayonining tabiiy oqibati bo‘lib, mustaqil sohalarning o‘zaro integratsiyalashuvi orqali yanada samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Shuningdek, jamiyat taraqqiyotini, uning iqtisodiy-ijtimoiy o‘sishini, insonlarning turmush darajasidagi ijobiy o‘zgarishlarni fan, ta’lim va ishlab chiqarish sohalarining uzviy hamkorligisiz tasavvur etish mushkul. Bu yerda esa konvergensiya tushunchasi fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi sinergetik aloqalar orqali kompleks rivojlanishning zarurligini ifodalaydi.

Bundan tashqari, sohalararo integratsiyaning zamonaviy shakllaridan biri sifatida klaster yondashuvi ajralib turadi; u ilmiy-pedagogik muammo sifatida chuqur tadqiq etilishi lozim bo‘lgan dolzarb yo‘nalishdir.

Klasterlash esa, bu konvergensiyaning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, u bir nechta sohalarni yagona tizimga birlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishishni ko‘zlaydi.

Klaster yondashuvining samaradorligini ilmiy asoslash, uni amaliyotga tadbiq etish yo‘llarini ishlab chiqish esa hozirgi pedagogik tadqiqotlarning markaziy vazifalaridan biri sanaladi. Ya’ni, konvergensiya bu yerda innovatsion fikrlarni nazariyadan amaliyotga uzatishda muhim ko‘prik vazifasini bajaradi.

[53] Toirov, Z. (2022). Texnologik konvergensiya va raqamli transformatsiya. “Ilm va taraqqiyot” jurnali, 3(1), 88–95.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, klaster deganda xo‘jalik faoliyatining turli sub’yektlari o‘zaro aloqador, muvofiqlashtirilgan va umumiy maqsadlarga yo‘naltirilgan tarzda faoliyat yuritadigan yagona tashkiliy tuzilma tushuniladi.

Bu konvergensiyaning institutsional shakli bo‘lib, u orqali mustaqil tashkilotlar o‘z salohiyatini birlashtiradi va umumiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Bugungi zamonaviy klasterlar, odatda, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish vakillarini o‘z ichiga olgan holda, global iqtisodiy tarmoqlarda barqarorlikni ta’minlaydigan mexanizmlarni shakllantirmoqda.

Konvergent tuzilmalar bu jarayonda turli sohalarning imkoniyatlarini uyg‘unlashtirib, kompleks rivojlanish modelini taklif qiladi.

Shu boisdan ham klasterlar doirasida yagona tashkiliy tuzilmani shakllantirishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi va bu yondashuvlar konvergensiya orqali yangicha tizimlar yaratishga xizmat qiladi.

Yangi tashkiliy modellarda konvergensiya — bu innovatsiyani harakatga keltiruvchi asosiy omil sifatida ko‘riladi.

O‘zbekiston konvergensiya jarayonlariga faol tarzda qo‘shilmoqda. Ta’lim tizimida fanlararo yondashuvlar kuchaymoqda, elektron hukumat (e-government), raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt sohalarida islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston – 2030’’ strategiyasi doirasida texnologik, iqtisodiy va huquqiy konvergensiyani jadallashtirish choralari ko‘rilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston o‘z milliy qadriyatlari, madaniy merosi va diniy-axloqiy tamoyillarini asrash orqali madaniy konvergensiyani ongli va selektiv yondashuv asosida olib bormoqda. Bu esa konvergensiyani o‘ziga xos, muvozanatli modelda amalga oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, konvergensiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U ijtimoiy tizimlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarib, fan, texnika, huquq, madaniyat va iqtisodiyot sohalarini o‘zaro uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ammo bu jarayonda milliy qadriyatlar, siyosiy suverenitet va huquqiy mustaqillikni saqlash muhimdir. Shuning uchun konvergensiyani puxta tahlil asosida, milliy manfaatlar bilan uyg‘un holda olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allamjonov, S. (2023). Zamonaviy global jarayonlar va milliy huquqiy tizimlar konvergensiyasi. Toshkent: “Yangi asr avlodi”.
2. Baxtiyorov, U. (2021). Globallashuv sharoitida huquqiy tizimlarning o‘zaro ta’siri. “Ijtimoiy fanlar” jurnali, 4(2), 56–63.
3. Toirov, Z. (2022). Texnologik konvergensiya va raqamli transformatsiya. “Ilm va taraqqiyot” jurnali, 3(1), 88–95.
4. Karimova, G. (2023). Madaniy integratsiya va milliy qadriyatlar. Toshkent: Ma’naviyat.

KONVERGENSIYANING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Xaytboyev Boburjon Xamzayevich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universiteti
Ijtimoiy - gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.
bobur323bobur@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada konvergensiya tushunchasining mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Turli ijtimoiy tizimlar, g‘oyaviy maktablar va texnologik taraqqiyotlar konvergensiyasi orqali qanday o‘zaro ta’sirda bo‘lishi ochib beriladi. Konvergensiyaning inson tafakkuri, madaniy almashinuv va ijtimoiy institutlar rivojlanishidagi roli yoritiladi. Shuningdek, maqolada globallashuv jarayoni, raqamli transformatsiya va sivilizatsiyalararo muloqot doirasida konvergensiya fenomeniga nisbatan tanqidiy va konstruktiv yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Konvergensiya, ijtimoiy-falsafiy tahlil, globallashuv, texnologik taraqqiyot, madaniy almashinuv, g‘oya integratsiyasi, zamonaviy jamiyat.

Annotation: This article analyzes the essence of the concept of convergence, its role in the development of society and its significance in modern socio-philosophical thought. It reveals how different social systems, schools of thought and technological developments interact through convergence. The role of convergence in the development of human thought, cultural exchange and social institutions is highlighted. The article also considers critical and constructive approaches to the phenomenon of convergence within the framework of the globalization process, digital transformation and dialogue between civilizations.

Key words: Convergence, socio-philosophical analysis, globalization, technological progress, cultural exchange, integration of ideas, modern society.

Zamonaviy dunyo taraqqiyoti murakkab va ko‘p qirrali jarayonlardan iborat bo‘lib, bu holat turli sohalar va tizimlar o‘rtasidagi yaqinlashuvni keltirib chiqarmoqda. Ushbu hodisa “konvergensiya’’ tushunchasi orqali ifodalanadi. Konvergensiya – bu turli sohalarning, g‘oyalarning, texnologiyalarning va ijtimoiy institutlarning bir-biriga yaqinlashuvi, uyg‘unlashuvi va integratsiyalashuvi jarayonidir. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan konvergensiya insoniyat taraqqiyotidagi muhim tendensiyalardan biri hisoblanadi.

Tarixiy taraqqiyot davomida ilmiy bilimlarning shakllanish jarayonini tahlil qilganda, fan degan tushuncha o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaganini, balki dastlab turli xil, bir-biridan mustaqil bo‘lgan bilim sohalarining asta-sekin yuzaga chiqishi bilan shakllanganini ko‘rish mumkin. Vaqt o‘tishi bilan bu alohida bilim sohalari tobora murakkablashib, o‘zaro yaqinlashdi va yirik kompleks tizimlarga birlashdi. Bu jarayon esa, o‘z navbatida, har bir fan sohasining ichki ixtisoslashuvi va chuqurlashuvini taqozo etdi.

Texnologik taraqqiyot esa o‘zining rivojlanishida asosan muayyan ilmiy kashfiyotlar yoki konkret fan sohalarida erishilgan yutuqlar asosida yuzaga chiqdi.

Masalan, XX asrning 80-yillarida biotexnologiya sohasida ro‘y bergan muhim o‘zgarishlar keyinchalik nanotexnologiyalar inqilobiga zamin yaratdi. Bu inqilob esa o‘z navbatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi keskin yuksalishlarga olib keldi. Ushbu inqilobiy jarayonlarning o‘zaro birikishi natijasida bugungi kunda kognitiv fanlar – ya’ni inson tafakkuri, idroki va bilish faoliyati bilan bog‘liq fanlar – misli ko‘rilmagan sur’atda rivojlanmoqda.

Bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalar bir-biridan ajralmas bo‘lib, ular orasida chuqur aloqadorlik vujudga kelgan. Ayniqsa nano-, bio-, axborot, kognitiv va ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘zaro integratsiyasi natijasida NBICS (ya'ni: nano, bio, info, cognitive, social) konvergentsiyasi deb ataluvchi ilmiy-texnik yo‘nalish paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalish nafaqat atrof-muhit va tabiatni, balki insonning o‘zini ham o‘zgartirishga, yaxshilashga yo‘naltirilgan bo‘lib, falsafiy va uslubiy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon, o‘z navbatida, ilm-fan taraqqiyotida antropologik burilishga – ya’ni inson tabiatini, ongi va salohiyatini tubdan o‘rganish va takomillashtirishga qaratilgan yangi davrga olib kirmoqda.

Konvergentsiya ilmiy izlanishlar va texnologik amaliyotlarda muvofiqlik va yaxlitlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv fanlararo (interdisipliner) tadqiqotlarni kuchaytiradi, hatto ko‘plab holatlarda transdisipliner xarakterga ega bo‘lib, fanlar chegaralarining buzilishi va yangi bilish usullarining shakllanishiga olib keladi. Shu tarzda, zamonaviy ilm-fan faqat alohida sohalarni chuqur o‘rganishga emas, balki ularni bir butun sifatida ko‘rib, kompleks yondashuv asosida yangi bilimlar yaratishga qaratilmoqda.

Konvergensiya ilk bor texnologik taraqqiyot, xususan, informatsion-kommunikatsion texnologiyalar rivojida tilga olinadi. Biroq bu tushuncha falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va siyosatshunoslikda ham muhim tahlil obyekti bo‘lib bormoqda. Falsafiy nuqtai nazardan konvergensiya g‘oyalarning birlashuvi, inson tafakkurining yaxlitlikka intilishi, tafovutlarni inkor qilmagan holda uyg‘unlikka erishish yo‘lidir.

Konvergentsiya — bu turli fan va texnologiyalar sohalarining o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali yuzaga keladigan murakkab jarayondir. Ushbu jarayon bugungi kunda dolzarb bo‘lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan. Avvalo, konvergentsiya insonlarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish, shuningdek, axborot almashishning ilg‘or usullarini yaratish orqali yangi turdagi ijtimoiy muloqotlarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa nafaqat shaxsiy taraqqiyotga, balki butun jamiyatning madaniy va iqtisodiy rivojiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, fan va texnologiyalar uyg‘unligining yana bir muhim yo‘nalishi — bu tibbiyot va sog‘liqni saqlash tizimidagi ilg‘or yechimlarni ishlab chiqishdir. Kasalliklarni davolashning zamonaviy uslublarini yaratish, yangi sog‘liqni saqlash hamda ta’lim infratuzilmasini shakllantirish orqali odamlarning umr ko‘rish davomiyligini uzaytirish, hayot sifatini yaxshilashga erishiladi. Bu esa inson salomatligiga e’tiborning kuchayishiga va sog‘lom jamiyat barpo etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, konvergentsiya mehnat unumdorligini oshirish va natijada axborot jamiyatidan kognitiv kapitalizmga o‘tish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Bu o‘zgarishlar bilimga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishiga olib keladi, bunda inson kapitali asosiy resurs sifatida qaraladi.

Shunday qilib, fan va texnologiyalarning yaqinlashuvi — bu nafaqat ilmiy taraqqiyot, balki keng ko‘lamli strategik vazifa bo‘lib, uning yordamida energetika, ishlab chiqarish, tibbiyot, harbiy sohalardagi muammolarni kompleks tarzda hal etish mumkin. Bu esa fanlararo yondashuv va innovatsion hamkorlik orqali amalga oshiriladi.

Natijada, konvergentsiya jarayoni dunyoning ilmiy manzarasini tubdan o‘zgartiradi. U insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida yuzaga kelgan fan va texnika sohalaridagi uzviy o‘zgarishlarni ifodalaydi, ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylanadi. Shu boisdan ham ushbu dissertatsiya doirasida konvergentsiyaning tarixiy shakllanishi, uning rivojlanish dinamikasi va ilmiy tafakkurga ta’siri chuqur tahlil etilishi lozim.

Bugungi kunda madaniyatlar, iqtisodiyotlar va siyosiy tizimlar o‘rtasidagi chegaralar tobora yo‘qolib bormoqda. Bu esa turli jamiyatlar va madaniyatlar o‘rtasida konvergensiya jarayonlarini kuchaytiradi. Misol uchun, demokratik qadriyatlarning avtoritar tizimlarga singdirilishi yoki texnologik rivojlanish orqali ta’lim va tibbiyot tizimlarining integratsiyasi konvergensiyaning ijtimoiy jihatlaridir.

Ma’lumot o‘rniga aytamizki, konvergentsiya nazariyasi —kapitalistik va sotsialistik tizimlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy hamda mafkuraviy tafovutlar asta-sekin bartaraf bo‘lib boradi, natijada bu ikki tizim yakuniy bosqichda birlashadi. “Konvergentsiya” atamasi aslida biologiyaga oid bo‘lib, u yerda turli xil organizmlarda o‘xshash xususiyatlarning mustaqil ravishda shakllanishini bildiradi.

Mazkur nazariya 20-asrning 1950–60-yillarida shakllandi. Bunga sanoat jamiyatida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar — ishlab chiqarishning tobora ko‘proq ijtimoiylashuvi, ilmiy-texnik inqilob, burjua davlatining iqtisodiyotdagi rolining ortishi va kapitalistik mamlakatlarda rejalashtirish elementlarining paydo bo‘lishi sabab bo‘lgan.

Nazariya tarafdorlari kapitalistik va sotsialistik tizimlarning yaqinlashuvini, avvalo, texnologik taraqqiyot va yirik sanoatning o‘sishi bilan bog‘laydi. Ular korxonalar hajmining kattalashishi, sanoatning milliy iqtisodiyotdagi ulushining ortishi, yangi sohalarning ahamiyat kasb etishi kabi omillarni tizimlar o‘rtasidagi umumiylik sifatida ko‘rsatishga intiladilar.

Biroq bu yondashuvda jiddiy xato mavjud — texnologik omillarga haddan ziyod e’tibor qaratilib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ya’ni insonlar va sinflar o‘rtasidagi munosabatlar e’tibordan chetda qolmoqda. Texnika va ishlab chiqarish tashkilotining o‘xshashligi sotsializm va kapitalizm o‘rtasidagi tub farqlarni yo‘qqa chiqara olmaydi.

Konvergentsiya tarafdorlari iqtisodiy jihatdan ham ikki tizim o‘rtasida o‘xshashlik mavjudligini da’vo qiladilar. Ularning fikriga ko‘ra, kapitalistik davlatlar tobora ko‘proq iqtisodiyotni tartibga solishda faol ishtirok eta boshlagan, sotsialistik davlatlarda esa bozor mexanizmlariga qisman qaytish kuzatilgan. Ammo bu fikr haqiqatdan yiroq: burjua davlati ishlab chiqarish vositalarining xususiy qo‘llarda bo‘lishi sababli butun iqtisodiyotga keng ko‘lamda rahbarlik qila olmaydi. U faqat iqtisodiy jarayonlarni prognozlash yoki ko‘rsatma xarakteridagi rejalar tuzish imkoniyatiga ega, xolos.

Shuningdek, “bozor sotsializmi’’ tushunchasi ham tanqid qilinadi. Bu nazariya sotsialistik iqtisodiyotda amal qiluvchi tovar-pul munosabatlarining asl mohiyatini noto‘g‘ri talqin qiladi. Haqiqatda, sotsialistik davlatda tovar-pul munosabatlari markazlashgan rejalashtirishga bo‘ysundirilgan, iqtisodiy islohotlar esa rejalashtirish usullarini takomillashtirishga qaratilgan.

Bundan tashari, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, IoT (Internet of Things) kabi sohalarning birlashuvi natijasida ijtimoiy tuzilmalar o‘zgarib bormoqda. Bu holat yangi ish o‘rinlari, ta’lim uslublari, muloqot shakllari va hatto qadriyatlar tizimini shakllantirmoqda. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan bu jarayonlar insonning o‘ziga, atrof-muhitga va boshqa insonlarga bo‘lgan munosabatini qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi.[54]

Shuni ham aytish joizki, globallashuv bugungi zamonaviy dunyo taraqqiyotining ajralmas omiliga aylangan. U ilg‘or texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yuqori tezlikdagi aloqa va kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi, shuningdek, ilmiy, texnik va amaliy axborotlarni yig‘ish, saqlash va ommaga yetkazish kabi sohalarda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bularning barchasi mehnat unumdorligini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish hamda raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun qulay zamin hozirlab bermoqda.

Bu jarayonlar, o‘z navbatida, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga, ularning jahon iqtisodiy makoniga chuqurroq integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Xususan, texnologik taraqqiyot va kommunikatsiya vositalarining yuksalishi bilan bir qatorda, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ham o‘zaro yaqinlashuv, ya’ni konvergentsiya jarayonlari tobora faol tus olmoqda. Bu holat global miqyosda turli mamlakatlar o‘rtasida o‘xshashlik va umumiylik tamoyillarini kuchaytirib, huquqiy, axborot, ta’lim va boshqaruv tizimlarining uyg‘unlashuviga olib kelmoqda.

Biroq globallashuv jarayonlarining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, ayrim salbiy oqibatlarini ham inkor etib bo‘lmaydi. Jumladan, madaniy xilma-xillikning yo‘qolishi, milliy identitetning zaiflashuvi va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga nisbatan befarqlik kabi tahdidlar ko‘zga tashlanmoqda. Aynan shu nuqtada konvergentsiya jarayonlarining ham ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi, har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati va qadriyatlariga nisbatan hurmat bilan yondashilishi zarur bo‘ladi.

O‘zbekiston kontekstida qaralganda, milliy qadriyatlar, ma’naviyat va axloqiy tamoyillar – bu nafaqat jamiyatning ma’naviy salomatligi uchun muhim, balki kuchli davlat sifatida global maydonda munosib o‘rin egallash uchun zaruriy asosdir. Shuning uchun ham, globallashuv va konvergentsiya jarayonlarida milliy qadriyatlar va madaniy o‘zlikni saqlab qolish — strategik ahamiyatga ega bo‘lgan masaladir. Bu borada O‘zbekiston o‘zining mustaqil yo‘lini tanlab, ochiqlik va integratsiyani milliy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirishga intilmoqda.

Shu boisdan, konvergentsiya jarayoni bir yoqlama emas, balki ko‘p qirrali — texnologik, iqtisodiy, huquqiy va ayniqsa madaniy-ma’naviy darajalarda kechadigan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida e’tirof etilishi kerak. Uning boshqaruvi esa har bir jamiyatning ichki imkoniyatlari va qadriyatlariga tayangan holda olib borilishi lozim.

Har qanday yaqinlashuvda assimilyatsiya xavfi ham mavjud. Turli madaniyatlarning bir-biriga singib ketishi milliylikni yo‘qotish xavfini tug‘diradi. Bu esa konvergensiyani ehtiyotkorlik bilan boshqarish va unga madaniy diversifikatsiya prizmasidan yondashishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Konvergensiya ijtimoiy-falsafiy tahlilning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u zamonaviy jamiyatdagi ko‘p sonli o‘zgarishlarni

[54] Ruzmetov Z. “Globallashuv va falsafa”. – Toshkent: Fan, 2018.

tushunishga va ularni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayonni chuqur anglash jamiyatning barqaror va muvozanatli rivojlanishi uchun muhimdir. Falsafaning asosiy vazifasi esa bu konvergensiyani insonparvarlik va ma’naviy yuksalish asosida boshqarishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xabermas Y. “Kommunikativ harakatlar nazariyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2021.
2. To‘xtayev B. “Zamonaviy g‘oyalar va nazariyalar’’. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
3. Castells M. “Axborot davri: Iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat’’. – Moskva: GU VShE, 2019.
4. Ruzmetov Z. “Globallashuv va falsafa”. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Alvin Toffler. “Uchinchi to‘lqin’’. – Toshkent: Sharq, 2016.

ZAMONAVIY QOZOG‘ISTONDA ISLOMIYLASHUV JARAYONINING FALSAFIY TAHLILI

Ergashev Kamoliddin Erkin o‘g‘li
@mail: ergashevkamoliddin1995@gmail.com
Shaymardonova Gulhayo Botir qizi Prie-54U guruh talabasi

Annotatsiya: Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra dunyoviy davlat deb e’lon qilindi va unda vijdon erkinligi inson huquqlari orasidagi eng muhimlaridan biri sifatida tan olindi. Bundan tashqari Konstitutsiyada diniy uyushmalar prinsiplarining tengligi va davlat ularning ichki ishlariga aralashmasligi e’lon qilingan.

Kalit so‘zlar: din, vijdon erkinligi, zamonaviy dinlar, ananaviy dinlar, pravoslavlik, Islom, mustaqillik, tarix.

Abstract: According to the Constitution of the Republic of Kazakhstan, it was declared a secular state, and it recognized freedom of conscience as one of the most important human rights. In addition, the Constitution declares the principles of equality of religious associations and the state's non-interference in their internal affairs

Key words: religion, freedom of conscience, modern religions, traditional religions, Orthodoxy, Islam Independence, History.

Qozog‘istondagi diniy holat rivojlanishining asosiy tendensiyasi islomiylashuvning yangi to‘lqini hisoblanadi[55]. Bunda ular islomga kelgan odamlar anchayin murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarda yashashlarini va e’tiqod orqali ular o‘zlarida yangi kuch to‘play olishlarini aytib o‘tganlar. Bundan tashqari, agar insoniylik qonunlari amal qilmay qolsa (korrupsiyaning rivojlanib ketishi, jinoyatchilikning avj olishi kabi), insoniyat asrlar davomida sinovdan o‘tgan qonunlar – xudo tomonidan belgilangan qonun-qoidalar atrofida birlasha boshlaydilar[56].

[55] Сейдахмедова Б. Ислам в Казахстане. Интервью с политологом Адилем Каукеновым [quorum.kz/6123/], 1 августа 2011
[56] Юқоридаги манбага қаранг.

Qozog‘iston jamiyatida partiyaviy siyosat mavzusiga qiziqish sezilarli darajada kamayib borishi natijasi o‘laroq, partiyalar va davlat jamiyatning eng muhim muammolarini hal qila olishlariga ishonchsizlik ortib bormoqda. “Nur otan” partiyasining davlat organlari bilan uzviy aloqasi sababli, aholi hukumat bilan maxfiy ishlar yoinki, zo‘ravonlik metodlarini amalga oshirilganligi haqidagi ochiq konstruktiv dialogni ma’qul ko‘rishi xavfi ortib bormoqda.

Yana shuni ham hisobga olish kerakki, sotsiologlar hisob-kitoblariga ko‘ra, 39 % aholi har bir inson uchun belgilangan oylik hisob ko‘rsatkichiga (OHK) teng summa bilan yashaydilar, 40 % aholi esa, 2 OHK evaziga yashaydilar. Ya’ni mamlakat aholisining 80 % minimal ko‘rsatkichdagi daromadga ega bo‘lmay yashayotganligi ham, jamiyatdagi tajanglikni orttirmoqda.

Shunday qilib, Qozog‘iston hukumati yillar davomida bee’tibor qoldirgan masalalari uchun javobni xalqdan olishmoqda. Aholining fikr yurita oladigan qismining ildiziga bolta urib, ziyolilarni kamaytirib, e’tiborni davlat organlari va kuch bilan faoliyat yurituvchi insonlarga berganliklari uchun mavjud ahvol vujudga keldi. Aholi bugun ham degradatsiyani davom ettirmoqda, bu ta’lim olmagan va siyosatdan yiroq kishilar bo‘lib, ular norozilik bildirishning eng og‘ir usullaridan boshqasini bilmaydilar. Shulardan biri sifatida 2011 yil iyun oyining oxirlarida “Nur otan” partiyasi binosida o‘g‘li uyda narkotiklar saqlaganligi uchun 10 yilga qamalganligidan noroziligini bildirish maqsadida o‘zini yoqib yuborish aktini sodir etgan ayolning harakatini ko‘rsatishimiz mumkin. Guvohi bo‘lganingizdek, Qozog‘istonda hukumatning nohaqligi va qabul qilgan qarorlariga qarshi chiqishda o‘z joniga azob berish, hatto o‘z joniga qasd qilish kabi, yomon an’ana paydo bo‘lmoqda. Agar, markazdan u qadar uzoq bo‘lmagan hududlar uchun bu kabi uslublar yaxshiroq sharoitga ega bo‘lish imkoniyatini bersa, oddiy fuqarolar uchun esa – bu o‘z pozitsiyasini isbotlashning yagona usulidir.

Bu kabi holatlar respublikada korrupsiyaning, g‘ayriqonuniy ishlarning va telefon orqali ayrim ishlar hal qilinishining rivojlanishi oqibatida kelib chiqqan chorasizlik tufayli sodir bo‘ldi. Natijada xalq bezovtaligi ortib bormoqda, bu esa boshqaruvchi elita va mamlakatning ijtimoiy-siyosiy vaziyatining barqarorligi uchun xavf soladi. Ko‘p hollarda yaqinidan judo bo‘lishning natijasi shu bo‘ladiki, g‘azablangan odamlar kimniki bu ishda aybdor deb topsa, o‘shanga bor salbiy hissiyotlarini sochib yuboradi.

Oqtepa viloyati milliy xavfsizlik qo‘mitasi departamenti binosida 2011 yilning 17 may kuni 25 yoshli R.Maxatov o‘zini portlatib yubordi. Portlash natijasida 3 kishi yarador bo‘ldi. R.Maxatovning o‘zi esa, voqea joyida halok bo‘ldi. Huquqiy organlar hujjatlarida u terooristik guruh a’zosi bo‘lganligi aytilsa, qarindoshlari esa R. Maxatovning biror-bir jinoyat sodir etmaganligi va qandaydir bir diniy oqimga mansub bo‘lganligini aytishmoqda[57].

Qozog‘iston hukumati musulmonlar jamiyatida ichki munosabatlarni silliqlash “retseptini” topishga urinishmoqda, ammo ratsional tarzda harakat qilinmaganligidan va ko‘pincha oshirib yuborishayapti. 2011 yilning iyuni oxirlarida Absattar xoji Derbisali bilan din masalalari bo‘yicha Agentlik vakili K.L.Sharif uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuv

[57] Рысалиев А. Влияние исламских религиозных идей в Западном Казахстане (интервью с Азаматом Майтановым), 1 августа 2011.

davomida bosh muftiy “Bir millat-bir din” tashabbusiga do‘stona munosabat bildirdi[58]. Qozog‘istonda musulmonlar ma’naviyatini mustahkamlash masalalarining roli ham, sunniylik tariqatidagi xanafiylik mazhabining yangi bosqichga ko‘tarilishi ham muhokama qilindi.

Shundan ayon bo‘ladiki, mamlakatda sodir bo‘lgan keyingi xodisalar davlat rahbariyatini sarosimaga solib qo‘ygan va ular yon bosish orqali vaziyatni to‘g‘rilash mumkin deb o‘ylamoqdalar.

Ammo, K.L.Sharifning “Bir millat-bir din” tashabbusi ham utopik fikrdan boshqa narsa emas va bu yanada ko‘proq salbiy oqibatlarga olib keluvchi xavfli uchqunlar tarqatishi mumkin, chunki Qozog‘istonning ko‘pkonfessiyaviylik jamiyatida o‘rganib chiqilgan faktlarga suyanmay turib, bitta dinni joylashtirib bo‘lmaydi. Shuning bilan birga, davlat siyosatining asosiy ustunlik g‘oyasi bu qozog‘istonlik deya ataladigan millatni yaratish hisoblanishini hisobga olish muhim va agar K.L.Sharifning tashabbusidan kelib chiqadigan bo‘lsak, uning dini mo‘tadil islom dini bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni
2. Vvedenie v obщee religiovedenie: Uchebnik /Pod red. prof. I.N. Yablok ova. – M.: Knijnыy dom «Universitet», 2001.
3. Konstitutsiya Respubliki Kazaxstan. – Astana-1995.
4. Zakon RK «O borbe s ekstremizmom», 2005
5. «O religioznoy deyatelnosti i religioznыx ob’edineniyax». Zakon RK, 2011g.

ОӘЖ 2.29.297.1

Дін және қоғам: өзара байланыс

Маханбетқызы Жанерке
missjanerke61@gmail.com
Ғылыми жетекші: аға оқытушы Байбосунов Д. Б.
Академик Е. А. Бөкетов атындағы Қарағанды университеті
«Дінтану» мамандығының 3 курс студенті

Аннотация. Дін – адамзат тарихында ең ықпалды әрі тұрақты мәдени-әлеуметтік институттардың бірі. Ол адам санасының терең түкпірінен орын алып, өмірдің мәнін, жаратылыс сырын, адам мен қоғамның өзара байланысын түсіндіруге тырысады. Ал қоғам – адамдардың бірлесіп өмір сүруінің формасы, өзара қатынастар мен құрылымдардың жиынтығы. Осы екі ұғым, яғни дін мен қоғам, тарихи даму барысында бір-біріне әсер етіп, әрдайым тығыз байланыста дамып келеді. Бұл мақалада дін мен қоғам арасындағы өзара байланыс кеңінен қарастырылады. Ең алдымен, діннің қоғамдағы атқаратын негізгі қызметтері мен рөліне тоқталып, оның моральдық-этикалық құндылықтарды қалыптастырудағы

[58] Новый глава Агентства по делам религий встретился с муфтием Казахстана [http://www.islamsng.com/kaz/news/2139/], 1 августа 2011.

орнын түсіндіреміз. Одан кейін қоғамдағы өзгерістердің, әсіресе заманауи жаһандану, зайырлылық, технологиялық прогресс сияқты құбылыстардың дінге тигізетін ықпалы талданады. Мақаланың мақсаты – дін мен қоғам арасындағы күрделі байланыстарды түсіндіру, олардың бір-біріне қалай әсер ететінін анықтау және қазіргі заманғы әлеуметтік үдерістерде діннің рөлін саралау. Бұл зерттеу арқылы оқырман дін мен қоғам арасындағы өзара ықпалдастықтың мәнін тереңірек ұғынып, рухани және әлеуметтік өмірдің үйлесімді дамуына қатысты пайым қалыптастыра алады.

Кілт сөздер: дін, адам, ислам, қоғам, құндылық, тәрбие, жаһандану, тұрақтылық

Дін тек сенім мен құлшылықтың жиынтығы ғана емес, сонымен қатар қоғамның рухани, моральдық және мәдени тірегі болып саналады. Дін адамдар арасындағы қарым-қатынасты реттейтін, адамгершілік нормаларын қалыптастыратын маңызды әлеуметтік күш. Әрбір қоғамның негізінде белгілі бір рухани-мәдени құндылықтар жатыр, ал бұл құндылықтардың түп-төркіні көбіне дінмен байланысты. Діннің қоғамдағы ең басты қызметі – тәрбие мен рухани қалыптастыру. Дін арқылы адам бойына әділдік, шыншылдық, сабырлылық, кешірімділік, еңбекқорлық сынды ізгі қасиеттер сіңіріледі. Мұндай мінез-құлық үлгілері қоғамда тыныштық пен тұрақтылықтың орнауына сеп болады. Сонымен қатар дін отбасы, неке, бала тәрбиесі, еңбек ету, қарттарға құрмет көрсету сияқты әлеуметтік нормаларды реттеп, оларды ұрпақтан-ұрпаққа жеткізудің құралы ретінде де қызмет етеді [1].

Bugungi kunda harbiy tizimlar yangi muammolarga duch kelmoqda. Ular qatoriga xotin-qizlar va ozchilik guruhlarni qo‘shish, shartnoma asosidagi armiyaga o‘tish, xususiy harbiy shirkatlar va texnologik qurollanish kiradi. Harbiy sotsiologlar bularning barchasini o‘rganib, ularning samaradorlik va siyosiy mas’uliyatga ta’sirini tahlil qiladilar.

Xulosa: Harbiy sotsiologiya harbiy institutlarning jamiyatdagi o‘rni va ularning ijtimoiy dinamikasini o‘rganadigan muhim sohaga aylangan. Samuel P. Huntington harbiylarning siyosatdan mustaqil, ammo professional bo‘lishi zarurligini asoslab bergan bo‘lsa, Charles Moskos harbiy tashkilotlarning zamonaviy sharoitda qanday kasbiylashayotganini tahlil qilgan. Cynthia Enloe esa gender va etnik masalalar orqali harbiy tizimdagi yashirin kuch dinamikalarini ochib bergan. Bugungi kunda harbiy tizimlar shartnoma asosidagi xizmat, xususiy harbiy shirkatlar va texnologik qurollanish kabi yangi chaqiriqlarga duch kelmoqda. Ushbu o‘zgarishlar harbiy institutlarning jamiyat bilan o‘zaro ta’sirini va ichki tuzilmasini yanada murakkablashtirmoqda. Shunday qilib, harbiy sotsiologiya zamonaviy dunyoda tinchlik, xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Enloe, C. (1975). The Military Uses of Ethnicity. Millennium - Journal of International Studies, 4(3), 220–234.

2. Enloe, C. (1980). Women—The Reserve Army of Army Labor. Review of Radical Political Economics, 12(2), 42–52.

3. Enloe, C. (2000). Maneuvers: The International Politics of Militarizing Women's Lives. University of California Press.

4. Huntington, S. P. (1957). The Soldier and the State: The Theory and Politics of Civil-Military Relations. Belknap Press.

5. Moskos, C. C. (1977). From Institution to Occupation: Trends in Military Organization. Armed Forces & Society, 4(1), 41–50.

6. Moskos, C. C. (1986). Institutional/Occupational Trends in Armed Forces: An Update. Armed Forces & Society, 12(3), 377–388.

7. All-Volunteer-II. (1975). The New Yorker.

IJTIMOIY INFRATUZILMANING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Abdumajidova Shohidaxon Isroiljon qizi
Mutalibxonov Azizxo‘ja Umarxo‘ja o‘g‘li
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalish talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholining normal faoliyat yuritishini funksional ta’minlovchi tarmoqlar va korxonalar yig‘indisi hisoblangan ijtimoiy infratuzilma haqida so‘z boradi. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilma tushunchasi va uning ahamiyati, tarkibiy qismlari, bu tushuncha ning fanda paydo bo‘lishi, uning soha va faoliyatlari, O‘zbekiston korxonalarining ijtimoiy infratuzilmasidagi muhim jihatlar, ijtimoiy infratuzilmalarga qo‘yiladigan talablar, ijtimoiy infratuzilma to‘g‘risida xorijlik tadqiqotchilarning fikr va mulohazalari, uni rivojlantirish va Prezidentimizning bu haqidagi qarorlari, fuqarolar turargohlarning ko`rinishi va ulardagi qulayliklarning bo`lishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: korxona, tarkibiy qism, ijtimoiy infratuzilma, talab, mulohaza, investitsiya, munitsipalitsiya

Kirish. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining eng asosiy jabhalaridan biri bu kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Sababi ular sonining qanchalik ko`p bo‘lishi, raq obatbardosh bo‘lishi aholining doimiy ish o‘rinlari hamda daromadga ega bo‘lishiga yordam beradi va eng asosiysi iqtisodiy farovonlikni kafolatlaydi. Iqtisodiyot tarixidagi eng buyuk mutafakkirlardan biri A.Smit aytganidek, insonni harakatga keltiruvchi kuch bu egoizm, o‘z manfaatlarini boshqalarnikidan ustun qo‘yishdir. Ammo u buni normal holat sifatida qabul qiladi va “Inson o‘z manfaatlarini o‘ylab harakat qilar ekan shuning barobarida beihtiyor boshqalarga naf keltiradi”- deya ijobiy xulosaga keladi. Tadbirkorlik faoliyati aynan olim aytgan fikrlarga mos bo‘lib, dastlab u o‘z manfaatlari yo‘lida harakatga keladi va boshqalarga ish berish orqali foyda keltiradi. Zamonamizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan yoki mavjud faoliyat egasi bo‘lgan insonlar uchun ular faoliyatini yangitdan boshlash yoki yanada kengaytirishda eng asosiy omillardan biri – bu infratuzilma hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi tashqi va ichki beqarorliklar sharoitida, infratuzilmani hududlarning ichki resurslariga asoslangan holda rivojlantirishning ahamiyati ortib bormoqda.

Infratuzilma tushunchasining lingvistik jihatdan tarixi 1875-yil Fransiyaga borib taqaladi va undan so‘ng ingliz tilida ham 1887-yildan boshlab foydalanishga kirib kelgan. Iqtisodiy adabiyotlarga esa, amerikalik iqtisodchi Rozenshteyn Rodan tomonidan kiritiladi. Mazkur terminning lug‘aviy ma’nosi lotin tilida “infra” -quyi, -pastki va fransuz tilida “structure” -tuzilma degan ma’nolarni anglatadi. Infrastruktura tushunchasi turli soha uchun bir-biridan ma’lum bir jihatlariga ko‘ra turlicha ma’nolarni anglatadi.

Ijtimoiy infratuzilmaga quyidagi komponentlar kiradi: uy-joy kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmatlar, aholi, savdo va umumiy ovqatlanish, yo‘lovchi transporti va aholiga xizmat ko‘rsatish uchun aloqa vositalari va boshqalar. Ijtimoiy-madaniy infratuzilma sog‘liqni saqlash, dam olish maskanlarini, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta’minot, ta’lim, madaniyat va san’at, ziyoratgohlar va boshqalar. Ijtimoiy infratuzilma iqtisodiyotning tarkibiy elementi hisoblanadi. Shakllangan ijtimoiy infratuzilma tushunchasi asosida uning tarkibiga kiruvchi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va

tuzilmalar ijtimoiy jarayonlarning moddiy va nomoddiy asoslari; moliyaviy, mehnat va tabiiy resurslar ijtimoiy rivojlanishga ta’sir qiladi.

Zamonaviy sharoitda korxonaning ijtimoiy infratuzilmasi umumiy ovqatlanish bo‘limlaridan iborat (oshxonalar, kafelar, bufetlar), sog‘liqni saqlash (kasalxonalar, poliklinikalar, tibbiy yordam punktlari, sanatoriyalar, dispanserlar), maktabgacha ta’lim muassasalari, ta’lim muassasalar (maktablar, kasb-hunar maktablari, malaka oshirish kurslari), uy-joy kommunal xo‘jaligi (o‘z turar-joy binolari, yotoqxonalar), maishiy xizmat, dam olish va madaniyat (kutubxonalar, klublar, pansionatlar, maktab oromgohlari, sport majmualari) shu kabi va boshqalardan iborat.

Xorijiy tadqiqotchilarning fikricha, mintaqaviy iqtisodiy siyosat ijtimoiy infratuzilmaga moliyaviy yordam ko‘rsatishga qaratilishi kerak. Bunday faoliyatning muhim qismi juda katta kapital talab qiladi va uzoq vaqt davomida mablag‘larning qaytarilishini ta’minlaydi, shuning uchun rivojlangan mamlakatlarning infratuzilma dasturlarida davlat ishtirokining ulushi an’anaviy ravishda yuqori. Masalan, 1973-77 yillarga mo‘ljallangan Yaponiyaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy rejasining eng muhim maqsadi sifatida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish belgilandi. Ijtimoiy infratuzilmaning holati va rivojlanishi masalalari vaqti-vaqti bilan AQSh Kongressi yig‘ilishlarida ko‘rib chiqiladi. AQSh 99-kongressining tinglovlariga ko‘ra (1986-yil) ijtimoiy infratuzilmaga yo‘llar, ko‘priklar, portlar, transport, sun’iy suv havzalari va suv rekreatsion tizimlari, atrof-muhit ob’yektlari, bog‘lar, dam olish maskanlari, jamoat binolari va davlat idoralari, maktablar, qamoqxonalar, sog‘liqni saqlash va ruhiy salomatlik muassasalari kiradi.

Mahalliy ilm-fanda ijtimoiy infratuzilma tushunchasi nomoddiy ishlab chiqarish sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy bilimlar tarmoqlari chegarasida shakllangan. Ijtimoiy infratuzilmani o‘rganishga bag‘ishlangan birinchi puxta ishlar 70-yillarda paydo bo‘ldi. Dastlab, ijtimoiy infratuzilma ko‘pincha xizmat ko‘rsatish sohasiga qisqartirildi, bu umumiy funksional maqsadga ega bo‘lgan, aholining xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo‘lgan tarmoqlar majmui ekanligini e’tirof etdi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy infratuzilma mamlakat aholisining iqtisodiy o‘sishi va turmush tarzini ta’minlash uchun umumiy shart-sharoitlar majmuini yaratishga qaratilgan turli ob’ektlar faoliyatiga oid ishlab chiqarish munosabatlarini, ya’ni ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini aks ettiradi.

Ijtimoiy jarayonlarning moddiy negizini tashkil etuvchi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va tuzilmalarning barchasi shakllantiriladigan ijtimoiy infratuzilma tushunchasiga asoslanib, keyinchalik paydo bo‘lgan moliyaviy, mehnat va tabiiy resurslar ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi, lekin uning iqtisodiy salohiyati hisoblanmaydi. Uning iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismi - asosiy fondlar. Ijtimoiy infratuzilmaning asosiy fondlari qiymati iqtisodiyotning asosiy fondlari qiymatining uchdan biridan ortig‘ini tashkil etadi.

Iqtisodiy o‘sishni intensivlashtirish ijtimoiy chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish va ma’lum infratuzilmani tashkil etuvchi yordamchi ob’ektlarni yaratishni taqozo etadi. Iqtisodiy faoliyat yuqorida qayd etilganidek ijtimoiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, insonning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. O‘z navbatida, inson ehtiyojlarini faqat ushbu maqsadlar uchun mo‘ljallangan aniq moddiy ob’ektlardan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin.

“Ijtimoiy infratuzilma” tushunchasini aniqlashda ikkita kontseptual yondashuv mavjud – tarmoq va faoliyatga asoslangan. “Sohaviy” yondashuvning mohiyati shundan iboratki, iqtisodiy rivojlanish har tomonlama bo‘lishi, ishlab chiqarishning samarali faoliyat yuritishini ta’minlash va aholi ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yordam berishi kerak. Shu bilan birga, infratuzilma alohida elementlar va ob’ektlar emas, balki umumiy shartlar yig‘indisi ekanligiga e’tibor qaratiladi. “Sohaviy” yondashuv tarafdorlari ijtimoiy infratuzilmani iqtisodiy tizimning tarkibiy-funksional elementlari: ijtimoiy taraqqiyot uchun umumiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ishlab chiqarish munosabatlariga kiruvchi tarmoqlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, ob’ektlar majmui sifatida belgilaydilar. Ushbu yondashuvning ijobiy tomonlari: ishlab chiqarish jarayonida umumiy mehnat sharoitlari (malakali mehnat resurslarini tayyorlash, ishchilarning jismoniy va ma’naviy salomatligi, ularning farovonlik darajasi), shuningdek tarkibiy qismlar (transport, aloqa, energiya) hisobga olinadi, ta’minot, suv ta’minoti ishlab chiqarish sharoitlarini bevosita ta’minlaydi.

Davlat sub’ekti darajasidagi infratuzilmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: munitsipalitet aholisining ehtiyojlarini qondirish, imkoniyatlarini tenglashtirish; davlat sub’ektining infratuzilmaviy yaxlitligini ta’minlash. Munitsipalitet darajasidagi infratuzilmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: munitsipalitetlar aholisining infratuzilmaga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlash va maksimal darajada qondirish; munitsipalitetning infratuzilmaviy yaxlitligini ta’minlashdan iboratdir.

Shuningdek, hujjatda loyiha hujjatlari ishlab chiqilishini, kelishilishini va tasdiqlanishini jadallashtirish talab etiladigan loyihalar (obyektlar) va moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirish, shuningdek, loyiha oldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish hamda tasdiqlash talab etiladigan istiqbolli loyihalar (obyektlar) ro‘yxati keltirilgan.

Hujjat qurilish tannarxini pasaytirish va kelgusidagi foydalanish xarajatlarini qisqartirishni inobatga olgan holda mutlaqo yangi na’munaviy, ijtimoiy va boshqa infratuzilma loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini nazarda tutadi. 2022-yil 1-fevralga qadar “Investitsiya loyihalarini amalga oshirishni nazorat va monitoring qilish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etiladi.

O‘ylaymanki, keltirilgan ushbu qaror va takliflar mamlakatimizda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib beradi.

Xulosa. Shubois, dasturiy-maqsadli yondashuvning barcha yirik loyihalarini amalga oshirish boshqaruvni takomillashtirish, bir tomondan idora va korxonalar, ikkinchi tomondan, mahalliy hokimiyat organlari vakolatlarini (huquq va majburiyatlarini) aniqroq taqsimlashni taqozo etadi. Shunday qilib, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish ko‘p qirrali muammo bo‘lib, uning maqsadi inson tabiatiga munosib sharoitlarni yaratishdir.

Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqib infratuzilma uchun quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin: infratuzilma – bu ijtimoiy-iqtisodiy hayot rivojlanishi va farovonligi uchun xizmat qiluvchi shart-sharoitlar yig‘indisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hasanov, H., (2021). Tadbirkorlik infratuzilmasini raqamlashtirishning iqtisodiy samaralari. developmentissuesof innovative economy in the agricultural sector,257.

2. Xaitov, T., & Hasanov, H., (2021). Tadbirkorlik infratuzilmasini takomillashtirish barqaror rivojlanish asosi. Development issues of innovative economy in theagricultural sector,partii, 524.

3. Kuvondikov, Sh., & Hasanov. H., (2017). Xizmat ko’rsatish va servis sohalarini rivojlantirishda muhim yo‘nalishlar. Ilmiy axborotnoma” ilmiy jurnal, Samarqand davlat universiteti, 4-son (104),183.

4. Социальная инфраструктура предприятий в современных условиях. - [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.centeryf.ru/data/stat/Infrastruktura.php.

HOZIRGI ZAMON SOTSIOLOGIYASINING ASOSIY YO‘NALISHLARI TAHLILI

Eshonova Nilufar Islom qizi
nilufareshonova888@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi zamon sotsiologiyasining asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Unda funksionalizm, konflikt nazariyalari, simvolik interaksionizm, feministik nazariyalar va postmodernizmning dolzarb jihatlari ko‘rib chiqilgan. Ushbu yo‘nalishlarning jamiyat rivojlanishiga ta’siri va ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Sotsiologiya, funksionalizm, konflikt nazariyasi, simvolik interaksionizm, feminizm, postmodernizm

Abstract: This article analyzes the main directions of contemporary sociology. It examines functionalism, conflict theories, symbolic interactionism, feminist theories, and postmodernism. The relevance and impact of these approaches on societal development are discussed in detail.

Keywords: Sociology, functionalism, conflict theory, symbolic interactionism, feminism, postmodernism

Kirish: Sotsiologiya, inson va jamiyatni o‘rganuvchi fan sifatida, tarix davomida turli yondashuvlar va nazariyalar yordamida rivojlanib keldi. Hozirgi davr sotsiologiyasi jamiyatning murakkab tizim sifatida o‘zaro bog‘langan ijtimoiy strukturalar, madaniy hodisalar va individual xatti-harakatlarni tahlil qilishga qaratilgan. XXI asrda globalizatsiya, texnologik taraqqiyot, gender tenglik masalalari va ekologik muammolar kabi muhim jarayonlar sotsiologik tadqiqotlarning yangi yo‘nalishlarini shakllantirdi.

Hozirgi zamon sotsiologiyasi nafaqat nazariy tahlilga, balki amaliy masalalarni hal etishga ham yo‘naltirilgan. Jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar natijasida sotsiologlar ijtimoiy tengsizlik, shaxsiy identifikatsiya, madaniy xilma-xillik, migratsiya kabi dolzarb masalalarni o‘rganishga kirishdilar. Shu bilan birga, ilmiy yondashuvlarda ham ko‘plab yangiliklar paydo bo‘ldi. Masalan, funksionalizm va konflikt nazariyasi kabi klassik yondashuvlar o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lsa-da, simvolik interaksionizm va feministik nazariyalar yangi talqinlarda takomillashib bormoqda.

Ushbu maqola hozirgi zamon sotsiologiyasining asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Unda har bir nazariyaning kelib chiqishi, asosiy g‘oyalari va jamiyatni tushunishga qo‘shgan hissasi keng yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy jarayonlarda bu yo‘nalishlarning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Maqola sotsiologiyaning dolzarb mavzulariga qiziquvchilar va ushbu sohada ilmiy izlanish olib borayotganlar uchun foydali bo‘lishi kutiladi.

Metod va materiallar: Ushbu tadqiqotda hozirgi zamon sotsiologiyasining asosiy yo‘nalishlarini o‘rganishda qator ilmiy usullar va materiallardan foydalanildi. Zamonaviy sotsiologik nazariyalarni tahlil qilish uchun empirik va nazariy yondashuvlar uyg‘unlashgan holda qo‘llanildi.

Nazariy tahlil usuli. Hozirgi zamon sotsiologiyasining asosiy yo‘nalishlari haqida to‘plangan ilmiy materiallar nazariy tahlil qilingan. Bunda sotsiologik maktablar va yondashuvlarning rivojlanish tarixi, asosiy konsepsiyalari va jamiyatni tushuntirishdagi ahamiyati o‘rganildi. Har bir yo‘nalishning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, ularning zamonaviy jamiyatga moslashuv darajasi baholandi.

Taqqoslash usuli. Funktsionalizm, konflikt nazariyasi, simvolik interaksionizm, feminizm va postmodernizm nazariyalari o‘zaro taqqoslandi. Ushbu yondashuvlarning jamiyatni tushunishda qo‘llanish xususiyatlari va ularning o‘ziga xos jihatlari aniqlashtirildi. Bu usul turli nazariyalarning amaliy ahamiyatini baholashga imkon berdi.

Kontent-tahlil usuli. Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar, ilmiy maqolalar va monografiyalardan olingan ma’lumotlar kontent-tahlil yordamida o‘rganildi. Bu metod yordamida har bir nazariyaning zamonaviy muammolarni hal qilishdagi samaradorligi ko‘rib chiqildi.

Empirik yondashuv. Hozirgi zamon sotsiologiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan amaliy tadqiqotlarning natijalari tahlil qilindi. Jumladan, gender tengligi, migratsiya jarayonlari va ekologik muammolar bilan bog‘liq sotsiologik izlanishlar natijalari ko‘rib chiqildi. Ushbu ma’lumotlar nazariy konsepsiyalarni amaliy dalillar bilan bog‘lash imkonini berdi.

Materiallar. Ilmiy adabiyotlar: Tadqiqotda hozirgi zamon sotsiologiyasi bo‘yicha yetakchi olimlarning asarlari, jumladan Talcott Parsons, Robert Merton (funksionalizm), Karl Marks, Ralf Dahrendorf (konflikt nazariyasi), George Herbert Mead va Erving Goffman (simvolik interaksionizm), Simone de Beauvoir va Judith Butler (feminizm), hamda Jean Baudrillard va Michel Foucault (postmodernizm) kabi nazariyotchilarning asarlari asosiy manba sifatida ishlatilgan.

Raqamli resurslar. Globalizatsiya va texnologik inqilob sharoitida raqamli texnologiyalarning ijtimoiy muammolarni tahlil qilishdagi ahamiyati o‘rganildi. Onlayn resurslar, jumladan, statistik ma’lumotlar va sotsiologik so‘rovnomalar natijalari tahlil uchun qo‘llanildi.

Yondashuvning o‘ziga xosligi. Mazkur tadqiqot nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali hozirgi zamon sotsiologiyasining ko‘p qirrali tabiatini yoritishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi har bir yo‘nalishning zamonaviy jamiyatda ijtimoiy muammolarni tushuntirish va hal qilishdagi rolini aniqlashdir.

Talab va takliflar: Hozirgi zamon sotsiologiyasining rivojlanishi va dolzarb yo‘nalishlarini tahlil qilishda bir qator talablar va takliflarni inobatga olish zarur.

Birinchidan, tadqiqotlar ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lishi talab etiladi. Bu hozirgi zamon sotsiologiyasini tahlil qilishda ishonchli nazariy va empirik manbalarga tayanishni anglatadi. Sotsiologik yondashuvlar zamonaviy jamiyatdagi muhim muammolarni, jumladan, globalizatsiya, ijtimoiy tengsizlik, gender masalalari va ekologik muammolarni o‘rganishga yo‘naltirilishi lozim. Shu bilan birga, nazariy tadqiqotlar amaliy masalalarni hal qilishga yordam beruvchi jihatlarni ham qamrab olishi talab etiladi.

Ikkinchidan, tadqiqotlarda global va mahalliy muammolar o‘rtasidagi muvozanat saqlanishi zarur. Sotsiologik nazariyalar global darajada dolzarb bo‘lgan masalalarni o‘rganishi bilan birga, mahalliy jamiyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim.

Uchinchidan, sotsiologik tadqiqotlarda innovatsion usullarni qo‘llash muhimdir. Jumladan, raqamli texnologiyalar, katta ma’lumotlar (big data) va zamonaviy tahliliy vositalardan samarali foydalanish bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi talab va takliflarni amalga oshirish orqali hozirgi zamon sotsiologiyasi jamiyat rivojlanishida yanada muhim rol o‘ynashi va ilmiy yondashuvlarning amaliyotga integratsiyasini kuchaytirishi mumkin.

Xulosa: Hozirgi zamon sotsiologiyasining asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu fan zamonaviy jamiyatning murakkab muammolarini tushunishda va ularni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Funktsionalizm, konflikt nazariyasi, simvolik interaksionizm, feminizm va postmodernizm kabi yondashuvlar jamiyatni turli nuqtai nazardan o‘rganish imkonini beradi. Har bir yo‘nalishning o‘ziga xosligi va dolzarb masalalarni yoritishdagi ahamiyati mavjud.

Biroq, ushbu yo‘nalishlarning samaradorligini oshirish uchun ilmiy tadqiqotlarda bir qator talablarni inobatga olish zarur. Jumladan, sotsiologik tahlillar ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lishi, nazariy va amaliy yondashuvlar uyg‘unlashishi, innovatsion usullar qo‘llanilishi va global hamda mahalliy muammolar o‘rtasidagi muvozanat saqlanishi kerak.

Kelgusida sotsiologiya fanini rivojlantirish uchun taklif etilgan yondashuvlar, xususan, ko‘p fanli integratsiya, amaliy tadqiqotlarga e’tiborni oshirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish zarur. Bu sotsiologiyaning ijtimoiy taraqqiyotga qo‘shadigan hissasini yanada kuchaytirishga yordam beradi.

Umuman olganda, sotsiologiya nafaqat jamiyatning hozirgi holatini tushunishga xizmat qiladi, balki uning istiqbollarini aniqlashda va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim fan sifatida o‘z mavqeini mustahkamlaydi. Shu boisdan, zamonaviy sotsiologiyaning rivojlanishi doimiy ilmiy izlanishlar, innovatsiyalar va amaliyot bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Parsons, T. (1951). The Social System. Glencoe: The Free Press. 23–45-betlar.
2. Marx, K., & Engels, F. (1848). The Communist Manifesto. London: Penguin Classics. 15–30-betlar.
3. Mead, G. H. (1934). Mind, Self, and Society. Chicago: University of Chicago Press. 50–70-betlar.
4. Foucault, M. (1977). Discipline and Punish: The Birth of the Prison. New York: Pantheon Books. 120–145-betlar.

5. Parsons, T. (1951). The Social System. Glencoe: The Free Press.
6. Merton, R. K. (1968). Social Theory and Social Structure. New York: Free Press.
7. Marx, K. (1867). Das Kapital: Kritik der politischen Ökonomie. Hamburg: Otto Meissner.
8. Dahrendorf, R. (1959). Class and Class Conflict in Industrial Society. Stanford: Stanford University Press.
9. Mead, G. H. (1934). Mind, Self, and Society. Chicago: University of Chicago Press.
10. Goffman, E. (1959). The Presentation of Self in Everyday Life. New York: Doubleday Anchor.
11. Beauvoir, S. de. (1949). Le Deuxième Sexe [The Second Sex]. Paris: Gallimard.
12. Butler, J. (1990). Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. New York: Routledge.
13. Baudrillard, J. (1981). Simulacra and Simulation. Ann Arbor: University of Michigan Press.

AHOLINING REPRODUKTIV XATTI-HARAKATI TIBBIY VA IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA

Qo‘qonboyeva G. S.
gulnozaqoqonboyeva@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada aholining reproduktiv salomatligi haqida statistik tahlillar orqali keng yoritilgan. Prezidentimizning reproduktiv salomatlikka oid farmonlari ham keltirib o‘tilgan. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash borasida keng qamrovli chora tadbirlar hamda reproduktiv yoshdagi aholi, homilador ayollar, yangi tug‘ilgan bolalar kasalliklari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borish bo‘yicha tibbiy-profilaktika tadbirlarini tashkil etilishi lozimligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: reproduktiv salomatlik, skrining, patologiya

Annotation

This article provides a comprehensive overview of the reproductive health of the population through statistical analysis. The decrees of the President on reproductive health are also cited. It is noted that in recent years, our country has taken comprehensive measures to protect the health of mothers and children and further strengthen the reproductive health of the population, as well as to organize medical and preventive measures to conduct fundamental, applied and innovative scientific research and studies on diseases of the population of reproductive age, pregnant women, and newborns.

Keywords: reproductive health, screening, pathology

Aholining reproduktiv huquqlari masalasi jamiyat uchun yangilik emas. Shunga qaramay, ularning bu boradagi bilimi va amaliyoti haligacha munozarada qolmoqda, chunki jamiyatda reproduktiv xatti-harakatlar tibbiy va ijtimoiy muammo sifatida qaralmoqda. Ma’lumki, 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasida aholini ro‘yxatga olish umum milliy tadbiri o‘tkazilgan. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning tashabbuslari bilan aholini ro‘yxatga olish borasidagi 2019-yil 5-fevralda “O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (PF-5655-son) Farmoni qabul qilindi. Shu asosda 2020-yilning mart oyida “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonun imzolandi. Aholi iste’molchi va ishlab chiqaruvchi kuch sifatida davlat taraqqiyotida muhim o‘rinni egallaydi. Hozirgi kunda reproduktiv va demografik jarayonlar albatta iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda va ularni izchil amalga oshirishda muhim hisoblanadi [1].

Shunday ekan, mamlakatimizda so‘nggi yillarda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash borasida keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda shuningdek, “Ona va bola skrining” markazlari negizida markazning 14 ta hududiy filiallarini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilshi va reproduktiv yoshdagi aholi, homilador ayollar, yangi tug‘ilgan bolalar kasalliklari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini keng joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi, o‘smirlar orasida reproduktiv a’zolar patologiyasining oldini olish bo‘yicha tibbiy-profilaktika tadbirlarini tashkil etilishi va 2023—2027-yillarda bolalarda tug‘ma va irsiy kasalliklarni erta aniqlash dasturini ishlab chiqish va bir qancha ishlar yuklatilganligi haqida bizga ma’lumdir. Prezidentimizning PQ-296 qaroriga asoslanib biz aholining reproduktiv salomatlik ya’ni tug‘ilishini statistik tahlilar orqali ko‘rib chiqdik [2].

Muhokama va natijalar. Tadqiqot maqsadi- Aholining repraduktiv salomatligini ta’minlash. Obekti – 2020-yildan 2023 – yilgacha bo‘lgan tug‘ilishlar soni. Predmeti esa Respublikadagi tug‘ilishlar koeffitsenti.

Tadqiqot vazifasi

-Dastur ishlab chiqish

-Kerakli hujjatlarni yig‘ish.

-Hujjatlarni tahlil qilish.

-Tahlil natijasi orqali O‘zbekistonda reproduktiv salomatlikdagi muammolarni ochib berish.

Ushbu maqolani yoritishda hujjatlarni tahlil qilish metodidan foydalandik.

Migratsiya: O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko‘ra 34 036,8 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 131,6 ming kishiga yoki 0,4 % ga o‘sdi. 2020-yil yanvar-mart oylarida xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlar soni respublika bo‘yicha jami 1906 kishini tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha eng ko‘p ketganlar soni Qoraqalpog'iston Respublikasi (622 kishi), Toshkent viloyati (487 kishi) va Toshkent shahri (446 kishi) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Nikoh holati: 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 49,5 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,9 promilleni tashkil etdi.[3]

Nikohdan ajralishlar. 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 7,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Migratsiya: 2023-yil 1-sentabr holatiga ko‘ra, TMMA ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonning 2 million 118 mingga yaqin fuqarosi xorijda mehnat qilgan. Ularning deyarli 75 foizini (1 million 596,7 ming nafar) erkaklar va 25 foizini (521,8 ming nafar) ayollar tashkil etdi. Shu bilan birga, 33,2 foizini (702,9 ming nafar) yoshlar tashkil etgan. 2023 yilda O‘zbekistonga qaytgan migrantlar soni 218,8 ming kishiga yetdi (2022 yilda 214,8 ming kishi), chiqib ketgan migrantlar soni esa 233,2 ming kishini tashkil etdi (2022 yilda 221,5 ming kishi). 2020-2021-yillardagi pasayish COVID-19 tarqalishini oldini olish uchun dunyo bo‘ylab kiritilgan safar cheklovlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [4].

Nikoh holati: Shaharda yashovchilar – 18,8 million kishi qishloqda yashovchilar – 18 million kishini tashkil etadi. Nikohlar soni (2023-yil yanvar—dekabr) – 283,8 mingtani tashkil etadi.

Nikohdan ajralishlar soni esa – 49,2 mingtani tashkil etadi. 2023-yilda ro‘yxatga olingan o‘lim sabablarining 61,1 foizini qon aylanish tizimi kasalliklari, 10,8 foizini o‘simtalar, 5,5 foizini nafas olish a’zolari kasalliklari, 4,8 foizini baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlanishlar, 4,1 foizini ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari, 1,3 foizini yuqumli va parazitar kasalliklar, 12,4 foizini boshqa kasalliklar tashkil etdi [5].

2020-yil va 2023 yil oralig‘idagi reproduktiv holatlarni statistik o‘rganib chiqishimizga ko‘ra migratsiya ham anchagini oshgan ya’ni bu 3yil oralig‘ida 1672,8 ming kishiga. Agarda 2020-2021-yillardagi pasayish COVID-19 tarqalishini oldini olish uchun dunyo bo‘ylab kiritilgan safar cheklovlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin va bu jarayon aholini demografik hamda reproduktiv holatini pasayishini ko‘rsatmoqda.

Nikohlar soni shu 3 yil oralig‘ida 234,3 ming kishiga ortgan.Nikohlar soni ko‘payishi bilan birgalikda ajrimlar soni ham ko‘paymoqda ya’ni 41,4 ming kishi ajrashgan.

Kasalik 2020 yildagidan bir qancha farq qiladi ya’ni 2023-yilda qon aylanish kasaligi 1,3 % ga kamaygan o‘simtalar 1,5% ga ko‘paygan, baxtsiz hodisalar 0,5% ga ko‘paygan, ovqat hazm qilish 0,7 % ga kamaygan yuqumli kasaliklar 0,1 % ga kamaygan. Bundan ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan qarorlar asosida bir muncha ishlar olib borilgan va ularni yanada takomillashtirgan holda tibbiyotga tadbiq etish lozim. Bu esa reprodukitv salomatlikga hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytganda reproduktiv salomatlik nafaqat shaxsiy, balki jamiyatning umumiy sog‘lig‘iga ham ta'sir qiladi. Sog‘lom reproduktiv tizim shaxsning hayot sifatini oshiradi va kelajak avlodning sog‘lom bo‘lishini ta'minlaydi. Shu sababli, reproduktiv salomatlikni qo‘llab-quvvatlash va yaxshilash har bir shaxs va jamiyat uchun muhimdir. O‘smir yoshlarimizning reproduktiv salohiyatini oshirish uchun maktab, litsey, texnikumlarda reproduktiv ishonch maslaxat markazini tashkil etish, psixolog bilan birgalikda trening qo‘shimcha mashg‘ulotlarini olib borish, anonim so‘rovlar natijasida o‘smirlarni qiziqtirgan savollar, muammolarni aniqlash va to‘g‘ri yo‘nalish berish kerak. Yoshlarimiz hozirgi kunda eng ko‘p ma’lumotlarni internet tizimi orqali olmoqda shunday ekan yoshlarimizga qaysi saytlardan reproduktiv salomatlik haqida to‘g‘ri ma’lumot olish mumkinligi haqida xam targ‘ibot ishlarini olib borish kerak. Aslida reproduktiv salomatlik – bu reproduktiv tizim va uning faoliyatiga bog‘liq barcha

masalalar borasida faqat kasallik va kamchiliklar bog‘liqligi bo‘libgina qolmay, balki to‘liq jismoniy, aqliy, va ijtimoiy muvaffaqiyatlar xolati hamdir. Shunday ekan, har bir inson o‘z ertasi kelajagi uchun mas’uliyat bilan yondashgan holda reproduktiv salomatligiga katta e’tibor berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.02.2019 yildagi PF-5655-son https://lex.uz/docs/-4190059
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.09.2023 yildagi PQ-296-son https://lex.uz/docs/-6598641
3. UZSTAT Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi 2020-yil yanvar mart holati
4. O‘zStat ma’lumotlariga muvofiq, 2023-yil yanvar
5. https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/02/mortality/

JAZO MUDDATINI O‘TAB CHIQQAN XOTIN-QIZLARNING JAMIYATGA QAYTA IJTIMOIYLASHUVIDAGI MUAMMOLARI

Yoqubova Zumrad
Eshmo‘minova Sevara
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada jazoni o‘tab chiqqan hotin-qizlarning jamiyatga qayta ijtimoiylashuvi jarayonida duch keladigan psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar tahlil qilingan. Unda reabilitatsiya jarayonining murakkabligi, sobiq mahkumalarda shakllanadigan hissiy muammolar, jamiyatdagi stigma, ishga joylashishdagi to‘siqlar, oilaviy munosabatlardagi uzilishlar yoritilgan. Muallif xalqaro tajriba, davlat siyosati, nodavlat tashkilotlarning o‘rni va mahalla tizimining ahamiyatini ko‘rsatgan holda, ijtimoiy moslashuvni yengillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ilgari suradi. Maqola ijtimoiy adolat va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda jamiyatga ijobiy hissa qo‘shishga da’vat etadi.

Kalit so‘zlar: Maqolada jazoni o‘tab chiqqan ayollar ijtimoiylashuvida uchraydigan asosiy muammolar, Jazo muddatini o‘tab chiqqan xotin-qizlarning jamiyatga qayta ijtimoiylashuvidagi muammolari

Annotatsion

This scientific article analyzes the psychological, social and economic problems faced by hotin-girls who served their sentences in the process of re-socialization into society. It covers the complexity of the rehabilitation process, emotional problems that form in former convicts, stigma in society, barriers to employment, interruptions in family relationships. The author promotes practical proposals aimed at alleviating social adaptation, showing the importance of international experience, public policy, the role of

non-governmental organizations and the neighborhood system. The article calls for a positive contribution to society based on the principles of social justice and humanism.

Keywords: In the article, the main problems encountered in the socialization of women who served their sentences, the problems of women who served their sentences in the re-socialization of society

Har bir inson jamiyatning teng huquqli a’zosi bo‘lib yashashga haqlidir. Jazoni o‘tab chiqqan fuqarolarning, xususan, hotin-qizlarning jamiyatga qayta integratsiyalashuvi murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Afsuski, ular jamiyatga qaytganidan so‘ng ko‘plab ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy to‘siqlarga duch keladilar. Ushbu maqolada jazoni o‘tab chiqqan hotin-qizlarning jamiyatga moslashuvi jarayonidagi asosiy muammolar, bu boradagi xalqaro tajribalar, mavjud davlat siyosati, nodavlat tashkilotlarning roli va bu muammolarni bartaraf etish yo‘llari keng yoritiladi

O‘ylaymanki, inson bilan bunday holatning bo‘lishiga asosiy sabab shuki, inson xuddi tokni o‘chirib yoqadigan moslama yoki suv quvurining krani emaski unda biror narsani chiqillatib yoki burab o‘chirib qo‘yish mumkin bo‘lsa. Shuday ekan, siz uzoq vaqt mobaynida biror narsani bajarar ekansiz, u asta sekin sizning bir qismingizga aylanib boradi», deydi u. Shaxsdagi o‘zgarishlar, ular avvalgi holatlardagidek bo‘la olmasliklari haqida so‘zlay turib, sudlanganlar boshqalarga munosabat u yoqda tursin, hatto o‘z hissiyotlariga ishonmay qo‘yish, ya'ni "Hissiy karaxt bo‘lib qolish" jarayonini kuzatish mumkin. Uzoq muddatga hukm qilingan shaxs jazoni o‘tash muassasasi talablari sharoitlariga moslashib qolganligidan, u erkak yoki ayol hissiy jihatdan yopiq, o‘zini o‘zi cheklovchi, ijtimoiy chetlatligan va balki ozod bo‘lganidan keyin hayotga unchalik to‘g'ri/mos kelmaydigan, ko‘nika olmaydigan bo‘lib qoladi. Shuni qo‘shimcha qilish lozim-ki, aynan mana shu sabab tufayli bir marta bo‘lsa ham jazoni ijro etish muassasasida bo‘lgan ko‘pchilik odamlar, u yerga yana qaytadilar.

Shuning uchun, jazoni ijro etish muasassasidan qaytgan shaxslar bilan ishlashda yuqorida keltirilganlarni e'tiborga olgan holda ularning reabilitasiyasi[1] va qayta moslashuvi sekinlik bilan kechadigan jarayon ekanligini esda tutgan holda, ijtimoiy ko‘makni bosqichma-bosqich to‘g'ri tashkil qilish lozim. Jazoni o‘tagandan keyingi moslashuv jarayoni. Ijtimoiy jihatdan zaif davlat yordami va ko‘magiga muhtoj fuqarolar qatoriga ozodlikdan mahrum qilish ko‘rinishidagi jinoiy jazoni o‘tab kelganlar, ya'ni jamoatchilik xavfsizligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo‘lganlar kiradi. Ozodlikdan mahrum qilish ko‘rinishida jinoiy jazoni o‘tash nafaqat odamning huquqiy maqomini o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, balki shu bilan bir qatorda ularning ijtimoiy roli va aloqalarini ham yo‘qotishga olib keladi. Jinoiy o‘tmishga ega bo‘lgan shaxslar uchun ishonchli ijtimoiy kafolatlarning yo‘qligi, ularni maishiy va ishga joylashish masalalaridagi -mavjud qiyinchiliklar ularning qayta ijtimoiylashuv jarayonini murakkablashtiradi, bu esa mazkur toyifadagi odamlar tomonidan takroriy qonun buzilishlarini sodir etishlariga olib keladi Jazoni ijro etish muasassalaridan ozodlikka chiqqan shaxslar duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolar oqibatida yana muasassaga qaytishi: Ozodlikdan mahrum qilingan joylardan ozod bo‘lib chiqqan odamning ijtimoiy foydali aloqalarini tiklash yo‘lida aksariyat hollarda jiddiy to‘siqlar kelib chiqadi, bu ijobiy ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan odamlar tomonidan o‘tmishida jinoiy ishlar bo‘lgan bunday odamlarni o‘z atrofiga yaqinlashishini istamasliklari, vaziyatni shunday murakkablashtiradiki, ijtimoiy muhim aloqalarning

yo‘qligi jinoiy muhitning/guruhlar ta'siri bilan to‘ldiriladi va qamalib chiqqanlarni ular o‘z qatoriga hech qanday to‘siqlarsiz qabul qiladilar.

Jazoni o‘tab chiqqan hotin-qizlarning jamiyatga qayta integratsiyalashuvi murakkab va ko‘p qirrali jarayon. Ular jamiyatda salbiy qarashlarga duch keladi, ish topishda, ruhiy salomatlikda va oila bilan munosabatda muammolarga duch keladi. Davlat siyosati, NNTlar, mahalla va diniy tashkilotlarning ko‘magi muhim rol o‘ynaydi.

Jazoni o‘tab chiqqan ayollarning yillik ijtimoiylashuvi statistikasi quyidagi grafikda tasvirlangan:



Xulosa: Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, uzoq vaqt davomida jazoni ijro etish muasassasida bo‘lgan mahkumlarning kognitiv tizimida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar ularning ijtimoiy moslashuvdagi muvaffaqiyatlarni susaytiradi. Mahkumlar bilan amalga oshiriladigan reabilitatsiya jarayonini tezlashtirish maqsadida ozod etilganlarni ijtimoiy foydali mehnatga va o‘qishga jalb etish. Kommunikativ ijtimoiy aloqalarni tiklash hamda duloqotchanlik darajasini yanada oshirish orqali sog'lom ijtimoiy muhitni shakilantirish. Ijtimoiy normalar va ijtimoiy xulq omili sifatida axloqiy qadiryatlarni mustahkalash orqali mahmumlar shxsini ijtimoiy moslashish jarayonini yanada ijobiy tashkil etish mumkin.

Jazoni o‘tab chiqqan hotin-qizlarning jamiyatga qayta integratsiyalashuvi – bu nafaqat ularning shaxsiy muammosi, balki butun jamiyatning dolzarb ijtimoiy masalasidir. Bu jarayonda davlat, fuqarolik jamiyati, oila va butun jamiyat birgalikda harakat qilishi lozim. Ayollarning ijtimoiylashuvini qo‘llab-quvvatlash orqali biz ularni hayotga qaytaramiz va jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarga erishamiz.

Ushbu maqolada siz hozirgi kundagi muasassalaridan uzoq mudatli qamoq jazosini o‘tab ozodlikka chiqan shxslarning psixologik holati, shu bilan birga ularning jamiyatga qayta moslashtirish jarayonining istiqbollari haqida ma’lumotga ega bo‘lishingiz mumkin.

Adabıyotlar ro‘yxati

1. Андреева Г.М.Сосиалная психология. Учебник. М.: Аспект Пресс, 2000.
2. Ричард Карлсон. «Не суетитесь по мелочам... и все есть мелочь».

3. Ruxiyeva X.A.Y Doziyev, A.Muxtorov. Sud-psixologik ekspertiza. o‘quv qo‘llanma. T. 2001.
4. Чуфаровский Й.В. "Юридическая психология". М.

AXBOROTNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA AVTOMATLASHTIRISH VA DASTURIY TA’MINOT VOSITALARI

Davirova Muxtaram Muslimxon qizi
Muxtarammurodxonoxa@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
sotsiologiya yo‘nalish talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonida dasturiy ta’minotning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Ma’lumotlarni yig‘ish, tozalash, qayta ishlash va tahlil qilish bosqichlari batafsil bayon qilingan. Dasturiy ta’minot yordamida jarayonlarning avtomatlashtirilishi, aniqlik va xavfsizlikning ta’minlanishi, tahliliy imkoniyatlar va real sohalardagi qo‘llanilishi tahlil qilingan. Shuningdek, Excel, Python, R va SQl kabi mashhur dasturiy vositalarning funksional imkoniyatlari haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Maqola ma’lumotlar bilan ishlovchi mutaxassislar, talaba va tadqiqotchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlari: Ma’lumotlarni qayta ishlash, python, relyatsion, SQL, dasturiy ta’minot

Ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonida dasturiy ta’minotning samarali ishlashini, foydalanuvchilarga qulaylik yaratishini va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashni ta’minlashga asoslanadi. Shu sababli, bugungi kunda ma’lumotlarni qayta ishlash dasturlari biznes, ilmiy izlanishlar, davlat sektori va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Shuningdek, bu dasturlar tez o‘zgaruvchan muhitga moslashuvchan, yuqori samaradorlikka ega va kengaytirilgan tizimlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Texnologiya rivojlanishi bilan ma’lumotlarni qayta ishlash rivojlanishda davom etadi, bu esa katta hajmdagi ma’lumotlarni boshqarish va tahlil qilish uchun tezroq va samaraliroq echimlarni taqdim etadi. Doimiy rivojlanib borayotgan ushbu sohadagi so‘nggi tendentsiyalar va vositalardan xabardor bo‘lish juda muhim bo‘ladi.

Muxtasar qilib aytganda, ma’lumotlarni qayta ishlash xom ma’lumotlarni qimmatli ma’lumotlarga aylantiradigan asosiy texnik intizomdir. Uning qo‘llanilishi turli sohalarga ta’sir qiladi va umuman jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Ushbu intizomni bilish va o‘zlashtirish qaror qabul qilish va bilimlarni ishlab chiqarishda ma’lumotlarning kuchidan maksimal darajada foydalanishni istaganlar uchun juda muhimdir. Hozirgi vaqtda biz ishlashimiz kerak bo‘lgan ma’lumotlar miqdori eksponent ravishda o‘sib bormoqda. Ularni samarali qayta ishlash va tahlil qilish uchun maxsus dasturiy vositalardan foydalaniladi. Keling, ularning ba’zilarini va ularning asosiy xususiyatlarini ko‘rib chiqaylik. Ma’lumotlar bilan ishlashning eng mashhur vositalaridan biri bu Microsoft Exceldir. Ushbu dasturiy mahsulot foydalanuvchiga ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Excel o‘zining turli funktsiyalari va vositalari bilan turli xil hisob-kitoblarni amalga oshirish, ma’lumotlarni grafik va

diagrammalar ko‘rinishida ko‘rish va ma’lumotlarni tahlil qilish uchun pivot jadvallarni yaratish imkonini beradi.

Ko‘pgina loyihalarda tashqi qurilmalar bilan ma’lumotlar almashish, vizualizatsiya qilish, matematik ishlov berish va ushbu ma’lumotlarni hujjatlashtirishni ta’minlaydigan shaxsiy kompyuterlar uchun dasturiy ta’minot yaratish muammolari paydo bo‘ladi. Bunday dasturiy ta’minot o‘lchovlar, sinovlar va nazoratni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan tizimlarning tabiiy tarkibiy qismidir. Bunday uskunada dasturiy ta’minot uning “yuzi” bo‘lib, uning sifati va imkoniyatlarining etarli emasligi butun loyihaning qiymatini bekor qilishi mumkin. Bundan tashqari, ko‘pincha bunday maqsadlar uchun dasturlar ishlab chiqilayotgan mahsulotlar yoki tizimlarning ajralmas qismi emas, balki faqat dizaynning alohida bosqichlarini bajarish, texnik xususiyatlarni tasdiqlash, qabul qilish testlarini o‘tkazish va hokazolarda zarur bo‘ladi. Bunday seriyali bo‘lmagan dasturlarda odatda ma’lum “erkinliklarga” ruxsat beriladi.

Munozara va natijalar Ma’lumotlarni qayta ishlash – bu axborot texnologiyalari sohasida keng qo‘llaniladigan atama bo‘lib, axborotni tizimli va samarali tarzda tashkil qilish, tahlil qilish va o‘zgartirish uchun amalga oshiriladigan harakatlar va protseduralar majmuini anglatadi. Ushbu jarayon sizga xom ma’lumotlarni manipulyatsiya qilish va qaror qabul qilish uchun foydali va tegishli ma’lumotlarga aylantirish imkonini beruvchi turli xil vositalar va usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Dasturiy ta'minot (dastur dasturi) — m'a haqida qayta ishlash dasturlari vaulami belgi uchun kerakli hujjat uchun 'plamidir. Dasturlar mashina tomonidanvazifani yechish uchun haqida. Vazifa va ilova atamalari informatikada vasifatida ta'minotda ko‘p haqida.Vazifa (muammo, vazifa) — yechilishi kerakboigan muammodir.

Python: Ma’lumotlarni qayta ishlashda eng ko‘p ishlatiladigan dasturlash tillaridan biri. Python ma’lumotlarni tahlil qilish va manipulyatsiya qilish uchun keng qo‘llaniladigan Pandas va NumPy kabi kutubxonalarni taqdim etadi.

Relyatsion: Bepul dasturiy ta’minot asosan tahlil va ma’lumotlarni vizualizatsiya qilishda qo‘llaniladi. Relyatsion ma’lumotlarni qayta ishlashni osonlashtiradigan turli xil kutubxonalar va paketlarni taklif qiladi.

SQL: Relyatsion ma’lumotlar bazalarini boshqarish uchun ishlatiladigan tuzilgan so‘rovlar tili. SQL ma’lumotlar bazalarida saqlangan ma’lumotlarga so‘rovlar va manipulyatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun mo‘ljallangan ko‘plab dasturiy mahsulotlar mavjud. Ular sizga ma’lumotlar bilan turli xil manipulyatsiyalarni amalga oshirish, tadqiqotlar o‘tkazish, ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish va boshqalarga imkon beradi. Ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun dasturiy ta’minot turli sohalarda, jumladan, biznes, fan, tibbiyot va ta’limda keng qo‘llaniladi.

Bu dasturlar turli xil funksiyalarga ega, jumladan, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash, grafik va diagrammalar tuzish, murakkab hisoblash operatsiyalarini bajarish, hisobotlar va asboblar paneli yaratish. Ular foydalanuvchiga ma’lumotni qulay tahlil qilish, naqshlarni aniqlash, natijalarni bashorat qilish va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi .

Ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun dasturiy ta’minotni tanlash foydalanuvchining o‘ziga xos vazifalariga, afzalliklariga, texnik bilim darajasiga va kompyuter texnikasining imkoniyatlariga bog‘liq. Ba’zi dasturlar tajribali

ma’lumotshunoslar va tahlilchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, murakkab tadqiqotlarni o‘tkazish uchun keng ko‘lamli vositalarni taqdim etadi, boshqa dasturlar esa minimal tajribaga ega foydalanuvchilarga mo‘ljallangan va oddiyroq, soddaroq vositalarni taklif qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ma’lumotlarni qayta ishlash va real vaqt rejimida ishlash o‘rtasidagi asosiy farq javob vaqti va talab qilinadigan tezkorlik darajasidadir. Ma’lumotlarni qayta ishlash katta hajmdagi axborotni to‘liq tahlil qilishga qaratilgan bo‘lsa, real vaqt rejimida qayta ishlash darhol natijalarni olishga qaratilgan. Ikkala yondashuv ham o‘z qo‘llanilishi va afzalliklariga ega va tanlov har bir vaziyatning o‘ziga xos ehtiyojlariga bog‘liq bo‘ladi.

Ma’lumotlarni qayta ishlash bugungi dunyoda muhim rol o‘ynaydi, chunki ko‘pchilik biznes va shaxsiy faoliyat axborotni boshqarishga juda bog‘liq. Biroq, bu texnologik taraqqiyot maxfiylik va axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan xavotirlarni ham keltirib chiqardi. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, ma’lumotlarni qayta ishlash shaxsiy va maxfiy ma’lumotlarni to‘plash, saqlash va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bu esa, ushbu ma’lumotlardan qanday foydalanilishi va almashishi, shuningdek, ruxsatsiz kirishdan himoya qilish uchun qanday choralar ko‘rilayotgani haqida savollar tug‘diradi. Axborot maxfiyligi butun dunyo bo‘ylab tashkilotlar va foydalanuvchilarga ta’sir ko‘rsatgan ko‘plab ma’lumotlar buzilishi hodisalari tufayli tobora ortib borayotgan tashvishga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сулюкова Л. Ф., Ёркулов Б.А . Методика оценки имеющегося уровня информационной безопасности образовательной информационной системы // Проблемы вычислительной и прикладной математики. – 2024. – № 2(56) . – С. 106-1 14.

2. Yorkulov B.A., Azhmuhamedov I.M. Methodology for assessing the level of information security of the educational information system based on fuzzy classifier and hierarchy of damages // CASPIAN JOURNAL: Control and High Technologies, 2020, № 4 (52)

3. Azhmuhamedov I.M., Yorkulov B.A. Algorithm for Managing the Quality of Educational Information System // Proceedings of the 2nd International Scientific and Practical Conference on Digital Economy (ISCDE2020)URL:https://www.atlantispress.com/article/125947835.pdf.

4. Chernikov B.V. Dasturiy ta'minot sifatini boshqarish [Elektron resurs]: Darslik / B.V. Chernikov - Moskva: FORUM nashriyoti, 2012. 240 p.

5. Nazariy va tizimli dasturlash usullari. - Novosibirsk: fan. Sib. ed. firma, 1995. bet. 193– 271 Nazariy va tizimli dasturlash usullari. - Novosibirsk: fan. Sib. ed. firma, 1995. bet. 193–271

JAMIYATDA BARQARORLIK VA IJTIMOIYLASHUVDA OILANING INSTITUSIONAL ROLI

Shobahromova Dilnoza Sunnat qizi
dilnozashobahromova@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Jamiyatdagi bacha sohalar, shuningdek, ijtimoiy institutlarni rivojlantirish uchun avvalo oila institutini rivojlantirish zarur. Maqolada oila ijtimoiy institutini takomillashtirish hamda qo‘llab- quvvatlash haqida ba’zi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar*: oila, ijtimoiy institut, nikoh, sotsiallashtirish, funksiya, Oila kodeksi*

Jamiyatning o‘zgarmas unsurlaridan biri – bu bir vaqtning o‘zida ham sotsial institut, ham sotsial guruh sifatida yashaydigan oiladir. Oila kichik guruh sifatida yashash va riojlanish qonuniyatlariga egadir. Oila o‘zining jamiyatga , o‘zi amal qilayotgan siyosiy tuzum, iqtisodiy, sotsial va diniy aloqalarga bog‘liqdir. Shu bilan bir vaqtda oila jamiyatning mustaqil hujayrasi hisoblanadi.

Nikoh esa oilaning boshlanishi va o‘zagidir. Er- xotinlik aloqalarining o‘ziga xos belgilari dastavval mazkur nikoh ittifoqining qanday motivlar bu nikohni tuzilishiga olib kelganligi bilan uzviy bog‘liqdir. Jamiyatning iqtisodiy asosi va sotsial hayotning oilaga ta’siri sezilarli darajada motivlar vositasida ro‘y beradi va ular bilan ifodalanadi. Aksariyat olimlar nikohni sotsial va shaxsiy maqsadga muvofiq ravishda jamiyat tomonidan sanksiyalashtirilgan barqaror jinsiy munosabatlardir, deb ta’riflasa, yana boshqa olimlar oilani – er-xotinlik, ota-onalik, qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog‘langan, yagona umumoilaviy faoliyatga asoslangan kichik sotsial guruh sifatida ta’riflaydi.

Oila sotsial institut sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Birinchi funksiyasi: jinsiy munosabatlarni tartibga solish hisoblanadi. Oila asosiy institut hisoblanadi, jamiyat bu institut vositasida odamlarning o‘zaro jinsiy munosabatlarini tartibga solib turadi va muvofiqlashtiradi.

Ikkinchi funksiyasi: oilaning o‘zi amalga oshirib turadigan funksiya – aholini takror ishlab chiqarib turish hisoblanadi. Aholining tabiiy ravishda kamayib ketmasligi uchun oilani doimiy ravishda takror yaratilib turadigan yangi avlodlar to‘ldirib boradi (yoki yanada ko‘paytiriladi). Jamiyat bu funkdiyasiz umuman yashay olmaydi. Shu bilan birga, “demografik portlashlar” yoki aholining keskin kamayishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun jamiyat doimiy ravishda tug‘ilishni tartibga solib borishi lozim.

Uchinchi funksiyasi: bu odamlarni sotsiallashtirishdir. Oila avloddan avlodga o‘tib kelayotgan madaniy namunalarning asosiy tashuvchisi va tarqatuvchisidir. Darhaqiqat, go‘dak faqat oilada jamiyat madaniati va uning an’analariga doir ilk tasavvurlarga ega bo‘ladi, o‘zida jamiyatdagi xulqlar, axloq me’yorlari, or-nomus tushunchalari, ezgulik va adolatga oid tasavvurlar, bilimlar kabilarni shakllantiradi. Aytish mumkinki, oilada insonning shaxs sifatidagi shakllanish asoslari quriladi, qobiliyatlari shakllanadi, bo‘lajak xodimning kasb tanlashga doir ilk qarashlari namoyon bo‘ladi. Oilada sotsiallashuvning asosiy jarayoni – bu bolalar tomonidan katta yoshlilarning modeli (“nusxasi”) ko‘chirib olinishidir.

To‘rtinchi funksiya: odamlarning hissiyotli va ruhiy munosabatlar, sevgi va intim yordamga muhtojlik, hamdardlik va rahm-shafqat kabilarga doir ehtiyojlari qondiriladi. Psixolog, sotsiolog, pedagog va huquqshunos olimlartadqiqotlari shuni isbotlaydiki, bolaligida oiladagi mehribonlik va erkalatishdan mahrum bo‘lgan, ota-onasiz yoki bolalar uyida tarbiyalangan odamlar boshqalarga nisbatan ko‘proq jismoniy va ruhiy uyg‘unlik yetishmasligiga oid kamchiliklar bilan bog‘liq ruhiy notinchlim kasalliklari va deviant xulqqa duchor bo‘ladi. [1] O‘z yaqinlariga nisbatan g‘amxo‘rlik va muhabbat, ota-ona, aka-uka, opa-singil bilan o‘zaro hissiy aloqalar- bular hayotdagi muvaffaqiyatlar va umid-ishonchga to‘la xush kayfiyat, ruhiy sog‘lomlik kabilardan iborat bo‘lib, ular ha rbir insonning yashashi uchun eng zaruriy unsurlar sirasiga kiradi.[2] Xususan, eng og‘ir kunlarda oilaning har tomonlama qo‘llab-quvvatlashini boshqa biron-bir ijobiy ta’sir bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Barcha jamiyatlarda oila institute turli darajalarda o‘z a’zolarini jismoniy, iqtisodiy va psixologik jihatdan himoya qila oladi.

Beshinchi funksiyasi: iqtisodiy va maishiy ehtiyojlarni qondirishi hisoblanadi. Odatda , oila insonning birlamchi manfaatlarini qondiradi – oziqlantiradi, kiyintiradi, kiyim-kechaklar bilan ta’minlaydi, yashash uchun joy beradi. Ularning oqibatida oila a’zolar umumiy xo‘jalik yuritadi. oilada nafaqat muayyan maishiy aloqala va hayot tarzi quriladi, balki bolalarga meros bo‘lib qoladigan , keyinchalik ular ham keksayganlarida o‘z bolalariga qoldiriladigan moddiy boylik jamg‘aradilar.

Shu tariqa, oila individlarni maishiy birlikka va o‘zaro ma’naviy mas’ullikka bog‘laydigan kichikguruh va alohida olingan sotsial- madaniy institute sifatida e’tirof etiladi. Oila – qadimdam yashab kelgankichik guruhlarning eng ko‘p tarqalgan turidir. Uning zamini birgalikda hayot kechirish va xo‘jalik olib boorish, o‘zaro yordam, ma’naviy birlashuv kabilardan iboratdir.

O‘zbekistonda oila instituti faqat mustaqillik davriga kelib jamiyatning eng asosiy sotsial birligi sifatidagi rivojlanish davrini boshladi. Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab O‘zbekistonda oila, ona va bolalikni ijtimoiy himoya qilish masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, ularning har tomonlama rivojlanishi va farovon yashashi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat tomonidan kafolatlanishi tamoyili fuqarolik jamiyatiga xos sotsial munosabatlarni vujudga keltira boshladi. Mamlakatda oila institutini rivojlangan mamlakatlar darjasida faoliyat yuritishiga shart-sharoitlar yaratish maqsadida oila va nikoh munosabatlarini takomillashtirishning qonuniy bazasi yartildi. 1998- yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilindi.

Metadologiya

Ushbu maqolani tayyorlashda oilaning jamiyatdagi ijtimoiy institut sifatidagi o‘rni va funksiyalarini tahlil qilish uchun ilmiy-tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Asosiy metod sifatida taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan foydalaniladi.

Xulosa Xulosa qilib aytganda oila jamiyatning ajralmas bo‘lagi hamda ijtimoiy institutlarning bosh bo‘g‘ini hisoblanganligi bois bosqichma-bosqich olib borilayotgan siyosatlar qatoriga oilani ham kirgazish hamda ushbu masala yuzaidan amalga oshirilayotgan ishlar ustidan nazorat o‘rnatgan holda qo‘shimcha ravishda chora-tadbirlar ishlab chiqish , bu borada aholi fikrini bilish yuzasidan so‘rovnomalar tashkil qilish zarur. Oila jamiyatning eng qadimgi va eng asosiy ijtimoiy institute sifatida insoniyat taraqqiyoti va barqarorligida muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat biologik, balki ijtimoiy , ma’naviy va

madaniy ehtiyojlarini ham qondirib kelgan. Oila orqali jamiyatda ijtimoiy tajriba, qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va madaniy meros avloddan -avlodga uzatiladi. Shu sababli , jamiyat taraqqiyotida oilaning o‘rni mustahkamlash, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy institut sifatida rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023 y.43 b
2. A. Fitrat.Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –T-: “Ma’naviyat”, 2016.- 5 b 3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz-Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2017.-43 b

XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARINI JOYLARDAGI MUAMMOLARNI HAL ETISHDA ASOSIY BO‘G‘INGA AYLANTIRISH

Mamajonova Zarinabonu Iqboljon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xalq deputatlari kengashlari to‘g‘risida qabul qilingan qonunning mazmun va mohiyati, deputatlarning huquq va majburiyatlari, vakolatlari yuzasidan olib boradigan ishlari, muammolarni hal qilish mexanizmlari, mintaqaviy muammolarni hal qilishda ularni asosiy bo‘g‘inga aylantirish yo‘llari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: deputat, kengash, vakolat, vazifa, muammo, qonun, fuqaro

Annotation

This article discusses ways to convert them to the main joint mechanisms, problem resolution mechanisms, conditions for the rights and obligations of the deputies, powers of the rights and obligations of deputies, powers of the laws and powers of the laws adopted on Councils of People's Deputies.

Key words: deputy, board, authority, task, problem, law, citizen.

O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari hisoblanadi. Ular davlat hokimiyati tizimining bir qismi bo‘lib, viloyatlar, tumanlar va shaharlar darajasida faoliyat yuritadi. Bu kengashlar fuqarolarning saylovi asosida shakllantiriladi va o‘z hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Xalq deputatlari kengashlari to‘g‘risidagi qonun 02.12.2004-yil 706-II son bilan ishlab chiqilgan bo‘lib, 24.01.2005-yildan boshlab kuchga kirgan. 15.01.2021-yilda esa ushbu qonunga o‘zgartitish va qo‘shimchalar qo‘shilib, yangi tahrirdagi holati qayta ishlab chiqildi. Ushbu qonun 5 bob, 24 moddadan tashkil topgan bo‘lib unda deputatlarning huquq va majburiyatlari belgilab berilgan. Ushbu organlar mahalliy davlat boshqaruvining vakillik organi sifatida muhim ahamiyat kasb etib, jamiyat va davlat o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi. Kengashlar fuqarolarning mahalliy ahamiyatiga ega bo‘lgan muammolarini davlat darajasiga ko‘tarish va ularni xalq foydasiga samarali hal qilish orqali aholining davlatga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Bu kengashlar viloyat, shahar, tumanlarda mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish va mavjud muammolarga

yechim topish bilan davlat siyosatini mahalliy darajada amalga oshirishda asosiy bosh bo‘g‘in hisoblanadi.

Kengashlarning ahamiyati shundaki, ular mahalliy boshqaruvni ta’minlash va nazorat qilish orqali rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi – hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqadi, mahalliy budjetni barqaror ortishini ta’minlaydi, aholining davlat boshqaruvida ishtirok etishini ta’minlaydi (kengash deputatlari aholi tomonidan saylanadi) va shu kabi bir qator vazifalarni bajarish orqali xalqqa xizmat ko‘rsatadi.

Xalq deputatlari kengashlarini joylardagi muammolarni o‘rganishda asosiy bo‘g‘inga aylantirish dolzarb masala hisoblanadi, chunki ular mahalliy aholi manfaatlarini ifoda etuvchi vakillik organlari sifatida muhim rol o‘ynaydi. Quyida bu yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy chora-tadbirlarni ko‘rib chiqishimiz mumkin:

1. Kengashlarning vakolatlarini mustahkamlash:

- Mahalliy darajadagi masalalarni hal etishda kengashlarga ko‘proq vakolatlar berish;
- Muammolarni joyida aniqlash va ularni hal qilish uchun ijro organlari bilan yaqindan hamkorlikni kuchaytirish.

2. Hududiy muammolarni tizimli tahlil qilish:

- Hududiy muammolarni o‘rganish uchun kengash doirasida maxsus tahliliy guruhlar tashkil etish;
- Aholi bilan muntazam uchrashuvlar o‘tkazib, ularning ehtiyoj va takliflarini to‘plash.

3. Ochiqlik va jamoatchilik nazoratini ta’minlash:

- Joylarda muammolarni hal qilish jarayonini ochiq va shaffof tarzda olib boorish;
- Jamoatchilik vakillarini muammolarni o‘rganish va yechimlarni nazorat qilishga jalb etish.

4. Kengash a’zolarining malakasini oshirish:

- Deputatlar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil etish orqali ularning malakasini oshirish;
- Muammolarni tizimli yechish uchun zamonaviy boshqaruv va tahlil usullarini o‘rgatish.

5. Moliyaviy va texnik qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish:

- Mahalliy kengashlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- Muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan dasturlarni moliyalashtirish uchun qo‘shimcha resurslar jalb qilish.

6. Monitoring va hisobdorlik tizimini joriy etish:

- Kengash faoliyatining samaradorligini baholash bo‘yicha muntazam monitoring olib borish;
- Deputatlar va kengashlarning qarorlar bo‘yicha bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot berish tartibini kuchaytirish.

Qo‘shimcha qilib shuni aytishimiz mumkinki, mahalliy kengashlar faoliyatini takomillashtirish maqsadida ularning malakasini oshirish dasturlari ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu dasturlar orqali kengash a’zolari yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, o‘z ish faoliyatini yanada samarali tashkil etishga qodir bo‘ladi. Xalq bilan samarali muloqot qilish uchun, kengashlar o‘z kommunikatsiya strategiyalarini

ishlab chiqishadi, bu esa fuqarolarning fikr va takliflarini inobatga olishga yordam beradi. Bundan tashqari, muammolarni tez va samarali hal etish uchun kengashlar yangi yondashuvlardan foydalanadilar, masalan, jamoatchilik bilan ishlash va muammolarni aniqlashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash. Shu tariqa, malaka oshirish natijasida mahalliy kengashlar faoliyati, xalq bilan muloqot va muammolarni hal etish jarayonlari ancha yaxshilanadi.

Xalq deputatlari kengashlarini asosiy bo‘g‘inga aylantirish ularning nafaqat vakillik organi sifatidagi rolini kuchaytiradi, balki hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ishtirokini ham oshiradi. Shu orqali aholining davlat boshqaruvidagi ishtiroki kengayadi va ishonch mustahkamlanadi. Yangi vakolatlar kengashlarga muammolarni tez va samarali hal qilish imkonini beradi. Shaffoflik va jamoatchilik nazorati orqali kengashlar javobgarlikni oshiradi. Shuningdek, malakalarni oshirish, kengash a’zolarining samaradorligini kuchaytiradi va jamiyatda ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. www.lex.uz
2. Quvondiq Sherov. “Mahalliy vakillik organlari normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini takomillashtirish masalalari”, Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 3 (1), 73-77, 2023.
3. Vaxobov Abbosbek Biloljon o‘g‘li. “O‘zbekistonda davlat hokikimiyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari”, Scientific Impulse 1 (7), 265-268, 2023

XOTIN-QIZLAR FAOLLIGI: IJTIMOIY TO‘SIQLAR, STEREOTIPLAR VA YANGI IMKONIYATLAR

Teshaboyeva Sarvinoz Ismoil qizi
Jamitova Diyora Ilhomjonovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola qiz bolalarga bo‘lgan jamiyatdagi munosabatlarni tahlil qilib, stereotiplar va imkoniyatlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatadi. Maqola, asrlar davomida shakllangan qiz bolalarga oid stereotiplar — "faqat uy ishlariga, go‘zallik va iffatga e'tibor berish", "ilm-fan erkaklar uchun" kabi qarashlarni tanqid qiladi. Shuningdek, maqola jamiyatda qizlarning imkoniyatlariga ega bo‘lishi, ularning bilim va orzulariga hurmat bilan qarash zarurligini urg‘ulaydi. Maqolamiz ota-onalar, ustozlar va jamiyat a'zolarining qizlarga ishonishi va ularning imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlashi kerakligini ta'kidlab, jamiyatda haqiqatdan ham tenglik va imkoniyatlar yaratish maqsadida ijtimoiy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlashni chaqiradi.

Kalit so‘zlar: qiz bola, stereotiplar, imkoniyatlar, jamiyat, o‘zgarish, ilm-fan

Qiz bola — bu hayotning nafisligi, mehrning timsoli, lekin ayni vaqtda — kuch, salohiyat va jasorat manbai hamdir. Asrlar davomida turli xalqlarning, madaniyatlarning va hatto oilalarning ongida qiz bola haqida muayyan qarashlar shakllangan: u orasta

bo‘lsin, sokin bo‘lsin, orzulari kamtar bo‘lsin. Go‘yoki u yulduzlarga emas, faqat yerga qarab yurishi kerakdek. Aynan mana shu fikrlar — sotsiologik stereotiplardir. Bu stereotiplar ayrim hollarda qiz bolaning orzusiga, imkoniyatiga, fikriga to‘siq bo‘lib qolmoqda. “Qiz bolaga bu kerak emas”, “unga bu og‘ir”, “unga bu yarashmaydi” degan iboralar bilan qancha qanotlar bog‘langan, qancha iste’dodlar yo‘qolgan, qancha taqdirlar jim bo‘lgan!

Lekin bugun zamon o‘zgardi. Endi qizlar faqat dasturxon atrofida emas — ular sahnada, ilmda, biznesda, texnologiyada, san’atda. Ular savollar bermoqda, g‘oyalar yaratmoqda, dunyoni o‘zgartirmoqda. Ular endi orqaga emas, oldinga qadam tashlamoqda. Shunday bir davr keldiki, qiz bolalar nafaqat iltifot, balki imkoniyat so‘ramoqda. Va bu imkoniyatni ularga nafaqat qonunlar, balki jamiyat ham berishi zarur. Chunki har bir qizning qalbida bir olam g‘oya, bir osmon orzu bor. Bugun har bir qizga savol berilayotgan emas — javob bo‘layotgan, yo‘l izlayotgan emas — yo‘l yaratayotgan shaxs sifatida qaralmoqda. Demak, bu mavzuni o‘rganish — shunchaki dolzarb emas, balki jamiyat ongini uyg‘otuvchi harakatdir. Shu bois, ushbu maqola orqali biz qiz bolalarga bo‘lgan munosabatni — stereotipmi yoki imkoniyatmi — degan savolga sotsiologik va hayotiy yondashuvda javob izlaymiz.

Metod va materiallar. Qiz bola — bu faqatgina chiroy, iffat yoki orasta yurish emas.[1] Qiz bola — bu kuch, salohiyat, ilm, orzu va kelajak. Ammo bugun ham, ayrim qarashlar uni faqat oshxonaga, faqat uy ishlariga, faqat jim turishga qaratadi. Go‘yoki, qiz bola yuksak parvozlar uchun emas, faqat pastda yurish uchun yaratilgandek. Bu — jamiyatda chuqur ildiz otgan stereotiplarning o‘zginasi, ammo endi bunday qarashlarga joy yo‘q. Chunki har bir qiz — qalbida olov, ko‘zida nur, yuragida g‘urur bilan tug‘iladi. U ham uchishni xohlaydi, u ham sahnada gapirishni, jahonni ko‘rishni, g‘olib bo‘lishni istaydi.[2] Bugun qizlar jamiyatda shunchaki kuzatuvchi emas, balki o‘z taqdirini o‘zgartirayotgan qahramonlardir. Ular orzusi tufayli yuksalmoqda, ular imkon topganda qanot yozmoqda. Demak, savol shunday: qiz bolaga munosabat — bu hali ham stereotipmi yoki allaqachon imkoniyatgami aylangan?

Natijalar. Javob, albatta, har bir jamiyat va madaniyatda o‘zgarib bormoqda, lekin eng muhimi, qizlar o‘z huquqlari va imkoniyatlari uchun kurashayotgan zamonda, bu savolga hamon stereotiplar ko‘proq javob bermasligi kerak. Bugungi kunda qiz bolalarining o‘rni — bu imkoniyatlar, orzular va kelajakni yaratishdir. Yillar davomida jamiyatda qiz bolaga nisbatan shakllangan qarashlar endi asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Qachonlardir faqat “jim yur, og‘ir yur, ko‘zga ko‘rinma” degan gaplar ostida yashagan qizlar — endi o‘z ovoziga ega bo‘layapti. Yashirin iste’dodlar endi sahnaga chiqyapti, ko‘ngildagi orzular endi imkoniyatga aylanmoqda. Bugungi kunda quyidagilarni ochiq aytish mumkin: Qizlar oliy ta’limda, ilm-fan yo‘nalishlarida faol. Ular endi faqat pedagogika emas, balki IT, fizika, muhandislik, huquqshunoslik sohalarini ham bemalol egallamoqda.

O‘zbekiston bo‘yicha turli tanlovlar, stipendiyalar, davlat mukofotlarining faol nomzodlari orasida qizlar soni ko‘paymoqda. Qishloqlarda ham o‘zining yo‘lini topgan, oilasi va jamiyat fikriga qarshi emas, balki ular bilan hamkorlikda o‘z orzusiga erishayotgan qizlar ko‘paymoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda, mediamaydonlarda ham qizlar endi faqat surat yoki ko‘rinish emas — ular kontent yaratuvchi, fikr bildiruvchi, ijtimoiy faollik qilayotgan shaxsga aylanyapti.

Yozuvchi, rassom, psixolog, jurnalist, SMM mutaxassisi, dizayner, IT ayollar — bular bugungi qizlarning imkoniyatidan tug‘ilgan kasblardir. Yana bir ijobiy natija shuki, endi qiz bolaning gapini eshitadigan, uning fikrini qadrlaydigan, unga yo‘l ko‘rsatayotgan jamiyat a'zolari — ota-onalar, ustozlar, tashkilotlar ko‘paymoqda. Ular qizni "ojiza" emas, balki "orzu egasi" deb ko‘rmoqda.

Muhokama. Shunday qilib, natijalar shuni ko‘rsatadiki, qiz bolaga nisbatan stereotiplar hanuz mavjud bo‘lsa-da, ularni yengayotgan, sindirayotgan va yangi yo‘l ochayotgan qizlar soni kundan-kunga oshib bormoqda. Bundan tashqari, qizlar jamiyatda o‘zining roli va ahamiyatini anglashga intilishlari kerak. Bu, faqat qizlarning o‘ziga bog‘liq emas, balki ota-onalar, ta’lim muassasalari, davlat va boshqa ijtimoiy institutlar ham ular uchun teng imkoniyatlar yaratishda faol bo‘lishi lozim. Yosh qizlar uchun o‘z orzularini amalga oshirishda o‘qish, sport, san’at, ilm-fan kabi sohalarda imkoniyatlar yaratish muhimdir. Bu faqatgina qizlarning o‘z taqdirini o‘zgartirishga yordam bermaydi, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotiga ham katta hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, qiz bolalarning kelajagi faqat imkoniyatlarga ega bo‘lish bilan chegaralanmaydi. Ular o‘z hayotining boshqaruvchisi bo‘lishi, qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etishi kerak. Jamiyatda haqiqiy tenglikni ta’minlash uchun, barcha qarorlar qizlarning ham fikri, ishtiroki va yordamini o‘z ichiga olishi lozim.[3] Shunday qilib, bugungi kunda qiz bolaga munosabat faqat stereotiplar va eski qarashlarga tayanmasdan, imkoniyatlarga, bilimga, orzular va kelajakka asoslanmoqda. Lekin bu o‘zgarishlarni amalda qo‘llash va yanada rivojlantirish uchun jamiyatning barcha qatlamlarining birgalikdagi sa’y-harakatlari zarur.Bu esa jamiyatdagi eng katta g‘alabalardan biridir.

Xulosa. Har bir insonning jamiyatdagi o‘rni bor. Lekin bu o‘rin, ba'zida jinsi sababli farqlanishi mumkin. Ayniqsa, qiz bolalarga nisbatan qarashlar hamisha bir xil bo‘lib kelgan: u orasta bo‘lishi kerak, u ko‘zga ko‘rinmasligi kerak, orzu qilmasligi kerak. Bu — stereotiplar. Jamiyat asrlar davomida qizlarni ma’lum bir qoidalar bilan o‘lchab kelgan. Lekin XXI asrda yashayotgan qizlar bunday “qafas fikrlar”ga sig‘maydi. Ular orzu qiladi, bilim oladi, sahnaga chiqadi, rahbar bo‘ladi, hatto xalqaro grantlarni yutadi. Chunki qiz bolada ham aql bor, qalb bor, salohiyat bor. Bugun qiz bola faqat noziklik emas, balki jasorat ramzi. U faqat chiroy emas, balki bilimdir. U faqat uy ishlari emas, balki loyiha, startap, tadqiqot, san’atdir.

Jamiyat esa bu haqiqatni tan olishi kerak. Qiz bola — imkoniyat. Agar unga yo‘l ochilsa, u o‘zining, oilasining, jamiyatining taqdirini o‘zgartira oladi. Qiz bolalarni cheklash emas, ularni quvvatlash kerak. Ularning orzulari ustidan kulish emas, ularga qanot bo‘lish kerak. Zero, orzusi bor qiz — jamiyatga nur olib keladi. Biz o‘zbek jamiyatida bu fikrni ko‘proq targ‘ib qilishimiz kerak. Har bir ustoz, ota-ona, qo‘shni, yetakchi — qizlarga ishonishi, ularga o‘z ovozini topishga yordam berishi kerak. Axir, qizlar qanot chiqarsa, jamiyat baland uchadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Basu, A. (2019). Gender Stereotypes and Empowerment in Contemporary Societies. New York: Oxford University Press.

2. Green, D., & Ram, A. (2020). Gender Equality and Development: Contemporary Issues. London: Palgrave Macmillan.

3. UNESCO. (2017). Gender Equality and Women's Empowerment in Education. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
4. Sen, A. (1999). Development as Freedom. New York: Alfred A. Knopf.

DAVLAT BOSHQARUVIDA JAMOAT MANFAATINI USTUVOR QILADIGAN TAMOYIL SIFATIDA XIZMAT MODELI

Eshtemirova Maftuna Rashid qizi
maftunarashidovna03@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot unversiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola davlat boshqaruvi organlarining faoliyatini “fuqorolarga xizmat qilishga yo‘naltirish” tamoyili asosida tahlil qiladi. Mazkur tamoyil, davlat organlarining faoliyatini fuqarolar manfaatlarini, ehtiyojlarini va huquqlarini ta’minlashga qaratilgan prinsip sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada davlat boshqaruvi organlarining samaradorligini oshirishda fuqaro markazli yondashuvning ahamiyati, davlat xizmatlarini optimallashtirish va fuqarolar bilan samarali aloqalar o‘rnatish masalalari yoritiladi. Tadqiqot, shu bilan birga, davlat boshqaruvi tizimining shaffofligi, mas'uliyati va fuqarolarga qulaylik yaratish kabi omillarni ham ko‘rib chiqadi. Maqolada ushbu tamoyilning davlat boshqaruvidagi o‘rni va uning amaliyotdagi ahamiyati haqida keng fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: davlat boshqaruvi, tamoyil, samaradorlik, davlat xizmatlari, ijtimoiy xizmatlar, shaffoflik, mas'uliyat, fuqarolar huquqlari

Annotation

This article analyzes the activities of public administration bodies based on the principle of "serving citizens". This principle is considered as a principle aimed at ensuring the interests, needs and rights of citizens. The article highlights the importance of a citizen-centered approach to improving the efficiency of public administration bodies, optimization of public services, and effective communication with citizens. The study also examines factors such as transparency, accountability and citizen-friendliness of the public administration system. The article expresses a wide range of opinions about the role of this principle in public administration and its importance in practice.

Key words: public administration, serving citizens, principle, efficiency, public services, social services, transparency, responsibility, citizens' rights

Kirish. “Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini fuqarolarga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirish” tamoyili zamonaviy davlat boshqaruvida markaziy tushunchaga aylandi. Demokratik jamiyatlarda davlat institutlarining asosiy vazifasi odamlarning ehtiyojlari, huquq va manfaatlarini qondirishdan iborat. Ushbu tamoyil hukumatning harakatlari, siyosati va xizmatlarining fuqarolarga foyda keltirishi, ularning farovonligini oshirish va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan holda ishlab chiqilishini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi.

Davlat boshqaruvining fuqarolar ehtiyojlariga yo‘naltirilganligi davlat institutlari faoliyati samaradorligini oshirish bilan birga, davlat va xalq o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Bu tamoyil byurokratik yondashuvdan yanada sezgir, shaffof va hisobdor boshqaruv tizimiga o‘tishni taqozo etadi, bunda davlatning harakatlari jamiyatning ustuvor yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashadi. Shu nuqtai nazardan, davlat boshqaruvi yuqoridan pastga, nufuzli tizimdan ko‘proq fuqarolarga yo‘naltirilgan, ishonch va hamkorlik muhitini ta’minlovchi tizimga o‘tishi kerak.

Ushbu maqolada “fuqarolarga xizmat qilish” tamoyilining davlat boshqaruvi organlari faoliyatidagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Unda ushbu tamoyil davlat xizmatlarini takomillashtirish, shaffoflik va hisobdorlikni rag‘batlantirish, fuqarolar manfaatlarini samarali ifoda etishga qanday hissa qo‘shishi o‘rganiladi. Bundan tashqari, ushbu tamoyilni zamonaviy davlat boshqaruvi tizimlariga tatbiq etish bilan bog'liq muammolar va imkoniyatlar muhokama qilinadi. Maqsad - samarali, tezkor va adolatli davlat apparatini qurishda fuqarolarga yo‘naltirilgan yondashuvning muhim rolini ta'kidlash [1].

Muhokama va natijalar. “Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini fuqarolarga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirish” tamoyilining tahlili davlat boshqaruvi faoliyati va rivojlanishiga oid bir qancha asosiy tushunchalarni ochib beradi. Hukumat va uning fuqarolari o‘rtasidagi munosabatlar zamonaviy jamiyatda tobora muhim ahamiyat kasb etayotganligi sababli, bu tamoyil davlat institutlarining samaradorligi va tezkorligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ushbu tamoyilni hayotga tatbiq etishning asosiy natijalaridan biri davlat boshqaruvi organlarining samaradorligi va mas'uliyatini oshirishdir. Davlat boshqaruvi organlari fuqarolarning ehtiyojlarini birinchi o‘ringa qo‘yganda, ular jarayonlarni tartibga soluvchi, byurokratiyani kamaytiradigan, sifatli xizmatlar ko‘rsatishga e’tibor qaratuvchi chora-tadbirlarni ko‘radi. Misol uchun, xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan davlat institutlari jamoatchilik qoniqishini o‘lchash va o‘z faoliyatini mos ravishda o‘zgartirish uchun so‘rovlar yoki fuqarolar forumlari kabi qayta aloqa mexanizmlaridan foydalanadilar. Bu nafaqat xizmatlar sifatini oshiradi, balki davlat amaldorlarini o‘z harakatlari uchun javobgarlikka tortadi [2].

Bundan tashqari, oshkoralikni ta'minlash orqali davlat institutlari korruptsiyani kamaytiradi va fuqarolar va hukumat o‘rtasidagi ishonchni kuchaytiradi. Fuqarolar o‘z manfaatlari ustuvorligini bilib, ochiq va mas’uliyatli tizimda o‘zlarini yanada ishonchli his qiladi. Jumladan, elektron hukumat tashabbuslari va davlat xizmatlari uchun raqamli platformalar xizmatlar ko‘rsatishni yaxshilash va jarayonlarni shaffofroq qilish orqali korruptsion amaliyotlar ehtimolini kamaytirishda samarali ekanligini isbotladi.

Tadqiqotning yana bir muhim xulosasi - davlat siyosati va xizmatlarini shakllantirishda fuqarolarning ehtiyojlari markaziy o‘rin tutadi. Davlat organlari o‘z sa’y-harakatlarini aholi talablarini qondirishga yo‘naltirsa, siyosat fuqarolarning hayotiy tashvishlari bilan uyg‘unlashadi. Bu sog'liqni saqlash va ta'limdan tortib, jamoat transporti va uy-joy bilan ta'minlashgacha bo‘lgan maqsadli va tegishli xizmatlarni keltirib chiqaradi. Fuqarolarga xizmat ko‘rsatish tamoyili hukumatni jamoatchilik bilan faol tinglash va maslahatlashishga undaydi, siyosat turli ijtimoiy guruhlarning turli ehtiyojlarini aks ettirishini ta'minlaydi.[3]

Misol uchun, mahalliy hukumat idoralari jamoatchilik bilan muloqot qilish dasturlarini yoki shahar hokimiyati yig'ilishlarini amalga oshiradigan fuqarolarga o‘z

tashvishlarini bildirish va siyosatdagi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar haqida fikr bildirish imkonini beradi. Bu ishtirok nafaqat fuqarolarning faolligini kuchaytiradi, balki siyosatning rivojlanayotgan ijtimoiy muammolarga javob berishini ham ta'minlaydi. Buning natijasida fuqarolar o‘zlarini ko‘proq eshitish va qadrlashlarini his qiladilar, bu esa o‘z navbatida demokratik jarayonlarda jamoatchilik ishtirokini oshiradi.

Aniq afzalliklariga qaramay, fuqarolarga yo‘naltirilgan ushbu tamoyilni amalga oshirish bir qator muammolarga duch keladi. Asosiy to‘siqlardan biri ko‘plab davlat organlarida hali ham mavjud bo‘lgan byurokratik madaniyatdir. Ba'zi hududlarda eskirgan amaliyotlar va o‘zgarishlarga qarshilik ko‘proq fuqarolarga yo‘naltirilgan yondashuvni qabul qilishga to‘sqinlik qilmoqda. Qolaversa, korrupsiya, siyosiy irodaning yo‘qligi va yetarlicha moliyalashtirilmasligi kabi siyosiy omillar bu tamoyilni to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Yana bir qiyinchilik - turli mintaqalar yoki ijtimoiy guruhlar bo‘yicha davlat xizmatlarining notekis taqsimlanishi. Ba'zi hududlar yuqori sifatli xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, boshqalari e'tiborsizlik yoki kam moliyalashtirishdan aziyat chekishi mumkin. Bu tengsizlik hukumatga nisbatan norozilik va ishonchsizlikka olib kelishi mumkin, bu esa fuqarolar va davlat institutlari o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro hurmat munosabatlarini rivojlantirishni qiyinlashtiradi.

O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat boshqaruvi organlari o‘z faoliyatini fuqarolarga xizmat ko‘rsatish tamoyiliga muvofiqlashtirsa, xalqning ishonchi va boshqaruvi sezilarli darajada yaxshilanadi. Fuqarolar o‘z manfaatlarini chin dildan ifoda etilayotganini his qilsalar, davlat bilan ishlash, fuqarolik burchlarida ishtirok etish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish ehtimoli ko‘proq. Bundan tashqari, odamlarning ehtiyojlariga e'tibor qaratadigan davlat boshqaruvi o‘zgarishlarga javob beradigan va jamiyat muammolarini hal qilish uchun yaxshi jihozlangan kuchliroq va barqaror boshqaruv tuzilmalarini qurishga intiladi.[4]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruvi organlarini fuqarolarga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirish zamonaviy davlat boshqaruvida kuchli va o‘zgartiruvchi tamoyildir. Bu samaradorlik, mas’uliyat va mas’uliyatni oshiradi, davlat xizmatlarini aholi ehtiyojlariga moslashtirishni ta’minlaydi. Biroq, bu tamoyilning imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun byurokratik qarshilik, korruptsiya va mintaqaviy tengsizlik kabi muammolarni hal qilish kerak. Hukumatlar ushbu yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun shaffoflik, fuqarolarning ishtiroki va resurslarni adolatli taqsimlash majburiyatini olish zarur. Kelgusi tadqiqotlar ushbu tamoyilni muvaffaqiyatli qabul qilgan hukumatlarning ilg‘or tajribalarini aniqlashga va uning demokratik boshqaruvga uzoq muddatli ta’sirini o‘rganishga qaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta’lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O‘zbekiston, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi
4. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi
5. www.lex.uz

SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA SAVOLNOMA TUZISH VA SAVOL TURLARINING AHAMIYATI

Xoliqova Zarifa
Baxrillayeva Mohichehra
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya

Mazkur maqolada savolnoma metodining ilmiy-tadqiqotlar, ijtimoiy so‘rovlar va amaliy tahlillar jarayonidagi o‘rni, uning tuzilishi va asosiy tarkibiy qismlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, savol turlarining (yopiq, ochiq, yarim yopiq, shkala asosidagi va miqdoriy savollar) tahlili orqali har bir savol shaklining o‘ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va qo‘llanilish doirasi izohlangan. Maqolada savolnoma mazmunining aniq, mantiqiy va tushunarli tuzilishi respondentlarning ishtirok faolligini va ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Ushbu maqola tadqiqotchilar, pedagoglar va amaliyotchi mutaxassislar uchun foydali metodik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: savolnoma, anketa, savol tuzilishi, yopiq savol, ochiq savol, yarim yopiq savol, Likert shkalasi, respondent, so‘rovnoma, tahlil, metodika, miqdoriy savol, sifatli ma’lumot, tadqiqot usuli

Kirish. Ijtimoiy, pedagogik, psixologik va boshqa turdagi empirik tadqiqotlarda axborot to‘plashning samarali vositalaridan biri bu – savolnoma metodidir. Ushbu usul respondentlarning shaxsiy fikrlari, munosabatlari, ehtiyojlari hamda ijtimoiy hodisalarga bo‘lgan qarashlarini tizimli ravishda o‘rganish imkonini beradi. Savolnomaning tuzilishi, savollar mazmunining aniqligi va ularning mantiqiy ketma-ketligi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, savol turlarining to‘g‘ri tanlanishi respondentlarning savollarga javob berishdagi motivatsiyasi va javoblarning sifati bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu maqolada savolnomaning tarkibiy qismlari va unda qo‘llaniladigan savol turlarining tasnifi, ularning xususiyatlari va qo‘llanilish sohalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Metod va materiallar: Maqolani yozishda deskriptiv tahlil usulidan foydalanildi. Savolnoma tuzilishi va savol turlariga oid ilmiy adabiyotlar, darsliklar, internet manbalari hamda amaliy savolnoma namunalari o‘rganildi. Tadqiqotda Likert shkalasi, yopiq va ochiq savollar kabi savol turlarining xususiyatlari misollar asosida tahlil qilindi.

Muhokama va natijalar: Tadqiqot davomida savolnoma metodining samaradorligi va uning tuzilishi, shuningdek, savol turlarining qo‘llanishi alohida o‘rganildi. Olingan natijalarga ko‘ra, savolnoma tuzilishining aniq va lo‘nda bo‘lishi respondentlarning savollarga to‘liq va ishonchli javob berishiga yordam beradi. Savollarni maqsadga muvofiq shakllantirish va mantiqiy tartibda joylashtirish ma’lumotlarni to‘plash jarayonini yanada samarali qiladi.

Yopiq savollar, ularning bir necha variantli javoblariga ega bo‘lishi sababli, tezkor va oson tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu turdagi savollar ko‘pincha miqdoriy ma’lumotlarni to‘plashda samarali bo‘lib, statistik tahlil uchun qulay shart-sharoit

yaratadi. Biroq, yopiq savollar respondentlarning fikrini to‘liq ifodalashiga cheklovlar keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ochiq savollar ma’lum bir mavzu yoki muammo bo‘yicha respondentning chuqur fikrlarini olish uchun samarali vosita hisoblanadi. Ochiq savollar orqali to‘plangan sifatli ma’lumotlar tadqiqotning sifatini oshiradi, biroq ularni tahlil qilish ancha ko‘proq vaqt va resurs talab qiladi.

Shkala asosidagi savollar, xususan, Likert shkalasi, respondentlarning subyektiv fikrlarini tizimli va raqamli shaklda o‘lchash imkonini beradi. Bu turdagi savollar orqali olingan javoblar statistik tahlilni osonlashtiradi va natijalarning solishtirilishini ta’minlaydi. Biroq, shkalalar ortidan berilgan javoblarning to‘g‘riligi va mosligi ehtiyotkorlik bilan tekshirilishi kerak, chunki respondentlarning shkalaga nisbatan munosabati har xil bo‘lishi mumkin.

Yarim yopiq savollar esa javoblarni muayyan chegaralar ichida saqlash imkonini berib, respondentlarga qo‘shimcha tushuntirish yoki boshqa fikrlarni bildirish imkoniyatini yaratadi. Bu savollar ko‘pincha ma’lumotlarning kengroq doirasini olish uchun ishlatiladi.

Natijada, savolnoma tuzilishining to‘g‘ri rejalashtirilishi va savol turlarining ehtiyotkorlik bilan tanlanishi tadqiqotning ishonchliligi va samaradorligini ta’minlaydi. Har bir savol turi o‘zining maqsadiga muvofiq qo‘llanilishi kerak, chunki har bir tur o‘ziga xos afzalliklarga ega bo‘lib, ma’lumotlarni yig‘ishning samaradorligini oshiradi. Shu boisdan, savolnoma tuzishda har bir savol turi va ularning qo‘llanish doirasi aniq belgilanishi zarurdir.

Shaxsiy kuzatish va tajribalar

Brune shirinliklar kompaniyasining yangi mahsuloti — shirin chips ishlab chiqarish jarayonida, ular bir necha bosqichli tajribalar o‘tkazdilar. Birinchi bosqichda, mahsulotning retsepti va ishlab chiqarish jarayonini sinovdan o‘tkazish uchun tajriba olib borildi. Mahsulotning sifatini nazorat qilish va o‘zgartirishlar kiritish maqsadida bir nechta ishlab chiqarish siklini kuzatdilar.

Ikkinchi bosqichda, kompaniya shirin chipsning bozor talabi va iste'molchilarning mahsulotga bo‘lgan munosabatini aniqlash uchun 5-7 punktli Likert shkalasiga asoslangan so‘rovnoma tashkil etdilar. So‘rovnomada iste'molchilarning shirin chipsning ta’mi, shakli, narxi va umumiy qoniqish darajasi haqida fikrlarini yig‘dilar. Ushbu ma'lumotlar bozor talabini yanada aniqroq tushunishga yordam berdi.

Uchinchi bosqichda, shirin chipsni ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini optimallashtirish uchun kompaniya olingan natijalar asosida mahsulotni yaxshilashga qaratilgan o‘zgarishlar kiritdilar. Shuningdek, yangi marketing strategiyalarini ishlab chiqib, mahsulotning bozor talabiga mosligini oshirishni maqsad qilganlar.

Xulosa: Ushbu tadqiqot savolnoma metodining tuzilishi va savol turlarining maqsadga muvofiq tanlanishi tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchliligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Savolnomada qo‘llaniladigan savol turlari, ularning tarkibi va tuzilishi respondentlarning javob berish jarayonini osonlashtiradi va to‘liq ma’lumot olish imkonini yaratadi. Yopiq savollar statistik tahlilni osonlashtirishga yordam bersa, ochiq savollar respondentlarning fikrlarini chuqurroq ifodalash imkonini beradi. Shkala asosidagi savollar, ayniqsa, Likert shkalasi, respondentlarning fikrlarini raqamli shaklda o‘lchashda samarali vosita bo‘lib, tahlil qilishni osonlashtiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, savolnoma tuzilishida savollarning maqsadga muvofiq va mantiqiy joylashtirilishi hamda turli savol turlarining to‘g‘ri qo‘llanilishi ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlaydi. Shu sababli, savolnoma tuzishda har bir savol turi va uning qo‘llanilish doirasi chuqur o‘rganilib, ehtiyotkorlik bilan tanlanishi zarurdir. Kelajakda savolnoma metodikasini takomillashtirish, yangi savol turlari va ularning qo‘llanilishini o‘rganish ilmiy tadqiqotlar va amaliy sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydallanilgan adabiyotlar:

1. Tavakkal, S. (2018). Savolnoma metodikasi: Ilmiy tadqiqotlar uchun qo‘llanma. Toshkent: Fan va texnologiya.

2. Shukurov, M. (2020). Psixologik so‘rovlar va ularning tahlili. Tashkent: O‘zbekiston Matbuot.

3. Yusuf, M. S. (2015). Ijtimoiy tadqiqotlarda savolnoma metodlari. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

4. Likert, R. (1932). A Technique for the Measurement of Attitudes. Archives of Psychology, 22(140), 55-67.

5. Nazarov, A. (2019). Ijtimoiy so‘rovnoma metodlari va ularning amaliy qo‘llanilishi. Samarqand: Samarqand Davlat universiteti nashriyoti.

6. O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy Tadqiqotlar Markazi (2021). Savolnoma tuzish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent: O‘zbekistonda Ijtimoiy Tahlil va Tadqiqotlar Markazi.

7. Neuman, W. L. (2017). Social Research Methods: Qualitative and Quantitative Approaches (8th ed.).

TARIXIY VA SOSTIOLOGIK TADQIQOTLARDA IKONAGRAFIK HUJJATLARNING ILMIY AHAMIYATI

Jovliyeva Madinabonu Radjab qizi
Aralova Iroda Zokir qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabalari

Anotatsiya

Mazkur ikonografik hujjat ijtimoiy-siyosiy mavzudagi asosiy g‘oyalarni vizual obrazlar orqali ifodalashga qaratilgan. Unda rang, shakl va ramzlar orqali muayyan tarixiy davr, ijtimoiy qatlam yoki voqea yoritilgan. Tasviriy ifodalar vositasida muallif tomoshabinga muayyan xabarni yetkazishga, hissiy ta’sir uyg‘otishga harakat qilgan. Hujjatning ikonografik tahlili orqali rasmda berilgan belgilar, ramzlar va ularning joylashuvi orqali ma’no qatlamlarini anglash mumkin. Ushbu hujjat madaniy, tarixiy va ideologik kontekstda tahlil qilinganda, o‘z davri uchun muhim ijtimoiy signal sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar. Ikonalogiya, ikonometriya, monogrammalar, vizual belgi, piktogramma, semantika, tipologiya, mifalogiya.

Kirish. Ikonografik hujjatlar tarixi san'at va madaniyatni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu hujjatlar insoniyatning qadimiy tasvirlari va ramzlari orqali ma'lumot beradi. Ikonografik hujjatlar antik davr saroy devoriy rasmlaridan tortib, O‘rta asrlardagi diniy tasvirlargacha o‘z ichiga oladi. Ular orqali jamiyatning e'tiqodlari, kundalik hayoti va ijtimoiy strukturalari haqida ma'lumot olish mumkin. O‘zbekistonda ikonografik materiallar Afrosiyob devor rasmlari va Xorazmdagi qadimiy arxeologik yodgorliklarda topilgan. Bu hujjatlar orqali o‘sha davrdagi bosqinlar, savdo yo‘llari va madaniy almashinuvlar haqida bilimlar olinadi. Ikonografik hujjatlar tarixiy tadqiqotlar uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadini va vazifalarini belgilash Tadqiqotchining kuzatishni boshlashdan oldin, aniq maqsadlari va vazifalari bo‘lishi zarur. Bu bosqichda tadqiqotchi o‘rganiladigan ijtimoiy hodisa yoki guruhni aniq belgilab, ularni tahlil qilishni maqsad qilishi lozim. Maqsadlarning aniq bo‘lishi kuzatishning muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi.Kuzatish ob’ektini tanlash Tadqiqotchi kuzatiladigan ob’ektni tanlashi kerak. Bu guruhlar yoki hodisalar tadqiqot maqsadiga mos kelishi kerak. Ob’ektning tanlanishi to‘g‘ri bo‘lishi, kuzatish natijalari to‘g‘ri va ishonchli bo‘lishiga yordam beradi.

Kuzatish usulini tanlash Kuzatish usuli tadqiqot maqsadiga qarab tanlanadi. Tadqiqotchi tabiiy kuzatish, ishtirokchi kuzatish yoki bilvosita kuzatishdan birini tanlashi lozim. Har bir usulning o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud, shuning uchun ularning har biri o‘z holatiga mos ravishda ishlatilishi kerak.

Tadqiqotchi kuzatishning davomiyligi va vaqtini belgilab olishi kerak. Kuzatish uzoq vaqt davom etishi yoki qisqa muddatli bo‘lishi mumkin. Davrning uzunligi o‘rganilayotgan hodisa yoki guruhning xususiyatlariga qarab tanlanadi. Kuzatishning maqsadga muvofiq davomiyligi aniq belgilanishi, tadqiqotchi uchun o‘rganilayotgan ob’ektni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ma’lumot yig‘ish va yozib olish

Kuzatish davomida yig‘ilgan barcha ma’lumotlar tizimli tarzda yozib olinishi kerak. Bu jarayonda tadqiqotchi o‘z kuzatishlarini aniq va to‘liq qayd etishi, vaqt, joy va boshqa muhim tafsilotlarni yozib olish zarur. Ma’lumotlar turli usullar orqali (yozma, audio, video) qayd qilinishi mumkin. Ma’lumotlarni tahlil qilish

Kuzatilgan ma’lumotlar yig‘ilgach, ular tahlil qilinadi. Bu bosqichda tadqiqotchi o‘rganilgan hodisalar va xatti-harakatlar haqida xulosalar chiqaradiTahlil qilish jarayonida ma’lumotlarning statistik tahlili yoki sifatli tahlili amalga oshirilishi mumkin. Natijalarni xulosa qilish va hisobot tayyorlash

Ma’lumotlarni tahlil qilishdan so‘ng, tadqiqotchi o‘z xulosalarini chiqaradi va tadqiqotning natijalarini hisobot shaklida taqdim etadi. Ushbu xulosalar sotsiologik nazariyalar yoki amaliy maslahatlar bilan bog‘lanishi mumkin. Kuzatishning afzalliklari va kamchiliklar Afzalliklari: Kuzatish tabiiy sharoitda o‘tkaziladi, shuning uchun olingan ma’lumotlar real va ishonchli bo‘ladi. Ishtirokchi kuzatish yordamida guruhning ichki jarayonlari va dinamikasini yaxshiroq tushunish mumkin. Ijtimoiy hodisalar va xatti-harakatlarni chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi. Kamchiliklari: Tadqiqotchi ob’ektga

ta’sir qilishi yoki uning tabiiy holatini buzishi mumkin. Ma’lumotlar subyektiv bo‘lishi mumkin, chunki tadqiqotchi o‘z ta’sirini ko‘rsatishi ehtimoli bor. Uzoq muddatli kuzatishlar resurslar va vaqt talab qiladi.[2]

Tadqiqotchi ishtirok etadigan kuzatish (Ishtirokchi kuzatish): Bu usulda tadqiqotchining ob’ektga bevosita aloqasi mavjud. Tadqiqotchi guruh a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatadi, shu bilan birga, u guruhning ichki jarayonlarini tushunishga harakat qiladi. Bu usul tadqiqotchiga guruhdagi oddiy ishtirokchilarning nuqtai nazaridan o‘zgarishlar yoki muammolarni aniqlashda yordam beradi. Ammo bunda, tadqiqotchi guruhni ichkaridan ko‘rishi mumkin, lekin o‘zining ishtirokchiligi natijasida xatti-harakatlariga ta’sir qilishi mumkin.Tadqiqotchi ishtirok etmaydigan kuzatish (Tabiiy kuzatish): Tadqiqotchi ishtirok etmasdan, o‘rganilayotgan guruh yoki hodisalarni tabiiy sharoitda kuzatadi. Bu usul ko‘pincha insonlar yoki guruhlarning tabiiy holatdagi xatti-harakatlarini va ularga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish uchun qo‘llaniladi.

Kuzatish jarayonida tadqiqotchi ehtiyotkorlik bilan etik masalalarni hisobga olishi lozim. Kuzatishning ishtirokchilari haqida to‘g‘ri va aniq ma’lumotlarni olish, shuningdek, ularga zarar yetkazmaslikni ta’minlash juda muhimdir. Ba’zi tadqiqotlarda ishtirokchilarni oldindan xabardor qilish va ularning roziligini olish talab qilinadi. Etik masalalar quyidagicha bo‘lishi mumkin: Inson huquqlari: Tadqiqotchining ishtirokchilarning shaxsiy hayotiga va ma’lumotlariga hurmat bilan yondashishi zarur. Rozilik olish: Ishtirokchilarning tadqiqot jarayonida o‘z roziligini olish, shuningdek, kuzatish jarayonining maqsadlari haqida ularni xabardor qilish. Maxfiylik: Kuzatilgan shaxslar yoki guruhlar haqidagi ma’lumotlarni himoya qilish va ularni maxfiy saqlash.kuzatishning dastlabki va yakuniy bosqichlari [3]

Dastlabki bosqichlar: Tadqiqotchi kuzatishni boshlashdan oldin, ob’ektni, usulni, vaqtni va joyni aniqlash lozim. Bunda, tadqiqotchi kuzatiladigan guruh yoki hodisalar haqida oldindan o‘rganishlar olib boradi va ular haqida dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Yakuniy bosqichlar: Kuzatish jarayonida olingan ma’lumotlar tahlil qilinib, xulosa chiqariladi. Ma’lumotlar yig‘ilganidan so‘ng, ular statistik yoki sifatli tahlil usullari orqali qayta ishlanadi. Yakuniy bosqichda tadqiqotchi tadqiqot natijalarini taqdim etadi va ular asosida ijtimoiy tavsiyalar beradi.

Tajriba va kuzatishning ta’sirchanligi Kuzatish usulining samarali bo‘lishi uchun tadqiqotchining tajribasi va ta’sirchanligi juda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotchi qanday vaziyatlarda, qanday guruhlarda yoki qanday hodisalarda kuzatishni o‘tkazishini aniqlashda muhim qarorlar qabul qilishi kerak. Kuzatishning ta’sirchanligi shuningdek, tadqiqotchining ehtiyotkorlik bilan o‘rganish, kuzatish ob’ektiga ta’sir qilmaslik va ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish kabi omillarga bog‘liqdir. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, video yozuvlar, mobil ilovalar va kompyuter tizimlari kuzatish jarayonida tadqiqotchilarga yordam beradi. Bu texnologiyalar orqali tadqiqotchi o‘rganilayotgan hodisalarni real vaqt rejimida kuzatishi, ma’lumotlarni tezda yig‘ishi va tahlil qilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, tadqiqotning samaradorligini oshiradi.

Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish metodi ijtimoiy xatti-harakatlarni, guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni va jamiyatdagi turli hodisalarni o‘rganishning samarali vositasidir. Kuzatishning tashkiliy protsedurasi, bu metodning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotchi kuzatishni boshlashdan oldin aniq maqsadlar va vazifalar belgilash, kuzatish ob’ektini tanlash, usulni aniqlash va ma’lumotlarni to‘g‘ri

yig‘ish uchun ehtiyotkorlik bilan yondashishi zarur. Kuzatishning turli turlari — tabiiy kuzatish, ishtirokchi kuzatish va bilvosita kuzatish — o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklariga ega. Har bir metodning qo‘llanishi, tadqiqot maqsadlariga va tadqiqot ob’ektining xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Kuzatishning asosiy bosqichlari, masalan, ob’ektni tanlash, kuzatish davrini belgilash va ma’lumotlarni tahlil qilish, tadqiqotning sifatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Kuzatishning afzalliklari orasida ishonchli va tabiiy sharoitda ma’lumot olish imkoniyati mavjud bo‘lsa-da, metodning ba’zi kamchiliklari ham mavjud, masalan, tadqiqotchi ob’ektga ta’sir ko‘rsatishi yoki ma’lumotlarning subyektiv bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, kuzatish metodini to‘g‘ri va samarali tashkil etish sotsiologik tadqiqotlarning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Tadqiqotchilar kuzatishni o‘tkazish jarayonida metodologik ehtiyotkorlikni saqlashlari, etik qoidalariga rioya qilishlari va yig‘ilgan ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilishlari zarur. Shunday qilib, kuzatishning tashkiliy protsedurasi sotsiologik tadqiqotlarning aniq va ishonchli natijalarga erishishiga yordam beradi.

Kuzatish metodining sotsiologik tadqiqotlarda ahamiyati katta bo‘lib, ijtimoiy xatti-harakatlar, guruhlar va ijtimoiy tizimlarning tabiiy muhitdagi o‘zgarishlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Kuzatishning tashkiliy protsedurasi, uning muvaffaqiyatli o‘tkazilishida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotchi kuzatishning turli bosqichlariga to‘liq rioya qilish orqali maqsadli va ishonchli ma’lumotlar yig‘ishi mumkin. Kuzatish jarayonining birinchi bosqichlaridan, ya’ni tadqiqot maqsadi va usulini belgilashdan tortib, ob’ektni tanlash, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishgacha bo‘lgan barcha bosqichlar, tadqiqotning aniq, to‘g‘ri va amaliy natijalar berishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Giddens, A. (2017). Sociology (8th ed.). Polity Press.
2. Babbie, E. (2016). The Practice of Social Research (14th ed.). Cengage Learning
3. Kumar, R. (2011). Research Methodology: A Step-by-Step Guide for Beginners (3rd ed.). SAGE Publications.
4. Silverman, D. (2016). Qualitative Research (4th ed.). SAGE Publications.
5. DeWalt, K. M., & DeWalt, B. R. (2011). Participant Observation: A Guide for Fieldworkers. AltaMira Press.

KELAJAKDA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDAGI ISLOHOTLAR SAMARASINI OSHIRISH

Hamroyeva Oynisa Azamat qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Xususan, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, agroklaster tizimini rivojlantirish hamda ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek,

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish jarayonlarining takomillashtirilishi hamda fermer va dehqon xo‘jaliklarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha takliflar ilgari suriladi. Maqola kelajakda agrar sohaning yanada rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik yo‘nalishlarni belgilashga qaratilgan.

Kalit so`zlar. qishloq xo‘jaligi, islohotlar, samaradorlik, agrotexnologiyalar, innovatsiya, yer resurslari, suv resurslari, agroklaster, eksport, fermer xo‘jaligi, iqtisodiy barqarorlik, ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, barqaror rivojlanish.

Kirish. Qishloq xo‘jaligi hozirgi kunda jahon, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot tarkibida yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Biroq uning rivojlanishi va ixtisoslashuvi turli mamlakatlarda turlicha kechadi. Rivojlanayotgan davlatlarda qishloq xo‘jaligi, xususan, dehqonchilik ko‘proq ekstensiv holatda bo‘lsa, rivojlangan mamlakatlarda u intensiv ko‘rinishga ega. Shunga mos tarzda agroiqtisodiyotning samaradorligi, mehnat unumdorligi ham geografik jihatdan farqlanadi. Ayni vaqtda, qishloq xo‘jaligining asosiy xususiyatlari ushbu tarmoqning rivojlanish va joylanishini belgilab beradi.[1]

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi doirasida oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish hamda shakllangan dehqonchilik ko‘nikmalari, tuproq-iqlim sharoiti, suv ta’minotidan kelib chiqib, respublikaning barcha tumanlari hududlari muayyan turdagi mahsulotlar yetishtirishga bosqichma-bosqich ixtisoslashtirilishi belgilandi.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirishda asosiy e’tibor uning hosildorligi, eksportbopligi, yaxlit maydonlarda yetishtirilishiga hamda kooperatsiya va klaster tizimi asosida mahsulot yetishtirish, uni qayta ishlash, saqlash va ichki va tashqi bozorlarga sotish tizimi yo‘lga qo‘yilishini o‘z ichiga oladi. Jumladan, meva-sabzavot mahsulotlari eksportini oshirish uchun har bir viloyatda kamida bitta tuman hududini organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish belgilandi.

Shu bilan birga, 2021 yil 1 sentyabrdan boshlab qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga sertifikatlangan qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘lari va ko‘chatlarini xarid qilish uchun ajratiladigan tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ma’lum talablar asosida qoplab beriladigan bo‘ldi.[2]

Oxirgi yillarda qishloq xo‘jaligi rivojiga yangi bir turtki bergan bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash, klaster tizimini joriy etish, savdoni erkinlashtirish va eksportni rag‘batlantirish, qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarni ijaraga (ikkilamchi ijaraga) berish, suv tejovchi texnologiyalar qo‘llanilganda subsidiyalar taqdim etish, AKIS agroxizmatlar markazini ochish va boshqalar shular jumlasidandir.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlari 2017-2022-yillarda qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tahlil qildi. Unga ko‘ra, yaratilgan imkoniyatlar mamlakatda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shunday qilib, paxta hosildorligi gektariga 2017-yildagi 23,8 sentnerdan

2022-yilda 34 sentnerga, sug‘oriladigan maydonlar ulushi 1,7 foizdan 24 foizga ko‘paydi. Ularda suvni tejovchi texnologiyalar tatbiq etildi, turli xil yo‘nalishlarda 465 ta klaster tashkil qilindi.

Savdoni erkinlashtirish va eksportni rag‘batlantirish bilan bog‘liq qonunchilikdagi o‘zgartirishlar 2017-2022-yillarda meva-sabzavot mahsulotlari eksportini 1,7 barobarga, ya’ni 652,3 million dollardan 1 milliard 134,3 million dollargacha oshirish imkonini berdi.

Ayni paytda respublikamizda 3 ming 142 ta issiqxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Shundan 1 ming 622 tasi keyingi 5 yilda qurilgan. Ularning umumiy maydoni 6 ming 300 gektardan ortiq.

2019-2022-yillarda O‘zbekiston Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksida o‘z o‘rnini 12 pog‘onaga yaxshiladi va 85-o‘rindan 73-o‘ringa ko‘tarildi.[3]

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini istiqbolda barqaror rivojlantirish sohada davlat siyosatini yangicha yondoshuvlar asosida yuritishni talab qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi (keyingi o‘rinlarda — Strategiya) ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur Strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi:

aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash;

qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;

soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash;

davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;

tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish;

qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;

qishloq hududlarini rivojlantirish;

tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish.

Qishloq xo‘jaligining rivojlanishi mazkur Strategiyaning1-va2-ilovalarida belgilangan asosiy ko‘rsatkichlar va indikatorlarga erishishga asoslanadi.

Strategiyani amalga oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha har yili 1-dekabrga qadar kelgusi yilga mo‘ljallangan dastur ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. [4]

Xulosa. Kelajakda qishloq xo‘jaligidagi islohotlarning samaradorligini oshirish uchun innovatsiyalar, barqaror rivojlanish va zamonaviy boshqaruv usullarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilm-fan yutuqlaridan foydalanish, raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ekologik muvozanatni saqlash kelgusida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishida asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, fermerlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, zamonaviy infratuzilmani yaratish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish ushbu sohada barqaror o‘sishga erishish uchun muhimdir.

Bularning barchasi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, eksport salohiyatini oshirish va qishloq hududlarining iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratishi mumkin. Shu sababli, qishloq xo‘jaligidagi islohotlarning samaradorligini oshirish uchun tizimli va kompleks yondashuv talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nurmatov N.E. Economic and geographical factors of regional organization of agriculture and innovative development//International multidisciplinary journal for research & development. Volume 10, issue 12 (2023). P. 439-442.
2. Faizullaev M.A. Theoretical and methodological aspects of the economic geographical study of agriculture and the use of land and water resources // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16, Belgium, 2023. P. 39-42.
3. Faizullaev M.A. Factors of intensive development of agriculture in ensuring food security // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Vol. 4 No. 1 (2023) – p. 715-719. 1
4. . Faizullaev M.A. Main characteristics of the formation of a geographic conveyor in agricultural development // Web of Scientist: International Scientific Research Journal.Vol. 4 No. 2 (2023).P. 89-92.
5. Faizullaev M.A. Main characteristics of the development of the livestock network in ensuring food security // Центральноазиатский журнал географических исследований. Международный научный журнал. SJIF 2023 = 6,549. ISSN 2181-2578. №1-2 – Чирчик, 2023. С. 110-119

DAVLAT ORGANLARINING XALQQA XIZMAT QILISHNING SAMARALI USULLARI VA VOSITALARI

Suvonqulova Gulnoza, Xudoyberdiyeva Gulasal
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya

Mazkur ishda davlat organlarining xalqqa xizmat qilish faoliyatini samarali tashkil etish masalalari o‘rganiladi. Asosiy e’tibor davlat boshqaruvida fuqarolarga xizmat ko‘rsatish tamoyillari, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, raqamli texnologiyalar yordamida tezkor va sifatli xizmatlar ko‘rsatish usullariga qaratilgan. Shuningdek, “yagona darcha” tizimi, elektron hukumat (e-gov) platformalari va mobil ilovalar orqali aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar tahlil etiladi. Ishda davlat xizmati sifatini oshirish uchun zarur bo‘lgan professional kadrlar tayyorlash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish va davlat organlari faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari kabi vositalar ham ko‘rib chiqilgan. Natijada, xalq va davlat o‘rtasida ishonchni mustahkamlash uchun samarali yondashuvlar va innovatsion yechimlarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat organlari,xalqaro xizmat ko‘rsatish,elektron hukumat (e-gov),yagona darcha tizimi,ochiqlik va shaffoflik,raqamli xizmatlar,ijtimoiy ishonch,davlat xizmatlari sifati,innovatsion boshqaruv,huquqiy madaniyat,monitoring va

nazorat,professional kadrlar tayyorlash,fuqarolarga xizmat ko‘rsatish,davlat va jamiyat hamkorligi,samaradorlik va tezkorlik.

Kirish. Mamlakatda davlat organlarining asosiy vazifalaridan biri fuqarolarga samarali xizmat ko‘rsatishni tashkil etishdir. Bugungi globallashuv va raqamli rivojlanish davrida davlat boshqaruvi tizimi xalqqa yaqin, ochiq va qulay bo‘lishi talab etilmoqda. Shu sababli, davlat organlari o‘z faoliyatini fuqarolar ehtiyojiga moslashtirish, xizmatlar sifati va tezkorligini oshirish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha doimiy izlanish olib bormoqda. Elektron hukumat tizimi, yagona darcha markazlari va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanish xalq bilan samarali muloqotni rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu ishda davlat organlarining xalqqa xizmat ko‘rsatishdagi ilg‘or usullari va amaliy vositalari tahlil qilinadi hamda ularning natijadorligini oshirish imkoniyatlari yoritiladi.

Davlat organlarining xalqqa xizmat qilishdagi asosiy tamoyillari.Davlat xizmatining asosiy tamoyillari — ochiqlik, shaffoflik, adolat va fuqarolarga xizmat ko‘rsatishga qaratilgan yondashuvdir. Xizmat ko‘rsatish jarayonida fuqarolarning ehtiyoj va huquqlari ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, davlat organlari faoliyatining samaradorligi aholining roziligi bilan baholanadi.

Xizmat ko‘rsatishning zamonaviy usullari.Bugungi kunda "yagona darcha" markazlari, elektron hukumat tizimlari va mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatish kengaymoqda. Bu tizimlar xizmat ko‘rsatish jarayonini soddalashtiradi, ortiqcha hujjatlashtirishni bartaraf qiladi va fuqarolarga qulaylik yaratadi.

Samaradorlikni oshirish vositalari.Davlat organlarida raqamlashtirish va avtomatlashtirish xizmatlar sifati va samaradorligini oshirmoqda. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” dasturi asosida ko‘plab xizmatlar onlayn shaklga o‘tkazilib, fuqarolarga ortiqcha vaqt va xarajat sarflamasdan xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaratilmoqda.

Xalq bilan samarali muloqot usullari.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va maxsus axborot portalari orqali davlat organlari aholining murojaatlarini qabul qilib, tezkor javob qaytarmoqda. Bu muloqot shakllari xalq bilan yaqin va doimiy aloqani ta’minlamoqda .

Xizmat ko‘rsatishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.Xizmat ko‘rsatishda byurokratik to‘siqlar, hujjatlashtirishdagi ortiqcha talablar va fuqarolarning huquqiy madaniyatining pastligi kabi muammolar mavjud. Bularni bartaraf etish uchun elektron tizimlarni kengaytirish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini soddalashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish zarur.

Xulosa:

Davlat organlarining xalqqa xizmat ko‘rsatish faoliyati bugungi zamon talablari asosida doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Xizmat ko‘rsatishda ochiqlik, shaffoflik, tezkorlik va samaradorlik asosiy mezon sifatida belgilanmoqda. Elektron hukumat tizimi, yagona darcha markazlari va raqamli xizmatlar orqali fuqarolarga qulay va sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, xizmat sifati ustidan nazorat va baholash tizimlari joriy etilib, davlat xizmatchilarining malakasini oshirish choralari ko‘rilmoqda.

Kelgusida davlat xizmatlarini yanada takomillashtirish uchun innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, fuqarolar ehtiyojiga mos xizmatlar taklif etish, shuningdek, xizmat ko‘rsatishda fuqarolarning ishtirokini va huquqiy madaniyatini oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PF-5739-son Farmoni "Davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida".
2. O‘zbekiston Respublikasi "Davlat xizmati to‘g‘risida"gi Qonuni, 2018-yil 5-oktabr.
3. "Elektron hukumat to‘g‘risida"gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi, 2015-yil.
4. "Raqamli O‘zbekiston – 2030" davlat dasturi, 2020-yil.
5. Elektron Hukumat Loyihalarini Rivojlantirish Markazi rasmiy hisobotlari, 2024-yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi statistik ma’lumotlari, 2023-yil.
7. Transparency International tashkiloti, "Korrupsiya qamrovi va davlat xizmatlarining shaffofligi" xalqaro hisobotlari, 2023-yil.
8. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) "Good Governance" (Yaxshi boshqaruv) tamoyillari, 2022-yil nashri.
9. X. Xudoyberdiyev. “Davlat boshqaruvi va xizmat ko‘rsatish tizimining modernizatsiyasi”. Toshkent, 2022-yil.
10. J. Ro‘ziboyev. “Elektron hukumat va zamonaviy davlat xizmatlari” nomli monografiyasi, Toshkent, 2023-yil.

SANOAT SOSIOLOGIYASINING SHAKLLANISHIDA XOTORN TAJRIBASINING ILMIY AHAMIYATI

Aminova Sevinch
Akromova Xurinisa
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat sotsiologiyasida katta ahamiyatga ega bo‘lgan tajribalardan biri bo‘lgan Xotorn tajribasi haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, maqolani o‘qish davomida tajribaning olib borilishi va keltirib chiqarilgan xulosalar haqida tushunchalarga ega bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: Hawthorne**,** sanoat, ishlab chiqarish, tajriba

Kirish: Sanoat sotsiologiyasi sanoatning “inson omili”ning mazmuni va ahamiyati, ya’ni ishlab chiqarish xodimlarining ijtimoiy, jamoaviy va individual harakatlari va munosabatlarining tuzilishi, mexanizmlari va samaradorligi haqidagi maxsus sotsiologik nazariyadir. Sanoat sotsiologiyasining ob’ekti ijtimoiy sharoit sharoitida sanoat ishlab chiqarishidir. Polsha sotsiologlari A. Sarapata va K. Doktur sanoat sotsiologiyasi «sanoat ishlab chiqarishining mehnat motivlari, jarayoni va natijalariga ta'siri, shuningdek, sanoat ishlab chiqarishining ijtimoiy oqibatlari bilan shug'ullanadi», deb ta'kidlaydilar.

Sanoatning ijtimoiy muammolari uch darajada ko‘rib chiqiladi: umumiy (sanoatni butun jamiyat bilan bog'lash (jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari); sanoatdagi ijtimoiy hodisalarga (sanoatdagi ijtimoiy munosabatlar) qaratilgan xususiy yoki tarmoq); sanoat korxonalari ichidagi ijtimoiy hodisalar (korxona ichidagi "inson munosabatlari") Shubhasiz, sanoat sotsiologiyasining dastlabki ta'rifida sanoat sotsiologiyasi o‘rganiladi, uning predmeti, tarmoqlarda, korxonalarda, ustaxonalarda sodir bo‘ladigan ijtimoiy jarayonlar. U ishlab chiqarish jamoalarining tuzilishini va ularning funktsiyalarini ko‘p qirrali tushunish, tashkilotning ishlab chiqarish, texnik va ijtimoiy jihatlarini, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyatining maqsadlari va rag'batlarini qisqacha, ko‘rib chiqiladigan muammolarni ajratib ko‘rsatish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Sanoat sotsiologiyasi tomonidan quyidagicha tavsiflanishi mumkin: 1) korxona ijtimoiy tizim sifatida; 2) ishlab chiqarish guruhlari (tsexlar, brigadalar va boshqalar) va alohida ishchilarning funktsional xususiyatlari; 3) ishlab chiqarish jamoalarini boshqarish muammolari; 4) ijtimoiy kommunikatsiya muammolari; 5) jamoa ichidagi va jamoalararo munosabatlar; 6) ijtimoiy nazoratning tuzilishi; 7) ishlab chiqarish tashkilotlarining qiyosiy tahlili. Sanoat sotsiologiyasining muammolar va metodologiya sohasidagi asosiy qoidalari birinchi navbatda empirik tadqiqotlarga va ular orqali sanoatdagi ijtimoiy jarayonlarning amaliy muammolariga qaratilgan. Bu yerda sxema quyidagicha: muammoni shakllantirish va asoslash - uning ob'ektiv komponentlarini empirik tavsiflash - o‘zgarishlarni retseptlash va amaliy amalga oshirish. Sxemaning hech bir qismini yirtib tashlash yoki boshqalar bilan taqqoslash mumkin emas, amaliy natijaga va nazariyaning rivojlanishiga zarar yetkazmaydi.[1]

Xotorn tajribasi sanoat sotsiologiyasining muhim tajribalaridan hisoblanadi.

Western Electric kompaniyasi o‘rni montajchilarining mahsuldorligini pasayishiga duch keldi. Uzoq muddatli tadqiqotlar sabablarni qoniqarli tushuntirishga olib kelmadi. Keyin, 1928 yilda Mayo taklif qilindi, u dastlab ish xonasining yoritilishi kabi omilning mehnat unumdorligiga ta'sirini aniqlash uchun o‘z tajribasini o‘rnatdi. Hawthorne tajribalari jami 1924 yildan 1932 yilgacha davom etdi va turli bosqichlar aniq ko‘rsatilgan, ammo bu erda faqat asosiy eksperimental dizayn takrorlangan. Mayo tomonidan aniqlangan eksperimental va nazorat guruhlarida turli xil ish sharoitlari joriy etildi: eksperimental guruhda yorug'lik kuchaygan va nazorat guruhida mehnat unumdorligi oshishi qayd etilgan, doimiy yoritish bilan mehnat unumdorligi oshmagan; Keyingi bosqichda eksperimental guruhdagi yorug'likning yangi o‘sishi mehnat unumdorligining yangi o‘sishini ta'minladi; lekin birdan nazorat guruhida - doimiy yoritish bilan - mehnat unumdorligi ham oshdi. Uchinchi bosqichda eksperimental guruhda yoritishni yaxshilash bekor qilindi va mehnat unumdorligi o‘sishda davom etdi; xuddi shu narsa nazorat guruhida ushbu bosqichda sodir bo‘ldi.

Ushbu kutilmagan natijalar Mayoni eksperimentni o‘zgartirishga va yana bir nechta qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazishga majbur qildi: endi nafaqat yorug'lik o‘zgartirildi, balki ish sharoitlari ancha kengroq (olti nafar ayol ishchini alohida xonaga joylashtirish, ish haqi tizimini takomillashtirish, qo‘shimcha tanaffuslar joriy etish), haftada ikki dam olish kuni va boshqalar). Ushbu innovatsiyalarning barchasini joriy etish bilan mehnat unumdorligi oshdi, ammo tajriba shartlariga ko‘ra, innovatsiyalar bekor qilinganda, u biroz pasaygan bo‘lsa-da, avvalgisidan yuqori darajada qoldi.

Mayo tajribada yana qandaydir o‘zgaruvchining o‘zini namoyon qilishini taklif qildi va ayol ishchilarning eksperimentda ishtirok etish faktini shunday o‘zgaruvchanlik deb hisobladi: sodir bo‘layotgan voqeaning muhimligini anglash, ularning biron bir voqeada ishtirok etishi, o‘zlariga e’tibor. ob'ektiv yaxshilanishlar bo‘lmagan hollarda ham ishlab chiqarish jarayoniga kengroq qo‘shilish va mehnat unumdorligini oshirishga olib keldi. Mayo buni o‘ziga xos xushmuomalalik tuyg'usining namoyon bo‘lishi - o‘zini biron bir guruhga "mansub" deb his qilish zarurati sifatida izohladi. Sharhning ikkinchi yo‘nalishi - ishlab chiqarish jarayonida ayol ishchilarning ehtiyojlariga, ularning shaxsiy "taqdiriga" e'tibor berilishi bilanoq paydo bo‘lgan mehnat jamoalari ichida maxsus norasmiy munosabatlarning mavjudligi g'oyasi. Mayo jamoalarda nafaqat rasmiy tuzilma bilan bir qatorda norasmiy tuzilma ham mavjud, balki uning ahamiyati, xususan, jamoa manfaatlari yo‘lida undan jamoaga ta’sir etuvchi omil sifatida foydalanish imkoniyati haqida ham xulosa qildi. kompaniya. Keyinchalik, Xotorn tajribasida olingan tavsiyalar asosida rasmiy boshqaruv dasturiga aylangan va hozirda barcha biznes maktablarida akademik intizom sifatida o‘qitiladigan maxsus "inson munosabatlari" doktrinasi paydo bo‘lganligi tasodif emas.

Mayo kashfiyotlarining nazariy ahamiyatiga kelsak, u yangi faktni - ikkita turdagi tuzilmalarning kichik guruhida mavjudligini olishdan iborat bo‘lib, tadqiqot uchun keng istiqbolni ochdi. Hawthorne tajribalaridan so‘ng, kichik guruhlarni o‘rganishning butun yo‘nalishi paydo bo‘ldi, birinchi navbatda, guruh tuzilmalarining har ikki turini tahlil qilish, ularning har birining guruhni boshqarish tizimidagi nisbiy ahamiyatini aniqlash bilan bog'liq.

Ushbu tadqiqotni tasvirlashda ayollar maxsus sinov xonasida ishlashdan xursand bo‘lishlari ta'kidlanadi. Aslida, dastlab tanlangan besh terimchidan ikkitasi talablarni bajarishdan bosh tortgani va yomon ishlashi uchun xonadan olib tashlanishi kerak edi. Ular bitta kollektor haqida u " bolsheviklarga qo‘shilgan " deb aytishdi va u ham eksperimentdan chetlashtirildi. Ikki yangi ayoldan biri ajoyib qobiliyatga ega edi va tezda guruh rahbari bo‘ldi. Ko‘rinishidan, u eng tezkor estafeta yig'uvchisi bo‘lgani uchun guruhga tanlangan. Uning ishtiroki mehnat unumdorligini oshirishga katta ta'sir ko‘rsatdi.

Bundan tashqari, ayollar og'ir ish sharoitlaridan g'azablanganlari, lekin shikoyat qilishdan qo‘rqishganlari aniq, aks holda ular sinov xonasidan chetlatilishi va mukofotlarini yo‘qotishi mumkin.

Ehtimol, Hawthorne tajribalarida mehnat unumdorligining oshishiga natijalarni hisobga olish va yuqori mahsuldorlikni mukofotlash sabab bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *J. Gudvin.* Psixologiyada tadqiqotlar: usullar va rejalashtirish. - Sankt-Peterburg.:Piter, 2004. - 232-233-betlar. - ("Psixologiya ustalari" seriyasi).

2. G. Adair (1984) "Hawthorne effekti: uslubiy artefaktni qayta ko‘rib chiqish "*Journal of Appl. Psixologiya* **69** (2), 334–345 [Psixologik metodologiya adabiyotida Xotornga havolalarni ko‘rib chiqish.]

3. Clark, R. E. & Sugrue, B. M. (1991) G. J. Anglinda (ed.) "O‘quv vositalari bo‘yicha tadqiqotlar, 1978-1988 "*Ta'lim texnologiyasi: o‘tmish, hozirgi va kelajak,* 30-b., pp. 327-343. Cheksiz kutubxonalar: Englewood, Kolorado.

4. Gillespie, Richard, (1991) *Ishlab chiqarish bilimlari: Hawthorne tajribalari tarixi.* Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti.

5. Jastrow (1900) *Psixologiyadagi fakt va afsona.* Boston: Xoughton Mifflin.

6. Jons, Stiven R. G. (1992) "Hawthorne effekti bormi?" Amerika sotsiologiya jurnali, jild. 98, №. 3 (noyabr, 1992), bet. 451-468.

7. Genri A. Landsberger, *Hawthorne qayta ko‘rib chiqildi*, Itaka, 1958 yil.

8. Marsh, H. W. (1987) "Universitet o‘qitishni talabalarning baholashlari: tadqiqot natijalari, uslubiy muammolar va kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar "*Int. Ta'lim tadqiqotlari jurnali* **11** (3) pp. 253-388.

9. Elton Mayo, Gael, *aqldan ozgan mozaika: hayot hikoyasi.* Kvartet, London, 1984 yil.

10. Orne, M. T. (1973) P. Pliner, L. Krames va T. Allouey (Eds.) "To‘liq eksperimental vaziyat bo‘yicha aloqa: Nima uchun muhim, u qanday baholanadi va topilmalarning ekologik asosliligi uchun ahamiyati. *Muloqot va ta'sir* pp. 157-191. Nyu-York: Akademik matbuot.

11. H. M. Parsons (1974) "Hotornda nima bo‘ldi?"*Science* 183, 922–932 [Ba'zi tajribalarning batafsil tavsifi, qulayroq manbada; Bu ta'sir fikr-mulohazalarga asoslangan o‘rganish bilan bog'liqligini ta'kidlash uchun ishlatilgan.]

12. Frits J. Roethlisberger va Dikson, W. J. (1939) *Menejment va ishchi.* Kembrij, Mass.: Garvard universiteti nashriyoti.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA JAMIYATDAGI IJTIMOIY TA’SIRI

Tojiboyeva Sayyora Shukur qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya

Ushbu maqolada sog‘lom turmush tarzi asoslari, uning mazmuni, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati, uning tarkibiy qismlari, jismoniy madaniyat, sport, sayohat va xalq o‘yinlariga bag‘ishlangan. Jismoniy madaniyatning asosini tashkil etuvchi faol harakatlar, jismoniy tarbiya va sport, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, kun tartibi, shaxsiy gigeniya, atrof-muhit, chiniqtirish omillari, jismoniy kamolot, sog‘lom turmush tarzi xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya va sport, ommaviy sport, organism, funksional, imkoniyatlar, sog‘lom va barkamol avlod, faol harakat, jismoniy bilim, jismoniy sifatlar, jismoniy qobilyat.

Kirish. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, “Sog‘lom xalq, sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi.” Shu boisdan Prezidentimiz rahnamolgida yosh avlodning har tomonlama barkamol barkamol bo‘lib yetishish uchun barcha sharoitlar

yaratilmoqda.O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda barkamol avlodni tarbiyalash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi esa jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishga bevosita bog‘liqdir. Jamiyat hayotida inson salomatligini ta’minlash tabiiy atrof-muhit holati bilan bir qatorda, ijtimoiy hayot, inson tarbiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayondir.Sog‘lom turmush tarzi fiziologik va ruhiy jarayonlarning normal borishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadi, bu turli kasalliklarning ehtimolini kamaytiradi va insoning umr ko‘rish davomiyligini oshiradi.Sog‘lom turmush tarzi bizning maqsad va vazifalarimizni amalga oshirishga, rejalarimizni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

Sog‘lom turmush tarzi- faol mehnat qiladigan, mehnatga ijodkorlik asosida yondashadigan, kuchli jismoniy va ruhiy bosimlarni, o‘ta xavfli va zararli ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni yengil tarzda bartaraf etadigan, har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning shakllanish jarayonidan iborat bo‘lib, O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan fuqarolarning tafakkuri, sog‘lomligi ularning mulkka, ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan qarashlarida ham ijobiy natijalariga olib keladi. Yangilanayotgan O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish fuqarolarning dunyoviy bilimlar asosida dunyoqarashining shakllanishi, diniy qadriyatlar asosida axloqiy, ma’naviy tarbiyasi asosida amalga oshirilmoqda. Falsafiy adabiyotlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalasiga keying paytlarda katta e’tibor berilib, sog‘lom sog‘lom turmush tarzining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, ruhiy-psixologik, tibbiy-gigiyenik, shaxsga tegishli bo‘lgan motivatsion tomonlari tadqiq etilmoqda. Sog‘lom turmush tarzining metodologik muammolari, ijtimoiy-iqtisodiy mezonlari, aholi turmush madaniyatiga, diniy va dunyoviy qadriyatlarga tegishli jihatlari bugungi kunda ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganilishi zarur bo‘lgan sohalardir.

Sog‘lom turmush tarzi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonida odamlar o‘rtasidagi sog‘lom munosabatlar va namunaviy hulqning shakllantirish jarayonini tartibga soladi hamda tezlashtiradi. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiya omili ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, motivatsiya shaxsning ma’lum bir faoliyatni bajarishga kirishishi, harakatga keltirishi, uning muhimligini asoslashi va anglatishini o‘zida ifodalaydi. Sog‘lom turmush tarzi mafkurasi, R.U.Arziqulovning fikricha, turmush tarzining falsafasini, davlatning sog‘lom turmush tarzini shakllanishi bo‘yicha yuritayotgan siyosatini, sog‘lom turmush tarzining huquqiy, axloqiy asoslarini, sog‘lom turmush tarzining pedagogikasi, psixologiyasi, sotsiologik madaniyati, etikasi va estetikasini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim. Axloqiy yetuklik kishida iymon-e’tiqod va amalni kuchaytiradi. Insonlik sharafini ko‘taradi.Bu jarayon ongli hayot kechirish bo‘lib, baxt-saodatga yetaklaydi. Sog‘lom turmush tarzini qaror topishiga, jamiyatni insonparvarlashtirish va sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. R. Matibayevaning fikricha, bolalarni tarbiyalash ishida eng muhim sharoit-oilaning mustahkam, ma’naviy sog‘lom asosga qurilganligi. Demakki, sog‘lom oilada sog‘lom farzandlar, Vatanimizning munosib farzandlari, ya’ni ijodiy fikrlaydigan, mustaqil xulosalar chiqaradigan, kelajakda qaysi bir soha mutaxassisi bo‘lishidan qat’iy nazar, O‘zbekiston mustaqilligining istiqboliga munosib hissa qo‘sha oladigan barkamol avlod bo‘lib yetishadi.

Xulosa. Sog‘lom turmush tarzi murakkab ijtimoiy jarayonlarni o‘zida ifodalaydi va sog‘lom turmush tarzining mezonlariga shaxsning jamoatchilik va mehnat jarayonlarida faollik ko‘rsatib, samarali ijodiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishi, oilada va kundalik turmushda namunali yashashi, o‘zida jismoniy va ma’naviy qobilyatlarni ro‘yobga chiqarishga intilishi, tabbiy va ijtimoiy muhit bilan mutanosiblikda yashashi, sog‘lom va barkamol inson bo‘lib shakllanish uchun o‘z shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga intilishi, nosog‘lom turmush tarziga xos zararli odatlarning ta’siriga tushib qolishdan o‘zini asrashga intilib yashashi, hayotda to‘ri yashayotganidan qoniqish hosil qilib, zavqlanib yashashga intilishi,sog‘lom turmush tarzini o‘zi uchun bir umrga maqsad qilib tanlashi va shu yo‘lda faoliyat olib borishi kabi qimmatli insiniy sifat va xususiyatlarni kiritish mumkin.

Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh ovlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga moss shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarga o‘z irodasi, kuchli va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli shakllantirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish ularni salomatligini asrab avaylash, mustahkamlash maqsadida ommaviy sport turlariga jalb etish va aholi salomatligini mustahkamlash borasida ijtimoiy muhitga ommaviy sportni jalb etish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Sog‘lom turmush tarzi va tibbiy madaniyat va sport uyg‘unligi borasida yosh avlodga tushunchalar berib, ongiga sindirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi (1-jild).Toshkent. «NAVRO‘Z» nashriyoti, 2017.
2. D.J.Sharipova, G.S. Fuzailova, M. Turkmenova, D. Zufarova.Talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish. Farg‘ona. 2010
3. Sh.Xonkeldiyev, A.Abdullayev, Yu. M.Kasach, A.T. Xasanov, M.M. Yuldashev. Sog‘lom turmush tarzining jismoniy madaniyati. Farg‘ona. 2010.

SOHAVIY RIVOJLANISHDA SOTSIAL INFRATUZILMANING AHAMIYATI

Amanqulova Shaxrizoda Sanjarovna
Asqarova Maloxat
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sotsial infratuzilmaning zamonaviy muammolari va uning jamiyat rivojiga ta'siri tahlil qilinadi. Sotsial infratuzilma, shu jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, kommunal xizmatlar va ijtimoiy yordam tizimlari, davlat va jamiyatning farovonligini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda ushbu sohalarda yuzaga

kelayotgan asosiy muammolar, asosan, iqtisodiy resurslar yetishmovchiligi, texnologik yangilanishlar va ijtimoiy tengsizlik bilan bog'liq. Maqolada, shuningdek, sotsial infratuzilmaning rivojlanishi va samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan strategiyalar va chora-tadbirlar hamda davlatning roli haqida fikrlar keltirilgan. Muammo va yechimlarni ko‘rib chiqish, mamlakatlarning turli mintaqalaridagi amaliy tajribalar va global tendensiyalarni tahlil qilish orqali, maqola sotsial infratuzilmaning jamiyatdagi muhim o‘rnini yanada yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: Sotsial infratuzilma, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, turizm, ijtimoiy tenglik

Sotsial infratuzilma jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydigan asosiy elementlardan biridir. Bu sohaga doir ilmiy adabiyotlar tahlili, infratuzilmaning ahamiyatini, uning zamonaviy muammolarini va yechimlarini o‘rganishda katta rol o‘ynaydi. Quyida bu mavzu bo‘yicha ba’ zi muhim adabiyotlar tahlil qilinadi.

Sotsial infratuzilmaning ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, energetika va boshqa asosiy xizmatlar sohalaridagi ahamiyati keng yoritilgan. Barro (1990) va Aschauer (1989) o‘zlarining iqtisodiy tahlillarida infratuzilma rivojlanishining iqtisodiy o‘sishga ta'sirini ko‘rsatdilar. Ular sotsial infratuzilmaning yaxshilanishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishi va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashi mumkinligini ta’kidlashadi. Bundan tashqari, Sachs (2005) va Stiglitz (2007) kabi mualliflar, global miqyosda infratuzilma resurslarining etishmasligi va ijtimoiy rivojlanishdagi rolini o‘rgandilar. Ular rivojlanayotgan mamlakatlarda sotsial infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligini va bu holatning iqtisodiy tengsizlikka olib kelishini ko‘rsatdilar.

Zamonaviy sotsial infratuzilma ko‘plab muammolar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Piketty (2014) o‘zining asarida iqtisodiy tengsizlik va ijtimoiy xizmatlarning yetishmasligi muammolarini ko‘rsatadi. Uning fikriga ko‘ra, infratuzilma tizimlaridagi tarmoq yo‘qligi yoki ularda raqobatning pastligi ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytiradi. Turok (2004) esa urbanizatsiya jarayonlari va ekologik muammolarni o‘rganib, sotsial infratuzilmaning barqarorligi va ekologik jihatlarini o‘rganadi. Ularning ishlari shuni ko‘rsatadiki, texnologiyalarning rivojlanishi va raqamli transformatsiya sotsial infratuzilmaning samaradorligini oshirishi mumkin, lekin bu jarayonlar ham o‘z-o‘zidan yangi ekologik xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi.

Sotsial infratuzilmaning zamonaviy rivojlanishida raqamli texnologiyalar muhim rol o‘ynay boshladi. Brynjolfsson va McAfee (2014) ning "Raqamli iqtisodiyot" nomli asarida texnologik yangiliklarning sotsial infratuzilma xizmatlariga, ayniqsa ta’lim, sog‘liqni saqlash va transport sohalariga ta’siri tahlil qilinadi. Yangi raqamli infratuzilma, masalan, tibbiyotdagi telemeditsina yoki ta’limdagi onlayn kurslar, muhim xizmatlarni tez va samarali taqdim etishda yordam beradi, lekin shu bilan birga axborot xavfsizligi, ma’lumotlar maxfiyligi kabi yangi muammolarni keltirib chiqaradi.

Muhokama va natijalar**.** Sotsial infratuzilmaning zamonaviy muammolari, shuningdek, uning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlari haqida adabiyotlar ko‘plab turli yo‘nalishlar va metodologiyalardan foydalanadi. Ushbu soha bo‘yicha tadqiqotlar orqali samarasiz infratuzilma tizimlarini yaxshilash, ularni barqarorlashtirish va raqamli texnologiyalar yordamida innovatsiyalarni qo‘llashga yo‘naltirilgan yechimlar ishlab chiqilishi mumkin. Metodologik yondashuvlarning xilma-xilligi va ularning turli

sohalardagi amaliy qo‘llanilishi sotsial infratuzilma tizimlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.Sotsial infratuzilma jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy sotsial infratuzilmaning asosiy muammolari ekologik o‘zgarishlar, iqtisodiy tengsizlik, urbanizatsiya va texnologik inqilob bilan bog‘liqdir. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, bu muammolar infratuzilmaning samaradorligi va barqarorligini ta’sir qiladi. Piketty (2014) tomonidan ko‘rsatilgan iqtisodiy tengsizlik, sotsial infratuzilma tizimlarida resurslar taqsimotidagi adolatsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma tizimlarining yetishmasligi, asosan ta’lim, sog‘liqni saqlash va transport kabi sohalarda, jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, ekologik barqarorlik va toza energiya manbalarining kengaytirilishi, global miqyosda sotsial infratuzilma tizimlarining barqarorligini saqlash uchun muhim yo‘nalishdir. UNDP (2015) ning "Barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida ta’kidlanganidek, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun energiya samaradorligini oshirish va ijtimoiy adolatni ta’minlovchi infratuzilma tashabbuslari kerak.

Sotsial infratuzilmaning zamonaviy muammolarini hal qilishda bir qator muhim masalalar mavjud. Birinchidan, sotsial infratuzilmaning barqaror rivojlanishi va samarali ishlashi uchun iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarni uyg‘unlashtirish zarur. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi infratuzilma muammolarini hal qilish, global iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, texnologik yangiliklar, ayniqsa raqamli infratuzilma, sotsial xizmatlarni tezkor va samarali taqdim etishga imkon yaratadi, ammo bu yangi muammolarni, masalan, axborot xavfsizligi va ma’lumotlar maxfiyligi bilan bog‘liq muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shuningdek, sotsial infratuzilma tizimlarining ekologik barqarorligini ta’minlash uchun energiya samaradorligi va ekologik jihatlarni hisobga olish zarur.

